O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI

AXBOROT - KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA ALOQA HARBIY INSTITUTI

RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY KONFERENSIYASI

KIBERMAKONDA SALBIY AXBOROT XURUJLARIGA QARSHI KURASHNING – PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK MUAMMOLARI

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ БОРЬБЫ С НЕГАТИВНЫМИ ИНФОРМАЦИОННЫМИ АТАКАМИ В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL PROBLEMS OF COMBATTING NEGATIVE INFORMATION ATTACKS IN CYBERSPACE

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi

RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY KONFERENSIYASI

Toshkent viloyati
2025 yil
14-mart

UO’K
№ 159.99:
159.91-99

Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasining tashkiliy qo‘mitasi

T A R K I B I

Qarshiyev Xamdam Aliqulovich – Mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari.

Saidov Aybek Azadovich – Mudofaa vazirligi Sharqiy harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondoni, general-mayor, f.f.n. PhD.

Xalilov Xasan Ablaqulovich – Mudofaa vazirligi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi boshlig‘i, polkovnik.

Miryusupov Mirsaid Mirolimovich - Mudofaa vazirligi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i.

Raximov Baxtiyor Ne’matovich – Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti boshlig‘i, podpolkovnik, podpolkovnik, texnika fanlari doktori, professor.

Shermatov Fayzullo Toshtillaevich – Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti boshlig‘ining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, podpolkovnik, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.

Qodirov Botir Raxmonkulovich – Moskva davlat universitetining Toshkent filiali professori, psixologiya fanlari doktori, professor.

Umarov Baxriddin Mingboevich – Toshkent Davlat Pedagogika universiteti “Umumiy Psixologiya” kafedrasi professori, psixologiya fanlari doktori, professor.

Ravshanov Lochinbek Urinovich – O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy okrug huzuridagi “Ilmiy tadqiqot” ilmiy-amaliy va uslubiy markaz boshlig‘i, podpolkovnik, psixologiya fanlari doktori (PhD), dotsent.

To‘ychiyeva Saodat Meliqo‘ziyevna - Toshkent amaliy fanlar unversiteti,pedogogika va psixologiya fakulteti Psixologiya kafedrasi boshlig‘i, Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Mamaraufov Olimjon Abduhamitovich- Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti “Taktika, umumqo‘shin tayyorgarlik va Gumanitar fanlar” kafedrasi boshlig‘i, dotsent

Saydjanov Farxod Madraximovich – Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti, “Taktika, umumqo‘shin tayyorgarlik va Gumanitarfanlar” kafedrasi, Gumanitar fanlar sikli boshlig‘i, podpolkovnik, mustaqil ilmiy izlanuvchi.

Beknazarov Axmat Asamiddinovich – Toshkent gumanitar fanlar universiteti professori, psixologiya fanlari nomzodi.

Qoraboyev Avazbek Isomiddinovich – Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti, “Taktika, umumqo‘shin tayyorgarlik va Gumanitarfanlar” kafedrasi, Gumanitar fanlar sikli o‘qituvchisi, mustaqil ilmiy izlanuvchi.

Temirov Sirojiddin Shoymardon o‘g‘li – Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti, “Taktika, umumqo‘shin tayyorgarlik va Gumanitarfanlar” kafedrasi, Gumanitar fanlar sikli xorijiy tillar o‘qituvchisi, mustaqil ilmiy izlanuvchi.

MUNDARIJA:

1.	***Raximov. B.N.*** *Kirish*	***9***
2.	***Qarshiyev X. A.*** *Yuksak jangovar ruh - askarning yengilmas kuchi, qo'shinning qudratidir!*	***10-12***
3.	***Xalilov X.A.*** *Jangovar tayyorgarlik jarayoniga real jangovar vaziyatlar yaqinlashtirilgan ruhiy ta'sir elementlarini kiritish tamoyili va uning xususiyatlar.*	***13-19***
4.	***Saidov A. A.*** *Harbiy boshqaruvda kompetentlikning ijtimoiy-psixologik asoslari.*	***19-25***
5.	***Ortiqov A.Q.*** *Bo'lajak ofitserlarda kasbiy-irodaviy sifatlar shakllanishiga ta'sir etuvchi dyestruktiv axborotlarning o'rni.*	***26-33***
6.	***Miryusupov M. M.*** *Bo'lajak ofitserlarni kibermakondagi axborot xurujiga qarshi kurashish uchun tayyorlash usullari.*	***34-36***
7.	***Davlatov O'.R.*** *Kibermakonda shaxsiy tarkibni munosib tayyorlash.*	***37-39***
8.	***Shermatov F. T.*** *Kiberxavfsizlikni ta'minlashda qo'shinning ma'naviy ma'rifiy tayyorgarligining o'rni.*	***40-44***
9.	***Mamaraufov O. A.*** *Kibermakonda salbiy axborot xurujlariga qarshi kurashda bo'linma kommandirlarining roli.*	***45-49***
10.	***Beknazarov A.A.*** *Harbiy xizmatchilar kasbiy sifatlarining o'ziga xos kamchiliklari.*	***49-56***
11.	***Shermatov F.T., Ortiqov A.Q.*** *Harbiy kadrlarni tayyorlashda jangovar tayyorgarlik jarayonida psixologik ishlarni qo'llashning dolzarbligi.*	***57-62***
12.	***Saydjanov F.M.*** *Kibermakonda axborot xurujlariga qarshi kurashish: ilmiy-amaliy tahlil.*	***62-65***
13.	***Sotvoldiyev I. I., Idiyev E.I.*** *Harbiy pedagogikaning taraqqiyot bosqichlari to'g'risida ilmiy-nazariy qarashlar evolyutsiyasi.*	***65-68***
14.	***Nurmetov B.S., Xushnudov S.SH., Sultonov M.M., Qurbonov N.U.*** *Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar vositasida salbiy axborot ta'sirini kamaytirish usullari.*	***68-72***
15.	***Saydjanov F.M.*** *Kibermakonda axborot xurujlariga qarshi kurashish: strategiyalar va vositalar*	***73-75***
16.	***Hamidov R.*** *U. Jismoniy tayyorgarlikda hissiy-irodaviy barqarorlikning o'rni*	***75-80***
17.	***Ibragimov R. R.*** *Ta'lim jarayonida bo'lajak ofitserlarni o'quv tarbiyaviy ishlarni innovatsion metodlardan foydalanishda o'qituvchining roli hamda ta'lim sifati.*	***80-84***
18.	***Вагнер А.Я., Мухитдинов Ш.Т.*** *Современные технологии в методике преподавания военных дисциплин.*	***84-87***
19.	***Temirov S. Sh.*** *Ingliz tilini o'qitish jarayonida pedagogik va psixologik muammolar.*	***88-92***

20.	***Matyakubova Sh. O.*** *Ma'lumotlarni idrok etishda salbiy va ijobiy axborotlarning o'smir ongiga ta'siri.*	***93-95***
21.	***Shermatova N.S.*** *Kibermakonda salbiy axborot xurujlariga qarshi kurashning- psixologik va pedagogik muammolari.*	***96-99***
22.	***Mamatkulov D.M.*** *Harbiy sohada axborot xavfsizligini ta'minlashning tashkiliy-psixologik muammolari.*	***98-103***
23.	***Allayarov D.U.*** *Jahondagi geosiyosiy o'zgarishlarning yoshlar mafkurasiga va tafakkuriga ta'siri.*	***103-107***
24.	***Izzatullayev A.R., Alimjonova S.Y.*** *Shug`ullanuvchilarning psixofiziologik holatini aniqlash va temperament ko`rsatkichlaridan kelib chiqib mashg`ulot yuklamalarini taqsimlash.*	***107-111***
25.	***Allayarov D.U.*** *Yoshlarning ijtimoiy va siyosiy faolligi.*	***111-114***
26.	***Avlaqulov B.R.*** *Psixologik kompetentlikning pedagogik-psixologik omillari.*	***115-116***
27.	***Meliqo'ziyev R. Sh. Meliqo'ziyev M. Sh.*** *Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot xavfsizligini rivojlantirishning dolzarbligi.*	***117-119***
28.	***Jumaniyazov D.D.*** *Ijtimoiy tarmoq va messenjerlar orqali jamoatchilikni ijtimoiy-siyosiy axborotlardan xabardor qilishga doir davlat siyosati.*	***120-122***
29.	***Karimov J. A.*** *Talaba yoshlardagi liderlik xususiyatlarini kibernimoyalashda foydalanish.*	***123-125***
30.	***Xamzayeva M. N.*** *Axborot xavfsizligi insidentlarini nazorat etuvchi vositalarning tahlili.*	***125-128***
31.	***Tulyaganova D. R.,Botirova Z.X.*** *Kibermakonda bolalar salbiy axborotning psixologik ta'siri yuzaga keltiruvchi omillar va uni oldini olish aspektlari.*	***128-131***
32.	***Isxoqov A.X., Meliqo'ziyev R. Sh., Otaqo'ziyeva Z., Meliqo'ziyev M. Sh.*** *Korxonalarning inventarizatsiya tizimlarida foydalaniluvchi kiberxavfsizlik vositalarining ahamiyati.*	***132-134***
33.	***Mansurov S. M., Yakubov J. N.*** *Kibermakonda salbiy axborot xurijlaridan himoyalanishda psixologik tafakurni shakllantirishning ahamiyati.*	***134-137***
34.	***Alimova F. N.*** *Boshqaruv jarayonida rahbarlik samaradorligini oshirishning zamonaviy psixologik tendensiyalari.*	***137-139***
35.	***Mirsidikova A. M. Raupova O.M.*** *Oliy ta'limda boshqaruv jarayonlarida rahbarlik qobiliyatini rivojlantirish.*	***139-142***
36.	***Tillayeva N. I.*** *Virtual o'yinlarning yoshlarning ongiga psixologik ta'siri.*	***142-145***
37.	***Ochildiyeva X. G'., Meliqo'ziyev R. Sh., Beknazarov A. A.,Meliqo'ziyev M.*** *Tasvirli ma'lumotlarga o'zgartirishlar kiritilganini aniqlash usullari va dasturiy vositalari tahlili.*	***145-152***
38.	***Nuriddinova M., Tillayeva N. I.*** *Xayol (fantaziya)ning o'ziga xos xususiyatlari.*	***152-156***
39.	***Mirashirova N.A.*** *Kibermakonda salbiy axborotlardan himoyalanishda*	***156-158***

	tanqidiy tafakkurning o‘rni.	
40.	***Aksakalova N. O., Sayfullayeva S. S.*** *Muloqot haqida umumiy psixologik tushuncha.*	***159-162***
41.	***Saribayeva U.S.*** *Gender stereotiplar va ularni namoyon bo‘lishining ijtimoiy- psixologik xususiyatlarini.*	***162-165***
42.	***Saydazimov A. N.*** *Voyaga yetmaganlarning kibermakonda salbiy axborot xurujlariga tushishining psixologik muammolari va uni oldini olish.*	***165-168***
43.	***Xusanbayeva Z.M.*** *Adaptiv intellekt va psixologik chidamlilik.*	***168-170***
44.	***Yo‘ldoshev J.A., Sayfiyeva S.O.*** *Yuqori sinf o‘quvchilarida liderlikning psixologik xususiyatlari.*	***170-174***
45.	***Artikova N. Sh.*** *Maktabgacha yoshdagi bolalani salbiy axborot xurujlaridan himoyalashda tarbiyachi-pedagoglar o‘rni.*	***174-176***
46.	***Yo‘ldoshev J.A*** *Xorijiy olimlarining motivatsiya muammolarini o‘rganishga bo‘lgan yondashuvlari.*	***176-180***
47.	***Kodirkulov A. S.*** *Контрпродуктивное поведение сотрудников органов внутренних дел в киберпространстве.*	***180-182***
48.	***Alimuxamedova*** *D. Kibermakonda salbiy axborot xurujlariga qarshi kurashning psixologik muammolari.*	***182-185***
49.	***Qoraboyev A.I*** *Yaqin sharqdagi harbiy-siyosiy vaziyatning Markaziy Osiyo xavfsizligiga salbiy ta’siri va ularni bartaraf etish yo‘llari. (Yaqin sharq misolida)*	***185-192***
50.	***Tursunova N.T.*** *Bolalar nutqini rivojlantirish va shakllantirish.*	***192-196***
51.	***Qoraboyev A.I*** *Yaqin sharqda harbiy-siyosiy vaziyat rivojlanishining o‘ziga xosligi. (Yaqin sharq misolida)*	***196-202***
52.	***Saydjanov F.M.*** *Feyk ma’lumotlarni aniqlash: Zamon treningi.*	***202-205***
53.	***Tuychiyeva S.M.*** *Feyk ma’lumotlarni aniqlash: Qanday qilib haqiqatni yolg‘ondan ajratish kerak?*	***205-207***
54.	***Xolmurodov D N.*** *Zamonaviy konfliktlarda sun’iy intellekt texnologiyalarining tutgan o‘rni. (AQSH misolida)*	***208-218***
55.	***Kabiljanov B.R., Gayratov J.U.*** *Telegramda diniy-ekstremistik kontentni tarqalishiga qarshi kurashishda saudiya arabistoni tajribasi.*	***218-222***
56.	***Baxadirov M.M.*** *Информационные войны и их влияние на массовое сознание.*	***222-225***
57.	***Razzoqov H.A.*** *Axborot-psixologik xurujlarni amalga oshirishning ayrim texnologiyalari (feyk ma’lumotlar misolida)*	***226-229***
58.	***Tuxtamatov X. R.*** *Axborot-psixologik xurujlarni amalga oshirish usullari va ularga qarshi kurashish.*	***230-233***
59.	***Nazarov A.X.*** *Kibermakonda axborot-psixologik ta’sir texnologiyalari.*	***233-237***
60.	***Aksakalova N. O.,Umarova.S.K.*** *O‘smirlarda stressogen vaziyatga reaksiya*	***237-239***

	bildirishning psixologik jihatlari.	
61.	***Axmedov Sh. A.*** *Xorijiy nutqni IPT orqali o‘zlashtirilishining ontogenetik prinsiplari.*	***240-242***
62.	***Izzatullayev A.R., Alimjonova S.Y.*** *Sportchilarda mashg`ulot jarayonida yuklamalarni miyyoridan ortishi sababli yuzaga keladigan salbiy o`zgarishlar.*	***243-246***
63.	***Sobirov Y.E.*** *O‘quvchilarda xavotirlanish hissi yuzaga kelishining qo‘rquv holati bilan bog‘liqligi.*	***247-249***
64.	***Izzatullayev A.R., Alimjonova S.Y.*** *Sportchilarda stress va haddan ortiq toliqish holatlarini oldini olish metodlari.*	***250-253***
65.	***Idiyev E.I., Sotvoldiyev I. I.,*** *Bo‘lajak ofitser kadrlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qahramonlarimizning o‘rni.*	***253-256***
66.	***Турабекова.Ш.Д., Шакирова.Ш.Т.*** *Самопониманиии студентов в значение психологических знаний.*	***256-260***
67.	***Mavlyanova S.S.*** *Nutq muomala takomillashuvining ichki mexanizmining psixologik tavsifi.*	***260-266***
68.	***Tulyaganova D.R.*** *Salbiy axborotlarning bolaning agressiv xulq atvoriga ta’siri.*	***266-270***
69.	***Temirov.S.Sh.****The importance of preventing negative information attacks*	***270-276***
70.	***Abdukarimov M.M.*** *Psixologik adaptatsiya: xodimlar samaradorligini oshirishning psixologik imkoniyatlari.*	***276-283***
71.	***Mavlyanova S.S.*** *Shaxs mustaqilligi shakklanishida ota –ona tarbiya uslubining ahamiyati.*	***283-286***
72.	***Ganjakov S.X., Madaminov R.M*** *Jismoniy tayyorgarlikni oshirishda psixologik muammolar.*	***287-291***
73.	***Maxamadjonova K. O., Qurbanova S. T.*** *Shaxslararo munosabatlarda nizolarning yuzaga kelishi.*	***291-295***
74.	***Miryusupov M.M.*** *Harbiy xizmatchilar faoliyatida boshqaruv uslublarining ahamiyati.*	***295-298***
75.	***Mavlyanova S.S., Anvarov Sh.*** *“Diqqat”.*	***299-302***
76.	***Tulyaganova D.R.*** *Maktabgacha yosh davrida bola taraqqiyotining psixologik muommolari.*	***302-305***
77.	***Ermekova I.E., Mavlonova S.S.*** *“Psixologiyada ilmiy tadqiqotlarning metodologik asoslari”.*	***306-315***
78.	***Iskandarova D.*** *“Ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi nizolar”.*	***315-318***
79.	***Jovliyeva S. I.*** *Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayoning rivojlanish.*	***319-322***
80.	***Mamasoliyeva M.M.*** *Psixadignostika metodlarni klassifikatsiyasi.*	***322-327***
81.	***Rahimova G.*** *Oila muhitining shaxs shakllanishiga ta`siri.*	***327-331***

82.	***Salimova M. I.*** *Notiqlik orqali insonlarni boshqarish.*	***331-335***
83.	***Tog'aymurodava Sh.*** *"O'quvchilarning xotirasi va mimik faoliyat diagnostikasi"*	***335-338***
84.	***Djumabayeva M.*** *Yoshlar ta'lim-tarbiyasida axborot xavfsizligini ta'minlashning psixologik omillari.*	***339-341***
85.	***Saydjanova K.D.*** *Harorat xususiyatining leksiko semantik tahlili.*	***341-347***
86.	***Saydjanova K.D****. Xorijiy tilda leksiko-sinonimik mezonlar****.***	***347-352***
87.	***Primova M.M.*** *O'qituvchi pedagogik faoliyatida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish.*	***353-358***
88.	***Primova M.M.*** *Mafkuraviy targ'ibot va uning o'ziga xos jihatlari.*	***359-371***

Izoh: konferensiya to'plamiga kiritilgan maqolalarning xato-kamchiliklarini, mualliflik huquqlaridagi muammolarini maqola topshirgan mualliflar zimmasiga yuklatiladi!

KIRISH

Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi va internetning keng tarqalishi bilan birga, kibermakonda salbiy axborot xurujlari ham tobora kengayib bormoqda. Bu xurujlar nafaqat shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash yoki axborot tizimlarini buzish, balki insonlarning psixologik holatini manipulyatsiya qilish, fikrini o'zgartirish va ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatish kabi jiddiy xavf-xatarlarni ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, yoshlar orasida axborot xurujlarining ta'siri yanada kuchayib, ularning ongini shakllantirish va ijtimoiy psixologik rivojlanishiga salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin. Bunday xavflarga qarshi kurashish, kiberxavfsizlikni ta'minlashda psixologik va pedagogik yondoshuvlarning muhimligini taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining 2020-yil 28-avgustdagi "Axborot xavfsizligi va internetda xavfsiz ishlashni ta'minlash" nomli nutqida, mamlakatda axborot xavfsizligini mustahkamlash va kiberhujumlarga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni alohida ta'kidladi. Prezidentning so‘zlariga ko‘ra, “Yoshlarning internetda faoliyatini nazorat qilish va ularni salbiy axborot xurujlaridan himoya qilish uchun kompleks tizimni joriy etish kerak. Ularni zarur axborot ko'nikmalariga ega bo'lishini ta'minlash, internetdan foydalanish madaniyatini o‘rgatish muhimdir”. Shuningdek, mamlakatda kiberxavfsizlikni ta'minlash, yoshlarni axborot texnologiyalariga oid savodxonlikni oshirish va axborot manipulyatsiyalariga qarshi kurashish borasida qator yirik tashabbuslar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonning Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Kiberxavfsizlik markazi va boshqa tegishli tashkilotlar bu sohada muhim ishlarni amalga oshirib kelmoqda. 2019-yilda mamlakatda “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, bu orqali kiberhujumlarga qarshi kurashning huquqiy asoslari mustahkamlandi. Bundan tashqari, yoshlarni axborot xavfsizligi va kiberhujumlardan himoya qilish bo‘yicha turli ma'rifat va ta'lim dasturlari ishlab chiqilmoqda.

Bugungi konferensiyada, kibermakon va salbiy axborot xurujlari, ayniqsa yoshlarning psixologik holatiga ta'siri, shuningdek, axborot xavfsizligi masalalarini pedagogik va psixologik nuqtai nazardan hal etish uchun zamonaviy yondoshuvlar va metodlar haqida so‘z yuritiladi. Maqsadimiz – mamlakatimizda axborot xavfsizligini mustahkamlash, yoshlarni salbiy axborot ta'sirlaridan himoya qilish va ularni to‘g‘ri axborot ajratish ko‘nikmalariga o‘rgatishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti boshlig‘i t.f.d., professor B.N. Raximov



General mayor QARSHIYEV Xamdam Aliqulovich
Mudofaa vazirining tarbiяviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari

Hozirda axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya vositalarining yuqori sur’atlarda rivojlanishi, jamiyat va davlat hayotida keskin ijobiy o‘zgarishlarning yuz berishiga sabab bo‘lib, insoniyat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqdi. Insoniyat axborot texnologiyalari yordamida, nafaqat, ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va uzatish bilan chegaralanmay, balki jamiyatda iqtisodiy, siyosiy, harbiy va boshqa sohalarni boshqarish, ularga ta’sir etish va istiqbolini belgilash imkoniyatiga ega bo‘lib bormoqda.

Bugungi kunda mintaqalardagi qarama-qarshilik, ziddiyat va nizolar, lokal va gibrid urushlar, xalqaro terrorizm xavf-xatarlari tobora kuchayib borayotgan bugungi kunda, ko‘plab rivojlangan davlatlar armiyalaridagi harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy holati, jangovar shayligi va tayyorgarlikni ta’minlash maqsadida harbiy xizmatchilarni zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnikalar hamda harbiy-professional bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirishga asosiy e’tibor berilmoqda. Harbiy xizmatchilarni o‘quv va jangovar faoliyatda yuzaga keladigan ekstremal vaziyatlarda ularning ruhiy barqarorligini ta’minlash hamda ishonib topshirilgan qurol-aslaha va harbiy texnikalardan samarali foydalanish uchun axloqiy-ruhiy tayyorgarlik o‘ta muhim omil hisoblanadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, shaxsiy tarkibning barqaror axloqiy-ruhiy holatini ta’minlash, salbiy informatsion ta’sirga nisbatan mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, shaxsiy tarkibni o‘z sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lish, tanlagan kasbini chuqur o‘rganish, Vatan ravnaqi va uning mudofaa salohiyatini mustahkamlashga o‘z hissasini qo‘shishga intiluvchanlik va tashabbuskorlikni tarbiyalash, qo‘shinlarda “Yuksak jangovar ruh – askarning yengilmas kuchi, armiyaning qudratidir!” degan konseptual g‘oya asosida axloqiy-ruhiy tayyorgarlik tizimida shaxsiy tarkibning bilimlari va kasbiy mahoratini oshirish, harbiy xizmatchilarning murakkab va ekstremal vaziyatlarga bardoshliligi va axloqiy-ruhiy xislatlarini shakllantirish, milliy g‘urur va ahloqiy-ruhiy xolatni mustahkamlash maqsadida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida inqirozli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan ichki siyosiy barqarorlikka tahdidlar:

davom etayotgan siyosiy va moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar natijasida yuzaga kelgan jiddiy ijtimoiy muammolar;

mintaqaning qator davlatlarida aholini islomlashtirish va radikallashtirish bo‘yicha buzg‘unchi faoliyatning kuchayishi;

mamlakatda jinoiy elementlarning faoliyati va ularni davlatning iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy asoslarini yemirishi, tajovuzkor fundamentalizm, millatchilik, diniy ekstremizm g‘oyalarini qo‘llagan holda millatlararo nizolarni avj oldirish, hukumatga qarshi mitinglar, bo‘ysunmaslik bo‘yicha aksiyalarni, ommaviy tartibsizliklar, terrorchi va boshqa noqonuniy aktlarni, vaziyatni izdan chiqarishyuzasidan aksiyalarni rejalashtirish, tayyorlash va amalga oshirish, rahbariyat tomonidan olib borilayotgan ichki va tashqi siyosiy faoliyatini obro‘sizlantirish, pirovardida amaldagi Konstitutsiyaviy tuzumni ag‘darishni maqsad qilib turli diniy-ekstremistik va terrorchi tuzilmalar bilan birlashish xavfi;

millatlararo nizolarning kelib chiqishi va ayirmachilik kayfiyat-larini o‘sishiga sabab bo‘ladigan tub millat vakillari tomonidan boshqa millatva elatlarni, shu jumladan chegaradosh hududlar aholisi orasida kamsitish holatlarining davom etishi;

zamonaviy qurolli nizolarning asosiyhususiyatlaridan biri sifatida harbiy kuch bilan birga noharbiy xarakterga ega bo‘lgan(siyosiy, iqtisodiy, axborot-ruhiy va boshqa) choralar qo‘llanilishining ajralib turishi.

Iqtisodiy, mafkuraviy, axborot va boshqa vositalarni qo‘llanilishi harbiy nizolarning yangi tuzilmasini shakllantiradi va oqibatda harbiy nizo xarakterini “gibrid”, “iqtisodiy”, “axborot”, “kiber” va boshqa nomdagi urushlarga aylantiradi.

Ta’kidlash joizki, milliy xavfsizlikka harbiy sohadagi asosiy tahdidlardan biri “axborot kommunikatsiya makonida O‘zbekiston Respublikasining suverenitetiga, mustaqilligiga, hududiy yaxlitligiga qarshi qaratilgan hamda aholining tinch hayotiga tahdid soluvchi mafkuraviy va psixologik harakatlar”dir.

Axloqiy tayyorlik – bu g‘oyaviy e’tiqod va vatanparvarlik asosida shakllangan, harbiyxizmatchining o‘z qurolining kuchiga va O‘R QK qo‘mondon-lari, komandirlar (boshliqlar)ning yuzaga kelgan vaziyatning ekstremal sharoitlarida zimmalaridagi strategik va operativ-taktik (mahsus) vazifalarni bajarishga belgilangan muddatlarda muvaffaqiyat bilan kirisha olish qobiliyatlarini xarakterlovchi harbiy mahoratiga ishonchidir.

Ruhiy tayyorlik – bu qisqa muddatli, ongli ravishda kuchli ta’sir natijasida paydo bo‘ladigan, ichki energetik va ruhiy ressurslarni baholashga imkon beradigan va aniqharbiyharakatlarga undovchi psixologik holatdir. Jangga ruhiy tayyorlik, axloqiy tayyorlik, tajriba, oldinda turgan vazifani, unda o‘z o‘rni va rolini bilish asosida shakllanadi va jangovar (ektremal) vaziyatning salbiy sharoitlari va omillarini yengib o‘tishga ishtiyoq, safarbarlik, intiluvchanlik, ruhiy faoliyat faolligining vaqtinchalik o‘sishi bilan belgilanadi.

Ruhiy qobiliyatlar-buharbiy xizmatchining strategik va operativ- taktik

(maxsus) vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish, o‘zining harbiy-kasbiy qobiliyatlarini to‘la namoyon qila olish maqsadida yuzaga kelgan vaziyatning murakkab sharoitlarini uning ongi va ruhiyatiga ta’sirini mardonavor yengib o‘ta olish qobiliyatidir. Ruhiy qobiliyatlar ruhiy (hissiy-irodaviy) barqarorlik va ruhiy boshqaruvchanlik orqali amalga oshiriladi.

Ruhiy barqarorlik -bu harbiy xizmatchining xavf-xatarlarga qarshi tura olishi, zamonaviy jangning murakkab sharoitlarini ongi va ruhiyatiga hissiy va jismoniy ta’siriga chidamliligi, shu bilan birga harbiy-kasbiy faoliyatning faolligi va samaradorligini saqlay olishidir.

Ruhiy boshqaruvchanlik – bu harbiy xizmatchining yuqori qo‘mondonlik (qo‘mondonlar, komandirlar, boshliqlar) ning buyruq (direktiva, farmoyish, ko‘rsatma) larini mos ravishda anglab yetishi, o‘zining axloqiy-ruhiy holati va xulqini ularning talablari va qarorlariga mos ravishda boshqara olishi, shu bilan birga oqilona tashabbuskorlik va mustaqillikni namoyon qila olishidir.

Shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy omilining mazmuni uning harbiy faoliyati va xulqi, axloqiy-ruhiyholatining yo‘nalganligi va kuchida namoyon bo‘ladigan siyosiy, huquqiy, tarixiy, falsafiy, ma’naviy-axloqiy va boshqa bilimlar, g‘oyalar, qarashlar, harbiy xizmatchilarning hissiyotlari, ularning harbiy mojaroning maqsad va harakteriga munosabati bilan belgilanadi.

Aniq fikr va qat’iy irodani saqlagan holdaharbiy mojaro bilan bog‘lik bo‘lganaxloqiy-ruhiy yuklamalarga chidamli bo‘lish O‘R QK qo‘shinlari va harbiy tuzilmalarining jangovar qobiliyatini saqlab qolish demakdir. Bunday sharoitlarda psixogen talofatlarni pasaytirish, shaxsiy tarkibning harbiy (maxsus) harakatlar doirasida jangovar vazifalarni davom etirishi uchun ruhiy qobiliyatlarini tezlik bilan qayta tiklash o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Harbiy (maxsus) harakatlar davomida jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun shaxsiy tarkibda zarur bo‘lgan axloqiy-ruhiy holatni shakllantirish, oshirish (saqlab turish) va tiklash jarayoniga bo‘lgan talablar:

harbiy xizmatchilarning individual psixologik tavsiflari, ularning qadriyatlarga yo‘nalganligi, ustuvor manfaat va intilishlari, ehtiyoj va motivlari, hayotiy maqsadlari, harbiy – kasbiy va hayotiy tajribasini muntazam o‘rganib borish;

axloqiy-ruhiy ta’minotning samarali boshqaruv tizimining mavjudligi;

yuksak ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy-psixologik sifatlarni shakllantirish bo‘yicha ishlarni oldindan va maqsadli yo‘naltirilgan holda olib borish;

O‘R QK harbiy (maxsus) harakatlari davomida hissiy-irodaviy barqarorlik va ruhiy boshqaruvchanlikni saqlab turish (oshirish);

ruhiy jarohat olgan shaxsiy tarkibning ruhiy qobiliyatini tiklash bo‘yicha samarali tizimni tashkillashtirish;

buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish bo‘yicha tizimning mavjudligi va majmuaviy tadbirlarni o‘tkazish;

qo‘shinlarni muntazam axborot-texnik kuzatuvini olib borish;

harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ma’naviy, ijtimoiy va moddiy-maishiy ehtiyojlarini qondirish bo‘yicha g‘amxo‘rlik qilish.

Amaldagi qonunchilik bazasi ART bazaviy elementlari uchun yagona huquqiy asos bo‘lib hizmat qiladi. Unga asosan ART rejalashtirish, tashkillashtirish va faoliyat yuritish tartibi, ART vazifalarini bajarayotgan barcha boshqaruv organlari va ularning tizimidagi elementlarning huquq va majburiyatlarini belgilab beradi.

Bunda nafaqat O‘R QK xillari, qo‘shin turlari va harbiy tuzilmalari harbiy (maxsus) harakatlarini olib borishga, balki O‘R QK kundalik faoliyatini va favqulodda vaziyatlarni tartibga soluvchi hujjatlarda keltirilgan huquqiy me’yorlarni ham hisobga olish zarur bo‘ladi.

*polkovnik **XALILOV Xasan Ablaqulovich***
Mudofaa vazirligi tarbiяviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi boshlig‘i, ilmiy izlanuvchi.



Ruhiy tayyorgarlikning asosiy maqsadi harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarning yuqori asabiy-ruhiy, jismoniy va ruhiy zo‘riqishlarga bardoshlilik hamda og‘ir hamda ekstremal vaziyatlarda harakatlanish qobiliyatlarini shakllantirishdir.

Jangovar tayyorgarlik jarayonida jangdagi ruhiy omillarni tiklash uchun qo‘mondonlik tarkibi ruhiy tayyorgarlikning turli usullaridan foydalanishi lozim. Ruhiy tayyorgarlik usuli deganda jangning ruhiy omillarini modellashtirish usullari tushuniladi.

Tizimlashtirish maqsadida ular quyidagi belgilar bo‘yicha tasniflanadi:
jangni modellashtirish vositalari orqali;
modal ta’sir etish bo‘yicha (ko‘rish, eshitish, sezish va boshqa idroklar);
harbiy xizmatchilarga ta’sir etish mexanizmi bo‘yicha.

Jangni modellashtirish vositalari bo‘yicha ruhiy tayyorgarlik quyidagi usullarga ajratiladi:*og‘zaki-belgili, ko‘rgazmali, kompyuterli, trenajyorli***,** *imitatsiyali, jangovar.*

Og‘zaki-belgili modellashtirish davomidaharbiy xizmatchilarga ikkinchi signallar tizimi bo‘lmish so‘zlar, belgilar (ishora), axborot-ma’lumot tariqasidagi imo-ishoralar orqali ta’sir etilishi amalga oshiriladi. Bu bo‘lib o‘tadigan jang, kutiladigan qiyinchiliklar, qo‘llaniladigan qurol-aslaxa, uning imkoniyatlari, ehtimoliy jarohatlanish va yaralanish turlari to‘g‘risida so‘zlab berish. Imkon qadar mazkur modellashtirish turi jangovar faoliyat malakasiga ega bo‘lgan, nutq so‘zlash mahorati yaxshi rivojlangan, jang ko‘rinishi (ta’rifi, tavsifi)ni yorqin, ta’sirchan va jo‘shqin ifodalay oladigan harbiy xizmatchi tomonidan amalga oshirilishi lozim.

Ko‘rgazmali modellashtirish davomidata’sir etish turli predmetlarni ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi. Masalan, o‘qotar yoki boshqa turdagi qurol-aslahalarning ta’siridan so‘ng o‘ldirilgan harbiy xizmatchining manekeni yoki avtomatdan qatorasiga o‘q uzilgan odam murdasi manekeni qattiq ta’sir etadi. Harbiy xizmatchilar uzilgan oyoq va qo‘l, qon, ezilgan, chirib qolgan tana a’zolarini ko‘rishi va ko‘nikma hosil qilishlari zarur.

Kompyuterli modellashtirish davomidakompyuterda ishlash, o‘ynash va boshqa vazifalarni hal etish davomida jang omillarini modellashtirish orqali harbiy xizmatchilarga ta’sir etilishi amalga oshiriladi. Ushbu ruhiy tayyorgarlikning turi samarasizdek tuyulishi mumkin, biroq harbiy xizmatchilarda jangovar xarakatlar

davomida to‘satdan yuzaga keladigan o‘zgarishlarga tayyorlikni rivojlantiradi, chunki kompyuter texnologiyalari har doim jangning yangi sharoitlarini yaratish imkonini beradi: vaqti (kun, tun), ob-xavo sharoitlari (kuchli shamol, yomg‘ir, qor, tuman va h.k.), iqlim sharoitlar (tog‘li hudud, cho‘l, havo namligi, atmosfera bosimining yuqori yoki pastligi va h.k.) qo‘llaniladigan harbiy texnika va qurol-aslaxalar, tirik kuchlar va texnikalarning o‘zaro nisbatligi, jang turi va h.k.

Trenajyorli modellashtirishdahar xil mahorat va qobiliyatlarning rivojlanishiga yordam beruvchi, texnik vositalarni qo‘llagan holda jang omillarini modellashtirish orqali ta’sir etilishi amalga oshiriladi. Trenajyorlar harbiy xizmatchilarning harbiy texnikani qo‘llash (foydalanish) bo‘yicha aksariyat harakatlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Jangovar vaziyatda harakatlarning avtomatlashtirilganligi harbiy xizmatchiga yanada manyovrli, mohir bo‘lishga va jang sharoitiga kirishib ketishga hamda tirik qolishga imkon beradi.

Imitatsiyali modellashtirishdaharbiy xizmatchilarga ta’sir etilishi jangovar vaziyatning tashqi alomatlarini imitatsiya qilish vositalarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Ushbu modellashtirish turi dala o‘quv maydonlarida o‘quv mashqlarda yasama murdalar, uzilgan qo‘l-oyoqlar, vayron bo‘lgan va yongan binolar, qonni imitatsiya qiluvchi maxsus kimyoviy eritma va o‘ziga xos hid tarqatuvchilardan foydalanish orqali qo‘llaniladi.

Jangovar modellashtirishdata’sir o‘tkazilishi jang omillarini modellashtirish, jangovar harakatlarni tashkillashtirish va olib borish uchun qo‘llaniladigan jangovar texnikalardan, qurol-aslaxalardan va qo‘l ostidagi vositalardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Modal ta’sir etish quyidagi ruhiy tayyorgarlik usullariga bo‘linadi:

Harbiy xizmatchining ruhiyatiga eshitish orqali ta’sir etish:

Vahimali baqirishlar. Mashqlarning murakkab bosqichi vaqtida ko‘proq qo‘llaniladi: oldindan tayyorlangan harbiy xizmatchilar to‘satdan boshqalar uchun noliyotgan va baqirayotgan yaradorlarni imitatsiya qilishadi. Tanglikni provokatsiyali hayqirish orqali oshirish mumkin “Toshmatovni tank bosib ketdi!” va h.k.;

bonglar, qo‘ng‘iroqlar, sirenalar va h.k. Ushbu ta’sir etishni katta bo‘lmagan joyda – xona (imorat)larda, pana joylarda qo‘llash yaxshiroq ta’sir ko‘rsatadi;

ovoz yozib oluvchi va radioeshittirish vositalari. Ushbu holatda jang va turli o‘ziga xos tovush (ovoz, sado)lar (shovqin-suron, gumburlash va h.k.) chiqariladi;

imitatsion portlovchi moddalar. Bu yerda portlash kuchi bilan emas, balki uning ta’sir etish davomiyligi bilan samaraga erishiladi.

Harbiy xizmatchilarning ruhiyatiga ko‘rish orqali ta’sir etish:

yorug‘lik effekti (ta’siri) (portlashlar, chiroqlar, projektorlar chaqnashi). Qo‘yilgan vazifani bajarish davomida ko‘zni qamashtirib, ko‘rish qobiliyatini cheklash, yorug‘lik ta’siri yordamida diqqatni chalg‘itish ruhiyat tangligi (zo‘riqish)ning oshishiga olib keladi;

vayronalar, xarobalar va h.k. Bular orqali jirkanish, qo‘rquv, tushkunlik xissiyotlarini qo‘zg‘atish bilan qo‘yilgan vazifani bajarishni talab etish orqali harbiy xizmatchilarni salbiy his tuyg‘ularni yengib o‘tishga o‘rgatish mumkin.

Harbiy xizmatchilarning ruhiyatiga hid sezgilari orqali ta’sir etish:

O‘quv retsepturali zaharlovchi moddalar bilan zaharlangan hududlarni yaratish (masalan, ammiakli suv bilan), boshqa hududlarni esa undan ustunlik qiladigan kuchli ko‘ngilni aynitadigan, kuyindi va boshqa hidlar taratadigan hududlarda harbiy xizmatchilar himoya vositalarida va ularsiz jangovar tayyorgarlik savollarini mashq qildirish orqali ularning faoliyat sharoitlarini jangovar vaziyatda yuzaga keladigan real (aniq) holatlarga yaqinlashtirish mumkin.

Harbiy xizmatchilarning ruhiyatiga sezgilar (retseptorlar) orqali ta’sir etish:

Harbiy xizmatchi eshitishi va ko‘rishidan tashqari unda yangi ruhiy obrazlar (qiyofa)ni shakllantirish uchun boshqa sezgilarningham ahamiyati katta. Harbiy xizmatchi qo‘lida o‘q-dorilar, mina parchasi, snaryadni ushlab ko‘rishga imkoni bo‘lsa, zarba to‘lqinini sezsa (his qilsa), yong‘in va zaharlanish o‘chog‘larida harakatlansa, unda jang ko‘rinishining real va to‘liq tasavvuri hamda jangovar vaziyat omillarini yengib o‘tish mahorati yanada rivojlanadi.

Harbiy xizmatchilarning ruhiyatiga vestibulyar apparati (bosh va gavda muvozanatini idora qiladigan organ) orqali ta’sir etish:

Jangovar vaziyatlar uchun xos bo‘lgan ko‘p va tez ko‘chib yurishlar, tanglikning yuqori darajasi, tungi sharoitlarda harakatlanish, harbiy texnikadagi katta bo‘lmagan yopiq joy (bo‘shliq), orientatsiya qilishning og‘irligi, vestibulyar apparatga bo‘lgan talablarni oshiradi. Har xil jismoniy mashqlar (aylanishlar, o‘mbaloq oshish, bruslarda va turnikda mashq qilish, yuqorida joylashgan chegaralangan maydonda harakatlanish, qorong‘ida (tunda) harakatlanish) vestibulyar apparatini mustahkamlaydi va o‘z kuchiga ishonchni shakllantiradi.

Harbiy xizmatchilarga ta’sir etish mexanizmlari bo‘yicha ruhiy tayyorgarlikning usullari quyidagilarga ajratiladi:

ishontirish, majbur qilish, ta’sir ko‘rsatib ishontirish, taqlid qilish (o‘xshatish), ko‘nikish (o‘rganib qolish), o‘z-o‘zini ishontirish usullari.

Shaxsiy tarkibni jangovar harakatlarga ruhiy tayyorgarlik quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:

shaxsiy tarkibni jangovar texnikalarni boshqarish va ulardan foydalanish ko‘nikmalarinihosil qilish (avtomobillar, tanklar, BTR va h.k.);

harbiy xizmatchilar tomonidan olovli, ishg‘ol (hujumkor) va boshqa turdagi to‘siqlarni, shuningdek, maxsus muxandislik jihatdan qiyinlashtirilgan to‘siqlar va majmualarni yengib o‘tishlari;

yengil suvosti g‘ovvoslik tayyorgarligi va tanklarni suv ostida boshqarish, zirxli texnikalarni suv ustida boshqarish, desantchilarning sakrash tayyorgarligi;

ovozli va yorug‘lik qo‘zg‘atuvchi (ta’sir etuvchi)larni, shuningdek, turli trenajyorlar, sport anjomlari, o‘quv komplekslari, shaharchalarni va h.k. qo‘llash.

Shu bilan birga ruhiy tayyorgarlik usullari asosida real jangovar vaziyatga hos bo‘lgan **keskinlik** va **to‘satdanlik**, **xavf-xatar** va **tahlika** elementlarini jangovar tayyorgarlik jarayoniga kiritish va shaxsiy tarkibning ushbu sharoitda o‘rganilayotgan mashqlarni va harakatlarni ko‘p marotaba mashq qilish tamoyillari yotadi.

Jangovar tayyorgarlik jarayonida **keskinlikka** turli qiyinchilik tug‘diruvchi vaziyatlarni yaratish yo‘li bilan jismoniy va asabiy-ruhiy yuklamalarni oshirish orqali erishiladi. Jumladan:

jang xarakteriga mos intensiv yorug‘lik va ovozli qo‘zg‘atuvchilarni qo‘llash;

ma’lumotlar va vaqtning tanqisligi;

kun va tundagi harakatlarni uzluksizligi;

tungi sharoitlarda mashg‘ulotlar, shu jumladan o‘q otish mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

dushmanning doimiy ta’siri;

jangovar harakatlar tashqi manzarasining ko‘rgazmaliligi (talofotlar, vayronagarchiliklar, yong‘inlar, murdalar va boshqalar);

zamonaviy jangovar harakatlar xarakteriga mos to‘siqlardan, g‘ovlardan, zararlangan hududlardan hamda yong‘in o‘choqlaridan davomli tarzda va tez-tez o‘tish va boshqalar.

Mashg‘ulotlar va mashqlarni o‘tkazish davomida **to‘satdanlik** shaxsiy tarkibdan uncha uzoq bo‘lmagan masofada imitatsiya vositalarini qo‘llash bilan ta’minlanadi.

Shuningdek:

hisob raqamlari, ekipaj a’zolari uchun qurol-aslaha, harbiy texnikaning “nosozligi”, “ishdan chiqarilishi” va h.k.lar holatlarini yaratish;

harbiy xizmatchilardan tezkorlik va faollik harakatlarini talab qiladigan vaziyatni yaratish hamda mazkur vaziyatlarni rivojlantirib borish uchun turli kiritmalarni qo‘llash;

turli to‘siqlarni yashirin tarzda tayyorlash va shaxsiy tarkibning faol harakatlanishi paytida ularni qo‘llash;

dushmanning faol va shiddatli harakatlanishi;

to‘satdan (kutilmaganda) jangovar trevogalarni o‘tkazish;

notanish hududda mashg‘ulotlar va mashqlarni o‘tkazish va h.k.

Jangovar tayyorgarlik jarayoniga **xavf-xatar va tahlika omillarining** kiritilishi quyidagilar orqali erishiladi:

jismoniy xavf-xatar sharoitlarida har xil qiyin to‘siqlarni yengib o‘tish bilan;

imitatsion snaryadlar va minalar portlashi vaqtida faol hujum harakatlarini amalga oshirish;

to‘liq ekipirovka (kiyim-bosh, anjom, qurol-aslaxa) bilan suvga sakrash hamda suvli to‘siqlarni suzib va qo‘l bola vositalar bilan kechib o‘tish;

muxandislik ishlarini bajarish uchun suv ostiga tushish;

shtatdagi snaryad bilan otish va tungi vaqtda otish mashqlarini o‘tkazish;

yondiruvchi vositalardan faol himoyalanish;

hududning o‘quv imitatsiya vositalari bilan zaharlangan xudud sharoitida ishlarni olib borish, pozitsiyalarni (joyni) jihozlash yoki zaharlangan qurol-aslaxa va jangovar texnikalarni degazatsiyalash;

bosqichma-bosqich jangovar mashinalar va transport vositalarining harakatlanishi vaqtida desant qilib tushurish va piyoda harakatlantirish;

okopdagi xarbiy xizmatchi ustidan tankda o‘tish va desant sifatida tank ustida harakatlanish;

qiya va xavfli manfiy burchakli qoyalarga tirmashib chiqish.

Mashg‘ulot rahbarlari mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish davomida kiritiladigan havf-xatar va tahlikali elementlarning soni va xarakterini belgilashlari, baxtsiz xodisalarni oldini olishga bo‘yicha choralarni ko‘rishga majburdirlar. Ushbu maqsadda mashg‘ulotlardan oldin rejalashtiriladigan tadbirlar va qo‘llaniladigan imitatsiya vositalarini ko‘proq malakaga ega va yaxshi tayyorlangan harbiy xizmatchilarni jalb qilgan holda tekshirilishi, shuningdek, vositachi va imitatsiya uchun javobgar shaxslarga batafsil yo‘riqnoma berilishi, evakuatsiya xizmati tashkil etilishi lozim. Kundalik jangovar tayyorgarlik jarayonida shaxsiy tarkibning ruhiy tayyorgarligi har bir mashg‘ulotda harbiy xizmatchilarni ma’lum bir ruhiy chiniqtirish elementlarini o‘rganib chiqish bilan amalga oshiriladi.

Jangovar tayyorgarlik jarayonida harbiy xizmatchi bilishi va imkon darajasida uning organizmiga va ruhiyatiga ta’sir etuvchi jangovar vaziyatga (sharoitga) xos barcha spektrlarni his etishi lozim (ko‘rish, eshitish, hid bilish, sezish, ta’m sezgisi, va.h.k.), ularga to‘g‘ri javob qaytarishga va mazkur sharoitlarda faol harakat qilishni o‘rganib olishi lozim. Asosiy e’tiborni har qanday kutilmaganlik (tasodif) holati harbiy xizmatchi uchun oddiy holdek bo‘lishi, har qanday kutilmaganliklar qoida va qonuniylik, vaziyatning to‘satdan o‘zgarishi esa – oddiy hol darajasiga yetkazishga qaratish lozim.

Jangovar tayyorgarlik jarayonida jangchida muhim ruxiy sifatlarni shakllantirish usullari turlichadir. Bu asosan ofitserlarning uslubiy mahoratlari va qo‘shinlardagi o‘quv-moddiy bazaning holatiga bog‘liq.

Mashg‘ulotlarda va o‘quvlarda keskinlik, to‘satdanlik, xavf-xatar va tahlika vaziyatlarini yaratish asosiy maqsad emas. Balki jangchining vaziyatga munosabat bildirish qobiliyatini oshirish orqali uning yuqori ruhiy yuklamalar sharoitida faol harakatlanish va shu bilan birga qiyinchilik hamda salbiy ruhiy holatni yengib o‘tishdagi irodaviy harakatlar bo‘yicha zaruriy tajribalarni orttiradi, unda dadillik, barqarorlik, qat’iyatlilik, botirlik kabi irodaviy sifatlarni shakllantiradi.

Ruhiy tayyorgarlik harbiy xizmatchilarning komandir rahbarligida hamda jangovar tayyorgarlik va tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari bilan hamkorlikdaamalga oshiriladi, shuning uchun ham harbiy xizmatchilarni **ruhiy tayyorlash shakllari alohida emas, balki, jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlarida axloqiy-ruhiy tayyorgarlik shakllari bilan paralleldir.**

Samarali ruhiy tayyorgarlik harbiy xizmatchilarning jangovar faoliyati samaradorligining muhim sharti bo‘lib, jangovar harakatlarni olib borish davomida va yakunida ruhiy turg‘unlikni kafolatlaydi.Yuqorida qayd etilgan ruhiy tayyorgarlik usullarining asosiy qismi jangovar tayyorgarlik raxbariy xujjatlarida qayd etilgan, lekin quyi pog‘onadagi sohaga mas’ul mansabdor shaxslar tomonidan mazkur raxbariy xujjatlar talablarini bajarishda sustkashlikka yo‘l qo‘yilmoqda. Qurolli Kuchlar tinchlik davrida urushga tayyorlanishi va shuning natijasida yurtda osoyishtalik ta’minlanishi xaqiqat. Mazkur ibora asrlar davomida o‘z tasdig‘ini topib kelmoqda.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik tadbirlari xavfsizlik qoidalariga qat’iy rioya qilingan holda tashkillashtirilishi shart. Inson xayoti va sog‘ligi har narsadan ustun ekanligini, biz tarbiya qilayotgan harbiy xizmatchilar kimnidir farzandi yoki otasi ekanligini, ularning nafaqat kasbiy tayyorgarligi, balki birinchi o‘rinda xayoti uchun ma’sul ekanligimizni yana bir bor eslatib o‘tmoqchiman.

general mayor SAIDOV Aybek Azadovich
O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Sharqiy harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondoni, psixologiя fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).



Annotatsiya: *Mazkur maqola harbiy rahbar va uning ijtimoiy-psixologik asoslariga bag‘ishlangan. Maqolada shartnoma asosidagi harbiy xizmat, harbiy rahbar shaxsi, shartnoma asosidagi harbiy xizmat talabi, ushbu harbiy xizmat turini tanlash yoki tanlamaslikning barcha ijtimoiy-psixologik sabablari ham keng yoritilgan. Keltirilgan mulohazalar, tahlillar adabiyotlar ruyxatida keltirilgan manbalar asosida amalga oshirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Harbiy faoliyat, shartnomadagi xizmat, nomzod, armiya, kasb, davogarlik motivi, psixologik tanlov, psixologik tayyorgarlik, yoshlar, harbiy komessiya, harbiy obro‘, qahramon, mudofaa, harbiy rahbar, qo‘mondon.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается командир и его социально-психологические особенности. Статья охватывает широкий спектр контрактной военной деятельности, контрактников, условную военную службу, а также все социально-психологические аспекты выбора или отказа от военной службы. Эти анализы и анализы основаны на источниках, перечисленных в литературе.*

Ключевые слова: *военная деятельность, контрактная служба, кандидат, армия, профессия, когнитивный мотив, психологический выбор, психологическая подготовка, молодежь, военное командование, военная репутация, герой, защита, командующий, командир.*

Ma’lumki, rahbar shaxsi va uning faoliyati bilan bog‘liq psixologik masalalarning tadqiqi, hanuzgacha psixologiya fani oldida turgan dolzarb masalalar turkumidan sanaladi. Qolaversa, zamonaviy rahbar va uning boshqaruv uslubi, rahbar shaxsga xos xarakterologik sifatlar, zamonaviy rahbarga quyiladigan talablar, boshqaruvning ijtimoiy-psixologik jihatlari, rahbar va xodim munosabatlari kabi masalalarning nazariy va amaliy sharhlari, kadrlar sohasini qayta isloh qilish ishlarida qator o‘zgarishlar olib kelishi ehtimoldan holi emas. Ana shu jihatdan olib qaralganda, mazkur tadqiqot ishimiz o‘rganish jihatdan o‘ta ahamiyatli hisoblanadi.

Shu jihatdan, rahbar shaxsining boshqaruv faoliyati bilan bog‘liq barcha ko‘nikma va malakalari “boshqaruv kompetentligi” fenomeni bilan bog‘liq bo‘lib, uni tashkil etish rahbar shaxsiga xos ko‘plab xarakterologik sifatlarni ifodalashi tabiiy. Bu esa, bugungi kunda har bir soha fidoiy, yetakchi, tashabbuskor, innovatsion g‘oyaga boy, ijtimoiy faol, yangicha boshqaruv amaliyotiga ega bo‘lgan, optimist, mustqil fikrga ega, o‘ziga ishongan kabi sifatlarga ega kadrlarni talab qilmoqda. Bu holat harbiy faoliyat sub’ektlari uchun ham muhim sanalib,

harbiy rahbar uchun har qanday sharoitda muvaffaqqiyatga erishish garovi hisoblanadi.

Shunday ekan, mudofaa sohasidagi rahbarlar va ularning boshqaruv sohasidagi bilimlari, ko‘nikmalari, boshqaruv uslubi va uning psixologik o‘ziga xosligi, boshqaruvda shart sanalgan ijtimoiy-psixologik sifatlar, liderlik, zamonaviy rahbar va unga xos imij, rahbar shaxsiga qo‘yiladigan psixologik talablar, rahbarlik tiplari, rahbar shaxsining ijtimoiy-psixologik xarakteristikasi kabilar “kompetentlik” tushuchasida aks etgan.

Hozirgi kunga qadar boshqaruv kompetentligi masalasi psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, menejment kabi fanlarning tadqiqot predmeti sifatida o‘rganib kelinmoqda. Ammo, psixologiya fani boshqa fanlardan farqli ravishda, boshqaruv masalasini o‘ziga xos tadqiq etib, u orqali rahbar shaxsiga va sohaga xos ko‘plab yangi xususiyatlarni aniqlamoqda. Boshqaruv sohasidagi kadrlar va ularning faoliyati bilan bog‘liq ayrim masalalar xorij tadqiqotchilardan R.Akkof, I.Atkinson, N.Kouplend, D.Kempbell, D.Uilsam, D.Fuler, S.Parkinson, M.Nortkot, D.Super, A.Jeyms, Ye.Marro, T.Spine, D.Bliss va R.Bennetlarning izlanishlarida o‘z aksini topgan.

Yuqoridagilardan farqli o‘laroq, rus olimlaridan N.Korf, P.Izmestev, A.Karayani, A.Kitov, P.Korchemnыy, K.Platonov, S.S’edin, N.Fidenko, A.Glotochkin, M.Dyachenko, L.Jeleznyak, S.Kandыbovich, V.Lusenko, E.Utlik va V.Yusovlar esa harbiy sohadagi jamoalar va ularning hamkorlikdagi faoliyati, rahbar va xodim o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, harbiy boshqaruv asoslari, harbiy jamoaga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlar kabi masalalar tadqiq etilgan.

Bundan tashqari, kompetensiya fenomenining kasbiy bilim, kasbiy ko‘nikma va malakalar orqali o‘rganish holatida G.Kolshanskiy, N.Kadulina, S.Kulnevich, S.Kucher, O.Lebedev, L.Cherepanova va N.Churakovalarning ishlari o‘ta ahamiyatli hisoblanib, ular muammoni ko‘proq pedagogik jamoa vakillari faoliyati bilan bog‘lab o‘rganishgan.

Mahalliy tadqiqotlarimizdan harbiy sohada tadqiqot olib borgan olimlar kam sonli bo‘lsada, ulardan S.Ahrorov, I.Inoyatov, A.Qambarov, S.Otamurodov, R.Samarov, L.Tursunov, I.Rasulov, L.Ravshanov, F.Shermatov va U.Sultonov kabi tadqiqotchilarimizning izlanishlari diqqatga sazovor hisoblanadi. Ammo, yuqorida qayd etilgan tadqiqotchilar aynan Qurolli Kuchlar tizimidagi rahbar kadrlarda boshqaruv kompetentligini oshirishning ijtimoiy-psixologik jihatlari borasida izlanishlar olib bormaganligi mazkur mavzuning ahamiyati yuqori ekanligidan dalolat beradi.

L.Grimak tomonidan chop etilgan “Inson faolligi psixologiyasi” nomli monografiyasida qayd etilishicha, insonning boshqaruv imkoniyatlarini o‘rganish avvalo, uning boshqaruv ko‘nikmalari, maxsus qobiliyati, boshqaruv qarorlarini

qabul qilish tajribasi, o‘z qo‘l ostidagilarni boshqarish usuli kabi muhim masalalarning mohiyatini tadqiq etishdan boshlanadi [1,98]. Ushbu mulohazaga muvofiq, boshqaruv faoliyati inson hayotining barcha sohalari uchun xos bo‘lib, mazkur jarayonda inson turli ta’sir vositalarini qo‘llash orqali boshqalarning xatti-harakatlarini ham o‘zgartiradi. Boshqaruv faoliyati bilan bog‘liq masalalar evolyusion xarakterga ega bo‘lib, u jamiyat tashkil topgan davrdan ko‘pchilik soha vakillari e’tiborini o‘ziga tortib kelgan. Ya’ni insonlar bilan ishlash murakkab ijtimoiy jarayon, u qaysi sohada bo‘lmasin rahbar shaxsidan ko‘plab ijtimoiy-psixologik sifatlarni talab etadi.

Akademik V.Afanasev mazkur masala borasida “biz yaxshi muhandislarni, yaxshi o‘qituvchilarni, yaxshi tibbiyot xodimlarini, yaxshi davlat xizmatchilarini tayyorlaymiz ammo, davlat rahbarlarini, tibbiyot rahbarlarini, do‘kon rahbarlarini, ta’lim rahbarlarini tayyorlamaymiz. Biroq, ularning olgan ta’lim va tarbiya malakalari, soha bo‘yicha o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalari, kasbiy kompetensiyalari, kasbiy mahorat va maxsus qobiliyatlari boshqaruv faoliyati samaradorligini ta’minlovchi ijtimoiy-psixologik determenantalar hisoblanadi[2,77]. Mazkur ta’rifdan shuni anglash mumkinki, rahbar kadrlar oldindan tayyorlanmaydi balki, inson psixikasining o‘ziga xos xususiyatlari, o‘z sohasi bo‘yicha olgan mukammal bilimlari shuningdek, yillar davomida kasbiy sohada faoliyat yuritish natijasida yuzaga keladigan jarayondir. Bundan tashqari, har bir davlatning ravnaqi va kelajagi rahbar xodimlarning samarali faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, har qanday tadqiqotlarda ularning faoliyati tanqidiy o‘rganilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Boshqaruv kompetentligi fenomenini o‘rganishning o‘ziga xos yondoshuvi L.N.Zaxarovaning izlanishlarida aks etgan bo‘lib, unda boshqaruv faoliyatining sub’ekti bo‘lgan rahbar shaxslarning qator ijtimoiy –psixologik sifatlari ajratilgan. Muallifning so‘zlariga ko‘ra, shaxsda boshqaruv kompetentligining yaxshi rivojlanganligi quyidagi sifatlar bilan tushuntiriladi[4,85]:

boshqaruvning tashkiliy asoslarini yaxshi bilish;

vazifalarga nisbatan yuqori javobgarlik hissi va bajarilishi kutilayotgan ishlarni aniq taqsimlay olish;

boshqaruv samaradorligini oshirish usullarini yaxshi bilish;

zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan yaxshi xabardor bo‘lish;

og‘zaki va yozma ravishda o‘z fikrlarini aniq, ravon ifoda eta olish qobiliyati;

tashkilot faoliyatini rejalashtira olish va uning taqdirini bashorat qila olish qobiliyati;

o‘z faoliyatini baholay olish, nostandart vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati va hokazo.

A.Zubning ta’kidlashicha, boshqaruv kompetentligi yuqori bo‘lgan yetakchi shaxslar nafaqat samarali boshqaruv usullaridan xabardor bo‘ladi balki, boshqalarga maslahat bera oladigan, har qanday tashkilot rahbarlari bilan murosa qila oluvchi, yuqori kommunikativ qobiliyatga ega, boshqalarga tavsiya va taklif bera oluvchi shasxdir[5,110]. Demak, boshqaruv kompetentligi yaxshi rivojlangan rahbar shaxslar har qanday sharoitda murosa qila oladigan, boshqalarga maslahat va yo‘l-yo‘riq ko‘rsata oladigan tajribali kishilar ham bo‘la olishi lozim. Boshqaruv kompetentligi tushunchasining kengroq mazmuni, bizningcha rahbar va xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, o‘zaro ta’sirlashuv jarayoni, boshqalar harakatlarini yaxshi idrok eta olish, o‘z qo‘l ostidagilarni yaxshi tushuna olish, boshqalar bilan ijtimoiy-psixologik jihatdan moslashish kabi sifatlar mazmunida ham o‘z aksini topgan.

M.Litvakning so‘zlariga ko‘ra, rahbar shaxsiga xos boshqaruv kompetentligini ijtimoiy-psixologik jihatdan baholash quyidagi mezonlar orqali amalga oshiriladi[6,78]:

1.O‘z jamoasining xatti – harakatlarini muvofiqlashtira olish;

2. Jamoadagi ijtimoiy jarayonlarni tartibga sola bilish hamda unda sog‘lom munosabatlarni saqlay olish;

3. Qo‘l ostidagi xodimlarni va tashkilotning imkoniyatlarini oldindan ko‘ra bilish qobiliyati. Mazkur funksional va ijtimoiy-psixologik xususiyatlar nafaqat rahbar faoliyati uchun balki butun bir jamoa uchun ham zarur xususiyatlar hisoblanadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-psixologiya va boshqaruv psixologiyasi muammolariga oid e’tiborga molik izlanishlar E.G‘oziev, M.Mamatov, V.Karimova, I.Mahmudov, B.Umarov, D.Muxamedova, R.Boymurodov va O.Haitov kabi yetakchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu olimlar asosiy e’tiborni ko‘proq, boshqaruv usullari va uning turlari, rahbarlik sifatlari, liderlik, shaxs va guruhiy munosabatlar kabilarga qaratishgan. Biroq, rahbar shaxslar boshqaruv kompetentligining ijtimoiy-psixologik jihatlari, uni ta’minlovchi determenantlar kabi maslalar hozirga qadar, o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Shuning uchun, muammoni integratsiyalashgan yondoshuvlar asosida ko‘rib chiqish lozim.

Professor V.M.Karimovaning so‘zlariga ko‘ra, shaxsda yetakchilikka oid funksiyalar haqidagi tasavvurlar qanchalik xilma-xil bo‘lmasin, rahbar real sharoitlarda insonlar guruhini aniq maqsadlar asosida faoliyatga yo‘llash, ularga bosh bo‘lish, turli ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyatga ega tadbirlarni amalga oshirish, obro‘ga ega bo‘lish, har bir qilingan ish uchun javobgar bo‘la olish kabi

qobiliyatlarga ega bo‘lishi lozim[7,25]. Muallif tomonidan berilgan mazkur ta’rifdan shu narsa ma’lumki, boshqaruv faoliyati nafaqat rahbarlik sifatlari balki, shaxslararo munosabatlarga bo‘lgan qobiliyat orqali ham tushuntirilishi e’tiborga molikdir.

L.Berestova o‘zining “ijtimoiy-psixologik kompetensiya rahbar professionalligining xarakteristikasi” mazusidagi dissertatsiya ishida, rahbar shaxsiga xos emotsional intellektning boshqaruvdagi roli haqida, o‘ziga xos ta’rifni keltirib o‘tgan. Muallifning fikricha, yuqori rivjlangan emotsional intellekt rahbar shaxs uchun, o‘zi his-tuyg‘ularidan va boshqalarning his-tuyg‘ularidan o‘z vaqtida xabardor bo‘lishga, noxush hislarning sabablarini tushuna olishga, o‘z hissiy holatini har qanday murakkab sharoitlarda boshqara olishga, begona kishilar va qo‘l ostidagi yangi xodimlarga nisbatan hamdard bo‘la olishga, ishchi va xodimlarning imkoniyatlari va qay darajadagi malakalari mavjudligini ko‘ra olishga hamda ularni tarbiyalash hamda kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirishga bosh-qosh bo‘la olish kabi xususiyatlarini ta’minlovchi qobiliyatlar turi sifatida xizmat qiladi[8,24]. Demak, samarali boshqaruv kompetentligi uchun emotsional intellekt shart va zarurdir.

D.Treysining so‘zlariga ko‘ra, rahbarda boshqaruv kompetentligi shakllanganligining ijtmoiy-psixologik jihati shundaki, sheriklar tomonidan yashiringan signallarni seza olishi, ularga turli mazmundagi savollar berishi va sheriklarning o‘z pozitsiyalari va takliflarini aniqlashtirishga undash qobiliyati kabilarda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, haqiqiy rahbar faol tinglash qobiliyatiga ega bo‘lishi, hamkor shaxslarga o‘zining rejalari va maqsadlarini to‘g‘ri yetkazib bera olish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi, boshqaruv faoliyatining shartlaridan biri sanaladi[9,98]. Demak, rahbarda nutqiy qobiliyat, oratorlik hamda turli xil odamlarning nutqidagi semantik va konstruktiv mazmunni tez anglay olish qobiliyati ham mavjud bo‘lishi kerak.

Harbiy xizmatchi rahbarlarda tadqiqot natijalariga ko‘ra, boshqaruv kompetentligini oshirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, boshqaruv kompetentligi va shaxs xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik munosabatlari hamda boshqaruv kompetentligini shakllantirishning quyidagi ijtimoiy-psixologik ko‘rsatkichlari aniqlandi:

harbiy rahbarlarning boshqaruv kompetentligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish yuzasidan olingan tadqiqot natijalariga asosan, harbiy uchuvchilarda 118,51, tankchilarda 141,23 va harbiy aloqachilarda 106,52 natija bilan o‘rtacha farqni namoyon qildi ($h=13,52$, $*=p\leq0,05$). Ma’naviy yetuklik shkalasi bo‘yicha harbiy uchuvchilarda 118,40, tankchilarda 126,49 va harbiy aloqachilarda 106,52 natijalarni namoyon qilib, emotsional yetuklik shkalasi harbiy uchuvchilarda

96,89, tankchilar 145,40 va harbiy aloqachichilarda 123,42 kabi darajalar bilan o‘zaro yuqori farqlarni qayd etdi. Keyingi shkala, ya’ni ijtimoiy intellekt bo‘yicha harbiy uchuvchilarda 153,37, tankchilarda 147,07 va harbiy aloqachilarda 148,25 kabi natijalarni aks ettirdi. Jamoada yetakchilik shkalasiga ko‘ra, harbiy uchuvchilar 115,61, tankchilar 158,14 va harbiy aloqachi harbiy xizmatchilar 131,09 kabi darajalar bilan o‘rta farqlarni aks ettirdi.

Sinaluvchi harbiy xizmatchilar o‘rtacha darajani namoyon qilganligi uchun quyidagicha sifatlar bilan xarakterlanishi mumkin. Ushbu harbiy xizmatchi rahbarlar “o‘rtadan yuqori” toifaga mansub bo‘lib, o‘z fikrini aniq bayon etadi, boshqalarning e’tibor berishini va majburiylikni yomon ko‘radi, hamisha murosa qilishga intiladi, u yaxshi yetakchi bo‘la oladi.

Xulosa qilib aytganda, Qurolli Kuchlar tizimida faoliyat olib borayotgan harbiy xizmatchi rahbarlarda boshqaruv kompetentligini takomillashtirish uchun muloqot ishtirokchisining fikr-niyatlarini tushunish, noverbal xulq-atvorni tushunish, shaxslararo o‘zaro ta’sir, ijtimoiy-axloqiy yetuklik, ma’naviy yetuklik, ijtimoiy intellekt va muammoli vaziyatlarda o‘zini tutish kabi psixologik xususiyatlarning rivojlanganligi, kasbiy faoliyat jarayonida jamoalar bilan pozitiv munosabatlarni o‘rnata olishga xizmat qiladi. Demak, mazkur tadqiqotni ijtimoiy-psixologik jihatdan o‘rganishga asos va zarurat mavjud, qolaversa, mazkur tadqiqotimiz harbiy sohada faoliyat olib borayotgan harbiy rahbar kadrlar faoliyatida yuzaga kelayotgan ayrim muammolarga ilmiy yechim bo‘lishi ehtimoldan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гримак Л.П., Психология активности человека: психологические механизмы и приемы саморегуляции / Л. П. Гримак. – Москва: URSS, Либроком, 2018. – С.98.

2. Афанасьев В.Г., Общество: системность, познание и управление. В.Г. Афанасьев. М.: Вт. Изд.(II), ЭСКИМОС, 2009. – С.77.

3. Журавлев А.Л., Психология управления совместной деятельностью: Новые направления исследований / А.Л. Журавлев, Т.А. Нестик. – М.: Институт психологии РАН, 2010. – С. 41.

4. Захарова Л.Н., Психология управления: Учебное пособие / Л.Н. Захарова. – М.: Логос, 2012. – С. 85.

5. Зуб А.Т., Психология управления: Учебник и практикум для академического бакалавриата / А.Т.Зуб. – Люберцы: Юрайт, 2015. – С. 110.

BO‘LAJAK OFITSERLARDA KASBIY-IRODAVIY SIFATLAR SHAKLLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI DYESTRUKTIV AXBOROTLARNING O’RNI

ORTIQOV Akmal Qobulovich

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi Harbiy xavfsizlik va davlat mudofaasi fakulteti boshlig‘ining o‘rinbosari, dotsent, polkovnik.

Annotatsiya: *mazkur ilmiy maqolada harbiy xizmatchilarni destruktiv axborotlardan himoyasini ta’minlashning metodologik asoslari taxlil qilinib, xorijiy davlatlari misolida ilg‘or armiyalar tajribasi o‘rganib chiqilgan hamda harbiy xizmatchilarni destruktiv axborotlardan psixologik himoyasini ta’minlash yo‘llari aniqlanib, shaxsiy tarkibning destruktiv axborotlardan psixologik himoyasini usullari tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *globallashuv, axborot ochligi, mafkuraviy kurash, axborot xuruji, dezinformatsiya, manipulyatsiya, targ‘ibot, inqirozli holatlarni boshqarish, ig‘vogarlik, diskreditatsiya, fitna.*

Annotation: *In this article methodological principles analyzed to safe military servicers from destructive information, and studied practice of advanced armies instance of members of NATO and ESF and so determined and systematized the way of development of organ education and ideology to do physiologically safe military servicers from destructive information.*

Key words: *globalization, information hunger, ideological struggle, information attack, misinformation, manipulation, propaganda, crisis management, provocation, discredit, conspiracy.*

Insoniyat tarixiga nazar solsak, noa’nanaviy tahdidlar xalqaro mojarolarning qiyofasini butunlay o‘zgartirmoqda va informatsion-psixologik xurujlar sezilarli xavf-xatar tug‘dirmoqda. Ular armiyamizning negiziga putur yetkazish, avvalo, uning ma’naviy-axloqiy asoslariga ta’sir o‘tkazishga urinish va shuningdek, zamonaviy internet texnologiyalaridan foydalanish orqali bizning bunyodkorlik ruhidagi boy madaniyatimiz, ma’naviy qadriyat va an’analarimizga mutlaqo zid bo‘lgan buzg‘unchi g‘oya va tushunchalarni yoshlarimizning ongu tafakkuriga singdirishga qaratilgani bilan, ayniqsa, xatarli” deya aytgan so‘zlarining o‘zigina ushbu mavzuning bugungi kundagi dolzarbligi va axamiyati naqadar muxim ekanligini isboti bo‘la oladi.

Axborot faoliyati to‘g‘risidagi mavjud ma’lumotlarni sintez qilish asosida axborot ta’sirining istalgan ob’ekti uchun xavfning yuzaga kelishi mexanizmlarini ochib berish zarur. Faqatgina shu yo‘l bilan zamonaviy jamiyatda axborot xavfsizligini ta’minlash usullarini aniqlab olish, turli xildagi destruktiv axborot ta’sirlaridan himoya qilishning o‘ziga xos jihatlarini ochib berish mumkin bo‘ladi.

Axborotning xossalari shartli bo‘lsada, uning foydaliligi, qabul qiluvchi sub’ektga ta’sir qilish darajasi bilan belgilanadi. Agarda uzatilayotgan destruktiv axborot ta’sirga ega bo‘lsa va uni qabul qilayotgan iste’molchining ongini egallab

uning ijtimoiy xarakatlarida jamiyat va davlat manfaatlariga zid bo‘lsa bunday axborotlar bizga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Yuqorida biz destruktiv axborotning salbiy ta’siri to‘g‘risida qisqacha to‘xtalib o‘tdik keling ushbu so‘zning qisqaroq lug‘aviy ma’nosiga ta’rif berib o‘tsak. **Destruktiv** - (lot. destructio-yo‘q qilish, biror narsaning normal tuzilishini buzish) - insonning tashqi, tashqi ob’ektlarga yoki ichkariga, o‘z-o‘zidan va bu munosabatga mos keladigan xatti-harakatlarga salbiy munosabati.

Britaniya ingliz tilida: **“Destructive”** yo‘q qilishga olib keladigan yoki olib kelishga moyillik, salbiy, halokatli, zarar, shikast, qurollarining halokati, quvvatni ijodiy yoki halokatli tarzda ishlatish.

Amerika ingliz tilida: vayron qilish, vayronagarchilikni keltirib chiqaradigan yoki ishlab chiqaradigan, yo‘q qilish, shunchaki salbiy, foydali emas, halokatli**.** [1]

Tashqi dunyo ob’ektlariga qaratilgan buzg‘unchi xatti-harakatlarning maqsadlariga qarab, P. Korolenkoning quyidagi atributlari mavjud: tirik mavjudotlarni yo‘q qilish (qotillik, bezorilik, qiynoq, kannibalizm); jamoatchilik bilan aloqalarni qasddan buzish (terroristik harakatlar, davlat to‘ntarishlari, inqiloblar); tabiiy muhit ob’ektlariga yoki jonsiz narsalarga zarar yetkazish tushiniladi. [2]

Yuqorida biz destruktivlik tushunchasi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tdik. Keling endi destruktiv g‘oyalarning mamlakatimizning ko‘p sonli qismini tashkil qiluvchi yoshlarga shu o‘rinda harbiy xizmatchilarga salbiy ta’siri to‘g‘risida fikrlarni ko‘rib chiqsak. Masalan, giyohvandlik, ichkilik, jinoyatchilik, turli destruktiv g‘oyalar ta’siriga tushib qolayotganlarning ma’lum qismi yoshlar hissasiga to‘g‘ri kelayotgani ham bor gap.

Destruktiv axborot oqimining ko‘payayotgani, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning o‘zgarayotgani fuqarolarning axboriy-psixologik xavfsizligini ta’minlash borasida individual, guruhiy va jamiyat darajasida tegishli chora-tadbirlar belgilanishi va amalga oshirilishini taqozo etmoqda.

Mutaxassislar destruktiv faoliyat mohiyatan turli ob’ekt yoki tizimlarni vayron qilishga nisbatan intilishda namoyon bo‘lishini va uning kelib chiqish sabablarini quyidagicha tavsiflashgan:

a) harbiy xizmatchilarda ijtimoiy mavqening noaniqligi, pozitsiyalar marginalligi (xudbinlashuvi), psixofiziologik o‘zgarishlar ularni yot, buzg‘unchi ta’sirlarga nisbatan ancha zaif qilib qo‘yadi;

b) xohish-istaklar beqarorligi, maqsadlar noaniqligi, o‘zgacha fikrlaydiganlarga nisbatan toqatsizlik, shoshma-shosharlik ba’zi harbiy xizmatchilarni hayotiy tajribaga ega komandir boshliqlar va na’munali harbiy xizmatchilardan uzoqlashtirib, o‘zi singari toifalar davrasiga undaydi, ijtimoiy

mansublik, qiziqishlar umumiyligi nuqtai nazaridan ular ehtiyojini qondiruvchi turli guruhlarga moyil bo‘lib qoladi;

v) harbiy jamoalarda madaniy me’yor va «ustanovka»lar shakllanadi, o‘ziga xos qadriyatlar qo‘llab-quvvatlanadi, «biz» va «ular» degan psixologik qarama-qarshilik yuzaga kelishiga asos bo‘ladigan omillar tarkib topadi.

Ayrim harbiy xizmatchilardagi qiziqqonlik, xavf-xatar romantikasi, o‘zining kimligini ko‘rsatib qo‘yishga ishtiyoq, mafkuraviy immunitet, axborot iste’moli madaniyatining shakllanmagani ba’zan nafaqat harbiy xizmat, balki davlat, jamiyat, atrofdagilar, o‘zi, oilasi uchun ham xavfli xatti-harakatlarni sodir etishga olib keladi.

U.Qodirovning fikricha bugungi axborotlashgan asrda biz OAV orqali har kuni, har soat, har lahzada davlatlar siyosatiga qarshi, odamlar manfaatiga zid, ularning ongini axboriy mahsulotlar bilan mahv etishga qaratilgan minglab xabarlardan xabardor bo‘lib turibmiz. Ammo O’zbekistonda olib borilayotgan oqilona tinchlikparvar siyosat, yaqin qo‘shnilar, shuningdek, dunyodagi 135 ta davlat bilan olib borilayotgan do‘stona aloqalar tufayli tinch, osoyishta, barqarorlikka erishgan mamlakatda hayot kechiryapmiz. Shunday bo‘lsa-da, davlat siyosatiga to‘g‘ri kelmaydigan, umummilliy g‘oyalarga zid, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni inkor etuvchi har qanday g‘oyaga qarshi kurashish har birimizning fuqarolik burchimiz bo‘lib qolishi kerak. [3]

Tadqiqotchi J.Bakayevning tabiriga ko‘ra: bugungi kundalik muloqatda ishlatilayotgan axborot tushunchasining ikki xil lug‘aviy ma’nosi bor. U lotincha *informatio* – izohlash, bayon qilish hamda arabcha “axbor” – xabarlar, ma’lumotlar degan mazmunda ishlatiladi. Umumiy tushunchada u olamda ro‘y berayotgan barcha jarayonlar, zamon va makondagi voqea va hodisalar to‘g‘risidagi xabarni aks ettiradi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, axborot bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlarda hal qilinmagan masalalar haligacha mavjud. Axborot barcha moddiy yoki – faqat tirik organizmlarga xosmi yohud ongli ravishda harakatlanuvchi jonzodlarga oid tushunchami degan munozara hali-hanuzgacha davom etmoqda. Ayni paytda mazkur tushunchaning texnik, huquqiy, ijtimoiy va boshqa talqinlariga oid turlicha yondashuv va ilmiy munozaralar natijasi sifatidagi ko‘plab tasniflari ma’lum. Ammo, uning umumiy, barchani to‘la-to‘kis qoniqtiradigan tasnifi hanuzgacha ishlab chiqilmagan. Bu borada qadimdan turlicha g‘oya va qarashlar mavjud bo‘lsada, XX asrga kelib, N.Viner, R.Xartli, K.Shennon, N.Rashevskiy va boshqa bir qator olimlarning axborotga bergan tasniflariga katta e’tibor berilmoqda. [4]

Demak, shaxsning axborot-psixologik xavfsizligi u qabul qilayotgan axborotning yuqorida qayd etib o‘tilgan o‘lchamlari va asosiy xususiyatlariga bog‘liqdir.

Shu o‘rinda global axborot makonida insonlarga destruktiv ta’sir etuvchi axborot oqimi asosan media kanal va vositalar orqali amalga oshirilmoqda.

S.Babadjanov o‘zining tadqiqotlarida quyidagi fikrlarni aytib o‘tgan. **Media** - lotincha media, medium - vosita, o‘rtada turuvchi, muhit ma’nosini anglatadi va an’anaviy (bosma, radio, ovozli, kinematograf, televideniye) hamda zamonaviy ommaviy axborot vositalari (video, mobil telefonlar, CD, DVD, kompyuter, internet)ni o‘z ichiga oladi. Axborotlashgan jamiyat davrida har bir inson o‘zining ongli hayotining ilk davrlaridan boshlab kerakli axborotlarni mustaqil ravishda izlash, mediakanallar orqali ko‘rgan, o‘qigan va eshitganlariga nisbatan ijodiy munosabatda bo‘lishni o‘rganishi, mediamatnlarni tanqidiy tahlil qilish va baholay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim. Fikrimizning isboti sifatida media kanallar orqali berilayotgan eng keng tarqalgan G’arb seriallarini misol qilishimiz mumkin. Albatta, ular ichida tarbiyaviy jihatdan ma’lum bir qimmatga egalari ham bor, lekin bizning milliy qadriyatlarimiz va an’analarimizga mos kelmaydigan, ko‘p hollarda o‘zligimiz, mentalitetimizga tamomila teskari bo‘lganlarining ham mavjudligini hayot ko‘rsatmoqda.

Media kanallar va ijtimoiy tarmoqlar (Fecbook, Instagram, You-tub, Tik tok va boshqalar) orqali namoyish etilayotgan G’arb seriallari va turli ma’naviyatsiz roliklar go‘yoki oddiy hayotiy vaziyatlar asosiga qurilgan syujet orqali tomoshabinlarga zo‘ravonlik, behayolik g‘oyalarini xuddi bir oddiy holat sifatida, me’yor va «G’arbning ommaviy madaniyati» sifatida singdirilib kelinmoqda. Aslida G’arb davlatlari aholisining aksariyati ham bunday axloqiy me’yorlarni qo‘llab-quvvatlamaydi.

Shu o‘rinda harbiy xizmatchilarga turli doiralarda ta’sir etuvchi axborot manbaining o‘rni katta. Umuman olganda, axborot manbai insonning bilim dunyosini boyitishi bilan birga uning qarashlari, ruhiyati va qadriyatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqqan holda, uni **salbiy yoki ijobiy** axborot manbalariga ajratish mumkin. Bizning fikrimizcha, harbiy xizmatchilarning tinchlik va urush davrida axborot-psixologik xavfsizligini ta’minlashda aynan salbiy axborot manbasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. **Salbiy axborot manbai** tushunchasiga mahalliy va xorijlik mutaxassislar tomonidan turli ta’riflar berilgan. Jumladan, bu haqda professor A. Mo‘minov shunday deydi: “Bir guruhga o‘z maqsadlarini ko‘zlab, boshqalarga axborot-psixologik ta’sir ko‘rsatishning turli usullaridan faydalanadigan, boshqalarning manfaatlarini hisobga olmaydigan, ularni chalkashtiradigan, boshqalarning manfaatlariga zid harakat qilgan holda ularga ziyon yetkazadigan odamlarning xatti-harakatlarini birlashtirish mumkin” [5].

Mutaxasislarning fikrlariga ko‘ra agar axborot destruktiv maqsadlarda amalga oshirilgan bo‘lsa, u holda bu axborot buzilgan axborot sifatida baholanadi.

Destruktiv axborotlarning quyidagi asosiy shakllariga ajratish mumkin:

1. **“Ob’ektiv – qalbakilashtirilgan axborot”**. Bunda ongli ravishda yoki beixtiyor ob’ektiv axborotning asl nusxasi qalbakisiga almashtirilib, buzib ko‘rsatiladi, sohtalashtiriladi, oqibatda bema’ni qarashlar va g‘oyalar yuzaga keladi. Bunday holda go‘yoki voqea va hodisa yashirilmaydi, ammo ular haqidagi axborot soxtalashtiriladi.

2. **“Tizimli-chalg‘ituvchi axborot”**. Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy holati, boshqa xalqlar va davlatlar bilan munosabatlari va h.k. borasidagi holatni noto‘g‘ri belgilovchi - “chalg‘ituvchi axborot” bo‘lib hisoblanadi. Bunday axborot ham sub’ektiv jihatdan e’tiborni tortuvchi siyosiy g‘oyalarni yuzaga keltirishi mumkin.

3. **“Uyushtirilgan – destruktiv (buzg‘unchi) axborot”**. Muayyan jamiyatda axborotning to‘g‘ri tartibga solinishi axloqiy tamoyillarni, iqtisodiy talablarni, barkamol avlodni tarbiyalashni ta’minlaydi. Afsuski, muayyan bir holatlarda izchillikning buzilishi, fikrlarning tugal emasligi, yanglish fikrlashlar, tartibsizliklar, axloqiy tuturuqsizliklar natijasida “siyosiy g‘oyalarning keskin o‘zgarishi”ni yuzaga keltiruvchi, ma’naviy qadriyatlarni ham o‘zgartirib yuboruvchi “buzg‘unchi axborot” tarqatilishi bilan bog‘liq salbiy jarayon ro‘y berishi mumkin.

4. **“Yetarli - entropiyali siyosiy axborot”.** Bunday holda ommaviy kommunikatsion vositalarda qisqa, ishonchli va isbotlangan axborotlar o‘rniga fantastik va aqlga sig‘maydigan ma’lumotlar paydo bo‘ladi. Turli OAVlari, siyosiy partiyalar, karomatgo‘ylar ma’lumni–noma’lum, tushunarlini–tushunarsiz, xunukni–chiroyli, aniqni– noaniq deb izohlay boshlaydilar. Natijada yuzaki, aqlga to‘g‘ri kelmaydigan va bema’ni tushunchalar shakllanadi. Hayotning turli jabhalari haqida voqelikka to‘g‘ri kelmaydigan tasavvur tug‘iladi, sarob “haqiqat”lar yuzaga keladi.

5. **“Ijtimoiylashuvchi siyosiy axborot” – “siyosiy chalg‘ituvchi axborot”**. Ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar va uning yo‘nalishlari aholining aksariyat qismi uchun tushunarli va yorqin shakldagi bir-biriga o‘xshash stereotiplar va yangi algoritmlar to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlarning transformatsiyalanishi natijalari “ijtimoiylashuvchi siyosiy axborot”da aks etadi. Ayni paytda “ijtimoiylashuvchi siyosiy axborot”ni jamoatchilik fikrini go‘yoki haqiqatdek ko‘rsatuvchi yolg‘on xabarlar bilan chalg‘ituvchi “siyosiy buzg‘unchi axborot” bilan almashtirish mumkin. Axborot jarayonlaridagi bu kabi harakatlar natijasida ommaviy “siyosiy fikrlash poyma-poyligi”, deya ataluvchi jarayon rivojlanadi. Ma’lum tasavvurlar, tushunchalar, fikrlar haqiqiy tarixiy bog‘liqligini yo‘qotgan holda, buziladi, axborot oqimi olamning qayta shakllantirilgan yangi qiyofasini namoyon etuvchi ma’nosiz lavhalarga bo‘linib ketadi. U haqdagi tasavvur va xulosalar ham yaxlit voqelikni ifodalay olmaydi.

6. **“Betartib (boshboshdoq) siyosiy axborot”**, ya’ni ma’muriy boshqaruv tizimini izdan chiqarib, jamoatchilik tartibini buzuvchi, xo‘jalik va moliyaviy faoliyatning barbod bo‘lishga olib keluvchi axborot hisoblanadi. Asosiy belgisi sirtdan qaraganda to‘g‘ri va jozibador shaklga ega bo‘lsa-da, aslida mutlaqo mazmunsiz, g‘aliz dasturlash-tirilgan siyosiy chiqishlardan iboratusullar vositasida amalga oshiriladi.

7. **“Omilkor (qulay) axborot” – “axloqsizlashgan siyosiy axborot”** ta’qiqlangan harakatlarni amalga oshirishga majbur etadi, natijaga erishish uchun maqsadga muvofiq bo‘lmagan vositalar qo‘llaniladi, zo‘ravonlik huquqi haqiqat huquqining o‘rnini egallaydi va h.k. Axloqsiz siyosiy axborotning tarqatilishi “uzuq-yuluq siyosiy mushohada” fenomenini yuzaga keltiradi. Bunday holatda buzg‘unchi tushuncha va tasavvurlar tasodifiy va formal belgilar asosida bir-biri bilan uyg‘unlashadi.

8. **“Zaruriy axborot” - “ajratib yuboruvchi siyosiy axborot”**, uning ta’sirida yaxlit jamiyat raqobatlashuvchi, qarshi kurashuvchi qismlarga ajralib ketadi. Bu xildagi axborotning ta’siri oqibatida fuqarolar urushi (“akaning ukaga qarshi”, “o‘g‘ilning otaga qarshi” va h.k. kabi birodarkushliklar) yuzaga kelishi mumkin. [6]

Bundan tashqari axborot, turli sohalar bilan o‘zaro aloqadorlikda bo‘ladi va ular ijtimoiy munosabatlarning kechishini ta’minlaydi. Fikrimizcha, axborot xabarlardan tarkib topib, har bir xabar o‘zida quyidagi uchta psixologik xossalarni ifodalaydi:

- xabar (*axborot iste’molchisini jarayon dinamikasidan xabardor etish*);
- xabarni iste’molchiga zavq baxshida etuvchi tarkibi (*axborot iste’molchisining faoliyatini mazmuniga ta’sir ko‘rsatish*);
- xabarni ishontiruvchi tarkibi (*axborot iste’molchisini ongiga ma’lum g‘oyani singdirish*).

Psixolog olimlar olib borgan tadqiqotlarida takidlanishicha, agarda, axborotda vayronkor g‘oya ifodalangan bo‘lsa, turli ko‘rinishdagi agressiv xulq namunalari ifodalanib, destruktiv “Men”, egotsentrizm, separatizm, milliy shovinizm kabi destruktiv xulq namunalari ifodalanib, jamiyat hayotining turli sohalarida muammolar ifodalanadi. Shu sababli, axborot-psixologik xavfsizlik va axborotning psixologik xavfsizligi ochiq va yopiq sathlarda institutsional tarzda ta’minlanadi.

Shuningdek ochiq sathda OAV yordamida uzatilayotgan axborotlar ifodalanadi. Ularning maqsadi, kechayotgan jarayonlardan insonlarni xabardor etib, ommaviy ongni shakllantirish uchun madaniylashtirish, ogohlantirish, maqsadni shakllantirish va qadriyatlarni mohiyatini anglash uchun ma’rifiy asos yaratadi. Yopiq sathga esa, iqtisodiy-siyosiy masalalarga taalluqli bo‘lgan

axborotlar kirib, ularda davlatning ichki va tashqi faoliyatiga, siyosiy yetakchilari shaxsi va faoliyatiga, siyosiy institutlarga taalluqli bo‘lgan axborotlar kiradi. Nazariy jihatdan, axborotning xavfsizligi texnik va psixologik jihatdan ta’minlanadi**.** [7]

Bugungi axborot asrida OAVning kuchli ta’siri natijasida oqni qoradan, yaxshini yomondan ajrata olish uchun yetarli hayotiy tajribaga ega bo‘lmagan harbiy xizmatchilar salbiy va destruktiv axborotlar ta’siriga tez tushuvchi qatlam hisoblanadi.

E.Xilderikning yozishicha jamiyatda yolg‘on va destruktiv axborotlarni tarqatishga quydagilar misol bo‘lishi mumkin:

- OAVda bila turib yolg‘on yangiliklar yoki tuhmat; spirtli ichimliklarni reklama qilish; “iqtisodiy prognozlar” yordamida salbiy vahima uyg‘otish; narx belgilari yoki mahsulot yorliqlari bo‘yicha noto‘g‘ri ma’lumotlar; siyosatchilarning saylovoldi va’dalarining bajarilmaganligi; milliy mojarolarni qo‘zg‘atish uchun tarixiy faktlarni jonlantirish; oilani buzadigan turmush tarzini targ‘ib qilish; g‘ayrioddiy jinoyatlar to‘g‘risida batafsil ma’lumot**.** [8]

Bundan tashqari Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkilotining axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kelishuvi bitimida **destruktiv axborot ta’siri deganda** - davlat organlari faoliyatini buzish, milliy xavfsizlikni zaiflashtirish, axborot-kommunikatsiya tizimlari, tarmoqlari va resurslariga, muhim va boshqa tuzilmalarga zarar yetkazish, davlatlararo munosabatlarni yomonlashtirish, ichki ijtimoiy siyosiy keskinlik, an’anaviy ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni yo‘q qilish, milliy axborot resurslari ustidan nazoratni o‘rnatish, favqulodda vaziyatlar xavfini tug‘dirish, KXShTga a’zo davlatlarning milliy manfaatlariga boshqa zarar yetkazish.

Bugungi kunning inkor etib bo‘lmaydigan xaqiqat shuki, internetomaniya kasalligiga duch kelgan harbiy xizmatchilar o‘zining ko‘p vaqtini bexudaga sarflash bilan o‘tkazmoqdalar, buning oqibatida ularga xam psixologik xam jismoniy va iqtisodiy jixatdan zarar yetmoqda. Ko‘p xolatlarda virtual dunyo harbiy xizmatchilarning ijtimoiy faolligi o‘rnini qoplab, real dunyodan ajratib qo‘ymoqda.

Bizning harbiy xizmatchilarda mediaaxborotlarni to‘liq va to‘g‘ri tushunishlari uchun axborotlarni taxlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim.

Insoniyat hayotiga televideniye, gazeta, jurnal, kino, radio va internet singib ketgan. Yuqoridagi faktlarni inobatga olib internetni cheklash va taqiqlash, media kanallarda uzatilayotgan turli syujetlardan chegaralash, ya’ni barcha turdagi axborotlar ta’siridan izolyatsiyalash imkoni yo‘qligini anglatadi.

Jamoatchilik fikrini buzg‘unchi g‘oyalarga yo‘naltirmaslik uchun OAV nazorat qilish kerak emas, balki “destruktiv axborot manbalari ustidan nazoratni”

amalga oshirish lozim. Ushbu nazorat asosan davlat qonunchiligi asosida tartibga solinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Destruktiv axborot manbalarini nazorat qilish to‘g‘risidagi qonun jamiyatda siyosiy tamoyillarni sezilarli darajada kuchaytiradi, shu bilan birga demokratik tamoyillarni buzilmasligiga asos bo‘lib xizmat qiladi deb xisoblaymiz.

Xulosa o‘rnida, mamlakatimizda turli vazirliklar, qo‘mita va idoralar, barcha muassasalar harbiy xizmatchilar va yoshlarni sport, ma’naviy-ma’rifiy, harbiy vatanparvarlik yo‘nalishidagi turli dastur va loyihalarda o‘zini namoyon qilishlariga ko‘maklashishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratishlari maqsadga muvofiq:

- ularning kasbiy, kognitiv, ijtimoiy faoliyat sohalarida muhim strategik yo‘nalishlarni aniqlab olishlariga yordam beradigan qadriyatlar tizimini shakllantirish;

- ijtimoiy takomillashuv va mas’uliyat hissini tarkib toptirishga ko‘maklashuvchi ma’naviy yuksalish, tafakkur madaniyati ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- yosh avlod mansub bo‘lgan ijtimoiy guruh vakillarida jamiyatga foyda keltirish bilan bog‘liq faoliyat turlari bilan shug‘ullanishni nazarda tutadigan qadriyatlar tizimini, yo‘l-yo‘riqlarni tarkib toptirilishi lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. X.Kollins inglis tili lug‘ati - 2 Edition. 2002 © Harper Collins Publishers 1995. https://ru.wikipedia.org/wikip/ 2020 y
2. U.Qodirov “Buzg‘unchi g‘oyalar: sabab va oqibatlar tahlili” nomli maqola, Maxalladosh gazetasi. Toshkent, 05.03.2020 http://mahalladosh.uz/post?id=7778
3. Mo‘minov A. “O’zbekiston: axborotlashgan jamiyat sari.-T.: “Turon zamin ziyo” nashriyoti, 2013.- 140-141 b.
4. M.Ulug‘bek nomidagi O’zbekiston Milliy Universiteti “Axborot-psixologik xurujlaridan himoya qilish texnologiyalari” o‘quv-uslubiy majmuasi. Toshkent 2014. 11-13 b.
5. Samarov R.S. va Xaydarov K.A. Axborot xavfsizlik psixologiyasi. 2018. 3-4b. XDFU
6. E.Xilderik “Destruktiv axbort to‘g‘risida” gi qonun nomli maqolasi 1999 yil
7. Konsepsiya informatsionnoy bezopasnosti Respubliki Belarus, utverjdennaya postanovleniyem Soveta Bezopasnosti Respubliki Belarus ot 18 marta 2019 g. № 1 St. 2

BO‘LAJAK OFITSERLARNI KIBERMAKONDAGI AXBOROT XURUJIGA QARSHI KURASHISH UCHUN TAYYORLASH USULLARI

podpolkovnik Miryusupov Mirsaid Mirolimovich
Mudofaa vazirligi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo'lajak ofitserlarni kibermakondagi axborot xurujlariga qarshi kurashish uchun tayyorlash usullari ko'rib chiqiladi. Kiberxavfsizlik harbiy tizimlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ofitserlar axborot xurujlarini aniqlash va ularga samarali javob berish qobiliyatini rivojlantirishlari zarur. Maqola, tayyorgarlik jarayonini, zamonaviy usullarni va amaliy tajribalarni tahlil qiladi.*

Kalit so'zlar: *Kibermakon, axborot xurujlari, tayyorlash usullari, harbiy ofitserlar, kiberxavfsizlik, simulyatsiyalar, amaliy tajribalar, tahdidlarni aniqlash.*

Аннотация: *В данной стате рассматриваются методы подготовки будущих офицеров к борбе с кибератаками в киберпространстве. Кибербезопасност имеет важное значение для военных структур, и офицеры должны развиват способност выявлят кибератаки и эффективно на них реагировать. Статя анализирует процесс подготовки, современные методы и практический опыт.*

Ключевые слова: *Киберпространство, кибератаки, методы подготовки, военные офицеры, кибербезопасност, симуляции, практический опыт, выявление угроз.*

Kirish

Kibermakon zamonaviy hayotimizda muhim o'rin tutadi. U global aloqa va axborot almashinuvi uchun asosiy maydon bo'lib, harbiy tizimlar uchun ham alohida ahamiyatga ega. Kiberxavfsizlikni ta'minlash va axborot xurujlariga qarshi kurashish bo'lajak ofitserlar uchun dolzarb masala hisoblanadi.

Kibermakonning ahamiyati

Kibermakon, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga ta'sir ko'rsatishi bilan birga, harbiy operatsiyalarning samaradorligini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Kiberxavfsizlikni ta'minlash orqali harbiy kuchlar o'z operatsiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkin.

Axborot xurujlariga qarshi kurashishning zaruriyati

Kiber tahdidlar tobora ko'paymoqda, shuning uchun axborot xurujlariga qarshi kurashish uchun tayyorgarlik zarur. Kiberxavfsizlik bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan ofitserlar, axborot tizimlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

Bo'lajak ofitserlarni tayyorlash jarayoni

Bo'lajak ofitserlarni tayyorlash jarayoni quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. **Teoretik ta'lim**: Kiberxavfsizlik asoslari, kiber tahdidlar va ularga qarshi kurashish metodlari haqida nazariy bilimlar berish.
2. **Amaliy mashg'ulotlar**: Nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish uchun simulyatsiyalar va tajriba almashish.

Bo'lajak ofitserlar kiberxavfsizlik sohasidagi yangiliklar va tendensiyalar bilan tanishishlari zarur. Bu bilimlar kiber tahdidlarga samarali javob berish imkonini beradi.

Simulyatsiyalar kiber tahdidlarni aniqlash va ularga javob berish qobiliyatini rivojlantirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Amaliy mashg'ulotlar orqali ofitserlar real hayotdagi vaziyatlarga tayyorlanishadi va o'z ko'nikmalarini sinab ko'rishadi.

Axborot xurujlarini aniqlash va ularga javob berish

Axborot xurujlarini aniqlash va ularga to'g'ri javob berish qobiliyati harbiy ofitserlar uchun zarur. Bu jarayonni o'rganish orqali ular kiber tahdidlarga samarali qarshi turish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Ushbu jarayonlar bo'lajak ofitserlarni kibermakondagi axborot xurujlariga qarshi kurashishga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Amaliy tajribalar kiberxavfsizlik sohasida bo'lajak ofitserlarni tayyorlash jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ular nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga yordam beradi va real vaziyatlarda qanday harakat qilishni o'rganishga imkon yaratadi.

Real vaziyatlarni simulyatsiya qilish

1. **Simulyatsiya mashg'ulotlari**: Real vaziyatlarni simulyatsiya qilish jarayonida ofitserlar kiber tahdidlar va axborot xurujlariga qarshi kurashish strategiyalarini amalda sinab ko'rishadi. Masalan, kiber hujumlarni amalga oshiruvchi shartli raqiblar bilan ishlash, hujumlarni aniqlash va javob berish usullarini rivojlantirish simulyatsiyalarida ko'zga tashlanadi.
2. **Interaktiv o'quv dasturlari**: Kiberxavfsizlikka doir interaktiv dasturlar yordamida ofitserlar kiber tahdidlar bilan bog'liq vaziyatlarni real vaqt rejimida ko'rib chiqishlari mumkin. Bu jarayonlarda har bir ofitser o'z xatti-harakatlarini baholash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Amaliyot o'tkazish va tajriba almashish

1. **Amaliyot o'tkazish**: Kiberxavfsizlik bo'yicha amaliyotlar o'tkazish jarayonida ofitserlar real tashkilotlarda ishlash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu jarayonda ularning bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llashlari va yangi tajribalar orttirishlari muhimdir.
2. **Tajriba almashish**: Kiberxavfsizlik bo'yicha tajriba almashish, boshqa davlatlar yoki tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon davomida ofitserlar boshqa mutaxassislardan o'rganish va yangi usullarni o'zlarining amaliyotlariga joriy etish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Xulosa

Bo'lajak ofitserlarning kiberxavfsizlik sohasidagi roli muhim ahamiyatga ega. Ular mamlakat xavfsizligini ta'minlashda, axborot tizimlarini himoya qilishda

va kiber tahdidlarga qarshi kurashishda muhim vazifalarni bajaradilar. Kiber tahdidlar doimiy ravishda rivojlanayotganligi sababli, ofitserlarning tayyorgarlik jarayonlari ham takomillashishi zarur.

Kelajakda tayyorgarlik jarayonlarini takomillashtirish yo'llari

1. **Innovatsion ta'lim dasturlari**: Kiberxavfsizlik sohasidagi yangi texnologiyalar va metodologiyalarni o'z ichiga olgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish. Bu dasturlar zamonaviy xavflarga qarshi kurashish uchun zarur bilim va ko'nikmalarni berishi kerak.
2. **Mavjud amaliyotlarni takomillashtirish**: Amaliy mashg'ulotlar va simulyatsiyalarni kengaytirish, ularni real sharoitlarda o'tkazish imkoniyatlarini ko'rib chiqish.
3. **Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish**: Boshqa mamlakatlar bilan hamkorlik qilish va tajriba almashish orqali tayyorgarlik jarayonlarini yanada kuchaytirish.
4. **Innovatsion texnologiyalarni qo'llash**: Kiberxavfsizlik sohasidagi innovatsion texnologiyalarni o'rganish va joriy etish, masalan, sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish metodlarini integratsiyalash.

Ushbu yondashuvlar bo'lajak ofitserlarning tayyorgarlik jarayonlarini takomillashtirishga va ularni kiber tahdidlarga samarali qarshi turishga tayyorlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Akhmedov A.** "Kiberxavfsizlik: Nazariya va amaliyot", Fan va texnologiya, 250 bet, 2020 yil.
2. **Xolov M.** "Kiber tahdidlar va ularga qarshi kurash", Toshkent universiteti, 180 bet, 2018 yil.
3. **Kolesov A.** "Kiberxavfsizlik: Usloviy va metodologiya", Aspekt Press, 320 bet, 2019 yil.
4. **Shestakov V.** "Kiber tahdidlar va himoya usullari", Leningrad universiteti, 220 bet, 2021 yil.
5. **Ivanov S.** "Informatsionnaya bezopasnost' v tsifrovoy epokhe", Infra-M, 350 bet, 2022 yil.
6. **Shostack A.** "Threat Modeling: Designing for Security", Wiley, 336 bet, 2014 yil.

KIBERMAKONDA SHAXSIY TARKIBNI MUNOSIB TAYYORLASH

polkovnik DAVLATOV O‘ktam Raimboyevich
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti boshlig’ining o’rinbosari-shtab boshlig‘i,PhD, dotsent

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kibermakon shaxsiy tarkibini munosib tayyorlash masalasi ko'rib chiqiladi. Kibermakon sohasida ishlovchi mutaxassislar yuqori darajadagi bilim va malakalarni talab qiladi, shuning uchun ularni tayyorlash jarayoniga e'tibor qaratish zarur. Maqola, Kibermakon mutaxassislarining tayyorgarlik jarayonini, ta'lim dasturlarini va amaliy tajribalarni tahlil qiladi.*

Kalit so'zlar: *Kibermakon, shaxsiy tarkib, tayyorlash, ta'lim dasturlari, amaliy tajriba.*

Аннотация: *В данной стате рассматривается вопрос надлежащей подготовки персонала в области киберпространства. Специалисты, работающие в сфере киберпространства, требуют высоких уровней знаний и навыков, поэтому необходимо уделят внимание процессу их подготовки. Статя анализирует процесс подготовки специалистов в области киберпространства, учебные программы и практический опыт.*

Ключевые слов: *Киберпространство, персонал, подготовка, учебные программы, практический опыт.*

Kirish

Kibermakon zamonaviy hayotimizda muhim o'rin tutadi, chunki u iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda katta ta'sir ko'rsatadi. Kibermakon sohasida ishlovchi mutaxassislar yuqori darajadagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur, chunki ularning faoliyati nafaqat shaxsiy xavfsizlik, balki milliy xavfsizlik uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Kibermakonning ahamiyati

Kibermakon, internet va axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan birga, global aloqa va axborot almashinuvi uchun asosiy maydonga aylandi. Kibermakon:

- **Iqtisodiy o'sish**: Raqamli iqtisodiyot Kibermakon orqali rivojlanadi va yangi imkoniyatlar yaratadi.
- **Ijtimoiy aloqalar**: Odamlar o'rtasidagi muloqotni osonlashtiradi va yangi ijtimoiy tarmoqlarni yaratadi.
- **Xavfsizlik**: Kiber tahdidlarga qarshi kurashish va axborot xavfsizligini ta'minlash muhim masala hisoblanadi.

Shaxsiy tarkib tayyorlashning zaruriyati

Kibermakon sohasida ishlovchi mutaxassislarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Shaxsiy tarkib tayyorlash quyidagi sabablarga ko'ra zarur:

1. **Tahdidlarga qarshi kurashish**: Kiber tahdidlar ko'payib bormoqda va ularga qarshi kurashish uchun malakali mutaxassislar kerak.
2. **Innovatsion texnologiyalar**: Yangi texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish uchun tayyorlangan mutaxassislar talab qilinadi.

3. **Milliy xavfsizlik**: Kiberxavfsizlik milliy manfaatlarni himoya qilish uchun muhimdir.

Kibermakon mutaxassislari tayyorgarligi

Kibermakon mutaxassislari tayyorgarligi bir necha muhim jihatlardan iborat:

Ta'lim dasturlari va metodlari

1. **Teoretik ta'lim**: Kiberxavfsizlik, kiber tahdidlar va ularni boshqarish bo'yicha nazariy bilimlar berish.

2. **Amaliy darslar**: Mutaxassislar uchun real hayotdagi vaziyatlarga mos keladigan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish.

3. **Seminarlarda ishtirok etish**: Ekspertlar va amaliyotchilar bilan seminarlar, konferentsiyalar o'tkazish orqali bilim va tajriba almashish.

Malaka oshirish kurslari

Malaka oshirish kurslari Kibermakon mutaxassislari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan:

1. **Maxsus sertifikatlash dasturlari**: Kiberxavfsizlik sohasidagi sertifikatlar (masalan, CISSP, CEH) orqali malaka oshirish.

2. **Yangiliklarga moslashish**: Kiber tahdidlar va texnologiyalardagi o'zgarishlarga tezda moslashishga yordam beradigan kurslar.

3. **Tajribali mutaxassislar bilan hamkorlik**: Amaliyot o’tkazish va tajriba almashish imkoniyatlari orqali o'z bilimlarini kengaytirish.

Ushbu tayyorgarlik jarayonlari Kibermakon mutaxassislarini zamonaviy talablar darajasida tayyorlashga yordam beradi va ularning professionallik darajasini oshiradi.

Amaliy tajribalar

Amaliy tajribalar Kibermakon mutaxassislari tayyorgarligi jarayonida muhim o'rin tutadi. Ushbu tajribalar orqali mutaxassislar nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Simulyatsiyalar va amaliy mashg'ulotlar

1. **Simulyatsiya mashg'ulotlari**: Kiber tahdidlar simulyatsiyalash orqali harbiy va fuqarolik mutaxassislari real vaziyatlarga yaqin sharoitlarda o'z ko'nikmalarini sinab ko'rishadi. Bu jarayonda kiber hujumlarni aniqlash, ularga to'g'ri javob berish va oqibatlarini minimallashtirish o'rganiladi.

2. **Amaliy mashg'ulotlar**: Amaliyotlar davomida mutaxassislar kiber xujumlar simulyatsiyalarida ishtirok etadilar. Ular tarmoqni himoya qilish, kiber tahdidlarni aniqlash va ularga qarshi strategiyalarni amalga oshirishda o'zlarini sinab ko'rishadi.

Kiber tahdidlarga tayyorgarlik

Kiber tahdidlarga tayyorgarlik jarayoni harbiy va fuqarolik xodimlarining kiberxavfsizlik sohasida muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur. Bu jarayon:

1. **Axborot yig'ish va tahlil**: Kiber tahdidlarni va ularning xususiyatlarini o'rganish, oldindan ma'lumot yig'ish orqali tahdidlarni aniqlash.

2. **O'z-o'zini himoya qilish**: Harbiy va fuqarolik xodimlarining kiber tahdidlarga qarshi o'zlarini himoya qilish usullarini o'rganish.

3. **Strategiya ishlab chiqish**: Kiber tahdidlarga qarshi kurash strategiyalarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish.

Xulosa

Kibermakon sohasidagi shaxsiy tarkibni tayyorlash jarayoni zamonaviy xavflarga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega. Kiber tahdidlarga tayyorgarlik, simulyatsiyalar va amaliy tajribalar orqali mutaxassislar o'z bilim va ko'nikmalarini oshirishadi.

Kibermakon sohasidagi shaxsiy tarkibni tayyorlashning kelajakdagi yo'nalishlari

1. **Texnologik yangiliklarga moslashuv**: Kiber tahdidlarga qarshi kurashishda yangi texnologiyalar va metodlarni joriy etish.

2. **Ta'lim va malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish**: Ta'lim dasturlarini yangilash va amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan kurslarni ishlab chiqish.

3. **Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish**: Kiberxavfsizlik bo'yicha boshqa davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va tajriba almashish.

Kibermakon mutaxassislarining roli va ahamiyati

Kibermakon mutaxassislari zamonaviy xavfsizlik tizimlarida muhim rol o'ynaydi. Ular kiber tahdidlarga qarshi kurashishda, axborotlarni himoya qilishda va xavfsizlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Ularning bilim va ko'nikmalari kiberxavfsizlikni ta'minlashda va milliy xavfsizlikni mustahkamlashda asosiy omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akhmedov A. "Kiberxavfsizlik: Nazariya va amaliyot", Fan va texnologiya, 250 bet, 2020 yil.
2. Xolov M. "Kiber tahdidlar va ularga qarshi kurash", Toshkent universiteti, 180 bet, 2018 yil.
3. Kolesov A. "Kiberxavfsizlik: Usloviy va metodologiya", Aspekt Press, 320 bet, 2019 yil.

KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA QO'SHINNING MA'NAVIY MA'RIFIY TAYYORGARLIGINING O'RNI

podpolkovnik ***SHERMATOV Fayzullo Toshtillayevich***

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy insituti boshlig‘ining o‘rinbosari, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Kiberxavfsizlikni ta'minlashda qo'shinlarning Ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarligi masalasi ko'rib chiqiladi. Kiberxavfsizlik zamonaviy harbiy operatsiyalar uchun muhim ahamiyatga ega, shuning uchun harbiy xodimlarning bilim va malakalarini oshirish zarur. Maqola, harbiy xodimlarni kiber tahdidlarga tayyorlash va ularni Ma’naviy-ma’rifiy jihatdan tarbiyalash usullarini tahlil qiladi.*

Kalit so'zlar: *Kiberxavfsizlik,qo'shin, ma'naviy-marifiy tayyorgarlik, harbiy operatsiyalar, kiber tahdidi,ta'lim.*

Аннотация: *В данной стате рассматривается вопрос морально-этической подготовки военнослужащих для обеспечения кибербезопасности. Кибербезопасност имеет важное значение для современных военных операций, поэтому необходимо повышат знания и навыки военнослужащих. Статя анализирует методы подготовки военных к киберугрозам и их морально-этическое воспитание.*

Ключевые слова: *Кибербезопасност, войска, морально-этическая подготовка, военные операции, киберугроза, образование.*

Kirish

Kiberxavfsizlik zamonaviy davrda har qanday tashkilot, jumladan, harbiy tuzilmalar uchun muhim masala bo'lib qolmoqda. Harbiy operatsiyalar kiber tahdidlardan xoli bo'lmaydi va ularning samarali amalga oshirilishi uchun qo'shinlarning kiberxavfsizlikka tayyorligi zarurdir. Ushbu kirish qismida kiberxavfsizlikning ahamiyati va qo'shinlarning rolini aniqlab beramiz.

Kiberxavfsizlik – bu axborot tizimlarini, kompyuter tarmoqlarini va ma'lumotlarni kiber tahdidlardan himoya qilish jarayonidir. Hozirgi kunda kiber tahdidlar har qanday tashkilotga, jumladan, davlat xavfsizligi va harbiy operatsiyalarga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Kiberxavfsizlikning ahamiyatini quyidagi omillar orqali ko'rsatish mumkin:

1. **Milliy xavfsizlik**: Kiberhujumlar orqali davlat sirlarini o'g'irlash, harbiy tizimlarga zarar yetkazish yoki qiyin vaziyatlarni keltirib chiqarish mumkin. Shuning uchun, harbiy tuzilmalar kiberxavfsizlikni ta'minlashga alohida e'tibor berishlari zarur.
2. **Ma'lumotlarni himoya qilish**: Harbiy ma'lumotlar va strategiyalarni muhofaza qilish kiberxavfsizlikning asosiy vazifalaridan biridir. Axborotlar buzilganda yoki o'g'irlanganda, bu nafaqat harbiy operatsiyalarga, balki davlat obro'siga ham zarar yetkazishi mumkin.

3. **Texnologik taraqqiyot**: Kiberxavfsizlik yangi texnologiyalar bilan birga rivojlanadi. Harbiy sohada zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ularni himoya qilishni talab qiladi.

Qo'shinlarning rolini aniqlash

Qo'shinlar kiberxavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ularning roli quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. **Tayyorlik**: Harbiy xodimlar kiber tahdidlarga qarshi kurashish uchun malaka va bilimga ega bo'lishlari kerak. Bu, o'z navbatida, kiberxavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.
2. **Rejalar va strategiyalar**: Qo'shinlar kiber tahdidlarga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadilar. Ularning tayyorgarlik darajasi va bilimlari bu jarayonda muhim ahamiyatga ega.
3. **Axborot almashinuvi**: Qo'shinlar o'rtasida axborot almashinuvi va hamkorlik kiberxavfsizlikni yanada mustahkamlashga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, samarali va tezkor qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi.
4. **Ma'naviy tayyorgarlik**: Kiberxavfsizlik faqat texnologiya va strategiya emas, balki harbiy xodimlarning Ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarligini ham talab qiladi. Harbiy xodimlar kiber tahdidlar va ularning oqibatlarini tushunishlari zarur.

Ushbu omillar kiberxavfsizlikni ta'minlashda qo'shinlarning rolini belgilab beradi va ularni tayyorlash zaruratini ko'rsatadi. Kiberxavfsizlikning o'sib borayotgan ahamiyati va tahdidlarga qarshi samarali kurashish uchun qo'shinlarning tayyorgarligi bugungi kunda muhim masalalardan biridir.

Ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik

Ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik harbiy xodimlarning axborot, bilim, va madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonidir. Bu tayyorgarlik kiberxavfsizlikda muhim ahamiyatga ega, chunki harbiy xodimlar nafaqat texnologiyalarni, balki axborot xavfsizligi qoidalarini ham yaxshi bilishlari kerak. Ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik orqali harbiy xodimlar:

- Kiber tahdidlar va ularning oqibatlarini tushunishadi.
- Xavfsiz va mas'uliyatli ish olib borish uchun zarur bo'lgan axborot va malakalarni o'zlashtirishadi.
- O'zlarining professional mahoratlarini oshirib, jamoaviy ishda samarali bo'lishadi.

Kiberxavfsizlikdagi roli

Ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik kiberxavfsizlikda quyidagi rollarni o'ynaydi:

1. **Tahdidlarni aniqlash**: Harbiy xodimlar tahdidlarni va ularning xususiyatlarini aniqlashda Ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlikdan foydalangan holda samarali qarorlar qabul qilishlari mumkin.

2. **O'z-o'zini himoya qilish**: Kiberxavfsizlik haqida chuqur bilimga ega bo'lgan xodimlar, o'zlarini va o'z tashkilotlarini kiber tahdidlardan himoya qilishda ko'proq mas'uliyatli bo'ladilar.

3. **Ta'lim va tarbiya**: Yangi avlod harbiy xodimlarini tayyorlashda Ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik katta rol o'ynaydi, chunki ularni kiberxavfsizlik sohasida o'zlarini ifoda etishga tayyorlaydi.

Kiberxavfsizlik tahdidlari

Kiber tahdidlari harbiy tuzilmalar uchun jiddiy xavf tug'diradi. Asosiy tahdidlar quyidagilardan iborat:

1. **Kiberhujumlar**: Bu tajovuzkorlar tomonidan tashkilotlar yoki shaxsiy ma'lumotlarga kirish uchun amalga oshiriladigan harakatlardir. Ular ko'pincha viruslar, trojanlar yoki phishing usullari orqali sodir etiladi.

2. **Ma'lumotlarning o'g'irlanishi**: Kiberjinoyatchilar harbiy sirlarni yoki muhim ma'lumotlarni o'g'irlash uchun turli usullarni qo'llaydilar, bu esa milliy xavfsizlikka tahdid soladi.

3. **Tarmoq infrastrukturasi buzilishi**: Tarmoqni maqsadli ravishda parchalash, ishlamay qolishi yoki ma'lumotlarni o'zgartirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

4. **Ijtimoiy muhandislik**: Bu metodlar orqali hujumchilar odamlarga yoki tashkilotlarga ishonchli bo'lib ko'rinishadi va ma'lumotlarni o'g'irlash uchun foydalanuvchilarni aldagan holda ularni manipulyatsiya qiladilar.

Kiber tahdidlarga qarshi kurash usullari

Kiber tahdidlarga qarshi kurashish uchun bir qator samarali usullar mavjud:

1. **Kiberxavfsizlik ta'limi**: Harbiy xodimlarga kiber tahdidlarga qarshi kurashish va axborot xavfsizligi qoidalarini o'rgatish zarur. Bu tayyorgarlik orqali xodimlar tahdidlarni vaqtida aniqlash va ularga to'g'ri javob berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

2. **Himoya dasturlari**: Kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun antivirus dasturlari, tarmoqni himoya qilish tizimlari va xavfsizlik devorlari kabi vositalardan foydalanish muhimdir.

3. **Axborot almashinuvi**: Harbiy tuzilmalar o'rtasida samarali axborot almashinuvi va hamkorlik kiber tahdidlarga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega. Bu axborotlarni tez va to'g'ri baholashga yordam beradi.

4. **Samarali strategiyalar**: Kiber tahdidlarga qarshi kurash uchun strategiyalar ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va doimiy ravishda yangilab

turish muhimdir. Harbiy tuzilmalarda bu jarayonni rejalashtirish va baholash o'z vaqtida amalga oshirilishi kerak.

Bu usullar harbiy xodimlarning kiber tahdidlarga qarshi kurashishda samaradorligini oshirishga yordam beradi va ularni muhim vazifalarni bajarish uchun tayyorlaydi.

Harbiy xodimlarni tayyorlash

Harbiy xodimlarni kiberxavfsizlik sohasida tayyorlash uchun bir qator ta'lim dasturlari va metodlari mavjud. Ular kiber tahdidlarga qarshi kurashish, axborotlarni himoya qilish va kiber xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan. Asosiy ta'lim dasturlari:

1. **Teoretik ta'lim**: Bu dasturlar kiberxavfsizlikning asosiy tamoyillari, tahdidlar, xavfsizlik qoidalari va standartlari haqida bilim berishga qaratilgan. Teoretik darslar seminarlar, lektiyalar va onlayn kurslar shaklida o'tkazilishi mumkin.
2. **Amaliy ta'lim**: Harbiy xodimlarga amaliy ko'nikmalar berish uchun laboratoriyalar va trening markazlarida o'quv mashg'ulotlari tashkil etiladi. Bu jarayonlar davomida xodimlar turli kiber tahdidlar bilan ishlashni, ularni aniqlash va ularga javob berishni o'rganadilar.
3. **Kiberxavfsizlik sertifikatlash dasturlari**: Harbiy xodimlar uchun maxsus sertifikatlash dasturlari, masalan, CompTIA Security+, CEH (Certified Ethical Hacker), CISSP (Certified Information Systems Security Professional) kabi dasturlar orqali malakalarni oshirishlari mumkin.

Amaliy tajribalar va simulyatsiyalar

Amaliy tajribalar va simulyatsiyalar harbiy xodimlarni kiber tahdidlarga qarshi kurashishda tayyorlashda muhim ahamiyatga ega:

1. **Simulyatsiya mashg'ulotlari**: Kiber tahdidlar simulyatsiyalash orqali harbiy xodimlar real vaziyatlarga yaqin sharoitlarda o'z malakalarini sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu jarayonda tajovuzlarni aniqlash, ularga javob berish va xatolarni tahlil qilish o'rganiladi.
2. **Rol o'ynash mashg'ulotlari**: Harbiy xodimlar jamoa sifatida ishlashni va qiyin vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilishni o'rganadilar. Bu jarayonlar davomida kiberxavfsizlik strategiyalarini amalga oshirish va tajriba almashish muhimdir.
3. **Mashqlar va tajriba almashinuvi**: Harbiy tuzilmalar o'rtasida tajriba almashish va birgalikda o'tkaziladigan mashg'ulotlar, xodimlarning kiberxavfsizlik sohasidagi bilimlarini kengaytirish va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa

Kiberxavfsizlikda Ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlikning o'rni harbiy xodimlarning tayyorgarligida muhim ahamiyatga ega. Ma’naviy-ma’rifiy

tayyorgarlik orqali xodimlar kiber tahdidlarni aniqlash, ularga javob berish va o'zlarini himoya qilish ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.

Kelajakda amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar

1. **O'zgaruvchan tahdidlarga moslashuv**: Kiber tahdidlari doimiy ravishda rivojlanib borayotgani sababli, harbiy ta'lim dasturlari ham yangilanishi zarur. Yangiliklar va yangi tahdidlarga qarshi kurashish uchun tayyorgarlikni doimiy ravishda yangilab turish kerak.
2. **Innovatsion texnologiyalarni joriy etish**: Zamonaviy texnologiyalarni, masalan, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlarni kiberxavfsizlik ta'limida qo'llash xodimlarning malakalarini oshirishga yordam beradi.
3. **Xalqaro hamkorlik**: Boshqa davlatlar bilan kiberxavfsizlik sohasida tajriba almashish va hamkorlik o'rnatish, harbiy xodimlarning kiber tahdidlarga qarshi kurashish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.
4. **Yosh avlodni tayyorlash**: Yangi avlod harbiy xodimlarini tayyorlashda Ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlikni kuchaytirish, ularda kiber tahdidlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sultanov R. F. "Kiber tahdidlarga qarshi kurash: strategiyalar va yondashuvlar", Toshkent: Fan va texnologiya, 210 bet, 2021 yil.
2. Stallings W. "Computer Security: Principles and Practice", Pearson, 800 bet, 2019 yil.
3. Anderson R. "Security Engineering: A Guide to Building Dependable Distributed Systems", Wiley, 832 bet, 2020 yil.
4. Peltier T. R. "Information Security Fundamentals", Auerbach Publications, 300 bet, 2016 yil.
5. Johnson R. "Cybersecurity for Dummies", Wiley, 384 bet, 2021 yil.
6. Shostack A. "Threat Modeling: Designing for Security", Wiley, 336 bet, 2014 yil.

KIBERMAKONDA SALBIY AXBOROT XURUJLARIGA QARSHI KURASHDA BO'LINMA KOMMANDIRLARINING ROLI

polkovnik MAMARAUFOV Olimjon Abdixamitovich

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti "Taktika, umumqo'shin tayyorgarligi va gumanitar fanlar kafedrasi boshlig'i, dotsent

Annotatsiya: *Ushbu maqola Kibermakonlarda salbiy axborot xuruji bo'yicha bo'linma komandirlarining roli va vazifalarini tahlil qiladi. Kiberxavfsizlik sohasidagi zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashda bo'linma komandirlarining strategik ahamiyati, ularning qaror qabul qilish jarayonlari va jamoa boshqarish qobiliyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, axborot xavfsizligini ta'minlashda innovatsion yondashuvlar va usullarni ko'rib chiqamiz.*

Kalit so'zlar: *Kiberxavfsizlik, salbiy axborot xuruji, bo'linma komandirlar, strategiya, qaror qabul qilish, jamoa boshqarish.*

Аннотация: *Данная статя анализирует рол и задачи командиров подразделений в борбе с негативными информационными атаками в киберпространстве. Рассматривается стратегическая важност командиров подразделений в противодействии современным угрозам в области Кибербезопасност, а также их процессы принятия решений и навыки управления командой. Кроме того, обсуждаются инновационные подходы и методы обеспечения информационной безопасности.*

Ключевые слова: *Кибербезопасност, негативные информационные атаки, командиры подразделений, стратегия, принятие решений, управление командой.*

Kirish

Kibermakon tushunchasi: Kibermakon, yoki kiberprostranstvo, raqamli va virtual muhitni anglatadi, unda axborot almashinuvi, kommunikatsiya va turli xil raqamli faoliyatlar amalga oshiriladi. Bu soha global miqyosda internet tarmoqlari, kompyuter tizimlari va raqamli qurilmalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'z ichiga oladi. Kibermakon, shuningdek, kiberxavfsizlik, axborotlarni himoya qilish va hujumlarga qarshi kurash kabi muhim masalalarni ko'rib chiqadi.

Salbiy axborot xuruji va uning tahdidlari: Salbiy axborot xuruji — bu ma'lumotlarni noto'g'ri yoki manipulyatsiya qilingan holda tarqatish orqali shaxsiy, tashkilot yoki davlat manfaatlariga zarar yetkazishga qaratilgan harakatlardir. Bunday xurujlar kiberxavfsizlikka jiddiy tahdid soladi, chunki ular axborotning ishonchliligini, maxfiyligini va yaxlitligini buzishi mumkin. Salbiy axborot xuruji har xil shakllarda amalga oshirilishi mumkin, jumladan, soxta yangiliklar, mish-mishlar, kiberhujumlar va hatto psixologik operatsiyalar orqali. Bu tahdidlar nafaqat tashkilotlar, balki davlatlar va jamiyatlarga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bo'linma komandirlarining roli

Komandirlar va ularning vazifalari: Bo'linma komandirlari kiberxavfsizlikda muhim rol o'ynaydilar. Ular jamoaning strategik maqsadlarini

belgilab berish, kiberxavfsizlik choralarini amalga oshirish va tahdidlarga tezkor javob berish uchun mas'uldirlar. Ularning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. **Rejalashtirish va tashkil etish:** Komandirlar, bo'linmaning kiberxavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga yordam beradilar. Bu, tahlil qilish, tahdidlarni aniqlash va muammolarga yechimlar topish jarayonlarini o'z ichiga oladi.
2. **Jamoani boshqarish:** Ular jamoani motivatsiya qilish, xodimlar orasida samarali kommunikatsiyani ta'minlash va jamoa ishini muvofiqlashtirish orqali kiberhujumlarga qarshi kurashishadi.
3. **Ta'lim va o'qitish:** Bo'linma komandirlari xodimlarni kiberxavfsizlik asoslari, tahdidlar va zararni kamaytirish bo'yicha o'qitish orqali ularning bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan dasturlarni tashkil etishlari kerak.
4. **Monitoring va tahlil:** Ular kiber tahdidlarga qarshi monitoring qilish, tahlil qilish va zarur choralarni ko'rish orqali kiber muammolarini oldini olishga qaratilgan tadbirlarni boshqaradilar.

Strategik yondashuvlar: Bo'linma komandirlari kiberxavfsizlikda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun turli strategik yondashuvlarni qo'llashlari zarur. Bu yondashuvlar orasida:

1. **Risklarni baholash:** Kiber tahdidlarga nisbatan organizatsiyaning zaif joylarini aniqlash va risklarni baholash orqali, ularni engillashtirish uchun tegishli choralar ko'rish.
2. **Integratsiyalashgan yondashuv:** Axborot xavfsizligini ta'minlashda barcha bo'linmalar bilan hamkorlik qilish, o'zaro aloqa va integratsiyalashgan strategiyalar ishlab chiqish.
3. **Tezkor javob rejalari:** Kiberhujumlar sodir bo'lgan taqdirda, tezkor va samarali javob berish rejalari ishlab chiqish, xodimlar va manbalarni tayyorlash.
4. **Innovatsion texnologiyalar:** Kiberxavfsizlikni ta'minlashda yangi texnologiyalar va vositalardan foydalanish, masalan, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari.

Qaror qabul qilish jarayoni

Tahlil va baholash: Bo'linma komandirlari kiber tahdidlarni aniqlash va baholashda muhim rol o'ynaydilar. Ular axborotlarni to'plash va tahlil qilish jarayonida turli manbalardan foydalanadilar, jumladan, statistik ma'lumotlar, tarmoq faoliyati va xavfsizlik voqealari. Tahlil qilish jarayoni, o'z navbatida, har bir tahdidning potentsial zararini, riskini va ta'sirini baholashni o'z ichiga oladi. Ushbu baholash jarayoni kiberxavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega, chunki to'g'ri baholash orqali samarali qarorlar qabul qilish imkoniyati oshadi.

Tezkor qarorlar qabul qilish: Kiber tahdidlar tez va kutilmagan ravishda yuzaga kelishi mumkin, shuning uchun bo'linma komandirlari vaziyatni tahlil qilib, tezkor qarorlar qabul qilishga tayyor bo'lishlari zarur. Bunday vaziyatlarda, qarorlar qabul qilish jarayoni ko'pincha ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish, mavjud resurslardan samarali foydalanish va jamoani to'g'ri yo'naltirishni o'z ichiga oladi. Komandirlar, shuningdek, qarorlarni qabul qilishda og'ir vaziyatlarni yengib o'tish uchun xavfsizlik rejalarini qo'llashlari mumkin.

Jamoa boshqarish

Motivatsiya va jamoaviy ish: Bo'linma komandirlari jamoaning motivatsiyasini oshirish va samarali jamoaviy ishni ta'minlash uchun kerakli sharoitlarni yaratishlari zarur. Motivatsiya — bu jamoa a'zolarining kiber tahdidlarga qarshi kurashishda faolligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Komandirlar quyidagi yo'nalishlarda harakat qilishlari kerak:

1. **Rag'batlantirish va mukofotlash:** Komandirlar jamoani rag'batlantirish uchun mukofotlar, e'tiroflar va boshqa motivatsiya vositalaridan foydalanishlari mumkin. Bular jamoa a'zolarini yuqori natijalarga erishishga undaydi va ularning ishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.
2. **Yuqori maqsadlar qo'yish:** Jamoaga aniq va o'lchovli maqsadlar qo'yish, ularning muvaffaqiyatini baholashga yordam beradi. Yuqori maqsadlar jamoani birlashtiradi va har bir a'zoning hissasini his etishiga imkon beradi.
3. **O'zaro aloqalarni mustahkamlash:** Motivatsiyalangan jamoalar muammolarni tezda hal qilish va kiberxavfsizlikdagi muammolarga yondashishda ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishadi. Komandirlar jamoa a'zolarining o'zaro aloqalarini mustahkamlash orqali samarali jamoaviy ishni ta'minlashlari kerak.

Komanda ichida kommunikatsiya: Samarali kommunikatsiya jamoa ichidagi hamkorlik va aloqa uchun muhimdir. Komandirlar o'z jamoalariga ochiq va shaffof muloqot qilishni rag'batlantirishlari zarur. Bunday yondashuv jamoaning birlashishini va hamkorligini oshiradi:

1. **Ochiq va shaffof muloqot:** Jamoa a'zolariga o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatini berish, ularda ishonch va o'zaro tushunishni rivojlantiradi. Komandirlar ochiq muloqot platformalarini yaratish orqali jamoa ichidagi fikr almashishni rag'batlantirishlari mumkin.
2. **Fikr va takliflarni tinglash:** Jamoa a'zolarining fikr va takliflarini tinglash, ularni qadrlash va inobatga olish jamoa ruhini oshiradi. Bu yondashuv, kiber tahdidlarga qarshi kurashishda jamoaning birlashgan holda harakat qilishiga yordam beradi.
3. **Teskari aloqa:** Jamoa a'zolariga teskari aloqa berish, ularning ish faoliyatini yaxshilashga yordam beradi. Komandirlar ijobiy va salbiy fikrlarni o'z vaqtida yetkazish orqali jamoaning o'zaro hamkorligini oshirishlari mumkin.

Innovatsion yondashuvlar

Zamonaviy texnologiyalar va usullar: Bo'linma komandirlari kiberxavfsizlikni ta'minlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishlari zarur. Ushbu texnologiyalar nafaqat tahdidlarni aniqlash va ularga qarshi kurashishda, balki kiberhujumlarni oldini olishda ham muhim ahamiyatga ega.

1. **Sun'iy intellekt (AI) va mashinani o'rganish:** AI texnologiyalari kiber tahdidlarni aniqlash va tahlil qilish jarayonlarini avtomatlashtirishda yordam beradi. Masalan, sun'iy intellekt yordamida kiberhujumlarni oldindan aniqlash mumkin, bu esa real vaqt rejimida xavflarni kamaytirishga imkon beradi. Mashinani o'rganish algoritmlari kiberhujumlarning xususiyatlarini aniqlab, oldingi tajribalarni hisobga olib, yangi tahdidlarni tezda o'rganadi.
2. **Katta ma'lumotlarni tahlil qilish:** Katta ma'lumotlar tahlili kiber tahdidlarni aniqlashda juda muhimdir. Tarmoqdagi trafikni va xatti-harakatlarni tahlil qilish orqali anomal holatlarni va potentsial hujumlarni aniqlash mumkin. Bu jarayonlar avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida amalga oshirilishi, inson resurslarini optimallashtirishga va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi.
3. **Avtomatlashtirilgan xavfsizlik tizimlari:** Avtomatlashtirilgan xavfsizlik tizimlari kiber tahdidlarga qarshi samarali kurashda muhim rol o'ynaydi. Ular tarmoqdagi tahdidlarni real vaqt rejimida kuzatib borish, hujumlarni aniqlash va javob berish jarayonlarini tezlashtiradi. Ushbu tizimlar yordamida kiber hujumlar sodir bo'lgan taqdirda avtomatik ravishda javob berish va zararni kamaytirish imkoniyati mavjud.

O'quv va tayyorgarlik jarayonlari: Kiberxavfsizlik sohasida yangiliklar va texnologiyalar tez sur'atlarda rivojlanayotganligi sababli, komandirlar o'z jamoalarini muntazam ravishda o'qitish va tayyorlashlari kerak. Bu jarayon kiber tahdidlarga nisbatan yuqori tayyorgarlik darajasini ta'minlaydi.

1. **O'quv dasturlari:** O'quv dasturlari xodimlarga kiberxavfsizlik asoslari, zamonaviy tahdidlar va ularga qarshi kurashish strategiyalari bo'yicha bilimlarni oshirishga yordam beradi. O'quv dasturlari nazariy materiallar, amaliy mashg'ulotlar va simulyatsiyalarni o'z ichiga olishi kerak.
2. **Simulyatsiyalar:** Kiber tahdidlarga qarshi kurash jarayonlarini simulyatsiya qilish, xodimlarga real vaziyatlarda qanday harakat qilishlari kerakligini o'rganishga imkon beradi. Bu orqali jamoa a'zolari o'zaro hamkorlik va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkin.
3. **Amaliy mashg'ulotlar:** Amaliy mashg'ulotlar orqali xodimlar kiberxavfsizlik tizimlarini o'rganish, muammolarni hal qilish va real vaqt rejimida vaziyatlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu jarayon o'z ichiga kiber tahdidlarga tezkor javob berish, tahlil qilish va muloqot qilishni ham oladi.

Xulosa

Bo'linma komandirlarining kiberxavfsizlikdagi ahamiyati: Bo'linma komandirlari kiberxavfsizlikda muhim rol o'ynaydilar. Ularning strategik yondashuvlari, tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlari va samarali jamoa boshqarish ko'nikmalari kiber tahdidlarga qarshi kurashishda asosiy omillardan biridir. Kiberxavfsizlikning samarali boshqaruvi, shuningdek, jamoa a'zolarining o'zaro hamkorligi va aloqalariga bog'liqdir.

Kelajakdagi yo'nalishlar va takliflar: Kiberxavfsizlik sohasida bo'linma komandirlarining rolini oshirish uchun innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalardan faol foydalanish, shuningdek, kiber tahdidlarga nisbatan tayyorgarlikni kuchaytirish zarur. O'qitish va tajriba almashish dasturlarini rivojlantirish kiberxavfsizlikni yanada samarali ta'minlashga yordam beradi. Bo'linma komandirlarining doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishlari va zamon talablariga javob berishlari muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shaykhutdinov I. Sh. "Kiberxavfsizlik: nazariya va amaliyot", Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti, 250 bet, 2021 yil.
2. Akhmedov M. Sh. "Axborot xavfsizligi va kiber hujumlar", Toshkent: Informatika nashriyoti, 180 bet, 2020 yil.
3. Jumayev A. K. "Kiberxavfsizlikning asosiy tamoyillari", Toshkent: IT-nashriyot, 220 bet, 2022 yil.
4. Vasiliev A. I. "Information Security: Principles and Practices", Moskva: Tekhnosfera, 300 bet, 2019 yil.
5. Sultanov R. F. "Kiber tahdidlarga qarshi kurash: strategiyalar va yondashuvlar", Toshkent: Fan va texnologiya, 210 bet, 2021 yil.
6. Petrov S. I. "Cybersecurity: Modern Challenges and Solutions", Saint Petersburg: IT Publishing, 250 bet, 2020 yil.

HARBIY XIZMATCHILAR KASBIY SIFATLARINING O‘ZIGA XOS KAMCHILIKLARI

Beknazarov Axmatjon Asomiddinovich
Toshkent Gumanitar Fanlar universiteti p.f.n., professor

Annotatsiya: *Maqolada harbiy xizmatchilarning kasbiy sifatlarining o‘ziga xos kamchiliklari ko‘rib chiqiladi. Harbiy xizmatning qattiq talablari, intizom va doimiy stress sharoitida harbiy xizmatchilarda paydo bo‘ladigan psixologik, ijtimoiy va kasbiy kamchiliklar tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, bu kamchiliklarni bartaraf etish va harbiy xizmatchilarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha takliflar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *harbiy xizmatchilar, kasbiy kamchiliklar, psixologik stress, intizom, ijodiy yondashuv, rahbarlik qobiliyati, muloqot muammolari, kasbiy rivojlanish.*

Annotation: *The article examines the specific professional shortcomings of military personnel. It analyses the psychological, social, and professional challenges faced by military personnel under the conditions of strict discipline, constant stress, and the high demands of military service. The article also provides recommendations for addressing these shortcomings and supporting the professional development of military personnel.*

Keywords: *military personnel, professional shortcomings, psychological stress, discipline, creative approach, leadership skills, communication problems, professional development.*

Harbiy xizmat – bu nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham qattiq talablarga ega bo‘lgan soha. Harbiy xizmatchilar jamiyatning xavfsizligi va tinchligini ta’minlash uchun o‘z hayotlarini xavf ostiga qo‘yishga tayyor bo‘lishlari kerak. Biroq, harbiy xizmatning o‘ziga xos sharoitlari, qattiq intizom va doimiy stress ularning kasbiy sifatlarida ma’lum kamchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Harbiy xizmatchilar jamiyatning xavfsizligi va tinchligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular qat’iy intizom, yuqori mas’uliyat va fidoyilikni talab qiladigan sharoitda ishlaydi. Biroq, harbiy xizmatning o‘ziga xos talablari va sharoitlari tufayli harbiy xizmatchilarda ma’lum kasbiy kamchiliklar paydo bo‘lishi mumkin. Bu kamchiliklar ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi bilan birga, jamoaviy ish va rahbarlik qobiliyatlarini ham pasaytirishi mumkin. Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarning kasbiy sifatlarining o‘ziga xos kamchiliklari, ularning sabablari va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Ma’lumki, harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatning samaradorligining asosiy shartlaridan biri kasbiy tayyorligi hisoblanadi. Kasbiy tayyorgarlik deganda uning ruhiyati va jismoniy sog‘ligi hamda holati, undagi mavjud sifatlarning bajarayotgan faoliyati talablariga mosligi darajasi tushuniladi. Mashxur rus psixologi K.K.Platonov harbiy xizmatchining kasbiy tayyorligi bu o‘zining muayyan kasbiy faoliyatini bajarishga qodir va tayyorgarlik ko‘rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning sub’ektiv holatidir - deb ta’kidlaydi. Harbiy xizmatchilarda kasbiy tayyorligi murakkab ko‘p darajali va ko‘rinishli tizimli psixik shaklga ega bo‘lib, birinchi navbatda odamning shaxsiy ko‘rinishi asosiy o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, kasbiy tayyorgarlik harbiy xizmatchilardan kerakli darajada jismoniy sog‘likni kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan jismoniy sifatlar shakllanganligi va rivojlanganligini talab qiladi.[1] Chunki har qanday kasbiy faoliyat insonning qandaydir kuch jismoniy energiya sarflashini ko‘zda tutadi. Harbiy xizmatchilarda kasbiy tayyorgarligida ikkita o‘zaro bogliq bo‘lgan tomonlarni ko‘rsatish maqsadga muvofiq. Bu o‘zaro

bog‘liqliq tomonlar psixologlar M.I.Dyachenko va A.M.Stolyarenkolar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib ular quyidagilardan iborat:

1. Shaxsning kasbiy faoliyatga salohiyatli tayyorligi - harbiy xizmatchining bu tayyorligi quyidagilardan iborat bo‘ladi: kasbiy faoliyatning psixik asoslari, bilim, ko‘nikma, malakalar kasb uchun muxim hisoblangan, shaxsning sifatlari uning munosabati, mazmun va qadriyatlari, afzalliklari hamda umuman shaxsning zarur bo‘lgan kasbiy imkoniyatlari darajasi;

2. Shaxsning kasbiy faoliyatga bevosita ayni vaqtdagi tayyorligi. Harbiy xizmatchining kasbiy tayyorligining ushbu tomoni tezkorligi, o‘zgaruvchanligi, har qanday xolat va sharoitda aniq masalalarni echish, harbiy xizmatchining ruhiy va jismoniy holati, jamoadagi ma’naviy psixologik muhitga bog‘liqligi bilan ifodalanadi. Harbiy xizmatchining bevosita psixologik tayyorgarligi dastlabki tayyorgarlikni faollashtirish natijasi sifatida ishtirok etadi. Harbiy xizmatchining kasbiy faoliyatga dastlabki salohiyatli tayyorligi bevosita ayni vaqtdagi tayyorligining asosi hisoblanadi.

Ko‘rinib turibdiki, harbiy xizmatchining kasbiy tayyorligi unda kasbiy bilimdonlikni kerakli darajasini kasbiy mahoratini hamda o‘zini boshqarish, o‘zini kerakli faoliyatga yo‘naltirishga, imkoniyatlarini xal etishga yo‘naltira bilish qobiliyati mavjudligini nazarda tutadi. Harbiy xizmatchining kasbiy tayyorligining asosiy va eng murakkab tomoni (psixologik tomoni) - Harbiy xizmatchi ruhiyatining kasbiy tayyorgarligi hisoblanadi. Bu Harbiy xizmatchi psixikasi ruhiy kuchlarining kasbiy masalalarni xal etishga o‘zining vazifalarini bajarishga tayyorligi va yo‘nalganligi darajasidir.[2]

Harbiy xizmatchi ruhiyatining kasbiy tayyorligining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: - yo‘naltiruvchi intellektual bilish. Bu tarkibiy qismi harbiy xizmatchi shaxsining bilish soxasini o‘z ichiga oladi: kasbiy idrokini, fikrlashi, tasavvur, xotirasi, diqqatini va ular birgalikda harbiy xizmatchi shaxsning kasbga intellektual tayyorligini tashkil etadi. Harbiy xizmatchining motivatsion tayyorligining asoslari o‘z kasbi harbiy xizmatchiligini tushuna olishi, o‘zida pozitiv munosabatni tarkib toptira olishi, o‘zini baholay olishi, bilish faoliyatiga qiziqishlari hisoblanadi.

Harbiy xizmatchining kasbiy tayyorgarligi yadrosini shaxsning kasbiy yo‘nalganligi va kasbiy mahorati tashkil etadi. Hozirgi zamon harbiy xizmatchisining kasbiy tayyorgarligida uning kommunikativ tayyorligi alohida ahamiyatga ega. Bunday tayyorgarlik harbiy xizmatchida odamlar bilan kasbiy muhit bilan konstruktiv va samarali o‘zaro yaqin aloqalar, xodimlar va rahbarlar bilan amaliy va shaxsiy o‘zaro munosabatlarga tayyorligi va bunday o‘zaro munosabatlarni o‘rnata olishga va rivojlantirishga qodirligini ko‘zda tutadi. Shaxsning kommunikativ tayyorligi faqatgina odamning nutqiy madaniyati

yetarlicha darajada rivojlanganligida u so‘z va tildan to‘g‘ri foydalanishni bilganidagina mavjud bo‘ladi. Shaxsning nutq madaniyati uning fikrlash madaniyati rivojlaganligining ko‘rsatkichi hisoblanadi. Shuning uchun harbiy xizmatchining shaxsiy va kasbiy kamol topishini muhim shartlaridan biri uning kasbiy nutqiy madaniyatini rivojlantirish hisoblanadi.

1. Psixologik bosim va stress

Harbiy xizmatchilar doimiy ravishda yuqori stress sharoitida ishlaydi. Jangovar vaziyatlar, xavfli missiyalar va hayotiy xavflar ularning psixologik holatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa quyidagi kamchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin:

- Qaror qabul qilishda sustlik. Doimiy stress va charchoq qarorlar tezligi va sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Misol uchun, harbiy xizmatchilar xavfli vaziyatlarda tez va aniq qaror qabul qilishlari kerak, lekin stress ularning fikrlash qobiliyatini sezilarli darajada pasaytirishi mumkin. Bu esa noto‘g‘ri qarorlarga olib kelishi mumkin.

- Psixologik qattiqlik. Harbiy xizmatchilar hissiy jihatdan yopishib qolishi va shaxsiy munosabatlarda muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ular o‘z hissiyotlarini ifodalashda qiynalishlari yoki ularni butunlay yashirishlari mumkin. Bu esa oilaviy munosabatlarda muammolarga olib kelishi mumkin.

Yechim: Harbiy xizmatchilarga psixologik yordam ko‘rsatish, stressni boshqarish bo‘yicha treninglar o‘tkazish va ularning ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash kerak.

2. Intizom va itoatkorlikning haddan tashqari ustuvorligi

Harbiy xizmatda intizom va buyruqlarga bo‘ysunish asosiy talablardan biridir. Biroq, bu quyidagi kamchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin:

- Ijodiy yondashuvning yo‘qolishi. Harbiy xizmatchilar ko‘pincha standart yechimlarga tayanishadi va yangi g‘oyalarni qo‘llashda qiynalishadi. Bu esa yangi vaziyatlarga moslashishda muammolarga olib kelishi mumkin. Misol uchun, harbiy xizmatchilar an’anaviy usullardan tashqarida yechim topishda qiynalishlari mumkin.[3]

- Shaxsiy fikrni bildirishdan qo‘rqish. Buyruqlarga bo‘ysunish zarurati tufayli harbiy xizmatchilar o‘z fikrlarini ochiq bildirishdan qochishi mumkin. Bu esa jamoada muloqotning zaiflashuviga olib kelishi mumkin.

Yechim: Harbiy xizmatchilarni ijodiy fikrlashga va yangi yechimlarni qidirishga undash, shuningdek, ularga o‘z fikrlarini erkin bildirish imkoniyatini berish kerak.

3. Kommunikatsiya va jamoada ishlash muammolari

Harbiy xizmatda jamoa ishi muhim rol o‘ynaydi. Biroq, quyidagi kamchiliklar kuzatilishi mumkin:

- Rahbarlik qobiliyatining yetishmasligi. Ba’zi harbiy xizmatchilar guruhni boshqarishda qiynalishadi, chunki ular asosan buyruqlarga amal qilishga o‘rgatilgan. Bu esa ularning rahbarlik qobiliyatini rivojlantirishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

- Fuqarolik hayotida muloqot qilish qiyinligi. Harbiy muhitda ishlash odatlaridan tashqarida muloqot qilishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Misol uchun, harbiy xizmatchilar fuqarolik hayotida odamlar bilan muloqot qilishda qiynalishlari mumkin.

Yechim: Harbiy xizmatchilarga rahbarlik va muloqot qobiliyatlarini oshirish bo‘yicha treninglar o‘tkazish kerak.

4. Fizik va psixologik charchoq

Harbiy xizmatchilar ko‘pincha qattiq jismoniy mashqlar va uzoq muddatli missiyalarda qatnashadi. Bu esa quyidagi kamchiliklarga olib kelishi mumkin:

- Charchoq va energiya yetishmasligi. Doimiy jismoniy zo‘riqish tufayli harbiy xizmatchilar ishda samaradorlikni yo‘qotishi mumkin. Bu esa ularning kasbiy faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

- Uyqu muammolari. Stress va jismoniy zo‘riqish uyquning buzilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa ularning sog‘lig‘iga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Yechim: Harbiy xizmatchilarga muntazam dam olish vaqti berish, shuningdek, ularning jismoniy va ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash kerak.

5. Kasbiy rivojlanishning cheklanganligi

Harbiy xizmatda ko‘pincha aniq ko‘rsatmalar va standartlar mavjud bo‘lgani uchun harbiy xizmatchilarning kasbiy rivojlanishi cheklanishi mumkin:

- Yangiliklarga moslashish qiyinligi. Harbiy xizmatchilar yangi texnologiyalar yoki usullarni o‘rganishda qiynalishlari mumkin. Bu esa ularning kasbiy rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

- Kasbiy ko‘nikmalarning tor doirada rivojlanishi. Harbiy xizmatning o‘ziga xos talablari tufayli harbiy xizmatchilar boshqa sohalarda ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lmasligi mumkin.

Yechim: Harbiy xizmatchilarga yangi ko‘nikmalar o‘rganish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratish kerak.[4]

Kasbiy motiv va motivatsiya. Motiv va motivatsiya muammosi jahon psixologiyasida turli tuman nuqtai nazardan yondashish orqali tadqiq qilib kelinmoqda. Uzoq va yaqin chet ellarda bo‘ziga xos psixologik maktablar vujudga kelgan bo‘lib, ularning negizida ilmiy pozitsiyalar va kontseptsiyalar mohiyati jihatdan farqlanuvchi g‘oyalar va yo‘nalishlar mujassamlashdi. Hozir ularning ayrimlariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Rus va sobiq sovet psixologiyasi namoyandalari K.D.Ushinskiy, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, V.M.Bexterev, A.F.Lazurskiy, V.N.Myasishev,

A.A.Uxtomskiy, D.N.Uznadze, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, P.M.Yakobson, V.S.Merlin, L.I.Bojovich, V.I.Selivanov, V.G.Aseev va boshqalar mazkur muammo yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ushbu mualliflarning qarashlari oldingi bobda berilganligi uchun ularga qaytatdan to‘xtalishga hojat yo‘qdir. Rus va sobiq sovet psixologiyasi vakillaridan tashqari Evropa va Amerika mamlakatlarida motivatsiyaga oid 30 (o‘ttiz)dan ortiq ilmiy kontseptsiyalar mavjuddir. Ana shu psixologik maktablarning ayrim namoyandalarining tadqiqotlari yuzasidan mulohaza yuritishga harakat qilamiz: interospektiv psixologiya, bixeviorizm, geshtaltpsixologiya, psixoanaliz, strukturaviy psixologiya, assotsianistik psixologiya, empirik psixologiya, analitik psixologiya, gumanistik psixologiya, antropologik psixologiya va hokazolar. Bixeviarizmning asoschisi Dj.Uotson (1878-1938) psixologiya faninig bosh vazifasi xulqni tadqiq etishdan iborat deb tushunadi. U psixik hodisalardan mutlaqo voz kechib, xulqni ikki shaklga, ya'ni ichki va tashqiga ajratadi, ular o‘zaro javoblar stimuli bilan uzviy bog‘liq ekanligini ta'kidlab o‘tadi.[5] Bixeviorizm uchun «xulq» asosiy tushunchaga aylanib, uning psixikasi bilan aloqasi chetlab o‘tilgandir. Shunga qaramasdan, ba'zi bixevioristlar, jumladan E.Torndayk, E.Tolmen, K.Xall, D.Xebb kabilar xulq motivatsiyasiga muayyan darajada e'tibor qilganlar. Ular o‘zlarining izlanishlarida xulq motivatsiyasining«quyi darajalari» ni o‘rganib, kalamushlarda tajriba ishlarini olib borib, jonivorda ochlik, tashnalik va ularning turlicha darajalarini reaktsiya tezligiga nisbatan namoyon bo‘lish xususiyati, har xil sharoitda motivatsiyaning kuchi to‘g‘risida muayyan qonuniyatlar ochishga intilganlar. Hozirgi zamon bixevioristlari stimulni tashqi qo‘zg‘atuvchi sifatida talqin qiladilar va organizmning ichki energiyasini faollashtiruvchi deb hisoblaydilar. Neobixevioristik nazariyalar yangi qo‘zg‘atuvchilar, drayvalar paydo bo‘lishiga asoslangan bo‘lib, ular insonning
organik ehtiyojlarini qoniqtirish bilan stimul natijasining uyg‘unlashuvi tariqasida tahlil etiladi. Ularning ta’kidlashiga ko‘ra, ikkilamchi qo‘zg‘ovchilar organik qo‘zg‘atuvchilarning go‘yoki qobig‘iga o‘xshaydi, xolos. Vilyam Makdugall (1871-1938) motivatsiyaning irsiy (tabiatdan beriladigan) xususiyatga ega degan holatni asoslash uchun tug‘ma instinktlar masalalari bilan mazkur voqelikni bog‘lab tushuntirishga harakat qilgan. Uning fikricha, tug‘ma instinktlar ham insonlarga, ham hayvonlarga bir tekis taalluqli bo‘lib, ular odamlarning motivida oldin 14 ta, keyinchalik esa 18 tagacha «asosiy instinktlar» sifatida hukm surishi mumkin. Umuman olib qaraganda, bixevioristlar uchun bir qator holatlar o‘ziga xoslikka ega:

1. Bixeviorizm motivatsiya modelini topish bilan shug‘ullanib va xulq printsiplarini vujudga keltira borib, hayvon xulqi hamda ularda kashf etilgan xulq

motivatsiyasi qonuniyatlariga asoslanib insonning xulq motivatsiyasi yuzasidan xulosa chiqarishga harakat qiladi.

2. Bixeviorizm insonni biologik mavjudod sifatida qarab, unga biologik jabhada yondashadi, oqibat natijada uning ijtimoiy mohiyati tadqiqot predmetidan chetda qolib ketadi.[6]

3. Bixeviorizm ham insonga, ham hayvonlarga xos bo‘lgan xulqning umumiy printsiplarini topishga intiladi.

4. Bixevioristlar insonni shaxs sifatida taraqqiy etish jarayonini ifodalovchi o‘ziga xosligini yo chetlab o‘tadilar yoki o‘ta sodda tarzda izohlashga moyildirlar.

5. Hayvonlarning xulq motivatsiyasi shakllarini juda sodda tarzda tushuntirishga asosan tadqiqot natijalarini insonning murakkab va boshqa bir sifat bosqichidagi motivatsiyasiga ko‘chirish ishonchli dalillarga ega emas.

6. Inson motivatsiyasini o‘rganishda foydalanilayotgan bixeviorizmning tushunchalari, chunonchi, birlamchi mayllar, organizmni qitiqlovchi tug‘ma ehtiyojlar kabilar odamning motivatsiya doirasi tuzilishi mohiyatini juda yuzaki ocha oladi, xolos. Psixoanalitik kontseptsiyalar negizida motivatsiya ortganlik ravishda inson mayllariga xosdir, degan g‘oya yotadi. Ularning manbai maylni aks ettiruvchi qaysidir organdagi yoki uning qismidagi somatik jarayon tushuntiriladi. Z.Freydning kontseptsiyasida mayllar va instinktlar tushunchalari o‘rtasida hech qanday tafovut yo‘qdir. Ongsizlik ta'limotining asoschisi Z.Freyd xulq motivalari va ehtiyojlari muammosini ishlab chiqayotib, motivatsiyaning manbai instinkt, u tur va individning saqlanish shartidir deb taqdirlaydi. Mazkur holatni muallif individning energetik potentsiyasi sifatida talqin etadi. Eng asosiy masala shuki, Z.Freyd motivatsiya regulyatori va motivatsiya energiyasining irsiy manbai sifatida «u» tushunchasiga qanday ma'no yuklamoqchiq Uningcha, «u»tushunchasining mazmuni tug‘ma va o‘zgarmasdir. Xuddi shu bois mantiq qonunlari va aql darajalari, ko‘rsatkichlari unga hech qanday ahamiyat kasb etmaydi Z.Freyd affektiv, impulsiv shakldagi mutlaqlashgan qo‘zg‘ovchilarni nazarda tutgan bo‘lsa ajab emas. Ushbu qo‘zg‘atuvchilar (turtkilar) ning impulsivlik, taxminiylikning affektiv mohiyati, notanqiydiylik, ongli va irodaviy nazoratga itoat etishda qiyinchilik kabilarning dinamik xususiyatlarini mutlaqlashtirish bo‘lib, ularning asosida quyi genetik va strukturaviy darajadagi qo‘zg‘atuvchilar yotadi. Z.Freyd ta'kidlab o‘tgan dinamik xususiyatlar va xossalari mohiyatida motivatsiyaning chuqur asosiy manbasini ko‘radi. Uning kontseptsiyasida inson xulqi va harakatining dvigateli jinsiy instinkt hamda uning transformatsiyasi ustuvor o‘rin egallaydi.[7] Odam tabiat tipi xushyorlik, juda xushyorlik, muloqot va faoliyatga yo‘nalganlikning yuqori darajasi, o‘ziga nisbatan yo‘nalganlikni minimal darajasini talab qiladi. Odam-texnika tipiga mansublik esa xushyorlik, juda

xushyorlik, faoliyatga yo‘nalganlikning yuqori darajasi, qochishga moyillikni past darajasi ta’sirida vujudga keladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, serjantlarda kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlar, xususan, diqqatni uzoq vaqt ushlab turish, kuzatuvchanlik, eslab qolish, sezgirlik, intellektualligi, emotsionalligi, irodalilik, nutqiy ravonligi va kommunikativlikni o‘zlarida tarkib toptirishlari ularda kasbiy tayyorgarlikda ko‘proq muvaffaqiyatga erishishlarini ta’minlashi mumkin. Ayniqsa, serjantlarda kasbiy tayyorgarlik ularning eslab qolish va intellektuallik xususiyati bilan ko‘proq bog‘liq ekanligi kuzatildi. Harbiy xizmatchilarning kasbiy sifatlarining o‘ziga xos kamchiliklari, asosan, harbiy xizmatning qattiq talablari va sharoitlari bilan bog‘liq. Psixologik stress, intizomning haddan tashqari ustuvorligi, muloqot muammolari va kasbiy rivojlanishning cheklanganligi kabi omillar harbiy xizmatchilarning shaxsiy va kasbiy faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun harbiy xizmatchilarga psixologik yordam ko‘rsatish, malaka oshirish kurslari tashkil etish va ularning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash muhimdir. Shuningdek, harbiy xizmatchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish ularning kasbiy faoliyatini yanada samarali qilishga yordam beradi. Harbiy xizmatchilarning kasbiy kamchiliklarini bartaraf etish nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki butun harbiy tizimning samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1] Shermatov F.T., Harbiy – kasbiy tayyorgarlik psixologiyasi // Monografiya. 2024. 76-93 bet.

[2] Shermatov F.T., Beknazarov A.A. Jangovar stress va uning psixologik oqibatlari. // O‘quv qo‘llanma. 2021. 48-51 bet.

[3] Shermatov F.T., Socio-psychological foundations of the appointment of future officers to leadership positions // American journal of interdisciplinary research and development volume: 14 | march, 2023 Plano journal ISSN (online): 2771-8948 sjif (2023): 6.959 P.143-149

[4] Shermatov F.T., The New Method and Mechanism for Determining Professional Stresses in the Service of Military Workers International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. ISSN 2364-5369 Volume 8 Issue 9 September 2021 P. 243-246.

[5] F.Shermatov. A.Beknazarov. “Bo‘lajak ofitserlarda liderlik psixologiyasi”. Darslik.– T.: AKT va AHI, 2022.

HARBIY KADRLARNI TAYYORLASHDA JANGOVAR TAYYORGARLIK JARAYONIDA PSIXOLOGIK ISHLARNI QO‘LLASHNING DOLZARBLIGI

Shermatov Fayzullo Toshtillayevich

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instiuti boshlig‘ining o‘rinbosari, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ortiqov Akmal Qobulovich

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi Harbiy xavfsizlik va dala mudofaasi fakulteti boshlig‘ining o‘rinbosari, dotsent, polkovnik

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada Mudofaa vazirligi tizimida professional i harbiy ofitser kadrlarni tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari va uning ahamiyati haqida fikrlar mantiqiy ketma-ketlikda bayon etilgan. Maqolada mualliflarning ko‘p yillar davomida olib borgan amaliy tajribalariga suyangan holda o‘tkazilgan tahlillar natijasida fikrlar atroflicha bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Stress, psixojarohat, emotsional holat, ekstremal vaziyat, hissiy munosabat, psixoadaptatsiya, latent davri, reabilitatsiya, psixologik korreksiya.*


Annotation. *This scientific article provides a logical sequence of ideas about the specifics of training and its importance in the system of professional officers in the system of the Ministry of Defense. The article provides an in-depth analysis based on the authors' many years of practical experience.*

Key words: *stress, psychological tray, emotional state, extreme situation, psych, latent period, psychological correction, am toenail response, rehabilitation.*

Bugungi kunda mamlakatimiz Qurolli Kuchlari oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga ta’sir etadigan omillardan biri – bu shartnoma bo‘yicha harbiy xizmatchi ofitser va serjantlar tarkibining professional tayyorgarlik sifat holati muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, armiyamizning jangovar shayligi, tayyorgarligi va qobiliyati eng avvalo, ofitser va serjantlardan yuqori kasbiy tayyorgarlikni talab etmoqda. Zero mamlakatimizda ta’lim tizimi, shu jumladan, harbiy ta’limni takomillashtirish, uni zamonaviy talablar va jahon standartlariga moslashtirish masalasiga davlatimiz rahbariyati tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari o‘zining ko‘p sonli shaxsiy tarkibi va undagi olib borilayotgan faoliyat nuqtai nazaridan murakkab tizim hisoblanadi. Uning tashkiliy tuzilmasi O’zbekiston Respublikasi “Mudofaa doktrina”sida belgilanib, mamlakat mudofaasini tashkil etishda barcha kuch tizimlari birligi vujudga keltirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rivojlanishining bugungi holati harbiy xizmatchilar bilan o‘tkaziladigan o‘quv-jangovar mashg‘ulotlar, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar samaradorligini oshirish, shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilar hamda Qurolli Kuchlar xizmatchilari, ularning oila a’zolari bilan psixologik ishlarni amalga oshirish masalasi dolzarb ekanligini ko‘rsatmoqda.

So‘ngi o‘n yilllikda Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va Yevropada bo‘lib o‘tgan maxalliy janglar va qurolli to‘qnashuvlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, jangovar harakatlar davomida bir qator oddiy shikastlovchi vositalardan foydalanish bilan birga, yangi jismoniy tamoyillar bo‘yicha qurollar (YaJTBQ) ham qo‘llanilgan. YaJTBQni dushman tomonidan qo‘llanilishi sharoitida shaxsiy tarkib, nafaqat fizik jihatdan, balki vaziyat to‘g‘risidagi 5-7 foiz noaniqlik, shuningdek, boshqa salbiy psixologik omillarning ta’siri natijasida harbiy xizmatchilarning ruhiy yo‘qotishlari ko‘payadi. Xususan, dushman tomonidan akustik qurollar qo‘llanilishi harbiylarni tushkunlik kayfiyatiga va psixomotor funksiyalari buzilishiga olib kelishi mumkin. Lazer qurollari ta’siri ko‘z pardasini shikastlanishidan va ko‘r bo‘lib qolishidan qo‘rquvni keltirib chiqaradi, asosan, navodchik-operator yoki merganlarning ushbu holatga tushishi hamda boshqa jihatlar shaxsiy tarkibning ruhiyatiga oid patalogik reaksiyalarining o‘sishi kuzatilmoqda [1].

Amerikalik mutaxassislarning fikriga ko‘ra, harbiy xizmatchilarning taxminan 90 foizi jangda kuchli qo‘rquvni yaqqol his qilisharkan. Shu bilan birga, ularning 25 foizida qo‘rquv ko‘ngil aynish, qusish, 20 foizida ichakning funksiyasini nazorat qila olmaslik bilan kechadi. Bir qator tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, harbiylarning qariyib 30 foizi jangdan oldin, 35 foizi jangda va 16 foizi jangdan so‘ng qo‘rquvni boshidan kechirishi bo‘yicha taxlillar keltirilgan [2]. (1-dagramma)



1-rasm. Harbiy xizmatchilarning qo‘rquv natijasida psixologik yo‘qotishlari.

Rossiya, AQSh, Germaniya va Fransiya harbiy mutaxassislarining ta’kidlashicha, janglarda faqatgina 20-25 foiz askarlar mustaqil ravishda zarur harakatlarni bajarishadi (nishonga o‘q uzish, jang maydonida maqsadli harakatlanish va hakozo), qolganlari esa faqat komandirni ko‘rib turganlarida faoldir. U yo‘qligida ular xavfsiz joyga yashirinib olib, o‘z harakatlarida texnikalar, qurol-yarog‘larni ishdan chiqishini, ruhiy va fizik jarohatlar olininishini o‘xshatishadi, shuningdek, yaralangan hamkasblarining orqasiga qo‘shilib olishga

harakat qilishadi [3]. Nemis tadqiqotchisi Ye.Dinter harbiy harakatlarga moslashish jarayoni 15-20 kun davom etishini, keyin esa askarning axloqiy-ruhiy salohiyati eng yuqori darajaga chiqishini aniqladi. 30-40 kundan so‘ng dushman bilan bevosita to‘xtovsiz to‘qnashuvlar oqibatida axloqiy-ruhiy kuch kamayishi yuz berishini ta’kidlab o‘tgan. A.Gabriyel agar urush maydonida 45 kunlik uzluksiz qolishdan so‘ng, harbiylar front ortiga jo‘natilmasa, ular axloqiy-ruhiy imkoniyatlariga ko‘ra samarasiz bo‘lib qoladi, deb hisoblaydi. Ushbu qarashlar bo‘yicha, amerikalik psixiatr R.Svonk va U.Marshanlar ham o‘z nuqtai nazarlariga ega. Ularning fikricha, jangovar harakatlarda 35 kun davomida doimiy ishtirok etadigan harbiy xizmatchilarning 98 foizida u yoki bu ko‘rinishdagi ruhiy kasallik yuzaga kelishi mumkinligini aytib o‘tadi. Shaxsiy tarkibning ruhiy holatiga kundalik faoliyat me’yorlarining buzilishi (o‘rganib qolingan uyqu, dam, ovqatlanish kabi faoliyatlarning almashinuvi), odatlanilmagan yerlar, iqlimning tez-tez o‘zgarishlari va yomon ob-havo sharoitlari ta’sir ko‘rsatadi. Murakkab jangovar vaziyat zaif turdagi asab tizimiga ega jangchilarda jiddiy ruhiy kasalliklarga va jangovar qobiliyatini to‘liq yo‘qotilishiga olib keladi (harbiy xizmatchilar orasida ular qariyb 15 foiz). Shunga o‘xshash sharoitlarda, o‘rtacha asab tizimiga ega bo‘lgan harbiy xizmatchilar (taxminan 70 foiz) jangovar harakatdagi salbiy omillar ta’sirini qisqa vaqt ichida yengib o‘tadi. Kuchli asab tizimiga ega bo‘lgan jangchilar (15 foizga yaqin) jangovar vaziyatning jiddiy ruhiyshikast ta’siriga duchor bo‘lmaydilar [4].

Harbiy ekspertlar fikriga ko‘ra, zamonaviy jangovar harakatlarda hayot uchun xavf va ruhiy xis-tuyg‘ular tangligi o‘zining eng cho‘qqisiga chiqadi. Jangovar vaziyat va uning xavf-hatari ruhiy tanglikni yuzaga keltiradi va shaxs xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘zgarishi mumkin – yengil ta’sirlanishdan to shol qiluvchi qurquvga qadar. Jangovar sharoitda har bir harbiy xizmatchi oldida, avvalambor ikkita vazifa turadi: tirik qolish va vazifani bajarish. Shu bilan aynan jangovar vazifaning bajarilishi tirik qolishning yagona yo‘li hisoblanadi. Biroq, harbiy xizmatchilarning barchasi ham jang maydonida sodir bo‘layotgan holatlarga bir xil javob qaytara olmaydi yoki ta’sirlanmaydi. Jangovar vaziyatda harbiy xizmatchining ruhiyati ko‘p har xil ta’sirlarga duchor bo‘ladi. Birlarida jangning hayot uchun xavfli va og‘ir vaziyati barcha sezgi organlari, diqqatni, xotirani va fikrlashni kuchaytirishga olib keladigan jangovar hayajonlanishni, to‘lqinlanishni qo‘zg‘atadi, bu odamning jismoniy va axloqiy-ruhiy imkoniyatlarini safarbar etishga va bir joyga jamlashga, jangovar faollikni oshirishga, botirlikka va fidokorlikka yordam beradi. Boshqalarda aksincha, jang ta’sirida yuzaga keladigan salbiy sezgilar va ruhiyatning umumiy holatida sezgi, his-tuyg‘ular tushib ketishi mumkin, tashqi qo‘zg‘atuvchilarga ta’sirlanish (reaksiya) holati sekinlashadi, harakatlar va faollikning mustahkamligi va o‘zaro

muvofiqligi pasayib ketadi, diqqat-e’tibor va xotira susayadi, harbiy xizmatchining jangovar faoliyatini izdan chiqaradi, organizmda mavjud bo‘lgan zahiralarga kirishni to‘sib qo‘yadi, ruhiyat va asab tizimi ishini izdan chiqaradi. Uchinchilari esa jangovar xatti-harakatlarga bilinarli ta’sir ko‘rsatmaydilar. Hattoki judayam har xil amaliy mashg‘ulotlar va mashqlar bilan mustahkamlangan jiddiy nazariy tayyorgarlik, jangovar vaziyatda 100 foiz muvaffaqiyatga kafolat bermaydi. O’quv mashqlarida barcha harbiy xizmatchilar o‘z diqqatlarini qo‘yilgan vazifalarni sifatli bajarishga qaratadilar. Garchi o‘quv mashqlarida ozroq ham tahlika mavjud bo‘lsada, buni aslo jangovar vaziyatning xavf-hatar darajasi bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Hayot uchun xavfli bo‘lgan real xavf-hatarga tushganda, odam tabiatan, avvalom bor o‘z jonini asrashni o‘ylaydi. Jangovar vaziyat harbiy xizmatchidan ulkan ruhiy va xissiyotli tanglikni, asab tizimining katta sarflanishini talab qiladi. Har qanday sog‘lom odamda psixogen (ruhiy) zararlarga nisbatan fiziologik (jismoniy) chidamlilikning chegarasi (me’yori) mavjud. Shundan so‘ng, ruhiyat boshqa tanglikka bardosh bera olmaydi, chegaradan o‘tilgandan so‘ng, ruhiy parokandalik rivojlanadi.

Rossiyalik harbiy ekspertlarning ta’kidlashicha, Ukrainadagi harbiy operatsiyalar jarayonida shunday hodislarga duch kelishganki, unda jangarilari tayanch organlari yaralangan odamni minalashtirib qo‘yishgan, oqibatda rus harbiylari yaralangan insonga yordam berish maqsadida uni ko‘tarishganida portlash sodir bo‘lgan, shundan so‘ng yaralanganlarga yordam berishda masofadan turib maxsus vositalardan foydalanishgan. Bu esa, vaqt tig‘izligida ko‘p muddat sarf bo‘lishini keltirib chiqargan. Undan tashqari, syurprizlardan, minalashtirilgan dronlardan foydalanishgan. Shuningdek, muhandislik qo‘shinlari mutaxassislarining aytishicha, jang maydonida minalarni zararsizlantirishda ancha qiynalishgan, sababi kundalik faoliyatdagi tayyorgarlik jarayonida haqiqiy jangovar harakatlarda ta’sir ko‘rsatuvchi o‘q ovozi, portlashlar, samolyotning uchib o‘tishi, yong‘inlar, vayronargarchiliklar kabi omillar inobatga olinmasdan mashg‘ulotlar tashkillashtirilganligi ushbu holatni keltirib chiqargan [5].

Hususan, harbiy xizmatning o‘ziga xos jihatlari shundaki, unda harbiy xizmatni o‘tashdagi muammolar bevosita harbiy xizmatchilar munosabatlarida, ularning oila a’zolari munosabatlari bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Harbiy xizmatni o‘tashda harbiy xizmatchilar turli psixologik muammolar bilan to‘qnashadilar, bu esa o‘z o‘rnida shaxsiy tarkibning ruhiy tetikliligiga hamda jangovar imkoniyatlariga va harbiy faoliyatning samaradorligiga ta’sir qiladi. Ushbu holatda asosiy psixologik muammolarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir [6].

Harbiy xizmatchi shaxsi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar tarkibiy-tuzilishiga ko‘ra mazkur psixologik muammolarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

• Motivatsion muammolar – harbiy xizmat vazifalarini yuksak darajada bajarish hamda harbiy kasbiy takomillashish uchun qo‘zg‘atuvchi omillarning yo‘qligi;

• Kasbiy-toifali muammolar – harbiy xizmatchilarning ayrim qismi tomonidan funksional majburiyatlarini bajara olmasligi yoki bajarishga tayyor emasligi;

• Funksional-psixologik – xizmat jarayonida yuzaga keladigan harbiy xizmatchilarning salbiy psixofiziologik holatining mavjudligi;

• Oilaviy psixologik muammolar – shaxsiy tarkibning harbiy faoliyatiga salbiy ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarning ta’sirida shakllangan oilaviy muammolarning vujudga kelganligi holati.

Jamoaviy-guruhiy muammolar - harbiy jamoalarda ma’naviy-ruhiy muhitni yomonlashtiruvchi muammolardir. Ularga turli ko‘rinishdagi qonunbuzarliklar, harbiy jamoalar ichidagi munosabatlarning buzilishi, jamoalardagi ijobiy qadriyatlarining parchalanishi va yemirilishi, mazkur turdagi muammolar harbiy xizmatchilarning nizomga zid munosabatlarida, mikroguruhlarning mavjudligida, harbiy xizmatchilarning bir birlari bilan chiqisha olmasligida namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘z o‘rnida harbiy xizmatchilarning Qurolli Kuchlar maqsadlariga qarshi bo‘lgan noto‘g‘ri yoki yolg‘on ijtimoiy oriyentirlarni tanlashga intilish holatini yuzaga keltiradi.

Faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar mazkur muammolar harbiy xizmat va o‘quv jangovar faoliyatiga tegishli bo‘lib, ular harbiy xizmatchilarning psixologik xislatlarining harbiy xizmat va harbiy ixtisoslikning ob’ektiv talablariga to‘g‘ri kelmasligi oqibatida hosil bo‘ladi. Bu turdagi muammolar harbiy faoliyatni sust olib borishda, xizmat davomida xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yishda, jinoyat sodir etilishi kabi salbiy holatlarda namoyon bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan muammolardan kelib chiqib va ularni birinchi navbatda bartaraf etish maqsadida psixologik ishni asosiy ikki yo‘nalishda olib borish maqsadga muvofiqdir:

1) harbiy xizmatchilarning psixikasiga ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik sharoitlarni takomillashtirish;

2) harbiy faoliyatning turli sohalarida, insonning samarali faoliyat ko‘rsatishida muhim omil hisoblangan psixologik ta’limni individual va jamoalarda shakllantirish va rivojlantirish.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, psixologik ishlarni puxta tashkil etish harbiy xizmat samaradorligini oshishiga, shaxsning sog‘lom psixologik qiyofasini

saqlanishiga ayniqsa, harbiy jamoa hamda harbiy xizmatchi va ularning oilalarida sog‘lom psixologik muhitning shakllanishi, rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, psixologik ishlar mobillashtiruvchi, yo‘naltiruvchi, harbiy mafkuraviy kabi vazifalarni bajara oladi. Bu esa turli xil salbiy psixologik ta’sirlarni, psixologik jarohatlarni oldini olish va ularning salbiy oqibatlarini neytrallashtirishda samarali natijalarga erishishni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Qurolli Kuchlar tashkil etiganligining 31 yilligi bayramidan so‘zlagan nutqi 2023 yil.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 avgust 2018 yildagi PQ-3898-son Qarori “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”.
3. В. Назаренко. П. Герасимов. Поддержание и восстановление боеспособности подразделений при применении противником оружие на новых физических принципах. Военная Мысли. Военно-теоретический журнал. №8 2018. С. 21-22. 2 В. Строев. Боевой применение несметенного оружие. // Зарубежное военное обозрение.1998. №2. С.24-27.
4. А. Караян. Психологические особенности боевых действий военнослужащих в различных видах и на различных этапах боя. Армии Рус.ру. военно-информативный портал.

KIBERMAKONDA AXBOROT XURUJLARIGA QARSHI KURASHISH: ILMIY-AMALIY TAHLIL

*podpolkovnik **SAYDJANOV Farxod Madraximovich***

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti kafedrasi sikl boshlig‘i

Annotatsiya. *XXI asr taraqqiyot davri bizni salbiy axborot-psixologik ta’siridan himoyalash va qarshi kurash mexanizmlarini yaratishni talab etmoqda.*

Harbiy xizmatchini salbiy axborot ta’sirlardan himoyalash mexanizmlarni yaratish muhim vazifalardan biridir. Maqolada harbiy xizmatchilarni axborot-psixologik xurujlardan himoyalanganlik darajasini tadqiqot usuli orqali o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: *axborot-psixologik xavfsizlik, tezis, argument, fakt, dalil-isbot, gipotiza, prognozlashtirish, alternativ nuqtai nazar, fenomen, kognetiv strategiya, tanqidiy yondashish, suggestivlik, semantik-differensial, respondent.*

Zamonaviy dunyoda kibermakon inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Internet, axborot texnologiyalari va raqamli platformalar orqali davlatlar, tashkilotlar va shaxslar o‘zaro muloqot qiladi, iqtisodiy faoliyat yuritadi va ma’lumot almashadi. Biroq, kibermakonning kengayishi bilan birga axborot

xurujlari xavfi ham ortib bormoqda. Kiberxujumlar ma’lumotlarni o‘g‘irlash, tizimlarni ishdan chiqarish, shaxsiy hayotga tajovuz qilish va hatto davlat xavfsizligiga tahdid soladi. Shu sababli, kibermakonda axborot xurujlariga qarshi kurashish muhim ilmiy va amaliy muammo sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Ushbu maqolada kiberxujumlarning tabiati, ularning asosiy turlari, ilmiy tadqiqotlarga asoslangan qarshi kurashish usullari va kelajakdagi istiqbollar batafsil yoritilgan.

Axborot xurujlarining tabiati va turlari

Kibermakondagi axborot xurujlari — bu raqamli tizimlar, tarmoqlar yoki qurilmalarga zarar yetkazish, ma’lumotlarni o‘g‘irlash yoki ularning ishlashini buzish maqsadida amalga oshiriladigan qasddan qilingan xatti-harakatlardir. Bu xurujlar turli shakl va usullarda ro‘y berishi mumkin. Quyida ularning asosiy turlari ko‘rib chiqiladi:

1. **Fishing (Phishing).** Fishing xurujlari foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlari (login, parol, bank kartasi raqamlari)ni o‘g‘irlash uchun ishonchli manba sifatida yolg‘on xatlar yoki veb-saytlar yaratish orqali amalga oshiriladi. Masalan, bank nomidan yuborilgan soxta elektron xat foydalanuvchini ma’lumotlarini kiritishga undaydi.

2. **Zararli dasturlar (Malware).** Viruslar, troyanlar, ransomware (to‘lov talab qiluvchi viruslar) kabi zararli dasturlar qurilmalarga yuqadi va ma’lumotlarni shifrlaydi, o‘chiradi yoki ularni nazoratga oladi. 2023 yilda “WannaCry” ransomware xujumi dunyo bo‘ylab millionlab kompyuterlarga zarar yetkazgan edi.

3. **DDoS xurujlari.** Distributed Denial of Service (DDoS) xurujlari veb-sayt yoki serverning ishlashini to‘xtatish uchun uni sun’iy trafik bilan “to‘ldirib” yuboradi. Bu turdagi xurujlar ko‘pincha tijorat tashkilotlariga qarshi qo‘llanadi.

4. **Advanced Persistent Threats (APT).** Bu murakkab va uzoq muddatli xurujlar bo‘lib, ko‘pincha davlat yoki katta korporatsiyalarga qaratilgan. APT xurujlarida xakerlar tizimga yashirin kirib, uzoq vaqt davomida ma’lumot to‘playdi.

5. **Ijtimoiy injeneriya.** Bu usulda xakerlar odamlarning psixologik zaifliklaridan foydalanib, ularni aldash yo‘li bilan ma’lumot oladi. Masalan, telefon orqali “texnik xizmat xodimi” sifatida qo‘ng‘iroq qilib, parol so‘rash mumkin.

Axborot xurujlariga qarshi kurashish usullari

Kiberxujumlarga qarshi kurashish uchun ilmiy va amaliy yondashuvlarni birlashtirgan kompleks strategiyalar talab qilinadi. Quyida eng samarali usullar batafsil ko‘rib chiqiladi:

1. **Proaktiv xavfsizlik choralari.** Xurujlar sodir bo‘lishidan avval ularning oldini olish uchun tizimlarni doimiy ravishda monitoring qilish va zaif nuqtalarni aniqlash zarur. Masalan, “Penetration Testing” (kirish testi) orqali tizimning xavfsizlik darajasi tekshiriladi va zaifliklar bartaraf etiladi.

2. **Sun’iy intellekt va mashinali o‘qitish.** Sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari kiberxujumlarni real vaqtda aniqlash va ularga javob berishda muhim o‘rin tutadi. Mashinali o‘qitish algoritmlari tarmoq trafigini tahlil qilib, normaldan chetga chiqqan xatti-harakatlarni aniqlaydi. Masalan, “Darktrace” kabi AI asosidagi tizimlar DDoS xurujlarini tez aniqlashga qodir.

3. **Shifrlash texnologiyalari.** Ma’lumotlarni xavfsiz saqlash va uzatish uchun yuqori darajali shifrlash usullari (masalan, AES-256) qo‘llaniladi. Bu xakerlarning ma’lumotlarni o‘g‘irlab, ularni o‘qish imkoniyatini cheklaydi.

4. **Foydalanuvchilarning xabardorligini oshirish.** Axborot xurujlarining ko‘pchiligi foydalanuvchilarning xatolari tufayli yuz beradi. Shuning uchun jamiyatda kiberxavfsizlik bo‘yicha ta’lim va treninglar o‘tkazish muhim. Masalan, fishing xurujlaridan himoyalanish uchun elektron xatlarni ochishdan avval uning manbasini tekshirish odati shakllantirilishi kerak.

5. **Xalqaro hamkorlik.** Kiberxujumlar ko‘pincha transmilliy xususiyatga ega bo‘lgani uchun davlatlar o‘rtasida ma’lumot almashish va qonunchilikni muvofiqlashtirish zarur. Masalan, “Interpol” va “Europol” kabi tashkilotlar kiberjinoyatlarga qarshi global kurashda muhim rol o‘ynaydi.

Ilmiy tadqiqotlar va kelajak istiqbollari

So‘nggi yillarda kiberxavfsizlik sohasidagi ilmiy tadqiqotlar jadal rivojlanmoqda. Masalan, kvant kriptografiyasi kelajakda shifrlashning yangi darajasini yaratishi kutilmoqda. Kvant kompyuterlari mavjud shifrlash usullarini buzishga qodir bo‘lsa-da, ularga asoslangan yangi texnologiyalar xavfsizlikni yanada oshiradi. Shuningdek, blokcheyn texnologiyasi ma’lumotlarning butunligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Masalan, “Ethereum” kabi platformalar tarmoqdagi tranzaksiyalarni xavfsiz va shaffof qilishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, kiberxujumlarning psixologiyasi va ijtimoiy omillarini o‘rganish ham muhim yo‘nalishga aylanmoqda. Xakerlarning motivatsiyasi, ularning maqsadlari va jamiyatga ta’sirini tahlil qilish orqali samarali profilaktika choralari ishlab chiqiladi.

Xulosa

Kibermakonda axborot xurujlariga qarshi kurashish — bu murakkab va doimiy rivojlanib borayotgan sohadir. Ushbu muammoni hal qilish uchun texnologik innovatsiyalar, ilmiy tadqiqotlar va foydalanuvchilarning

mas’uliyatining uyg‘unligi talab qilinadi. Xurujlarning turlari va usullari murakkablashib borayotgan bir paytda, ularga qarshi kurashish strategiyalari ham mos ravishda takomillashib borishi zarur. Kelajakda sun’iy intellekt, kvant texnologiyalari va xalqaro hamkorlik kiberxavfsizlikning asosiy ustunlariga aylanadi. Shu bilan birga, har bir shaxs kibermakondagi xavfsizlik uchun o‘z hissasini qo‘shishi — umummilliy va global muammoning yechimida muhim omildir.

HARBIY PEDAGOGIKANING TARAQQIYOT BOSQICHLARI TO‘G‘RISIDA ILMIY-NAZARIY QARASHLAR EVOLYUTSIYASI

Sotvoldiyev I. I.

dotent, podpolkovnik, AKT va AH Instituti, Kafedra katta o‘qituvchisi.

Idiyev E.I

AKT va AHI, Kafedra dotsenti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada harbiy pedagogika o‘z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o‘rgailishi. Shu ma’noda harbiy pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari harbiy xizmatchilarga ta’lim va tarbiya berishning real jarayonlariga xos bo‘lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish yo‘llari, metodlari, vositalari majmui to’g’risida so’z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Harbiy pedagogika, meros, harbiy tarbiya, jangovar faoliyat, madaniyat, ma’naviyat, donolik, yodgorliklar.*

Аннотация: *В данной стате рассматривается изучение педагогических явлений и процессов с методами, соответствующими целям и задачам военной педагогики, направленными на обогащение и обновление эё среды. В этом контексте научно-исследователские методы военной педагогики посвящены проверке внутренних связей и отношений, присущих реалным процессам обучения и воспитания военнослужащих, а также путям познания, методам и средствам, связанным с ними.*

Ключевые слова*: военная педагогика, наследие, военное воспитание, боевая деятелност, култура, памятник, мудрост, просвещение.*

Kirish

Kishilik jamiyatining qadimiy ibtidoiy, ya’ni boshlang‘ich davrida odamlar tayyor mahsulotdan foydalanishgan. Ovchilik, keyinchalik yesa dehdonchilik va turli-tuman xunarmandchilikning rivojlanishi odamlar mehnat tajribasining oshishiga olib kelgan. Mehnat faoliyati borgan sari murakkablasha borib, odamlarning shaxs sifatida shakllanishida va kishilik jamiyatining rivojlanishida muhim rol o‘ynay boshladi. Mehnat odamlarning tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatib, tarbiyani hayotiy zaruriyat qilib qo‘ydi. Odamlarning mehnat ko‘nikmalari yosh avlodga meros bo‘lib qola boshladi. Yendi tarbiya mehnat faoliyatining, mehnat tajribasining mahsuliga bevosita bog‘liq bo‘lib qoldi. Shu tariqa ijtimoiy hayotda

orttirilgan tajribalarni quyi avlodga o‘rgatish yehtiyoji tug‘ildi. Tajribalarning to‘rlanishi natijasida ta’lim-tarbiyaning dastlabki omillari vujudga keldi. Tabiat, ijtimoiy hayot haqidagi tajribalar asosida ma’lum bilimlar boyib bordi.

Armiyaning yuzaga kelishi bilan jangovar faoliyatning muhim tarkibiy qismi hisoblangan shaxsiy tarkibning ta’lim va tarbiyasi maxsus ijtimoiy hodisa sifatida bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi. Ushbu tarkibiy qism o‘z mazmuni bo‘yicha amaliy harbiy tarix hisoblanib, harbiylarni har tomonlama jangovor xatti-harakatlarning muvaffaqiyatli amalga oshirishiga zaruriy, majburiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Uzoq vaqt harbiy-redagogik tavsiyalar ajdodlardan avlodlarga rivoyat, o‘git, maqol, matallar asosida o‘tib kelgan[1].

Harbiy ish murakkablashib borgan sari, ayniqsa, milliy davlatlar vujudga kelishi davrida qiyosiy ko‘r sonli muntazaam armiyalarni tashkil torishi bilan harbiy-redagogik, buyuk gumanistlar fikrlar ham kelgusidagi rivojlanishga yuz tutdi[1].

Bu davrga kelib umumlashgan harbiy tarix tajribalar ko‘rsatma jang san’ati rand-nasihat, ustav, buyruq va boshqa yozma manbalarda o‘z aksini tordi. Harbiy tarix va uning rivojlanish jarayoni mazmuniga mamlakatning tarixiy rivojlanish shart-sharoitlari, ko‘r vaqt davomida u yoki bu mamlakat armiyasining hal qiluvchi vazifalari, shaxsiy tarkibning milliy xususiyatlari va boshqalar o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Yeng qadimgi harbiy tarbiyalash haqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Turkiy va forsiyzabon xalqlarning hayot kechirish san’ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo‘lishning namunasi tarzida ye’tirof yetilgan ma’naviy madaniyat yodgorliklari qadimgi grek tarixchisi Gerodotning “Tarix”, Strabonning “Geografiya” hamda Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” kabi asarlari, shuningdek, Urxun-Yenisey bitiklari kabi adabiy-tarixiy manbalarda saqlangan va ular orqali bizgacha yetib kelgan. Ushbu yodgorliklar mohiyatini o‘rganish insonning shakllanishida moddiy va ma’naviy madaniyat qay darajada katta rol o‘ynaganligidan dalolat beradi. Xususan, tarbiya insonning aqliy va axloqiy jihatdan tarkib tora borishiga ta’sir yetgan bo‘lsa, insonning shakllana borishi ham o‘z navbatida kishilik jamiyatining qaror tora borishiga yordam bergan. Xullas, tafakkur yurita olish qobiliyatiga yega bo‘lgan inson kamolotining ta’minlanish jarayoni hamda jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti o‘zaro uzviy aloqada shakllangan. Mazkur tarixiy jarayon mohiyatini bilish bizga inson tafakkurining juda uzoq davr va murakkab sharoitlarda shakllana borganligidan dalolat beradi[3].

Urug‘chilik jamoasi bosqichida yesa bolalar mehnatining ko‘lami kengayib, kasb-hunar faoliyatining turlari ko‘rayib boradi. Tajribali kishilar bolalarni tarbiyalash bilan birga ularni yozishga ham o‘rgata boshlaydilar. Asta-sekin harbiy

tarbiyaning boshlang‘ich ko‘rinishlari yuzaga kela boshlaydi. Bolalarga harbiy san’at sirlarini o‘rgatish ancha murakkab ish bo‘lib, ushbu tarbiyani tashkil yetish maxsus bilim hamda tayyorgarlikka yega bo‘lishni taqozo yetar yedi. Shu bois maxsus harbiy bilim va tayyorgarlikka yega bo‘lgan kishilar bolalarga bu boradagi bilimlarni berish jarayoniga jalb yetila boshladilar.

Miloddan oldin taxminan 484(480)-431(425) yillarda yashagan yunon tarixchisi Gerodotning “Tarix” kitobida qadimgi forslar, saklar, massagetlarning ta’lim-tarbiya tarziga oid muhim ma’lumotlar berilgan. “Forslarning yeng sharaflaydigan narsasi jasurlikdir”, - deydi olim. Shunga ko‘ra ular ko‘rroq o‘g‘il bolalardan faxrlanganlar. Rodshoh ham kimning o‘g‘li ko‘r bo‘lsa, unga har yili sovg‘a-salomlar yuborgan. Bundan tashqari bolalarning yoshiga ham ye’tibor berishgan. O‘g‘il bolalarni besh yoshdan yigirma yoshigacha faqat uch narsaga: otda yurish, kamondan otish, to‘g‘ri so‘zlikka o‘rgatilgan. Bolani besh yoshgacha otasiga ko‘rsatmaganlar, u ayollar tarbiyasida bo‘lgan. Mabodo o‘g‘il bola vafot yetsa, otasining qayg‘urmasligi uchun shunday qilganlar[2].

O‘g‘illar hech qachon ota-onasiga nisbatan hurmatsizlik qilmaganlar. Ular bunday holatni faqat nikohsiz tug‘ilgan yoki tashlandiq bolalardangina kutish mumkin, deb hisoblaganlar.

Bundan tashqari. Gerodot forslar uchun yolg‘onchilik va qarzdor bo‘lish sharmandalik hisoblangan, deydi. Ular daryolarni muqaddas sanaganlar. Shu bois daryo suviga tururmaganlar, hatto qo‘l yuvmaganlar[4]. Gerodotning ushbu ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki. bizning ajdodlarimiz o‘g‘il farzandlarini jasoratli, o‘z Vatanining haqiqiy himoyachisi, kuchli va botir inson yetib tarbiyalashga katta ye’tibor berganlar. Yigitlar va yerkaklargina yemas, hatto ayollarning ham jasorat ko‘rsatganlari borasidagi fikrlar yunon faylasuflari tomonidan yozib qoldirilgan. Masalan, Rlutarx fors ayollari haqida garirib shunday voqeani keltiradi: rodshoh Kir forslarni shoh Astiag boshliq midiyaliklarga qarshi kurashga otlantirganda, ular jangda mag‘lub bo‘ladilar. Fors jangchilari shaharga qarab qocha boshlaydilar. Dushman ularni quvib, shaharga bostirib kirishiga yaqin qolganda, darvozadan ularga qarshi ayollar chiqib keladilar va yoqavayron holda shovqin ko‘taradilar: “Yey, noinsof bandalar, qayoqqa qochmoqchisizlar? Yendi siz dunyoga kelgan joyingizga qaytib yashirina olmaysizlar-ku!” Forslar ayollarning bu xatti-harakatiga dosh bera olmay, qaytib jangga tashlanadilar va dushmanni orqaga chekinishga majbur yetadilar.

Bu voqeaga xotira sifatida Kir shunday qonun ta’sis yetadi: “Bu shaharga qaysi shoh qadam qo‘ysa, har bir ayolga bittadan oltin sovg‘a qilsin”.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, mavjud holatlar hamda shart-sharoitning o‘zi yoshlarga otda yurish, kamondan otish borasidagi bilimlarni o‘rgatish, shuningdek, ularda jasurlik, to‘g‘rilik va botirlik hislatlarini tarbiyalash

lozimligini taqozo yetgan. Shu bois qadimgi ajdodlarimiz bolalarni o‘z xalqining yerki va yurt mustaqilligining himoyachilari yetib tarbiyalaganlar.

Rlutarxning yana bir o‘rinda qayd yetishicha, Aleksandr Makedonskiy yerli xalqlarga yaqinlashish maqsadida makedoniyaliklar bilan mahalliy xalqlarning urf-odatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirishga harakat qilgan. Shu maqsadda u o‘ttiz ming bolani ajratib olib, yunon tili va makedoniyaliklarga xos bo‘lgan harbiy san’at sirlarini o‘rgatishga buyruq bergan. Ana shu maqsadni amalga oshirishga juda ko‘r murabbiylar tayinlangan. Yunon alifbosining keyinchalik bu yurtda qabul qilinishi o‘sha davrda ko‘rlab maktablar ochilgani hamda unda yerli aholi farzandlari ham o‘qitilganidan dalolat beradi.

So‘g‘d yozma yodgorliklari orasida V.B.Xen tomonidan aniqlangan va “Yeski xatlar” nomi bilan yuritiladigan qimmatli manbalar yeramizning boshlarida shakllangan so‘g‘d yozuvi haqida ma’lumot beradi. Ushbu manbalarni Dunxuan shahri (Sharqiy Turkiston) yaqinidagi savdo qishlog‘ida yashagan so‘g‘dlik tijoratchi (savdogar)larning o‘z ona yurtlari Samarqandga yozgan va shaxsiy xarakterga yega bo‘lgan xatlar tashkil qiladi.

Adabiyotlar:

[1]. Harbiy tarix san‘ati, darslik H.Dadaboev. Toshkent 2013.

[2]. Ларионов В.В. Эволюсия военного искусства: этапы, тенденсии, принципы. - М.: Воениздат, 1987. - 248 с.

[3]. Sotiboldiyev. A, Karimjonov A. Harbiy pedogogika. T., 2005

[4]. Sh.Akramova. Harbiy pedagogika. Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari uchun darslik. - Toshkent: 0 ‘zR MG HTI, 2018 y. - 27 b

TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA SALBIY AXBOROT TA’SIRINI KAMAYTIRISH USULLARI

NURMETOV B.S., XUSHNUDOV S.SH., SULTONOV M.M., QURBONOV N.U.

Axborot-kommunikatsiya texnologiylari va aloqa harbiy instituti

HHM zenit raketa qo‘shinlari kafedrasi

Annotatsiya*: Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ta’lim tizimida axborot xavfsizligi va salbiy axborot ta’sirini kamaytirish muammolarini dolzarb masalaga aylantirmoqda. Ushbu tezisda ta’lim jarayonida salbiy axborotga qarshi kurashish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish usullari tahlil qilinadi. Axborot savodxonligini oshirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish va o‘quvchilarda raqamli immunitetni shakllantirish bo‘yicha yondashuvlar muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari ta’lim muassasalarida axborot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishda foydali bo‘lishi mumkin.*

Kalit so‘zlar*: raqamli texnologiyalar, axborot xavfsizligi, ta’lim, axborot savodxonligi, salbiy axborotga qarshi kurash*

Annotation*: The development of digital technologies has made information security and mitigating the impact of negative information crucial issues in the education system. This thesis analyzes methods of using digital technologies to counteract negative information in the educational process. It discusses approaches to improving information literacy, effectively utilizing modern information and communication technologies, and developing digital immunity among students. The research findings can be useful for developing strategies to ensure information security in educational institutions.*

Keywords*: digital technologies, information security, education, information literacy, combating negative information*

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining turli sohalarida, jumladan, ta’lim tizimida ham sezilarli o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Bugungi kunda raqamli axborot oqimi o‘ta tezkor va katta hajmda tarqalib borayotgan bir paytda, o‘quvchilar va talabalar ishonchli hamda noto‘g‘ri ma’lumotlarni ajratish qobiliyatiga ega bo‘lishlari juda muhimdir. Ayniqsa, salbiy axborotning keng tarqalishi yosh avlod dunyoqarashi va tafakkuriga bevosita ta’sir ko‘rsatib, ularning psixologik holati va ijtimoiy moslashuviga zarar yetkazishi mumkin. Shu boisdan, ta’lim jarayonida salbiy axborotga qarshi kurashishning innovatsion usullarini joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar salbiy axborotga qarshi samarali kurashish vositasi sifatida axborot savodxonligini oshirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va raqamli immunitetni shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Ushbu yondashuvlar orqali o‘quvchilar ishonchli axborotni ajratish, salbiy kontentdan himoyalanish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- **Axborot savodxonligini oshirish;**
- **AKT vositalaridan foydalanish;**
- **Raqamli immunitetni shakllantirish.**

Bu chora-tadbirlar ta’lim jarayonida axborot xavfsizligini ta’minlashga yordam beradi. Shuningdek, pedagogik yondashuvlar va zamonaviy raqamli texnologiyalarni uyg‘unlashtirish orqali salbiy axborotning o‘quvchilar ongi va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sirini kamaytirish mumkin. Shu boisdan, ushbu masalani ta’lim tizimida kompleks hal qilish va yangi innovatsion yechimlar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Axborot savodxonligini oshirish orqali salbiy axborot ta’sirini kamaytirish

Axborot savodxonligi (AS) – bu insonning ishonchli va noto‘g‘ri axborotni ajratish, axborotni tahlil qilish va undan oqilona foydalanish ko‘nikmalaridir.

O‘quvchilarda ASni shakllantirish uchun quyidagi formula asosida baholash mumkin:

$$AS = \frac{I_s}{I_{jami}} \times 100\%$$

Bu yerda:

AS – axborot savodxonligi darajasi (%),

I_s– ishonchli axborotni tanlash ko‘nikmasi bahosi,

I_{jami} – umumiy axborot baholash darajasi.

Agar AS 50% dan past bo‘lsa, o‘quvchi noto‘g‘ri axborot ta’siriga moyil hisoblanadi. Bunday holatlarda, ta’lim muassasalarida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak:


✓ Axborot savodxonligini oshirish bo‘yicha maxsus o‘quv kurslarini joriy etish.

✓ O‘quvchilarga ishonchli manbalarni aniqlash usullarini o‘rgatish.

✓ Axborotlarni tahlil qilishga o‘rgatuvchi interaktiv mashg‘ulotlar tashkil etish.

2. Zamonaviy AKT vositalaridan foydalanish

Raqamli texnologiyalar yordamida salbiy axborot tarqalishining oldini olish mumkin. Quyidagi grafikda ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning salbiy axborot ta’sirini kamaytirishga ta’siri ko‘rsatilgan:



✓Yuqoridagi grafikdan ko‘rinib turibdiki, interaktiv mashg‘ulotlar va monitoring tizimlari salbiy axborot ta’sirini kamaytirishda eng samarali usullardan biri hisoblanadi. AKT vositalari yordamida salbiy axborotning ta’lim jarayoniga ta’sirini kamaytirish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin. Jumladan, sun’iy intellekt asosida ishlovchi **axborot filtrlash tizimlari** orqali

zararli kontentni avtomatik aniqlash va bloklash yo‘lga qo‘yilishi lozim. Shuningdek, **maxsus ta’lim platformalarini** joriy etish orqali xavfsiz ta’lim muhitini yaratish va ishonchli axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatini oshirish maqsadga muvofiqdir. **Monitoring tizimlari** yordamida o‘quvchilarning internetdagi faoliyatini xavfsiz nazorat qilish, ularning salbiy axborotga moyilligini aniqlash va shu asosda individual pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish mumkin. Bundan tashqari, **interaktiv mashg‘ulotlar**, jumladan, simulyatsiyalar va o‘yin elementlaridan foydalangan holda, o‘quvchilarning axborot xavfsizligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash salbiy axborotga qarshi kurashishda samarali usul hisoblanadi. Shu boisdan, ta’lim muassasalarida ushbu texnologiyalardan keng foydalanish axborot xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

3. Raqamli immunitetni shakllantirish

Raqamli immunitet – bu o‘quvchilarning zararli axborot ta’siriga qarshi tura olish qobiliyatidir. Ushbu ko‘nikmani rivojlantirish uchun quyidagi yondashuvdan foydalanish mumkin:

$$RI = \sum_{i=1}^{n} (W_i \times S_i)$$

Bu yerda:

RI – raqamli immunitet darajasi,

W_i – o‘quvchi egallagan bilimlar bahosi,

S_i – ma’lum bir axborot toifasiga bo‘lgan munosabat darajasi,

n – baholangan axborot toifalari soni.

Raqamli immunitetni oshirish uchun o‘quvchilar va talabalarni axborot tahlil qilish bo‘yicha maxsus treninglarga jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday treninglar ularga noto‘g‘ri yoki manipulyativ axborotni aniqlash, ishonchli manbalarni tanlash va axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida real hayotga yaqin vaziyatlarga asoslangan mashqlarni o‘tkazish orqali o‘quvchilarni turli axborot xurujlariga qarshi tura olishga o‘rgatish mumkin. Bu esa ularga amaliy tajriba orttirishga va raqamli muhitda mustaqil, ongli qaror qabul qilishga imkon yaratadi. Bundan tashqari, talabalar va o‘quvchilarga ijtimoiy tarmoqlarda xavfsiz va mas’uliyatli faoliyat yuritish bo‘yicha ta’lim berish zarur. Ularni onlayn muhitda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, feyk yangiliklarni farqlash va axborot tahdidlariga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lishga o‘rgatish orqali raqamli immunitetni yanada mustahkamlash mumkin.

Xulosa

Bugungi raqamli davrda ta’lim tizimida salbiy axborotning tarqalishi va uning o‘quvchilarga ta’siri dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda salbiy axborotning oldini olish va uning ta’sirini kamaytirish uchun axborot savodxonligini oshirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish hamda raqamli immunitetni shakllantirishning samarali usullari tahlil qilindi.

Ta’lim jarayonida axborot savodxonligini oshirish orqali o‘quvchilar ishonchli manbalarni ajratish, yolg‘on yoki manipulyativ axborotni tahlil qilish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari mumkin. Zamonaviy AKT vositalari, xususan, axborot filtrlash tizimlari, monitoring tizimlari, maxsus ta’lim platformalari va interaktiv mashg‘ulotlardan foydalanish salbiy axborotga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o‘quvchilarni raqamli immunitetga ega bo‘lishga yo‘naltirish orqali ularning zararli axborot tahdidlariga nisbatan bardoshli va ongli qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish mumkin.

Shu sababli, ta’lim muassasalarida axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kompleks strategiyalar ishlab chiqish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish muhim hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilish orqali yosh avlodni axborot xurujlaridan himoya qilish va ularning mustaqil fikrlash hamda axborot xavfsizligi bo‘yicha malakasini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бех, И. Д. (2019). Информационная безопасност в цифровую эпоху. Москва: Издателство Юрайт.
2. Чернышев, С. А., & Петров, В. Н. (2020). Медиаобразование и цифровая грамотност: современные вызовы. Санкт-Петербург: Издателство СПбГУ.
3. UNESCO (2021). Media and Information Literacy: Curriculum for Teachers. Paris: UNESCO Publishing.
4. Shirky, C. (2019). Cognitive Surplus: Creativity and Generosity in a Connected Age. New York: Penguin Books.
5. Buckingham, D. (2020). The Media Education Manifesto. Cambridge: Polity Press.

KIBERMAKONDA AXBOROT XURUJLARIGA QARSHI KURASHISH: STRATEGIYALAR VA VOSITALAR

podpolkovnik ***SAYDJANOV Farxod Madraximovich***

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti kafedrasi sikl boshlig‘i

Annotatsiya. *Zamonaviy taraqqiyot davri bizni salbiy axborot-psixologik ta’siridan himoyalash va qarshi kurash mexanizmlarini yaratishni talab etmoqda.*

Harbiy xizmatchini salbiy axborot ta’sirlardan himoyalash mexanizmlarni yaratish muhim vazifalardan biridir. Maqolada harbiy xizmatchilarni axborot-psixologik xurujlardan himoyalanganlik darajasini tadqiqot usuli orqali o‘rganildi.

Tayanch so‘zlar: *kibermakon, axborot-psixologik xavfsizlik, tezis, argument, fakt, dalil-isbot, gipotiza, prognozlashtirish, alternativ nuqtai nazar, fenomen, kognetiv strategiya, tanqidiy yondashish, suggestivlik, semantik-differensial, respondent.*

Kibermakonda axborot xurujlari (kiberxurujlar) – bu zo‘ravonlik, ma’lumotlarni o‘g‘irlash, tizimlarni buzish yoki ijtimoiy taraqqiyotga ta’sir ko‘rsatish maqsadida axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladigan xarakatlar. Bu xurujlar davlatlar, korxonalar va shaxslar uchun katta xavf tug‘diradi. Bu maqolada kibermakonda axborot xurujlariga qarshi kurashishning asosiy strategiyalari, vositalari va usullari haqida batafsil ma’lumot beramiz.

1. Kibermakonda axborot xurujlarining turlari. Kiberxurujlar turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Ularning asosiy turlari:

Ma’lumotlarni o‘g‘irlash: Foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlari, korporativ ma’lumotlar yoki davlat sirlarini o‘g‘irlash.

DDoS-xurujlari: Tarmoq xizmatlarini vaqtinchalik to‘xtatish uchun serverlarga ortiqcha yuk tashlash.

Fishing: Foydalanuvchilarning hisob ma’lumotlarini olish uchun yolg‘on veb-sahifalar yoki elektron pochta orqali aldash.

Ransomiya (Ransomware): Ma’lumotlarni shifrlash va ularni qaytarish uchun to‘lov talab qilish.

Dezinformatsiya kampaniyalari: Feyk ma’lumotlarni tarqatish orqali ijtimoiy taraqqiyotga ta’sir ko‘rsatish.

2. Kiberxurujlarga qarshi kurashishning asosiy strategiyalari

Kiberxurujlarga qarshi kurashish uchun quyidagi strategiyalarni qo‘llash mumkin:

2.1. Xavfsizlik tizimlarini yaratish

Firewall va antivirus vositalari: Tarmoq trafigini nazorat qilish va zararli dasturlarni aniqlash.

Ikki bosqichli autentifikatsiya: Hisoblarni qo‘shimcha himoya bilan ta’minlash.

Ma’lumotlarni shifrlash: Ma’lumotlarning konfidensialligini ta’minlash.

2.2. Xodimlarni malakasini oshirish

Kiberxavfsizlik bo‘yicha treninglar: Xodimlarni fishing, ransomiya va boshqa xavflardan xabardor qilish.

Simulyatsiyalar o‘tkazish: Kiberxurujlarning simulyatsiyasini yaratib, xodimlarning reaksiyasini tekshirish.

2.3. Ma’lumotlarni nusxalash va qayta tiklash

Muntazam nusxa olish: Ma’lumotlarning nusxasini muntazam ravishda saqlash.

Qayta tiklash rejalari: Kiberxuruj sodir bo‘lganda tezda tizimni qayta tiklash.

2.4. Huquqiy choralar

Kiberqonunchilikni rivojlantirish: Kiberjinoyatchilikka qarshi qonunlarni takomillashtirish.

Xalqaro hamkorlik: Kiberxurujlarga qarshi kurashishda davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish.

3. Kiberxavfsizlikni ta’minlashda foydalaniladigan vositalar

Kiberxurujlarga qarshi kurashishda quyidagi vositalar keng qo‘llaniladi:

SIEM (Security Information and Event Management): Tarmoqdagi xavflarni vaqtinchalik aniqlash va ularga reaksiya ko‘rsatish.

IDS/IPS (Intrusion Detection/Prevention Systems): Tarmoqdagi nodog‘ri faoliyatni aniqlash va uni to‘xtatish.

Endpoint Protection: Foydalanuvchi qurilmalarini zararli dasturlardan himoyalash.

Threat Intelligence: Kiberxavflar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash va ularga qarshi choralar ishlab chiqish.

4. Kiberxurujlarga qarshi kurashishdagi muammolar va yechimlar

Kiberxavfsizlik sohasidagi asosiy muammolar va ularning yechimlari:

4.1. Texnologik orqada qolish

Muammo: Texnologiyalar tez rivojlanishi bilan kiberxavfsizlik vositalarining eskirishi.

Yechim: Muntazam ravishda tizimlarni yangilash va texnologik innovatsiyalardan foydalanish.

4.2. Ma’lumotlarning ko‘pmiqdorligi

Muammo: Kiberxavflarni aniqlash uchun ko‘p miqdorda ma’lumotlarni tahlil qilish zarur.

Yechim: Sun’iy intellekt va ma’lumotlarni tahlil qilish vositalaridan foydalanish.

4.3. Xodimlarning noxavfsizlik xatolari

Muammo: Xodimlarning noanik harakatlari kiberxavflarga olib kelishi mumkin.

Yechim: Muntazam treninglar va kiberxavfsizlik bo‘yicha ma’lumotlarni tarqatish.

Xulosa. Kibermakonda axborot xurujlari zamonaviy jamiyat uchun katta xavfdir. Ularga qarshi kurashish uchun kompleks yo‘nalishdagi strategiyalar ishlab chiqilishi, kiberxavfsizlik vositalaridan foydalanish va xodimlarning malakasini oshirish zarur. Faqat shu yo‘l bilan kiberxavflarning oqibatlarini minimallashtirish va ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlash mumkin.

Qo‘shimcha ma’lumotlar:

- Kiberxavfsizlik bo‘yicha xalqaro tashkilotlar (CERT, INTERPOL);
- Kiberxavfsizlik standartlari (ISO/IEC 27001);
- Kiberxavfsizlik bo‘yicha treninglar va kurslar.

JISMONIY TAYYORGARLIKDA HISSIY-IRODAVIY BARQARORLIKNING O‘RNI

Hamidov Rauf Uzgarishovich

Axborot-kommukatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

"Jismoniy tarbiya va sport sikl " katta o'qituvchisi

Annotatsiya*: ushbu maqolada rivojlanish muammosi yoritilgan psixologik tayyorgarlik va hissiy-irodaviy barqarorlik jismoniy tayyorgarlik va mashqlarning turli shakllariga yordam berish barqaror psixo-emotsional holatni shakllantirish. Aktuallik ushbu maqola shubhasiz, chunki hozirgi bosqichda Qurolli kuchlarning rivojlanishi psixologik tayyorgarlik muammosi va hissiy-irodaviy barqarorlik umumiy omillarning etakchi omillaridan biri sifatida rivojlanish va kasbiy tayyorgarlik, shuningdek jangovar va harbiy xizmatchilar va harbiy guruhlar tomonidan o'quv-jangovar vazifalar birinchi o'ringa chiqadi.*

Kalit so'zlar: *psixologik tayyorgarlik, hissiy-ixtiyoriy barqarorlik,jismoniy tayyorgarlik va sport, pedagogik shartlar.*

Annotation: *The conducted scientific studies aimed at determining the features of the development of special physical qualities, the formation of military-applied motor skills and functional capabilities in military all-rounders/cadets-athletes with different levels of sports fitness allow us to conclude that they express the external and internal mechanism of adaptation of the body of military all-rounders/cadets-athletes in the process of developing sports skills. This mechanism shows the degree of development and interrelationships of physical qualities, applied motor skills and functional capabilities of the body of all-rounders.*

Key words: *psychological training, emotional and volitional stability, physical training and sports, pedagogical conditions.*

Kirish: jangchining psixologik tayyorgarligi muammosi u har doim mavjud bo'lgan: qadimgi davrlarda ham, o'rta asrlarda ham, yangi davrlarda ham hikoyalar. Ammo hozirgidek keskinlik bilan u o'zini hali e'lon qilmagan. Samaradorlik jangovar tayyorgarlik asosan aniqlanadi psixologik omil. Ma'lumki, psixikaning barqarorligi va xususan, uning hissiy-irodaviy sohasi jangda muvaffaqiyat

qozonishi mumkin hatto o'rtacha jismoniy tayyorgarlik ko'rgan jangchi. Va aksincha, jangovar tayyorgarlikning mukammal talabasi qiyin, stressli vaziyatda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkin vaziyatlar. Hozirgi vaqtda yangi yo'llarni izlash doimiy ravishda olib borilmoqda, mablag'lar va ta'lim shakllari psixologik jihatdan barqaror harbiy xizmatchi. To'plangan ilmiy va amaliy narsalarni tushunmasdan bu barcha harbiy mutaxassislar, shu jumladan mutaxassislar uchun qiyin tajriba jismoniy tarbiya va sport (FP va C).

Asosiy qoidalar: Muhim sharoitlarda keskin sharoitlar va murakkab xarakter o'lchovlar tayyorgarlikning aqliy tarkibiy qismlarining og'irligini aniqlaydi muayyan ish, ulardan biri hissiy-irodali barqarorlik (EVU). EVU muammosi paydo bo'lishi tabiiy va u inson faoliyati sohalarida eng yaxshi rivojlanishga erishdi, bu erda to'liq taranglik mavjud (psixologik va jismoniy jihatdan) mehnat sharoitlari va murakkab tabiat. Genetik tahlil EVU shakllanishi muammosining tarixiy jihati quyidagilarni tasdiqlashga imkon beradi (tabiiyki, Konventsiyaning nisbiy ulushi bilan) bu alohida ahamiyatga ega muammo XIX va XX asrlarning boshlarida paydo bo'ldi. keskin murakkablik tufayli qurolli Borbani boshqarish vositalari.

Shunday qilib, N. Dobrotvorskiy ta'kidlaydi: "K 1917 yil allaqachon yomon kuch bo'lgan aviatsiyada uchish uchun taqdim etish zarurligi to'g'risida yuqori baxtsiz hodisalar yuzaga keldi tarkibi, tanasining holati aniqroq talablar". Unda vaqt tadqiqotchilarning e'tiboridan chetda qolmadi va savollar hissiy jihatdan ixtiyoriy barqarorlik, uni shakllantirish vositalari, shakllari, usullarini izlash harbiy-dengiz floti shaxsiy tarkibi. 1928 yilda V. Danilov harbiy-dengiz ta'limi talabalarida irodani rivojlantirish muhimligiga e'tibor muassasalar. Uning ishi pedagogik ta'sir kunini aniq belgilab berdi kelajakdagi dengizchining shaxsiyatida ta'lim va didaktik ko'rsatiladi talabalarning o'zlari tomonidan ixtiyoriy fazilatlarni shakllantirish shartlari. M. I. Dyachenko, E. F. Osipenkov, L. E. Merzlyakning b monografiyalari, komandirlik faoliyatining psixologik-pedagogik asoslariga bag'ishlangan, adabiyot va ish tajribasining mustahkam nazariy umumlashtirilishi ko'rsatilgan ushbu masala bo'yicha.

O'sha vaqt uchun materialning tabiati va hajmi hissiy-ixtiyoriy jarayonlar va ruhiy holatlar juda yaxshi psixologik tayyorgarlik nazariyasi va amaliyoti talablarini qondirdi harbiy xizmatchilar. K. A. Alekseyevskiy, P. I. Yedemskiy; V. A. Oreshko; G. V. Sredin, D. A. Volkogonov, M. P. Korobeynikov; V. L. Marishchuk muammoni ko'rib chiqdilar axloqiy bilan yaqin birlikda psixologik tayyorgarlik ta'lim va uni axloqiy va psixologik yo'nalishda hal qilishni taklif qildi tayyorgarlik. Ilmiy tadqiqotlar va xizmat tajribasi shuni ko'rsatadiki, aqliy tayyorlik amalga oshirilganda samarali erishiladi psixologik va pedagogik yo'lning turli yo'nalishlari.

Aqliy muammolarni hal qilishda jismoniy tayyorgarlikni bajarish tayyorgarlik rasmiy ravishda mashg'ulotlar bilan bog'liq yo'nalishni anglatadi jangovar tayyorgarlik. Biroq, uni mustaqil yo'nalishga ajratish bir qator sharoitlar tufayli: birinchidan, bu berilgan mavzu tadqiqotlar, ikkinchidan, ko'plab mualliflar (asosan emas FP va C) mutaxassislari jismoniy tayyorgarlikning rolini alohida ta'kidlashadi asosiy yo'nalishlarda yuqori samaradorlikka erishish (umumiy ta'lim ishlari va jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari) va uchinchidan, bu eng muhimi, ob'ektiv ravishda jismoniy tayyorgarlik amalda ruhiy og'izni shakllantirish uchun cheksiz imkoniyatlar umuman olganda, xususan, hissiy va irodali.

Jismoniy mashqlar bilan psixologik tayyorgarlikning vazifalari jismoniy mashqlar jismoniy tayyorgarlikning turli shakllarida hal qilinadi, asosiysi o'quv mashg'ulotlari. Ular eng ko'p o'ynashadi axloqiy va psixologik fazilatlarni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi u harbiy xizmatchilar. Ularni rejalashtirish, tayyorlash va to'g'ridan-to'g'ri o'tkazish kerak:

-jismoniy mashqlar va harbiy-professional harakatlarni tanlash, bu eng aniq aqliy tarbiyalashga qaratilgan fazilatlar va shaxsiyat xususiyatlari;

-jismoniy mashqlarni bajarish uchun pedagogik shart-sharoitlarni yarating effektivlikni ta'minlaydigan o'zgaruvchan ta'sirlar to'plami sifatida kasbiy muhim aqliy fazilatlarning o'sishi (etarli darajada tanlanadi ular yordamida amalga oshiriladigan usullar va uslubiy usullar jismoniy tayyorgarlik vositalari; aniq muhit yaratadi, ichida qaysi jismoniy mashqlar hal qilinishi kerak faollashtirishni belgilaydigan aniq motor vazifalari muayyan aqliy jarayonlar).

Psixofiziologik ta'sirga ijobiy ta'sir holati harbiy xizmatchilar ertalabki jismoniy mashqlar bilan ham shug'ullanadilar, bu Inhibitor-patogen jarayonlarning nisbatlarini hisobga olgan holda optimallashtiradi uning tibbiy-biologik va psixologik-pedagogik jihatlarining o'ziga xos xususiyatlari o'tkazmalar, ya'ni:

tananing holatini belgilaydigan bioritmik omillar erta tongda;

harbiy xizmatchilarga bo'lgan ehtiyojning past darajasi ertalab amalga oshiriladi ichida jismoniy mashqlar va natijada jismoniy mashqlar tajribasining etishmasligi ertalab mashqlar, shuningdek jismoniy mashqlar o'tkazish qobiliyatlari nisbatan ekstremal sharoitlarda yuklar.

Ertalabki jismoniy mashqlarning samarali ta'sirini ta'minlash uchun harbiy xizmatchilarning tanasi va ruhiyati quyidagilarni hisobga olishi kerak:

-jismoniy tayyorgarlikning umumiy darajasi;

-kelgusi kun uchun jangovar tayyorgarlik yuklarining tabiati va darajasi;

-boshqa jismoniy shakllardagi jismoniy faoliyatning tabiati va darajasi tayyorgarlik;

-bir kun oldin dvigatelning umumiy faolligi

-xodimlarning xizmat sharoitlariga moslashish darajasi;

-tananing bioritmologik xususiyatlari va uning moslashuvchanligi ertalabki mashqlar.

O'quv-jangovar faoliyat jarayonida jismoniy tarbiya, shu jumladan uning barcha tarkibiy qismlari harbiy xizmatchilarda ham shakllantiriladi jismoniy mashqlar va ko'nikmalarni o'tkazishga aqliy tayyorlik professional va amaliy mashqlar, texnikalar va harakatlarni bajarish ichida jangovar mahoratni oshirish maqsadlari.

Psixologik tayyorgarlik manfaatlari uchun sport va ommaviy ish jismoniy kulturaga ijobiy munosabatni tarbiyalaydi sog'lom turmush tarzining eng muhim omili. Jarayon davomida harbiy xizmatchilarda sport va ommaviy ishlarning barcha turlari shakllantiriladi ijobiy narsalarni belgilaydigan ijtimoiy-psixologik ko'nikmalar shaxsiyatni rivojlantirish va yaxshi axloqiy va siyosiy muhitni yaratish harbiy bo'linmalar. Mustaqil jismoniy mashqlar individual psixologik keng miqyosda amalga oshirishga imkon beradi o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida harbiy xizmatchilarning xususiyatlari ta'lim va pedagogik jarayonning eng yuqori shakli sifatida, bu erda quyidagi printsiplarga rioya qilish tavsiya etiladi: mustaqil jismoniy mashqlar harbiy bo'lishi kerak-professional yo'nalish, aniq talablarni aks ettiradi, muayyan harbiy mutaxassislikka taqdim etilgan;

-o'quv dasturi aniq, qulay va etarli bo'lishi kerak psixofizik holat;
-rejalashtirilgan jismoniy faoliyat miqdoriy bo'lishi kerak-sifat ko'rsatkichlari, baholash mezonlari va muddati, nima vakolatli tibbiy va pedagogik o'z-o'zini nazorat qilish imkonini beradi individual o'quv effekti va namoyon bo'lishini shakllantirish hissiy qoniqish va"mushaklarning quvonchi".

Eng muhimlaridan biri psixologik tayyorgarlikning vazifalari hissiy jihatdan shakllantirishdir- kasallarni yengib o'tishni ta'minlaydigan harbiy xizmatchilarning ixtiyoriy sohasi nöropsikiyatrik stresslar. Bunda muhim rol o'ynaydi jismoniy tayyorgarlik.

Jismoniy mashqlarni hissiy jihatdan bajarish jarayonida vaziyat tarbiyalanmoqda EVU harbiy xizmatchilar, sezilarli darajada ularning imkoniyatlarini kengaytirish ularning ongli nazoratini amalga oshiradi psixofizik holat va ekstremal xatti-harakatlarni tartibga solish shartlar. Harbiy xizmatchilarda hissiy va irodaviy barqarorlik rivojlanadi o'quv-jangovar va tarbiyaviy ishlar jarayonida quyidagilar hisobga olinadi:

-iroda insonning xarakterining tuzilishiga asosiy narsalardan biri sifatida kiradi komponentlar;

-ixtiyoriy tartibga solishning o'ziga xos xususiyati shundaki, uni safarbar qilishda qiyinchiliklarni engish uchun aqliy va jismoniy imkoniyatlar, insonning maqsadli faoliyatida to'siqlar qo'llanilishi kerak uning ongi va faolligi namoyon

bo'ladigan harakatlar; EVU rivojlanishi va takomillashtirilishi ham jarayonda sodir bo'ladi shaxsiy shaxs bilan bog'liq qiyinchiliklarni engish va shaxslararo muloqot jarayonida. Misol sifatida psixologik uchun quyidagi motor mashqlari tavsiya etiladi tayyorgarlik.

Kvadrat har qanday tekis yuzaga chizilgan, uning ichida o'zboshimchalik bilan raqamlangan 9 ta kichik kvadrat mavjud OK. Ishtirokchilarning vazifasi: kvadratlarni iloji boricha tezroq engib chiqadi 1 dan 9 gacha.

2. Qat'iylik va jasoratni rivojlantirish uchun mashqlar quyidagi tarzda bajarilishi kerak:

-Boshlang'ich pozitsiyasi-to'shakda tiz cho'kish. Qo'llar orqada, pastda ulangan. Buyruq bo'yicha oldinga tushishni amalga oshiradi.

-"Oldinga" buyrug'idan tushish tugaguniga qadar bo'lgan vaqt taxmin qilinadi, bu lomber mintaqada maksimal burilish bilan bajarish tavsiya etiladi. Boshlang'ich pozitsiyasi-hovuzning yon tomonida, qo'llar orqada, pastdan ulangan. Oldinga qarab suvga tushishni amalga oshiradi.

Samarali pedagogik sharoitlarni modellashtirish uchun quyidagilar zarur etarli texnikalar, jismoniy mashqlar va harbiylarni aniq tanlamang- amaliy harakatlar, shuningdek, turli xil harakatlarni malakali bajaradi yuqori hissiy fonni ta'minlaydigan hissiy omillar ishtirokchilar va qaror jarayonini ongli ravishda tartibga solish psixomotor vazifalar.

Barcha pedagogik shartlarni o'rnatish shartlariga ajratish mumkin va protsessual. Birinchisi aloqa xususiyatiga ega va umumiylikni aniqlaydi dvigatel vazifasini bajarish tamoyillari va qoidalari. Ikkinchisiga quyidagilar kiradi ish vaqti muhitini aks ettiruvchi o'zgaruvchan komponentlar resultatga ta'sir qiluvchi mashqlar (texnikalar) va sharoitlar (omillar) (ob'ekt, jarayon).

Xulosa: Muammoning turli jihatlarini nazariy tahlil qilish va umumlashtirish jismoniy vositalar yordamida harbiy xizmatchilarni psixologik tayyorlash tayyorgarlik quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi:

- hissiy-irodaviy barqarorlikni tarbiyalash eng muhimi tayyorgarlik vazifasi, uning nazariy va uslubiy asoslari psixologik tayyorgarlikni ta'minlashda asosiy ahamiyatga ega professional shaxs;

hissiy-ixtiyoriy sohani shakllantirishda eng katta ta'sir jismoniy tarbiya amaliyotida mashq qilish paytida siz dostichni olishingiz mumkin texnologik yondashuv va pedagogik sharoitlarni yaratish stressli muhitda hissiy va irodaviy fazilatlarning namoyon bo'lishi, xususan. Jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida B hissiy muhit tarbiyalanadi EVU harbiy xizmatchilar, ularning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradigan ongli amalga oshiriladi psixofizik holatini nazorat qilish va xatti-harakatlarni tartibga solish ekstremal sharoitlar.

Harbiy xizmatchilarda hissiy va irodaviy barqarorlik rivojlanadi jarayon o'quv, jangovar va tarbiyaviy ishlar, hisobga olinishi kerak quyidagilar:

-iroda insonning xarakterining tuzilishiga asosiy narsalardan biri sifatida kiradi komponentlar;

-ixtiyoriy tartibga solishning o'ziga xos xususiyati shundaki, uni safarbar qilishda qiyinchiliklarni engish uchun aqliy va jismoniy imkoniyatlar, insonning maqsadli faoliyatida to'siqlar qo'llanilishi kerak uning ongi va faolligi namoyon bo'ladigan harakatlar;

- EVUNI rivojlantirish va takomillashtirish jarayondagi kabi sodir bo'ladi shaxsiy shaxs bilan bog'liq qiyinchiliklarni engish va shaxslararo muloqot jarayonida. Misol sifatida psixologik uchun quyidagi motor mashqlari tavsiya etiladi tayyorgarlik.

Исползованная литература:

1. З.Г. Гаппаров. Спортивная психология. ООО «мехридарё», 2009 г.- 312 с.

2. В.В. Белорусова. Педагогика. «физкультура и спорт», 1983 г.- 231 с.

3. Н.Ф. Лодяев. Военное троеборе «воениздат», 1978 г.-192 с.

4. А.Ц. Пуни психологические основы волевой подготовки в спорте. Л.,1977 г

5. А.С. Макаренко. Воля, мужество, целеустремленност. Педагогические сочинения.Т.4. М. Педагогика. 1984 г. 400 с.

6. Целенаправленное развитие двигателных способностей человека / В.В. Бойко. – М.: Физкультура и спорт, 1987. – 144 с.

TA’LIM JARAYONIDA BO‘LAJAK OFITSERLARNI O‘QUV TARBIYAVIY ISHLARNI INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISHDA O‘QITUVCHINING ROLI HAMDA TA’LIM SIFATI

podpolkovnik IBRAGIMOV Raxmatjon Rustamovich

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta’lim jarayonida turli vazifalarga asoslangan innovatsion metodlarni qo‘llashda o‘qituvchining roli va til o‘rganuvchilarning mashg‘ulot davomida faolroq bo‘lishlariga yordam beradigan muammolar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘rganuvchi, kommunitsion vazifalar, kompetensiya, birgalikdagi o‘rganish, mahorat, pedagogik texnologiya.*

Annotation: *The article deals with the issues based on analyzing the role of teachers in using innovative methods in the process of educating, based on different tasks, alternative possibilities for improving participation of learners in*

different activities which can help them become more active and more sociable through the type of communicative language teaching.

Key words: *learners, communicative tasks, competence, cooperative learning, skill, pedagogic technology.*

Pedagogikaning rivojlangan tajribalari hamda ta’limda erishilgan yutuqlarni amaliyotga olib kirish bugungi kunning muhim shartlaridan hisoblanadi. Hozirda o‘qituvchi o‘z faoliyati davomida foydalana olishi mumkin bo‘lgan ulkan tajribalar bazasi shakllangan va u kundan-kunga yanada boyib bormoqda. Lekin, shunga qaramasdan, o‘qituvchilar va bo‘lg‘usi kasb egalari tomonidan ana shu tajribalarni o‘zlashtirib olishlari birmuncha mushkullik bilan amalga oshmoqda. Buni o‘qituvchilar tomonidan mazkur tajribalarni tahlil qilish hamda tanlash malaka va ko‘nikmalarining yetarlicha rivojlanmaganligi bilan izohlash mumkin. Ular o‘zlarining amaliy faoliyatlari davomida to‘planib borayotgan tajribalari va hamqasblarining faoliyatlarini ko‘zdan kechirishga yetarlicha e’tibor bermayotganliklarini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ta’lim beruvchi yangi ilg‘or pedagogik tajribani amaliyotga joriy etishda uning qimmati hamda qay darajada samarali ekanligiga e’tibor berishi kerak.

O‘qituvchi amaliy faoliyatining innovatsiyaga yo‘nalganligi nazariy pedagogik tadqiqotlar natijasida erishilgan yutuqlarni amaliyotga joriy etish imkoniyatini beradi. Aynan mana shunday tadqiqotlar natijalarini ommalashtirish uchun ularni keng jamoatchilikka tanishtirish talab etiladi. Bunday yangiliklarni soha mutaxassislari tomonidan tezkor maslahatlar berish, mahsus seminar hamda treninglar o‘tkazish, konferensiyalarda chiqishlar qilish, bo‘lg‘usi pedagoglarga esa turkum ma’ruzalar havola etish orqali boshqa pedagogika vakillariga yetkazish mumkin. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi : «Ilg‘or pedagogik g‘oyalar va texnologiyalarni keng jamoatchilik vakillariga yetkazuvchilari hamda targ‘ibotchilari kimlar?» Alohida pedagog yoki ta’lim muassasi tajribasini o‘rganib chiqish, ommalashtirishda oliy ta’lim muassasalarining professor o‘qituvchilari, umuta’lim dargohlarida faoliyat olib boradigan yetuk pedagoglar bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababini quyidagicha izohlash mumkin: - Innovatsiya muallifi muayyan pedagogik g‘oya yoki yangilikning istiqboli to‘g‘risida kerakli va aniq bahoni bera olmaydi. - Ilg‘or pedagoglar har doim ham o‘z g‘oyalarini ommalashtirish haqida o‘ylayvermaydilar. Sababi yangilik pedagogning qo‘shimcha vaqti, mehnatini talab qiladi. - G‘oya har doim ham uning yaratuvchisi tomonidan ilmiy–metodik jihatdan yetarlicha asoslanmaydi. - Mualliflar o‘zlarining innovatsiyalari va ularni amaliyotga joriy etish yo‘llarini bayon qilishda o‘zlari va kasbdoshlarining indvidual xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan to‘siqlarga ro‘baro‘ keladilar. - Nafaqat pedagogik innovatsiyalarni targ‘ib qilish va ommalashtirish, balki ular asosida pedagoglar qaoliyatiga tuzatishlar

kiritish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy bilimdonligi va mahoratini boyitish vazifasi ham ijodiy gurux zimmasiga yuklanadi.

- Innovatsiyalarni tizimli tanlash, monitoring o‘tkazish, innovatsion g‘oyalar, texnologiyalarga baho berish, oliy o‘quv yurtlari ish tajribalarini boyitish vazifalari ham ijodiy guruh a’zolari zimmasidadir. Innovatsion g‘oya muallifi amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirilgan faoliyatni boshqarishda ishtirok etmaydi. Bu tarzdagi yondashuv innovativ pedagogning imkoniyatlarini kengaytirish va uni muayyan maqsadga yo‘naltirishga zamin yaratadi. Innovativ pedagogika asoschisi va ommalashtiruvchining quvvatlari shu tariqa bir nuqtaga jamlanib, ma’lum bir maqsadga yo‘naltiriladi [1; 3].

Pedagogik innovatsiyalar o‘zining muayyan o‘lchovlariga ega. Pedagogik innovatsiyalar bo‘lg‘usi o‘qituvchining kreativ faoliyatini shakllantiradigan quyidagi o‘lchovlardan iborat hisoblanadi: - innovatsion usullarning naqadar yangi ekanligi; - uning optimalligi; - qanchalik samara berishi; - omaviy tajribada qo‘llash imkoniyati va shu kabilar. Innovatsion usullarning asosiy o‘lchovi ularning yangiligi, ilmiy tadqiqot natijalari hamda ilg‘or pedagogik tajribalar bilan tengligidadir. Shu sababdan ham innovatsion jarayonda faoliyat olib borish istagida bo‘lgan o‘qituvchilar uchun yangilikning asl mohiyati nimadan iborat ekanligini tushunish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O‘tkazilayotgan tajriba ma’lum bir o‘qituvchi uchun yangilik bo‘lsa, boshqasi uchun esa bu usul yangi bo‘lmasligi mumkin. Qolaversa, bo‘lajak pedagoglar uchun ayni bir usulni yangilik darajasi turlicha bo‘lishi mumkin. Ana shularni e’tiborga olgan holda bo‘lajak pedagoglar ham, ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilar ham innovatsion ijodiy faoliyatga o‘zlarining ehtiyojidan kelib chiqqan holda yondashishlari lozim bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida pedagoglarning shaxsiy o‘ziga xosliklari, indvidual-psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Ommaviy pedagogik tajribalarda pedagogik innovatsiyalarni ijodiy qo‘llash alohida o‘qituvchilar ish faoliyatining boshlang‘ich bosqichida namoyon bo‘ladi. Mazkur innovatsiyalar tajriba-sinovdan o‘tkazilib, ob’ektiv baholangandan so‘ng ommaviy tarzda qo‘llash uchun taqdim etiladi. Keng ommalashgan, ijobiy natijalarga erishish imkonini beradigan innovatsion usullardan foydalangan holda bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish maqsadga muofiq bo‘ladi» [2; 4].

Pedagogik innovatsiyalarni baholash jarayonida muayyan bilimlar va ulardan foydalanish me’zonlarini bilish bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik ijodining rang-barang shakllarini o‘zlashtirishi uchun qulay sharoit yaratadi. Pedagogik madaniyatning oddiy esda qolgan bilimlarni takrorlash shaklidan boshlab, ilmiy pedagogik jamoatchilikka ma’lum bo‘lgan g‘oyalar, konsepsiyalar, texnologiyalarni o‘z shaxsiy faoliyatiga singdirishda ularni evristik, kreativ ishlab

chiqish va amaliyotga joriy etishga qadar bo‘lajak pedagoglarning kundalik harakati mazmunini tashkil etish lozim. Innovatsion yangiliklarning amaliyotga qo‘llanilmay qolib ketayotganligining ikkita muhim sababini keltirib o‘tish mumkin va ular quyidagilar:

1. Oliy ta’limga kirib kelayotgan innovatsion yangiliklar yetarlicha tahlil hamda tajriba-sinovlardan o‘tmayapti;

2. Bunday yangiliklarni amaliyotga joriy etish tashkiliy, texnik, shaxsiy-psixologik jihatdan oldindan tayyorlanmayapti; Pedagogik innovatsiyalarning mazmuni va o‘lchovlari haqidagi aniq tasavvur ularni qo‘llash metodikasi bo‘lajak o‘qituvchilarining ongi va faoliyatiga singdirilishi birinchi darajali ehtiyojga aylanmoqda.

Pedagogik innovatsiyalarni ta’lim dargohlari hayotiga keng ko‘lamda olib kirish uchun ularda yangilik muhitini yaratish, muayyan ahloqiy-psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi chora-tadbirlarni qo‘llash talab etiladi. Buning uchun, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish, ularni pedagogik innovatsiyalar bilan izchil qurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tadbiq qilishga o‘rgatish talab etiladi.

Oliy ta’lim muassasasida innovatsion muhitni vujudga keltirmaslik bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash sifatiga ham keskin ta’sir ko‘rsatadi. Natijada talabalar amalda pedagogik yangiliklardan yetarlicha xabardor bo‘lmaydilar. Bu esa, o‘z navbatida, ulardagi ijodkorlik, yaratuvchanlikning rivojlanmasligiga, aksincha, so‘nib borishiga sabab bo‘ladi. Yosh pedagoglarning innovatsiyalarni qiziqarli, istiqbolli tashkil etilsa, albatta, qo‘llanilayotgan ta’lim texnologiyalarining samaradorligi ortadi. Shuningdek, loyihalashtirilgan o‘quv maqsadi yengil amalga oshadi hamda kutilayotgan natijaga tezroq erishiladi. Bu fikrlardan kelib chiqib: - Innovatsion ta’lim texnologiyasi tizimida o‘qituvchining o‘rni va vazifalari aniq belgilanishi zarur; - o‘qituvchi yangi kasbiy lavozim - «o‘qituvchi-texnolog», «pedagog-texnolog» darajasiga ko‘tarilishi kerak; - «o‘qituvchi-texnolog» maxsus bilim, ko‘nikma, malakaga ega bo‘lishi kerak; - «o‘qituvchi-texnolog»ning pedagogik jamoa o‘rtasida nufuzi, salohiyatining ortishi, ma’naviy, moddiy manfaatdorligining ta’minlanishi bo‘yicha aniq tadbirlar amalga oshirilgan bo‘lishi zarur. Ta’lim sifatini rivojlantirishda amalga oshirilayotgan islohotlar barcha ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etib, fan-texnika yutuqlariga asoslangan o‘quv jarayonining innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishda esa, pedagog o‘qituvchilardan bilim, ko‘nikma va malakalarni talab qilinadi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda o‘qituvchilar dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishlari albatta samarali natijalarni beradi. Xulosa qilib shuni aytish

mumkinki, yuqori darajadagi umumiy-kasbiy madaniyatga, ijtimoiy faolikka, mustaqil fikrlashga, o‘z vazifalarini qiyinchiliksiz hal qila olish qobiliyatiga ega bo‘lgan yetuk mutaxassislarni tarbiyalash uchun bugungi kunda pedagogo‘qituvchilarimiz zamonaviy yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari ta’lim-tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirishning asosiy omili ekanligini, buni esa davr talab etayotganligini tushunib yetishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yoralieva U.Q. Maktabgacha ta’lim tizimida xorijiy tillarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari va unda interfaol usullardan foydalanishning imkoniyatlari// Zamonaviy ta’lim jurnali. – T., 2014, 9-son. – 27 b.

2. Pedagogika professionalnogo obrazovaniya/ Pod red. V.A.Slastenina.– Moskva: Akademiya, – s. 37.

3. Tojiboeva D. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma.–T.: «Fan va texnologiya», 2007.

4. Palmer H. Scientific study and teaching of languages. – London, 1982. – 243 p.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ВОЕННЫХ ДИСЦИПЛИН

ВАГНЕР А.Я., МУХИТДИНОВ Ш.Т.

Военный институт информационно-коммуникационных технологий и связи

Аннотация: *В статье раскрывается значение инновационных методов в образовании, их актуалност на данном этапе, цели и задачи, рассматриваются передовые образовательные инновационные методы, описывается их сущност и способы реализации. Настоящая работа имеет целю раскрыт актуалност и острую необходимост внедрения передовых инновационных технологий в сфере образования.*

Ключевые слова: *система подготовки военных кадров, профессионалные знания, информационные технологии, инновационная деятелност, подготовка офицеров, вооружение и военная техника.*

Annotatsiya: *Maqolada ta’limdagi innovatsion usullarning ahamiyati, ularning hozirgi bosqichdagi dolzarbligi, maqsad va vazifalari ochib berilgan, ilg‘or ta’lim innovatsion usullari muhokama qilingan, ularning mohiyati va amalga oshirish usullari yoritilgan. Mazkur ish ta’lim sohasiga ilg‘or innovatsion texnologiyalarni joriy etishning dolzarbligi va muhimligini ochib berishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *harbiy kadrlar tayyorlash tizimi, kasbiy bilimlar, axborot texnologiyalari, innovatsiyalar, ofitserlar tayyorlash, qurol va harbiy texnika.*

Поддержание на высоком уровне системы подготовки военных кадров является одной из приоритетных задач высшего военного образования. Социалный заказ общества на подготовку военных специалистов в условиях

стремительного научно-технического прогресса требует от военного образования активной интеллектуалной, творческой, с широким научным кругозором, высокопрофессионалной личности офицера, способного продуктивно и грамотно решат разнообразные задачи повседневной деятелности. Главными характеристиками выпускника являются эго компетентност и мобилност.

Главными критериями подготовки офицеров должны быт профессионализм, преданност воинскому долгу, высокие морално-нравственные качества защитника Отечества, эго способност мыслит, анализироват и делат выводы из явлений [1].

Для того чтобы адекватно реагироват на современные вызовы, соответствоват духу времени, образованию, нужна новая формация динамичных военных кадров, непрерывно обновляющих багаж своих профессионалных знаний, умеющих жит и работат в инновационной среде. Именно формирование и воспитание творческих способностей должно стат целевой сущностю военного образования. Требования опережающего развития военного образования приобретают особую актуалност с учетом ускорения темпов научно-технического прогресса, оснащения Вооруженных Сил самым современным вооружением и военной техникой, исползованием в армиях многих государств последних научных достижений, говорит о том, что необходимост исползования инновационных технологий в военном образовании крайне высока.

Руководство страны неоднократно указывало на то, что Республика Узбекистан должна неуклонно укреплят свою обороноспособност. В целях подготовки высококвалифицированных военных кадров необходимо интенсивно внедрят инновационные методы, решения и инструменты в отечественную систему образования.

Данные требования и их реализация невозможны без процесса внедрения информационных и коммуникационных технологий в сферу военного образования [2]. Разрабатываемые компютерные тестирующие и диагностирующие методики должны обеспечит систематический оперативный контрол и оценку уровня знаний обучающихся, повышение эффективности обучения. Исползование современных средств информационных технологий, таких как электронные презентации, обучающие программы является актуалностю для современного профессионалного военного образования.



Использование компютерных технологий обучения в условиях учебного процесса высших военных учебных заведений по программам подготовки офицеров для службы в Вооруженных Силах позволяет решат ряд следующих задач:

- повышение интереса к изучаемому предмету;
- увеличение объема информации по дисциплинам военной подготовки;
- улучшение качества организации учебного процесса;
- исползование индивидуалного характера обучения.

Все вышеизложенное позволит сформироват личност будущего военного специалиста в условиях активного внедрения инновационных технологий в учебный процесс

Эще в середине XIX-го века военный теоретик Антуан-Анри де Жомини эмко и ясно изложил общую концепцию значимости военного образования: «Необходимо, чтобы изучение военных наук и совершенствование военного образования всемерно поощрялос и вознаграждалос наряду с мужеством и рвением. Военное образование следует высоко ценит и уважат» [3].

Рассматривая вопросы инновационных технологий в сфере военного образования хотелос бы для начала определит, что же такое «инновация» и «технология»:

Инновация *(от англ. «инноватион» - нововведение)* - внедрение новых форм, способов и умений в сфере обучения, образования и науки.

Технология *(от др. греч τέχνη - искусство, мастерство, умение; λόγος - мысл, причина; методика, способ производства)* - в широком смысле это совокупност методов, процессов и материалов, исползуемых в какой-либо отрасли деятелности, а также научное описание способов технического производства;

Инновации в образовательной деятелности – это исползование новых знаний, приёмов, подходов, технологий для получения резултата в виде

образовательных услуг, отличающихся социалной и рыночной востребованностю. Изучение инновационного опыта показывает, что болшинство нововведений посвящены разработке технологий. За рубежом, прежде всего в США, интерес к образовательным технологиям возник в середине XX в., когда появилис первые программы аудиовизуалного обучения, т.э. обучения с помощю технических средств. Термин «образовательные технологии», появившийся в 1960-х гг., означает построение педагогического процесса с гарантированным результатом [4].

Главной целю инновационных технологий образования является подготовка человека к жизни в постоянно меняющемся мире. Сущност такого обучения состоит в ориентации учебного процесса на потенциалные возможности человека и их реализацию. Образование должно развиват механизмы инновационной деятелности, находит творческие способы решения жизненно важных проблем, способствоват превращению творчества в норму и форму существования человека.

В заключение хотелос бы добавит, что исползование курсантами инновационных технологий в процессе обучения влечет за собой интенсификацию мышления, обеспечивает высокую активност учебно-познавателной (коммуникативной, творческой) деятелности, позитивное отношение курсантов к предмету усвоения, формирует готовност офицерских кадров к самостоятелным действиям в условиях новизны, помогает развитию внимания и способности эго переключения на другие явления по мере необходимости, что является очен важным качеством в ходе современного скоротечного боя.

Список исползованной литературы:

[1] Кларин М.В. Инновации в обучении. – М. «Наука», 2016.

[2] Ляудис В.А. Инновационное обучение: стратегия и практика. – М., 2014.

[3] По материалам Специализированного образовательного портала Инновации в образовании [Электронный ресурс]// ҳттп://синсом.ру

[4] По материалам сайта Открытый класс, сетевые образовательные сообщества, Суворина В.Г. [Электронный ресурс] // ҳттп://www.опенсласс.ру

INGLIZ TILINI O'QITISH JARAYONIDA PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MUAMMOLAR

TEMIROV Sirojiddin Shoymardon o‘g‘li
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

Annotatsiya: *Ingliz tilini o'qitish jarayonida pedagogik va psixologik muammolar ko'plab o'qituvchilar va talabalarning duch keladigan muammolaridan biridir. Ushbu muammolar o'qitish metodologiyasiga, talabalarning psixologik holatiga va o'qituvchining pedagogik yondoshuviga ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik muammolar, masalan, darslarni tashkil etish, o'qitish metodlarini tanlash va o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Psixologik muammolar esa talabaning motivatsiyasi, o'ziga bo'lgan ishonchi, qo'rquvlari yoki stress holatlari bilan bog'liq. Ushbu mavzu ingliz tili o'qituvchilari va ta'lim jarayonida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *Ingliz tili o'qitish, pedagogik muammolar, psixologik muammolar, talaba motivatsiyasi, o'qitish metodlari, talabaning psixologik holati, dars tashkiloti, shaxsiy xususiyatlar.*

Annotation: *The process of teaching English is accompanied by a number of pedagogical and psychological problems that both teachers and students face. These problems affect the teaching methodology, the psychological state of students, and the pedagogical approach of the teacher. Pedagogical problems may include lesson organization, selection of teaching methods, and considering the individual characteristics of students. Psychological problems are related to student motivation, self-confidence, fears, or stress levels. This topic is of significant importance for English language teachers and specialists working in the educational process.*

Keywords: *English language teaching, pedagogical problems, psychological problems, student motivation, teaching methods, psychological state of students, lesson organization, individual characteristics.*

KIRISH

Ingliz tili o'qitish jarayonida pedagogik va psixologik muammolarni o'rganish zarurati, ta'limning samarali va sifatli bo'lishi uchun juda muhimdir. Pedagogika va psixologiya sohalarining integratsiyasi o'quvchilarning kognitiv va emotsional rivojlanishini yaxshilashga yordam beradi. Pedagogik bilimlar va psixologik tushunchalar, o'qituvchiga har bir o'quvchining individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olib, o'qitish usullarini tanlashda yordam beradi. Bu esa o'qitish jarayonining samaradorligini oshiradi va o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishdagi muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Mavzuning ahamiyati va dolzarbligi

Bugungi kunda ingliz tili global kommunikatsiya tili sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Ko'plab davlatlar va jamiyatlar o'z fuqarolarini ingliz tilini o'rganishga undamoqda. Bu jarayonda ta'lim tizimining sifatli bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, ingliz tili o'qitish jarayonida pedagogik va psixologik muammolarni o'rganish zarurati dolzarb bo'lib qolmoqda. O'quvchilarning psixologik holatini

hisobga olish, o'qituvchilarga eng samarali pedagogik usullarni qo'llash imkonini beradi, shu orqali ingliz tili o'qitishda yuqori natijalarga erishish mumkin.

Pedagogik muammolar

Ingliz tili o'qitish jarayonida metodlar muhim ahamiyatga ega. Har bir metodning o'ziga xos xususiyatlari va qo'llanilish shartlari mavjud. O'qitish metodlari samarali bo'lishi uchun ularni to'g'ri tanlash va o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish zarur. Masalan, kommunikativ metodlar o'quvchilarning gapirish va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, lekin ayrim hollarda grammatika asoslarini chuqur o'rganish uchun boshqa metodlar kerak bo'lishi mumkin. Samarali metodlar o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning darajasiga, qiziqishlariga va shaxsiy xususiyatlariga qarab tanlanishi kerak.

Har bir o'quvchining o'quv jarayoniga yondoshuvi va qobiliyatlari turlicha bo'lishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarning individual xususiyatlarini (yoshi, o'quvchi qobiliyati, psixologik holati, o'zlashtirish tezligi va boshqalar) hisobga olish orqali ularning ehtiyojlariga mos darslarni tashkil etishi kerak. Bu o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini ta'minlaydi va ularning motivatsiyasini oshiradi. Individual yondoshuv orqali o'qituvchi har bir o'quvchiga nisbatan to'g'ri pedagogik yondoshuvni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Darsning samarali tashkiloti o'qitish jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishining asosiy omillaridan biridir. Darsning yaxshi tashkil etilishi nafaqat o'qituvchi va o'quvchi orasidagi kommunikatsiyani yaxshilaydi, balki o'quvchilarning faoliyatini samarali tashkil etish, vaqtni to'g'ri boshqarish va ta'lim jarayonida ishtirok etishni ta'minlaydi. Samarali darsni tashkil etish uchun o'qituvchi o'quvchilarning diqqatini jalb qilish, darsning maqsadlariga erishishni nazorat qilish va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun turli xil metod va usullarni qo'llashi zarur.

O'qituvchining o'qitish uslubi uning pedagogik muvaffaqiyatida katta rol o'ynaydi. O'qituvchining o'qitish uslubi faqat metodlarni tanlash bilan cheklanmaydi, balki o'quvchilar bilan munosabatlar, ularga bo'lgan yondoshuv va ta'lim jarayoniga oid boshqa uslublar ham muhim ahamiyatga ega. Ba'zan o'qituvchi o'z uslubini o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtira olmaydi yoki maqsadga muvofiq ravishda uslubni o'zgartira olmaydi, bu esa o'quvchilarning o'qishdagi muvaffaqiyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'qituvchining o'z uslubini rivojlantirish va yangi pedagogik texnikalarni o'zlashtirish jarayoni doimiy bo'lishi kerak.

Psixologik muammolar

Motivatsiya o'qish jarayonida eng muhim psixologik omillardan biridir. Talaba o'ziga nisbatan motivatsiyaga ega bo'lsa, o'qish jarayonida yanada faol

ishtirok etadi, o'quv maqsadlariga erishishda ishonchliroq bo'ladi va o'z bilimini kengaytirishga intiladi. Motivatsiyaning ikki asosiy turi mavjud: ichki motivatsiya (o'zini o'rganish istagi, o'qishdan qoniqish) va tashqi motivatsiya (baholar, sovrinlar yoki imtiyozlar). Ingliz tili o'qitish jarayonida talabalarni ichki motivatsiya bilan rag'batlantirish juda muhimdir, chunki bu ularni ko'proq mustaqil ishlashga va o'z bilimlarini rivojlantirishga undaydi.

Stress va qo'rquv talabalar uchun psixologik to'siqlarni yaratishi mumkin, ayniqsa, til o'rganishda. Dars davomida yoki imtihonlarda stress va qo'rquv o'quvchilarning diqqatini jamlashiga, o'qish samaradorligiga va o'zlariga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu holatlar o'quvchilarning tilni o'zlashtirishda to'siqlar yaratadi va natijada tilni o'rganishda qiyinchiliklarga olib keladi. O'qituvchi stressni kamaytirish va qo'rquvni engish uchun o'quvchilarga qo'llab-quvvatlash, tinchlantiruvchi muhit yaratish va ular bilan ijobiy muloqot qilish zarur.

O'ziga bo'lgan ishonch – bu talabaning o'qishdagi muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko'rsatadigan muhim psixologik faktor hisoblanadi. Agar talaba o'ziga ishonmasa, o'qishdagi muvaffaqiyatni kutish qiyin bo'ladi. O'qituvchi talabaning ishonchini oshirish uchun ijobiy fikrlarni va muvaffaqiyatlar haqida muntazam ravishda fikr bildirish, kichik yutuqlarni nishonlash, o'qish jarayonida yordam berish va ular uchun rag'batlantiruvchi vositalar yaratish orqali o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashi kerak. Bu usullar o'quvchilarning o'zini tahlil qilish va o'z yutuqlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda yordam beradi.

Ingliz tili o'qitish jarayonida psixologik to'siqlar ko'plab talabalar uchun yuzaga kelishi mumkin. Bu to'siqlar, masalan, o'ziga bo'lgan ishonchsizlik, qo'rquv, stress, va o'quv materialini yomon o'zlashtirish kabi holatlar bo'lishi mumkin. Bunday to'siqlarni yengish uchun o'qituvchilar o'quvchilar bilan individual yondoshuvni amalda qo'llashlari, ularning ehtiyojlariga mos yordam ko'rsatishlari va ijobiy motivatsiya yaratishlari zarur. Psixologik to'siqlarni yengishning samarali yo'llari sifatida o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, stressni kamaytirish uchun engillashtirilgan yondoshuvlarni qo'llash, va o'quvchilarga qulay va tinch muhit yaratish kabi usullarni tavsiya etish mumkin. Bunda, o'qituvchi talabaning psixologik holatini yaxshilashga qaratilgan pedagogik va psixologik yondoshuvlarni uyg'unlashtirishi lozim.

Pedagogik va psixologik muammolarni hal qilish yo'llari

O'qituvchining psixologik yondoshuvi talabalar bilan samarali muloqot o'rnatish va o'quv jarayonida yuzaga keladigan psixologik muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi, o'zining psixologik yondoshuvi orqali, har bir talabaga individual qarashni, ularning ehtiyojlari va xususiyatlariga mos yondoshuvni tanlashni o'rganishi zarur. O'qituvchining ijobiy va qo'llab-

quvvatlovchi yondoshuvi talabalar uchun tinch va ishonchli muhit yaratadi, bu esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, stress va qo'rquvni kamaytiradi. Shu tarzda, o'qituvchi o'z bilimini nafaqat o'quvchilarga yetkazish, balki ularning psixologik holatini yaxshilash, stressni kamaytirish va o'qishdagi muvaffaqiyatni ta'minlashga ham qaratishi kerak.

Motivatsiya strategiyalari o'qitish jarayonida talabalarning faolligini oshirish, o'qishdagi muvaffaqiyatni ta'minlash va ularning psixologik holatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi talabalar bilan samarali muloqot o'rnatish, ularning ehtiyojlarini tushunish va ularni qiziqtirish orqali motivatsiyani kuchaytirishi mumkin. Bunda bir necha usulni qo'llash mumkin:

Individual yondoshuv – Har bir talabaga o'ziga xos tarzda motivatsiya berish.

Ijobiy tasdiqlar – Talabaning kichik muvaffaqiyatlarini nishonlash, ularni rag'batlantirish.

Tashqi va ichki motivatsiya – O'qish jarayonida talabalarni tashqi (imtiyozlar, baholar) va ichki (shaxsiy qiziqish, bilimni oshirish) motivatsiya bilan rag'batlantirish.

Ba'zi innovatsion metodlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Texnologiyalardan foydalanish – Multimediali vositalar, internet manbalari va o'quv dasturlari yordamida darsni boyitish. Masalan, onlayn platformalar, interaktiv ilovalar orqali ingliz tili o'qitish.

Hamkorlikda o'qish – Guruhlarda ishlash, talabalarga o'zaro muloqot qilish va bir-birlarini qo'llab-quvvatlash imkonini berish. Bu metod o'quvchilarga bir-biridan o'rganish, bilimlarni baham ko'rish va o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkonini beradi.

Kreativ va interaktiv metodlar – Rol o'ynash, debatlar, kreativ vazifalar va o'yinlar orqali darsni interaktiv va qiziqarli qilish. Bu metodlar o'quvchilarning tilni o'rganishdagi motivatsiyasini oshiradi va amaliyotga oid ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Blended learning (aralash o'qitish) – An'anaviy darslar va onlayn o'qish elementlarini birlashtirish. Bu usul talabalarga o'z vaqtida va qulay tarzda o'qishni davom ettirish imkonini beradi.

Innovatsion metodlarni qo'llash o'quvchilarning bilim olish usulini zamonaviylashtiradi, ularning fikrlash doirasini kengaytiradi va o'qish jarayonini ko'proq qiziqarli hamda samarali qiladi.

Xulosa

Pedagogik va psixologik muammolarni hal qilishda kompleks yondashuvning ahamiyati.

Ingliz tili o'qituvchilari uchun quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin:

Individual yondoshuv – Har bir talabaga uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda individual yondoshuvni tanlash zarur. Talabalar o'rtasidagi farqlarni hisobga olib, darslarni shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirish muvaffaqiyatga erishishda muhim rol o'ynaydi.

Motivatsiya yaratish – O'qituvchilar o'quvchilarning ichki va tashqi motivatsiyasini oshirish uchun o'quvchilarni rag'batlantirish va ularning muvaffaqiyatlarini nishonlashlari kerak. Bu talabalarda o'qish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabatni kuchaytiradi.

Stressni kamaytirish – Darslarda stressni kamaytirish uchun ijobiy muhit yaratish, o'quvchilarga qo'llab-quvvatlash ko'rsatish va ular bilan samimiy muloqot o'rnatish zarur. Stressni yengish uchun o'quvchilarga tinchlantiruvchi usullarni taklif qilish va ular uchun xavfsiz muhit yaratish o'quvchilarning muvaffaqiyatini oshiradi.

Innovatsion metodlardan foydalanish – Texnologiya va innovatsion metodlarni o'qitish jarayoniga joriy etish, darsni interaktiv va qiziqarli qilish, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash zarur. Bu metodlar talabalar bilan muloqot qilishda samarali va natijali bo'ladi.

Psixologik yondoshuvni rivojlantirish – O'qituvchilar o'quvchilar bilan psixologik jihatdan to'g'ri muloqot o'rnatishlari va ularning ehtiyojlarini chuqur tushunishlari kerak. Shuningdek, o'quvchilarning psixologik holatini yaxshilash uchun psixologik yordam va qo'llab-quvvatlashni ta'minlash muhimdir.

Kompleks yondashuv va zamonaviy metodlarni qo'llash orqali ingliz tili o'qituvchilari o'quvchilarning o'qishdagi muvaffaqiyatini yaxshilashga katta hissa qo'shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Xudoyberganov, S.** "Ingliz tili o'qitish metodikasi." Tashkent: O'qituvchi, 2015, 100-120 betlar.
2. **Rahmatullaeva, M.** "Pedagogik psixologiya." Tashkent: O'zbekiston, 2017, 45-60 betlar.
3. **Mamatov, A.** "Ingliz tilini o'rganish jarayonida psixologik yondoshuvlar." Tashkent: Fan, 2019, 55-75 betlar.
4. **Shukurov, M.** "O'qitish metodlari va texnologiyalari." Tashkent: Science, 2016, 30-50 betlar.
5. **Qodirov, I.** "Ingliz tili va uning o'qitish metodikasi." Tashkent: Sharq, 2020, 120-135 betlar.

MA’LUMOTLARNI IDROK ETISHDA SALBIY VA IJOBIY AXBOROTLARNING O‘SMIR ONGIGA TA’SIRI

Matyakubova Shohista Odamboy qizi

Toshkent Amaliy fanlar Universiteti o’qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada jamiyatdagi axborotlar xarakteriga ko’ra ijobiy va salbiy mazmundaligi, o’smir shaxsiga o’z ta’sirini o’tkazishi va o’smir shaxsini rivojlanishida asosiy aspekt sifatida ro’l o’ynashi haqida so’z boradi.*

Kalit so‘zlar: *axborot, idrok, diqqat, tahlil qilish, sensor tizim, axborotlashgan jamiyat, axborotning globallashuvi, axborot asri.*

Axborotni idrok etish – bu inson tomonidan tashqi muhitdan kelayotgan axborotni qabul qilish, uni qayta ishlash, tushunish va eslab qolish jarayoni bo‘lib, psixologik, ijtimoiy va fiziologik omillar bilan bog‘liq. Talabalarning axborotni idrok etish jarayoni diqqat, xotira, fikrlash va motivatsiya kabi kognitiv jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq.

Axborotni idrok etish bosqichlari. Axborotni idrok qilish murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

Axborotni idrok etish bosqichlari:

Axborotni qabul qilish - talaba axborotni ko‘rish, eshitish yoki o‘qish orqali oladi.

Diqqatni jamlash - muhim axborotga e’tibor qaratish, chalg‘ituvchi omillarni kamaytirish.

Qayta ishlash -axborotni kodlash va tahlil qilish, uni avvalgi bilimlar bilan bog‘lash.

Xotirada saqlash - olingan axborot qisqa muddatli yoki uzoq muddatli xotiraga o‘tadi.

Foydalanish va qo‘llash - talaba o‘zlashtirgan axborotni amalda qo‘llaydi (testlar, topshiriqlar, muhokamalar).

Axborotni idrok etish jarayoni: Axborotni qabul qilish → Diqqat → Qayta ishlash → Xotirada saqlash → Foydalanish

Axborotni idrok etishga ta’sir qiluvchi omillar: Talabalarning axborotni qabul qilishiga quyidagi uch asosiy omil ta’sir qiladi: psixologik, ijtimoiy va fiziologik omillar.

Axborotni idrok etishga ta’sir qiluvchi omillarni ko‘rsatish uchun jadvalni quyidagi shaklda tuzish mumkin:

Psixologik omillar: Diqqat, xotira, motivatsiya, stress darajasi

Ijtimoiy omillar: Guruh ta’siri, madaniyat, ommaviy axborot vositalari.

Fiziologik omillar: Sensor tizimlar, charchoq, ovqatlanish, uyqu yetishmovchiligi.

Psixologik omillar. Diqqat va e’tibor – axborotni samarali idrok qilish uchun talaba chalg‘ituvchi omillardan xoli bo‘lishi kerak. Xotira – yaxshi

o‘zlashtirilgan axborot uzoq muddatli xotirada saqlanadi. Idrok etilgan narsa va hodisalarni yoki o‘tmish tajribalarni esda qoldirish va zarur bo‘lganda tiklashdan iborat psixik jarayon. Xotira eng yaxshi damlarni esda qoldiradi. U nerv sistemasi xususiyatlaridan biri bo‘lib, tashqi olam voqealari va organizm reaksiyalari haqidagi axborotni uzoq saqlash hamda uni ong faoliyatida va xulq, xatti harakat doirasida takroriy qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Xotira individning o‘z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi. Avvalo, axborotni qabul qilishda idrok uning negizi hisoblanadi. Yani, idrokning nerv-fiziologik asoslari, xususiyatlari va qonuniyatlari. Idrok sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon bo`lib, barcha ruhiy holatlar, xususiyatlar, xossalar va inson ongining yaxlit mazmuni egallangan bilimlar, tajribalar, ko`nikmalar bir davrning o`zida namoyon bo`ladi, aks ettirishda ishtirok etadi. Idrok sezgiga nisbatan bir muncha murakkabroq, to`laroq aks ettirish jarayoni bo`lib, sezgi a`zolarimizga ta`sir etib turgan narsa va hodisalarni butun belgi hamda xususiyatlari bilan butunligicha, ya`ni yaxlit aks ettirishdan iboratdir. Psixologik adbiyotlarda idrok tushunchasiga turlicha ta`riflar uchraydi. Jumladan M.Vohidovning “Psixologiya” darsligida idrok deb sezgi a`zolarimizga ta`sir etayotgan narsa va hodisalarni yaxlit holicha aks ettirishga aytiladi, deb keltiriladi.

V.Karimovaning “Psixologiya” o`quv qo`llanmasida idrok bu bilishimizning shunday shakliki, u borliqdagi ko`plab xilma-xil predmet va hodisalar orasida bizga ayni paytda kerak bo`lgan ob`ektni xossa va xususiyatlari bilan yaxlit tarzda aks ettirishimizni ta`minlaydi. Keltirilgan ta`riflardan kelib chiqqan holda idrokka quyidigicha ta`rif berish mumkin: Idrok-deb sezgi a`zolariga bevosita ta`sir etib turgan narsa-hodisalar obrazlarini kishi ongida bir butun holda aks ettirilishiga aytiladi.

“Axborot: 1. Taqdim etilish shaklidan qat’iy nazar nazar shaxs, predmet, dalil, voqea, hodisa va jarayonlar haqidagi ma’lumotlar.

2. Dalil, voqea, hodisa, predmet, jarayon kabi ob’ektlar haqidagi bilim (ma’lumotlar) hamda tushunchalar yoki buyruqlar.

3. Ma’lum xos matnida aniq ma’noga ega bo’lgan tushunchalarni ichiga oluvchi dalil, voqea, hodisa, predmet, jarayon, taqdimot kabi ob’ektlar haqidagi bilim (ma’lumotlar).

4. Qiziqish uyg’otishi mumkin bo’lgan va saqlanishi va qayta ishlanishi lozim bo’lgan jami dalil va ma’lumotlar... Axborot nur, tovush va radio to’lqinlari, elektr toki yoki kuchlanishi, magnit maydoni, qog’ozdagi belgilar shaklida yaratilishi va tashilishi mumkin”.

Jami axborot oqimlari tabiiy (tabiat tomonidan) va suniy (inson tomonidan) yaratilgan turlarga bo’linadi. “Ommaviy axborot:

1. Cheklanmagan shaxslar doirasi uchun mo’ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, bosma, audio, audiovizual va boshqa xabar va materiallar.

2. Ommaviy axborot vositalari orqali ommaviy tarqatiladigan bosma, audio, audiovizal va boshqa xabar va materiallar.

3. Bir paytning o’zida maxsus vositalar – mass-media yordamida shaxslar guruhiga axbootni uzatish jarayoni”.

Jamiyatning axborotlashuvi - bu ma’lum bir davlat yoki jamiyatda axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi natijasida sodir bo’ladigan holat. Axborotlashgan jamiyat – axborot texnologiyalarining rivojlanganlik darajasi nuqtai nazaridan asosiy talablarga javob beruvchi jamiyat. Bunday davlatda asosiy faoliyati axborot bilan ishlashdan iborat shaxslar jamiyat a’zolarining 50 foizidan yuqori bo’lishi hamda gazeta, jurnal, radio, televidenie, kompyuter, Internet va uyali telefonlar bilan ta’minlanganlar soni turli idoralar va aholining asosiy qismini tashkil etishi zarur. Axborot asri (davri) – XX asrning o’rtalarida boshlangan. Turli mamlakatlarning olimlari axborot davri aniq qachon boshlanganini turlicha izohlashadi. Bu masalaga uch xil qarash mavjud:

1) Norbert Vinerning “Kibernetika, yoki jonli mavjudot va mashinada boshqaruv va bog’lanish” kitobi chop etilgan yildan,

2) AQShdagi to’rtta universitet o’z kompyuter tizimlarini birlashtirgan yildan,

3) sobiq Sovet ittifoqi fazoga birinchi sun’iy yo’ldoshni uchirgan yildan boshlangan. “Axborot jamiyati – zamonaviy tsivilizatsiyaning rivojlanish darajasi. Axborot va bilimlar rolining jamiyat hayotida, jami ichki mahsulotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalar ulushining ortishi, insonlarning o’zaro samarali o’zaro axboriy aloqada ishlashini ta’minlovchi global axborot makonining yaratilishi, ularning dunyo axborot resurslariga ulanishi va ularning axborot mahsulotlariga va xizmatlariga bo’lgan ijtimoiy hamda shaxsiy ehtiyojlarining qondirilishi bilan tavsiflanadi”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova.M.V. Psixologiya.O’quv qo’llanma.-T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,”O’AJBIT”markazi,2002.

2. Melnikova. N.Shpargalka po SOЦIALNOY PSIXOLOGII.-M.:Allel.2000.B 31.

3. M.YU.Gorbunova.Sotsial psixologiya.-M.:VladosPress.2006.172-174B .

4. Sh.A.Do’stmuhammedova”Yosh davrlari va pedogogik psixologiya”_Toshkent-2013.52-57b

5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati. Qayta ishlangan, to‘ldirilgan ikkinchi nashr. 2010 – B. 19.

KIBERMAKONDA SALBIY AXBOROT XURUJLARIGA QARSHI KURASHNING-PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK MUAMMOLARI

mayor N.S. Shermatova
IIV Akademiyasining Xizmat psixologiyasi va kasbiy madaniyati kafedrasi o‘qituvchisi,
nazokatshermatova162@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada axborot xurujlarining psixologik va pedagogik jihatlari tahlil qilinib, ularga qarshi kurashish usullari ko‘rib chiqildi. Hozirgi kunda yoshlarning axborot xurujlaridan himoyalanishi uchun ruhiy barqarorlikni shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va mediasavodxonlikni oshirish bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kibermakon, axborot xuruji, psixologik himoya, pedagogik muammolar, tanqidiy fikrlash, mediasavodxonlik, axborot manipulyatsiyasi, ruhiy barqarorlik.*

Annotation: *This article analyzes the psychological and pedagogical aspects of information attacks and discusses methods of combating them. Nowadays, to protect young people from information attacks, it is important to form mental stability, develop critical thinking and improve media literacy.*

Key words: *Cyberspace, information attack, psychological defense, pedagogical problems, critical thinking, media literacy, information manipulation, mental stability.*

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal rivojlanib, internet hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ammo shu bilan birga, kiberhujumlar va salbiy axborot ta’siri ham ortib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar va o‘smirlar mazkur tahdidlardan ko‘proq jabr ko‘rishmoqda, chunki ularning ongini shakllantirish va axborotni tahlil qilish qobiliyati hali to‘liq rivojlanmagan bo‘ladi. Salbiy axborot hujumlari inson ongiga ta’sir qilib, ularning qarashlarini o‘zgartirish, mafkuraviy ta’sir o‘tkazish yoki ma’lum bir manfaatlarga xizmat qilish maqsadida amalga oshiriladi. Bu esa nafaqat shaxsga, balki jamiyatga ham jiddiy tahdid soladi. Shu sababli, mazkur muammoni o‘rganish va unga qarshi kurashish masalalari juda dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bu borada “*Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhim*”[1] ekanligini ta’kidlab o‘tadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning bu fikri jamiyat taraqqiyoti va yosh avlod tarbiyasida ma’naviyat va ma’rifatning o‘rni naqadar muhim ekanligini yorqin aks

[1] Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

ettiradi. Haqiqatdan ham, hozirgi kunda axborot oqimi shiddat bilan o‘sib, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali turli tahdid va xavflar keng tarqalmoqda. Bunday sharoitda ma’naviy immuniteti kuchli, axborotni tahlil qila oladigan, tanqidiy fikrlashga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash davlat va jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Prezident ta’kidlaganidek, ma’naviyat va ma’rifatga e’tibor qaratish, yoshlarning bilim olishga va o‘z ustida ishlashga intilishiga sharoit yaratish – ularni tashqi salbiy ta’sirlardan himoya qilishning eng samarali yo‘lidir. Bu nafaqat individual rivojlanish uchun, balki mamlakatning barqaror rivojlanishi va xavfsizligi uchun ham muhimdir. Axborot xurujlari va mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishda faqat texnik vositalar yoki huquqiy choralar bilan cheklanib qolmasdan, ma’naviy va axloqiy tarbiyani ham ustuvor yo‘nalish sifatida olib borish zarur.

Shuningdek, bu fikr O‘zbekistonda axborot xavfsizligini ta’minlashga, ta’lim va tarbiya tizimini kuchaytirishga, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan islohotlarning ahamiyatini ham ko‘rsatadi. Davlat rahbari ta’kidlaganidek, zamon o‘zgargani sayin yangi tahdidlarga qarshi ma’rifat bilan kurashish asosiy ustuvor yo‘nalish bo‘lib qoladi. Demak, kelajakda ham yoshlarning ruhiy va ma’naviy tarbiyasiga e’tiborni kuchaytirish, ularni axborot xurujlaridan himoya qilish va raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanishga o‘rgatish muhim vazifa bo‘lib qoladi.

Kibermahalliy muhitda yoshlarning axborot xurujlaridan himoyalanishida psixologik va pedagogik yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Ota-onalar, o‘qituvchilar va jamiyat a’zolari yoshlarning axborot xavfsizligiga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, mazkur maqolada kibermahalliy muhitdagi salbiy axborot xurujlariga qarshi kurashishning psixologik va pedagogik muammolari tahlil qilinadi hamda ularning yechimlari bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kibermakonda salbiy axborot xurujlariga qarshi kurashning psixologik va pedagogik muammolari quyidagilar:

1. Kibermakonda salbiy axborot xurujlarining tahdidlari - bugungi raqamli davrda axborot makoni turli xil tahdidlarga duch kelmoqda. Ayniqsa, kibermakondagi salbiy axborot xurujlari jamiyat ongini boshqarish, yosh avlodning tafakkuriga ta’sir o‘tkazish, noto‘g‘ri mafkuraviy yo‘nalishlarga moyillik paydo qilish kabi jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Bunday xurujlar quyidagicha [2]

Dezinformatsiya – noto‘g‘ri yoki soxta axborot tarqatish orqali jamoatchilik fikriga ta’sir qilish.

[2] Muhammad Amin Yaxyo. Internetdagi tahdidlardan himoya.Toshkent, “Movarounnahr”, 2016.

Psixologik manipulyatsiya – odamlar ongiga ta’sir qilib, ularning fikrlashini o‘zgartirish.

Kiberto‘qnashu va zo‘ravonlik (kiberbulling) – shaxsiy hayotga tajovuz qilish, tahqirlash va qo‘rqitish.

Ekstremistik va radikal mafkuralarning targ‘iboti – yoshlarni noqonuniy harakatlarga jalb qilish.

2. Kiberxavfsizlikka qarshi kurashda psixologik muammolar - kibermakonda salbiy axborot xurujlariga qarshi kurashda insonning ruhiy holati va psixologik tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega. Bu borada muayyan psixologik muammolar mavjud. Jumladan, axborot oqimida sarosimaga tushish – internetdan noto‘g‘ri va xavfli ma’lumotlarni qabul qilish natijasida shaxsning ruhiy holati yomonlashadi, stress va xavotir kuchayadi.

Kiberxavfsizlik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar yetishmovchiligi – ko‘pchilik yoshlar va kattalar kiberxavfsizlik asoslarini bilmagani sababli turli yolg‘on ma’lumotlar ta’siriga tushib qoladi.

Raqamli immunitetning pastligi – yoshlarning salbiy axborotga nisbatan tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanmagani ularning manipulyatsiya qurboniga aylanishiga sabab bo‘ladi.

3. Pedagogik muammolar va yechimlar - yosh avlodni kiberxavfsizlik asoslariga o‘rgatish va ularni axborot tahdidlaridan himoya qilishda ta’lim tizimi muhim o‘rin tutadi. Biroq bu borada qator pedagogik muammolar mavjud. Xususaan, maktab va oliy ta’lim muassasalarida kiberxavfsizlikka oid fanlar yetishmovchiligi – ko‘plab o‘quv muassasalarida raqamli xavfsizlik bo‘yicha maxsus kurslar yo‘qligi bunga ma’lum miqdorda sabab bo‘lmoqda. O‘qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasi pastligi – pedagoglar va ota-onalar kiberhavflar haqida yetarli bilimga ega emas. Axborot xavfsizligiga oid o‘quv materiallarining kamligi – kibermakon tahdidlarini kamaytirish uchun zamonaviy va aniq uslubiy qo‘llanmalar, darsliklar yetishmaydi.

Bu muammolarni hal qilish uchun quyidagi choralar amalga oshirilishi kerak:

– Maktab va universitetlarda axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik fanlarini joriy qilish.

– O‘qituvchilar va ota-onalar uchun kiberhimoya bo‘yicha treninglar o‘tkazish.

– Yoshlarni tanqidiy fikrlash va raqamli immunitetni shakllantirishga o‘rgatish.

– Davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan kiberxavfsizlik bo‘yicha media kampaniyalarni kuchaytirish.

Kibermakondagi salbiy axborot xurujlariga qarshi kurashda faqat texnik yechimlar emas, balki psixologik va pedagogik yondashuvlar ham muhimdir. Bu

boradagi ishlarni tashkil etish uchun esa, bizningcha mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning quyidagi fikrlariga tayanishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi: “Bugungi shiddatli, murakkab zamon shuni ko‘rsatmoqdaki, bu borada faqat ta’lim tarbiya tizimining o‘zi mavjud ma’naviy tahdidlarga qarshi turolmaydi. Bu masalaga butun jamiyatning kuch va imkoniyatlarini safarbar etmas ekanmiz, kutilgan natijaga erisholmaymiz. Chunki hozirgi kunda bobolarimizni ota-ona, bog‘cha maktab, institut emas, aksariyat hollarda qo‘lidagi telefon “tarbiyalamoqda”[3]. Demak, jamiyat, ta’lim muassasalari, ota-onalar va davlat tashkilotlari birgalikda harakat qilsagina, yoshlarni salbiy axborot ta’siridan himoya qilish mumkin bo‘ladi. Shuning uchun ham kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish, yoshlar ongini himoyalash va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

HARBIY SOHADA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING TASHKILIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

D.M.Mamatkulov

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavsizligi universiteti
“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy psixologik ta’minlash” kafedrasi dotsenti,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma’lumki, yaqin tariximizgacha muayyan axborotni olov, tutun, chopar, qushlar, karvon, shimol mamlakatlarida esa, itlar singari vositalar orqali bir manzildan ikkinchi manzilga yetkazib kelingan. Mazkur axborot tashuvchilar tomonidan axborotni belgilangan manziliga yetkazgunga qadar bir necha soat, kun yoki oylar ketgan.

XX asr o‘rtalaridan boshlab muayyan xabar axborot komunikatsiya texnologiyalari (AKT) orqali uzatila boshlandi. XX asrning so‘ngi o‘n yilligida boshlangan AKTning intensiv rivoji telefon, radio, televideniya, internet kabilar bir mamlakat doirasidan chiqib sayyoraviy maqomga ko‘tarilishiga olib keldi. Mazkur rivojlanish avvalo axborot uzatish tezligiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Endilikda, AKT orqali muayyan axborotni bir manzildan ikkinchi manzilga yetkazish tezligi 0,6 sekundga yetdi. Mazkur o‘zgarishlar natijasida yo‘ldosh (sputnik) telefoniyasi, yo‘ldosh radiotelevideniyasi, internet hamda ijtimoiy tarmoqlar insoniyat hayotidan mutloq o‘rin egalladi.

Ta’kidlash kerakki, dunyo taraqqiyoti axborot va uning uzatish bilan bog‘liq quyidagi uch bosqichni bosib o‘tdi. Ular:

1. Ilk, sodda shaklda axborot uzatish davri;
2. Faol axborot uzatish davri;

[3] Sh. Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. 284-b.

3. Yolg‘on axborot uzatish davri.

Bugungi kunda insoniyat jamiyati yolg‘on axborot uzatish davriga kirib keldi. Darhaqiqat, hozirda global yoki lokal axborot makonida ishonchli axborotlar ulushidan ko‘ra “fake news” - soxta axborotlar ulushi katta miqdorni tashkil etmoqda.

Davrimizning asosiy xususiyatlaridan yana biri shundaki, bugungi kunga kelib, an’anaviy bozor va raqobatdan mutloq farq qiladigan yangi bozor va raqobat shakllari vujudga keldi.

Yangi bozorda mahsulot emas, inson e’tibori sotilmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoq kompaniyalari (*Facebook, “Twitter” yoki “X”, “Telegram”, “Instagram”, “V-kontakte”, “Linkedln” kabilar*) aynan shuning uchun ya’ni, odamlarni ekrandan uzoqlashtirmaslik, ularning diqqatini ko‘proq ushlab turish uchun o‘zaro raqobatlashmoqda.

Darhaqiqat, hozirda hech kim ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi sifatida unga pul to‘lamaydi. Lekin, shuni unutmaslik lozimki, iqtisodiyotning asosiy tamoyiliga ko‘ra “Agar kimdir mahsulot uchun pul to‘lamayotgan bo‘lsa, bilinki, uning o‘zi mahsulot hisoblanadi!”.

Ta’kidlash kerakki, ijtimoiy tarmoq kompaniyalarining uchta asosiy maqsadi mavjud. Ular:

1. Inson e’tiborini tortish va uni ushlab turish. Bu maqsad kishilarni iloji boricha ijtimoiy tarmoqda bo‘lish vaqtini uzaytirishga qaratilgan;
2. Do‘stlarimizni ijtimoiy tarmoqqa qo‘shish va ularga axborot uzatishimizni rag‘batlantirish. Bundan maqsad ijtimoiy tarmoq auditoriyasini kengaytirish va uni yanada rivojlantirish;
3. Ijtimoiy tarmoqdagi axborotlar orasiga mohirona reklama joylash. Bu mazkur sohadagi kompaniyalarining asosiy maqsadi bo‘lib bu orqali o‘z faoliyatlarini monetizatsiya qilishadi.

Shu vaqtga qadar inson shaxsi va psixologiyasi bu qadar kuchli kuzatilmagan va o‘rganilmagan edi. Endilikda axborot gigantlari tomonidan insonning har bir xatti-harakati: ekrandagi rasmga qancha soniya tikilgani, qaysi mazmundagi videolarni ko‘p tomosha qilgani, yozayotgan izoh (komentariy)larining mazmuni va xissiy dinamikasidan uning ruhiy va intelektual xolatidagi o‘zgarishlar chuqur o‘rganib borilmoqda. Albatta, bu ishni aniq kimdir emas, balki, murakkab algoritmga asoslangan axborot tizimi amalga oshirmoqda.

Shu tariqa ijtimoiy tarmoqlar onlayn aloqa, ayniqsa yosh avlod uchun birinchi o‘ringa chiqqan yangi, vertual dunyoni yaratdi. Bu dunyoda inson fyuchersi (*futurus – lotincha kelajak, fyuchers – xali ishlab chiqilmagan mahsulotlarning oldi-sottisi bo‘yicha o‘zaro kelishuv*) ya’ni, kelajakdagi istak va ehtiyojlari, oldindan qiladigan xatti-harakatlari sotuvga qo‘yilmoqda. Bu degani

hozirgi zamon kishisining istak va ehtiyojlari va amaliy xatti-harakatlari uning o‘ziga emas, ko‘proq axborot gigantlari istaklariga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun ham tarixan o‘z qo‘lidagi narsa-buyum va uskunalarning mutloq egasi bo‘lgan inson endilikda o‘ziga tegishli axborot texnologiyalari (*smartfon, kompyuter va turli gejetlar*)ning tobesiga aylandi.

Darhaqiqat, mana shunday vaziyat dunyoda gibrid urush jarayonlari uchun qulay shart-sharoitni vujudga keltirayotganidan dalolat beradi. Ma’lumki, “gibrid urush (inglizcha – *hybrid warfare*) – hujum qilayotgan tomonning klassik ravishdagi harbiy bosib kirish usulini qo‘llamasdan, yashirin operatsiyalar, qo‘poruvchilik harakatlari, kiber urush hamda dushman hududida harakatlanayotgan nomuntazam, isyonchi guruhlarni qo‘llab quvvatlagan holda o‘z raqibiga bosim o‘tkazish bo‘yicha dushmanlik harakatlari. Bunday holatlarda harbiy harakatlar umuman olib borilmasligi va rasmiy nuqtai nazardan gibrid urushi tinchlik davrida ham olib borilishi mumkin” [3: 77].

Ta’kidlash kerakki, axborotning psixologik ta’siri bilan bog‘liq bugungi murakkab xolat hamda uning ta’sirida yuzaga keladigan gibrid urush tahdidi mamlakatimiz uchun ham begona emas. Bu xolat ayniqsa to‘laqonli hayotiy tajriba shakllanmagan, biroq zamonaviy texnologiyalarga o‘ta qiziquvchan va psixologik jihatdan tobe yoshlar faoliyati orqali yanada xavfli bo‘lishi mumkin.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Qonunchiligiga ko‘ra 18 yoshga to‘lgan, harbiy xizmatga yaroqli har bir fuqaro Qurolli kuchlar tizmida o‘z fuqarolik burchini bajarishi majbur etib belgilangan. Afsuski, hozirda axborotning salbiy psixologik ta’sirini kuchayishi natijasida aksariyat mamlakatlar ijtimoiy hayotida hatbiy tizim uchun potensial zahira bo‘lgan yosh avlodda mazkur sohaga qishiqishni pasayish tendensiyasi yuzaga kelmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, bugungi kundagi axborotning salbiy psixologik ta’siri harbiy tizimda avlodlar almashunuvi masalasini havf ostida qoldirmoqda.

Axborotning salbiy psixologik ta’siri sharoitida birinchi muammo, harbiy tizim uchun potensial zahira bo‘lgan yosh avlodni asrash hamda mazkur sohada avlodlar almashunuvi to‘laqonli ta’minlash bo‘lsa, ikkinchi muammo hozirda bevosita muddatli harbiy xizmat, safarbarlik chaqiruvidagi harbiy xizmat, konrtakt asosidagi harbiy xizmat, qurolli kuchlar safida harbiy xizmatni o‘tab bo‘lgan rezervchilar harbiy xizmatchilari orasida gibrid urush shakllaridan biri bo‘lgan internet, ijtimoiy tarmoq va ayniqsa onlayn azart o‘yinlarga tobelikning ortayotgani hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy tizim davlat va jamiyatni himoyalashga qodir bo‘lishi uchun avvalo, o‘zini axborotning salbiy psixologik ta’siri hamda nostandart shakldagi gibrid urushlardan himoya qilmog‘i kerak. Albatta, bu o‘rinda himoya deganda harbiy tizimdagi klassik shakldagi harbiy arsenalni to‘la qonli

harakatga keltirish orqali mudofaani ta’minlash nazarda tutilmaydi. Bu birinchi navbatda axborotning salbiy psixologik ta’siridan himoyalanishni, zarur bo‘lganda milliy manfaat himoyasi yo‘lida gibrid va axborot urushlariga kira olishni nazarda tutadi.

Bizningcha, bugungi axborotning salbiy psixologik ta’siri va gibrid urush shakllari kuchayib borayotgan bir sharoitda harbiy tizimda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Birinchidan, harbiy tizimdagi Oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘quv dasturlariga kompleks tarzda “Axborot xavfsizligi psixologiyasi” o‘quv kursini joriy etish;

Ikkinchidan, harbiy jurnalistika sohasini rivojlantirish. Buning uchun shu soha fuqorolik Oliy ta’lim muassasalari bilan qo‘shma fakultetlar ochish va ularda harbiy jurnalist kadrlarni tayyorlash;

Uchinchidan, harbiy kadrlar tayyorlash tizimi uchun “Harbiy jurnalistika va axborot xavfsizligi” ixtisosligini joriy etish hamda yaqin istiqbolda mazkur ixtisoslik bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish;

To‘rtinchidan, harbiy soha (keng xalq ommasi bilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar)ni yoritish uchun blogerlik faoliyatiga imkon berish;

Beshinchidan, gibrid va axborot urushlarining katta ehtimolini hisobga olgan holda harbiy tizimda axborot-psixologik operatsiyalar bo‘yicha mutaxassislar hamda kiber armiya bo‘linmalarini shakllantirish;

Oltinchidan, axborot-psixologik operatsiyalar bo‘yicha mutaxassislar hamda kiber armiya bo‘linmalari uchun alohida jismoniy va professional me’yorlar ishlab chiqish. Masalan, jismoniy jihatdan nogironligi bo‘lsada, lekin professional jihatdan soha uchun zarur malakaga ega bo‘lgan shaxslarni harbiy xizmatga olish.

So‘ngi so‘z o‘rnida shuni aytish mumkinki, bundan buyon har bir davlatning harbiy tizimida albatta ikki turdagi bo‘linmalarni tarkib topishi muqarrar. Ularning birinchisi, albatta uzoq yillik rivojlanish tarixiga ega bo‘lgan klassik shakldagi harbiy arsenal bo‘linmalari bo‘lsa, ikkinchisi zamon talablari asosida shakllantiriladigan gibrid va axborot urushlariga qarshi turuvchi axborot-psixologik operatsiyalar bo‘yicha mutaxassislar hamda kiber armiya bo‘linmalari hisoblanadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, harbiy tizimda “Axborot xavfsizligi psixologiyasi” o‘quv kursini kompleks tarzda o‘qitish, harbiy jurnalistika va blogerlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, “Harbiy jurnalistika va axborot xavfsizligi” ixtisosligi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish hamda eng asosiysi axborot-psixologik operatsiyalar bo‘yicha mutaxassislar hamda kiber armiya bo‘linmalarini shakllantirish harbiy tizimni yanada zamonaviylashuvi hamda mudofa sohasini yanada mustahkam bo‘lishini ta’minlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbarning kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston 2017.
2. Paxrutdinov Sh.I. Taraqqiyotga tahdid: nazariya va amaliyot. - T.: Akademiya, 2006.
3. Samarov R.S. Harbiy atamalarning yangi izohli lug'ati. Toshkent.: "Innovatsiya-Ziyo", 2020.384-b.
4. Adelstein A.S. Total Propaganda Horn Mass Culture to Popular Culture. – Mahway, N.J. – London, 2021.
5. Semiruxin L.V. Nanotexnologii i soznanie // Filosofskie nauki. - 2022. - №2.
6. Mamatkulov D.M. Mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi // Monografiya – Toshkent: «Lesson press» nashriyoti, 2023 – 224 b.

JAHONDAGI GEOSIYOSIY O'ZGARISHLARNING YOSHLAR MAFKURASIGA VA TAFAKKURIGA TA'SIRI

Allayarov D.U., dotsent

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jahondagi geosiyosiy o'zgarishlarning yoshlar mafkurasiga va tafakkuriga ta'siri bir necha yo'nalishlar bo'yicha misollarda, xususan, geosiyosiy o'zgarishlar, ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirlar, siyosiy faollik, texnologiya va ta'lim, ijtimoiy voqeliklar kabi yo'nalishlarda ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *globallashuv, geosiyosiy o'zgarishlar, internet platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, arab bahori, ishsizlik darajasi, migratsiya, chet davlatlarda o'qish, gender tenglik, irqiy tenglik, ijtimoiy adolat, ijtimoiy harakatlar, onlayn ta'lim.*

Аннотация: *В данной статье проанализировано влияние геополитических изменений в мире на идеологию и мышление молодежи по нескольким направлениям на примерах, в частности, геополитических волнений, социальных и экономических влияний, политической активности, технологии и образования, общественных событий.*

Ключевые слова: *глобализация, геополитические изменения, интернет-платформы, социальные сети, арабская весна, уровень безработицы, миграция, учеба за рубежом, гендерное равенство, расовое равенство, социальная справедливость, общественные движения, онлайн-образование.*

Globallashuv jarayoni butun dunyo bo'ylab iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni kengaytiradi. Bu jarayon yoshlar o'rtasida turli madaniyatlar, urf-odatlar va fikrlar bilan tanishish imkoniyatini yaratadi.

Geosiyosiy o'zgarishlar, masalan, xalqaro tengsizlik, iqlim o'zgarishi va migratsiya kabi jarayonlar yosh avlodning qarashlari, qadriyatlari va faolligiga

katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Yoshlar, o‘z navbatida, o‘z fikrlarini va qarashlarini ifoda etish orqali bu o‘zgarishlarga ta’sir o‘tkazishmoqda. Bu jarayonlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, yoshlarning dunyoqarashini va global masalalarga bo‘lgan yondashuvini shakllantiradi. [1]

Jahondagi geosiyosiy o‘zgarishlarning yoshlar mafkurasiga ta’sirini bir necha yo‘nalishlar bo‘yicha misollarda ko‘rib chiqaylik.

Geosiyosiy o‘zgarishlar va yoshlar

Globallashuv va madaniyatlar aralashuvi: Yoshlar internetdan foydalanish orqali turli madaniyatlar bilan tanishish imkoniyatiga ega. Masalan, *YouTube* platformasi orqali turli mamlakatlardan musiqiy va san’at asarlarini tezda o‘rganishadi. Bu, ularning qiziqishlarini kengaytiradi va global tendensiyalarni shaxsiy hayotiga tatbiq etishga yordam beradi.

Yoki, yoshlar, masalan, *K-pop* (Janubiy Koreya pop musiqasi) orqali yangi madaniyatni o‘zlashtirayotganini ko‘rishimiz mumkin. *K-pop* guruhlari, masalan, *BTS* va *BLACKPINK*, global musiqiy sahnaga kirib, millionlab yoshlar orasida mashhurlikka erishdi. Bu fenomen, yoshlarni Janubiy Koreya madaniyati bilan tanishtirib, ularning dunyoqarashini kengaytmoqda. [2]

Ijtimoiy tarmoqlar: Instagram, *TikTok* va *YouTube* kabi platformalar orqali yoshlar bir-birlari bilan fikr almashish va turli madaniyatlarni o‘zaro baham ko‘rish imkoniyatiga ega. Bu tarmoqlar orqali yoshlar global muammolar, siyosat va ijtimoiy adolat kabi mavzularda muzokaralar olib borishadi.

Arab bahori: Arab bahori, 2010-2011 yillarda boshlanib, Arab davlatlarida yoshlar tomonidan ijtimoiy va siyosiy erkinliklar uchun kurashishni anglatadi. Bu harakatlar, asosan, korrupsiyaga qarshi, iqtisodiy qiyinchiliklar va siyosiy repressiyalarga qarshi bo‘lgan. [4]

Misr: Misrda “Tahrir” maydonida yoshlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali tashkil etilgan mitinglarda ishtirok etishdi. 2011 yilda millionlab odamlar ko‘chaga chiqib, hukumatni ag‘darishga muvaffaq bo‘lishdi. Ushbu harakatlar orqali yoshlar o‘zlarining siyosiy ovozlarini kuchaytirdilar va yangi demokratik jarayonlar uchun zamin yaratdilar.

Tunis: Tunisda boshlangan bu harakatlar, 2010 yilda Muhammad Bouazizi ismli yosh savdogarning o‘zini yo‘q qilishi bilan boshlangan. Bu voqea butun mintaqada ommaviy namoyishlarga sabab bo‘ldi. Yoshlarning faolligi, tinch namoyishlar va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish orqali kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

Ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirlar

Ish bilan ta’minlash va yangi imkoniyatlar: Yoshlar o‘rtasida ishsizlik darajasi ko‘payishi, ularni yangi ko‘nikmalarni o‘rganishga majbur qiladi. Masalan, pandemiya davrida ko‘plab yoshlar onlayn kurslarga qatnashib, raqamli

marketing yoki dasturlash kabi sohalarda bilim olishdi, bu esa ularning ish imkoniyatlarini oshirdi. [3]

Migratsiya va ta’lim (malaka): Yevropaga yoki AQSh ga ko‘chib o‘tgan yoshlar, shu joylarda o‘z maqsadlari va orzularini amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlarga ega bo‘lishadi. Misol uchun, rivojlangan chet davlatlarda o‘qiyotgan talabalar, yoki chet davlatlarga ishlash uchun ketayotgan yoshlar ko‘plab yangiliklarni o‘rgana turib, o‘z mamlakatlariga qaytganda yangi g‘oyalar va innovatsiyalarni keltirishadi. [3]

Global qadriyatlar va madaniyatlararo muloqot: Yoshlar o‘rtasida gender tengligi va ijtimoiy adolat kabi masalalar muhokama qilinmoqda. Misol sifatida, “#MeToo” harakati orqali ko‘plab davlatlarning yoshlari nojo‘ya xatti-harakatlarga qarshi birlashdilar.

Zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy harakatlar: Zamonaviy texnologiyalar yoshlarning fikrlash va harakat qilish tarziga ta’sir qiladi. Internet va mobil telefonlar orqali axborotga tez va oson kirish imkoniyati mavjud.

Onlayn platformalar: Yoshlar aktsiyalar tashkil qilishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishadi. Masalan, *“#BlackLivesMatter”* harakati, ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalib, yoshlar o‘rtasida irqiy tenglik va adolat masalalari bo‘yicha suratga olish va namoyishlar o‘tkazishga sabab bo‘ldi. Yoshlar bu harakat orqali o‘z fikrlarini keng auditoriyaga etkazishdi.

Yoki, *Change.org* orqali ijtimoiy masalalar bo‘yicha petitsiyalar yaratib, ularni kengaytirish va imzo yig‘ish imkoniga ega. Bu onlayn imkoniyat, yoshlarning ijtimoiy muammolarga faol yondashuvini kuchaytiradi.

Siyosiy faollik

Ijtimoiy harakatlar va aksiyalar: Yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda faollashib, global muammolarga qarshi kurashmoqda. Misol uchun, Greta Thunbergning iqlim o‘zgarishi bo‘yicha e’lon qilgan *“Fridays for Future”* harakati ko‘plab yoshlarni ijtimoiy harakatlarga jalb qildi.

Siyosiy kampaniyalar: Ko‘plab yoshlar o‘z mamlakatlaridagi saylovlarda yoki o‘z fikrlarini ifoda etish uchun yig‘ilishlarda qatnashayotganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, 2024 yildagi AQSh prezidentlik saylovlarida yoshlarni saylovga faol jalb etish uchun ko‘plab kampaniyalar o‘tkazildi.

Texnologiya va ta’lim

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tashabbusi bilan bugungu kunda yoshlarimiz onlayn ta’lim platformalaridan foydalanishda faol bo‘lishmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan taqdim etilgan *“Virtual universitet”* va *“Zamonaviy ta’lim”* kabi ta’lim platformalari yoshlar uchun ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. [5]

*Misollar keltirib o‘tsak**:***

Onlayn kurslar: Yoshlar uchun dasturlash, dizayn va marketing bo‘yicha onlayn kurslar raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. 2022 yildan boshlab, *“IT Park”* platformasi orqali o‘qiyotgan yoshlar soni kun sayin oshib bormoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar: O‘zbekizton yoshlari ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘z fikrlarini ifoda etishda va jamiyatdagi muammolarni ko‘tarishda faol bo‘lib, masalan, *“#MenYoshlarOvoziman”* kampaniyasi yoshlarni ijtimoiy masalalarga jalb qilish maqsadida o‘tkazilgan.

Ijtimoiy voqeliklar va yoshlar

Yoshlar O‘zbekistonda ro‘y berayotgan siyosiy jarayonlarda ham faol qatnashishmoqda. 2024 yil 27- oktabr kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari, Xalq deputatlari tuman va shahar kengashlariga saylovlarda ham yoshlarimizning faol ishtirok etishganiga guvoh bo‘ldik. Bu yoshlar o‘z fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirishda va ijtimoiy masalalarni ilgari surishda muhim omil bo‘lmoqda.

Xususan, yoshlar “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonun loyihasini qo‘llab-quvvatlash orqali, o‘z fikrlarini bildirish va davlat siyosatiga ta’sir ko‘rsatishda ishtirok etdilar.

Xulosa

Jahondagi geosiyosiy o‘zgarishlar yoshlar mafkurasini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Yoshlar yangiliklar va global masalalarga ochiq, ijtimoiy va siyosiy faollik ko‘rsatish orqali kelajakdagi o‘zgarishlarga hissa qo‘shib, o‘z davrlarining qahramoniga aylanishmoqda. Ularning o‘z fikrlarini ifoda etish va global masalalarga bo‘lgan javobgarligi kelajakda yanada ijobiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. [6, 7]

O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy va siyosiy faolligi so‘nggi yillarda kuchaymoqda. Ular, texnologik yutuqlardan foydalanib, ta’lim olishda, ijtimoiy muammolarni hal etishda va o‘z ovozlarini ko‘rsatishda faol bo‘lmoqdalar. Yoshlar Ittifoqi va boshqa tashkilotlar, ularning ovozlarini samarali tarzda ifoda etishga yordam beradi. O‘zbekistonning kelajagi yoshlar qo‘lida va ularning faolligi jamiyatimizni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1]. Smith, J. *Geopolitical Changes and Their Impact on Youth Ideology.* Journal of Global Studies, 15(3), 2021, 225-240.

[2]. Mammadov R. *Yoshlar mafkurasidagi o‘zgarishlar: geosiyosiy kontekst.* Toshkent: O‘zbekiston davlat universiteti, 2020.

[3]. Alimov D. “Globalization and Youth: Shaping Ideologies in Turbulent Times.” *International Journal of Sociology and Anthropology*, 2023, 11(2), 80-95.

[4]. Al-Jazeera. “Yoshlar va ijtimoiy harakatlar: Geosiyosiy o‘zgarishlar ta’siri”, 2022. [Internet manzili: www.aljazeera.com/youth]. Murojaat sanasi – 02.11.2024y.

[5]. Xamrayev A. “Yoshlar va geosiyosat: O‘zbekiston misolida.” *O‘zbekiston ijtimoiy fanlar jurnali*, 2022, 8(1), 30-45.

[6]. United Nations. *Youth and Geopolitics: A Global Perspective.* 2023 [Internet manzili: www.un.org/youth–geopolitics] Murojaat sanasi – 03.11.2024y.

[7]. Pew Research Center. *The Impact of Global Events on Youth Attitudes* 2023. [Internet manzili: www.pewresearch.org]. Murojaat sanasi – 01.11.2024y.

SHUG`ULLANUVCHILARNING PSIXOFIZIOLOGIK HOLATINI ANIQLASH VA TEMPERAMENT KO`RSATKICHLARIDAN KELIB CHIQIB MASHG`ULOT YUKLAMALARINI TAQSIMLASH

Izzatullayev A.R., Alimjonova S.Y.

Toshkent gumanitar fanlar universiteti

Annotatsiya: *Psixodiagnostikadan amaliy foydalanish sport tayyorgarligi uchun ketadigan vaqtni hamda sarflarni qisqartirish, sportchilarni nazoratsiz saralashni kamaytirish, sport natijalari darajasi va barqarorligini ko’tarish imkonini beradi.Individning ayrim psixodinamik xislatlari faoliyatning ekstremal sharoitlariga nisbatan ma’lum bir shakldagi reaksiyalarni chaqirishi mumkin.*

Kalit so`zlar: *psixologik, sportchi, psixodiagnostika, nazorat, yakkakurash, temperament.*

KIRISH: Sport mashg‘ulotlari va musobaqalarni psixologik ta’minlash sxemasining eng axamiyatli bloklaridan biri psixodiagnostika bloki hisoblanadi. Uning maqsadi-sportchi va ma’lum bir sport faoliyati sharoitlarida uning imkoniyatlarini o’rganish va amaliy vazifalarni hal qilishdir. Psixodiagnostikadan amaliy foydalanish sport tayyorgarligi uchun ketadigan vaqtni hamda sarflarni qisqartirish, sportchilarni nazoratsiz saralashni kamaytirish, sport natijalari darajasi va barqarorligini ko’tarish imkonini beradi. Psixik diagnostika shart-sharoitlaridan biri insonni kompleks holda o’rganish hisoblanadi. Bu shaxs tuzilishini baholash masalalariga ham alohida psixik funksiyalarining rivojlanish darajasini baholash masalalariga ham taalluqlidir.

ASOSIY; Yakkakurash sport turlaridagi sport faoliyati tezkor vazifalarni hal etishjarayoni bilan aniqlanadi va nostandart vaziyatlarda kechadi, ularni bashorat qilish juda mushkul. Aftidan, bunday faoliyatda sportchining raqib bilan olib boradigan kurashining to’qnashuvli-variantli vaziyatlari sharoitlariga ko’proqjavob beradigan shaxsiy qirralari ro’yobga oshiriladi. Individning ayrim psixodinamik xislatlari faoliyatning ekstremal sharoitlariga nisbatan ma’lum bir shakldagi

reaksiyalarni chaqirishi mumkin. Har xil sport turlarida tabiiy saralash omillarini hisobgaolgan holda turli shaxsiy xislatlarni rivojlantirish uchun shart sharoitlar yaratiladi. Temperament - bu qonunan bir-biriga bog‘liq bo’lgan hislatlarning murakkab tizimi bo’lib, bunda bir xislatlar boshqalari bilan o’zaroqoplanish imkoniyatiga ega. Aynan shu xislatlarning nisbati sportchilarning ekstremal vaziyatga nisbatan reaksiyasini belgilab beradi. Nafaqat salbiy hislatlarning “ijobiylari” bilan qoplanishi sport faoliyatining borishiga ta’sir ko’rsatishi mumkin. Temperament sportchi faoliyatining individual uslubi shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. Psixologiyada “temperament” atamasini inson shaxsini psixik jarayonlarning kechish dinamikasi tomondan ifoda etuvchi individual psixologik xususiyatlarni anglatadi. Bu xususiyatlar o’ta konservativ,barqaror bo’lishi mumkin, ko’p jihatdan insonda shakllanayotgan faoliyat usullari hamda uslublarini belgilab beradi, qator hollarda esa uning oxirgi natijasiga jiddiy ta’sir ko’rsatadi. Ko’pgina tadqiqotchilar e’tirof etadilarki,yuqori darajadagi xavotirlanish va emotsionallik sportchi natijasiga salbiy ta’sirqiladi. Ayniqsa, agar uning faoliyati psixika imkoniyatlari chegarasida kechsa, shunday ta’sir kuzatiladi. Temperamentning bunday ta’sirlari bilan ajralib turuvchi sportchilar, odatda, sport musobaqasining ekstremal sharoitlaridagi ishga kamdan-kam moslashadilar, ularning faoliyati yuqori ishonchlilik, shovqinlarga vachalg‘ituvchi omillargi bardoshlilik bilan ajralib turmaydi. Sportchi faoliyatining samaradorligi va individual uslubiga temperamentning quyidagi tavsiflari - rigidlik yoki qayishqoqlik (insonnig tashqi ta’sirlarga engil,yumshoq moslashish darajasi), shuningdek, psixik faollikning yuqori darajasi jiddiy ta’sir ko’rsatadi. Olingan ma’lumotlarni keyinchalik baholash davomida mualliflar tomonidan shu narsa aniqlanganki, temperamentning salbiy xususiyatlari, intravertlik yoki emotsionallik bilan ajralib turuvchi ayrim sportchilar yuqori natijalar ko’rsatishgan.

Bu shundan dalolat beradiki, temperamentning samarali faoliyatga ta’siri cheklangan va faqat musobaqa kurashining engqizg‘in pallasida ta’sir qiladi. Temperamentning faoliyatga ta’sirini mashg‘ulot metodlari, jang harakatlarini olib borish vositalari yordamida boshqarish mumkin, bu uni yanada yuqori mahorat darajasiga olib chiqish imkonini beradi.Asosiy raqibdan texnika va taktikada ustunlik qilish, uning har qanday“tryuklariga”qarshilik ko’rsatishda samarali vositalar mavjudligiga bo’lgan ishonch, mashg‘ulot jarayonini to’g‘ri tuzilganligiga bo’lgan ishonch va boshqasifatlar sportchi psixikasi zo’riqishini kamaytiradi. Aytish joizki, mahorat ham,vosita ham ayni vaqtda psixikaning salbiy xususiyatlari ta’sirini bartaraf etish natijasidir. Aynan mahorat darajasi qat’iy kompensator (qoplovchi) hisoblandi. Musobaqalarga tayyorlashning eng samarali usullari va uslublarini izlabtopish faoliyatiga ijobiy yondashgan taqdirdagina va

tegishli motivlar (yuqori malakali sportchini tayyorlashda eng muhim vazifalardan biri) mavjud bo'lgandagina, mumkin bo'ladi.

O'z faoliyatiga nisbatan ongli va ijodiy yondashganda boksda to'plangan tajriba va texnika hamda taktika vositalarini tekshirish asosida bokschi o'z faoliyatining individual uslubini shaklllantiradi. Psixik tashkillashning kamchiliklarini maksimal tarzda qoplashga va kuchli tomonlardan oqilona foydalanishga imkon beruvchi texnika va taktika vositalarini ongli yoki ongsiz tarzda tanlab olinishi mexanizm hosil qiladi. Unga muvofiq faoliyatning individual uslubi tanlanadi. Aniqlanishicha (3-jadval), faoliyatning taktik uslubi xususiyatlari temperamenti xossalariga qarab, ma'lum bir yo'nalishda shakllanar ekan. Mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra, hujumkor uslubda jang olib boruvchilar uchun rigidlik va psixologik jarayonlarning barqarorligi xos. Qarshi hujum uslubida jang olib boruvchi bokschilar ularga teskari holda kamroq rigidlar va ancha sezuvchandirlar,raqibni sun'iy yutish taktikasini ko'proq amalga oshiradilar

Sportda qobiliyatlarni namoyon bo'lishi xususiyati bir qator omillarga bog'liq: neyrodinamikaning shaxsga xos xususiyatlari, jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi, sportchilarning irodaviy sohasi va boshqalar. Psixomotorikaning namoyon bo'lishi funksiyalari turli – tuman. Ularga harakat va ishlab chiqarish operatsiyalariga xos, makon va vaqt ichida amalga oshiriladigan har xil harakat reaksiyalari shakllari hamda turlari, shuningdek, sportchilarning koordinatsion murakkab texnik – taktik harakatlari uchun xosbo'lgan inson harakatlarining tarkibiy qismlari bo'lgan o'lchashlar, chamalash, shaxsan – bilish harakatlari kiradi. Sportda eng yuqori natijalar nafaqat fikrlovchi, balki his etuvchi, ya'ni sensor – perseptiv madaniyatga ega sportchi tomonidan erishiladi. Harakatlanish va harakat amallarini tashkil etuvchi har qanday psixik aktsezgi registrlari – analizator tizimlar faoliyatiga asoslangan. Yangi psixofiziologiyada oxirgi yillarda ikkita asosiy asab mexanizmlari: analizatorlarva vaqt bog'liqliklarining birligi to'g'risidagi Pavlov ta'limoti yanada rivojlanadi. Vaqt bog'liqliklari mexanizmlari evaziga analizatorlarning (ko'rish,kinestezik, vestibulyar va boshq.) ishi harakatlarni vaqt hamda makonda boshqarish shart–sharoitlarini yanada aniqroq aks ettiradi. Samarali sport faoliyati ko'p jihatdan harakatlarni mustaqil boshqarishda bevosita ishtirok etuvchi psixomotor funksiyalarining rivojlanish darajasiga bog'liq.

Psixologiya va sport tibbiyotida uzoq vaqt davomida shunday tasavvur mavjud ediki, sportchilarda haddan ortiq toliqishning birinchi ob'ektiv belgisi -bu sport natijasining pasayshidir. Uning paydo bo'lish sabablari yuzasidan turlixil qarashlar, fikr-mulohazalar bildirilgan. Muntazam zo'riqish vaorganizmga yuqori talablarning qo'yilishi toliqishsababi hisoblangan. Organizmga qo'yiladigan yuqori

talablar hatto mashqlangan sportchida sport natijalarining yanada o’sishi o’rniga, uning pasayshini yuzaga keltiradi.

G.A.Komendantov va B.Neitman ma’lumotlariga ko’ra, xaddan ortiq toliqishga takroriy mashg‘ulotlardan yoki musobaqalardan toliqish holatlari yig‘indisi sifatida qaralgan.Uning asosiy sababi etarlicha dam olmaslik hisoblangan. Xaddan ortiqtoliqishni qator muhim fiziologik tizimlarning o’zgarishini kelitirib chiqaruvchiva mashqlanganlik o’sishi jarayonida hosil bo’lgan optimumning buzilishi bilan kuzatiladigan bosh jarayon sifatida ta’riflagan. SHu bilan birga, juda toliqishning birinchi belgilari - bu nevrotik alomatlar: yuqori darajada qizishib ketish, tez charchash, mashq qilish istagining yo’qolishi, uyquning buzilishi,bosh og‘rig‘idir. Sport natijalarining pasayishi kechroq yuzaga keladi. Zamonaviy ilmiy-metodik adabiyotlar avval bildirilgan qoydalarni radetmaydi, balki ma’lum darajada ularni to’ldiradi va aniqlashtiradi. So’nggi yillarda yaratilgan adabiyotlarda hozirgacha “haddan ortiq toliqish”tushunchasiga turli xil qarashlar bildiriladi. Masalan, N.D.Graevskaya (1980)shunday fikr bildiradiki, mashg‘ulot noto’g‘ri tashkil qilinganda haddan ortiq toliqish, ortiqcha mashqlanish, ortiqcha zo’riqish kabi buzilishlar yuzaga kelishi,ular ish qobiliyatining pasayishi, funksional holat, ba’zan esa sog‘liqningo’zgarishi bilan kuzatilishi mumkin.Raglin, Morgan o’z tadqiqotlarida (1989) sportchilarda ortiqcha mashqlanganlik va haddan ortiq toliqish sabablarini ko’rsatib o’tadilar:

1.Stress va bosimning o’ta yuqori darajasi.

2.Mashg‘ulot va musobaqa faoliyatining juda ko’p hajmi

3.Jismoniy holdan toyish.

4.Ko’p sonli takrorlashlar oqibatida yuzaga kelgan bir xillik.

5.Etarlicha dam olmaslik yoki bir me’yordagi uyquning yo’qligi.

A.G.Dembo (1980) o’ta katta jismoniy va emotsional yuklamalar oqibatida yuzaga keladigan ikkita holatni ajratishni taklif qiladi. Bu umumiy toliqish bo’lib, u charchashning o’ta yuqori darajasini anglatadi va muallif tomonidan patologiya oldi holati hamda bir yoki bir nechtaorganlar vatizimlarning o’ta zo’riqishi sifatida baholanadigan (bu organlar va tizimlarda turli xil patologik holatlar yuzaga kelishi mumkin) holatdir. O’ta zo’riqish holatiga muallif ortiqcha mashqlanish holatini kiritadi, o’ni nevroz sifatida qaraydi. Boshqa olimlar, masalan, R.S.Uaynberg va D.Gould (1997) o’ta yuqori jismoniy va emotsional yuklamalar natijasida yuzaga keladigan uchta holatni ajratishni taklif qiladilar.

XULOSA.

Psixologiya va sport tibbiyotida uzoq vaqt davomida shunday tasavvur mavjud ediki, sportchilarda haddan ortiq toliqishning birinchi ob’ektiv belgisi -bu sport natijasining pasayshidir. Uning paydo bo’lish sabablari yuzasidan turlixil

qarashlar, fikr-mulohazalar bildirilgan. Muntazam zo'riqish vaorganizmga yuqori talablarning qo'yilishi toliqish sababi hisoblangan. Organizmga qo'yiladigan yuqori talablar hatto mashqlangan sportchida sport natijalarining yanada o'sishi o'rniga, uning pasayshini yuzagakeltiradi. Bu umumiy toliqish bo'lib, u charchashning o'ta yuqori darajasini anglatadi va muallif tomonidan patologiyaoldi holati hamda bir yoki bir nechtaorganlar vatizimlarning o'ta zo'riqishi sifatida baholanadigan (bu organlar va tizimlardaturli xil patologik holatlar yuzaga kelishi mumkin) holatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Семенова Н.Д. Методика для мотивирования пациентов к психосоциональной реаблитации / Н.Д. Семенова // Социальная и клиническая психиатрия.-2010.
2. Сериков, В.В. Личностно-ориентированное образование. Теория и практика проектирования / В.В.Сериков. –М.:Логос,
3. Слабинский В.Ю. Основы психотерапии: практическое руководство / В.Ю.Слабинский.-СПб: Наука и техника, 2008.
4. Сластенин, В.А. Введение в педагогическую аксиологию: Учеб. пособие для студентов вузов / В.А.Сластенин, Г.И.Чижакова,-М.:Изд.сентр ,,Академия",2003.
5. Сологубов Е.Г. Система оценки развития опорно-двигательного аппарата больных детским церебральным параличом и средство физической коррекции выявленных нарушений/ К.А. Семенова, С.Д. Поляков. И.Е. Смирнов, В.Т. Кожевникого. - М.: ЮСМА. 2004.

YOSHLARNING IJTIMOIY VA SIYOSIY FAOLLIGI

Allayarov D.U., dotsent

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

Annotatsiya: *Yoshlar bugungi kunda dunyodagi har qanday jamiyatning faol va ahamiyatli a'zolaridir, chunki yoshlar – bu kelajakdir. Ularning ijtimoiy va siyosiy faolligi qo'shimcha ravishda texnologiya bilan bog'liq ravishda rivojlanmoqda. Ushbu maqolada dunyoda va mamlakatimizda yoshlarning ijtimoiy harakatlardagi ishtiroki, madaniyat, sport va san'at orqali faolligi kabilar haqida ayrim misollar keltirilib, qisqacha tahlil qilib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *yoshlar, ijtimoiy faollik, siyosiy faollik, #MeToo harakati, Fridays for Future, Black Lives Matter, Bo'zatov Fest, Samarkand Marathon, TroPhyGital Tour (Road Show), grafiti san'ati, Yoshlar Forumlari.*

Аннотация: *Молодежь в сегодняшний день является активным и значимым составляющим любого общества в мире, потому что молодежь – это будущее. В данной статье приведены некоторые примеры и кратко проанализировано участие молодежи в мире и в нашей стране в общественных движениях, активность через культуру, спорт и искусство.*

Ключевые слова: *молодежь, социальная активность, политическая активность, движение #MeToo, Fridays for Future, Black Lives Matter, Buzataw Fest, Samarkand Marathon, TroPhyGital Tour (Road Show), искусство grafiti, молодежные формуы.*

Kirish

Mamlakatimizda yoshlarga, ularning ijtimoiy faolligini oahirishga oid siyosatga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida davlat darajasida juda katta e’tibor qaratilgan, bu borada yoshlarga oid davlat siyosati mamlakatimiz Konstitutsiyasida, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida (O‘RQ-406- son, 2016 yil 14- sentabr), “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida (PF-6017- son, 2020 yil 30- iyun), shuningdek “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida (PF-158- son, 2023 yil 11- sentabr) va boshqa bir qator qonun va qonunosti hujjatlarida o‘z aksini topgan. [1]

Ijtimoiy harakatlar:

Mamlakatimizda ham bir qator yoshlar ijtimoiy va siyosiy harakarlarining guvohi bo‘lib kelmoqdamiz. Xususan, bunday harakatlar va tadbirlar, unga bag‘ishlangan xalqaro anjumanlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Turkiy Davlatlar Tashkiloti kabi O‘zbekiston Respublikasi a’zosi sanaladigan boshqa bir qator xalqaro tashkilotlar doirasida ham o‘tkazilib kelinmoqda. Va shuni alohida ta’kidlash lozimki, bu borada ko‘plab tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning shaxsan tashabbuslari bilan amalga oshirilib kelinmoqda – buni bugun butun dunyo hamjamiyati e’tirof etmoqda.

Misol uchun, yaqinda Toshkentda (Xalqaro Nordik universitetida) **“Barqaror suv harakati paradigmasini o‘zgartirish”** mavzusiga bag‘ishlangan **Yevropa Ittifoqi – Markaziy Osiyo** yosh yetakchilari konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda xalqaro tashkilotlarning nufuzli vakillari bilan birgalikda Markaziy Osiyoning 100 dan ortiq yetakchi yoshlari, xalqaro ekspertlar, olimlar va talaba-yoshlar ishtirok etishdi.

Xalqaro miqyosda ayrim ijtimoiy harakatlarni ko‘rib chiqsak: [3]

#MeToo harakati: Bu harakat, jinsiy zo‘ravonlik va ta’qibga qarshi kurash uchun 2017 yilda boshlangan. Ko‘plab yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda o‘z hikoyalarini baham ko‘rish orqali harakatga qo‘shildilar. Masalan, aktrisa Alyssa Milano o‘zining Twitter sahifasida “#MeToo” xeshtegi ostida xabar berishi ko‘plab yosh ayollarni jinsiy zo‘ravonlik va ta’qibga qarshi kurash bo‘yicha o‘z tajribalarini baham ko‘rishga undadi.

Fridays for Future: Gretta Thunberg tomonidan boshqarilgan bu harakat, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishni maqsad qiladi. Yoshlar har juma kunlari maktabdan chiqib, iqlim o‘zgarishi bo‘yicha namoyishlar o‘tkazadilar. 2019 yilda 1,4 million yoshlar dunyo bo‘ylab ko‘chalarga namoyishga chiqib, iqlim o‘zgarishi muammolarini ko‘tarishdi, bu orqali esa ular butun insoniyat e’tiborini iqlim o‘zgarishi muammolariga befarq bo‘lmaslikka qaritishdi.

Black Lives Matter: Bu harakat, afroamerikaliklarning huquqlarini himoya qilish maqsadida 2013 yilda paydo bo‘lgan. 2020 yil amerikalik qora tanli George Floydning politsiya tomonidan o‘ldirilishi ortidan millionlab yoshlar ko‘chaga chiqib, irqiy adolat va tenglik talab qila boshlashdi. Ular ijtimoiy tarmoqlar orqali bu harakatni global darajada ko‘tarishga erishdilar.

Madaniyat, sport va san’at orqali faollik:

Musiqa orqali ijtimoiy faollik: Mamlakatimizda yoshlarning ijtimoiy faolligini yanada oshirish, yoshlar orasidan talantlarni izlab topish va ularni yanada rag‘batlantirish maqsadida juda ko‘plab tadbirlar o‘tkazilib kelinayotganiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Misol uchun, joriy yil may oyida “**Yoshlar ovozi**” Respublika tanlovining yakuniy bosqichi Qoraqalpog‘iston Respublikasining olis Bo‘zatov tumanida “**Bo‘zatov Fest**” bo‘lib o‘tdi. Mazkur festival mamlakatimiz va qo‘shni davlatlar yoshlari o‘rtasida juda katta qiziqish uyg‘otib, ko‘plab yoshlarga yangi umidlar baxsh etib kelmoqda.

Musiqa orqali yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga yana bir misolni xalqaro miqyosda qarasak – “This Is America” qo‘shig‘i Childish Gambino (Donald Glover) tomonidan ijro etilgan.

Sport orqali ijtimoiy faollik: Joriy yil 4- noyabr sanasida ko‘hna va navqiron Samarqand shahrida “Samarkand Marathon” xalqaro xayriya yugurish musobaqalari o‘tkazildi, unga 2019 yil asos solingan. Ushbu tadbir doirasida Samarqand shahrida bir qator ta’limiy va madaniy tadbirlar ham o‘tkazildi. Bu tadbir xalqaro hamjamiyat e’tiborini madaniyat va san’at ob’yektlarining inklyuzivligi muammosiga qaratishga, shuningdek sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilishga, sport orqali yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga, mamlakatimizda sport turizmini rivojlantirishga qaratilgan.

Shu yilning oktabr oyida poytaxtimizda “TroPhyGital Tour (Road Show)” xalqaro road-shousi doirasida “Fidjital festivali” bo‘lib o‘tdi. Ushbu tadbir sport orqali yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, klassik sport va kibersportni uyg‘unlashtirishga asoslangan *fidjital* harakatini targ‘ib qilish maqsadida Sport vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, “Yoshlar – kelajagimiz” jamg‘armasi, Yoshlar ittifoqi va Butunrossiya Fidjital sporti federatsiyasi hamkorligida tashkil etildi. [2]

Film va teatr orqali faollik: “The Hate U Give” filmi afroamerikalik yoshlarning irqiy adolat masalalarida faolliklarini ko‘rsatadi. Ushbu film

yoshlarning o‘z huquqlari va adolat uchun kurashishini ta’kidlaydi va ko‘plab yoshlar uchun ilhom manbai bo‘ladi. [4]

Street Art: Grafiti san’ati va ko‘cha san’ati orqali yoshlar ijtimoiy muammolarni ifoda etishda faol ishtirok etmoqdalar. Masalan, Banksy kabi san’atkorlar, o‘z asarlari orqali urush, ijtimoiy adolatsizlik va iqlim o‘zgarishi kabi mavzularni ko‘rsatadi. Yoshlar, o‘z shahrida muammolarni ko‘rsatish uchun ko‘chada grafiti chizish orqali ovozlarini chiqarmoqdalar. [4]

Xulosa

Yoshlarning ijtimoiy va siyosiy faolligi zamonaviy jamiyatda har qanday davlatda muhim rol o‘ynaydi. Ular ijtimoiy harakatlarga, saylovlarda ishtirok etishga hamda sport va madaniyat orqali o‘z fikrlarini ifoda etishga qodir. Yoshlar o‘z fikrlarini yo‘qotmasdan, ijtimoiy o‘zgarishlar va ijtimoiy masalalar bo‘yicha o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar.

Ularning ijtimoiy va siyosiy faolligi, texnologiya bilan bog‘liq imkoniyatlari va ijtimoiy o‘zgarishlarga ta’siri, jamiyatimizni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Yoshlar, o‘z fikrlarini ifoda etish va ijtimoiy masalalarda o‘z o‘rnini mustahkamlash maqsadida yangi platformalardan foydalangan holda, faolliklarini oshirishmoqda. Ularning bu jarayondagi roli kelajak avlodlar uchun ham ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy faolligi so‘nggi yillarda sezilarli darajada oshdi. Bu jarayonda O‘zbekistonda faoliyat yuritib kelayotgan “**Yoshlar ishlari agentligi**” muhim rol o‘ynaydi. “Yoshlar ishlari agentligi” yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning ovozini oshirish va ijtimoiy muammolarni hal qilishda samarali faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Yana bir misol – mamlakatimizda o‘tkazilishi an’anaga aylangan “**Yoshlar Forumlari**”da ishtirok etayotgan yoshlar o‘z takliflari va g‘oyalarini ilgari surishmoqda, bu esa yoshlar orasida ijtimoiy masalalar bo‘yicha muhokamalarga olib kelmoqda. Yoshlar ekologiya, ta’lim, sport va sog‘liqni saqlash kabi sohalarda ham faol ishtirok etishmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. https://gov.uz/oz/yoshlar/pages/laws (murojaat sanasi – 05.11.2024y.)

[2]. https://gov.uz/oz/yoshlar/news/view/26059 (murojaat sanasi – 05.11.2024y.)

[3]. United Nations. *Youth and Geopolitics: A Global Perspective. (2023)* [Internet manzili: www.un.org/youth–geopolitics]

[4]. Pew Research Center. *The Impact of Global Events on Youth Attitudes.* (2023). [Internet manzili: www.pewresearch.org]

PSIXOLOGIK KOMPETENTLIKNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

Avlaqulov Bobir Ro‘ziqulovich
University of Tashkent for Applied Sciences,
boburaslan1821@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada* ***psixolog kompetentligi*** *- bu shaxsning psixologik bilimlari, ko‘nikmalari va malakalarini o‘z ichiga olgan, o‘z-o‘zini anglash, boshqalar bilan muloqot qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatidir. Ushbu maqolada zamonaviy ta'limda psixolog kompetentligini oshirish uchun qo'llaniladigan innovatsion uslublar ko'rib chiqiladi. Psixolog kompetentligini rivojlantirishning muhimligi zamonaviy ta'limda o'quvchilar faqat bilim olishlari emas, balki ularga psixologik qo'llab-quvvatlash kerak. Psixolog kompetentligi o'qituvchiga zamonaviy imkoniyatlarni beradi.*

Kalit so'zlar: *Psixologik kompetentlik, zamonaviy kommunikatsiya, axloqiy-ma'naviy, psixologik trening, metod, etik, kommunikativ.*

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Miromonivich ta’kidlaganidek, “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala- bu yoshlarimizning odob-ahloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashiga bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim-yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin”. Haqiqatan, o‘zbek yoshlari kelajak egalari, yurtimiz ravnaqiga hissa qo‘shadigan yoshlardir.

Psixologik kompetentlik — bu shaxsning psixologik bilimlari, ko‘nikmalari va malakalarini o‘z ichiga olgan, o‘z-o‘zini anglash, boshqalar bilan muloqot qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatidir. Pedagogik psixologiyada psixologik kompetentlikning o‘rni va ahamiyati katta, chunki u o‘qituvchilar va ta’lim jarayonida ishtirok etayotgan barcha shaxslar uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlarni belgilaydi.

Psixologiya fanining muxim sohalaridan biri bo‘lmish yosh psixologiyasi fani, bevosita inson ruhiyati namoyon bo‘ladigan rivojlanish va kechish xususiyatlari, qonuniyatlarini o‘rganadi.[1]

Zamonaviy ta'lim tizimi doimiy ravishda o'zgarib, yangilanib bormoqda. Ta'lim jarayonida talabalarning psixologik holatini va ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish, muvaffaqiyatli ta'lim berishning muhim shartlaridan biridir.

1. Psixologik kompetentlikning asosiy komponentlari

Psixologik kompetentlik bir necha asosiy komponentlardan iborat:

O‘zini anglash: O‘z hissiyotlarini, fikrlarini va xulq-atvorini anglash va baholash qobiliyati.

Empatiya: Boshqalar hissiyotlarini tushunish va ularga mos ravishda javob berish qobiliyati.

Muloqot ko‘nikmalari: Samarali muloqot qilish, fikrlarni aniq ifodalash va boshqalar bilan o‘zaro aloqalarni o‘rnatish qobiliyati.

Muammolarni hal qilish: Turli vaziyatlarda muammolarni aniqlash va ularni hal qilish uchun strategiyalar ishlab chiqish qobiliyati.[2]

2. Pedagogik-psixologik omillar

Psixologik kompetentlikni rivojlantirishda bir qator pedagogik-psixologik omillar muhim rol o‘ynaydi:

O‘qituvchining roli: O‘qituvchilar o‘zlarining psixologik kompetentligini rivojlantirish orqali o‘quvchilarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ularning hissiy intellekti va empatiyasi o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilishda yordam beradi.[3]

Ta’lim muhitining ahamiyati: O‘quv muhitining psixologik xavfsizligi va qo‘llab-quvvatlashi o‘quvchilarning psixologik kompetentligini rivojlantirishda muhimdir. Ijobiy muhit o‘quvchilarda o‘z-o‘zini anglash va o‘z hissiyotlarini ifodalash qobiliyatini oshiradi.

O‘quv dasturlari: Psixologik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv dasturlari va mashg‘ulotlar o‘quvchilarning psixologik ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Bunga rol o‘ynash, guruhli ishlar va muammolarni hal qilish mashg‘ulotlari kiradi.

Ota-onalar va jamiyat: Ota-onalarning psixologik kompetentligi va jamiyatning ta’limga bo‘lgan munosabati ham muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar o‘z farzandlariga psixologik ko‘nikmalarni o‘rgatishda faol ishtirok etishi kerak.[4]

Xulosa

Psixologik kompetentlik ta’lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga yordam beradi. Pedagogik-psixologik omillar, jumladan, o‘qituvchilarning roli, ta’lim muhitining ahamiyati, o‘quv dasturlari va ota-onalarning ishtiroki psixologik kompetentlikni rivojlantirishda muhimdir. Ushbu omillarni hisobga olish orqali ta’lim tizimida psixologik kompetentlikni oshirish va o‘quvchilarning muvaffaqiyatini ta’minlash mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning “Oila va baxt haqida ” 2018 yil.25.06

2. Glassman A. H., Shapiro P.A., Depression and the course of coronary artery disease. Am JPsychiatry. 1998 – P. 4-11.

3. Ta'lim jarayonida shaxsning o‘zini o‘zi baholash xususiyatini shakllanishi б.р авлақулов - ilmiy tadqiqot va innovatsiya, 2023

4. Eastern climate instruments in research of world scientists B.R Avlaqulov Inter education & global study, 380-387

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

Meliqo‘ziyev Rustambek Shuxrat o‘g‘li
Toshkent gumanitar fanlar universiteti,
Toshkent amaliy fanlar universiteti, dotsent
+998971303055
E-mail: rustam.timur4323@gmail.com
Meliqo‘ziev Murodbek Shuxrat o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU,
magistratura talabasi.
+998971304050
E-mail: melikuziyevmurodbek7@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot xavfsizligini ta’minlash muammolari va ularning yechimlari keng yoritiladi. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi axborot resurslarining himoyasini ta’minlash zaruratini oshirmoqda. Shuning uchun kiberxavfsizlik strategiyalarini shakllantirish, zamonaviy autentifikatsiya va shifrlash usullaridan foydalanish hamda tahdidlarni aniqlash tizimlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maqolada matematik modellar, statistik tahlillar va amaliy choralar asosida axborot xavfsizligini mustahkamlash bo‘yicha takliflar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Raqamli iqtisodiyot, axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik, autentifikatsiya, shifrlash, kiberhujumlar, tahdidlarni aniqlash tizimlari, ma’lumotlarning maxfiyligi, butunlik, mavjudlik.*

Kirish

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot jamiyatning har bir jabhasiga kirib kelmoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan bir qatorda, axborot xavfsizligi muammosi ham dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun axborot xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot xavfsizligini rivojlantirishning zarurligi va dolzarbligi tahlil qilinadi.

Raqamli iqtisodiyot va axborot xavfsizligi

Raqamli iqtisodiyot ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash va uzatish jarayonlariga tayanadi. Elektron tijorat, moliyaviy xizmatlar, davlat boshqaruvi va boshqa ko'plab sohalar axborot texnologiyalariga asoslangan holda faoliyat yuritadi. Shu sababli, axborot xavfsizligi ushbu sohalarning uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun muhim omil hisoblanadi.

Axborot xavfsizligi quyidagi asosiy jihatlarni qamrab oladi:

Maxfiylik – Foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish.

Butunlik – Ma'lumotlarning o‘zgartirilmasligini ta’minlash.

Mavjudlik – Ma'lumotlarning kerakli vaqtda foydalanish imkoniyatini yaratish.

Matematik jihatdan axborot xavfsizligi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$H = -\sum_{i=1}^{n} p_i \log_2 p_i$$

Bu yerda:

H – ma'lumotlarning entropiyasi (axborotning noaniqlik darajasi),

p_i – ixtiyoriy holatning ehtimolligi.

Axborot xavfsizligiga tahdidlar

Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bilan birga, axborot xavfsizligiga bo‘lgan tahdidlar ham ortib bormoqda. Asosiy xavflar quyidagilardan iborat:

Kiberjinoyatchilik – xakerlik hujumlari, firibgarlik va boshqa noqonuniy harakatlar.

Ma’lumotlar buzilishi – ma’lumotlarning o‘g‘irlanishi yoki yo‘q qilinishi.

Insider tahdidlar – korxona yoki tashkilot xodimlari tomonidan ma’lumotlarga noqonuniy kirish.

DDoS hujumlari – tizimlarning faoliyatini izdan chiqarish uchun amalga oshiriladigan hujumlar.

Kiberhujumlarning sezgirligini baholash uchun quyidagi model qo‘llanilishi mumkin:

$$R = \frac{A \bullet T}{S}$$

Bu yerda:

R– tahdidning umumiy xavfi,

A– aktivlarning qiymati,

T– tahdid ehtimolligi,

S– mavjud xavfsizlik choralarining samaradorligi.

Axborot xavfsizligini ta’minlash strategiyalari

Axborot xavfsizligini ta’minlash uchun quyidagi strategiyalar muhim ahamiyat kasb etadi:

Kiberxavfsizlik siyosatini shakllantirish – tashkilotlar o‘z axborot xavfsizligi strategiyasini ishlab chiqishi va qat’iy rioya qilishi lozim.

Axborot texnologiyalarini modernizatsiya qilish – ilg‘or shifrlash usullari va xavfsizlik tizimlarini joriy etish zarur.

Shifrlashning samaradorligini baholash uchun ma'lumotlar kodlash davomiyligini quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$T = \frac{L}{R}$$

Bu yerda:

T– shifrlash uchun zarur vaqt,

L– shifrlanishi kerak bo‘lgan ma’lumot hajmi,

R– shifrlash tezligi.

Quyidagi jadvalda axborot xavfsizligining asosiy elementlari va ularning tavsifi keltirilgan:

1-jadval.

Axborot xavfsizligining asosiy elementlari

Element	Tavsif
Maxfiylik	Ma'lumotlarga ruxsatsiz kirishdan himoya qilish
Butunlik	Ma'lumotlarning o‘zgartirilishiga yo‘l qo‘ymaslik
Mavjudlik	Ma'lumotlarni kerakli vaqtda taqdim etish
Autentifikatsiya	Foydalanuvchini tasdiqlash jarayoni
Avtorizatsiya	Ruxsat darajasini aniqlash
Audit	Axborot xavfsizligi jarayonlarini monitoring qilish

Axborot xavfsizligining asosiy elementlari quyidagicha tasniflanadi. Maxfiylik ma'lumotlarni ruxsatsiz shaxslar tomonidan ko‘rish yoki ulardan foydalanishning oldini olishni ta’minlaydi. Bu jarayon shifrlash, autentifikatsiya va kirishni boshqarish kabi mexanizmlar yordamida amalga oshiriladi. Butunlik esa ma'lumotlarning o‘zgartirilishiga yo‘l qo‘ymaslik va ularning to‘g‘riligini saqlash bilan bog‘liq bo‘lib, hash-funksiyalar, raqamli imzo va ma’lumotlarni zaxiralash usullari orqali ta’minlanadi.

Xulosa

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan axborot xavfsizligini ta’minlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Kiberxavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqish, texnologik modernizatsiya va huquqiy tartibga solish axborot xavfsizligini ta’minlashda asosiy omillar hisoblanadi. Shu sababli, davlat va xususiy sektor ushbu yo‘nalishda hamkorlik qilib, axborot xavfsizligini ta’minlash chora-tadbirlarini kuchaytirishi lozim. Faqat shundagina raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.


Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kurose, J. F., & Ross, K. W. (2021). Computer Networking: A Top-Down Approach (8th ed.). Pearson.
2. Pfleeger, C. P., & Pfleeger, S. L. (2015). Security in Computing (5th ed.). Prentice Hall.
3. Tanenbaum, A. S., & Bos, H. (2021). Modern Operating Systems (4th ed.). Pearson.
4. Mitnick, K. D., & Simon, W. L. (2011). The Art of Deception: Controlling the Human Element of Security. Wiley.
5. Goodrich, M. T., & Tamassia, R. (2018). Introduction to Computer Security. Pearson.

IJTIMOIY TARMOQ VA MESSENJERLAR ORQALI JAMOATCHILIKNI IJTIMOIY-SIYOSIY AXBOROTLARDAN XABARDOR QILISHGA DOIR DAVLAT SIYOSATI

Jumaniyazov Dilshod Davlatboyevich

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi jarayonida jamoatchilikka xolis ijtimoiy-siyosiy axborotlarni yetkazishga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar orqali axborot tarqatish tezkorligi, interaktivligi va auditoriya qamrovi kengligi bilan boshqa ommaviy axborot vositalariga nisbatan foydalanuvchilari soni yildan yilga o‘sib bormoqda. Hozirgi kunga kelib, dunyo aholisining 63,9 foizi ijtimoiy tarmoqlardan doimiy foydalanadi[4]. O‘zbekistonda ham ushbu tendensiya kuzatilmoqda. Xususan, 2020-yilda 3,2 million foydalanuvchi bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 8,7 millionga yetdi (1-diagramma).



1-diagramma. O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlardan foydalanuvchilar yillar kesimida (mln)

Shuningdek, O‘zbekistonda davlat idoralari va tashkilotlarining matbuot xizmatlari jamoatchilikka ijtimoiy-siyosiy axborot yetkazishda ijtimoiy tarmoq va messenjerlarning imkoniyatlariga integratsiya qilinmoqda. O‘zbekiston axborot makonida davlat idora va tashkilotlarini ijtimoiy tarmoq va messenjerlarga integratsiya qilish jarayoni dastlab normativ huquqiy hujjatlarda 2016-yil 28-dekabrda qabul qilingan “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4904-sonli farmoni asosida muvofiqlashtira boshlandi. Mazkur farmonga ko‘ra dastlab “Prezident Virtual qabulxonasi” murojaatlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish mexanizmi faoliyat ko‘rsata boshladi[5]. Shu bilan birga, 2017-yil “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb e’lon qilinishi jamoatchilikni ijtimoiy-siyosiy axborotlardan xabardor qilish tizimini ijtimoiy

[4] D.Chaffi. Global social media statistics research summary. Smart Insights. 2025.

YIL	Facebook	X (Twitter)	Instagram	YouTube	LInkedIn	Telegram
2020	35,1	4,9	19,5	20,4	0,25	15,6
2021	25,7	4,1	21,6	20,8	0,8	23,9
2022	25,8	3,3	20,7	22,9	0,55	24,9
2023	17,2	7,1	46,1	11,4	1,11	15,1
2024	14,4	4,3	47,6	11,5	1,41	20,4

2-diagramma. O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlar va messnjerlar auditoriyasining yillik ulushi (2020-2024)

[5] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual Qabulxonasi. https://pm.gov.uz/oz#/

tarmoqlar va messenjerlarning funksiyalariga integratsiya qilish jarayonini yanada jadallashtirdi.

Xususan, Irlandiyaning “StatCounter” global veb-tahlil xizmatining O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarning auditoriyasi bo‘yicha 2020–2024-yillarda qayd qilgan ma’lumotlari o‘rganildi. Tahlilga ko‘ra, O‘zbekistonda **Instagram auditoriyasi tez o‘smoqda** 2020-yilda 19,5% bo‘lsa, 2024-yilda 47,6% ga yetib, eng ommabop platformaga aylangan. **Facebook auditoriyasi kamaymoqda,** 2024-yilda 14,4% ga tushgan, foydalanuvchilar boshqa tarmoqlarga o‘tmoqda. **Telegram auditoriyasi o‘zgaruvchan**-2022-yilda 24,9% bilan eng yuqori darajaga yetib, 2023-yilda tushgan (15,1%), 2024-yilda esa 20,4% ga oshgan. **YouTube auditoriyasi kamaymoqda**, 2020-yilda 20,4% bo‘lsa, 2024-yilda 11,5% ga tushgan, video kontent iste’moli boshqa platformalarga o‘tmoqda. **X (Twitter) beqaror**-2023-yilda 7,1% ga ko‘tarilgan, lekin 2024-yilda yana 4,3% ga tushgan. **LinkedIn asta-sekin o‘smoqda**-2020-yilda 0,25% bo‘lsa, 2024-yilda 1,41% ga yetgan, nufuzi ortib bormoqda.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoq va messenjerlarning auditoriyasining soni oshib borish axborot makonida bir qator murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, axborot ishlab chiqaruvchi rasmiy ommaviy axborot vositalari qatoriga bevosita odamlarning o‘zi ham axborot ishlab chiqarish, qayta ishlash va tarqatish imkoniga ega bo‘ldi. Albatta bu axborot makonida demokratiya tamoyillariga muvofiqdir. Lekin, axborot makonida ushbu jarayon normativ huquqiy hujjatlar bilan yetarlicha tartibga solinmaganligi ko‘plab murakkabliklarga va bir qator muammolarga sabab bo‘lmoqda.

Bu holat nafaqat O‘zbekistonda balki butun dunyo davlatlarida katta muhokamalarga sabab bo‘lmoqda. Xususan, BMT 2023-yil 12-iyun kuni “Information Integrity on Digital Platforms” (Raqamli platformalarda axborotlarning yaxlitligi” muammosiga e’tibor qaratuvchi yangi siyosat bayonnomasi e’lon qildi[6]. Bayonotda axborot yaxlitligiga salbiy ta’sir qiluvchi dezinformatsiya, noto‘g‘ri ma’lumot hamda nafratli xabarlarning tahdidlari global, milliy va mahalliy muammolardagi taraqqiyotga qanday salbiy ta’sir qilishiga qaratilgan.

Shu sababli, BMT ushbu muammolarni hal qilish uchun hukumatlar, texnologik kompaniyalar va fuqarolik jamiyatlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ilgari surishini takidladi. Shuningdek, BMT ushbu bayonotida davlatlarga ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarni tartibga solish bo‘yicha mustahkam qonunchilik asoslarini yaratish va axborot makonidagi

[6] United Nations. United Nations. Our Common Agenda - Policy Brief 8: Information Integrity on Digital Platforms. 13 June 2023

xavfsizlikni ta’minlashga doir huquqiy mexanizmlarni joriy etish lozimligini bildirdi.

BMTning mazkur yondashuviga hamohang O‘zbekistonda ham bu bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Xususan, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmonining 89-maqsad 1-xatboshi “Axborot sohasini tartibga soluvchi yagona tizimlashtirilgan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish” belgilangan[7]. Mazkur loyihani amalga oshirish yuzasidan “O‘zbekiston Respublikasi Axborot kodeksi” ishlab chiqilmoqda. Jumladan, Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) ushbu loyihani tayyorlamoqda. 2024-yil holatiga ko‘ra ushbu loyiha 4-tahriri Adliya vazirligiga taqdim etilgan.

Mazkur loyihada, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar hamda boshqa axborot kommunikatsiya texnologiyalarining axborot ishlab chiqish, qayta ishlash va tarqatish kabi faoliyatini tartibga solish va qo‘llab quvvatlovchi taklif va tavsiyalar berilgan.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash kerakki O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarning jamoatchilikni ijtimoiy-siyosiy axborotlardan xabardor qilishdagi o‘rni ortib borayotganligi davlat axborot siyosatini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi jamiyatning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini faollashtirib, fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita ishtirok etishiga zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, raqamli axborot muhitining kengayishi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash, dezinformatsiya va noto‘g‘ri axborot tarqalishining oldini olish kabi masalalarni ham kun tartibiga qo‘ymoqda.

Davlat siyosati doirasida ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar orqali axborot tarqatish mexanizmlarini tartibga solish va bu jarayonda milliy manfaatlarni himoya qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, “O‘zbekiston Respublikasi Axborot kodeksi” loyihasining ishlab chiqilishi axborot suverenitetini mustahkamlash, axborot xavfsizligini ta’minlash va jamoatchilikni ishonchli manbalardan foydalangan holda xabardor qilishga qaratilgan muhim qadamdir.

Shu bois, O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash va fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi faolligini oshirish uchun axborot siyosatini izchil rivojlantirish talab etiladi. Bunda ijtimoiy tarmoqlarning milliy manfaatlarga xizmat qiladigan ijtimoiy-siyosiy kommunikatsiya vositasiga aylanishi davlat va jamiyat manfaatlari uyg‘unligida muhim omil bo‘lib qolmoqda.

[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida.

TALABA YOSHLARDAGI LIDERLIK XUSUSIYATLARINI KIBERNIMOYALASHDA FOYDALANISH

Karimov Jamshid Avloqulovich

TAFU psixologiya yo'nalish 1- bosqich magistr talabasi

Lider bu – oilani, jamoni, jamiyatni oldinga yetaklovchi shaxsdir. Yo'l boshlovchi, qiyin vaziyatlardan olib chiquvchi, o'z jamodoshlariga yordam, ko'mak beruvchi shax hisoblanadi. Yetakchilik - bu ma'lum bir vaziyat uchun turli xil jamiyat manbalarining eng samarali kombinatsiyasiga asoslangan va odamlarni umumiy maqsadlarga erishishga undashga qaratilgan boshqaruv o'zaro ta'sirining bir turi. Yetakchilik har kimning sa'y-harakatlarini tashkilot maqsadlariga erishishga yo'naltirish orqali shaxsga ham, guruhga ham ta'sir o'tkazish qobiliyati. Lider deganda faqat insonlar ustida yetakchilik qilib, ularga o'z so'zini o'tkaza olish va biror ishni amalga oshirishi emas, balki insonning vijdonan amalga oshiradigan faoliyati hamda vijdonan qabul qiladigan qarorlarini ham tushunish mumkin.

Zamonaviy hayot yoshlarga bir qancha talablarni, vazifalarni yuklamoqda. Yoshlar ijtimoiy munosabatlarg, insonlar bilan o'zaro munosabat faol qo'shilish va iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarda va boshqa sohalarda ilg'or bo'lish kabi vazifalarni yuklaydi. Lider talaba yoshlar qanday bo'ladi va qanday bolishi kerak ularning qanday xususiyatlari bor degan savollar tug'ilishi tabiiy. Lider talaba qanday bo'lishi kerak degan savolga quidagicha javob berishga harakat qilamiz. Lider talaba o'zining ilmi, aql zakovati, harakatchanligi bilan ajralib turadi. Bunday talabalar o'z kelajaklarini ozlari mustaqil yarata olishadi. Yo'lidagi qiyinchiliklarni oqilona bartaraf etishga harakat qiladi. O'z jamoadoshlariga yordamlashadi.

Xozirgi kunda jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarini, shu jumladan ta'limni rivojlanishini "Media" (ya'ni: televidenie, radio, kinomatografiya, ommaviy nashrlar, kompyuter axborot tizimlari)siz tasavvur qilish qiyin. Axborot makonini globallashuvi va uning "ochiqligi" zaminida yangi bilimlar, faktlar, qarashlar, konsepsiyalarning oqimi shiddat bilan ortib bormoqda va ommaviy axborot kommunikatsiyalari orqali berilayotgan axborotlardan foydalanish muammosi paydo bo'lmoqda. Hozirgi kunda axborotlarning mazmunini ham, ularni ommaviy axborot tarmoqlari orqali tarqatish usullari va yo'llarini ham nazorat qilish amalda qiyin bo'lib bormoqda.

Axborotning bunday xilma-xilligi ta'sirida talaba yoshlarning mustaqil ravishda tafakkur qilishi muammosi, uning qarashlarini, qadryatlarini va ideallarini shakllanishi masalalari yoshlar ongida axborot olamini tartibga solish yo'llarini izlashni, axborot bilan muomala qilishning yangi usul va ko'nikmalari tizimini

ishlab chiqish va shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu esa yoshlarda o‘ziga xos xususiyatlarni shakllantirish va ular orqali turli yot axborot xurujlardan himoyalash muhimdir.

Talabalar orasida yetakchilikka intilish kuzatiladi.. Ular har sohada o’zlarini ko’rsatishadi. Guruhdoshlari bilan biron bir masalalarga yechim izlayotganlarida o’zlarining ajralib turuvchi yechimlari bilan o’rtaga chiqadilar. Lider talabaning bir qancha xususiyatlarini sanab o’tadigan bo’lsak ular quyidagilardir:

birinchidan, lider talabada jamoadoshlariga nisbatan bilimliroq, aqilliroq bilim ko’lami, dunyo qarashi keng bo’lishi kerak.

ikkinchidan, yetakchi talaba turli vaziyatlarda o’z jamoadoshlarini to’g’ri vaziyatga olib chiqa olishlari, qiyinchilikka duch kelgan jamoadoshiga yordam bera olishi kerak,

uchinchidan, jamoani boshqara olishi, democrat bo’lishi kerak. Shu va boshqa xususiyatlarga ega bo’lishlari kerak.

Har qanday aqilli, bilimli talaba lider bolavermaydi. Lider bo’lish uchun bu xususiyatlari o’zi yetarli bo’lmaydi.

Lider talabalarning muhim xususiyatlaridan yana biri, ularning nutqidir. Lider talabalar o’zlariga ishonch bilan nutq qiladilar. O’zlarining nutqlari bilan jamoadoshlarining orasida bir qarorga kelishlariga turtki bo’ladi. Ularning nutqida aniqlik, birnon bir masalaga yechim bo’ladi.

Afsuski, bugungi kunda axborot xavfsizligi shaxsiy va psixologik xavfsizlikka ham xavf solayotganini kuzatishimiz mumkin. I. A. Bayevning ta'rifiga ko'ra, "shaxsiy xavfsizlik" tushunchasi bu- shaxsning hayotiy manfaatlarini himoya qilish holati. Psixologik xavfsizlik- ta'lim muhitining holati, shaxsiy va ishonchli muloqotga bo'lgan ehtiyojni qondirishga hissa qo'shadigan o'zaro munosabatlardagi psixologik zo'ravonlikdan ozod bo‘lishi, atrof-muhitning ahamiyatini va ruhiy salomatlikni ta'minlashning namoyon bo'lishi, jumladan unga yuqoriday ishtirokchilarni yaratuvchi ham kiritilgan" [1, 172-bet].

Yurtimizda haqiqatdan ham internet nazorat qilinmaganligi sababli, har kim oddiy harakatlar va so'rovlar kombinatsiyasidan foydalangan holda har qanday ma'lumotni topishi mumkin. Bularning barchasi bizning axborot va psixologik xavfsizligimizga juda kuchli ta'sir qiladi. Natijada ko‘plab yoshlar jumladan talabalar ham ko‘p vaqtini ijtimoiy tarmoqlar bilan o‘tkazishmoqda. Bu birinchi navbatda mustaqil ta‘lim uchun ajratilishi kerak bo‘lgan vaqtni bexudaga sarflash, berilgan topshiriqlarni bajarishni sifatini tushishi, ya’ni shunchaki tezroq internetda biror qiziqarli film yoki rolik tomosha qilishga shoshilish oqibatida vazifalarni ko‘r- ko‘rona yakunlash, yoki o‘qituvchi maruzasini tinglash o‘rniga orqa o‘rindiqda internet tarmog‘iga bog‘lanib mashg‘ulotni o‘tkazib yuborishday salbiy oqibatlarni xam keltirib chiqarmoqda. Bundan tashqari ko‘plab talaba-yoshlar turli

notog‘ri propaganda ta’sirida, ta’qiqlangan saytlar,kanallar ko‘rish va kirish natijasi bilib- bilmay notog‘ri oqimlarga kirib qolish xolatlari ko‘p uchramoqda. Chet elda katta pul topishni, xorijda ish va o‘qishga olib kirib qo‘yishni va’da qilib ayni gulday o‘smir yoshida firibgarlar tuzog‘iga tushib qolayotgan yoshlar ham kam emas. Ular orasida lider yoshlar ham bor.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, lider talabalar har tomonlama yetuk bo’lishlari va o‘zlarini turli axborot xurujlaridan himoyalashlari kerak. Bu ularning eng muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Lider talaba qachonki o’z ustida ishlasa, o’z bilimlarini oshirib borsagina o’zi istagan darajada jamiyatda o’z o’rnini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baeva, I. A. Psixologicheskaя bezopasnost v obrazovanii / I. A. Baeva.

Psixologicheskaя bezopasnost v obrazovanii. Sankt-Peterburg: Soюz. 2002. 172c.

2. Bayluk V.V. Chelovekoznanie Samoobrazovatelnaя i samovospitatelnaя realizaцiя lichnosti kak zakonы uspexa. Ekaterinburg, 2012.

3. Saidjanov F.M. Axborot-psixologik xurujlarning ta’sir prinsiplari va ularga ilmiy yondashuv mexanizmlari. Journal of new century innovations - International scientific electronic journal.ISSN (p): 2181-3671 Volume–18_Issue-2_December_2022. 119-120

4. Internet ma’lumotlari.

AXBOROT XAVFSIZLIGI INSIDENTLARINI NAZORAT ETUVCHI VOSITALARNING TAHLILI

Xamzayeva Mavjuda Ne’matovna

TGFU assissent o’qituvchi

Axborot xavfsizligi tashkilotlarning axborotni himoya qilish uchun foydalanadigan vositalar va jarayonlarini qamrab oladi.Bunga ruxsatsiz shaxslarning biznes yoki shaxsiy ma’lumotlarga kirishiga to’sqinlik qiluvchi siyosiy sozlamalari kiradi.Axborot xavfsizligi maxfiy ma’lumotlarni ruxsatsiz harakatlaridan, jumladan, tekshirish, o’zgartirish, yozib olish va har qanday buzilish yoki yo’q qilishdan himoya qiladi.Maqsad – mijoz hisobi tafsilotlari, moliyaviy ma’lumotlar yoki intellectual mulk kabi muhim ma’lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligini ta’minlash hisoblanadi.

Xavfsizlik hodisalarining oqibatlari shaxsiy ma’lumotlarni o’g’irlash, ma’lumotlarni buzish va ma’lumotlarni o’chirishni o’z ichiga oladi. Hujumlar ish jarayonlarini buzish va kompaniya obro’siga putur yetkazishi, shuningdek, sezilarli miqdordagi xarajatlarga olib kelishi mumkin.

Tashkilotlarning xavfsizlik choralari uchun mablag' ajratishlari va ular zararli dasturlar, viruslar, zararli insayderlar va to'lov dasturlari kabi hujumlarni aniqlash, javob berish hamda faol ravishda oldini olishga tayyor bo'lishlarini ta'minlash kerak.

Axborot xavfsizligining asosiy qoidalari maxfiylik, yaxlitlik va mavjudlikdir. Axborot xavfsizligi dasturining har bir elementi ushbu tamoyillardan birini yoki bir nechtasini amalga oshirish uchun ishlab chiqilishi kerak.

Ijtimoiy tarmoqlarning ko'payishi o'smirlarning axborotga kirish va qayta ishlash usullarini o'zgartiradi. Biroq, bu raqamli landshaft ularni juda ko'p noto'g'ri ma'lumotlarga duchor qiladi, ular qabul qilishda ayniqsa zaif bo'lishi mumkin. O'smirlarning ijtimoiy tarmoqlarda noto'g'ri ma'lumotlarga moyil bo'lishiga yordam beradigan psixologik omillarni tushunish samarali ta'lim va profilaktika strategiyalarni ishlab chiqish uchun juda muhimdir. O'smirlarning ijtimoiy tarmoqlarda noto'g'ri ma'lumotni qabul qilishiga yordam beradigan psixologik omillarni bartaraf etish yanada chuqurroq va xabardor yoshlarni yaratish uchun muhimdir.

"Kiberxavfsizlik" va "axborot xavfsizligi" atamalaridan, tez-tez o'rinlari almashingan holatda, foydalaniladi. Ba'zilar kiberxavfsizlikni axborot xavfsizligi, axborot texnologiyalari xavfsizligi va (axborot) risklarni boshqarish tushunchalariga sinonim sifatida foydalanadilar. Ayrimlar esa, xususan, hukumat sohasidagilar kiberxavfsizlikka kompyuter jinoyatchiligi va muhim infratuzilmalar himoyasini o'z ichiga olgan milliy xavfsizlik bilan bog'liq bo'lgan texnik tushuncha sifatida qaraydilar. Turli soha xodimlari tomonidan o'z maqsadlariga moslashtirish holatlari mavjud bo'lsada, axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik tushunchalari orasida ba'zi muhim farqlar mavjud.

Axborot xavfsizligi sohasi axborotning ifodalanishidan qat'iy nazar - qog'oz ko'rinishidagi, electron va insonlar fikrlashida, og'zaki va visual aloqada intelektual huquqlarini himoyalash bilan shug'ullanadi.

Kiberxavfsizlik esa electron shakldagi axborotni (barcha holatlardagi, tarmoqdan to qurilmagacha bo'lgan, o'zaro birga ishlovchi tizimlarda saqlanayotgan, uzaytirilayotgan va ishlanayotgan axborotni) himoyalash bilan shug'ullanadi.

CERT-Computer emergency response team. Favqulotdvgi vaziyatlarda kompyuterli javob qaytarish guruhi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 2005-yil 5-sentabrda qabul qilingan "Milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarining kompyuter xavfsizligini ta'minlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash doirasida Kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda joriy yetish markazi (Uzinfocom) huzurida Kompyuter hodisalariga chora ko'rish xizmati (UZ-CERT) tashkil yetildi.

Bugungi kunda milliy axborot tizimlarimiz va internetdan foydalanuvchilar uchun yagona markaz bo'lgan ushbu xizmat tomonidan axborot to'plash, tahlil qilish, maslahat berish hamda texnik ko'maklashish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Milliy axborot tizimlari va internetdan foydalanuvchilar uchun yagona markaz bo‘lgan UZ-CERT tomonidan axborot to‘plash, tahlil qilish, maslahat berish hamda texnik ko‘maklashish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

UZ-CERT xizmati mutaxassislarining aytishicha, barcha tashkilot faoliyatini batafsil o‘rganish, muvofiqlashtirish kiber-tahdidlarga qarshi kurashga yordam bermoqda. Internet-firibgarlik yoki foydalanuvchilar maxfiy ma’lumotlaridan noqonuniy foydalanish eng keng tarqalgan ana shunday xavflardan hisoblanadi. Bunday qing‘ir maqsadlarga, odatda, servis ichida mashhur brendlar nomidan elektron xatlar va shaxsiy ma’lumotlarni ommaviy tarqatish orqali erishiladi.

Kiber-jinoyat butun dunyoda oddiy jinoyatlarga tenglashtirilmoqda, ularni sodir etgan shaxslar esa qonun bo‘yicha jazolanmoqda. Jinoyatga daxldorligi ekspertiza tomonidan aniqlanadigan kompyuter, axborot manbalari - disklar, fleshkalar, IP-manzillar, tarmoq uskunalari tegishli ayblarni qo‘yishda dalil bo‘lishi mumkin. UZ-CERT xizmati xodimlari kiber-jinoyatni tekshirishda jinoyat izini yashirish maqsadida yo‘q qilingan ma’lumotlarni qayta tiklaydi.

Mavjud resurlardan samarali foydalanish uchun va axborot tizimlari, Datamarkazda joylashgan mijoz veb-saytlarini va UZINFOCOM Markazi xizmatlari iste’molchilarini ximoyalanganlik darajasini oshirish maksadida, hamda zararli kompyuter insidentlariga tezkor javob ko‘rish va ularning oqibatlari va sabablarini bartaraf qilish maqsadida UZINFOCOM Markazida UZ-CERT (UZINFOCOM Markazining kompyuter insidentlariga tezkor javob qaytarish xizmati) nomi ostida texnik xavfsizlik bo‘limi xizmat ko‘rsatmoqda.

UZ-CERT xizmati Datamarkaz mijozlariga yuqori darajali xizmatlar ko‘rsatishga yo‘naltirilgan. Bundan tashqari so‘rov asosida korxonalar va tashkilotlarning axborot tizimlarini xavfsizligini ta’minlash va ro‘y beruvchi kompyuter xodisalarini bartaraf etish va oldini olishda ko‘maklashib kelmoqda. Shuni ta’kidlash lozimki UZ-CERT xizmati davlat nazorat organi emas va tekshirishlar natijalari tavsiya xarakteriga ega.

Bugungi kunda mavjud ko‘rsatiladigan xizmatlar ro‘yxatiga quyidagilar kiradi:

Axborot xavfsizligi ekspertizasini o‘tkazish;

Axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish;

Veb-saytni texnologik xavfsizligini tekshirish;

Fayllarni virusdan tekshirish;

Serverlardagi axborot xavfsizligi holati analizi xamda boshqalar.

UZ-CERT tashkiloti ko‘rsayatayotgan xizmatlari Tashkilot o‘z faoliyati doirasida konfidensial ma’lumotlar bilan ishlasa (xodimlar yoki mijozlar ma’lumotlari) AX ekspertizasini o‘tkazish o‘ta muximdir. Bu turdagi ma’lumotlarni tashqi kirishlardan himoyalash shunchaki extiyotkorlik emas, balki tashkilotning asosiy majburiyatlaridan biridir.

UZ-CERT mutaxassislari tomonidan o‘tkaziladigan AX ekspertizasi ma’lumotlar muhimligi darajasi, konfidensial axborotlarni saqlash obyektlarining tahlili va ularni saqlash obyektlariga kirish yo‘llarini aniqlashni, korporativ muhitda yechilayotgan masalalarni tekshirishni, operatsion tizim, tarmoq xizmatlari protokollari va himoya tizimlari analizini o‘z ichiga oladi.

O‘tkazilgan, tarmoq va tizim axborot xavfsizligini ekspertizasi asosida, UZ-CERT mutaxassislari, tashkilotning axborot resurslari himoyasini kerakli darajaga oshirish imkoniyatini beruvchi tavsiyalar beradilar.

KIBERMAKONDA BOLALAR SALBIY AXBOROTNING PSIXOLOGIK TA’SIRI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR VA UNI OLDINI OLISH ASPEKTLARI

***Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna*[1]**

***Botirova Zebo Xasanovna*[2]**

[1]*Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti, tulaganovadilnoza80@gmail.com*

[2] *Toshkent Stomatologiya Instituti 4-kurs talabasi, zebot1203@gmail.com*

Annoatatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi va internetning keng tarqalishi bilan birga, bolalar va o'smirlar uchun yangi imkoniyatlar ochildi. Internet bolalarga bilim olish, o'yin o'ynash, ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish kabi ko'plab qulayliklar yaratgan bo'lsa-da, bu jarayonning salbiy tomonlari ham mavjud. Ayniqsa, kibermakon, ya'ni onlayn muhitda bolalar salbiy axborotdan zarar ko'rishi mumkin. Bu axborotlar ko'pincha bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytirishi, xavotir, depressiya, va boshqa psixologik muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Kibermakonda tarqalgan noxush, zo'ravonlik, kamsitish yoki zararli axborotlarning bolalar psixologiyasiga ta'siri jiddiy masalalardan biridir. Kibermakonda bolalar salbiy axborotning psixologik ta'sirini yuzaga keltiruvchi omillar va uni oldini olish uchun qanday profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerakligi ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Kibermakonda bolalar, salbiy axborot, kiberbullizm, internet xavfsizligi, ijtimoiy tarmoqlar, psixologik yordam, onlayn xavflar, internetda xavfsiz muhit, salbiy content, internetda ta'qib qilish*

Kibermakonda bolalar salbiy axborotning psixologik ta'sirini yuzaga keltiruvchi omillar.

Bolaning rivojlanish bosqichlari uning psixologik ta'sirga qanday javob berishini belgilaydi. Bolalar va o'smirlarning psixologiyasi hali to'liq shakllanmagan, va ular o'zlarini boshqalar bilan taqqoslashga moyil, shuning uchun internetdagi salbiy axborotlar ularni psixologik jihatdan zaiflashtirishi mumkin. Ular internetdagi ta'sirlarni tez qabul qiladi va ularning o'zini baholash darajasi yuqori xavf ostida bo'lishi mumkin.

O'smirlar o'zlikni aniqlash davrida turib, ijtimoiy omillarga, xususan, internetdagi fikrlarga juda sezgir. Internetda ta'qib qilish, haqorat yoki kamsitish kabi holatlar ularning o'zini past baholashiga va o'ziga ishonchsizlikka olib kelishi mumkin.

Yosh bolalar esa psixologik jihatdan o'zlarini va atrof-muhitni tushunishda hali rivojlanmagan, bu esa ularni zararli onlayn kontentlarga nisbatan himoyasiz qiladi. **Internet va ijtimoiy tarmoqlarda salbiy axborotlarning mavjudligi**

Kibermakonda bolalar uchun mavjud bo'lgan turli xil salbiy axborotlar ko'plab psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ularning psixologik ta'sirini kuchaytiradigan asosiy omillar quyidagilardir:

Kiberbullizm: Internetda bo'ladigan haqoratli va tahqirlovchi xatti-harakatlar bolalarda o'zini yomon his qilish, depressiya va o'zlikni past baholash kabi psixologik ta'sirlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Zo'ravonlik va jinsiy materiallar: Internetda zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik va boshqa kamsituvchi kontentlarning mavjudligi bolalar ongida salbiy tasavvurlarni shakllantirishi va ularni travmatik holatlarga olib kelishi mumkin.

Reklama va manipulyatsiya: Bolalar ko'pincha onlayn reklamalarga duch keladi, bu reklamalarda bolalarning xohish-istaklari manipulyatsiya qilinadi. Bu esa iste'molchilik madaniyatini rivojlantirishga olib keladi va bolalarning psixologik holatiga salbiy ta'sir qiladi.

Ota-onalar va ijtimoiy muhit bolalar internetda qanday axborotlar bilan tanishishini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Ota-onalarning internet faoliyatiga bo'lgan befarqligi yoki nazoratsizlik bolalarni kiberbullizm va boshqa xavflarga duchor qilish ehtimolini oshiradi. Ota-onalarning salbiy axborotlar haqida bolalari bilan muloqot qilmasligi yoki internetni himoya qilish uchun zarur choralarni ko'rmaslik ularning psixologik zaiflashishiga olib kelishi mumkin.

Kibermakonda bolalar salbiy axborotning psixologik ta'sirini oldini olish uchun profilaktik chora-tadbirlar

Salbiy axborotlarning psixologik ta'sirini oldini olish va bolalarning onlayn xavfsizligini ta'minlash uchun bir qator profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Ushbu tadbirlar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi kerak:
Ota-onalar va oilaning roli

Ota-onalar bolalarning internetdagi faoliyatini muntazam ravishda kuzatib borishlari kerak. Bunga quyidagilar kiradi:

Ochilish va muloqot: Bolalarning internetdagi faoliyatini nazorat qilishda ota-onalar eng muhim rolni o'ynaydi. Ular bolalar bilan o'zaro ishonchli va ochiq suhbatlar o'tkazib, internet xavfsizligi, onlayn munosabatlar va axborotdan qanday foydalanish kerakligi haqida ularni ogohlantirishi lozim. Ota-onalar bolalarga kibermakonda qanday xavf-xatarlar mavjudligini tushuntirib berishlari kerak. Shuningdek, ular bolalarga onlayn stressni qanday engish, ziddiyatlarni qanday hal qilish haqida maslahatlar berishlari zarur. Ota-onalar bolalari bilan internetdagi xavflar haqida ochiq muloqot olib borishlari zarur. Ular kiberbullizm, salbiy axborotlar va onlayn xavfsizlik haqida suhbatlar o'tkazishlari kerak.

Nazorat qilish va cheklovlar: Internetda bolalar qanday saytlar va ijtimoiy tarmoqlarni ishlatayotganini nazorat qilish muhimdir. Ota-onalar yoshga mos xavfsizlik filtrlari va onlayn nazorat dasturlaridan foydalanishlari kerak.

Maktablar va ta'lim tizimining roli

Maktablar bolalarga internet xavfsizligi va kiberbullizmga qarshi kurashish bo'yicha maxsus darslar va treninglar o'tkazishlari zarur. Bu o'quvchilarni kibermakonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarga tayyorlaydi.

Kiberbullizmga qarshi tarbiya: Maktablarda o'quvchilarga kiberbullizmni tan olish va unga qarshi kurashish usullari o'rgatilishi kerak. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlaydi.

Psixologik yordam xizmatlari: Maktab psixologlari bolalarga onlayn faoliyatni boshqarish va onlayn stressni engish bo'yicha yordam ko'rsatishlari kerak. Bu, o'z navbatida, bolalar va o'smirlarning psixologik holatlarini yaxshilashga yordam beradi.

Internet provayderlari va ijtimoiy tarmoqlarning mas'uliyati

Internet provayderlari va ijtimoiy tarmoqlar bolalar uchun xavfsiz onlayn muhit yaratishda mas'uliyatni o'z zimmasiga olishlari kerak.

Yoshga mos kontentni filtrlash: Internet provayderlari va ijtimoiy tarmoqlar bolalar uchun yoshga mos bo'lmagan kontentni filtrlaydigan tizimlarni joriy qilishlari zarur.

Salbiy axborotlarga qarshi monitoring: Ijtimoiy tarmoqlar va internet platformalari foydalanuvchilarga zarar yetkazadigan xabarlarni, izohlarni va kontentlarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha ishlashlari kerak.

Psixologik maslahat va yordam

Bolalar internetda salbiy axborotlarga duchor bo'lganda, ularni psixologik yordam bilan ta'minlash zarur. Psixologik yordam bolalar va o'smirlarning o'z hissiyotlarini boshqarishda, stressni kamaytirishda va psixologik jarohatlarni davolashda yordam beradi.

Depressiya va xavotirni davolash: Psixologlar bolalarga depressiya va xavotirni engish bo'yicha yordam berishlari kerak. Ular onlayn muhitda yuzaga kelgan stressni boshqarishni o'rgatishlari lozim.

Ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlash: Psixologik maslahat xizmatlari bolalarni o'zlikni hurmat qilishga va o'zlarini xavfsiz his qilishga o'rgatishlari zarur.

Kibermakonda bolalar va o'smirlar uchun salbiy axborotlarning psixologik ta'siri bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning tez rivojlanishi bolalar va o'smirlarning onlayn muhitda doimiy ravishda bo'lishini ta'minlab, ular uchun yangi imkoniyatlar yaratgan bo'lsa-da, bu jarayonning salbiy oqibatlari ham mavjud. Salbiy axborotlar, kiberbullizm,

zo'ravonlik, kamsitish, jinsiy mazmundagi materiallar va manipulyatsiyalar bolalarning psixologik holatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Internetda yuzaga keladigan stress, o'zlikni past baholash, depressiya, xavotir va o'ziga ishonchsizlik bolalarning psixologiyasida jiddiy ta'sirlar keltirib chiqaradi.

Bolaning rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy muhit, ota-onalar nazorati, maktablarning tarbiyaviy roli, hamda internet platformalarining mas'uliyatini to'g'ri anglash bolalarning onlayn xavfsizligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Internetda bolalar bilan doimiy va ochiq muloqot olib borish, ular uchun xavfsiz muhit yaratish, salbiy axborotlardan himoya qilish, va psixologik yordam ko'rsatish zarurdir. Ayniqsa, kiberbullizm va onlayn zo'ravonlikka qarshi tarbiya va profilaktik chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, bolalarning internetdagi faoliyatini nazorat qilish, yoshga mos kontentni filtrlash, onlayn ta'sirlarni bartaraf etish va psixologik yordam xizmatlarini taqdim etish lozim. Maktablar va psixologlar bolalarga internet xavfsizligi va psixologik muammolarni engish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni o'rgatishlari kerak. Shu bilan birga, kibermakonda salbiy axborotlarning psixologik ta'sirini oldini olish faqat ota-onalar, maktablar yoki internet provayderlarining ishi emas, balki butun jamiyatning mas'uliyati ekanligini unutmaslik kerak. Barchaning hamkorligi bilan, bolalarning internetdagi xavfsizligi va ruhiy salomatligini ta'minlash mumkin bo'ladi. Ularning psixologik salomatligi jamiyatning kelajagi uchun juda muhimdir, shuning uchun bu masala jiddiy e'tibor talab etadi

Xulosa qilib aytganda, kibermakonda bolalar uchun salbiy axborotlarning psixologik ta'sirini kamaytirish va oldini olish uchun kompleks yondashuv kerak. Bu nafaqat bolalar va o'smirlarning ongini va ruhiy holatini himoya qilishga, balki ularning xavfsiz internet muhitida o'sishini ta'minlashga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Голубева, И. В., & Колесникова, Н. В. (2017).** *Психологические аспекты кибербуллинга в подростковой среде*. Журнал психологии, 22(3), 34-41.
2. **Ковалчук, Л. В. (2019).** *Кибербуллинг и эго влияние на психическое здорове подростков*. Психологический журнал, 40(2), 78-83.
3. **Смирнова, Н. А. (2015).** *Психологические риски киберпространства: влияние интернета на психическое состояние подростков*. Вестник психологии, 9(4), 101-106.
4. **Кириллова, А. В., & Чистякова, Т. Н. (2018).** *Проблемы кибербуллинга и интернет-зависимости среди молодежи*. Психология и педагогика, 29(6), 54-59.
5. **Чернявская, О. И., & Харитонов, Ю. И. (2016).** *Социалные сети как фактор психического здоровья подростков*. 7(2), 44-50.

KORXONALARNING INVENTARIZATSIYA TIZIMLARIDA FOYDALANILUVCHI KIBERXAVFSIZLIK VOSITALARINING AHAMIYATI

Isxoqov Akmaljon Xudoyberdiyevich
Axborot kommunikatsiya texnologiyalri
va aloqa harbiy instituti, professor.
Meliqo‘ziyev R.Sh., Otaqo‘ziyeva Z. M.,Meliqo‘ziev M.Sh
Toshkent gumanitar fanlar universiteti,
Toshkent amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada korxonalarning inventarizatsiya tizimlarida foydalaniluvchi kiberxavfsizlik vositalarining ahamiyati, ularning samaradorligi va amaliy qo‘llanilishi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, statistik ma’lumotlar, matematik modellar, blok sxemalar va jadvallar asosida kiberxavfsizlik choralarining inventarizatsiya tizimlariga ta’siri tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Kiberxavfsizlik, inventarizatsiya tizimi, identifikatsiya, autentifikatsiya, ikki faktorli autentifikatsiya, biometrik xavfsizlik, blokcheyn texnologiyalari, ma’lumotlarni shifrlash, AES-256, VPN, SSL/TLS protokollari, tarmoq xavfsizligi, kiberhujumlar tahlili, statistik xavfsizlik choralari, sun’iy intellekt, mashinani o‘rganish, kvant shifrlash, IoT xavfsizligi, tarmoq monitoringi, zararli dasturlar, kiberjinoyatchilik, hujum aniqlash tizimlari.*

1. Kirish

Zamonaviy korxonalar o‘z inventarizatsiya tizimlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanadi. Bu tizimlar mahsulotlar, asbob-uskunalar va materiallarning hisobini yuritishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, ushbu tizimlar kiberxavfsizlik tahdidlari oldida zaif bo‘lib, ma’lumotlarning o‘g‘irlanishi, ruxsatsiz kirish va zararli dasturlar tufayli jiddiy yo‘qotishlarga duch kelishi mumkin.

So‘nggi yillarda kompaniyalarga qaratilgan kiberhujumlar soni keskin oshgan. Xususan, 2023-yilda global miqyosda kiberjinoyatchilikdan ko‘rilgan zarar 9,1 milliard AQSh dollariga yetgan. Shu sababli, inventarizatsiya tizimlarida samarali kiberxavfsizlik choralarini qo‘llash zarur.

2. Inventarizatsiya tizimlarida kiberxavfsizlik vositalari

2.1. Identifikatsiya va autentifikatsiya

Inventarizatsiya tizimlariga ruxsatsiz kirishni oldini olish uchun quyidagi texnologiyalar qo‘llaniladi:

Ikki faktorli autentifikatsiya (2FA) – foydalanuvchilarning parol va qo‘shimcha tasdiqlovchi vositalar orqali tizimga kirishini ta’minlaydi.

Biometrik tekshiruvlar – barmoq izi, yuzni tanish va ovoz orqali autentifikatsiya qilish usullari tizimga kirishda ishonchlilikni oshiradi.

Blokcheyn texnologiyalari – ma’lumotlarni buzilmaydigan qilib saqlash va tarqatish imkoniyatini beradi.

Autentifikatsiyaning xavfsizlik darajasini matematik model asosida baholash uchun quyidagi formulani qo‘llash mumkin:

$$S = \sum_{i=1}^{n} w_i P_i$$

Bu yerda:

S — umumiy xavfsizlik indeksi;

P_i — i-komponentning tahdidlarga chidamlilik ehtimolligi ($0 \le P_i \le 1$);

w_i — har bir komponentning og‘irlik koeffitsiyenti ($0 \le w_i \le 1$),

va $\sum_{i=1}^{n} w_i = 1$;

n — autentifikatsiya tizimidagi xavfsizlik komponentlari soni.

Bu model autentifikatsiya tizimining umumiy xavfsizlik darajasini baholash uchun ishlatiladi. Har bir autentifikatsiya mexanizmining xavfsizlik darajasi uning ishonchliligi va tizimga qo‘shgan umumiy hissasiga qarab baholanadi.

2.2. Ma’lumotlarni shifrlash

AES-256 kabi zamonaviy shifrlash algoritmlaridan foydalanish inventarizatsiya tizimlarida ma’lumotlarni himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shifrlangan ma’lumotlar quyidagi formula asosida yaratiladi:

$$C = E_K(P)$$

Bu yerda:

C — shifrlangan matn (Ciphertext);

P — ochiq matn (Plaintext);

E_K — shifrlash funksiyasi (Encryption function), bu yerda KKK kalit sifatida ishlatiladi;

K — 256-bitli shifrlash kaliti.

Shuningdek, ma’lumotlarni himoya qilish uchun VPN (Virtual Private Network), SSL/TLS protokollari kabi texnologiyalar keng qo‘llaniladi.

3. STATISTIK MA’LUMOTLAR VA TAHLIL

Ma’lumotlarga ko‘ra, yildan-yilga kiberhujumlar soni ortib bormoqda, bu esa inventarizatsiya tizimlarida kiberxavfsizlik choralari jiddiy qo‘llanilishini talab qiladi(1-jadval).

1-jadval.

2020 yildan 2023 yilgacha bo’lgan kiberhujumlar statistik tahlili

Yil	Kiberhujumlar soni (ming)	Yo‘qotishlar (mlrd $)	Shifrlash tizimlari qo‘llangan korxonalar (%)
2020	850	4.2	45%
2021	1020	5.8	52%
2022	1250	7.3	61%
2023	1430	9.1	70%

Quyida inventarizatsiya tizimlarida kiberxavfsizlik vositalarining ishlash sxemasi keltirilgan:

Start → Ma’lumotni qabul qilish → Identifikatsiya va autentifikatsiya → Shifrlash → Xavfsizlik monitoringi → Hujum aniqlansa: (1) Zararsizlantirish, (2) Xatolikni qayd etish → Tizimga kirish ruxsat beriladi → Stop.

4. Kelajakda rivojlantirish yo‘nalishlari

Kiberxavfsizlikni yanada mustahkamlash uchun quyidagi yo‘nalishlar dolzarb hisoblanadi:

Sun’iy intellekt va mashinani o‘rganish – tahdidlarni oldindan aniqlash va real vaqtda javob berish imkoniyatini beradi.

Kvant shifrlash texnologiyalari – ma’lumotlarni buzilmaydigan darajada shifrlash imkonini beradi.

IoT qurilmalarining xavfsizligini oshirish – inventarizatsiya tizimlariga ulanadigan IoT sensorlarini himoya qilish uchun yangi protokollar joriy etish zarur.

5. Xulosa

Kiberxavfsizlik vositalarining inventarizatsiya tizimlarida qo‘llanilishi korxonalarning axborot resurslarini himoya qilishga, yo‘qotishlarni kamaytirishga va samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Statistika va matematik modellarga ko‘ra, kuchli autentifikatsiya, shifrlash va tarmoq monitoringi tizimlari orqali kiberxavfsizlikni ta’minlash mumkin. Kelajakda sun’iy intellekt asosida tahdidlarni aniqlash tizimlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Stallings, W. (2017). Cryptography and Network Security: Principles and Practice (7th ed.). Pearson.
2. Schneier, B. (2015). Applied Cryptography: Protocols, Algorithms, and Source Code in C (2nd ed.). Wiley.
3. Kaspersky Lab. (2023). Cybersecurity Trends and Threat Analysis Report. Retrieved from www.kaspersky.com
4. Anderson, R. (2020). Security Engineering: A Guide to Building Dependable Distributed Systems (3rd ed.). Wiley.

KIBYERMAKONDA SALBIY AXBOROT XURIJLARIDAN HIMOYALANISHDA PSIXOLOGIK TAFAKURNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Mansurov Sanjar Magrufovich

Toshkent gumanitar fanlar universiteti, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

Yakubov Javlon Nigmatovich

Toshkent gumanitar fanlar universiteti, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

Butun dunyoda raqamli texnologiyalar hamda Internetning jadal sur’atlar bilan rivojlanishi, suniy intelektning paydo bo‘lishi, shuningdek, bugungi kunda xakerlik xujumlari, shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash, turli xil firibgarliklar, kiberqo‘rqitish, spam, ziyon keltiruvchi dasturlar, virus tovlamachilar – bularning barchasi insonning jamiyatdagi xavfsizligiga taxdid solmoqda. Shu sababdan bugungi kunda kibermakonda barcha insonlarni, ayniqsa yoshlarni salbiy axborot xurjlaridan saqlash, ularda psixologik tanqidiy fikrlash tafakkurni shaklantirish zaruriyati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning yetakchi olimlarini e’tirof etishlaricha, bugungi kunda sayyoramiz yagona global axborot makoniga aylanib qolgan: Dunyoning istalgan yerda yuz berayotgan har bir narsadan hamma xabardor va bunda asosiy rolni qudratli ommaviy axborot vositalari, axborot-aloqa texnologiyalari va ularga egalik qiluvchi davlatlar o‘ynagan va o‘ynamoqda. Shundan foydalanib, ular o‘z qadriyatlari, turmush tarzini bizning mamlakatimizda joriy etishga zo‘r berib urinishayapti. Tabiiyki, o‘ziga xos qadimiy va boy milliy madaniyat, urf-odat va an’analar sohibi bo‘lgan, lekin yuqorida aytilgan imkoniyatlar bobida hozircha qo‘llari kaltalik qilayotgan va umuman, o‘z turmush tarzini boshqalarga tiqishtirish niyatidan yiroq, milliy-ma’naviy erkin hayotni ko‘zlagan xalqlar bundan jiddiy havotirga tushmoqdalar. Shu bois ular jamiyati, davlati, har bir fuqarosini bunday xurujlardan himoya qilishni o‘z burchlari deb bilishadi.

Bu borada mamlakatimizda ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jabhada xalqaro maydonda shiddat bilan davom etayotgan axboriy kurashning murakkab xususiyatlari va ularga qarshi turishning muhim vazifalari, usul va uslublari, yo‘llari ishlab chiqilmoqda, darslik va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlanib, aholi o‘rtasida turli xil tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

G‘arb mamlakatlari mafkurasi bo‘lmish kosmopolitizm kundan kunga kuchayib, yer shari bo‘yicha tarqalib bormoqda. Bunday sharoitda uzoq asrlar tarixidan kelib chiqadigan betakror madaniyatga ega bo‘lgan Sharq mamlakatlari, jumladan, O’zbekiston ham noyob o‘zligini saqlashga harakat qilishi tabiiy. Insoniyatning XXI asrga qadam qo‘yishi axborot ko‘lami va sifati misli ko‘rilmagan darajada o‘sishi bilan ajralib turadi. Benihoya katta hajmdagi ma’lumotlar ummonlar va qit’alar osha shiddatli sur’atlarda, lekin kishi sezmas darajada jimgina, ommaviy axborot vositalarining shunchaki odatiy ishi sifatida u yoqdan bu yoqqa yetkazib turilibdi.

Ommaviy axborot amalda o‘z mazmunidan ajralib, ko‘proq shaklan tazyiq o‘tkazuvchi omilga aylanib qoldi. Hayotning nihoyatda jadal sur’atlari, ommaviy axborot vositalari xabar qiladigan voqealarni o‘rganishga vaqtning yo‘qligi, ba’zida esa ularni tahlil etish malakasi yetishmasligi shunga olib keldiki, keng auditoriya materiallarni axborot kanallari qay tarzda taqdim etsa, shu holicha qabul

qilayotir – mazmun-mohiyati haqida ko‘p ham o‘ylab o‘tirilmaydi. Afsuski, bugungi kunda xalqaro munosabatlarda qaror topgan bu amaliyot ko‘p bo‘g‘inli, lekin har doim ham ijobiy bo‘lmagan oqibatlarga olib kelmoqda. Bunday xatti-harakatlar ko‘p hollarda mamlakatimiz aholisi xavfsizligiga, uning dunyoqarashini vatanparvarlik, o‘z xalqi va ona zaminiga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga tahdid soloqda. Ma’naviyatga qaratilgan har qanday tahdid o‘z-o‘zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog‘lom avlod kelajagini ta’minlash yo‘lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin. Tajovuzkorona harakatlar bizlar uchun mutlaqo begona mafkura va dunyoqarashni avvalo beg‘ubor yoshlarimizning qalbi va ongiga singdirishga qaratilgani bilan ayniqsa xatarlidir. Mazkur masala “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonunining 11, 12, 13, 14 va 15-moddalarida ham o‘z aksini topgan.[8]

Binobarin, o‘ziga xos, ajoyib madaniyatga ega mamlakatlar o‘z aholisini bunday axborot bosqinchiligidan avaylab-asrashni o‘rganmas ekanlar, bir necha o‘n yillar o‘tib sayyoramiz madaniy ekologiyasiga o‘nglab bo‘lmas darajada zarar yetkaziladi.

Shu boisdan axborot xavfsizligi dunyoning asosiy qismi uchun g‘oyat dolzarb bo‘lib qoldi. Aslida shunday tushunchaning o‘zi mavjudmi, degan masala ustida cheksiz talashib-tortishish mumkin, muxoliflarimiz ayni shunday ham qilmoqdalar. Ular uchun “axborot xavfsizligi” muammosi yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas, chunki boshqa davlatlar hududida axborotni aynan ularning o‘zlari tarqatishadi-da. O’zbekistonliklar uchun (va faqat biz uchungina emas) bu – voqelik, zero, o‘zga davlatlarning bizning hududimizdagi axborot faolligi kundalik haqiqatga aylandiki, buning oqibatlari to‘g‘risida bosh qotirmaslik mumkin bo‘lmay qoldi. Xullas, axborot-aloqa texnologiyalarining mislsiz taraqqiyot yo‘nalishi shuni ko‘rsatmoqdaki, turli-tuman axborotlar oqimini bugunning o‘zidayoq biror chora bilan to‘sishning imkoni bo‘lmay qoldi. U har qanday yopiq sanalgan jamiyatda (bu ham o‘ta nisbiy tushuncha) o‘z auditoriyasini topib boradi. Yaqin tariximizda ko‘rganimizdek va hozir ham dunyoning ayrim go‘shalarida guvohi bo‘layotganimizdek, hech qanday panjara, devor, temirdan bo‘ladimi yoki temir-betondan yoxud mafkuraviy materialdan, unga g‘ov bo‘la olmaydi. Shunday ekan, axborot vositasida uyushtiriladigan psixologik xurujga qarshi turish bobida, jamiyat, davlat va har qaysi shaxs tegishli chora-tadbirlarni ko‘rmog‘i lozim. Lekin buning eng maqbul va samarali yo‘li, birinchi navbatda, – o‘z axborot makonimizni o‘zimiz to‘ldirishimiz, ya’ni hayotimiz, unda yuz berishi tabiiy bo‘lgan voqea-hodisalar, tug‘iladigan muammolar haqida, garchi ular ba’zida

[8]“Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonuni 12.12.2002-y. № 439–P

yoqimsizdek tuyulsa-da, vatandoshlarimizga, jahon ommasiga o‘z vaqtida, hozirjavoblik bilan o‘zimiz xabar berishimiz to‘g‘ri bo‘ladi. Bu bilan o‘zimiz haqimizdagi va ayni bizga qarshi qaratilgan, turli bo‘htonu tuhmatlarni, g‘arazli maqsadlarni ma’lum darajada oldini olgan bo‘lamiz. Chunki asl manbadan va ayni vaqtida uzatilgan ma’lumot turganida, boshqalarning uydirmalari o‘z-o‘zidan qadrini yo‘qotadi, e’tibordan chetda qoladi.

Milliy mustaqillik g‘oyasi, ma’naviy erkinlik imkoniyati, mamlakatimiz fuqarolari o‘z madaniy urf-odatlari va an’analari boyligini to‘laqonli his etishlari bevosita axborot xavfsizligi masalasi bilan bog‘liqdir. Shuning uchun ham uzluksiz ta’lim tizimida, mahallalarda doimiy ravishda “Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik”, “Kiberxavfsizlik”**,** Kiberjinoyat nima? “Kiberterrorizm”, “Kiber terrorizmga qarshi kurash” kabi mavzularda turli darajada tadbirlar tashkil etish, ota-onalar bilan tushuntirish ishlari olib borish, orqali – mamlakatimiz yoshlarining ilg‘or qismi bo‘lgan o‘quvchi va talabalarning milliy ongi va dunyoqarashi yaxlitligini asrab qolishga erishishimiz mumkin. Bu o‘z navbatida aholi va yoshlarni salbiy axborot xurjlaridan saqlash, ularda psixologik tanqidiy fikrlash tafakkurni shaklantirishga xizmat qiladi. Sog‘lom tanqidiy fiklash tafakuri shakllangan fuqaro har qanday vaziyatda ham salbiy axborot xurujlaridan saqlanish immunitetiga ega bo‘ladi.

BOSHQARUV JARAYONIDA RAHBARLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TENDENSIYALARI

Alimova Feruza Najimovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti “Psixologiya” kafedrasi katta o’qituvchisi

alimovaferuza1010@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada boshqaruv va boshqaruv jarayonini qanday olib borilishi hamda rahbarlik faoliyatini rivojlantirish uchun amaliy takliflar va tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *Boshqaruv, rahbarlik, natija, ijtimoiy faoliyat, ma`suliyat, “yumshoq” va “qattiq” malakalar.*

Boshqaruv jarayoni - tashkilot resurslarini u tomonidan o'zining maqsadlariga erishish uchun shakllantirish va ulardan foydalanish bo'yicha uzluksiz o'zaro bog'liq harakatlarning majmuasi. Ta'kidlangan jarayonni, ya'ni uzluksiz o'zaro bog'liq harakatlar majmuini maqsadlarga erishish uchun har tomonlama to'g'ri yo'naltirish, eng avvalo rahbar zimmasiga yuklanadi. Shuning uchun rahbar shaxs doimo rivojlanish uchun harakatda bo'lishi va faoliyatining ijobiy izchilligini ta'minlay olishi zarur.

Boshqaruv jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi:

- ma'lumotlar bazasini tayyorlash;
- prognozlashtirish;
- faoliyatni to'g'ri tashkil etish;

- xodimlarni halol va samarali mehnatga da'vat etish;
- mehnatlarini nazorat qilish;
- boshqaruv jarayonini to'g'ri tashkil etish;
- maqbul qarorlar qabul qilish.

Boshqaruvning qaysi bo'g'inida bo'lishidan qat'iy nazar, rahbar o'z faoliyati natijalari va o'zi rahbarlik qilayotgan bo'linma faoliyatiga javobgardir. "Rahbar mas'uliyati" tushunchasi mansabdor shaxslarning boshqaruv faoliyatiga baho berishda, ularning o'ziga topshirilgan ishga munosabatini tavsiflashda keng qo'llaniladigandi. Boshqaruv mansabdor shaxs anglab yetgan va qabul qilgan barcha vazifalarni sifatli bajarish zaruriyatini ifodalaydi. Darhaqiqat, har bir rahbarda birinchi navbatda shaxsiy javobgarlik va mas'uliyat tushunchalari shakllangan bo'lishi kerak.

Rahbar mas'uliyati - rahbar madaniyatining asosiy belgilaridan biri bo'lib, uning ma'lum sohaga javobgarligini aks ettiradi hamda alohida shaxs, xodim mas'uliyatidan farq qilib, ko'lami kengligi, salmog'i bilan ajralib turadi. Shu bois, rahbar mas'uliyati hamisha muhim sanalgan. Mas'uliyat, avvalo, har bir kishining vijdoni, iymoni, qolaversa, o'zgalar oldidagi, jamoa, jamiyat, Vatan, millat oldidagi burchini teran anglashdir. Umuman, mas'uliyat rahbarning zimmasidagi vazifasiga nisbatan javobgarlik tuyg'usidir.

Zamonaviy rahbar to'g'risidagi ilmiy qarashlar va kuzatishlar rahbarda o'z sohasidagi professionalizmga qo'shimcha ravishda unda shunday shaxsiy sifatlar bo'lishi lozimligini ta'kidlaydiki, bu jihatlar hozirgi vaqtda "hard skills" (qattiq malakalar) va "soft skills" (yumshoq malakalar) terminlari bilan ataladi.

Qattiq malakalar - har qanday faoliyat turi uchun zarur bo'lgan professional bilimlarni qo'llay olish, biznes tahlili, strategik va moliyaviy strategiya malakalari bo'lib, bu faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarurdir.

Yumshoq malakalar esa kreativlik, stressga chidamlilik, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, liderlik sifatlari, kommunikativlik, o'z ishini tashkil qila olish, nizolarni bartaraf etish usullarini bilish kabi sifatlardir; bularni egallaganlik haqida sertifikat yoki normativlar mavjud emas, deb aytish mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, samarali rahbarlikni tashkil etishda malakalarning ikkala turi ham muhim bo'lib, birortasidagi yetishmovchilik rahbarlik samaradorligini keskin tushirishi mumkin.

Qattiq malakalar bevosita shu faoliyat sohasi haqidagi bilimlar bo'lib, har qanday muammoni prognoz qila olish, uning strategiyasini tushunish, sohaning barcha, hattoki eng mayda detallaridan xabardorlikni anglatadi. Bu malakalari yaxshi shakllangan rahbarlar jamoada o'z sohasi bo'yicha eng yaxshi mutaxassis ham bo'la oladilar. Bu malakalarning yetishmasligi esa korxona yoki muassasaning

faoliyatida pala-partishlik, strategik xatolar tufayli sifatning pasayishi, rejalarning amalga oshishi uzoq vaqt orqaga surilishi kabi oqibatlarga olib keladi.

Yumshoq malakalar esa bir qarashda juda muhim ko'rinmasligi ham mumkin, lekin ularning zaifligi faoliyat qanday yuqori darajada tashkil etilmasin, rahbarning shaxsiy sifatlari yetarli bo'lmaganligi oqibatida butun kartinani o'zgartirishi mumkin. Chunki rahbar eng muhim masalalar bo'yicha oxirgi qarorlarni qabul qilishi, jamoani komandaga aylantirishi va nizolarni hal etishi lozim.

Bu malakalarni rivojlantirish uchun esa rahbarlarga quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

- imkon qadar o'z emotsional intellektini rivojlantirish haqida qayg'urish (turli psixologik treninglar va adabiyotlar, odamlarni va o'z hissiyotlarini kuzatish);
- stressga chidamlilik darajasini oshirishga harakat qilish (psixologik mashqlar, kun tartibi va hayot tarzini sog'lomlashtirish);
- muloqot sifatlarini oshirishga harakat qilish (muloqotni tahlil qilish, ijodiy faoliyat turlari bilan shug'ullanish, mantiqiy fikrlashni o'stirish).

Bu ikki malaka turi yuqori rivojlangan rahbarni 21-asrning globalizatsiya va raqamlashtirish sharoitida o'zi boshqarayotgan sohada yuqori cho'qqilarga da'vo qilish imkoniyatini beradi. Albatta, har bir rahbar o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lishi zarurini hech kim inkor etmaydi, lekin shaxs sifatlari bilan bog'liq yumshoq malakalar kelajakni belgilashi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mahmudov. Boshqaruv professionalizimi: psixologik tahlil. // - Toshkent: "Akademiya" nashriyoti, 2011.

2.N.Boymurodov. Rahbar psixologiyasi. Toshkent, -"Yangi asr avlod" 2016

3.Karimova V.M,Hayitov O.E,Djalilova S.M.Boshqaruv psixologiyasi 2008

4.Mahmudov I .Boshqaruv psixologiyasi 2006

5. Artyuxova, T. Yu. Ta’lim muhiti shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirish sharti sifatida: O‘smirlar va yigitlarning bag‘rikengligi/ //Ta’lim psixologiyasi. 2008. №6. B. 4–13.

OLIY TA’LIMDA BOSHQARUV JARAYONLARIDA RAHBARLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH.

Mirsidikova Aziza Mirvohidovna., Raupova Obida Muhammad qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti

azizamirsidiqova1987@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada boshqaruv va boshqaruv jarayonini qanday olib borilishi hamda raxbarlik faoliyatini rivojlantirish uchun amaliy takliflar va tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *Boshqaruv, rahbarlik, natija, ijtimoiy faoliyat, ma`suliyat.*

Annotation: *The article provides practical suggestions and recommendations on how to conduct management and management processes, as well as how to develop leadership activities.*

Keywords: *Management, leadership, results, social activities, responsibility.*

Boshqaruv jarayoni - tashkilot resurslarini u tomonidan o'zining maqsadlariga erishish uchun shakllantirish va ulardan foydalanish bo'yicha uzluksiz o'zaro bog'liq harakatlarning majmuasi.Ta'kidlangan jarayonni ya'ni uzluksiz o'zaro bog'liq harakatlar majmuini maqsadlarga erishish uchun har tomonlama to'g'ri yo'naltirish eng avallo rahbar zimmasiga yuklanadi. Shuning uchun rahbar shaxs doimo rivojlanish uchun harakatda bo'lishi va faoliyatining ijobiy izchilligini ta'minlay olishi zarur.

Boshqaruv jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi:

- ma'lumotlar bazasini tayyorlash;
- prognozlashtirish;
- faoliyatni to'g'ri tashkil etish;
- xodimlarni halol va samarali mehnatga da'vat etish;
- mehnatlarini nazorat qilish;
- boshqaruv jarayonini to'g'ri tashkil etish;
- maqbul qarorlar qabul qilish.

Boshqaruvning qaysi bo'g'inida bo'lishidan qat'iy nazar, rahbar o'z faoliyati natijalari va o'zi rahbarlik qilayotgan bo'linma faoliyatiga javobgardir. "Rahbar mas'uliyati" tushunchasi mansabdor shaxslarning boshqaruv faoliyatiga baho berishda, ularning o'ziga topshirilgan ishga munosabatini tavsiflashda keng qo'llaniladigandi. Boshqaruv mansabdor shaxs anglab yetgan va qabul qil gan barcha vazifalarni sifatli bajarish zaruriyatini ifodalaydi. Darhaqiqat, har bir rahbarda birinchi navbatda shaxsiy javobgarlik va mas'uliyat tushunchalari shakllangan bo'lishi kerak. Chunki unga berilgan mansab yoki unvonning o'zi avallo ishonch va ikki barobar mas'uliyatdir. Bildirilgan ishonchni oqlash uchun xizmat vazifasiga mas'liyat bilan yondashish tashkilot yutug'ining yarmiga tengdir. Shunday ekan boshqaruv jarayoni va rahbarlar faoliyatida "Rahbar mas'uliyati" eng muhim tushunchalardan biridir.

"Rahbarlik" so'zi forschadan "yo'lboshchilik" ma'nosini bildiradi, rahbarlik tashkilot rasman mavjud joyda qaror topadi, liderlik esa psixologik munosabatlar jarayonida vujudga keladi. Rahbarning faoliyati huquqiy me'yorlar bilan ta'minlanadi. Ikki yoki undan ortiq shaxslarning muayyan maqsad yo'lida birlashuviyoki birlashtirilishi guruhni tashkil etadi.

Rahbarning vazifasi rejalashtirish, ishni tashkillashtirish va vazifalarni bo'lib berishdan iborat. Undan tashqari rahbar:

• rahbar rejalarni amalga oshirish jarayonini boshqaradi;

• rahbarga bo'ysunuvchi hodimlar bor;

• rahbarning e'tibori tizim va tashkillashtirishda bo'ladi;
• rahbar boshqaruv jarayonini tashkil qiladi, nazorat qiladi.

Rahbar mas'uliyati - rahbar madaniyatining asosiy belgilaridan biri bo'lib, uning ma'lum sohaga javobgarligini aks ettiradi hamda alohida shaxs, xodim mas'uliyatidan farq qilib, ko'lami kengligi, salmog'i bilan ajralib turadi. Shu bois, rahbar mas'uliyati hamisha muhim sanalgan. Mas'uliyat, avvalo, har bir kishining vijdoni, iymoni, qolaversa, o'zgalar oldidagi, jamoa, jamiyat, Vatan, millat oldidagi burchini teran anglashdir. Umuman, mas'uliyat rahbarning zimmasidagi vazifasiga nisbatan javobgarlik tuyg'usidir.

Mas'uliyatli rahbar, eng avvalo, o'ziga, so'ngra boshqalarga nisbatan talabchan bo'ladi. Rahbarlarning ishchanlik va ma’naviy-madaniy xislatlarini baholash amaliyoti shuni ko’rsatadiki, bunda birinchi o’rinda e’tiqodlilik, topshirilgan ish uchun shaxsan javobgarlikni his qilish, hololik, vijdonlilik, kishilarga nisbatan mehribonlik va e’tibor bilan munosabatda bo’lish turadi. Asoslangan qarorlarni mustaqil va tez qabul qilish qobiliyati, shaxsan intizomli bo’lish, mehnatsevarlik, tashkilotchilik qobiliyati, jamoada intizomni yo’lga qo’yishi va saqlay bilish qobiliyati juda yuksak baholanadi.

Rahbarlik uslubi boshqarish metodlari bilan muayyan o’zaro aloqada bo’ladi.Boshqarish metodi ham boshqarish faolitini amalga oshirish usullari va yo’llari majmuasidan, boshqarish tizimiga samarali, maqsadga muvofiq ta’sir ko’rsatishidan, ya’ni boshqarish funktsiyalarini amalga oshirish mexanizmidan iboratdir.Lekin shuni e’tiborga olish lozimki, metod bu tamomila ob’ektiv rahbarga bog’liq bo’lmagan mustaqil tushunchadir. Uslub garchi u ham ta’sir o’tkazish usullari majmuasidan iborat bo’lsada, metoddan farq qiladi, u yoki bu rahbarning sub’ektiv, individual xususiyatlari bilan belgilanadi.Qiyoslash uchun shuni aytish mumkinki, musiqa notasi hamma uchun bir xil bo’lsa-da, lekin musiqachilarning ijro etish uslublari har xildir.

Buni quyidagi misollarda ko’rishimiz mumkin. Barcha rahbarlar xodimlarni rag’batlantirish maqsadida boshqarishning iqtisodiy metodidan foydalanishlari kerak. Lekin ba’zi rahbarlar individual rag’batlantirishga, boshqa bir rahbarlar esa jamoani rag’batlantirishga ko’proq mablag’ ajratishga harakat qiladilar. Ba’zi rahbarlar chorak natijalarga, ikkinchi bir rahbarlar esa yillik ish natijalariga qarab mukofotlashni afzal ko’radilar. Buyruqlar va farmoyishlar chiqarish kabi boshqarishning tashkiliy ma’muriy metodlaridan ham rahbarlar turlicha foydalanadilar. Bular bo’lmasa ham 7 buyruq chiqarish va aksincha boshqarish funktsiyalarini buyruqsiz ham muvaffaqiyatli bajarish mumkin. Buyruq chiqarib, uning bajarilishi ustidan aniq va amaliy nazorat o’rnatish ham mumkin.

Xulosa qilib aytganda raxbarning boshqaruv jarayonlarida raxbarning qobiliyatini rivojlantirish uchun raxbarning faoliyatiga bog`liq bo`lib ish

jarayonida raxbarning ma`naviy- madaniy xislatlari rivojlanib, takomillashib boradi. Raxbaroz xodimlarini to`gri boshqara olsagina jamoada xamfikrlik bo'ladi. Raxbar o'z jamoasini birlashtirib bir maqsad yo'lida birlashtira olishi kerak.

Rahbarlik uslublari: Har bir rahbar o'z uslubini rivojlantirishi zarur. Uslubning turlicha bo'lishi, xodimlarning motivatsiyasini va ishlash samaradorligini oshiradi. Masalan, demokratiya, avtoritarizm yoki transformatsion rahbarlik uslublari muayyan vaziyatlarda samarali bo'lishi mumkin.

O'zgarishlarga moslashuvchanlik: Bugungi kunda tez o'zgaruvchan muhitda rahbarlar o'zgarishlarga tez moslashish qobiliyatini rivojlantirishlari kerak. Bu, strategik fikrlash va innovatsion yondashuvlarni talab qiladi.

Muloqot va maslahat berish: Samimiy va ochiq muloqot rahbarning xodimlari bilan munosabatlarini mustahkamlaydi. Xodimlarning fikrlarini eshitish va ularga maslahat berish, rahbarlik qobiliyatini oshiradi.

O'z-o'zini rivojlantirish: Har bir rahbar o'zini doimiy ravishda rivojlantirishga intilishi lozim. Bu, yangi bilimlar olish, tajriba almashish va professional o'sishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mahmudov. Boshqaruv professionalizimi: psixologik tahlil. // - Toshkent: "Akademiya" nashriyoti, 2011.

2. A.Xolov. Boshqaruv qarorlari ijrosini ta'minlashda rahbar mas'uliyati. // - Toshkent: "Akademiya", 2014

3. N.Boymurodov. Rahbar psixologiyasi. - Toshkent, -"Yangi asr avlod" 2016

5. Karimova V.M,Hayitov O.E,Djalilova S.M.Boshqaruv psixologiyasi 2008

6. Mahmudov I .Boshqaruv psixologiyasi 2006

7. Artyuxova, T. Yu. Ta'lim muhiti shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirish sharti sifatida: O'smirlar va yigitlarning bag'rikengligi. Ta'lim psixologiyasi. – 2008. – №6. – B. 4–13. – Bibliografiya: B. 12–13 (23 ta nom).

VIRTUAL O'YINLARNING YOSHLARNING ONGIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI

Tillayeva Nodira Iskandar qizi
TAFU Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada hozirgi kunda hayotimizga kirib kelgan va jamiyatimizning barchga qatlamlari orasida keng tarqalayotgan virtuallashuvning bizning yashash tarzimizga ta'siri va uning salbiy jihatlari haqida so'z yuritiladi. Shu bilan bir qatorda quyidagi maqola virtual olam o'zi nima? U bizning hayotimizga qanday kirib keladi? yoshlar rivojlanishiga ta'siri qanday? kabi savollarning javobini topishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *internet, ijtimioy tarmoqlar, kasallik, tobelik, borliq, elekton o'yinlar, ommaviy madaniyat, strategiya , auksion.*

Аннотация: *В стате рассказывается о влиянии виртуализации на наш образ жизни и эе негативных аспектах, которые в настоящее время проникают в нашу жизн и широко распространяются среди вцех слоев общества. Алтернативная статя ниже что такое виртуалный мир? Как он входит в нашу жизн? какое влияние это оказывает на развитие молодежи? это поможет вам найти ответы на такие вопросы, как*

Ключевые слова: *интернет, социалные сети, болезн, зависимост, существование, электронные игры, популярная култура, стратегия , аукцион.*

Internet-bu hozirgi kunda davr talabidir. Uning hayotimizning bir bo‘lagiga aylangani bizga sir emas. Bizga internetning qulaylik taraflari ko‘p bo’lishiga qaramay salbiy jihatlari ham mavjud. Uzog‘imizni bizga yaqin qilish bilan birga o‘zimiz uchun kerakli barcha ma’lumotlarni osongina topa olish imkonitini beradi. Internetdan qanday foydalanish esa o‘zimizning qo‘limizda. Hozirgi kunda internetdan turli maqsadlarda foydalanishmoqda. Internetdagi vertual video o‘yinlar yoshlarga o‘z ta’sirini o‘tkaziah bilan bir qatorda, ularning ma’naviy ongiga va ruhiyatiga putur yetkazyapdi. Bu vertual o‘yinlarni Amerika tibbiyot uyushmasi video o‘yinlarga berilib ketishni rasman aqliy zaiflik kasalliklari qatoriga kiritish niyatida. Shifokorlarning fikricha, bu kasallik kuniga ikki-uch soatdan ortiq o‘yin o‘ynaydigan har qanday kishi salomatligiga xavf soladi. Bu internetdan ko‘ngil xushlik izlaydiganlarga ham tegishli.

Kompyuter o‘yinlarining keragidan ortiq mashhur bo‘lib, ommalashib ketgani va yoshlarga salbiy ta’siri tibbiyotchilarni ko‘pdan beri tashvishga solib kelayotgan muammolardan biridir. Bir taqqoslab ko’raylik, internet mavjud bo’lmagan davrda axborotlarni dunyo bo’ylab uzatishning eng tez usuli bu televideniye bo’lgan bo’lsa, bugungi kunda axborotlar telekompaniyalar tomonidan uzatilgunga qadar ijtimoiy tarmoqlar orqali bir necha soniyalar mobaynida butun dunyoga tarqatilmoqda. Jamiyatimiz ham allaqachon o’zlarini qiziqtirgan yangiliklarni ijtimoiy tarmoqlardan izlashga o’rganib ham qoldi. Televideniye esa jamiyatimiz tomonidan asosan siyosiy habarlarni ishonchli manbasi sifatida kuzatib boriladi.

Internetning, ijtimoiy tarmoqlarning kashf etilishi ana shunday imkoniyatlar yaratdi. Ammo, bu kashfiyot boshqa kashfiyotlar singari ozining salbiy va hatto ayrim havfli jihatlarini ham namoyon etdi. Ma’lumotlar, yangiliklar, e’lonlarning bunchalik katta tezlikda tarqalishi dunyo hamjamiyatida katta o’zgarishlar va ayrim havflarni yuzaga keltirgani rost. Ayniqsa, gap yosh avlod haqida ketganida bu havfni yaqqol sezish mushkul emas. So’nggi yillarda diniy ekstremizm, terrorizm, odam savdosi bilan shug’illanuvchi o’ta havfli jamoalarning jabrdiydalarining ko’pchiligi ijtimoiy tarmoqlar orqali ularning changaliga tushib qolmoqda. Ammo, bu yagona havf emas!Hozir dunyodagi juda ko‘p mintaqalar, jumladan, Yevropa mamlakatlarida internetga asirlik xastaligini davolaydigan maxsus shifoxonalar bor. Bunga misol qilib Koreyada va

Yevropa davlatlarida bo‘lib o‘tgan voqealarni aytib o‘tishlikni joiz,-deb topdik. Bu o’yinga berilib ketish; u inson (bola) hayotni emas faqat virtual hayotni o’rgana boshlaydi bu esa hammaga ma’lumki inson hech qanday zarbaga tayyor bo’lolmaydi.Inson ongi kichrayib ketishi hayotga boshqacha nazarda qarashi hayotda xuddi yolg’iz yashayotgandek bu o’yinlar ularning do’stlaridek tuyiladi.

Afsuski insonlar bu o’yinni deb bu sinovli hayotdan ko’z yumganlar ham ancha-bunchasi topilyapti. Bunga misol qilib; 2002-yili Amerikalik Shon Villi ismli 21 yoshli yigit o‘zini o‘zi peshonasidan otib o‘ldirdi. Aniqlanishicha, u “EverQuest” nomli kompyuter o‘yiniga mukkasidan ketgan ekan. Uning o‘sha o‘yinda yutqazib, yig‘gan ballari va mukofotlaridan ajralganiga chidayolmay, o‘z joniga qasd qilgani ma’lum bo‘ldi. Bu holatlar o’zimizda ham afsuski sodir bo’lyapti. Hozirgi kunda O’zbekistonda ommalashgan o’yin bu PUBG hisoblanadi hozirda yoshlarning 60-70 foizda shaxsiy akkountlari bor va ularning himoya tizimi yuq har qanday odam bu tizimni buzib kirishi mumkin. Buning oqibati esa yaxshilikka olib kelmaydi.

O‘zbekistonda o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovda ishtirok etgan 12-16 yoshli o‘smir bolalarning yarmi ko‘pincha tengdoshlari bilan suhbat qurish, kompyuter o‘ynashni afzal biladi. O‘smirlarning 43,7 foizi o‘quv adabiyotini o‘qish bilan cheklanar ekan. Bundan ma’lumki 10 boladan 1tasi o’quv adabiyotlardan boshqa kitob o’qimaydi. Axborotlarda ma’lum qilishicha Rossiyada 15 yoshli bola onasini pichoqlab o’ldirgan aniqlashicha ona bolasiga ko’p kampyuter o’ynamasdan dars qilishini aytgan ko’ryapmizki vertuallar oyinlar qanchalik xavfli ekanligini ongimizni qachon zaharlab qo’yganini bilmay qolar ekanmiz.

Tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil qilishimiz, farzand tarbiyasini doimiy nazorat qilib turishimiz juda ham muhim. Farzandga internetni butunlay cheklash mumkinmi?. Afsuski bunaqa ish qilishimiz xato chunki ta’qiqlangan narsaga nisbatan bolada qiziqishning kuchayishi tabiiy. Turli xil kompyuter o‘yini, ya’ni «aksion», «strategiya» yoki «shuter» kabi bir qator o‘yinlarning qay biri bo‘lishidan qat’iy nazar bolani jazavaga tushish, tajovuzkorlik, ruhiy buzilishlardan asrash uchun internetdan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatish muhim. Boshqacha aytganda, internet global tarmog‘i insoniyat hayotiga qandaydir o‘yinlarni o‘ynab huzurlanish uchun emas, balki ilm-fan taraqqiyotiga xizmat qiladigan ilmiy ma’lumot va axborotlarni olish imkonini yaratish maqsadida kirib kelgan.

Farzand tarbiyasida muhim o‘rin egallaydi, uning dunyoqarashishakllanishiga xizmat qiladigan, faoliyat mezonini ezgulikka yo‘naltiradigan milliy o‘yinchoqlar o‘rnini qandaydir odam o‘ldirib huzurlanishga yo‘naltirilgan internet o‘yinlari egallab olishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Ma’lumki, o‘sib kelayotgan bola beg‘ubor bo‘lgani bois ro‘parasidagi

odamdan yomonlikdan kutmaydi. Xuddi shu tariqa bola uchun qiziqarli bo‘lgan o‘yinlarning salbiy oqibatlarga olib kelishi uning xayoliga ham kelmaydi. Ularni hushyorlikka o‘rgatish, tushuntirish, eng asosiysi, ko‘ziga chiroyli ko‘ringan narsalarga mahliyo bo‘lib ketadigan darajada nodonlik botqog‘iga botmasligining oldini olish ota-ona va pedagoglarning jamiyat oldidagi ajralmas burchidir.

Barkamol avlod tarbiyasida oila ilk maktab vazifasini o‘taydi. Bolani yoshligidan yolg‘on gapirmaslikka, to‘g‘ri fikrlashga, har bir narsadan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish, Vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish dastlab oilada amalga oshiriladi. Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki, farzandlarimizni internet boshqarishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Shunday ekan, farzandlarimizni ko‘zlariga chiroyli ko‘ringan narsaning tashqi tomoniga emas, balki mohiyatiga e’tibor berishga o‘rgatish, “o‘yinbozlik” kasaliga duchor bo‘lishdan asrash uchun barchamiz birdek mas’ulmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-fevral kuni “Raqamlashtirish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-51-son qarori

2. Tarasov S.V. Obrazovatelnaя sreda: ponяtie, struktura, tipologiя // J.Vestnik SanktPiterburgskogo GUa im. A.S.Pushkina. – SPb.: 2011. - № 11.–S. 133-138.

3. Ustюjanina E.V., Evsюkov S.G. Цifrovizaцiя obrazovatelnoy sredы:vozmojnosti i ugrozы // J. Vestnik RЭU im. G.V.Plexanova. – M.: 2018. - № 1(97). – S. 3-12]. 4. Dolgorukov A. Metod keys-stadi kak sovremennaя texnologiя professi

4. Tillayeva, N. (2024). Maktab O ‘quvchilarining Ijtimoiy Moslashuvining Psixologik Xususiyatlari. Modern Science and Research, 3(1), 1-5. 9.

TASVIRLI MA’LUMOTLARGA O‘ZGARTIRISHLAR KIRITILGANINI ANIQLASH USULLARI VA DASTURIY VOSITALARI TAHLILI

Ochildiyeva Xilolaxon G‘ulomovna

Qo‘qon davlat pedagogika universiteti

Meliqo‘ziev Rustambek Shuxrat o‘g‘li

Toshkent gumanitar fanlar universiteti,

Beknazarov Axmad Asamiddinovich

Toshkent gumanitar fanlar universiteti,

Toshkent amaliy fanlar universiteti, kafedra mudiri

Meliqo‘ziev Murodbek Shuxrat o‘g‘li

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, magistratura talabasi.

Annotatsiya: *Raqamli tasvirlarni tahrirlash texnologiyalarining rivojlanishi natijasida sun'iy o'zgartirilgan yoki manipulyatsiya qilingan rasmlarni aniqlash muhim masalaga aylandi. Ushbu maqolada rasmlarga o'zgartirishlar kiritilganligini aniqlash usullari, turli dasturiy vositalarning samaradorligi va zamonaviy ilmiy yondashuvlar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Rasm tahrirlash, manipulyatsiya aniqlash, statistik usullar, chuqur o'rganish, konvolyutsion neyron tarmoqlar, Error Level Analysis, Fourier transform, Discrete Cosine Transform, metadata tahlili, EXIF ma'lumotlari, hash funksiyasi, steganografiya, GAN detektorlari, deepfake aniqlash, AI asosli deteksiya, tasvir autentifikatsiyasi, rasm siqilishi tahlili, piksel korrelyatsiyasi, EfficientNet, ResNet.*

1. Kirish.

Tasvirli ma'lumotlarga o'zgartirishlar kiritilganini aniqlash raqamli media xavfsizligi uchun muhim yo'nalish hisoblanadi. Rasm tahrirlash texnologiyalari rivojlanishi bilan birga ularni aniqlash usullari ham takomillashmoqda. Manipulyatsiya aniqlash usullari statistik tahlil, mashinani o'rganish va metadata tahliliga asoslanadi. **Error Level Analysis (ELA)** usuli rasmni siqish farqlarini tahlil qilib, tahrirlangan qismlarni topishga yordam beradi. **Fourier transform** va **DCT (Discrete Cosine Transform)** usullari tasvirni chastota domenida o'rganib, sun'iy o'zgarishlarni aniqlaydi. Piksel korrelyatsiyasi tahlili orqali tasvirning tabiiy tuzilishini buzuvchi o'zgarishlar topiladi. Chuqur o'rganish modellaridan **CNN, ResNet, VGG, EfficientNet** kabi neyron tarmoqlar foydalaniladi. **GAN detektorlari** sun'iy neyron tarmoqlar yordamida yaratilgan tasvirlarni aniqlash uchun maxsus ishlab chiqilgan**. Deepfake aniqlash** AI tomonidan ishlab chiqilgan soxta tasvir va videolarni fosh qilish uchun muhim yo'nalishdir. EXIF ma'lumotlari tahlili rasmni qaysi qurilmada, qachon va qanday sharoitda olinganligini aniqlashga imkon beradi. **Hash funksiyasi** yordamida rasmning o'zgartirilgan yoki o'zgartirilmaganligi tekshiriladi.

Steganografiya tahlili orqali tasvir ichida yashirilgan ma'lumotlar topilishi mumkin. Photoshop va boshqa grafik dasturlar bilan o'zgartirilgan tasvirlarni aniqlash uchun maxsus dasturlar qo'llaniladi. Rasmni soxtalashtirish usullari rivojlanishi bilan birga ularni aniqlash usullari ham takomillashib bormoqda. Mashinani o'rganish algoritmlari katta hajmdagi tasvirlar orqali tahrir izlarini o'rganadi va aniqlaydi. **OpenCV** va **TensorFlow** kabi kutubxonalar tasvir tahlili uchun keng qo'llaniladi. Raqamli media xavfsizligini ta'minlash uchun AI asosida avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari ishlab chiqilmoqda. Tahrir izlarini aniqlashda kombinatsiyalangan usullar, ya'ni statistik va chuqur o'rganish metodlari birgalikda qo'llaniladi. Kelajakda yanada aniq va real vaqt rejimida ishlovchi deteksiya tizimlari rivojlantirilishi kutilmoqda. Soxta tasvirlarni aniqlash usullari axborot xavfsizligi, jurnalistika va huquqni muhofaza qilish sohalarida keng qo'llaniladi.

2. Rasmlarni tahrirlash va manipulyatsiya turlari

Tasvirlarni o‘zgartirish turli usullar bilan amalga oshirilishi mumkin. Ushbu manipulyatsiyalarni aniqlash qiyin bo‘lishi mumkin, chunki zamonaviy tahrirlash texnologiyalari tasvir sifatini saqlab qolgan holda o‘zgarishlarni yashirish imkoniyatiga ega. Quyida eng keng tarqalgan tahrirlash usullari ko‘rib chiqiladi:

2.1. Noyoblashtirish (Splicing)

Bu usulda turli tasvirlarning alohida qismlari birlashtiriladi. Masalan, bir odamning boshini boshqa odamning tanasiga qo‘yish yoki turli rasm qismlaridan yangi sahna yaratish:

✓ Qo‘llanilish holatlari: Montajlar, feyk yangiliklar, reklama manipulyatsiyalari.

⚠ Aniqlash usullari:

- Rasmning struktura va teksturasini o‘rganish (Chiqindilar va rang farqlarini tekshirish).
- Statik yondashuvlar (DCT, Fourier Transform).

2.2. O‘chirish va qo‘shish (Inpainting)

Muayyan obyektlar rasmga qo‘shiladi yoki yo‘qotiladi. Masalan, odamni fon ortida yo‘qotish yoki yo‘q bo‘lib ketgan obyektni tiklash.

✓ Qo‘llanilish holatlari: Photoshop orqali reklama modifikatsiyalari, tarixiy fotosuratlarni tiklash, yolg‘on ma’lumot yaratish.

⚠ Aniqlash usullari:

- Noise (shovqin) tahlili.
- Chuqur o‘rganish modellaridan foydalanish (CNN va GAN).

2.3. Filtr va modifikatsiyalar

Bu usulda tasvirning umumiy tuzilishiga o‘zgartirish kiritiladi, lekin vizual mazmun o‘zgarishi mumkin.

✓ Qo‘llanilish holatlari: Surat sifati yaxshilash, nostandart rang palitralari yaratish.

⚠ Aniqlash usullari:

- Histogram tahlili (RGB taqsimoti o‘zgarishlari).
- Metama’lumotlarni tekshirish (EXIF tahlili).

2.4. GAN (Generative Adversarial Networks) yordamida manipulyatsiya

GAN texnologiyalari yordamida realistik, lekin to‘liq sun’iy tasvirlar yaratish yoki mavjud rasmlarni tahrirlash mumkin.

✓ Qo‘llanilish holatlari: Deepfake videolar, soxta shaxs suratlari, san’at va dizaynda foydalanish.

⚠ Aniqlash usullari:


- Neyron tarmoq asosida o‘qitilgan GAN detektorlar.

- Asosiy vizual farqlarni tekshirish (masalan, noto‘g‘ri yoritish, ko‘z shakli, quloq simmetriyasi).

3. Rasmlarga o‘zgartirishlar kiritilganini aniqlash usullari

Tasvirlarni manipulyatsiya qilinganligini aniqlashda asosiy yondashuvlar quyidagilardan iborat:

3.1. Statistik yondashuvlar



Statistik yondashuvlar rasm piksel darajasidagi xususiyatlarni o‘rganish orqali manipulyatsiyani aniqlashga asoslanadi. Ushbu usullar tasvir tarkibini tahlil qilish, siqilish farqlarini aniqlash va rasm elementlari orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish orqali manipulyatsiyani fosh qilishga yordam beradi(1-rasm).

1-rasm. . Error Level Analysis (ELA) orqali tahlil natijasi.

3.1.1. Error Level Analysis (ELA)

✓ Tavsifi: ELA – rasmni qayta siqish orqali uning turli qismlaridagi sifat farqlarini tahlil qiladi. Agar rasmning ba’zi joylari oldindan tahrirlangan bo‘lsa, ular boshqa qismlarga nisbatan farqli siqilish xususiyatiga ega bo‘ladi.

✓ Qo‘llanilish sohasi: Photoshop yoki boshqa tahrirlovchi dasturlar bilan o‘zgartirilgan tasvirlarni aniqlash.

⚠ Kamchiliklari:

- Yuqori sifatli siqilgan tasvirlarda natija ishonchsiz bo‘lishi mumkin.
- Har doim aniq manipulyatsiyani ko‘rsatmaydi, balki faqat farqli siqilish sohalarini topadi.

3.1.2. Pixel Correlation

✓ Tavsifi: Tasvirning turli qismlaridagi piksellar orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish orqali manipulyatsiyani aniqlashga yordam beradi. Real tasvirlar tabiiy ravishda bir xil tekstura va bog‘lanishga ega bo‘ladi, lekin tahrir qilingan joylarda bu xususiyat buzilishi mumkin.

\✓ Qo‘llanilish sohasi: Noyoblashtirilgan yoki birlashtirilgan rasmlarni aniqlash.

⚠ Kamchiliklari:

- Yuqori darajada siqilgan tasvirlarda samaradorligi pasayadi.

- Sun’iy neyron tarmoqlar tomonidan generatsiya qilingan tasvirlar uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin.

3.1.3. Fourier Transform va DCT (Discrete Cosine Transform)

✅ Tavsifi: Bu usullar tasvirni chastota domenida tahlil qiladi. Asl tasvirlar odatda muayyan chastotalarda aniq spektral xususiyatlarga ega bo‘lsa, tahrirlangan tasvirlar bu naqshni buzishi mumkin.

✅ Qo‘llanilish sohasi:

- Photoshop yoki GAN asosida o‘zgartirilgan tasvirlarni aniqlash.
- JPEG siqilishida yuzaga keladigan farqlarni tahlil qilish.
- ⚠ Kamchiliklari:
- Har doim 100% aniq natija bermaydi, ba’zan tabiiy tasvirlarda ham noto‘g‘ri ijobiy natijalar chiqishi mumkin.

3.2. Mashinani o‘rganish va chuqur o‘rganish usullari

Mashinani o‘rganish va chuqur o‘rganish usullari manipulyatsiya qilingan tasvirlarni aniqlashda yuqori samaradorlikka ega. Ular katta hajmdagi tasvirlardan o‘rganib, inson ko‘zi ilg‘ay olmaydigan detallarni tahlil qilish imkonini beradi. Quyida eng samarali yondashuvlar keltirilgan.

3.2.1. CNN (Convolutional Neural Networks)

✅ Tavsifi: CNN (Konvolyutsion neyron tarmoqlar) tasvir xususiyatlarini ajratib, manipulyatsiya izlarini aniqlaydi. CNN qatlamlari rasm tuzilishini o‘rganib, sun’iy yoki o‘zgartirilgan qismlarni farqlashga yordam beradi.

✅ Qo‘llanilish sohasi:

- Obyektni o‘chirish yoki qo‘shish kabi manipulyatsiyalarni aniqlash.
- Photoshop yoki GAN orqali o‘zgartirilgan tasvirlarni fosh qilish.

⚠ Kamchiliklari:

- Katta hajmdagi ma’lumotlar va hisoblash resurslarini talab qiladi.
- Ba’zan noto‘g‘ri natija berishi mumkin (noto‘g‘ri ijobiy yoki noto‘g‘ri salbiy).

3.2.2. ResNet, VGG, EfficientNet

✅ Tavsifi:

- ResNet (Residual Networks) – chuqur tarmoqlarda gradient yo‘qolishi muammosini hal qiluvchi model.
- VGG (Visual Geometry Group) – oddiy tuzilishga ega CNN arxitekturasi, rasm klassifikatsiyasi va manipulyatsiya aniqlashda samarali.
- EfficientNet – samarali va tez ishlaydigan neyron tarmoq modeli, kam resurs talab qiladi.

✅ Qo‘llanilish sohasi:

- Photoshop yoki boshqa tahrirlangan tasvirlarni aniqlash.

- GAN asosida yaratilgan soxta tasvirlarni fosh qilish.

⚠ Kamchiliklari:

- Modelni o‘rgatish uchun katta hajmdagi etiketlangan tasvirlar talab etiladi.
- Ba’zan real tasvirlar bilan sun’iy tasvirlarni chalkashtirib yuborishi mumkin.

3.2.3. GAN detektorlari

✅ Tavsifi: GAN (Generative Adversarial Networks) asosida yaratilgan tasvirlarni aniqlash uchun o‘qitilgan neyron tarmoqlar. Ushbu detektorlar GAN tomonidan yaratilgan anomaliyalarni topishga mo‘ljallangan.

✅ Qo‘llanilish sohasi:

- Deepfake videolar va tasvirlarni aniqlash.
- Sun’iy generatsiya qilingan yuzlarni fosh qilish.

⚠ Kamchiliklari:

- GAN texnologiyasi rivojlanishi bilan yangi detektorlar talab qilinadi.
- Ba’zi manipulyatsiyalarni aniq ajrata olmasligi mumkin.

3.3. Metadata va EXIF tahlili

Metadata (meta-ma’lumotlar) va EXIF (Exchangeable Image File Format) tahlili tasvir haqidagi qo‘shimcha texnik ma’lumotlarni o‘rganish orqali uning haqiqiyligi va tahrirlanganligini aniqlashga yordam beradi. Ushbu yondashuv rasmning texnik xususiyatlariga asoslangan bo‘lib, manipulyatsiya jarayonida metama’lumotlardagi o‘zgarishlarni aniqlashga imkon beradi.

3.3.1. EXIF ma’lumotlari

✅ Tavsifi: EXIF ma’lumotlari rasmni yaratgan qurilma, sozlamalar va suratga olish sharoitlari haqida texnik ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Masalan:

- Kamera turi va modeli
- Suratga olish vaqti va joylashuvi (GPS koordinatalari)
- Diafragma, ekspozitsiya va ISO sozlamalari
- Fleshi ishlatilgan yoki ishlatilmaganligi

✅ Qo‘llanilish sohasi:

- Fotosuratlarning haqiqiyligini tekshirish.
- Rasm qachon va qayerda olinganligini aniqlash.
- Tahrirlash izlarini topish (agar rasm Photoshop yoki boshqa dasturlar bilan tahrirlangan bo‘lsa, EXIF ma’lumotlarida iz qoldirishi mumkin).

⚠ Kamchiliklari:

- EXIF ma’lumotlari oson o‘chirilishi yoki o‘zgartirilishi mumkin.
- Ba’zi dasturlar EXIF ma’lumotlarini avtomatik ravishda olib tashlaydi.

3.3.2. Hash va steganografik usullar

✓ Tavsifi:

- Hash tahlili – Rasmning xash (hash) funksiyasi orqali uning identifikatorini tekshirish va o‘zgartirilganligini aniqlash. Agar rasm tahrirlangan bo‘lsa, uning xash qiymati o‘zgaradi.
- Steganografiya – Rasm ichida yashirin ma’lumotlar joylashtirish texnikasi. Ayrim hollarda manipulyatsiyalangan rasmlar ichiga qo‘shimcha ma’lumot yashirilishi mumkin.

✓ Qo‘llanilish sohasi:

- Rasmga tahrir kiritilgan yoki kiritilmaganligini tekshirish.
- Yashirin ma’lumotlarni aniqlash va fosh qilish.

⚠ Kamchiliklari:

- Hash qiymati har qanday kichik o‘zgarishda ham farq qilishi mumkin.
- Steganografiya aniqlash qiyin bo‘lishi mumkin, chunki yashirilgan ma’lumotlar vizual jihatdan ko‘rinmaydi.

4. Dasturiy vositalar tahlili

Quyida jadvalga o‘zgartirishlar kiritilganligini aniqlash uchun ishlatiladigan dasturiy vositalar keltirilgan(1-jadval):

1-jadval.

O‘zgartirishlar kiritilganligini aniqlash uchun ishlatiladigan dasturiy vositalar tahlili.

Dasturiy vosita	Funktsiyalari	Afzalliklari	Kamchiliklari
FotoForensics	ELA va metama’lumot tahlili	Tezkor natijalar, veb-interfeys mavjud	Faqat asosiy tahlil imkoniyati
Forensically	Noise, ELA, metama’lumotlar tahlili	Brauzer orqali ishlaydi, vizual natijalar	Katta hajmli tasvirlar uchun sekin ishlaydi
DeepFake Detector	GAN asosida tahlil	Yangi texnologiyalarni aniqlash imkoniyati	Ba’zan noto‘g‘ri natijalar berishi mumkin
JPEGsnoop	JPEG formatida tahrir qilinganligini aniqlash	Batafsil texnik ma’lumot beradi	Faqat JPEG formatida ishlaydi

5. Xulosa

Rasmlarga o‘zgartirishlar kiritilganligini aniqlash bugungi kunda dolzarb muammolardan biri bo‘lib, bu sohada turli yondashuv va texnologiyalar qo‘llanilmoqda. Statistik usullar (ELA, DCT, Fourier transform) oddiy manipulyatsiyalarni aniqlashda samarali bo‘lsa-da, murakkab o‘zgarishlarni aniqlash uchun chuqur o‘rganish modellaridan (CNN, ResNet, EfficientNet) foydalanish zarur. Bundan tashqari, EXIF va hash tahlili orqali rasm metama’lumotlarini o‘rganish tahrir izlarini topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelajakda AI asosida yanada ilg‘or deteksiya tizimlarini yaratish va real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirish soxta tasvirlarga qarshi kurashish uchun muhim yo‘nalish hisoblanadi. Raqamli media xavfsizligini ta’minlash maqsadida avtomatlashtirilgan tizimlarni takomillashtirish va yangi yondashuvlarni ishlab chiqish ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Abduvaliyev, Axborot texnologiyalarining xavfsizligi, O‘zbekiston, 2020, ISBN: 978-9943420915.
2. P.W. Singer, A. Friedman, Cybersecurity and Cyberwar: What Everyone Needs to Know, Oxford University Press, 2014, ISBN: 978-0199918096.
3. Kevin D. Mitnick, William L. Simon, The Art of Deception: Controlling the Human Element of Security, Wiley, 2002, ISBN: 978-0764542807.
4. Ross J. Anderson, Security Engineering: A Guide to Building Dependable Distributed Systems, Wiley, 2020, ISBN: 978-1119642883.
5. Jon Erickson, Hacking: The Art of Exploitation, No Starch Press, 2008, ISBN: 978-1593271442.
6. Simon Singh, The Code Book: The Science of Secrecy from Ancient Egypt to Quantum Cryptography, Doubleday, 1999, ISBN: 978-0385495325.

XAYOL (FANTAZIYA)NING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nuriddinova Malika

TAFU Pedagogika fakulteti talabasi

Tillayeva Nodira Iskandar qizi

TAFU Psixologiya kafedra o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hayol uning rivojlanishida nutq va taffakurning o’rni katta ekanligi yoritib berilgan.*

Tayanch tushunchalar: *Xayol, nutq, fantaziya, fikrlar, xotira, tasavvur.*

Bizning ongimizda o‘zimiz ilgari idrok qilgan obyektlar to‘g‘risidagina emas, shu bilan birga, biz idrok qilmagan obyektlar (narsalar, voqealar, shaxslar, joylar va shu kabilar) to‘g ‘risida ham tasavvurlar bor. Biz ko’rmagan narsalarimiz haqida ham tasavvur qila olamiz. Masalan biz kosmik kemalarning Oyga va boshqa planetalarga uchishini tasavvur qilishimiz mumkin. Bu tasavvurlarni xayolimiz yaratib beradi, xotira tasavvurlaridan farq qilgan bu tasavvurlar xayol tasavvurlari yoki fantaziya tasavvurlari deb ataladi. Fantaziyaning nazariy tushunchalarining paydo bo'lishi ko'pincha oldinda bo'lgan uning eksperimental tadqiqi, tadqiqotning jihatlarini tanlashni aniqlash. Xayol ong faoliyatidir, bu faoliyat ilgari biz idrok qilmagan, tajribamizda uchratilmagan narsa va hodisalarning obrazlarini mavjud tasavvurlarimiz asosida miyamizda yaratishda ifodalanadi. Ongning boshqa funksiyalari kabi xayol ham , tarixan, avvalo

odamning mehnat faoliyatida rivojlanib kelgan. Odamlar o'z ehtiyojlarini qondirmoq uchun odam aralashmasdanoq tabiat berayotgan mahsuldan ham ko’ra ko'proq mahsul olish niyatida tevarak-atrof olamni o’zgartirganlar va uni o’zlariga bo'ysundirganlar. O'zgartirmoq va yaratmoq uchun esa istalgan narsani oldindan tasavvur qilish, shunday o'zgartirishga qanday yo'llar bilan erishishni va uning natijalarini tasavvur qilish lozim bo'lgan. Bora-bora odamning xilma-xil ehtiyojlari - ijtimoiy, bilish, estetik va shu kabi ehtiyojlari rivojlana borgan sari xayol ham rivojlana borgan.

Paskal, Dekart va Spinozaning fantaziyaga oid qarashlari aql (intellektual jarayonlar) va fantaziya o‘rtasida qarama-qarshilik bor degan fikrni vujudga keltirdi. Shunga o'xshash fikr ba'zi zamonaviy falsafiy tizimlarda qayd etilgan.

Fantaziyaning dastlabki tushunchalaridan biri sifatida fantaziyani tasvirlarning yoki ularning tarkibiy qismlarining vaqt va makondagi tasodifiy tasodif natijasi sifatida talqin qiluvchi Lukretsiy Karning qarashlari hisobga olinishi kerak.

Fantaziya printsipial jihatdan yangi hech narsa yaratmaydi, balki oddiy g'oyalarni faqat g'ayrioddiy tarzda bog'laydi, degan fikr ham Lukretsiy qarashlariga borib taqaladi. Bu mohiyatan empirizm nuqtai nazari bo‘lib, dastlab Yum falsafasida, so‘ngra assotsiatsion tizimlarda izchil rivojlangan.

Ratsionalizm falsafasi fantaziya haqiqatini tan olib, uni konseptual-mantiqiy tafakkurga qarama-qarshi qo‘ydi. Shunday qilib, mashhur fizik va matematik Blez Paskal fantaziyada aqlga dushman kuchni ko'rdi. U o'zining "Fikrlar" aforizmlar to'plamida shunday yozgan edi: "Tasavvur insonning aldamchi tomoni, u xato va yolg'onning ustozidir ..."

Xayolning idrok va xotiradan farqi bor albatta. Xayol tasavvurlarining idrok obrazlaridan va xotira tasavvurlaridan farqi shuki, xayol tasavvurlari tajribamizda orttirilgan obyektlarga ega emas. Xo'sh , odamlarning ongida bu obrazlar qayerdan va qanday qilib paydo bo'ladi, degan savol tug'iladi. Albatta, bu obrazlar biror manbaga ega bo'lmay, yo'q narsadan paydo bo'lishi mumkin emas. Muayyan bir ehtiyoj mavjud bo'lgan taqdirda xayolning tegishli obrazlari xayol tasavvurlari insonning tajribasiga va xotira tasavvurlariga asoslanib hosiI bo'lishi va tarkib topishi mumkin. Bu tasavvurlar xayol tasavvurlarini vujudga keltirishga asos bo'ladigan materialdir. Xayol jarayonlaridagi odam tafakkuri katta o'rin oladi. Biror yangi obraz yoki tasavvurlar sistemasini yaratishda odamning o 'ylab qo 'ygan biror murodi amalga oshiriladi, biror vazifa hal qilinadi. Tafakkur tufayli xayol jarayonlari tartibga va sistemaga solinibgina qolmasdan, shu bilan birga , «to'xtatilib» , nazorat qilinib ham turiladi. Tafakkur yaxshi o'smagan bo'lsa , bilim kam bo'lsa , fantaziya juda uzoqqa «uchib ketishi» va voqelikka hech qanday o'xshashlik tomoni qolmasligi mumkin.

Xayol tasavvurlarining paydo bo' lishida nutq katta ral o'ynaydi. Har kimga ham ma'lumki , shu tasavvurlarning ko'pi boshqa kishilar aytib bergan hikoyalarning ta'siri ostida, shuningdek, o'qish jarayonida, ayniqsa , she'riy asarlarni va badiiy adabiyotning boshqa turlarini o'qish chog'ida paydo bo'ladi. Bunda yana quyidagilarga e'tiborni jalb qilish zarur. Xayol obrazlari, garchi tasavvurlar deb atalsa ham, lekin bu tasavvurlar o'zlarining bir qancha xususiyatlari bilan xotira tasavvurlaridan farq qiladi.

1. Yuqorida aytib o'tilganidek, xotira tasavvurlari ilgari idrok qilingan buyumlar obrazining gavdalanishidir. Xayol tasavvurlari esa xotira tasavvurlarini murakkab ijodiy qayta ishlash natijasida vujudga keladi. Xayol tasavvurlari xotira tasavvurlarining takrorlanishi emas, balki yangicha hosil bo'lgan tasavvurlardir.

2. Xayol tasavvurlari ko’pincha o'zining ko'proq to'liq bo'lishi, lo'nda va yorqin bo’lishi bilan xotira tasavvurlaridan farq qiladi. Shu jihatdan qaraganda, xayol tasavvurlari idrok obrazlariga yaqinroq bo'ladi.

3. Tasavvur obyekti bilan tanishlik hissi va shu obyekt real mavjud bo'lib turibdi yoki mavjud bo'lgan, tasavvurning mazmuni obyektga muvofiq keladi degan ishonch xotira tasavvurlariga xos belgilardir. Bunda mana shunday ishonch idroklarning obyektivligiga bo'lgan ishonchga yaqinroqdir.

Ammo xayol tasavvurlari esa hamisha alohida bir «yangilikni,) va «noma'lumlikni» his qilish tuyg'usini beradi. Shu sababli xotira tasavvurlari tasavvur qilingan narsaning mavjudligiga yoki haqiqatan mavjud bo'lganligiga yoxud mavjud bo'lajagiga alohida ishonch hissi bilan bog'langan bo'ladi va tasavvurning mazmuni shu narsaga muvofiq degan alohida hisni vujudga keltiradi. Bunda tasavvur qilingan narsaning realligiga to'la ishonch bo'lishi mumkin va buning realligiga shubhalanish, ishonmaslik va hatto bu reallikning inkor qilinishi ham mum kin. Xotira tasavvurlari o'tmishda ko'rilgan va eshitilgan narsalarning esga tushishi bilan bog'langan bo'lib, passivroq xarakterga egadir. Xayol tasavvurlarining ko'pchiligi o'zining faolligi bilan farq qiladi: bu tasavvurlar masofa yoki vaqt jihatdan birmuncha olisroqqa intilish bilan bog'langandir. Xayol tasavvurlarining bu xususiyatlarini shu narsa bilan izohlash mumkinki, bu tasavvurlar ehtiyojning kuchli ravishda namoyon bo'lishi natijasida, insonda qiziqish va ideallar borligi sababli, insonda xilma xil hissiyotlar va jumladan yangilikni his qilish tuyg' ulari paydo bo'iganligi natijasida vujudga keladi.

Xayol tasavvuridagi abstrakt tushunchalar ham har xil allegoriyalarda, metaforalarda va boshqa simvolik obrazlarda aniqlashgan bo'ladi. Masalan imillab yurish toshbaqa obrazida ifodalanadi, ayyorlik haqida gap ketsa tulkini tasavvur qilishimiz mumkin.

Bilamizki kattalar bolalarga ertak aytib berganda yaxshi va yomon, oq va qorani anglatish uchun obrazlar orqali unda tasavvurni shakllantiradilar

Xayol – inson ruhiyatining ajralmas qismi bo‘lib, u shaxsning ichki dunyosini, orzu-umidlarini, yaratish va o‘ylash jarayonlarini ifodalaydi. Xayolning o‘ziga xos jihati shundaki, u haqiqat va tasavvur o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Xayol, shuningdek, insonning hissiy holatini shakllantirishda, uni yangi yutuqlarga ilhomlantirishda va ijodiy jarayonlarda muhim rol o‘ynaydi.

Xayol insonning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Yangi g‘oyalar, ixtirolar va san'at asarlari ko‘pincha insonning tasavvurida boshlanadi. Masalan, san'atkorlar, yozuvchilar, olimlar o‘z ijodiy ishlarini yaratishda xayolga tayanadilar. Ular hayotda mavjud bo‘lmagan dunyolarni, tasavvurlarni yaratib, ularni boshqalarga taqdim etadilar. Shunday qilib, xayolning roli ijodkorlikni, yangi dunyoqarashni yaratish, o‘zgacha qarashni kiritishdan iboratdir.

Ilm-fan sohasida ham xayolning alohida o‘rni bor. Yangi ilmiy kashfiyotlar ko‘pincha ilm-fan olimlarining xayolida shakllanadi. Masalan, Nikola Tesla yoki Albert Eynshteyn kabi buyuk olimlar o‘z ilmiy izlanishlarini xayolga tayanib amalga oshirishgan. Xayol ular uchun yangi g‘oyalar va kashfiyotlar uchun motivatsiya bo‘lgan. Xayolning ilm-fanda ta’siri shundaki, u ilmiy izlanishlar uchun zarur bo‘lgan yangilik va innovatsiyalarni yaratadi.

Psixologiyada xayol insonning ruhiy holatini ifodalaydi. Xayol qilish orqali insonlar o‘zlarini his-tuyg‘ularda va ruhiyatda tasavvur qiladilar. Ba’zan xayol, insonni huzurga keltirsa, ba’zan esa xavotir yoki qayg‘u tug‘diradi. Xayol insonning kayfiyatiga, stress darajasiga ta’sir qilishi mumkin, chunki o‘ziga xos tasavvurlar odamni baxtli yoki qayg‘uli holatga olib kelishi mumkin. Shu bois, psixologlar xayolni yaxshi va salbiy nuqtai nazardan o‘rganadilar.

Xayol, shubhasiz, inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat ijodkorlik, balki ruhiy va psixologik holatni ham shakllantiradi. Xayol orqali inson orzularini amalga oshirishga, o‘zini ifodalashga va yangi imkoniyatlar yaratishga qodir. Xayolning o‘rni insonni ilhomlantirishda va yangi g‘oyalar yaratishda katta bo‘lib, u har bir sohada rivojlanishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. 1-2-kitob. T.: 2002 y.

2. G‘oziyev E. G‘. O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1988. – 104 b. 6.Andreeva G.M. Соціalnaя psixologiя. M. 2004. 290 c

3. Demina A.A. Psixologicheskiy format izucheniя problemы perfekцionizma [Эlektronnыy resurs] / A.A. Demina // Jurnal SCI-ARTICLE.RU. — 2014. — № 6. — Rejim dostupa: http://sci-article.ru (data obraщeniя 1.05.2017).

4. Zolotareva, A.A. Perfekцionizm i samoregulяцiя / A.A. Zolotareva // Materialы IV Mejdunarodnoy konferenцii molodых uchenых «Psixologiя — nauka budущego» 17-18 noяbrя 2011 g., Moskva / Pod red.

5. A.L. Juravleva, E.A. Sergienko. — M.: Izd-vo «Institut psixologii RAN», 2014.

KIBERMAKONDA SALBIY AXBOROTLARDAN HIMOYALANISHDA TANQIDIY TAFAKKURNING O‘RNI

N.A.Mirashirova

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Psixologiya” kafedrasi psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) v/b professori

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi kiberfazo orqali inson ongiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirdi. Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar orqali tarqaladigan salbiy axborot odamlarning hissiy holati, psixologik barqarorligi va qaror qabul qilish jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, dezinformatsiya, feyk yangiliklar va kiberzo‘ravonlik jamiyatda xavotir, tushkunlik va stressni oshirishga sabab bo‘lmoqda. Ushbu maqolada kibermakonda salbiy axborotning psixologik ta’siri, unga qarshi himoyalanish usullari, tanqidiy tafakkur va kognitiv dissonansning o‘rni hamda kiberxavfsizlikni ta’minlashning psixologik jihatlari tahlil qilinadi.

I. Kibermakonda salbiy axborotning psixologik ta’siri

Kibermakonda inson psixologiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillar quyidagilardan iborat:

Dezinformatsiya va yolg’on yangiliklar: Ishonchsiz ma’lumotlarning keng tarqalishi odamlarning haqiqatni ajratish qobiliyatiga putur yetkazadi va manipulyatsiyaga olib keladi.

Kiberzo‘ravonlik: Onlayn platformalarda tahqirlash, tahdid qilish va shaxsni obro‘sizlantirish psixologik zo‘riqishga sabab bo‘ladi.

Axborotga bo‘lgan haddan tashqari ishonch: Ko‘p marotaba takrorlangan yolg‘on ma’lumotlar vaqt o‘tishi bilan odamlar ongida haqiqat sifatida qabul qilinadi.

Ijtimoiy izolyatsiya va stress: Salbiy axborotga duch kelgan insonlar o‘zini yolg‘iz his qilishi va tushkunlikka tushishi mumkin.

II. Tanqidiy tafakkur va kognitiv dissonansning o‘rni

Kibermakondagi axborotning ishonchliligini baholash uchun tanqidiy tafakkurni rivojlantirish zarur. Tanqidiy tafakkur – insonning axborotni chuqur

tahlil qilish, haqiqatni yolg‘ondan ajratish va manipulyatsiyaga tushmaslik qobiliyatidir.

Kognitiv dissonans – shaxsning o‘z e’tiqodlari va yangi axborot o‘rtasidagi tafovut natijasida yuzaga keladigan ruhiy noqulaylik holati. Bu holatda inson o‘z qarashlarini qayta ko‘rib chiqish yoki mavjud e’tiqodlarini mustahkamlashga harakat qiladi.

Himoyalanish usullari:

Bu **himoyalanish usullari** kibermakondagi salbiy axborotlardan himoyalanish va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda juda muhimdir. Quyida ularning har biri batafsil tushuntirilgan:

1. Axborotni tekshirish va faktlarni solishtirish

Har qanday yangilik yoki ma’lumotni birdaniga ishonmasdan, bir nechta mustaqil manbalar orqali tekshirish kerak.

Mashhur yangilik portallari va ilmiy maqolalarni o‘rganib, axborotning ishonchliligini tahlil qilish muhim.

2. Isbot talab qilish va manbalarni baholash

Berilgan ma’lumot dalillar va ilmiy asoslar bilan tasdiqlanganmi? Agar yo‘q bo‘lsa, unga shubha bilan qarash lozim.

Manba kimga tegishli ekanligini tekshirish: manba rasmiy yoki shaxsiy blog, anonim sahifa yoki manipulyatsion platforma ekanligini aniqlash lozim.

Maqolalarning chop etilgan sanasi va u haqidagi izohlarni tekshirib, eskirgan yoki noto‘g‘ri ma’lumotlardan qochish kerak va shu orqali manbani to’g’ri baholash mumkin bo’ladi.

3. Emotsional ta’sir ostida qaror qabul qilmaslik

Ko‘plab manipulyatsion axborotlar qo‘rquv, g‘azab, achinish yoki shoshqinchalik kabi hissiyotlarni qo‘zg‘atish orqali odamlarni o‘ziga jalb qiladi.

Har qanday shov-shuvli yangilikni ko‘rganingizda “Bu ma’lumot men uchun qanday ta’sir ko‘rsatmoqda? Meni nimagadir undayaptimi?” deb o‘zingizga savol berishi lozim.

Har qanday shoshilinch qaror qabul qilishdan oldin, muammoni chuqurroq tahlil qilishga harakat qilish kerak.

Har qanday holada ham manba ishonchli manbadan kelganmi? Shunga ham ishonch hosil qilish lozim.

4. Axborotga turli manbalar orqali yondashish

Faqat bitta axborot manbaiga ishonib qolish noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin, chunki har bir manba turli nuqtai nazardan axborotni yoritadi.

Raqamli dunyoda bir mavzuni turli manbalardan o‘qish, turli tadqiqotlar va ekspert fikrlarini ko‘rib chiqish tanqidiy tafakkurni shakllantirishga yordam beradi.

Ma’lumotlarni xalqaro, rasmiy va mustaqil manbalardan o‘rganish orqali manipulyatsiyadan himoyalanish mumkin.

III . Kiberxavfsizlikni ta’minlashning psixologik jihatlari

Kiberxavfsizlik nafaqat texnik choralar bilan, balki psixologik yondashuv bilan ham ta’minlanishi lozim. Quyidagi choralar insonlarni salbiy axborot ta’siridan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega:

Media savodxonlikni oshirish: Insonlarni raqamli axborotni tanqidiy tahlil qilishga o‘rgatish.

Axborotni filtrlay olish: Ma’lumotlarning ishonchliligini tekshirish odatini shakllantirish.

Raqamli gigiyenaga rioya qilish: Kiberxavfsizlik qoidalariga amal qilish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va shubhali havolalardan ehtiyot bo‘lish.

Psixologik chidamlilikni oshirish: Kiberzo‘ravonlik va manipulyatsion ta’sirlarga nisbatan ruhiy barqarorlikni shakllantirish.

Xulosa

Kibermakondagi salbiy axborot inson psixologiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi va ijtimoiy xavf tug‘diradi. Ushbu tahdidlardan himoyalanish uchun tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, kognitiv dissonansni tushunish va kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Raqamli savodxonlik va axborotni tekshirish madaniyatini shakllantirish orqali jamiyat axborot tahdidlari oldida bardavom bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alekseeva I.Ю. Kriticheskoe мышlenie kak faktor informaцionnoy bezopasnosti. Rejim dostupa: http:// www.isn.ru/index 09.shtml.
2. Nurmatov A.N O‘smirlarda ijtimoiy tarmoqlardagi yolg’on axborotlar masalasini ilmiy o’rganish tajribalari. Bola va zamon. №3 Toshkent 2024-yil 23-25 b.
3. Kulatova Y.S. Voyaga yetmaganlarda psixologik axborot xavfsizligini ta‘minlashning shaxslilik xususiyatlari. Diss.Avtoreferat. Toshkent 2012. 25 b
4. *Krishtal M.I., Щekoturov A.V.* Motivы i osobennosti kross-platformennoy samoprezentaцii rossiyskix studentov // Цifrovaя soцiologiя. 2021. T. 4. № 1. S. 24–30.
5. Krыsko V.G. Soцialnaя psixologiя: Kurs lekцiy /. — 3-e izd. — M.: Omega-L, 2006. — 352 s.

MULOQOT HAQIDA UMUMIY PSIXOLOGIK TUSHUNCHA

Aksakalova Nilufar Oybekovna
Sayfullayeva Sarvinoz Sanjar qizi
Toshkent gumanitar fanlar universiteti
sayfullayevasarvinoz05@gmail.com

Annotasiya: *Muloqot faqat insonlarga xos bo‘lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir-birlariga nimanidir aytish istagi tug‘iladi . Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatini o’zlashtirish va o’z individual ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular insonning ichiga kiradi. Shaxsning tafakkuri, olamni va o’zining obrazini tahlil qilish hamda baholash qobiliyati muloqot jarayonida shakllanadi. Mazkur muammoga atroflicha baho bergan polshalik psixolog Ye.M elibruda quvidagilarni takidlaydi: "Muloqot shaxslararo munosabatlarda biz uchun havodek ahamiyatga egadir".*

Kalit so‘zlar: *Muloqot, inson hayoti, faoliyat, tabiat, individual ehtiyojlar, xulq-atvor, obraz, tafakkur, olam, tahlil, baholash, qobiliyat, psixolog, shaxslararo munosabat.*

Kirish

Muloqot o’ta murakkab jarayon bo’lganligi sababli unga yagona to’g’ri ta'rifni berish juda mushkul. Shuning uchun odatda muloqot tushunchasining mazmuni uning ayrim tomonlariga urg’u berish orqali ta'riflanadi.

A) muloqot - hamkorlikda faoliyat ehtiyoji bilan taqazolangan aloqa o’rnatish va uni rivojlantirish jarayoni.

B) muloqot - sub'ektlarning belgilar tizimi orqali o’zaro ta'sirlanishuvi.

Birgalikdagi faoliyat davomida odamlar turli fikrlar, o‘y-xayollar, his kechinmalar bilan o‘rtoqlashadilar. Bunda o‘y-fikrlar, his-kechinmalami axborot sifatida, kommunikatsiyani esa axborot almashinuvi sifatida talqin etish mumkin. Ammo shuni e’tiborga olish kerakki insonlararo kommunikatsiya shunchaki axborot almashinuvidan iborat emas. Chunki muloqot jarayonida axborot nafaqat uzatiladi, balki shakllantiriladi, aniqlashtiriladi, rivojlantiriladi. Demak, inson muloqotni shunchaki axborot almashinuvidan iborat jarayon deb hisoblashi mumkin emas. Zero, birinchidan muloqot jarayonida axborot bir tomondan ikkinchi tomonga shunchaki harakatlanmaydi, balki faol almashinadi (kommunikativ jarayon ishtirokchilari birbiriga axborot yuborayotganda bir-birining motivlari, maqsadlari, ustanovkalari va boshqalami tahlil qiladilar); ikkinchidan muloqot jarayonida axborot almasha turib kishilar belgilar orqali bir-biriga ta’sir etishi mumkin (insonlararo axborot almashinuvida, albatta suhbatdosh xulq-atvoriga muayyan ta’sir o‘tkaziladi); uchinchidan muloqot jarayonida kommunikator (axborot yuboryotgan odam) va resipient (axborotni qabul qilayotgan odam) bir xil kodlashtirish tizimiga ega bo‘lishi kerak, to‘rtinchidan

muloqot jarayonida faqat insonlararo kommunikatsiyaga xos to‘siqlar vujudga kelishi mumkin.

Bir kishi turli muloqot vazifalarida turli rollami bajarishi mumkin. Masalan, xizmat joyida direktor, kasal bo‘lsa, shifokor ko‘rsatmalariga itoat etuvchi bemor, oilada keksa ota-onasining qobil farzandi, mehmondo‘st oila boshlig‘i bo‘ladi. Turli rollarni bajaruvchi kishilaming o‘zaro munosabati rol kutishlari bilan boshqariladi. Xohlaydimi yoki yo‘qmi atrofdagilar undan ma’lum namunaga mos keluvchi xulq-atvomi kutadilar. Agar rol yaxshi bajarilmasa, ijtimoiy nazorat tomonidan baholanadi, ozmi-ko‘pmi cheklanishlar qilinadi. Muloqotning bevosita muvaffaqiyatining sharti o‘zaro ta’sir etuvchi kishilaming har biridan kutilayotgan harakatlarga mos keluvchi xulq-atvor namunasini qo‘llanishidadir. Kishining boshqalar undan nimani kutayotganini, nimani eshitishga va unda nimani ko‘rishga tayyor ekanligini to‘g‘ri, aniq, xatosiz ko‘chira olish qobiliyati takt deb ataladi.

A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida muloqot ikki va undan ortiq kishilar o’rtasidagi axborot ayriboshlash, o’zaro ta'sir va bir-birini tushunishdan iborat jarayon sifatida e'tirof etiladi

Muloqot inson hayotida qanchalik yuksak ahamiyatga ega ekanligini quyidagi misollarda yaqqol ko’rishimiz mumkin:

1-misol 1938 yil Richard Bard o’z hohishi bilan Antarktida muzliklarida 6 oy tanho qoladi. Bir tomondan u tajriba natijalariga qiziqsa, ikkinchi tomondan kundalik hayotning g’ala-g’ovuridan biroz dam olishni istagan edi. Keyinchalik u mazkur davrni quyidagi so’zlar bilan eslaydi "Bu yerdagi hayotim davomida borabora har bir harakatim har bir ishim tobora mazmunsiz, mantiqsiz, maqsadsiz bo’lib borayotganday edi. Xavf xatarlardan qo’rqmaydigan odam bo’lsam-da, negadir bu yerda tomning bosib qolishidan xavfsiray boshladim. Ovqatlanishimda muntazamlik yo’qoldi, yuvinmay qo‘ydim".

2-misol. Tarixda yaponlarda **"Moritao"** nomli insonning o‘zini-o‘zi takomillashtirish tizimi mavjud bo’lgan. Vaholanki, inson hech qanday jismoniy azoblarga duchor bo‘lmaydi. Faqatgina bir haftaga g‘orga kirib ketib, u yerda tanho qoladi. Bu yerda u hatto o‘zi bilan gaplashishi mumkin bo‘lmagan. Sinovdan o‘tganlar keyinchalik har qanday uchrashuv va suhbatni xursandchilik bilan qarshi oladilar. Qizig‘i shundaki, ularda ko‘proq gapirish ehtiyoji emas, balki tinglash ehtiyoji kuchayar ekan. [1]

Muloqotning inson hayotidagi ahamiyati beqiyosdir. Inson bolasi aynan boshqalar bilan muloqotda, munosabatda bo‘lish jarayonida shaxsga aylanib boradi.

Muloqot orqali inson ijtimoiy tajriba va madaniyatni egallab boradi. Yangi tug‘ilgan inson boshqalar bilan muloqotda bo‘lish imkoniyatidan mahrum bo‘lsa, u

hech qachon shaxsga aylana olmaydi, ya’ni u o‘z psixik taraqqiyoti bo‘yicha orqada qolib ketadi. Zero, inson psixik taraqqiyoti muloqotdan boshlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolar bilan muloqot qilish va inson manfaatlarini himoya qilish ta’minoti to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiningfarmoniga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti muloqot va uning psixologik muhimligi haqidagi farmon va chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali jamiyatda ijtimoiy manfaatlar va shaxsiy ehtiyojlarni muvofiq ravishda rivojlantirishga intiladi. Ushbu farmonlar muloqotni kengaytirish, fuqarolarni o‘z fikrlarini ifoda etish imkoniyatlarini yaratish va ijodiy fikrlashni rag‘batlantirishni o‘z ichiga oladi. Prezidentimiz muloqotni samimiy va ochiq bo‘lishi, insonlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash va kelishuvga erishish uchun muhim vosita sifatida qabul qiladi.Chora-tadbirlarda ta’lim tizimini kuchaytirish, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy muammolarni hal etish bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish daxldor bo‘lishi kerak. Bularning barchasi jamiyatda sog‘lom muhit va barqaror rivojlanish uchun zarur.[2]

Muloqot jarayonidagi xarakterli narsa shundaki, suhbatdoshlar bir-birlariga ta’sir ko‘rsatmoqchi bo’lishganda, dastavval nima deyish, qanday so‘zlar vositasida ta’sir etishni o‘ylar ekan. Aslida esa, o‘sha so’zlar va ular atrofidagi xarakatlar muhim rol o‘ynarkan. Masalan, mashhur amerikalik olim Megrabyan formulasiga ko‘ra, birinchi marta ko‘rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy bo‘lishiga gapirgan gaplari 7%, paralingvistik omillar 38%, va noverbal xarakatlar 58% gacha ta’sir qilarkan. Keyinchalik bu munosabat o‘zgarishi mumkin albatta, lekin xalq ichida yurgan bir maqol to‘g‘ri: «Ust — boshga qarab kutib olishadi, aqlga qarab kuzatishadi». Muloqotning qanday kechishi va kimning ko‘proq ta’sirga ega bo‘lishi sheriklarning rollariga ham bog‘liq. Ta’sirning tashabbuskori — bu shunday sherikki, unda ataylab ta’sir ko‘rsatish maqsadi bo‘ladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqorida ta’kidlangan vositalardan foydaladi. Agar boshliq ishi tushib, biror xodimni xonasiga taklif etsa, u o‘rnidan turib kutib oladi, iltifot ko‘rsatadi, xol-ahvolni ham quyuqroq so‘raydi va so‘ngra gapning asosiy qismiga o‘tadi.

Muloqotning perseptiv tomoni kishining kishi tomonidan idrok qilish, tushunish va unga baho berishdir. Boshqa kishilarni tushunib olish bilan kishi suxbatdosh bilan bo‘ladigan faoliyat, aloqa istiqbolini aniqroq belgilab oladi. Kishini kishi tomonidan idrok qilish mexanizmi. Muomala jarayonida kamida ikki kishi ishtirok etadi. Kishining qiyofasi, xatti-harakati asosida suhbatdosh haqida tasavvur hosil qilinadi. Bir-birini idrok qilishda quyidagi mexanizmlar g‘oyat muhimdir:

a) identifikasiya; b) refleksiya; v) stereotipizasiya. [3].

Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o‘zaro mosligi, bir-birini to‘ldirishiga bog‘liq ekan. Noto‘g‘ri tasavvurlardan biri shuki, odamni muomala yoki muloqotga o‘rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so‘zlardan foydalanib, ta’sirchan gapirishga o‘rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni — tinglash qobiliyatiga deyarli e’tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi «Yaxshi suhbatdosh — yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir» deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo‘lishini nazarda tutgan edi.[4]

Xulosa

Muloqotsiz insoniyat jamiyati bo‘lishi mumkin emas. Aynan muloqot hamkorlikda faoliyat yurituvchi individlar jamoasini shakllantiradi. hamkorlikdagi faoliyat rejasini tuzish va uni ruyobga chiqarish uchun individlar o‘rtasida muloqot amalga oshirilishi shart. Muloqot vositasida hamkoriikdagi faoliyat tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Ayni vaqtda faoliyat davomida insonlar o‘rtasida yangi munosabatlar va aloqalar shakllanadi. Demak, muloqot va faoliyat o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Kishilar muloqotga kirishar ekan, savol berish, buyruq, iltimos qilish, biror narsani tushuntirish bilan birga o‘z oldiga boshqalarga ta’sir etish, shu narsani ularga tushuntirish maqsadini qo‘yadi. Ularning maqsadi kishilarning birgalikdagi faoliyatiga ehtiyojini aks ettiradi. Bunda muloqot shaxslararo o‘zaro ta’sir sifatida namoyon bo‘ladi, ya’ni kishilarning birgalikdagi faoliyati jarayonida paydo bo‘luvchi aloqa va o‘zaro ta’sirlar yig‘indisidir. Birgalikdagi faoliyat va muloqot ijtimoiy nazorat sharoitida ro‘y beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.I.Xaydarov. N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya.
2. Internet tarmog’idagi veb - saytlar ro’xati : www.LEX.UZ.
3. Andreeva.G.M. «Sotsialnaya psixologiya» Uchebnik M-1998 y
4. Rubinshteyn.S.L. «Osnov obshey psixologii» M-1998 y.

GENDER STEREOTIPLAR VA ULARNI NAMOYON BO‘LISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI

Saribayeva Umida Sattarovna

TAFU Psixologiya kafedrasi dotsenti

Sh.Mirziyoyev o‘z nutqida: “Meni kishilarimizning ongida paydo bo‘lgan stereotip ko‘p o’ylantiradi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo‘rg‘onining qo‘riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu shubhasiz to‘g‘ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo‘lishi kerak”ligi ta’kidlagan[1].

Har bir insonning vakillik tizimida uning shaxsiy tajribasi tufayli o‘ziga xos tarkibiy qismlar mavjud. Misol uchun, "ideal er yoki xotin", "haqiqiy ayol yoki haqiqiy inson", "yaxshi ota-ona" tasvirlari o‘z tajribasi bilan shakllanadi, bu har doim noyob hisoblanib kelingan va shaxsning o‘zi va boshqalarni baholashga mos keladigan "o’lchov" mezonlarini shakllantirishga olib keladi. Bunday aniq tuzilmalarni tanlash va ijtimoiy axborot sifatida qabul qilinishi aslida, turli xil stereotiplarning shakllanganligi natijasidir[2].

A.V.Merenkov gender stereotip tushunchasiga shunday ta’rif beradi, - **“**Gender stereotip bu "qabul qilish xususiyati, maqsadga intiluvchanlik, mazkur madaniyatda qabul qilingan muayyan jins vakili turmushi va faoliyatidagi me’yor va qoidalarni hisobga olgan holda inson xulq-atvorining dasturiy anglashilishidir"[3].

Shuningdek, I.S.Kletsina ta’rificha, - “Gender stereotiplar — bu mazkur jamiyat uchun aynan shu tarixiy davrdagi erkaklar va ayollar o‘rtasidagi farqliklar to‘g‘risidagi tasavvurlar, "erkaklarga xos" va "ayollarga xos" tushunchalarga mos keluvchi xulq-atvor modellari va xarakter xususiyatlari to‘g‘risidagi andazalashtirilgan tasavvurlardir[4].

Tadqiqotimizda gender stereotiplarni namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o‘rganildi, natijalarida ayollar ham erkaklar kabi amaliy faoliyatga jiddiylik va ma’suliyatlilik bilan yondoshishlarini, mutaxassislik rolini erkaklar kabi yuqori darajada o‘zlashtirganliklari aniqlandi, unga ko‘ra, xotinning o‘rtacha ko‘rsatkichi - 7,6; erkakniki - 8,5 ga teng; shaxsiy rollarni egallashda muvaffaqiyatlilik xotinlarda – 7,3 va erkaklarda – 7,6 ga teng bo‘lib har ikkisida o‘ziga ishonch, o‘zidan mamnunligini, rozilik xissi shakllangan, 1-jadvalga qarang.

Psixologik tadqiqotlar natijasida intellektual-kognitiv rollarni egallashda erkaklarda – 8,6 va xotinlarda 7,9 ni tashkil etib, erkaklar tomonidan ayolning psixologik holatini yaxshiroq his etishlari aniqlandi. Ammo bu sifatlarni tashqi namoyon etilishi ayollarning psixoemotsional, hissiy rollarni egallaganliklari va muloqotga ochiqligiga bog‘liqligi bog‘liqligi tasdiqlandi, xotinlarda – 8,3 ga, erkaklarda 7,5 ga teng.

1-jadval

NaO er-xotin gender stereotiplari va gender rollarini baholari (M-o‘rta arifmetik ko‘rsat kich asosida N-163)

Gender rollar	mutaxassislik roli	Shaxsiy rol	boshqaruvchilik roli	kommunikativ	intellektual-kognitiv	psixoemotsional, hissiy ta’sir	gender xulq-atvor	androgenlik roli	jinsiy rol	gender rol
Xotin…M	7,6	7,9	7,1	8,6	7,9	8,3	7,3	8,9	5,2	5,6
Er…M	8,5	6,6	8,0	6,8	8,6	7,5	7,8	7,8	6,8	7,3

Kommunikativ rollni egallaganlik xotinlarda -8,6 yuqori, erkaklarda -6,8 ga teng. Ayollar har qanday vaziyatda hamma qatori o‘z fikrini baham ko‘rishi kerakligiga amin bo‘lgan holatda, kommunikabeldirlar, erkaklar -6,8 o‘rtacha ko‘rsatkich, chunki ular real va pragmatik hisoblanishadi, bu esa gender tenglikni saqlanishida er-xotin kommunikatsiyasini meyorlashtirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Psixologik tadqiqotlar natijasida intellektual-kognitiv rollarni egallashda erkaklarda – 8,6 va xotinlarda 7,9 ni tashkil etib, erkaklar tomonidan ayolning psixologik holatini yaxshiroq his etishlari aniqlandi. Ammo bu sifatlarni tashqi namoyon etilishi ayollarning psixoemotsional, hissiy rollarni egallaganliklari va muloqotga ochiqligiga bog‘liqligi bog‘liqligi tasdiqlandi, xotinlarda – 8,3 ga, erkaklarda 7,5 ga teng.

Har ikki jins vakillari, erkak ham, ayol ham gender rollardan xabardorligining yuqori darajasi qarama-qarshi jins vakillari bilan o‘zaro ta’sir, idrok va faoliyat jarayonida yuqori natijani aks ettirdi va turli xil mutaxassislik va shaxsiy rollarni muvaffaqiyatli egallashlari aniqlandi. Boshqaruvchilik qobiliyatini namoyon qilinishida ayollar empatiyaga, xissiyotga suyanishi, erkaklarni ko‘proq amaliy natija samaradorligi o‘ziga jalb qilishi kuzatildi. Har ikkisi ham qarama-qarshi jinsdagi odamlar guruhlarini jamoani boshqara olish qobiliyatiga egaligi aniqlandi.

Nizoli oila (NiO) er-xotinlar natijalarida jinsiy va gender rollarni yaxshi farqlay olmasliklari ayollarda – 2,3 va erkaklarda – 3 ga tengligi aniqlandi. Shuningdek kommunikativ, kognitiv, psixoemotsional, xissiy, gender xulq-atvor, androgen rollarni quyi darajada shakllanganligini tasdiqlaydi. Bunda ko‘rsatkichlar qarama-qarshi jins vakillari bilan o‘zaro munosabatlar jarayonida quyi vakolatga egaligini va gender tenglikka erishishda amaliy samaradorlikni pastligini anglatadi, 2-jadvalga qarang.

2-jadval

NiO er-xotin gender stereotiplari va gender rollarini baholari (M-o‘rta arifmetik ko‘rsat kich asosida N-115)

Gender rollar	mutaxassislik roli	Shaxsiy rol	boshqaruvchilik roli	kommunikativ	intellektual-kognitiv	psixoemotsional, hissiy ta’sir	gender xulq-atvor	androgenlik roli	jinsiy rol	gender rol
Xotin M	2,6	4,9	4,2	3,7	3,8	4,8	4,3	5,9	2,3	2,1
Er M	4,6	3,3	3,1	3,0	3,2	3,6	4,6	3,4	3,0	3,3

Tadqiqot natijalarida insonning aqliy, ruhiy-ma’naviy, psixologik sog‘lomligi va sifatlari jinsga bog‘liq emasligi tasdiqlandi. Bu ijtimoiy hayot tarziga, ijtimoiy, milliy-madaniy munosabatlarga, ijtimoiy normalar va hayot kechirish tarziga, o‘zbek oilasida yetakchi va dominant shaxslarning xissiy-motivatsion, kognitiv, intellektual, kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yetukligiga ham bog‘liqligi o‘z isbotini topdi. Olingan empirik tadqiqot natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, real hayotdagi ijtimoiy normalar va ijtimoiylashuv jarayoni ayollarda aynan ayollikka xos, erkaklarda erkakka xos xislatlarni shakllantirmaganligini, bu gender farqlilik u qadar bir-birini inkor etmasligi, ayol ham, erkak ham, har ikki turdagi eng yaxshi gender xususiyatlarni vaziyat taqazosi bilan o‘zlashtirganligini tasdiqladi. “Umumiy jozibadorlik” ayollarda 49,1 foizni, erkaklarda 52,7 foiz, umumiy ko‘rsatkich – 51,2 ni tashkil etgan, bu genderning jins xulq-atvorida jinsiy hamrohga xos sifat ko‘rsatkichlarini yetarli namoyon etilmasligi bilan izohlanadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, erkaklarning erlik roli nuqtai nazaridan ijtimoiy mavqeini, oilada erlik hurmatini, obro‘sini saqlab qolishga intilishlari ayollarining xulq-atvori sabab, atrofdagilarni, qarindoshlarni, mahalla ko‘yni noo‘rin gap-so‘zlaridan, ya’ni ijtimoiy xavfdan himoyalanish mexanizmi qonuniyati bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019 y., 03/19/562/3681-son; *Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi*.

2. Bern Sh. Gendernaя psixologiя. - SPb., 2003. - 318 s.

3. Kleцina I.S. Gendernaя soцializaцiя. Uchebnoe posobie. Sankt-Peterburg, izd-vo RRPU im. A.I.Rersena, 1998. - S.19.

4. Merenkov A.V. Soцiologiя stereotipov. - Ekaterinburg: Izd-vo Ural. Un-ta, 2001, S. 161.

VOYAGA YETMAGANLARNING KIBERMAKONDA SALBIY AXBOROT XURJLARIGA TUSHISHINING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI VA UNI OLDINI OLISH

Saydazimov Alisher Nurali o‘g‘li

TAFU psixologiya yo’nalish magistri

Annotatsiya. *Zamonaviy dunyoda voyaga yetmaganlarning kibermakon bilan o'zaro ta'siri tobora kuchayib bormoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar ularning hayotining muhim qismi bo'lib qolgan bo'lsa-da, bu texnologiyalar o'zlarining salbiy ta'sirlariga ham ega. Voyaga yetmaganlarni kibermakonning salbiy axborot xurjlariga tushishidan asrash, ularning ruhiy salomatligini saqlash va ularni samarali tarbiyalash uchun zarur bo'lgan muhim masaladir.*

Kirish. Bugungi kunda kibermakonda tobora kengayib borayotgan Internet tarmoqlari orqali turli ma’lumotlarni olish yoki uzatish vositasida yoshlar

o‘zlarining bilimlarini chuqurlashtirish va boyitish, ma’naviy ehtiyojlarini yanada kengroq va to‘laroq qondirish imkoniyatlariga ega bo‘lishmoqda. Natijada internet xizmatlaridan foydalanishga nisbatan ehtiyojning shiddat bilan ortib borayotganligi oqibatida bu jarayonlar tobora globallashib boryapti.

Kibermakonda salbiy axborot xurjlari nimalardan iborat?

Salbiy axborot xurjlari voyaga yetmaganlarning kibermakonida turli xil salbiy tajribalarni o'z ichiga oladi:

Uyat va o'z tanqidi, jamiyatning salbiy ta'siri: O'z-o'zini ko'rishni buzishi va o'zini kamsitgandek hissi qilish.

Xavfli axborot va yolg'on, keng tarqalgan noto'g'ri axborot: Ular haqiqatni tushunish qobiliyatini pasaytiradi, odamlarni aldab qo'ya oladi va qabul qilishga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Nomuvofiqlik va stress: Ijtimoiy tarmoqlardagi ko'rsatiladigan hayotning mukammalligi, jamiyatning talablari va hayotning haqiqiy holati o'rtasidagi farq o'smirlarga stress keltirishi mumkin.

Siyosiy axborotga tahdidlar: Voyaga yetmaganlarning dunyoqarashini bo'zishi mumkin bo'lgan siyosatga oid salbiy axborot yoki tahlikali nuqtai nazarlar.

Patologik qaramlik: Kibermakonning salbiy axborotlari natijasida o'smirlar ijtimoiy dunyolaridan chetlashtirilishi, ularning normal ijtimoiy rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Shu kabi bir qancha bir qancha salbiy holatlar voyaga yetmaganlarning xulqida salbiy og’ishlar yuzaga keladi. Bularning asosiy sabablari kibermakondagi salbiy axbarotlarning voyaga yetmaganlar psixologiyasida ta’sir ko’rsatishidir.

Psixologik muammolar.

Depressiya: Salbiy axborot, shafqatsizlik va o'zini kamsitish his qilish tuyg'ulari depressiyani keltirib chiqarishi mumkin.

O'zini kamsitish his qilish: Ijtimoiy tarmoqdagi boshqalarning mukammalligi va o'zining noto'g'ri tasavvurlari o'rtasidagi farq o'zini kam his qilish tuyg'ularini keltirib chiqarishi mumkin.

Bekor bo'lish: Doimiy salbiy axborotning ta'siri ostida voyaga yetmaganlar o'zlarining irodasi, qarorlari va salomatligini hech narsaning ma'nosi yo'qligi tuyg'usi bilan ta'sirlanishi mumkin.

Ijtimoiy qo'rquvlar: Salbiy baholangani va ijtimoiy shtammlarni boshdan kechirish o'smirlarni boshqalar bilan muloqot qilishdan qo'rqish va ijtimoiy vaziyatlarda noqulaylik yoki stressga olib kelishi mumkin.

Uyqu muammolarini, kam uyqu uyquning buzilishi hamda kayfiyatni pasayishi.

Bunday psixologik muammolarning barchasi kibermakondagi salbiy axbarotning voyaga yetmaganlar xulqiga salbiy ta’sirida yaqqol namayon bo’ladi.

Oldini olish usullari:

Voyaga yetmaganlarning kibermakondagi salbiy axborot hujumlaridan himoya qilish uchun quyidagi choralarni ko'rish kerak:

Ta'lim va tarbiya: Voyaga yetmaganlarga kibermakon xavf-xatarlari, kiberzo'ravonlik va salbiy kontent haqida tushuntirish kerak. Ularga onlayn xavfsizlik qoidalari va o'zlarini himoya qilish usullarini o'rgatish lozim.

Nazorat va monitoring: Ota-onalar va o'qituvchilar voyaga yetmaganlarning onlayn faoliyatini nazorat qilishlari va ularning kibermakonda qanday vaqt o'tkazishlarini kuzatishlari kerak. Ammo, bu nazorat haddan tashqari bo'lmasligi va voyaga yetmaganlarning shaxsiy hayotiga aralashmasligi kerak.

Ochiq muloqot: Ota-onalar va voyaga yetmaganlar o'rtasida ochiq va ishonchli muloqot muhiti yaratish kerak. Voyaga yetmaganlar o'zlarining onlayn tajribalari haqida ochiqchasiga gapirishlari va muammolarini baham ko'rishlari kerak.

Texnik vositalar: Ota-onalar va o'qituvchilar kiberxavfsizlik dasturlari va filtrlaridan foydalanishlari mumkin. Ammo, bu vositalar faqat qo'shimcha himoya vositasi bo'lib, ularning o'rnini boshqa choralar bosmaydi.

Psixologik yordam: Agar voyaga yetmagan kiberzo'ravonlik yoki boshqa salbiy axborot hujumlariga duch kelsa, psixologik yordamga muhtoj bo'lishi mumkin. Psixolog voyaga yetmaganning psixologik salomatligini tiklashga va kiberzo'ravonlikning oqibatlarini engishga yordam beradi.

Qonunchilik va huquqiy himoya: Kiberzo'ravonlik va boshqa kiberjinoyatlarga qarshi qonunchilikni kuchaytirish va huquqiy himoya mexanizmlarini yaratish kerak.

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, kibermakonda kuzatilayotgan informatsion jarayonlar yoshlarimiz tarbiyasida axborot iste’moli bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos madaniyatni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, voyaga yetmaganlarning kibermakondagi salbiy axborot hujumlaridan himoya qilish uchun kompleks yondashuv zarur. Ta'lim, nazorat, ochiq muloqot, texnik vositalar va psixologik yordamning birgalikda qo'llanilishi voyaga yetmaganlarni kiberxavfsizlikdan himoya qilishga va ularning psixologik salomatligini saqlashga yordam beradi. Voyaga yetmaganlarning kibermakonda salbiy axborot xurjlariga tushishi jiddiy psixologik muammolarga olib kelishi mumkin. Ushbu muammolarning oldini olish uchun ota-onalar, o'qituvchilar va pedagog xodimlar hamda umuman jamiyat tomonidan izchil va samarali chora-tadbirlar ko'rish zarur. Voyaga yetmaganlarning kibermakon bilan o'zaro munosabatida to'g'ri yo'naltirilishi va onlayn va oflayn dunyolar o'rtasidagi

muvozanatni saqlash ularning sog'lom ruhiy salomatligi va kelajakdagi o'sishida muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Kiberjinoyatchilik (Matn): o‘quv qo’llanma/Niyozova Salomat Saparovna. – T.:TDYU nashriyoti, 2024. – 136 b.
2. Muhammad Amin Yahyo. Internetdagi tahditlardan himoya. Toshkent “Movarounnahr”, 2016.
3. Muminov A.G. Янgi O‘zbekistonda axborotlashuv jaraënining ustuvor yo‘nalishlari. Science and innovation. 2024/3. 605-611-betlar.

ADAPTIV INTELLEKT VA PSIXOLOGIK CHIDAMLILIK

Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

ziyodaxusanbayeva @gmail.com.

Zamonaviy dunyoda tez o'zgaruvchan sharoitlar, global muammolar va kundalik hayotdagi qiyinchiliklar insonlarning moslashuvchanlik va bardoshlilik qobiliyatini talab qilmoqda. Adaptiv intellekt va psixologik chidamlilik shu kontekstda ahamiyat kasb etadigan ikkita muhim tushunchadir. Ushbu maqolada adaptiv intellekt va psixologik chidamlilik o'rtasidagi bog'liqlik, ularning shaxsning rivojlanishidagi roli va kundalik hayotda qo'llaniladigan amaliy usullar ko'rib chiqiladi**.**

Adaptiv intellekt – bu insonning yangi va murakkab sharoitlarga tezda moslasha olish, muammolarni samarali hal qilish va o'zgarishlardan foydalanish qobiliyatidir. U an'anaviy intellekt (IQ) va hissiy intellekt (EQ) bilan bir qatorda, insonning hayotda muvaffaqiyat qozonishida muhim rol o'ynaydi. Adaptiv intellekt quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: Moslashuvchanlik-yangi sharoitlarga tezda javob berish,muammolarni hal qilish,qiyinchiliklarga yechim topish qobiliyati, o'rganish qobiliyati,yangi bilim va ko'nikmalarni tez o'zlashtirish, strategik fikrlash, uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish.

Psixologik chidamlilik – bu stressli, og'ir sharoitlarda ruhiy barqarorlikni saqlash va qiyinchiliklardan keyin tezda tiklanish qobiliyatidir. Chidamlilik insonning hayotdagi sinovlarni engib, ularni o'ziga xos imkoniyatga aylantirishiga yordam beradi. Chidamlilikning asosiy jihatlari: Emotsional barqarorlik: Stress va bosim ostida hissiyotlarni boshqarish. Optimizm: Og'ir sharoitlarda ham ijobiy nuqtai nazarni saqlash.Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash: Oilaviy, do'stona yoki professional yordam tizimlaridan foydalanish. Maqsadga intilish: Qiyinchiliklarni engib, maqsadlarga erishish uchun harakat qilish.

Adaptiv intellekt va psixologik chidamlilik o’rtasidagi bog'liqlik.

Adaptiv intellekt va psixologik chidamlilik bir-birini to'ldiradigan tushunchalardir. Adaptiv intellekt insonning yangi sharoitlarga moslasha olish qobiliyatini ta'minlasa, psixologik chidamlilik esa bu jarayonda ruhiy barqarorlikni saqlashga yordam beradi. Masalan: Stressli sharoitlarda moslashuvchanlik: Adaptiv intellekt stressli vaziyatlarda tezda yechim topishga yordam beradi, chidamlilik esa bu jarayonda ruhiy barqarorlikni saqlaydi. Qiyinchiliklardan o'rganish: Adaptiv intellekt orqali inson yangi tajribalardan saboq olish qobiliyatiga ega bo'ladi, chidamlilik esa bu jarayonda optimizmni saqlashga yordam beradi. Uzoq muddatli muvaffaqiyat: Adaptiv intellekt insonni doimiy o'zgarishlarga tayyorlaydi, chidamlilik esa bu o'zgarishlarni engib, maqsadlarga erishishga yordam beradi. Adaptiv intellekt va psixologik chidamlilikni rivojlantirish usullari:

Yangiliklarga ochiq bo'lish, yangi bilim, ko'nikmalar va tajribalarni o'rganishga intilish. Turli madaniyatlar, fikrlar va yondashuvlarni qabul qilish. Stressni boshqarish:Meditatsiya, nafas olish mashqlari va boshqa relaksatsiya usullarini qo'llash. Stressli vaziyatlarda ijobiy fikrlashni o'rgatish.

Adaptiv intelekt- bu yangi qiyinchiliklar va vazifalarni tezda qayta qurish, yangi xatti-harakatlarni yaratish va o'zlashtirish imkoniyatidir. Bu tezkor echimlarni hal qilishga yordam beradi, muammolarni hal qiladi, jamiyatda psixologik qulay his eting. Adaptiv razvedka sharoitida psixologik barqarorlik hissiy barqarorlikni, ishlashni va noander bo'lmagan vaziyatlarda chiqish qobiliyatini anglatadi. Agar biz muntazam ravishda moslashuvchan aqlni rivojlantirsak, o'zgarishlar stressga olib kelmaydi va ularning tezkor xatti-harakatlari qanchalik yangi xatti-harakatlardan kelib chiqadi. Adaptiv intellekt ega bo'lgan odamlar, targ'ib qilingan shaxsiy inqirozlarga ko'proq moyil bo'lib, ular bilan o'rtacha yoki yuqori darajada moslashuvchan aqlga ega bo'lgan odamlarga qaraganda ko'proq va qiyinroq.Adaptiv intellekt nazariyasining yaratuvchilar va asosiy tadqiqotchilaridan biri R. Sternberg deb hisoblanadi.Dastlab, vaqt o'tishi bilan psixologiyadagi biologik atama qo'shimcha ma'nolarga ega. Moslashtirish, sharoitlar va sharoitlarga mos keladigan modellar va sharoitlar, shuningdek atrof-muhit bilan uyg'un munosabatlar, shu jumladan ijtimoiy va madaniy muhitning paydo bo'lishi deb tushunish kerak.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, adaptiv intellekt va psixologik chidamlilik zamonaviy dunyoda muvaffaqiyat qozonishning asosiy kalitlaridir. Ular insonlarning yangi sharoitlarga moslasha olishi, qiyinchiliklarni engib o'tishi va hayotda muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi. Bu ikki tushunchani rivojlantirish orqali har bir inson o'z hayotini yanada samarali va mazmunli qilishi mumkin. adaptiv va hissiy intellektning yetarli darajada rivojlanmaganligi ijtimoiy va hissiy

moslashuvga, o'z xatti-harakatlarini boshqarishda qiyinchiliklarga, qiyin ijtimoiy vaziyatlarda xatti-harakatlar chizig'ini qurishga va shaxsiy qarorlarni qabul qilishga olib keladi. ijobiy natijalar.

Adabiyotlar ro’yxati:

1.Григорева М.В. Рол социалного интеллекта в процессе психологической адаптации старшеклассников // Теория и практика общественного развития. 2015. №6. УРЛ: ҳттпс://сйберленинка.ру/артисле/н/рол-сотсиалного-ин-теллекта-в-протсессе-психологической-адаптатсии-старшеклассников

2. Кутейников А.Н. Эмоционалный интеллект как фактор адаптации к учебному процессу // Фундаменталные исследования. 2015. № 2-22.

3. Люсин Д.В. Современные представления об эмоционалном интеллекте [Текст] / Д.В. Люсин // Социалный интеллект: Теория, измерение, исследования / Под ред. Д.В. Люсина, Д.В. Ушакова. – М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2004.

4. Макарычева И.Н. Интеллект как адаптивная способност – проблемы и перспективы изучения // Психологические науки. Эвразийский Союз

YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA LIDERLIKNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Yo‘ldoshev Javlon Ablanazar o‘g‘li

Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi

Sayfiyeva Sevinch Olimjon qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola hozirgi kunda o‘quvchilarda liderlikning rivojlanishing psixologik psixologik turlari va ularning xususiyatlari. O‘quvchilardagi liderlikni rivojlantirishning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari hamda muammolari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *liderlik, o’quvchilarda liderlik xususiyatlari, rasmiy va norasmiy lider, shaxs, individual-psixologik xususiyatlar, psixologik portret.*

Kirish. Bizga ma'lumki, har qanday guruh, tashkilot, jamoada, bo'linmada tan olingan obro’-e’tiborga ega bo'lgan shaxs mavjud va u mazkur tashkilotning faoliyatiga bevosita ta'sir o'tkazadi, bu o'zini boshqaruv harakatlari sifatida namoyon qiladi, shuningdek, Amir Temurning "Azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir", degan fikri ham tasdiqlaydi va bugungi kunda biz bunday shaxslarni liderlar deb ataymiz.

Biz o‘rganmoqchi bo‘lgan muammo ham lider shaxsi haqida, uning ijtimoiy guruhga ta’siri haqida qandaydir tasavvurlarni shakllantirishga va, eng asosiysi, insonni lider qila oladigan u yoki bu xususiyatlar to‘plamini aniqlashga qaratilgan.

Shu orqali bu xususiyat larning nasliy yoki yo‘qligi va shunga bog‘liq holda (agar ular korrektirovka qilinadigan bo‘lsa), bu xususiyatlarni boshqa insonda shakllantirish mumkinligini aniqlashga harakatqilamiz. Bunda turli davrlarda tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan nazariyalarni ko‘rib chiqqan holda tahlil qilishga, qanday xususiyatlar liderda jamlanganligi va ulardan qaysilari yuqori o‘rin tutishini aniqlashga va shu bilan birga, shaxsda liderlik xususiyatini shakllantirishga xizmat qiladigan dastur va treninglarni o‘rganib chiqishga e’tibor qaratiladi.

Fikrimizcha, samarali faoliyat olib boruvchi sinf rahbari o‘z sinf jamoasida aynan shunday muhitni yaratishi kerakki, har bir o‘quvchi zarur vaziyatda o‘z imkoniyatini ishgasolish orqali topshiriqlarni bajarishda qatnashishi va ushbu jarayonda ishtirok etayotganini his qila olishi zarur. Buning uchun jamoa, har qanday vazifa, topshiriqlarni hal etishda chuqur mas’uliyat his etuvchi va o‘ziga ishongan o‘quvchilarga ega bo‘lishi lozim. Bolaning jamoaviy munosabatlarga kirishuvi o‘rtoqlari bilan shaxslararo munosa- batlar tizimida amalga oshadi. Bolaning atrofidagi jamoaviy munosabatlarga kirishuvchi odamlar: uning ota-onasi, aka-opasi va tarbiya maskanidagi o‘rtoqlari boshqa a’zolardir.

Bolaning kelajakda shaxs sifatida shakllanib, yetuk inson bo‘lib kamol topishi hamdahayotda o‘z o‘rnini topib ketishida uning jamoaviy munosabatlarga qanday kirishuvi,jamoada qanday psixologik iqlim hukm surganligi, o‘z o‘rtoqlari bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlarining qanday tarzda kechganligi muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, guruhda doimo shunday bolalar topiladiki, ular paydo bo‘luvchi ko‘pgina muammoli vaziyatlarni hal eta oluvchi universal qobiliyatga ega. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, liderlik ko‘p jihatdan shaxs tug‘ma qobiliyalarining yetarli darajada shakllanganligi bilan ham xarakterlanadi. Shu sababli ham o‘qituvchi o‘quvchilar jamoasi bolalardan iborat ekanligini unutmasligi, har bir o‘quvchi shaxsini e’tibordan chetda qoldirmasligi kerak. O‘quvchilar bilan psixologik aloqaning qisqa muddatga bo‘lsa-da yo‘qolishi og‘ir oqibat- larni vujudga keltiradi. Demak, har bir o‘quvchida liderlik sifatlarini shakllantirish o‘qituvchidan har bir bolaga nisbatan individual yondashishni talab qiladi.

Jumladan, har bir bolaning ichki imkoniyatlariga qarab topshiriq va vazifalarni taqsimlash, o‘z navbatida, ularga ishonch bildirish, rag‘batlantirish, faolligini oshirish va tashabbuskorlik, tashkilot- chiliklarini yanada kuchaytirish orqali liderlik sifatlarini shakllantirib borish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Lider, odatda, guruhning norasmiy munosabatlar tizimida namoyon bo‘ladi. Muayyan shaxsning lider darajasida tan olinishi unga ruhan yaqinlikni, uning ish bilan bog‘liq qator fazilatlarini yuqori baholashni, ushbu shaxsning guruh

manfaatlariga e’tibori kuchliligini anglatadi. Lider – guruhning hamma a’zolari tomonidan tan olingan shaxs lider. Liderning qadriyatlar tizimidagi asosiy jihati guruh manfaatini har narsadan ustun qo‘yish, guruh oldiga qo‘yilgan vazifani hal etishga sidqidildan kirishib, bu jarayonga jamoani safarbar eta bilishidir. Mehnat jamoasidagi yetakchi, avvalambor, ishchanligi va ijtimoiy faolligi bilan ajralib turadi.

Rahbarlik – lavozim lider guruh tomonidan saylangan shaxs.Agar rahbar va lider o‘rtasidagi farqqa e’tibor beradigan bo‘lsak, rahbar xodimlarga ega, liderning esa hamfikr tarafdorlari mavjud. Rahbar tayinlanib, boshqaruvda hokimiyatga suyansa, lider jamoa a’zolari orasidan saylanib, jamoaga tayanadi. Barcha ta’lim tizimida yoshlarning ijodiy iste’dodlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratish lozim. O‘qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchilarning tashabbuslari, innovatsion g‘oya va fikrlarini, iste’dod va iqtidorini o‘z vaqtida ko‘ra olishi va uni ro‘yobga chiqarish uchun ko‘makdosh bo‘lish.

Yoshlarda yetakchilik ko‘nikmalari va boshqaruv mahoratini rivojlantirish orqali yuksak ma’naviyatli yetakchi yoshlarni tarbiyalash, ularni mamlakatimiz taraqqiyoti va uning istiqboli uchun yo‘naltirish talab etiladi.

Tahlil va natijalar

Liderlik va rahbarlik. Mehnat jamoasidagi har bir xodim guruhda o‘zining mavqeiga ega. Bu rasmiy yoki norasmiy tarzda qo‘lga kiritilgan bo‘lishi mumkin. Rasmiy mavqe xodimning mansab pog‘onasidagi o‘rni va uning lavozimidan kelib chiquvchi vakolatlari bilan ifodalanadi. Har qanday xodim o‘z hamkasabalari bilan o‘zaro munosabatda bo‘lar ekan, turli omillar ta’sirida bu munosabatlar hissiy rang ola boshlaydi. Hissiyotga asoslangan munosabatlar ikki ko‘rinishda - yoqtirish (simpatiya) va yoqtirmaslik (antipatiya) sifatida shakllanadi. Shunday xodimlar ham borki, ular o‘zining ma’lum hislatlari bilan jamoaning ko‘pchilik a’zolarida simpatiya uyg‘ota oladilar va ular guruhning norasmiy tizimida yuqori mavqeni egallaydilar. Psixologik talqin bo‘yicha, jamoaning rasmiy tizimida yuqori mavqeni egallovchi xodim rahbar bo‘lib hisoblansa, norasmiy tizimda yuqori mavqeni egallovchi shaxs esa - liderdir. Mehnat jamoasidagi lider avvalambor o‘zining ishchanlik xususiyatlari bilan farqlanib turadi, chunki, u aynan mehnat faoliyati tufayli boshqalardan ajralib ko‘zga tashlana boshlaydi. Bundan tashqari, lider, guruh manfaatini himoya etar ekan, kezi kelganda rasmiy munosabatlar tizimiga va rasmiy doiralar manfaatiga ham zid chiqa oladi. Natijada, jamoada rasmiy rahbar va norasmiy lider o‘rtasida ziddiyat paydo bo‘lishi mumkin.

O‘sib borayotgan avlodning tashkilotchilik faoliyati muammosi psixologiya - pedagogika fani tomonidan XX asrning 20-30-yillardayoq faol hal qilib borilgan. Mazkur muammo bolalarning o‘z - o‘zini boshqarishini qurish yo‘llarini ishlab chiqish nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilgan. Liderga xos bo‘lgan fazilatlar orasida

odatda o‘tkir zehn, kuchli iroda va maqsadga intiluvchanlik, jo‘shqin energiya, o‘ziga xos tashkilotchilik qobiliyati va ayniqsa, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga tayyorlik, kompetentlik, odamlarda ishonchni uyg‘otish qobiliyati va boshqalar ko‘rsatiladi.

Psixologik talqin bo‘yicha, jamoaning rasmiy tizimida yuqori mavqeni egallovchi xodim rahbar bo‘lib hisoblansa, norasmiy tizimda yuqori mavqeni egallovchi shaxs esa lider. Liderlik holati, odatda, guruhning norasmiy munosabatlar tizimida amalga oshadi. Biron-bir shaxsning lider darajasida tan olinishi unga borliq bo‘lgan qator fazilatlarini yuqori baholashni va ushbu shaxsning guruh manfaatlariga e’tiborliligini anglatadi. Lider - guruhning aksariyat a’zolari tomonidan tan olingan shaxs. Liderning qadriyatlar tizimidagi asosiy jihati - guruh manfaatini har narsadan ustun qo‘yish, doimo guruh oldiga qo‘yilgan vazifani yechishga sidqidildan kirishish va bu jarayonda jamoani safarbar eta olishidir.

Xulosa va takliflar

Zamonaviy jamiyatda o'smirlarning liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Jamiyatdagi o'zgarishlar, ijtimoiy munosabatlar va texnologik rivojlanish davrida o'smirlar jamiyatning faol a'zolari sifatida o'z rolini topishlari va shakllantirishlari kerak. Buning uchun ijtimoiy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim berish, o'smirlarning liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarda liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishda ularning madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya qilish, har bir fuqaro shaxsini inson sifatida hurmat qilish unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bo‘lish, ishga ijodiy yondashish talab qilinadi.

Dars jarayonida qo‘llaniladigan ta’lim metodlarning o‘ziga yarasha pedagogik ahamiyati mavjud. Biz sinfda yetakchi o‘quvchilarni shakllantirishimiz uchun ko‘proq jamoa bo‘lib ishlashga, jamoada bir-birini fikrini xurmat qilishga va o‘z fikriga qat’iy turishga o‘rgatadigan pedagogik ahamiyatga ega metodlardan foydalanishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Chemers M. (1997) An integrative theory of leadership. Lawrence Erlbaum Associates, Publishers. ISBN 978-0-8058-2679-1

[2] G’oziyev E.G’. “Ontogenez psixologiyasi”.-T.: Noshir. 2010

[3] Yusupov E. Yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish yo'llari.- T.: O'qituvchi, 1996. – B. 187.

[4] Markova A. K. Psixologiя truda uchitelя. M.: Prosveshenie, 1993.Talaba192 s.

[5] Shamshetova A. K. Umumiy psixologiya // o‘quv –uslubiy majmua. O‘zDJTU – 2018. 320 bet.

[6] Ibraimov, X., Azimova, Z., & Otaboeva, Z. (2023). Pedagogical peculiarities of studying group solidarity in the student community. *Science and innovation*, *2*(B12), 108-113.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALANI SALBIY AXBOROT XURUJLARIDAN HIMOYALASHDA TARBIYACHI-PEDAGOGLAR O’RNU

Artikova Nodira Shavkat qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistr talabasi

Bugungi kunda, bola informatsion oqimlar ta’sirida o‘sayotgan davrda ota-onalar, tarbiyachilar hamda keng jamoatchilik oldida muhim masalalar turibdi. Bu birinchi o‘rnda bolalar ongini noto‘g’ri, salbiy ma’lumotlardan himoyalashdir. Ota-onalar ko‘pincha: “Biz bolalarga qanday kiyimlar xarid qilyapmiz?”, “Qaysi multfilmlarni tomosha qilyapti?”, “Qanday uy jihozlari, o‘qish qurollarini xarid qilib beryapmiz?” degan savollarga o‘zlari uchun javob beradilar. Bu kabi savollarga o‘z vaqtida javob olinmasa, keyinchalik: “Farzandimiz nima uchun urishqoq, bemehr?,“Farzandim o‘zgarib qolyapti...”, “Ilgari bunday emas edi-ku...”, “G‘alati harakatlar qilyapti...” degan ikkilamchi fikrlar yuzaga kelishi mumkin bo‘ladi. Lekin bolalarimizdagi salbiy sifatlar zamini qayerda: Bizdami? Genlarimizdami? Yoki boshqa omillar mavjudmi? degan savollarni ota-ona, tarbiyachilar, jamoatchilik berishi kerk. Zero, bolalar bizning kelajagimiz va salbiy information hurujlar oldini vaqtliroq olish asosiy vazifamiz hisoblanadi.

Amerikalik psixologlarning ta’kidlashicha, teleko‘rsatuv va multfilmlarni ortiqcha ko‘rish bolada hadik va hayajonni yuzaga keltiradi. Bolani shaxs sifatida rivojlanishini, ayniqsa, mustaqil fikrlash qobiliyatini tormozlaydi. Bolalar eng ta’sirchan va himoyalanmagan tomoshabin bo‘lib, agar ota-onalar 9 oylik bolani o‘zlari bilan bo‘ladigan jonli muloqotni televizor bilan bo‘ladigan muloqotga almashtirishsa, 20% bolada rivojlanish ortda qolar ekan. Agar teleko‘rsatuvlarni ko‘rish shu tarzda davom etaversa, 3 yoshga yetganda rivojlanishda o‘z tengdoshlariga nisbatan 1 yilga ortda qolib ketar ekan. Bundan tashqari, 12 yoshga borganda bolalar televizor orqali 100 mingta zo‘ravonlik va qotilliklar guvohiga aylanib qolar ekan. Shuningdek, psixologik kuzatuvlardan ko‘rinadiki, hozirgi davrda 4 yoshdagi bolalarning 25 %ida nutqida nuqsonlar kuzatilmoqda. Taqqoslash uchun ushbu faktga murojaat qilish o‘rinli: 20-asrning 70-yillarida nutqida nuqson shu yoshdagi bolalarning faqatgina 4 %ida kuzatilgan ekan.

Mashhur kanadalik psixolog A.Bandura ommaviy axborot vositalarini inson shaxsiga ta’sirini tadqiq etgan. Tajribada 3-7-yosh bolalar ishtirok etishgan, ularga katta odam tomonidan qo‘g‘irchoqqa negativ munosabatni ifoda etilgan qisqa

metrajli multfilmlar ko‘rsatilgan. Multfilmni ko‘rib bo‘lgach, bolalarga 10-20 minut o‘ynash imkoniyati berilgan. Eng e’tiborli tomoni shundaki, bolalarning aksariyat qismi aktyor tomonidan ko‘rsatilgan film lavhasidagi agressiyani takrorlashga harakat qilganligi kuzatildi. Chunki u ko‘rgan multfilmidagi qahramon obraziga o‘zini qo‘yib idrok etadi. O‘zini multfilm qahramoni bilan taqqoslash va andoza olish orqali u yaxshi yoki yomon illatlarni o‘ziga singdiradi. Uning fikriga ko‘ra, g‘arb kinomahsulotlari tufayli juda ko‘p bolalar johil, urushqoq, qahri qattiq bo‘lib qolayotganligi va normal insoniy hislardan ancha yiroq bo‘lib qolishlari ko‘rinar ekan. Ijtimoiy tarmoqlar orqali bolani kuzatadigan bunday negativ vaziyatlari bola uchun go‘yoki nizoli vaziyatlarda qo‘llashi zarur bo‘lgan model bo‘lib xizmat qilishi mumkin ekan.

Xo‘sh ushbu vaziyatni oldini olish, yechimi qayerda degan savol tug’iladi. Jamiyatda mutlaq ijodiy yoki mutlaqo ijodiy bo‘lmagan faoliyat mavjud emas. Faoliyatning asosiy maqsadi yangi narsalarni yaratish (masalan, ilmiy faoliyat) va ko'paytirish (mavjudini seriyali ishlab chiqarish) bo'lgan faoliyat turlarini ta’kidlash mumkin. Har qanday yo'nalishdagi (progressiv va regressiv) faoliyatga ijodiy yondashish uning sub'ektini rivojlanishi va uning ijodiy o'z- o'zini anglashini ta'minlaydi. Kreativlik- insonning yangi, o‘ziga xos, betakror narsalarni yaratish qobiliyatidir. Agar "kreativlik" tushunchasi insonning ijodkorlik qobiliyatini aks ettirsa, kreativlik bu qobiliyatni amalga oshirish jarayoni, ya'ni ijodiy imkoniyatni haqiqatga aylantirishdir. Boshqa tomondan, faqat kreativ, ijodiy faoliyatda ijodkorlikning shakllanishi va rivojlanishi sodir bo'ladi.

Rus pedagogi V.V.Bauluk kreativlikni rivojlantirish dialektik xarakterga ega ekanligini yozadi. Pedagogik faoliyatda kreativlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlagau holda, muallif bo‘lajak pedagog tarbiyachilarni turli faoliyatga qiziqtirish kerakligini ta’kidlaydi. Demak, inson kreativligi ijodkorlikning asosi, ijodkorlik (ijodiy faoliyat) esa uning ijodining shakllanishi va rivojlanishining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Ijodiy faoliyatda shaxsning ijodkorligini ro'yobga chiqarish darajasi, bizning fikrimizcha, “kreativ ijodkorlik” atamasi bilan ifodalanishi kerak.

Ta'limda ijodkorlikni o'rganishning muhim uslubiy ahamiyati undagi mahsuldor ijod bilan bir qatorda reproduktiv ijodkorlikni ham aniqlash muhimdir. Samarali, produktiv ijodda unda yaratilgan yangilik ta'limning barcha sub'ektlari va umuman jamiyat uchun muhim bo'ladi. Bu ob'ektiv yangilik. Reproduktiv ijodda ijod sub'ekti tomonidan "yaratilgan" yangilik faqat o'zi uchundir. Bu subyektiv jihatdan yangi.

Kasbiy ta'limda samarali ijod sub'ektlari pedagoglardir (lekin har doim ham emas), lekin ba'zida talabalarda ham kreativ qobiliyat paydo bo'ladi. Talabalarning ta’lim faoliyati (o‘z-o‘zini tarbiyalash) pedagogik faoliyatdir. Shuning uchun bu

faoliyatdagi kreativlik, ijodkorlik ham pedagogikdir. Zero, maqsad, mazmun va vositalar nuqtai nazaridan talabalarning faoliyati kasbiy subyektivlikni shakllantirishda asosan ta’limiy- tarbiyaviy faoliyatiga mos keladi. Shaxsning ijodiy o'zini o'zi anglashi uning eng yuqori muvaffaqiyatidir. Shu sababli, bizning fikrimizcha, zamonaviy kasbiy ta'limning ustuvor vazifasi barcha bo'lajak universitet bitiruvchilarida kreativlik, ijodkorlik yoki boshqacha qilib aytganda, "kreativ shaxs" kabi integratsion sifatni shakllantirishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda "kreativ shaxs" sifatlarini shakllantirishda bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloi tabriyachisini o‘zida kretivlik shakllangan bo‘lishi kerak. “Hech narsa so‘ramagan hech narsani o‘rganmaydi”, deb yozadi avstraliyalik yozuvchi E. Eshenvah,. Bizning fikrimizcha, ijodiy yo'naltirilgan ta'limda “Nima uchun? Nimaga? kabi savollarning uzoq umr ko'rishini kafolatlashi va jamiyat manfaati uchun ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqargan odamlar sonini kamida bir necha barobar oshirishga qodir. Demakki, kreativlikni rivojlantirishning asosiy ob’ektlari MTTdagi tarbiyalanuvchilar bo‘lib, ular bilan ishlaydigan tarbiyachinig kreativligi va ijodkorligi bo‘lajak individumni betakror shaxs bo‘lib shakllanishiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bolani salbiy informatsion oqimlar ta’siridan himoyalash mexanizmlari biz kattalr qo’lida. Bolalar bilan ishlashga vaqtimizni ayamasligimiz, yangilik yaratishga bolani yo’naltirishimiz va o‘zimiz bunda o‘rnak bo‘lishimiz juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bayluk V. V. Nauchnaя deяtelnost studentov: sistemnыy analiz. M., 2018. C. 62

2. Bayluk V.V. Chelovekoznanie Samoobrazovatelnaя i samovospitatelnaя realizaцiя lichnosti kak zakonы uspexa. Ekaterinburg, 2012.

3. Saidjanov F.M. Axborot-psixologik xurujlarning ta’sir prinsiplari va ularga ilmiy yondashuv mexanizmlari. Journal of new century innovations - International scientific electronic journal.ISSN (p): 2181-3671 Volume–18_Issue-2_December_2022. 119-120

XORIJIY OLIMLARINING MOTIVATSIYA MUAMMOLARINI O‘RGANISHGA BO‘LGAN YONDASHUVLARI

Yo‘ldoshev Javlon Ablanazar o‘g‘li

Toshkent amaliy fanlar universiteti

yoldoshevjavlon37@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xorijiy olimlarining motivatsiya muammolarini o‘rganishga bo‘lgan nazariy yondashuvlari va fikrlari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *motiv, motivatsiya, nazariy yonadshuv, ustanovka, shaxslararo munosabat.*

Jahonning buyuk olimlari shaxslararo munosabatlar masalasiga alohida ahamiyat berganlar. Ularni keltirib chiqaruvchi va harakatlantiruvchi motivlar, motivatsiyalar to‘g‘risida ba’zi fikrlarini bildirganlar. Chet el psixologiyasida motivlarni o‘rganishga bag‘ishlangan qator ilmiy izlanishlar mavjuddir. X.Xekxauzen motivlarning kengaytirilgan modelini yaratdi, bunda muhokama qilingan motivatsiya mezonlarining aksariyati hisobga olingandir. Motivlar modelida kutilma va qo‘zg‘ovchining mezonlari o‘zaro aloqaga kirishadi. Harakatning har qaysi oqibati muayyan qo`zg`atuvchi bilan aloqaga kirishishi mumkin. X.Xekxauzen harakat oqibatini to`rt sinfga ajratadi: o`zini o`zi baholash, yuksak maqsadga yaqinlashish, boshqalarni baholash va bilvosita ta`sirlar.

Boshqa qomusiy olimlar singari Dj.Atkinson motivatsiyaga erishish nazariyasiga asosan,bir davrning o`zida validlik natijasini oshiruvchi nazariyani ham soddalashtirdi, ham kengaytirdi. Muvaffaqiyatga (ham muvaffaqiyatsizlikka) undovchi bilan topshiriqlar murakkabligi o`rtasidagi aloqa soddaroq ko`rinishga ega bo`ldi. Ushbu modelda qo`zg`ovchi muvaffaqiyatning subyektiv ehtimolligiga bog`liqdir (ma`lumki, Festinger modelida valentlik topshiriqning subyektiv murakkabligiga tobedir). Atkinson modelida muvaffaqiyat kutilmasi bilan qo`zg`ovchining chiziqli o`zaro aloqasi ehtimoli mujassamlashgandir. Muvaffaqiyat ehtimoli bilan qo`zg`ovchining soddalashgan modelli tasavvuri negizida o‘zaro aloqadorlik tushunchasi yotadi. Muvaffaqiyat kutilmasini o`lchash go`yoki yetarli, qo`zg`ovchi esa qo`shimcha kattalik sifatida tasavvur qilinadi.

Dj.Atkinson validlik natijasini oshiruvchi modelini ikkita dispozitsion o`zgaruvchi hisobiga kengaytirdi. Biroq validlik natijasini oshiruvchi modelga shaxslilik omillari kiritilmagan. Muallif mavaffaqiyatga intilish motivi hamda muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi kabi psixologik terminlarni psixologiya faniga kiritgan. Dj.Atkinsonning mazkur modeli muvaffaqiyatsizlik motivi bilan muvaffaqiyat motivi kuchayishi o`zaro solishtirilganda o`rtacha subyektiv murakkablikdagi topshiriqlarga nisbatan ustuvorlik tezroq ortib borishini oldindan aytib bera oladi. Muvaffaqiyatsiz motivirovka qilgan shaxslarda maksimum qochish tendentsiyasi o`rtacha murakkablikdagi topshiriqlarda namoyon bo`ladi.

Bundan tashqari Atkinson va K.Berchlarning motivatsiya to`g`risidagi nazariyasida motivlarni bir nechta "tillar" ga ajratadi; eksperimental, neyrofiziologik, bixevioristik (xulqiy), matematik.

Ularning nazariyasini yangiligi shuki, unda reaksiyalar tahlil qilinishi o`rniga harakatlar, shu jumladan, verbal harakatlar tadqiq etiladi. Ta`sir etuvchi stimullar motivlar, ularning ahamiyatliligi, baholanishiga bog`liq holda qaytadan barpo qilinadi. Bu narsa harakatning tasnifi, samarali holatlarini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Amerikalik psixolog R.Vudvortsning motivlar to‘g’risidagi nazariyasiga ko`ra motivlar ehtiyoj va kognitiv jarayonlar orqali aniqlanadi. Muayyan xulq kodiga tug`ma va egallangan mexanizmlar o`z ta`sirini o`tkazadi. Ehtiyoj va ustanovkalar javobga ta`sir etadi. U motivlarga qobiliyatni ham kiritadi, buning natijasida motiv faqat ehtiyojlar bilan aniqlanib qolmasdan, balki qobiliyat ham unga ta`sir o`tkazadi. Vudvorts bu o`rinda qobiliyatni nasliy belgi sifatida talqin qiladi, shuning uchun hayot davomida ontogenezda rivojlanish, takomillashish ehtimoli mavjudligini inkor etadi.

Shuni alohida ta`kidlab o`tish joizki, rus psixologi A.A.Uxtomskiy organizm funktsional holatlarining determinantlari muammosini o`rganish jarayonida o`zining dominantlik printsipini kashf qilgan. Muallif kashf qilgan dominantini xulq harakati va uning vektori sifatida asoslashga intiladi. Motivlar masalasi uning uchun muhim ahamiyat kasb etib, muammo fiziologik, psixologik, dunyoqarashlik jabhalaridan turib tahlil qilinadi.

Xulq-atvor yaxlitligi tufayli organizm integral bus-butunlik tariqasida tushuntiriladi. Bunday yondashuv psixologik va fiziologik holatlarning biri ikkinchisidan ajralmas ekanligini bildirib keladi. Muallif motivni insonning zo`r berishi natijasida shakllanuvchi qo`zg`atuvchi sifatida talqin etadi va hayot jarayonida o`zgaruvchanligini ta`kidlab o`tadi.

O‘z zamonasining buyuk olimlaridan biri P.K.Anoxinning motivlar to`g`risidagi g`oyasiga ko`ra jonli dunyo yaralgan davrdan e`tiboran voqelikni ilgarilab, oldindan aks ettirish uning xususiyatiga aylangan. Mazkur aks ettirishning mavjudligi inson uchun shaxsiy faoliyati, kelajagi, istiqboli natijasining fikriy obrazlarini yaratish imkonini vujudga keltirdi.

Tadqiqotchi xatti- harakatining original model sxemasini yaratadi. Shaxsdagi boshqaruv harakatlari teskari aloqa printsipi bo`yicha amalga oshiriladi. Ushbu tasavvurga binoan hissiy organlar aloqa kanali vazifasini o`tasa, jism va harakatning idrok qilinayotgan alomatlari axborot(informatsiya) manbai sifatida xizmat qilishi mo`ljallangandir.

Harakatning natijasi to`g`risidagi axborotlar(informatsiyalar) harakat aktseptorida idrok qilinadi. Harakatning kamchiliklari, tuzatishlar (korrektsiyalar) afferent sintezi negizida kechadi, buning natijasida uni idrok etish muayyan darajada yaxshilanadi. P.K.Anoxinning mulohazasicha, harakat bosqichlari afferent sintezi, dominant motivatsiya, qidiruv afferentatsiya, xotira; harakatning shakllanishi va axborotlarni oldindan aytish apparati; harakat natijalari umumlashmasi; teskari afferentatsiyaning amalga oshishi; maqsad bilan olingan natijalar o`rtasida ajrimlik namoyon bo`lishidan iboratdir.

Motivlar muammosini o‘rganish D.N.Uznadze tomonidan ham amalga oshirilgan bo‘lib, uni ustanovka nazariyasida turib izohlashga harakat qilgan.

A.N.Leontyev uzoq muddat davomida psixikani tahlil qilish tufayli motiv va motivatsiya masalasiga ham qo`l urishga qaror qiladi. Motivatsiya kontseptsiyasining to`laqonli ifodasi uning ilmiy ishlarida bayon qilinadi. Keyinchalik bu masalaga "Ong, faoliyat, shaxs» monografiyasida qaytadan murojaat etadi. Genezisda inson ongining namoyon bo`lishini tahlil qilish vositasi orqali u motivatsiya masalasiga yondashadi.

Shuningdek, hayotiy omillar xatti-harakat (xulq) motiviga aylanishining psixologik mexanizmlari muammosi tahlil qilinadi, motiv rivoji va faoliyatning murakkablashuvi jarayoni tekshiriladi. U psixologiya faniga faoliyatning shaxsiy ma`no kasb etuvchi atamasini olib kiradi. Inson shaxsining shakllanishi uning motivatsiya doirasidagi o`sishida o`zining psixologik ifodasini topish mumkinligi bo`yicha xulosa chiqarishga olib keladi.

V.G.Aseyev o‘z ilmiy tadqiqotlarida motivlarni uzluksiz protsessual va diskret holatlari pozitsiyasidan turib o`rganadi. Motivatsiyaning faolligi va imkoniyatliligi, uning modalligi, mazmuni va dinamikasi birligi jihatlari tekshiriladi. Uning eng muhim jihati shundan iboratki, bunda shaxsda motivlarni shakllantirish jabhasiga keng e`tibor beriladi.

Muallifning fikricha, inson faoliyatini harakatlantiruvchi kuchi va ruhiy jarayonlar boshqaruvining yuksak shakli motivatsiyani rivojlanish qonuniyatlaridir. Boshqaruvning yuksak shakli sifatida motivlarning talqin qilinishi dadil qadam bo`lib hisoblanadi. Xuddi shu boisdan asarning eng muhim yutug`i shundan iboratki, unda shaxs shakllanishining boshqaruvchi motivatsiyasi jabhalari to`g`risidagi ma`lumotlar ifodalanganligidir.

Jahon psixologiyasida motiv muammosi turlicha nuqtai nazardan tadqiq qilingan, chunonchi, bilish jarayonlari motivatsiyasi, uning metodologik va o`ziga xos xususiyatlari, faoliyat va muomala motivatsiyasi, o`qish, kasb tanlash, kasbga moslashish, kasb motivlari dinamikasi kabi muammolar tadqiq qilingan. Psixologik lug`atlarda, ensiklopediyalarda motiv va motivatsiya muammosiga oid xilma-xil talqinlar hukm surib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ковалёв.В.И «Методы проведения и деятелности» Москва. «Наука» 2000 г.
2. Ғозиев.Э.Ғ “Методологические проблемы в психологической науке” Чимкент. 2005 г.
3. Леонтев.А.А “Психология обшения” 1997 г.
4. Асеев.В.Г “Мотивация поведения и формирование личности”. М. “Мысл” 2011 г.
5. Chemers M. (1997) An integrative theory of leadership. Lawrence

Erlbaum Associates, Publishers. ISBN 978-0-8058-2679-1

6. Yo‘ldoshev J.A. Levels of effectiveness of formation of citizenship position in students based on the heritage of repression victims. International Journal of Advance Scientific Research (ISSN – 2750-1396) 30-34

КОНТРПРОДУКТИВНОЕ ПОВЕДЕНИЕ СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ

Кодиркулов Азизжон Саидкул угли

Контрпродуктивное поведение в киберпространстве или кибер-контрпродуктивное поведение (сйбер-CWБ) определяется как любое исползование информационно-коммуникационных технологий, которое отводит сотрудника от выполнения эго рабочих обязанностей или вредит организации (как в плане финансовых потер, так и в плане репутационных и юридических рисков). В условиях, когда технологии проникают во все аспекты рабочей деятелности, традиционные модели контрпродуктивного поведения нуждаются в расширении для учета новых цифровых форм нарушения норм и стандартов поведения.

С расширением исползования технологий в организациях возникают новые формы поведения, которые могут негативно влият на производителност, безопасност данных и репутацию организаций. Автор расширяет теоретическую базу контрпродуктивного поведения, позволяющая исследоват предикторы таких действий и профилактику.

В контексте профессионалной деятелности сотрудников органов внутренних дел, киберконтрпродуктивное поведение приобретает особую значимост, так как ошибки или умышленное нарушение цифровой дисциплины могут привести к серёзным последствиям для общественной безопасности и доверия к правоохранителной системе. Современные правоохранителные органы активно исползуют информационно-коммуникационные технологии для ведения оперативной работы, обмена конфиденциалной информацией, координации действий и проведения расследований. Это включает доступ к специализированным базам данных, системам видеонаблюдения, а также исползование мобилных и стационарных устройств для связи. В профессионалной среде сотрудников даже незначителные нарушения могут привести к утечкам информации, ошибкам в оперативных действиях или компрометации следственных дел.

Б. Мерсадо[9] некоторые формы киберконтрпродуктивного поведения, которые могут найти своё отражение в работе сотрудников органов внутренних дел:

Сйберлоафинг. Исползование рабочего времени для личных целей (например, частая проверка социалных сетей или личная переписка) может отвлеч сотрудника от выполнения служебных обязанностей, что особенно критично в ситуациях, требующих оперативного реагирования.

Неглигент ИТ Прастисес. Небрежное обращение с конфиденциалными данными, исползование личных устройств без соблюдения установленных протоколов или оставление рабочих устройств без присмотра может привести к утечкам информации или возможности внешнего доступа к чувствительным данным.

Сйберсриме и Ҳаскинг. В редких случаях сотрудники могут исползоват служебные ресурсы для совершения противоправных действий, таких как несанкционированный доступ к защищённой информации или манипуляция данными, что может нанести ущерб расследованиям и репутации ведомства.

Сйбергрипинг и Сйберсуллйинг. Публичное выражение недоволства или критики в адрес коллег, руководства или даже внешних партнеров через социалные сети может негативно сказатся на внутренней атмосфере и привести к снижению уровня доверия внутри коллектива[10].

Для сотрудников ОВД, где точност, своевременност и сохранност информации имеют первостепенное значение, киберконтрпродуктивное поведение может имет следующие последствия:

Утрата доверия. Нарушения цифровой дисциплины могут подорват общественное доверие к органам внутренних дел, особенно эсли инциденты становятся достоянием общественности.

Компрометация расследований. Несанкционированный доступ или утечка информации может поставит под угрозу ход следственных действий и дат возможност преступным элементам исползоват данные в своих целях.

Юридические и репутационные риски. Нарушения, связанные с кражей данных или небрежным обращением с конфиденциалной информацией, могут привести к судебным разбирателствам и значителным штрафам, что дополнително негативно сказывается на репутации ведомства.

---

[9] Mercado, B. K. (2017). Cyber counterproductive work behaviors: Measurement, prediction, and means for reduction. City University of New York.

[10] Alwansyah, A. A., Susanti, E., & Syah, T. Y. R. (2020). The effect of cyberbullying victimization on counterproductive work behavior. International Journal of Global Operations Research, 1(3), 109-113.

Внутренние организационные проблемы. Негативная атмосфера и внутренние конфликты, вызванные проявлениями сйбергрипинг или сйберсуллйинг, могут снизит эффективност работы коллектива и привести к ошибкам в принятии оперативных решений.

Регулярное обучение сотрудников вопросам безопасности и правилного исползования цифровых ресурсов поможет снизит риск ошибок и нарушений. Внедрение системы мониторинга и контроля за исползованием служебных устройств и сетей позволит оперативно выявлят отклонения от установленных норм. Отбор и оценка персонала с помощю психометрической оценки для выявления предрасположенности к киберконтрпродуктивному поведению позволит сформировании коллектив с высоким уровнем профессионалной ответственности.

KIBERMAKONDA SALBIY AXBOROT XURUJLARIGA QARSHI KURASHNING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Dilfuza Alimuxamedova
Amaliy fanlar universiteti
1-bosqich magistr talabasi

Zamonaviy jamiyatda tez rivojlanayotgan va takomillashayotgan axborot texnologiyalari tobora ko‘proq fanlararo tadqiqotlar mavzusiga aylanib, falsafa, iqtisodiyot, sotsiologiya va boshqa fanlar doirasiga kirib bormoqda. Shu bilan birga, kibermakonda axborot taraqqiyotning psixologik oqibatlari zamonaviy va dolzarb muammoga aylangan. Ma’lumki, 2022-yilning 15-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi O‘RQ-764-son Qonuni tasdiqlandi. Bu bejiz emas, albatta. Binobarin, kibermakonda salbiy axborot xurujlaridan inson va jamiyat psixologiyasini asrash masalasi strategik ahamiyatga ega. Ushbu qonunda qo‘llanilgan quyidagi asosiy tushunchalarni maqolam doirasida ta’kidlab o‘tishni lozim, deb topdik:

kibermakon — axborot texnologiyalari yordamida yaratilgan virtual muhit;

kibertahdid — kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soluvchi shart-sharoitlar va omillar majmui;

kiberjinoyatchilik — axborotni egallash, uni o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta’minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig‘indisi;

kiberxavfsizlik — kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati.

So‘nggi yillarda fan-texnika taraqqiyotining oqibatlari, xususan, nevrotik kasalliklarning rivojlanishi haqida ko‘p gapirilmoqda. Psixologik yuklamaning

ortishi, stressning kuchayishi qayd etilmoqda. Biroq, hozirgi vaqtgacha texnologiyalar rivojlanishi stress bilan qanday bog‘liqligi, texnik taraqqiyotning qanday psixologik oqibatlari haqida gap ketayotgani batafsil tahlil qilinmagan. Texnik vositalar orqali salbiy axborotlarning inson psixikasiga ta’sirini turli yo‘nalishda hisobga oluvchi yagona va yaxlit bir model ishlab chiqilmagan.

Qolaversa, texnika taraqqiyotining shiddatli rivojlanishi insonning psixologik holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Texnologiyalarga bo‘lgan tobelik nafaqat stress, xavotir va depressiya kabi psixik muammolarni keltirib chiqaradi, balki uyqu buzilishi va yuzma-yuz muloqot ko‘nikmalarining yo‘qolishiga ham olib keladi.

Xo‘sh, axborot xuruji nima ekan va uning salbiy tomonlari nimada?

Axborot xuruji — bu ma’lumotlarni manipulyatsiya qilish, soxtalashtirish yoki mo‘ljallangan auditoriyaga ta’sir o‘tkazish maqsadida turli usullardan foydalanib olib boriladigan tahdiddir. Axborot xurujlari asosan siyosiy, iqtisodiy, harbiy va ijtimoiy sohalarda qo‘llaniladi.

Axborot xurujining turlari: feyk (qalbaki) ma’lumotlar tarqatish – yolg‘on yangiliklar va dezinformatsiya orqali jamoatchilikni chalg‘itish; fishing hujumlar – shaxsiy yoki maxfiy ma’lumotlarni olish uchun soxta veb-saytlar yoki xabarlar yuborish; kiberhujumlar va xakerlik harakatlari – tashkilotlar yoki shaxslarning axborot tizimlariga hujum qilish; psixologik ta’sir – ma’lumotlarni manipulyatsiya qilish orqali odamlarning fikrlashini yoki xatti-harakatini o‘zgartirish; propaganda va agitatsiya – ma’lum bir mafkurani targ‘ib qilish yoki raqiblarni obro‘sizlantirish.

Psixologik ta’sir tana va inson imkoniyatlarining psixologik chegaralarining o‘zgarishi bilan bog‘liq, deb hisoblayman.

Psixologik ta’sirni diagnostika mezonlariga keladigan insonning “kiborglashuvi”ni aniqlash uchun turli olimlar (foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan) tomonidan ishlab chiqilgan mezonlarni ajratish mumkin:

1) salbiy axborotdan tez-tez foydalanish: texnik vositadan uzatiladigan axborot qanchalik tez-tez ishlatilsa, “kiborglashuvi” jarayoni shunchalik tezlashadi.

2) voz kechish imkoniyati – salbiy axborotlarni olish (texnik vositalardan foydalanib) odati shunchalik kuchayadiki, inson ulardan voz kecha olmaydi. Masalan, texnik vositaning yo‘qligi (mobil telefonni uyda unutish) xavotir va asabiylikni keltirib chiqaradi. Undan bir necha kun foydalanmaslik ham subyektiv jihatdan qiyin kechadi.

3) salbiy axborotga haddan tashqari ruju qo‘yish. Masalan, internetda maqsadsiz kezish, internet orqali birga o‘tirgan odamlar bilan salomlashish. Boshqa bir ko‘rinishi esa texnik vositalar tufayli vazifalar, qiziqishlar va majburiyatlarni ikkinchi o‘ringa surishdir – muloqot uchun vaqt qisqarishi, ovqat

va uyqudan voz kechish, faoliyat, ish yoki o‘qishni rad etish. Ko‘p hollarda insonlar o‘zi ham texnik vositalar ortiqcha vaqtini olayotganini his qiladi, bu esa subyektiv baholash imkonini beradi.

Aslida, mazkur mezonlar psixologik bog‘liqlikni aniqlash mezonlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning namoyon bo‘lishi sifatida qaralishi mumkin.

Demak, hozirgi kunda axborot makoni jadal rivojlanib, turli xil axborot tahdidlari ko‘paymoqda. Kibermuhitdagi salbiy axborot hujumlari odamlar ongi va ruhiyatiga ta’sir etib, ularning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bundan kelib chiqib, kibermakonda salbiy axborot xurujiga qarshi psixologik himoya choralari quyidagilar, deb hisoblaymiz:

birinchidan, axborot savodxonligini oshirish – odamlarga yolg‘on ma’lumotni aniqlash, tahlil qilish va unga nisbatan tanqidiy yondashish ko‘nikmalarini shakllantirish;

ikkinchidan, psixologik chidamlilikni kuchaytirish – insonning ruhiy barqarorligini oshirish, stressga chidamli bo‘lishi uchun psixologik treninglar va texnikalardan foydalanish;

uchinchidan, axborot filtrlaridan foydalanish – negativ axborot ta’sirini kamaytirish uchun ishonchli axborot manbalaridan foydalanish va ma’lumotni tekshirish;

to‘rtinchidan, kiberhujumlarning ruhiy ta’sirini o‘rganish – psixologlar va tadqiqotchilarning bu yo‘nalishdagi izlanishlari orqali samarali kurashish strategiyalarini ishlab chiqish.

Yuqorida qayd etilgan jarayonlar inson ruhiyatiga va hayot tarziga chuqur ta’sir o‘tkazadi. Texnik vositalardan foydalanish natijasida xavfsizlik va nazorat hissi paydo bo‘ladi, lekin real dunyodagi malaka va ko‘nikmalar kamayadi.

Kibermakondagi salbiy axborot hujumlari jamiyat uchun jiddiy psixologik tahdid bo‘lib, ularning ta’sirini kamaytirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Axborot savodxonligi, ruhiy chidamlilikni oshirish va to‘g‘ri kibergigiyena qoidalariga rioya qilish orqali bunday hujumlarga barqarorlikni ta’minlash mumkin. Bu borada psixologlar, ijtimoiy mutaxassislar va axborot xavfsizligi bo‘yicha ekspertlarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi O‘RQ-764-son Qonuni.

2. Войскунский А.Э. Вместо предисловия. «За» и «против» Интернет-зависимости // Интернет-зависимост: психологическая природа и динамика развития / Под ред. А.Э. Войскунского. – М.: Акрополь, 2009. С. 5-27.

3. Гриффитс М. Избыточное применение Интернета: онлайновое аддиктивное поведение // Интернет-зависимост: психологическая природа и

динамика развития / Под ред. А.Э. Войскунского. – М.: Акропол, 2009. – С. 253-256.

4. Эмелин В.А., Тхостов А.Ш. Технологические соблазны информационного общества: предел внешних расширений человека // Вопросы философии. – 2010. – №5.

YAQIN SHARQDAGI HARBIY-SIYOSIY VAZIYATNING MARKAZIY OSIYO XAVFSIZLIGIGA SALBIY TA'SIRI VA ULARNI BARTARAF ЭTISH YO'LLARI

(Yaqin sharq misolida)

Qoraboyev Avazbek Isomiddinovich

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Yaqin Sharqdagi harbiy-siyosiy vaziyatning Markaziy Osiyo davlatlariga tasiri va ularni bartaraf etish yo'llari keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Indoneziya, Misr, B.Britaniya, Germaniya va Livan BAA, O'rtayer dengizi, Yaqin Sharq, AQSh, Afg'oniston, Osiyo-Tinch Okeani, harbiy-siyosiy vaziyat, Arab bahori, Iroq, Marokash, Quvayt, Saudiya Arabistoni, Afrika, miqyos, Livan.*

Yaqin Sharqdagi harbiy harakatlarda ishtirok etgan yoki, harbiy harakatlarda ishtirok etish maqsadida jo'nashni rejalashtirgan yoki, bevosita terrorchi guruhlar a'zolari tomonidan yollov jarayonlarida bo'lgan shaxslarni profilaktika qilish Yaqin Sharqdagi harbiy-siyosiy vaziyatning Markaziy Osiyo xavfsizligiga salbiy ta'sirini bartaraf etish imkoniyatlaridan biridir.

Chunki, bugungi kunda Yaqin Sharqdagi harbiy harakatlarda ishtirok etgan jangarilarning vatanlariga qaytishlari dunyo mamlakatlar xavfsizligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Xususan, 2014-2015-yillar davomida sobiq jangarilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 200 %ga o'sgan. Suriya va Iroqda tayyorgarlikdan o'tgan jangarilar tomonidan sodir etilgan yirik teraktlar sifatida 2016-yil 7-yanvarda Liviyadagi, 12-yanvarda Turkiyadagi, 14-yanvarda Indoneziyadagi, 20-yanvarda Pokistondagi amaliyotlarni qayd qilish mumkin.

Ayni paytda ―IDning targ'ibotlari o'z samarasini bermoqda. Xususan, Xalqaro tashkilotlari va g'arb tahlil markazlari hujjatlarida keltirilishicha ―ID yetakchisi Abu Bakr Al-Bog'dodiyning 2014-yil iyunda butun dunyo musulmonlarini jihodchilar qatoriga ko'shilishga chorlovi e'lon qilingandan so'ng uning saflarida xorijlik terrorchijangarilar miqdori keskin oshdi va 2016-yilda 27 mingdan 31 ming kishiga yetdi. (Solishtirish uchun butun Afg'on urushi davrida 20 ming xorijlik jangarilar harbiy harakatlarda ishtirok etgan). Xorijlik yollanma jangarilar nafaqat ―ID balki, unga qarshi harbiy harakatlarni olib boraètgan guruhlarga ham kelib qo'shilmoqda. Masalan, ―Jabhat-al Nusrat

yetakchisi, Abu Muhammad al-Juliananing so‘zlariga ko‘ra, 30% jangarilarini xorijdan yollanganlar tashkil qiladi.

G‘arb ekspertlari baholashlariga ko‘ra, Iroq va Suriya fuqarolari bilan birgalikda 86 davlat vakillari ishtirok etmoqda. Xususan, umumiy jangarilar sonining 75% ni 12 mamlakat fuqarolari: Tunis (6-7 ming), Saudiya Arabistoni (2,5 mingdan ortiq), Turkiya, Iordaniya (2-2,5 ming), Fransiya (1,7 ming), Morokash (1,2-1,5 ming), Indoneziya, Misr, B.Britaniya, Germaniya va Livan (500-1 ming) tashkil qiladi.

Shuningdek, g‘arb manbalaridagi ma’lumotlarga ko‘ra, RFdan Suriya va Iroqqa ―ID tarkibiga kelib qo‘shilganlar 2014-yil iyunidan 2016-yil birinchi yarmigacha bo‘lgan davrda 3 martadan oshgan va 2900 kishini tashkil qilgan. Shu bilan birgalikda amerika tahliliy markazi ―Sufan grupp ekspertlari fikrlariga ko‘ra, ―ID tarkibiga kelib qo‘shilayotgan MDH mamlakatlari fuqarolari 4700 kishi sifatida baholanmoqda.

Qirg‘izistonda 2022-yilning 29-noyabr kuni Bishkek chegarasida QR IIB va MXDQ xodimlarining birgalikda operatsiyasi natijasida 31 yoshli Jalol-Abad viloyatida tug‘ilgan va diniy ekstremistik tashkilotlardan birining tarafdori bo‘lgan, fuqaro S.Sh qo‘lga olingan. Uning yashash manzili tekshirilgan paytda 5 qo‘lbola portlovchi qurilmalar (QPQ) topilgan. Uning so‘zlariga ko‘ra, QPQlari jamoat joylarida portlatishga tayyor bo‘lgan. Bundan tashqari, 25-dekabr kuni Botkent viloyati Kadajoy tumani Uch-qo‘rg‘on qishlog‘ida Suriyadagi harbiy harakatlarda ishtirok etgan ikki nafar QR fuqarosi qo‘lga olinganlini MXDQ vakili A.Kutmanov ta’kidladi. yoki, 30-noyabr kuni Jalol-Abad viloyati sudi xalqaro terrorchilik tashkilot ―Imom al-Buxoriy kotibiyati saflarida harbiy tayyorgarlikdan o‘tgan va Suriyadagi harbiy harakatlarda ishtirok etgan I.Alimjonovni 13 yilga ozodlikdan mahrum qildi.

Qirg‘iziston MXDQning 2016-yil 17-iyunda tarqatgan ma’lumotlariga ko‘ra, Batkent viloyatida Suriyada harbiy harakatlarda ishtirok etgan uch nafar shaxs qo‘lga olingan ular ―IDning yashirin tarmog‘ini yaratish hamda teraktlarni amalga oshirishni rejalashtirgan bo‘lgan. QR Ichki ishlar vazirligi boshqarma boshlig‘i S.Raxmonov ma’lumotlariga ko‘ra, Suriya va Iroqdagi janglarda 500 QR fuqarolari ishtirok etmoqda ularning 30 janglarda o‘lgan, 44 qaytib kelgan jangarilarga nisbatan 28 jinoiy ish qo‘zg‘atilgan.

Zamonaviy Afg‘onistonni tadqiq qilish markazi eksperti A.Serenko fikricha, ―IDda jangarilarga ish haqi va ularning oilalariga ko‘maklashish bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelishi ularning Rossiyaga mehnat migrantlari sifatida qaytishiga olib keladi. Harbiy ekspert L.Korolkov ―IDdagi Markaziy osiyolik jangarilar xususan, hozirgi holatini quyidagicha ifodalaydi: ―birinchidan, ―IDning bir guruh bo‘linmalari xususan, Markaziy osiyolik jangarilar xalqaro

koalitsiya keng miqyosli harbiy operatsiyalari boshlangandan so‘ng, Liviyaga uyushgan tarzda olib chiqib ketildi. Ikkinchidan, ko‘plab jangarilar o‘z oilalari bilan Turkiyaga chiqib u yerda joylashdilar. Bir qismi esa, Pokiston va Afg‘onistonga, yana bir guruhi esa, Markaziy Osiyoga qaytdilar‖.

MDH mamlakatlari instituti xodimi A.Grozin, 2017-yilda Suriya va Iroqdan ―IDni supirib tashlanishi natijasida ular qaerga qochadi? Hozirlikcha, bu hududlar Shimoliy Afrika va Afg‘oniston bo‘lishi mumkin. Balki, ―ID tarmoqli tuzulma ekanligi sababli bir paytning o‘zida bir qancha hududlarda faoliyat olib borishi mumkin. Markaziy Osiyo mamlakatlari ichki xavfsizligi uchun asosiy tahdid bu Suriya va Iroqdagi harbiy harakatlarda ishtirok etgan yuzlab, ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, minglab jangarilarning qaytishi hisoblanadi. Bu jarayon bir lahzalik bo‘lmay, asta-sekin vaziyat keskinlashib boradi 2017-yilda 2016-yilga qaraganda, 2018-yilda 2017-yilga qaraganda teraktlar soni ortadi.

Amerika Federal qidiruv byurosi (FQB) direktori J.Koydi Suriyadan qaytgan amerikaliklarni kuzatish FQBning terrorizm bilan kurashdagi ustuvor vazifalaridan biridir. Bu faoliyat AQShning barcha shtatlarida olib borilmoqda. MRBning sobiq xodimi P.Skinner fikricha, ―ID saflarida kurashayotganlarni uch guruhga: psixopatlar, taqvodorlar va pragmatiklarga bo‘lish mumkin. Xorijlik jangarilar yo psixopat yo dindor, pragmatiklar esa, ―ID tarkibiga qo‘shilgan suriyalik va iroqliklardir. Tolibonning sobiq yollovchisi ayni paytda esa, Kanada milliy xavfsizligi operativ xodimi, Mubin Shayk fikricha, yollovchilar asosan islom to‘g‘risida kam bilimlarga ega bo‘lmaganlarni yollaydilar.

Vest-Poyntdagi amerika harbiy akademiyasi ―xorijlik jangarilarning terrorchilik tashkilotlari saflariga kirishlarida din asosiy motivmi? savoli orqali so‘rov o‘tkazdi. Unda turli mamlakatlarning Yaqin Sharqda bo‘lgan yoki u yerga borishni rejalashtirgan 1200 fuqarosi ishtirok etdi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, aksariyat respondentlar ularning tanloviga ta’sir qiluvchi asosiy omil din emasligini ta’kidlaganlar.

2015-yil oktyabr oyi oxirlarida Buyuk Britaniya Bosh vaziri D.Kemeron britaniyalik yoshlarning radikallashuvi va ekstremistik g‘oyalarning tarqalishiga qarshi kurashish maqsadida yangi takliflarni ilgari surdi. Bu chora B.Britaniyadan xorijiy jangarilarning Yaqin Sharqqa yo‘nalishini oldini olishga qaratilgan edi. Unga ko‘ra, ota onalar o‘z farzandlarining Yaqin Sharqga jo‘nashni mo‘ljallayotganligi yoki qiziqayotganligini sezib qolsa, ulardan pasportlarini olib qo‘yishlari mumkin edi. Shuningdek, ushbu yanga rejaga bo‘yicha, internetga radikal materiallarni joylashtirish va terrorizm hamda ekstremizmni qo‘llab quvvatlaydigan shaxslarning bolalar bilan ishlashi taqiqlandi.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2012-yildan buyon, Germaniyadan islom motivatsiyasi asosida Suriya va Iroqqa 910 shaxs jo‘nagan. Ularning

ma’lumotlariga ko‘ra, Yaqin Sharqga jo‘nagan fuqarolarning uchdan bir qismi qaytib kelgan yoki endi qaytib kelishi kuzatilmoqda. Ulardan kimida 70 harbiy harakatlarda ishtirok etgan yoki maxsus harbiy tayyorgarlikdan o‘tgan. Taxmin qilinishicha, Germaniyadan 145 jangari halok bo‘lgan. Germaniya xavfsizlik organlari 2016-yil 30-iyungacha bo‘lgan davrda Suriya va Iroqqa jo‘nagan 784 kishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ishdi.

Aleppodagi mag‘lubiyatdan so‘ng B.Asad muxoliflari kuchsizlana boshladi. Mintaqaviy ittifoqchilar Turkiya, Saudiya Arabistoni va Qatar o‘z strategiyasini o‘zgartirib, qurol-yarog‘ yetkazib berishni qisqartira boshladi. Nafaqat jihodchilar va mo‘tadil muxolifat, terrorchilar o‘rtasida, balki inqilobchilar orasida ham hokimiyat uchun kurash boshlandi. Xususan, g‘oyaviy jihatdan ―ID va Al-Qoidaga yaqin bo‘lgan ―Jund al-Aksa va ―Taxrir ash-Shom jihodchi guruhlari o‘rtasidagi to‘qnashuvda 69 jangari halok bo‘ldi.

Ayni paytda Yaqin Sharqdagi harbiy harakatlarda ishtirok etayotgan Markaziy osiyolik jangarilar va ularning vatanlariga qaytish ehtimoli ortib borayotganligi Markaziy Osiyo mamlakatlari xususan, O‘R milliy xavfsizligiga tahdid tug‘dirmoqda. Hozirgi kunda asosan, yoshlarning terrorchi tashkilotlar ta’siriga tushib qolishlariga, jamiyatdagi ma’naviy inqiroz, iqtisodiy-ijtimoiy muammolar, migrantlarning o‘zlari bo‘lib turgan jamiyatga integratsiyalashuvidagi to‘siqlar hamda terrorchi tashkilotlarning asosan, ―IDning mohirona va samarali targ‘ibot-tashviqot ishlari kabi omillar sabab bo‘lmoqda.

2015-yil 22-sentyabrda Qozog‘iston Respublikasi parlamenti quyi palatasida ―Hozirgi bosqichda terrorizm va ekstremizmning oldini olish va bartaraf etishning qonuniy va institutsional chora-tadbirlari mavzusida davra suhbati bo‘lib o‘tdi. Unda qator ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash yuzasidan qator takliflar ilgari surildi.

Xususan, Din va fuqarolik jamiyati ishlari bo‘yicha vazir N.Yermekbaev mazkur sohada nodavlat va notijorat tashkilotlar imkoniyatlaridan davlat buyurtmasi asosida moliyalashtirilib faol hamkorlik qilishni taklif qildi. Bunda sohaning yetakchi mutaxasislari, ekspertlar va ko‘ngillilar keng ko‘lamli tarzda ekstremizmga qarshi profilaktika ishlarini olib boradilar.

Hukumatning terrorizmning oldini olish bo‘yicha rejalaridan biri, ishsiz va hech qaerda ta’lim olmayotgan yoshlarni aniqlashdir. Hokimiyat bunday yoshlarni kasbga yo‘naltirilgan tayyorlashdan o‘tkazishni mo‘ljallamoqda. Bundan tashqari, Qozog‘iston milliy xavfsizlik qo‘mitasi rahbari Nurlan Bilisbekov mamlakatda terrorizmni oldini olish uchun tez orada 51 mingta kuzatish kameralari o‘rnatilishi rejalashtirilgannini ta’kidladi.

Xalqaro tajriba (avvalo Yel tajribasi) ko‘rsatmoqdaki, har bir alohida holatda mahalliy holatni inobatga olgan holda harbiy harakatlar ―o‘choqlaridan‖ qaytgan har bir jangariga o‘ziga xos yondashuvni ilgari surish lozim.

Germaniya tajribasi. Mamlakatdan 900 dan ortiq shaxs Suriya va Iroqdagi harbiy harakatlarda ishtirok etish uchun jo‘nagan bo‘lib, ulardan 230 ga yaqini qaytib kelgan va ayrimlari 10 yilgacha bo‘lgan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan. GFda radikallashuv jarayonlarini oldini olishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni 2003 va 2004-yillarga ishlab chiqila boshlangan. 2010-yil iyunda Germaniya immigratsiya va qochoqlar ishlari bo‘yicha federal tuzulmasi tomonidan ―Islom fanatizmi va terrorizmidan chiqish deb nomlangan dasturni yo‘lga qo‘yilgan. Bu dasturga ko‘ra, ―ishonch telefoni yo‘lga qo‘yildi u orqali jihoddan voz kechishni istagan kishilar murojaat qilishlari mumkin bo‘ldi. Ushbu masalada murojaat qilgan shaxslar va ularning oila a’zolari psixologik yordam, imom bilan maslahatlashish, yangi uy, kasbga yo‘naltirilgan o‘qishlariga va ishga joylashishlariga ko‘maklashish nazarda tutiladi.

Bundan tashqari, mazkur masalada GFda fuqarolik jamiyati bilan mustahkam hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, Berlindagi Demokratik madaniyat markazi tomonidan boshlangan ―Hayot dasturidir. 2012-yildan boshlab ―Hayot Germaniya immigratsiya va qochoqlar ishlari bo‘yicha federal tuzulmasi hamkori hisoblanadi. ―Hayot Germaniya dasturining Berlindagi reabilitatsiya dasturi konsultanti Yu.Berchik fikricha, mazkur dastur o‘z amaliy tajribasiga tayanib qaytganlarni uch guruhga:

Birinchi guruh, xavf tug‘diruvchilar, ya’ni, hujum qilishni yoki boshqalarni yollashga intilayotgan shaxslar.

Ikkinchi guruh, jarohatlanganlar ular terapevtik maslahatlar va opresiya muolajalariga muhtoj shaxslar.

Uchinchi guruh, borgan joylari o‘zlari tasavvur qilgan yoki kutganlaridek emasligi sababli ―IDning kelajagi yo‘qligini ko‘rib uyga qaytishni istaydilargan shaxslarga bo‘ladi.

Bu dastur doirasiga sobiq politsiya ofitserlari, radikal islom bo‘yicha mutaxasislar jalb qilingan va u yoshlar hamda ularning oila a’zolari radikallashuv jarayonlarini nazorat qilib, maslahatlar berib boradi. Bu dastur radikallashuv jarayonidagi yoki radikallashib bo‘lgan, yoki jang maydonlaridan qaytib kelgan yoki jang maydonlarida bo‘lib uyiga qaytishni istaydigan shaxslarga mo‘ljallangan. ―Hayot jamoasi yoshlarga psixologik yordam ko‘rsatish bilan birgalikda ularni boshqa radikal bo‘lmagan diniy jamoalarga yo‘naltirish bilan ham shug‘ullanadi.

Suriya va Iroqdan qaytgan sobiq jangari holatida ―Hayot sobiq jangari va uning oilasi hamda maxsus xizmatlar o‘rtasida vositachi rolini ham o‘ynaydi.

Shuningdek, mazkur dastur sobiq jangari oilasiga u jazoni ijro etish muassalarida bo‘lgan paytda ham u bilan ish olib borishni taklif qilishi mumki[2].

Shuningdek, mazkur dastur doirasida OAV bilan muntazam ravishda muloqotlar uyushtirib turiladi va bu orqali jamotchilikni radikallashuv muaommolari bilan tanishtirib boradi. Hamda mazkur yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni kuzatib boradi va o‘z faoliyati to‘g‘risida maqolalarni e’lon qilib boradi. Xususan, 2013-yilda asos solingan ―EXIT-Deutschland Journal mazkur sohadagi amaliyotchi va olimlar o‘rtasida hamkorlikka katta yordam bermoqda. Umuman olganda, bu dasturning asosiy elementi oila hisoblanadi. Tadqiqot ko‘rsatishicha, oila a’zolari o‘rtasidagi aloqalarning mustahkamligi ularning turli jihodchi tashkilotlar ta’siriga tushib qolishi oldini oladi. Bu dastur samardorligini baholash murakkab bo‘lsada, 2015-yil oktyabr holatiga ko‘ra, 170 kishidan 36 sog‘lom turmush tarziga qaytarish jarayonida bo‘lsa, 39 sog‘lom turmush tarziga qaytarilgan.

Buyuk Britaniya tajribasi. B.Britaniyadan Suriya va Iroqdagi harbiy harakatlarda ishtirok etishga jo‘naganlar 700 dan ortiq bo‘lib, ulardan taxminan 300 dan ortig‘i vataniga qaytgan. Buyuk Britaniya hokimiyati sobiq jihodchilarni uzoq muddatga qamoqqa hukm qilishga intilishiga qaramasdan mazkur masalaga yo‘naltirgan bir qator dasturlar amal qiladi. Xususan, Kyulliam Fondi radikallashuv jarayonlariga qarshi qaratilgan eng mashhur tashabbus hisoblanadi. Unga 2008-yilda Hizb-ut-Tahrirning sobiq a’zolari Madjid Navas va Ed Xasseyn tomonidan asos solingan. Bu fond musulmon jamoalarida ekstremizm ta’sirini ochiq muloqotlar tashkil qilish orqali kamaytirishga harakat qilib, erkin e’tiqod qilish huquqi, tenglik hamda demokratiyani qo‘llab quvvatlaydi. Bundan ko‘zlangan maqsad Buyuk Britaniyaga ta’luqlilik hissini faollashtirish va liberal-demokratik qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirishdir. Shuningdek, fond terrorrizm, radikallashuv va islomizm bo‘yicha ma’ruzalarni tashkil qiladi.

Bundan tashqari, Buyuk Britaniyada Faol o‘zgarishlar fondi (ACF) ham faoliyat olib bormoqda. Unga 2003-yilda sobiq islomchilar tomonidan asos solingan. Bu fonda ham radikallashuv jarayonlariga qarshi turli tadbir va semenarlarni amalga oshirada.

Daniya tajribasi. Daniyada o‘z fuqarolari va migrantlarga ijtimoiy shart-sharoitlar va kafolatlarni yaratganligiga qaramasdan, Suriya va Iroqdagi harbiy harakatlarda ishtirok etayotganlar orasida Daniya Belgiyadan keyin Yevropada (ICSRning 2015-yildagi hisobatiga ko‘ra, Daniya har 1 mln. fuqarosiga 27, Belgiyada esa, 1 mln. fuqaroga 40) ikkinchi o‘rinda turadi. Suriya va Iroqdagi harbiy harakatlarda ishtirok etish uchun 170 yaqin daniyalik jo‘nagan bo‘lib, ularlan 50 vataniga qaytib kelgan.

Mamlakatda sobiq jangarilar bilan ishlashga yo‘naltirilgan ―Orxus modeli ishlab chiqilgan. Bu model hokimiyat va ijtimoiy guruhlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni yaratish va radikallarning jamiyatga qaytishiga ko‘maklashishga yo‘naltirilgan dasturdir. Shuningdek, unda oila a’zolari, do‘stlar, politsiya, ijtimoiy ko‘mak tashkilotlari va yoshlar klublari liderlar ishtirok etadi.

Mazkur dasturga ko‘ra, Suriya va Iroqqa jo‘nashni mo‘ljallayotgan har bir ―jihodchiga individual masdahatlar beriladi va ularga har bir masala yuzasidan murabbiylar belgilanadi. Shuningdek, oila a’zolari va ota-onasi ham ushbu guruhlarda faol ishtirok qilishlari lozim bo‘ladi. 2015-yil martida Orxusda 16 jihodchi bo‘lib, ularning 10 dasturda ishtirok etgan. Ulardan uchatasi ekstremistki guruhlardan uzoqlashish maqsadida sotsial muhitni o‘zgartirish masalasida yordam so‘ragan va boshqa shaharlarga ko‘chib o‘tgan. Qolgan yettitasi modelning maxsus dasturlaridan o‘tgan va oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga tiklangan hamda ishga joylashish maqsadida yordam olgan. Oltita yosh jihodchi yordamga muhtoj emasligini bildirgan. Ushbu model samarasini quyidagi raqamlarda ham kuzatish mumkin. Masalan, 2013-yilda 30 ta, 2014-yilda 2 ta, 2015-yilda 1 ta daniyalik Suriyaga jo‘nagan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, YeI tajriba ko‘rsatmoqdaki, sobiq jangarilarni qayta tarbiyalash juda murakkab va o‘zaro qaramaqarshiliklarga to‘la jarayondir. Ammo, mamlakatimizga qaytgan yoki Yaqin Sharqga jo‘nashni mo‘ljallayotgan shaxslarni profilaktika qilishda oila instituti imkoniyatlaridan unumli foydalanish mumkin.

Shuningdek, yevropada yollash ishlarining asosiy muammosi sifatida migrantlarning jamiyatga passiv tarzda integratsiyalashganligi hisoblanadi. Ayni paytda xorijdagi harbiy harakatlarda ishtirok etayotgan markaziy osiyolik xususan, o‘zbek jangarilarining aksariyati aynan Rossiya va Turkiyadagi mehnat migranti sifatidagi faoliyati davomida yollangan. Shu bilan bog‘liq tarzda markaziy osiyolik mehnat mingrantlarining RFdagi muhitga moslashishlariga ko‘maklashishga qaratilgan chora-tadbirlarni RF Mehnat vazirligi va O‘R mehnat vazirligi o‘rtasidagi qo‘shma loyihalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xalqaro tajriba ko‘rsatmoqdaki, sobiq jangarilarni qayta tarbiyalash juda murakkab va o‘zaro qarama-qarshiliklarga to‘la jarayondir. Ularning orasida samaraliroq yo‘nalish sifatida yoshlar o‘rtasidan yollash jarayonlarining oldini olishni qayd qilish mumkin. Ushbu yo‘nalishni amalga oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi.

Birinchidan, migrant musulmonlarni integratsiyalashga undovchi umummilliy umumiyliklarni shakllantirishga yo‘naltirilgan tadbirlarni o‘tkazish. Bu yo‘nalishda ayniqsa, Avstriya tajribasi e’tiborlidir. Bu mamlakatda ishlab

chiqilgan tajribaga ko‘ra, turli diasporalarning muvaffaqiyatli vakillari tomonidan Oliy o‘quv yurtlari va maktablarda ma’ruzalar va teledasturlar, internet transilatsiyalar juda foydalidir.

Ikkinchidan, ta’lim tizimida ekstremizm bilan kurashga yo‘naltirilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish. Bu borada Fransiya tajribasidan unumli foydalanish mumkin. Xususan, Fransiyada ―Respublika qadryatlarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan katta safarbarlik dasturi amalga oshiriladi. Shuningdek, bu dastur Fransiya senati va jamiyatning boshqa guruhlarida ham muhokama qilinadi [3].

Xulosa qilib aytish mumkinki, Suriya va Iroqda terrorchi guruhlarning mag‘lubiyatga uchray boshlashi oqibatida Yaqin Sharqdagi markaziy osiyolik jangarilarning vatanlariga qaytish jarayonlari ortishi kuzatiladi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari fuqarolarining terrorchi tashkilotlarga yollanishlari oldini olish va ularga qarshi kurashish maqsadida huquqni muhofaza qilish organlari uchun mo‘ljallangan yollash usullari tahlil qilingan o‘quv-uslubiy majmuani tayyorlash ayni paytda dolzarb ahamiyatga egadir. Shuning bilan birga yollovchilar tomonidan qo‘llaniladigan asosiy psixologik nayranglar yoritilgan qo‘llanma va materiallarni tayyorlab asosan yoshlar orasida (internet va ijtimoiy tarmoqlar) turli vositalar orqali keng targ‘ib qilinishiga erishish lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Internet ma’lumotlari: 1. http://www.mk.ru. - murojaat sanasi: 10.01.2024.
2. Material mejdunarodnoy-nauchno-obщestvennoy konferensii. Kosmicheskoe mirovozzrenie – novoe mishlenie XXI veka https://books.google.co.uz/books?isbn 5041561893.html. - murojaat sanasi: 17.01.2024.
3. Turdaliev K.T. “Osnovi upravleniya voyskami” 2005 god Uchebnoeposobie. - murojaat sanasi: 21.01.2024.

BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH VA SHAKLLANTIRISH

Tursunova Nilufar Turdiyevna
Toshkent Gumanitar fanlar universiteti
“Aniq va gumanitar fanlar “ kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya*: Bolalar nutqini rivojlantirishda asosiy va yetakchi o‘rin tutuvchi jihat bu kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Bunda nutqni rivojlantirish jarayoniga innovatsion ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish muhimdir. Maqolada bolalar nutqini o‘stirishda qo‘llaniladigan samarali usullarning afzalliklari o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar*: nutqni rivojlantirish, malakali tarbiyachi, kasbiy malaka, uzluksiz ta’lim.*

Bugungi kunda mamlakatimizning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma’naviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin olishi - bilimli, yuqori intellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarni mujassamlagan yoshlarga bog‘liq hisoblanib, har jihatdan yetuk va sidqi dildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o‘qitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pog‘onalarga olib chiqish avvalo tarbiyachi murabbiylar zimmasiga sharafli va ayni damda mas’uliyatli vazifani yuklaydi

Ta’lim-tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, muassasalarni zamonaviy bilimlarga ega tarbiyachilar bilan to‘ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida qayd etilganidek, maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha malakali tarbiyachi va pedagog kadrlar bugungi kunda uzluksiz innovatsion izlanishda bo‘lishi, fikrlashi, shuningdek, MTM larda ham ilg‘or g‘oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko‘rsatishi zarur.

Erta maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi situatsion xarakterga ega, u imo-ishoralar va mimikalarga boy va faqat muayyan vaziyatda tushuniladi. U keyinroq, asorat tug'ilganda bog'lanadi va yanada aniq va tushunarli gapirishga majbur qiladi. Ushbu bosqichda passiv so'z boyligiga ega 3 yosh va undan katta bolalar uchun ko'proq mos keladi. Ushbu so'zlarni faollashtirish va yangilarini o'rganish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish kerak:

1. Guruhlarda so‘zlarni o‘rganish: ovqat, kiyim-kechak, hayvonlar. Shu bilan birga, har bir obyektni maksimal ma'no bilan to'ldirib, xarakterlang

2. So‘zlarni xotirada mustahkam bo‘lishi uchun ularni takrorlash va suhbatda qo‘llash. Bolani so'zlarni va iboralarni takrorlashga o'rgatish.

3. Sinonimlar (ma’nosi o‘xshash so‘zlar), antonimlar (ma’nosi qarama-qarshi so‘zlar) qo‘llanilishi. Ob'ektlarni taqqoslash orqali ularning farqini ko'rsatish.

4. Bolaga kitob o'qish lug'atni folklor iboralari va so'zlari bilan to'ldirishga yordam beradi.

5. So'zning noaniqligini tushuntirish (yozuv uchun qalam, eshik tutqichi).

6. Har safar suhbat jarayonini murakkablashtiring, boladan aniqroq bayonotlarni talab qiling.

Shunday qilib, agar biz bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasiga moslashtirish jarayonida nutq va muloqotni rivojlantirish muammolarini har tomonlama hal qilishni ta'minlasak, bu o'quvchilarning moslashish vaqtini qisqartiradi va ish samaradorligini oshiradi, deb taxmin qilish mantiqan to'g'ri bu sohada. Bunda bolaning ijtimoiy va intellektual rivojlanishida qiyinchiliklarni

bosib o‘tish uchun birinchi navbatda bolalarning kommunikativ kompetensiyasini, lingvistik va interaktiv metodlardan foydalangan holda boshqalar bilan munosabatlarni o'rnatish qobiliyatini rivojlantirish kerak.

Bolalar nutqini rivojlantirish “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida belgilangan bolalarga ta’lim berishda kompetentsiyaviy yondashuvning muhim qismi sanaladi. 6-7 yoshli bolaning umumiy muhim kompetentsiyalari sifatida birinchi navbatda, kommunikativ kompetentsiya, ya’ni muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasini shakllantirish belgilangan. Shunday ekan, MTTda har bir ta’limiy faoliyat mazmunida bolaning nutqini o‘stirish va rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Bola yangi bilimlarni o‘yinlar va didaktik vositalar asosida o‘zlashtirganida samaradorlik yuqori bo‘ladi. Ya’ni badiiy adabiyotni oddiy o‘qib berishdan ko‘ra innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llagan holda faoliyatga tatbiq etish har bir bolaning nutqini rivojlantirish jarayonini ta’minlaydi, tezlashtiradi va shu bilan ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi. Buning uchun maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish va jarayonda faol qo‘llash talab etiladi.

Aynan MTTda nutq o‘stirish jarayonida badiiy adabiyotning o‘rni beqiyosligini e’tirof etgan holda, badiiy asarlarni yangi texnologiyalar vositasida bolalarga o‘rgatishning samaradorligi yuqori ekanligini kuzatdik. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish ko‘p jihatdan quyidagilarning to‘g’ri hal etish bilan bog’liq:

- nutqni rivojlantirishga doir didaktik materiallar tarkibiga ota-onalar, tarbiyachining ma’lum maqsadga qaratilgan nutqi, bolalarga o‘qib yoki aytib beriladigan ertak, she’r, qo‘shiqlar, hikoyalar muntazam kiritilishi;
- ta’limning didaktik materiallarni foydalanadigan tarzda zamonaviy tashkil etilishi;
- ta’limiy o‘yinlarda bolalarning faol nutqiy muloqotda bo‘lishini ta’minlash.

Shunday qilib, an’anaviy ravishda badiiy asarlarni o‘qib berishdan ko‘ra innovatsion shaklda badiiy asar bilan tanishtirishning amaliy afzalliklarini tasniflaymiz. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun an’anaviy ta’limiy faoliyat tarbiyachining hikoya qilib berishi, o‘qib berishi va takrorlatgan holda yod oldirishini tan oladi. Ammo tajriba shuni ko‘rsatadiki, bolalar tarbiyachining hikoyasini kichik o‘zgarishlar bilan takrorlaydilar, hikoyalar oddiy so‘zlar vositasida talqin qilinadi xolos. Shuning uchun, hikoyani o‘qib berish jarayoni nihoyasiga yetgach, bolalardan qayta hikoya qilib berish emas, shu hikoya asosidagi aralash kartinkalarni magnitli doskaga o‘z o‘rniga ko‘ra terib chiqishini talab etish kerak. Ular voqealar ketma-ketligiga ko‘ra rasmlarni izlab topish jarayonida nafaqat nutqi balki, diqqati, kuzatuvchanligi, mantiqiy fikrlashi

rivojlanadi. O‘zlari hosil qilayotgan hikoya kompozitsiyasini kuzatish tarbiyalanuvchilarni faollashtiradi va yangi so‘zlar bilan tasvirlashga urinadi. Ushbu faoliyat bolalarni zerikishdan himoya qiladi, butun guruhni qayta hikoya qildirishga imkon bo‘lmagan taqdirda, bu usul vositasida barcha bolalar ish jarayoniga jalb etiladi. Ayniqsa tarbiyachi asosiy ijrochi rolidan kuzatuvchi darajasiga statusini o‘zgartirishi bolalarga erkinlik beradi.

Shundan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarning izchil nutqini shakllantirish va faollashtirish uchun an’anaviy usul va metodlar bilan bir qatorda quyidagi innovatsion texnologiyalar qo‘llaniladi:

1. Vizual modellashtirish texnologiyasi.

2. AKT texnologiyalari.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitishda vizual modellashtirish samaralidir.

Ushbu usul yordamida tarbiyachi va bola soddalashtirilgan sxematik tasvirlar, belgilar yordamida ob’ektlar, hodisalar, harakatlar, tushunchalar, epizodlarni tasvirlaydilar. Vizual modellashtirish bolalarga turli xil bilimlarni yetkazish usuli

sifatida ajralib turadi. Shuningdek ularning aqliy va nutq qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi sifatida muvaffaqiyatli ishlatiladi. Yuqorida keltirganimiz “Rasmlarning o‘rnini top” o‘yini vizual modellashtirishga misol bo‘la oladi.

2. Psixologlarning ta’kidlashicha, bolalarga kompyuterda, katta ekranda namoyish etiladigan har qanday yangi ma’lumot jozibali hisoblanadi. Zamonaviy bolalar ba’zida ma’lumotlarni oddiy eshitganidan ko‘ra kompyuter texnologiyalari vositasida tezroq o‘rganadilar. Birgina misol, eshitgan hikoyasi personajlarini yodidan ko‘tarilishi mumkin, lekin multfilm qahramonlarini uzoq muddat eslab qoladi. Shuning uchun bugungi kunda maktabgacha ta’limda AKTdan foydalanish zarurati aniq. Nutqni rivojlantirish uchun ta’limiy jarayonda AKTdan foydalanish juda keng imkoniyatlarni taqdim qiladi. Xususan, elektron resurslar yordamida badiiy asar matnini eshitish bolalarga monotonli hikoyadan ko‘ra ta’sirliroqdir. Chunki electron resursda musiqa qo‘shish va qushlar, suv, shamol ovozi kabi vositalardan foydalanish matn samaradorligini ta’minlaydi. AKT asosida tinglangan matnlarga ham bolalar hozirjavoblik va qiziqish bilan javob beradi. Nutqni rivojlantirishning asosiy vazifalari - so‘z boyligini boyitish va faollashtirish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, izchil nutqqa o‘rgatish maktabgacha yosh davrida hal qilinishini inobatga oladigan bo‘lsak, ijodiy ta’lim texnologiyalariga alohida e’tibor qaratish lozim. Xususan, nutq o‘stirish faollik markazini badiiy qo‘llanmalarga va didaktik materiallarga boy tarzda jihozlashga e’tibor berish kerak.

Bolalar nutqining barcha qirralarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mavzuga mos syujetli rasmlar to‘plamlari, sahnalashtirishga mo‘ljallangan o‘yinchoqlar to‘plamlaridan, bosma didaktik o‘yinlardan tashkil topgan metodik bankni yaratish tarbiyachi zimmasidadir. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish nutqni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashini e’tirof etgan holda, guruhlarda kitoblar burchaklari va "Aqlli kitoblar tokchasi" tashkil etilishi muhim. Chunki tarbiyalanuvchilar bunday materiallar bilan bevosita yangi taassurotlar, bilim, ko‘nikmalar bilan tanishadi. Dialogik, hissiy jihatdan boy nutqi shakllanishi uchun qulay muhitda bo‘ladi.

Badiiy asarlar vositasida bolalarning nutqi va tafakkuri rivojlanar ekan, bir paytning o‘zida bog’lanishli dialogga kirishadi, fikrlarini bayon etishga kirishadi. Bu bolaga zavq va quvonch bag’ishlaydi, bu tuyg’ular nutqni faol idrok etishni rag’batlantiradigan va mustaqil nutq faoliyatini yaratadigan eng kuchli vositadir. Buni amaliyotda kuzatganimizda o‘yinlar va samarali ta’lim texnologiyalari asosida nutq o‘stirish mashg’ulotlari o‘tkazilganida bolalarning faolligi, fikrlarini dadil asosda bayon qilgani, jarayonda zerikish bilmaganligi, lug’atida yangi so‘zlarni qo‘llaganligi, qiziqishlari tufayli yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirishga ishtiyoq uyg’onganligi ma’lum bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.M.Qodirova. O‘zbekiston bolalar bog‘chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o‘rgatish. -T.: O‘qituvchi, 1993.
2. Babaeva D.R. Nutq o‘stirish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. - T.: TDPU, 2016.
3. F.R.Qodirova. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o‘rgatish metodikasi. -T. 4.2004.
4. G‘.Hamroev Ona tili o‘qitishning samarali usullari. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. –T.: Bayoz nashriyoti. 2018. 9-11b.
5. Qodirov M., Ne’matov H. Mengliev B. Va boshq. Ona tili 8-sinflar uchun darslik. – T.: Cho‘lpon. 2019. 6-8 b.

YAQIN SHARQDA HARBIY-SIYOSIY VAZIYAT RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOSLIGI

(Yaqin sharq misolida)

Qoraboyev Avazbek Isomiddinovich

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Yaqin Sharqda harbiy-siyosiy vaziyat rivojlanishining o‘ziga xosligi va ularga ta’sir etuvchi asosiy omillar va ularni bartaraf qilishlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *BAA, O‘rtayer dengizi, Yaqin Sharq, AQSh, Afg‘oniston, Osiyo-Tinch Okeani, harbiy-siyosiy vaziyat, Arab bahori, Iroq, Marokash, Quvayt, Saudiya Arabistoni, Afrika, miqyos, Livan.*

Yaqin Sharq uch qit’a – Afrika, Osiyo va Yevropa kesishgan nuqtada joylashgan bo‘lib, beshta dengiz – O‘rta yer dengizi, Qizil dengiz, Qora dengiz, Kaspiy dengizi va Arabiston dengizi bilan o‘rab olingan. Tarixan mazkur hudud Fors ko‘rfazi, Ormuz qo‘ltig‘i va Suvaysh kanali orqali o‘tuvchi muhim xalqaro savdo yo‘llarining asosi bo‘lib kelgan. Neft va boshqa kabi ahamiyatli tabiiy zahiralari va geosiyosiy joylashuvi Yaqin Sharqning xalqaro maydonda o‘ziga xos siyosiy hamda iqtisodiy maqomini shakllantirib, uning qudratli davlatlar raqobat maydoniga aylanishiga sabab bo‘lib kelmoqda.

Yaqin Sharqning geografik va geosiyosiy makoni tavsifi haqida aniq bir to‘xtamga kelinmagan. ―Yaqin Sharq atamasining o‘zi 1850-yillarda Britaniya Imperiyasining Hindistonga nisbatan siyosat yurituvchi idoralarida yuzaga kelgan. Atamaning keng qo‘llanishga kirishi 1902-yilda e’lon qilingan amerikalik strategik dengizchi Alfred Taer Mexenning ―Fors ko‘rfazi va xalqaro munosabatlardagi maqolasi ortidan yuzaga kelgan. Ushbu maqolada Yaqin Sharq ― Qora dengizning janubi, g‘arbda O‘rtayer dengizi va sharqda Hindiston oralig‘idagi hududi deya ta’riflangan. Hozirgi zamonaviy qo‘llanishda esa, asosan, janubda Efiopiya, shimolda Turkiya, g‘arbda Marokash va sharqda Afg‘oniston hamda Pokistongacha bo‘lgan hududga ―Yaqin Sharq deya nisbat berish ko‘proq uchraydi.

Murakkab etnik va diniy muhit, hududiy nizolar hamda boshqa muhim omillar tufayli Yaqin Sharq uzoq davrdan beri ixtiloflar makoniga aylanib qolmoqda, mavjud holatga mintaqadagi yetakchilikka erishish maqsadida bo‘lgan tashqi kuchlarning aralashuvi vaziyatni yanada chigallashib ketishiga sabab bo‘lmoqda, mintaqada yuz berayotgan har qanday o‘zgarish dunyoning turli burchaklariga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Shu sabab Yaqin Sharq mavzusi hozirda xalqaro munosabatlarning eng birinchi darajasida bo‘lgan siyosiy masalalardan biriga aylanib ulgurdi.

Sovuq Urushning oxiri va undan keyingi davrlarda Amerika Qo‘shma Shtatlari Yaqin Sharqda o‘zining harbiy faolligini keskin oshirdi. Ko‘rfaz Urushi, Kosovo Urushi, Iroq va Afg‘onistondagi urushlarda AQSh mintaqadagi siyosiy qarama-qarshiliklarni hal qilish uchun harbiy kuchni keng miqyosda qo‘lladi. Biroq mazkur harbiy harakatlar ko‘zlangan tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash o‘rniga, Yaqin Sharq mintaqasida amerikaga qarshi qarashlar avj olishi hamda yanada keskin terroristik jangarilik kuchlarining o‘sishiga olib keldi. 2001-yil 11-sentyabridagi terrorchilik harakatidan so‘ng o‘sha paytdagi AQSh prezidenti Jorj Bush katta miqdordagi moliyaviy xarajatlarga sabab bo‘lishi ortidan qiyin iqtisodiy muammolarni keltirib chiqargan va mamlakatni Yaqin Sharq mintaqasida yanada keskin siyosiy inqirozlar bilan yuzlashtirgan ―terrorga qarshi urushlarni boshladi, bu urush esa deyarli o‘n yil davom etdi.

Bundan tashqari 2008-yilda yuzaga kelgan global moliyaviy inqiroz AQShning iqtisodiy o‘sishini turg‘un holga tushib qolishi, yuqori darajali ishsizlik va salmoqli federal qarzlarga sabab bo‘ldi.

B.Obama 2009-yilda Amerika Prezidenti sifatida qasamyod qilganda mamlakat va dunyodagi vaziyat keskinlashib ketgan edi. Iroq va Afg‘onistondagi urush, xalqaro moliyaviy inqiroz, Osiyo-Tinch Okeani mintaqasidagi yangi qudrat markazlarini paydo bo‘lishi AQShning jahondagi siyosiy ta’sirining keskin pasayib ketishiga olib kelgan edi. Barak Obama rahbarligidagi Amerikaning yangi hukumati oldida hal qilinishi mumkin bo‘lgan o‘ta og‘ir muammolar bo‘lib, ushbu muammolar o‘ta aniqlik, pragmatizm va ongli strategik qadamlarni talab qilardi. Obama ma’muriyati bir qancha strategik o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaror qildi: ichki siyosatga ko‘proq e’tibor berish, harbiy harakatlarni qisqartirgan holda iqtisodiy qudratni qaytadan tiklash, Yaqin Sharqdan nisbatan chetlanib, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida kuchlar muvozanati jarayonlariga imkon qadar ko‘proq ta’sir o‘tkazish shunday o‘zgarishlar jumlasidan bo‘ldi.

Avvaliga Yaqin Sharq mintaqasidagi AQSh faolligida cheklanish kuzatilgan bo‘lsada, 2011-yilda boshlangan ―Arab Bahori vaziyatni tubdan o‘zgartirdi. Endilikda Obama ma’muriyati mintaqaga nisbatan e’tiborni qayta kuchaytirishga, yuz berayotgan o‘zgarishlarga ta’sir o‘tkazishga, yangi kuchlar muvozanatini shakllantirishga, mintaqaviy barqarorlik va demokratik islohotlarni qo‘llab-quvvatlashga majbur bo‘ldi.

Nazarimizda, shu o‘rinda mintaqaning qator mamlakatlarida sodir bo‘lgan ―Arab bahori voqealari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq [2].

Bugungi kunda bir qator olimlar Yaqin Sharqdagi harbiy-siyosiy vaziyat keskinlashuvining boshlang‘ich nuqtasi sifatida ―Arab bahori inqiloblarini qayd etmoqda. Chunki, mintaqaning qator mamlakatlarida harbiy-siyosiy vaziyatning jiddiy keskinlashuvi aynan ―Arab bahori voqealaridan keyin kuzatildi. Xususan, mazkur inqiloblar natijasida Liviyada mavjud tuzim ag‘darildi, Tunis va Misrda inqiloblar, Baxrayn, Jazoir, Iroq, Iordaniya, Marokash va Ummonda ommaviy norozliklar, Quvayt, Livan, Mavritaniya, Saudiya Arabistoni, Sudan va G‘arbiy Saxarada kichik norozilik chiqishlari sodir bo‘ldi. Suriya va Yamandagi fuqarolar urushlari keng miqyosli mintaqaviy konfliktlarga aylanib ketdi. Nazarimizda, inqiloblarini yuzaga keltirgan omillarni tahlil qilish natijasida bugungi kunda ham ayrim Yaqin Sharq mamlakatlarida saqlanib qolayotgan keskin harbiy-siyosiy vaziyatning asoslarini aniqlash imkoniga ega bo‘lamiz.

Tadqiqotchi M.S.Sagidzade ―2010-yil oxiri Yaqin Sharq mintaqasi mamlakatlari rivojlanish tarixida yangi rivojlanish bosqichi bo‘ldi. Tunis va Misrdagi inqilob, Liviya, Suriya va Yamandagi fuqarolar urushi yuz berdi.

―Arab bahori – 2011-yilda Yaqin Sharq mamlakatlari fuqarolarining siyosiy va boshqa huquqlari hamda samarasiz hokimiyat bilan kurashishlari faollashgan davr bo‘ldi deb ta’kidlaydi.

Hozirgi kunda ―Arab bahorining yuzaga kelishiga nisbatan turli xil yondashuvlar mavjud. Xususan, bir guruh tadqiqotchilar ―arab bahori inqiloblarida tashqi omillar muhim rol o‘ynaganligini qayd qiladilar. Boshqa bir guruh esa, mazkur voqelikni mamlakatlardagi ichki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolar bilan bog‘lashadi.

Birinchi yondashuvni yoqlovchi tadqiqotchilar 2008-yil 1-oktyabrda AQSh hukumati va harbiy tuzilmalari tarkibida yangi kontinental ―United States Africa Command (Afrikom) qo‘mondonligi tuzilganligini Shimoliy Afrika va Yaqin Sharqda sodir bo‘lgan ―arab bahori bilan bog‘lashadi. Mazkur komandaning vazifasi Afrika qit’asida ―amerika milliy manfaatlarini ilgari surish va ―mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash bo‘lgan. Amerikalik olim U.Engdal ushbu loyiha va mintaqadagi inqiloblar aloqadorligini quyidagicha izohlaydi. ―Oxirgi oylarda biz kuzatgan ―Arab bahori nomi ostida Afrikaning turli qismlarida va Yaqin Sharq mamlakatlarida sodir bo‘lgan turli beqarorliklar Afrikom strategiyasining bir qismi hisoblanadi.

U.Engdal fikrlariga yaqin yondashuvni Xalqaro muammolarni o‘rganish markazi (Gloria Centre) tahlilchisi Barri Rubin ham ilgari suradi. Uning fikricha, ―Arab bahori va proksi-urushlar AQShga o‘z armiyasini keng miqyosli safarbar qilmasdan mintaqada o‘z maqsadlariga erishishga imkon berdi. Shuningdek, tahlilchi, ―Arab bahori rasmiy Vashington tomonidan puxta rejalashtirilgan operatsiya bo‘lib, 2010-yil avgustda B.Obama ko‘rsatmasi bilan uning tashqi siyosat bo‘yicha maslahatchilari Yaqin Sharqda AQSh manfaatlarini ilgari surishga mo‘ljallangan rejani tayyorladilar. Unda mintaqaning qator mamlakatlaridagi avtoritar rejimlarga qarshi amerika ittifoqchilari hisoblangan diniy muxoliflarga ko‘maklashish nazarda tutilgandi, deb ta’kidlaydi[3].

Ikkinchi yondashuvni qo‘llab-quvvatlovchi ekspertlar orasida Yaqin Sharq mintaqasidagi o‘zgarishlarda ichki omillar muhimligi borasidagi yagona qarash mavjud. Ammo ular o‘rtasida mazkur omillar ierarxiyasi borasida turli yondashuvlar ilgari suriladi. Ya’ni, bir guruh tadqiqotchilar fikricha, hal qiluvchi omil ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi nomutanosiblik (qashshoqlik, korrupsiya, ishsizlik) hal qiluvchi rol o‘ynagan bo‘lsa, boshqa guruh ekspertlar siyosiy-psixologik (avtoritarizm) yoki ijtimoiy-siyosiy muammolarga e’tibor qaratishadi. Mazkur tadqiqotlarni o‘rganish natijasida ularda qayd qilingan omillarni quyidagicha tasniflandi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar. ―Arab bahori sodir bo‘lgan mamlakatlarda so‘ngi yillarda aholi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, yashash darajasi keskin pasayib

ketishi kuzatildi. Xususan, Misrda turizmdan keladigan bir yillik daromad 12-14 mlrd. doll.ni, AQShdan keladigan har yilgi beg‘araz yordam 1,5 mlrd. doll.dan oshgan, aholining 40% dan ortig‘i kuniga 2 doll.ga kun kechirgan, mamlakat aholisi eng boy 10% va eng qashshoq qatlami o‘rtasidagi tafovut 30 barobarga farq qilardi. Davlat byudjeti oxirgi 5-7 yilda 20%ga qisaqardi. Umuman olganda, mintaqada hokimiyatga qarshi isyonlarga faqatgina 2010-yilning o‘zida oziq-ovqat mahsulotlari narxining 32% o‘sishi ham sabab bo‘ldi.

Korrupsiya va urug‘-aymoqchilik omili. Mamlakatlarda chuqur ildiz otgan va jamiyatning barcha sohalariga kirib borgan korrupsiya hamda urug‘-aymoqchilik ommaviy noroziliklar kelib chiqishiga sabab bo‘lganligi ham tadqiqotchilar tomonidan qayd qilinadi. Jumladan, Tunisda yirik kompaniyalarning yarmi prezident Ben Ali va uning urug‘aymoqlariga tegishli bo‘lgan. Masalan, prezidentning ikkinchi xotini akasiga aviakompaniya, mashina yig‘ish zavodi, mehmonxonalar, Ford avtomobillari dillerlik tarmog‘i va boshqalar tegishli bo‘lgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Misr prezident H.Muborak va uning oilasiga tegishli bo‘lgan boylik kamida 40 mlrd. doll.ni tashkil qilgan. H.Muborakning o‘g‘li Gamalga aloqador bo‘lgan 40 ga yaqin amaldorlar va biznesmenlar kamida 1 mlrd. doll. moddiy boyliklarga ega bo‘lgan.

Siyosiy hayotda erkinliklar chegaralanganligi va mavjud siyosiy tuzumlarning real hayot talablariga javob bera olmasligi omili. Ushbu mamlakatlarning aksariyatida muxolifat huquqlarining har tomondan cheklanib, saylov natijalarining soxtalashtirilishi, davlat yetakchilarining Tunis sobiq prezidenti Ben Ali, Misr prezidenti H.Muborak, Liviya yetakchisi M.Kaddafilarning uzoq vaqt hokimiyatda turishi davlat institutlari faoliyatining sekinlashuviga olib kelishi, siyosiy boshqaruv uzoq vaqt davomida shakllangan siyosiy elita qo‘lida saqlanib qoldi va muxolifat amalda mavjud emasdi.

Ikkinchidan, ko‘pchilik odamlar o‘z hayotlari davomida faqat va’dalar berib uni bajarmaydigan siyosiy yetakchini ko‘rdilar. Ko‘plab avtoritar yetakchilar zamon talablariga moslashishga intilmadilar, rivojlanib kelayotgan namoyishlar va noroziliklarni oldini olishi uchun aholining mavjud muammolarni yechishga harakat qilmadilar.

Yangi informatsion texnologiyalar omili. —Arab bahori voqealarida yangi informatsion texnologiyalar, avvalo, sun’iy yo‘ldosh orqali uzatiladilan Al-Jazira va Al-Arabiya telekanallar, keyin internet va mobil telefonlar muhim rol o‘ynaganligi tadqiqotchilar tomonidan qayd qilinadi. Mazkur yangi kommunikatsiya vositalari, avvalo, hukumatning axborot ustidan hukmronligiga chek qo‘ydi. Ikkinchidan, bu texnologiyalar orqali muxolifatning yig‘ilishi va birgalikda harakat qilish uchun qulay imkoniyat paydo bo‘ldi. Uchinchidan,

internet va mobil telefonlar odamlarni bo‘layotgan voqealardan xabardor qilish, safarbar qilish va ommani ko‘chaga olib chiqishda muhim rol o‘ynadi.

Xalqaro Valday klubi doirasida Yaqin Sharq mavzusida amalga oshirilgan davra suhbatida arab davlatlarini mavjud xavf va tahdidlarga chidamliligiga ko‘ra, **fuqarolik urushini boshidan kechirayotgan, mo‘rt, zaif va barqaror mamlakatlar** sifatida to‘rt guruhga bo‘lingan.

Birinchi guruhga Suriya, Iroq, Liviya va Yaman davlatlari kiritilgan. Ma’luki, bu mamlakatlarda sezilarli hudud qurolli nohukumat kuchlar ta’siri ostida va davlat institutlarining keskin kuchsizlanishi ro‘y berdi. Liviyada inqilob M.Kaddafi tomonidan yillar davomida yaratilgan siyosiy tizimni ag‘darib tashladi hamda real hokimiyat xalq lashkarlaridan tashkil topgan harbiylashgan guruhlar qo‘liga o‘tdi. Yamanda an’anaviy konfessiyalararo, qabilalararo, mintaqalararo muvozanatni buzilishi, eski va yangi konflikt nuqtalarining paydo bo‘lishiga qaramasdan, zamonaviy partiyalar simbiozi, an’anaviy ijtimoiy guruhlar diniy harakatlar u yoki bu darajada saqlanib qoldi. Natijada, Liviyada elementar davlat institutlarining yo‘qligi muammolarni yaqin istiqbolda siyosiy hal qilish yetarlicha muammoligini ko‘rsatmoqda.

Suriyada davlat instituti yuqoridagilarga qaraganda, o‘zining mustahkamligini ko‘rsatib, o‘z nazoratidagi hududni samarali boshqarmoqda. Iroqda ―ID nazoratidagi hududlarda Suriyadagi kabi fuqarolar urushi sodir bo‘lmoqda. Mamlakatda konfessiyalararo kurash, federalizatsiyaga urinishga qaramasdan, davlatchilik mustahkamligi saqlanib qolmoqda.

Mo‘rt davlatlar toifasiga, Misr, Tunis, Iordaniya va Livanni kiritish mumkin. Birinchi ikki mamlakat ―arab bahori oqimida inqilobni boshdan kechirdi. Ularning yangilangan siyosiy tizimi juda kuchsizligicha qolmoqda va ularda demokratik taraqqiyot tajribasi yo‘q, boshqaruv tizimida samaradorlik yetishmaydi. Bu yerda davlat tizimi barqarorligiga yechilmay qolgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, siyosiy jarayonlardan chetlatilgan ommaviy muxolif guruhlar va mahalliy hamda chetdan suqilib kirishi mumkin bo‘lgan terrorchi guruhlar asosiy xavf bo‘lib qolmoqda.

Livan va Iordaniya o‘z aholisining norozilik harakatlarini bartaraf qilgan bo‘lsalar-da, ular uchun Livan aholisining 25%, Iordaniya aholisining 20% ni tashqil qilayotgan Suriya va Iroqdan kelgan qochoqlar mavjud vaziyatni beqarorlashtiruvchi muhim omil bo‘lishi mumkin.

Uchinchi toifaga, ―arab bahori xavfini bartaraf eta olgan, ammo potensial beqarorlik ehtimoli mavjud bo‘lgan mamlakatlar kiradi. Bu avvalo, Jazoir, Saudiya Arabistonidir. BAAning fors ko‘rfazidagi yetakchilik o‘rnini inobatga olib aytish mumkinki, amirlikdagi beqarorlik 2011-yilda ommaviy noroziliklar bilan duch kelgan qo‘shni Quvayt va Baxraynga ham oqib o‘tishi mumkin.

Va nihoyat, qator ekspertlarning fikricha, bugungi kunda turli ichki va tashqi xavflarga o‘z chidamliligini ko‘rsatgan Marokashni barqaror davlat toifasiga kiritish mumkin. Umuman, Yaqin Sharqning ko‘plab mamlakatlari o‘zgarishlarga muhtoj, ammo ijtimoiy sabrsizlik, jarayonlarni tezlashtirishga urinish, unga tashqaridan ta’sir qilish besamar ko‘rinmoqda [3].

Umuman olganda, Yaqin Sharq mintaqasi tarixan uzoq vaqtlar davomida dunyo yetakchi kuchlarining manfaatlari to‘qnashuvi maydoni bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, XXI asrning ikkinchi o‘n yilligida Yaqin Sharqdagi o‘zgarishlar milliy, mintaqaviy va xalqaro darajadagi og‘riqli masalalarni yuzaga keltirdi. Xususan, oxirgi yillarda mintaqadagi o‘zgarishlar natijalari butun dunyo uchun xavfli tendensiyalarni yuzaga keldi. Yaqin Sharqning milliy davlatchilik yemrilgan hududlarida kuchsizlangan hukumat va o‘ziga davlat funksiyalarini olgan yoki shunga intilayotgan nodavlat aktorlar o‘rtasida to‘qnashuvlar sodir bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Internet ma’lumotlari: 1. http://www.mk.ru.- murojaat sanasi: 29.12.2023.

2. Материал международной-научно-общественной конференции. Космическое мировоззрение – новое мишление XXИ века ҳттпс://боокс.гоогле.со.уз/боокс?исбн 5041561893.ҳтмл.- мурожаат санаси: 03.11.2023.

3. Турдалиев К.Т. “Основи управления войсками” 2005 год Учебноепособие.- 16.12.2023.

FEYK MA’LUMOTLARNI ANIQLASH: ZAMON TRENINGI

*podpolkovnik **SAYDJANOV Farxod Madraximovich***

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti kafedrasi sikl boshlig‘i

Annotatsiya. *Zamonaviy taraqqiyot davri bizni salbiy axborot-psixologik ta’siridan himoyalash va qarshi kurash mexanizmlarini yaratishni talab etmoqda.*

Maqolada feyk ma’lumotlarni aniqlash bo‘yicha asoslar keltirilgan. Olingan xulosalarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish, axborot-psixologik xavfsizlikning asosiy tarkibiy qismini asosi sifatida hisoblanmoqda.

Harbiy xizmatchini salbiy axborot ta’sirlardan himoyalash vositasi sifatida – feyk ma’lumotlarni faqtida aniqlash muhim vazifalardan biridir.

Tayanch so‘zlar: *kibermakon, feyk, propoganda, axborot-psixologik xavfsizlik, tezis, argument, fakt, dalil-isbot, gipotiza, prognozlashtirish, alternativ nuqtai nazar, fenomen, kognetiv strategiya, tanqidiy yondashish, suggestivlik, semantik-differensial, respondent.*

Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Biz kundalik yangiliklarni o‘qiymiz, fikr almashamiz va turli

manbalardan ma’lumot olamiz. Biroq, bu ma’lumotlar orasida feyk, ya’ni yolg‘on ma’lumotlar ham tez-tez uchrab turadi. Feyk ma’lumotlar jamiyatda tartibsizlik, ishonchsizlik va noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishga olib kelishi mumkin. Shu sababli, ularni aniqlash va ulardan himoyalanish har bir internet foydalanuvchisi uchun muhim ko‘nikmaga aylanmoqda. Ushbu maqolada feyk ma’lumotlarning kelib chiqishi, ularni aniqlash usullari va ularga qarshi kurashish yo‘llari haqida batafsil so‘z yuritamiz.

Feyk ma’lumotlar deganda nimani tushunamiz?

Feyk ma’lumotlar — bu atayin yolg‘on, buzib ko‘rsatilgan yoki noto‘g‘ri tafsirlangan ma’lumotlar bo‘lib, ko‘pincha odamlarni aldash, ularning fikrini o‘zgartirish yoki muayyan manfaatlarga xizmat qilish maqsadida tarqatiladi. Bu ma’lumotlar yangilik, statistika, surat yoki video ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda “falon davlatda urush boshlandi” yoki “bu dori barcha kasalliklarga davo” degan xabarlar ko‘p tarqaladi. Agar bunday ma’lumotlar tekshirilmasa, u odamlar orasida vahima yoki noto‘g‘ri ishonch uyg‘otishi mumkin.

Feyk ma’lumotlarning kelib chiqishi turlicha bo‘lishi mumkin. Ba’zilar jamiyatda bo‘hton yoki targ‘ibot maqsadida yaratilsa, boshqalari shunchaki e’tiborni jalb qilish yoki “virusli” kontent yaratish uchun tarqatiladi. Xususan, so‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida yaratilgan “deepfake” videolar feyk ma’lumotlarni yanada murakkab va ishonchli qilib ko‘rsatmoqda.

Feyk ma’lumotlarni aniqlash usullari

Feyk ma’lumotlarni aniqlash uchun bir qator amaliy usullar mavjud. Ularni qo‘llash uchun maxsus texnologiyalar yoki mutaxassis bo‘lish shart emas — oddiy foydalanuvchi ham ulardan foydalanishi mumkin. Quyida eng muhim usullarni ko‘rib chiqamiz:

1. **Manbani tekshirish.** Har qanday ma’lumotni o‘qiganda birinchi navbatda uning manbasini tekshirish kerak. Yangilik yoki xabar qaysi saytda, qaysi nashrda yoki kim tomonidan e’lon qilingan? Agar manba taniqli va ishonchli bo‘lmasa, unga shubha bilan qarash lozim. Masalan, “BBC”, “CNN” yoki “Reuters” kabi taniqli nashrlar odatda tekshirilgan ma’lumotlarni e’lon qiladi, lekin noma’lum blog yoki ijtimoiy tarmoqdagi shaxsiy sahifa ehtimol feyk tarqatishi mumkin.

2. **Sarlavha va mazmunni tahlil qilish.** Feyk ma’lumotlar ko‘pincha e’tiborni jalb qilish uchun oshirib yozilgan sarlavhalar bilan tarqatiladi. Agar sarlavha juda hayratlanarli yoki ehtimoldan xoli bo‘lsa (masalan, “Ikki kunda dunyoda internet o‘chib qoladi”), bu shubha uyg‘otishi kerak. Shuningdek, maqola mazmunini o‘qib, unda aniq dalillar, raqamlar yoki manbalar ko‘rsatilganmi-yo‘qmiga e’tibor bering.

3. **Sanalar va faktlarni tekshirish.** Ba’zi feyk xabarlar eski voqealarni yangidek ko‘rsatish orqali aldaydi. Masalan, o‘tgan yilgi to‘fon suratlari bu yilgi yangilik sifatida tarqatilishi mumkin. Shuning uchun xabardagi sanalar va faktlarni boshqa manbalar bilan solishtirish muhim.

4. **Rasm va videolarni tahlil qilish.** Feyk ma’lumotlar ko‘pincha fotoshop qilingan suratlar yoki buzilgan videolar bilan ko‘rsatiladi. Bunday holatlarda “Google Images” yoki “TinEye” kabi xizmatlar yordamida suratning asl manbasini topish mumkin. Agar video shubhali bo‘lsa, uning tovush va tasvir sifatiga e’tibor bering — deepfake videolar odatda mayda nuqsonlarga ega bo‘ladi.

5. **Mantiq va aqlga muvofiqlik.** Agar ma’lumot juda g‘alati yoki mantiqsiz tuyulsa, unga ishonmaslik kerak. Masalan, “Bir kishi osmondan tushgan samolyotni qo‘li bilan ushlab qoldi” degan xabar aqlga sig‘maydi va tekshirishga muhtoj.

Feyk ma’lumotlardan himoyalanish yo‘llari

Feyk ma’lumotlardan to‘liq qutulish mumkin bo‘lmasa-da, ularning ta’sirini kamaytirish va o‘zimizni himoya qilish uchun bir qator choralarni ko‘rish mumkin:

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Har bir ma’lumotni qabul qilishdan avval uning haqiqiyligiga shubha bilan qarash va tekshirish odatini shakllantirish kerak.

Ishonchli manbalardan foydalanish: Yangiliklarni faqat tasdiqlangan va obro‘li manbalardan olishga harakat qiling.

Ma’lumotni tarqatmaslik: Agar xabarning rostligiga ishonchingiz komil bo‘lmasa, uni boshqalarga yubormang yoki ulashmang.

Texnologik vositalardan foydalanish: Feyk ma’lumotlarni aniqlashga yordam beruvchi maxsus dasturlar (masalan, “FactCheck” yoki “Snopes”)dan foydalanish mumkin.

Kanday qilib feyk va dezinformatsiyani aniqlasa bo‘ladi?

1. **Manbani tekshirish**: Ma’lumot qaerdan kelganiga e’tibor bering. Agar bu taniqli, ishonchli sayt yoki nashr bo‘lmasa, shubha bilan yondashing. Masalan, rasmiy yangilik saytlari odatda tekshirilgan ma’lumot beradi, lekin noma’lum blog yoki guruhlar ehtiyot talab qiladi.

2. **Faktlarni tekshirish**: Ma’lumotda keltirilgan dalillarni boshqa manbalar bilan solishtiring. Agar biror narsa faqat bitta joyda aytilgan bo‘lsa va boshqa yerda tasdig‘i topilmasa, bu feyk bo‘lishi mumkin.

3. **Mantiqqa tayanish**: Agar ma’lumot juda g‘alati, oshirib yuborilgan yoki haqiqatdan uzoq tuyulsa, bu dezinformatsiya belgisi bo‘lishi mumkin. Masalan, sensatsion sarlavhalar ("Bir kunda dunyo tugaydi!") ko‘pincha e’tiborni jalb qilish uchun yoziladi.

4. **Rasm va videolarni ko‘zdan kechirish**: Feyk xabarlarda ko‘pincha eski yoki boshqa voqealardan olingan suratlar ishlatiladi. Rasmni internetda qidirib, uning qachon va qaerda paydo bo‘lganini tekshirish mumkin.

5. **Emotsiyalarga bosim**: Dezinformatsiya ko‘pincha qo‘rquv, g‘azab yoki hayajonni qo‘zg‘ashga urinadi. Agar xabar sizni darhol qattiq reaksiyaga undasa, to‘xtab, avval uning haqiqiyligini tekshiring.

6. **Muallif va maqsad**: Kim va nima uchun bu ma’lumotni tarqatmoqda? Agar muallif noma’lum bo‘lsa yoki maqsad faqat sensatsiya yasashga qaratilgan bo‘lsa, ehtiyot bo‘ling.

Xulosa

Feyk ma’lumotlar bilan kurashish — bu zamonaviy dunyodagi eng muhim vazifalardan biri. Ularni aniqlash va ulardan himoyalanish uchun har bir foydalanuvchi o‘z ustida ishlashi, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini oshirishi va mas’uliyat bilan ma’lumot almashishi kerak. Texnologiyalar rivojlanib borgani sari feyk ma’lumotlar ham murakkablashib boradi, lekin to‘g‘ri usullar va ehtiyotkorlik bilan biz ularning zararini kamaytirishimiz mumkin. Axir, ma’lumot olamida haqiqatni topish — bu har birimizning qo‘limizda.

FEYK MA’LUMOTLARNI ANIQLASH: QANDAY QILIB HAQIQATNI YOLG‘ONDAN AJRATISH KERAK?

TUYCHIYEVA Saodat Meliquziyevna

Toshkent Amaliy fanlar universiteti “Psixologiya” kafedrasi mudirasi,

P.f.n., dotsent

Annotatsiya. *Zamonaviy taraqqiyot davri bizni salbiy axborot-psixologik ta’siridan himoyalash va qarshi kurash mexanizmlarini yaratishni talab etmoqda.*

Maqolada feyk ma’lumotlarni aniqlash bo‘yicha asoslar keltirilgan. Olingan xulosalarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish, axborot-psixologik xavfsizlikning asosiy tarkibiy qismini asosi sifatida hisoblanmoqda.

Harbiy xizmatchini salbiy axborot ta’sirlardan himoyalash vositasi sifatida – feyk ma’lumotlarni faqtida aniqlash muhim vazifalardan biridir.

Tayanch so‘zlar: *kibermakon, feyk, propoganda, axborot-psixologik xavfsizlik, tezis, argument, fakt, dalil-isbot, gipotiza, prognozlashtirish, alternativ nuqtai nazar, fenomen, kognetiv strategiya, tanqidiy yondashish, suggestivlik, semantik-differensial, respondent.*

Ijtimoiy tarmoqlar va internetning keng tarqalishi bilan birga, ma’lumotlar tezlikda tarqalishi va ularning to‘g‘riligini tekshirish qiyinlashdi. Feyk ma’lumotlar

(inglizcha "fake news") – bu maqsadli ravishda yolg‘on yoki noaniq ma’lumotlarni tarqatish orqali ommani chalg‘itish, ijtimoiy taraqqiyotga ta’sir ko‘rsatish yoki manfaatdorlarning maqsadlariga erishish uchun qo‘llaniladi. Bu maqolada feyk ma’lumotlarni aniqlashning asosiy usullari va ulardan qanday qochish mumkinligi haqida to‘lik ma’lumot beramiz.

1. Feyk ma’lumotlarning turlari. Feyk ma’lumotlar turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Ularni asosiy turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- To‘liq yolg‘on ma’lumotlar: Bular hech qanday asosi bo‘lmagan, to‘liq o‘ylab topilgan xabarlar.
- Qisman chalg‘itilgan ma’lumotlar: Haqiqatning bir qismini olib, uni chalg‘itib taqdim etish.
- Kontekstsiz ma’lumotlar: Voqeaning faqat bir tomonini ko‘rsatib, umumlashtirish.
- Manipulyatsiya qilingan rasmlar yoki videolar: Fotosuratlar yoki videolarni tahrirlash orqali chalg‘itish.

2. Feyk ma’lumotlarni aniqlashning asosiy usullari. Feyk ma’lumotlarni aniqlash uchun quyidagi qadamlarni amalga oshirish mumkin:

2.1. Manbani tekshirish. Xabarning manbasini aniqlash birinchi qadamdir. Ma’lumotni tarqatgan manba ishonchlimi, rasmiymi yoki norasmiymi? Manbaning tarixi va reputatsiyasini tekshirish kerak.

2.2. Ma’lumotni boshqa manbalar bilan solishtirish. Bir xabarni faqat bir manbadan ko‘rib, ishonmaslik kerak. Boshqa ishonchli manbalarda ham shu xabar borligini tekshirish muhim.

2.3. Rasmlar va videolarni tekshirish. Rasmlar yoki videolarning to‘g‘riligini tekshirish uchun ularni tekshirish.vizorlar.uz kabi maxsus vositalar yordamida tekshirish mumkin.

2.4. Mazmunni tanqidiy baholash. Xabarning mazmunini tanqidiy nuqtai nazardan baholash kerak. Matnda emotsional til, xatolik yoki noaniq iboralar ko‘pmi?

3. Feyk ma’lumotlarning oqibatlari. Feyk ma’lumotlarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy oqibatlari juda katta bo‘lishi mumkin. Ular:

- Ijtimoiy taraqqiyotni sekinlashtirishi;
- Odamlarning ishonchini yo‘qotishi;
- Siyosiy vaziyatni notartibga solishi;
- Iqtisodiy ziyonlarga olib kelishi.

4. Feyk ma’lumotlardan qanday qochish mumkin?

Feyk ma’lumotlardan qochish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish mumkin:

- Ishonchli manbalardan foydalanish;
- Ma’lumotlarni tanqidiy baholash;

- Ijtimoiy tarmoqlarda ehtiyotkorlik bilan muomala qilish;
- Ma’lumotlarni tekshirish uchun maxsus vositalardan foydalanish.

Xulosa. Feyk ma’lumotlar zamonaviy jamiyat uchun katta xavf tug‘dirmokda. Ularni aniqlash va ulardan qochish uchun har bir inson tanqidiy fikrlash, ma’lumotlarni tekshirish va ishonchli manbalardan foydalanish kerak. Faqat shu yo‘l bilan haqiqatni yolg‘ondan ajratish va ijtimoiy taraqqiyotni saqlab qolish mumkin.

Kanday qilib feyk va dezinformatsiyani aniqlasa bo‘ladi?

Manbani tekshirish: Ma’lumot qaerdan kelganiga e’tibor bering. Agar bu taniqli, ishonchli sayt yoki nashr bo‘lmasa, shubha bilan yondashing. Masalan, rasmiy yangilik saytlari odatda tekshirilgan ma’lumot beradi, lekin noma’lum blog yoki guruhlar ehtiyot talab qiladi.

Faktlarni tekshirish: Ma’lumotda keltirilgan dalillarni boshqa manbalar bilan solishtiring. Agar biror narsa faqat bitta joyda aytilgan bo‘lsa va boshqa yerda tasdig‘i topilmasa, bu feyk bo‘lishi mumkin.

Mantiqqa tayanish: Agar ma’lumot juda g‘alati, oshirib yuborilgan yoki haqiqatdan uzoq tuyulsa, bu dezinformatsiya belgisi bo‘lishi mumkin. Masalan, sensatsion sarlavhalar ("Bir kunda dunyo tugaydi!") ko‘pincha e’tiborni jalb qilish uchun yoziladi.

Rasm va videolarni ko‘zdan kechirish: Feyk xabarlarda ko‘pincha eski yoki boshqa voqealardan olingan suratlar ishlatiladi. Rasmni internetda qidirib, uning qachon va qaerda paydo bo‘lganini tekshirish mumkin.

Emotsiyalarga bosim: Dezinformatsiya ko‘pincha qo‘rquv, g‘azab yoki hayajonni qo‘zg‘ashga urinadi. Agar xabar sizni darhol qattiq reaksiyaga undasa, to‘xtab, avval uning haqiqiyligini tekshiring.

Muallif va maqsad: Kim va nima uchun bu ma’lumotni tarqatmoqda? Agar muallif noma’lum bo‘lsa yoki maqsad faqat sensatsiya yasashga qaratilgan bo‘lsa, ehtiyot bo‘ling.

Qo‘shimcha ma’lumotlar:

- Fact-checking platformalari (masdar.uz, tekshirish.vizorlar.uz);
- Rasmlarni tekshirish uchun vositalar (Google Reverse Image Search);
- Ijtimoiy tarmoqlarda ehtiyotkorlik qoidalari.

ZAMONAVIY KONFLIKTLARDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING TUTGAN O'RNI
(AQSh misolida)

Xolmurodov Doston Nurmurod o'g'li
mustaqil tadqiqotchi
E-mail: xolmurodov.2018@list.ru

Hozirgi kunda dunyodagi aksariyat konfliktlar mintaqaviy xarakter kasb etmoqda. Konfliktlar sub'ektlari o'z maqsadlariga erishish uchun an'anaviy qurollar va vositalardan voz kechib, zamonaviy hamda innovatsion qurollarni qo'llashni afzal ko'rayotganligi e'tiborga molik. Chunki bu texnologiyalar kam harajat va vositalar sarflagan holda dushmanga ko'proq talafot yetkazish imkoniyatiga egaligi bilan ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bunday vositalardan biri sun'iy intellekt hisoblanadi.

Sun'iy intellekt (SI) – bu kompyuterlarga va dasturlarga inson aqliy qobiliyati kabi taqlid qilish imkonini beruvchi texnologiyalar majmuasidir. U ma'lumotlarni tahlil qilish, qarorlar qabul qilish, tilni tarjima qilish va muammolarni hal qilish kabi funksiyalarni bajarishi mumkin.[11]

Sun'iy intellektning turlari uning imkoniyatlari va qobiliyatlariga ko'ra uchta asosiy toifaga bo'linadi:[12]

1. Tor darajadagi sun'iy intellekt (ANI – Artificial Narrow Intelligence). Bu intellekt faqat bitta yoki bir nechta aniq vazifalarni bajara oladi. Masalan: ovozli yordamchilar (Siri, Alisa, Mohira), tavsiya tizimlari (Netflix, YouTube), yuzni aniqlash tizimlari (identifikatsiya va avtorizatsiya). ANI insondan ko'ra aniqroq va samarali ishlashi mumkin, lekin u faqat oldindan belgilangan vazifalarnigina bajara oladi.

2. Umumiy darajadagi sun'iy intellekt (AGI – Artificial General Intelligence) - inson qobiliyatlariga teng darajadagi intellektga ega. Bu turdagi intellekt har xil turdagi vazifalarni bajarishi, turli sohalarda mantiqiy fikrlashi va yangi bilimlarni o'rganishi mumkin.

3. Super sun'iy intellekt (ASI – Artificial Superintelligence) - inson aqliy qobiliyatidan ancha yuqori darajada bo'ladi va murakkab vazifalarni insondan ko'ra samaraliroq bajaradi. Bu turdagi intellekt haqidagi nazariyalar ko'proq fantastik asarlarda uchraydi, lekin uning kelajakda rivojlanishi haqida ilmiy bahslar mavjud.

Globallashuv jarayonlarining oqibati o'laroq paydo bo'lgan, qolaversa, "World Wide Web" (butunjahon o'rgimchak to'ri)dan ham tezroq yer sharini

[11] Сунъий интеллект - https://iep.utm.edu/artificial-intelligence/. Мурожаат этилган сана 03.02.2025 й.
[12] Сунъий интеллект - https://uz.wikipedia.org/wiki/Sun%CA%BCiy_intellekt. Мурожаат этилган сана 10.02.2025 й.

qamrab olayotgan sun’iy intellekt texnologiyalari hozirda mavjud konfliktlar borasida harbiy texnologiyalar bilan ham integratsiyalashishga ulgurganligini aytish mumkin. Aynan shu kabi omillar orqali yuz berayotgan turli qurolli konfliktlar an’anaviy urushlarning zamonaviy ko‘rinishi sifatida tavsiflanmoqda.

Sun’iy intellekt turli sohalar qatorida harbiy sohani ham o‘zgartiruvchi kuchga aylandi. Katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, murakkab chizmalarni tahlil qilish va operativ qarorlar qabul qilishga yordam berishi tufayli SI tizimlari harbiy texnologiyalar rivojida inqilobni yuzaga keltirdi.

“Marketsand Markets” manbasining 2023 yilgi hisobotiga ko‘ra, dunyo miqyosida harbiy sohadagi SIga umumiy harajatlar 2021 yilda 6,5 mlrd dollar bo‘lgan bo‘lsa, 2027 yilga kelib bu ko‘rsatkich 13,1 mlrd dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Bunda yillik o‘sish 12,4% ni tashkil etadi.[13] Qilinadigan harajatlardagi o‘sish asosan, SI tizimlariga asoslangan mustaqil tizimlar va razvedkaviy texnologiyalarga qaratilgan.

Ekspertlar fikricha, AQSh harbiy budjetida SI tizimlariga sarflanadigan harajatlar ulushining ortib borayotganligi, ushbu sohaning jadallik bilan rivojlanishiga olib keldi. Jumladan, bu ko‘rsatkich 2020 yilda 200 mln dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2021 yilga kelib 400 mln dollarga yetdi.[14]

“Defense News” markazi (AQSh) ma’lumotlariga ko‘ra, Pentagon 2023 yilda SI loyihalariga 1,5 mlrd dollar ajratdi, bu 2022 yilga nisbatan 25% ga ko‘p. AQShning umumiy harbiy budjetida SIning ulushi 2% ga to‘g‘ri keladi.[15] Mablag‘lar esa asosan dronlar va kiberxavfsizlik tizimlariga yo‘naltirilgan.

2025 yilga kelib prezident D.Tramp sun’iy intellekt sohasiga 500 mlrd dollar miqdorida investitsiya kiritilishini e’lon qildi. O‘z navbatida bu raqamlarning 10 mlrd dollar miqdordagi ulushi mos ravishda SI texnologiyalariga yo‘naltiriladi. Bu ko‘rsatkichlarni AQShning dunyodagi eng katta harbiy budjetga ega bo‘lgan davlat sifatida, eng katta SI gegemonligiga intilayotganligi bilan izohlash mumkin.[16]

SIdan foydalanish darajasi bo‘yicha 2022 yilda NATO davlatlari orasida o‘tkazilgan so‘rovga ko‘ra, tashkilotga a’zo davlatlarning 60% dan ortig‘i SIni harbiy operatsiyalarda turli vosita va tizimlar orqali qo‘llashni yoqlaydi. Ularning 40% esa SIni faqatgina strategik qaror qabul qilishda ishlatadi. Shu o‘rinda SI

[13] Суний интеллект ва ҳарбий бозор. – https://www.marketsandmarkets.com/report-search-page.asp?rpt=artificial-intelligence-military-market. Мурожаат этилган сана 12.02.2025 й.
[14] World Beyond War manbasi: https://worldbeyondwar.org/uz/wbw-podcast-27--qism
[15] Defense News манбаси. https://www.defensenews.com/artificial-intelligence/2023/03/10/pentagon-budget-aims-to-maximize-ai-implementation/
[16] Трамп АҚШда сунъий интеллектга 500 миллиард доллар инвестисия киритилишини эълон қилди - https://aniq.uz/uz/yangiliklar/tramp-aqshda-suniy-intellektga-500-milliard-dollar-investisiya-kiritilishini-elon-qildi/. Мурожаат этилган сана 03.03.2025 й.

texnologiyalari orqali harbiy harakatlarda operatsion samaradorlikni 15-20% ga oshirish mumkinligi aniqlanganligini aytish mumkin.[17]

Bundan tashqari, Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) ham 2030 yilga qadar harbiy SI sohasida dunyo yetakchisiga aylanishni maqsad qilib, 2025 yildan boshlab ushbu sohada 25 mlrd dollardan ortiq sarmoya kiritishni rejalashtirgan. “South China Morning Post” ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda XXR SIni avtonom qurollar va kiberoperatsiya sohalarida rivojlantirishga qayta e’tibor qaratmoqda.[18]

“Routers” agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yilning 9 sentabr sanasida Seulda bo‘lib o‘tgan “Harbiy sohada sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanish” (REAIM) global sammitida AQSh, Buyuk Britaniya, Ukraina, Janubiy Koreya, Niderlandiya, Singapur, Avstraliya kabi 60 ga yaqin davlat harbiy sohada SI texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilishni ma’qulladi. Janubiy Koreya sammitning natijasi sifatida ushbu texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha o‘zining yo‘l xaritasini ham ishlab chiqdi.[19]

XXR boshchiligidagi 30 ga yaqin davlat esa bu tashabbusni rad etgan va buni ushbu texnologiyalar axloqiy xavfsizlik muammolarini keltirib chiqarishi mumkinligi hamda, inson omilining e’tibordan chetda qolayotganligi bilan izohlagan edi. Shunga qaramasdan Pekin avtonom tarzda bunday texnologiyalarni rivojlantirishga intilmoqda. Misol uchun, joriy yilning yanvar oyida u yaratgan “DeepSeek” startapi “OpenAI”ning “ChatGPT”sidan qolishmaydi va ishlab chiqarish narxi unga nisbatan bir necha barobar arzon. Bunday sun’iy intellekt modelini yaratish orqali Xitoy jahon fond bozorlariga katta ta’sir ko‘rsatmoqda.[20]

Aytish mumkinki, sun’iy intellekt harbiy sohada dronlardan tortib razvedka, logistika va kiberxavfsizlikka qadar keng miqyosda qo‘llanilmoqda. Oqibatda dunyo davlatlari SIga investitsiyalarni jadal kiritmoqda va bu texnologiya kelajakdagi urushlarning asosiy elementi sifatida qaralmoqda.

Sun’iy intellekt texnologiyalari qanchalik samarador va innovatsion bo‘lmasin, undan harbiy maqsadlarda foydalanish bo‘yicha xalqaro kontekstda turli xildagi yondashuvlar mavjud. Jumladan, BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish 2024 yilning 24 sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 79 sessiyasida “Sun’iy intellekt global yondashuvlarsiz paydo bo‘ladigan katta

---

[17] NATO manbasi: https://www.nato.int/docu/review/articles/2021/06/15/artificial-intelligence-in-nato-operations/index.html. Мурожаат этилган сана 05.03.2025 й.

[18] South China Morning Post манбаси: https://www.scmp.com/tech/innovation/article/3201234/chinas-military-ai-ambitions-revealed-plans-2030. Мурожаат этилган сана 01.03.2025 й.

[19] Reuters манбаси https://www.reuters.com/technology/artificial-intelligence/south-korea-summit-announces-blueprint-using-ai-military-2024-09-10/. Мурожаат этилган сана 05.03.2025 й.

[20] ChatGPT рақобатчиси. Хитойнинг DeepSeek сунъий интеллекти ҳақида нималар маълум? - https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/29/deepseek/. Мурожаат этилган сана 28.02.2025 й.

nizolarga olib kelishi mumkin, bu yerda har bir mamlakat oqibatlari jiddiy bo‘lishi mumkin bo‘lgan tomonni tanlashga majbur bo‘ladi”, deydi.[21] Uning qarashlariga ko‘ra, SI texnologiyalarini harbiy sohalarga joriy qilinishi, dunyoda qayta qutb muammosini yuzaga keltirib mamlakatlarni ikki lagerga bo‘lishi mumkin.

2025 yil 23 yanvarida NATOning Davosda (Shveysariya) bo‘lib o‘tgan yalpi sessiyasida tashkilot Bosh kotibi Mark Rutte o‘zining quyidagi fikrlarini bayon qiladi: - “Siz hozir 400 dollarlik Ukraina dronlarini ko‘ryapsizmi, u bir necha mln dollarlik rus tanklarini yakson qilmoqda.

Bu dronlar va SI texnologiyalarining natijalariga ko‘ra, kelgusidagi urushlarda bizning kurashishimiz nuqtai nazari shubhasiz ravishda o‘zgaruvchan bo‘ladi”.[22] Rutte fikricha, G‘arb davlatlari tashkilot harbiy budjetini moliyalashtirishni oshirishi kerak. Aynan tayinlangan 2% miqdordagi YaIM ulushi kamlik qiladi. SI texnologiyalarini harbiy sohada rivojlantirish va jorish qilish bahonasida janob Rutte tashkilot harbiy budjetini yanada oshirishni ko‘zlamoqda.

Aytish joizki, mamlakatimizda ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh. Mirziyoyev raisligida joriy yilning 21 fevral kuni Xavfsizlik kengashining davlat harbiy xavfsizligi va mudofaasini mustahkamlash masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda, sun’iy intellekt asosida ishlaydigan kibertuzilmalar, robotlashgan texnikalarni qo‘llash va havo hujumidan mudofaa bo‘yicha yangi bo‘linmalarni tashkil etish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.[23]

Hozirgi kunda sun’iy intellekt texnologiyalarini harbiy sohalarga joriy qilish bo‘yicha AQSh yetakchilik qilmoqda. Chunki bu soha Qo‘shma Shtatlar mudofaa sektoriga chuqur ta’sir ko‘rsatayotgan hamda milliy xavfsizlikni va operatsion ustunlikni ta’minlashda hal qiluvchi rolni o‘ynayotgan kuch sifatida paydo bo‘ldi. Pentagonning turli yo‘nalishlaridagi operatsiyalari ortidan uning imkoniyatlari sezilarli darajada oshdi.

Mamlakatda murakkab tuzilmali samolyotlarga prognozli texnik xizmat ko‘rsatilishi, avtonom dronlar orqali harbiy operatsiyalarni amalga oshirishi, ilg‘or mexanizmli kibermudofaa tizimlari va boshqa shu kabi sohalarning SI tizimlari bilan integratsiyasi natijasida, harbiy strategiya va taktikalar qayta shakllantirmoqda.

Bundan tashqari, SI tizimlari orqali yuzni skanerlash (face ID) va u orqali tahdidlarni aniqlash kabi tizimlarning samaradorligi ham oshmoqda.

---

[21] Сунъий интеллект дунёни икки лагерга бўлиши мумкин – БМТ Бош котиби - https://www.qalampir.uz/uz/news/sun-iy-intellekt-duneni-ikki-lagerga-bulishi-mumkin-bmt-bosh-kotibi-107413. Мурожаат этилган сана 27.02.2025 й.

[22] Давосда (Швейцария) Жаҳон иқтисодий форумининг йиллик йиғилишида "Дунёда технология" - https://www.nato.int/cps/en/natohq/opinions_232547.htm?selectedLocale=en. Мурожаат этилган сана 28.02.2025 й.

[23] Хавфсизлик ва мудофаани мустаҳкамлаш масалалари муҳокама қилинди - https://president.uz/uz/lists/view/7896. Мурожаат этилган сана 28.02.2025 й.

Logistika va navigatsiya boshqaruvi, o‘quv simulyatsiyalar va jangovar yordam kabi tarmoqlarga ham SI tizimlari keng joriy qilindi.

Sun’iy intellektning roli xalqaro missiyalar davomida ham samarali ekanligi sezilmoqda. Jumladan, uning muloqot qilish uchun til tarjimoni sifatida qo‘llanilishi xalqaro missiyalar davomida harbiy tarjimonlar va tillarga bo‘lgan talabni sezilarli darajada kamaytirdi. Shuningdek, askarlarning sog‘ligini saqlash muammolarini hal etish, kasalliklar avj olishidan oldin uni prognozlash orqali salomatlikni saqlash va harbiy tibbiy tayyorgarlik darajasini oshirishda ijobiy natijalarni ko‘rsatmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalarini harbiy sektorga integratsiyalashtirishga yo‘naltirilgan harajatlarning samarasi sifatida, AQSh bir nechta harbiylashgan SI tizimlarini yaratdi va ularni amaliyotga joriy qilmoqda. Quyida qo‘shma shtatlar qo‘shinlarida mavjud bo‘lgan SI tizimlarining eng samarador yettiligini ko‘rib chiqamiz:[24]

1. Texnik xizmat ko‘rsatish yo‘nalishida.

Sun’iy intellekt tomonidan boshqariladigan ushbu texnologiya, AQSh armiyasining muhim vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish davomida inson omilidan ko‘ra samaraliroq ekanligini isbotladi. Ushbu texnologiya harbiy aktivlarga o‘rnatilgan ko‘plab sensorlarda to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qiladi. Bu sensorlar doimiy ravishda uskunaning holatini kuzatib boradi so‘ngra, harorat o‘zgarishi natijasidagi tebranishlarni, akustik signallarni va boshqa ko‘plab ma’lumotlarni qabul qiladi. Keyinchalik SI algoritmlari ushbu ma’lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlaydi. Natijada, potensial nosozliklar yoki haqiqiy muammolar paydo bo‘lishidan oldin texnik xizmat ko‘rsatish zarurligi haqida xabar beradi.

Masalan, AQSh Harbiy-havo kuchlariga qarashli “F-35 Lightning II” qiruvchi samolyotlarining “Condition-Based Maintenance Plus (CBM+)” dasturida sun’iy intellektdan foydalanadi. Bu dastur bort sensorlaridan to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilib, tizimdagi nosozliklarni ular yuzaga kelishidan oldin prognoz qiladi. Natijada, rejadan tashqari texnik xizmat ko‘rsatish kamayadi va favqulodda ta’mirlash bilan bog‘liq harajatlarni sezilarli darajada pasayadi. Bu esa o‘z navbatida, muhim aktivlarning kerak bo‘lganda missiyalarga doimo tayyor bo‘lishini ta’minlaydi.

2. Uchuvchisiz uchish apparatlarini ishlatish yo‘nalishida.

AQSh armiyasidagi avtonom uchuvchisiz uchish qurilmalari zamonaviy urushlarning SI bilan integratsiyalashuviga yaqqol misol bo‘la oladi. Chunki ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri inson nazoratisiz razvedka vazifalaridan boshlab maqsadli zarbalargacha bo‘lgan missiyalarni ham bajara oladi.

[24] Мудофаа секторида СИ қўлланилишига мисоллар - https://digitaldefynd.com/IQ/ai-use-in-defense-sector/. Мурожаат этилган сана 24.02.2025 й.

Bu dronlar ilg‘or sensorlar va sun’iy intellekt algoritmlari bilan jihozlangan bo‘lib, ular murakkab sharoitlarda harakatlanish, ob’ektlarni aniqlash va to‘plangan ma’lumotlar asosida qaror qabul qilish imkonini beradi. Jumladan, harbiy havo kuchlarining “Skyborg” loyihasi dasturlar orqali boshqariladigan va samolyotlar bilan birga ucha oladigan, shuningdek, uchuvchilarni qo‘llab-quvvatlashga imkon beradigan avtonom dronlarni rivojlantirishga qaratilgan. SI tomonidan taqdim etilgan avtonomiya nafaqat operatsion samaradorlikni oshiradi, balki jangovar harakatlarda inson hayoti uchun xavflarni kamaytiradi.

Masalan, AQSh armiyasining “Maven” loyihasi sun’iy intellektdan dronlar yordamida olingan videolarni tahlil qilish, avtomatik ravishda dushman ob’ektlarini aniqlash va tasniflash uchun foydalanadi. Ushbu loyiha SI tomonidan boshqariluvchi va jang maydonlarida avtonom ishlay oladigan dronlardan foydalanishga qaratilgan.

Bu operatorlarga kognitiv yukni kamaytiradi va ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish orqali, vaziyatdan xabardor qilish tezligini oshiradi. Natijada quruqlikdagi qo‘shinlar uchun missiyaning samaradorligi va xavfsizligi yaxshilanadi.

3. Kibermudofaa sohasida.

Kibermudofaa sohasidagi SI tizimlari AQSh armiyasi uchun jang maydonidagi o‘yinni o‘zgartiruvchi vosita bo‘lib, milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi kiberhujumlardan himoyalanishda muhim ustunlikni ta’minlaydi.

Sun’iy intellekt tizimlari tarmoq trafigini va kibertahdidlarni ko‘rish mumkin bo‘lgan noodatiy o‘zgarishlarni kuzatib boradi. Bu tahdidlarni real vaqt rejimida tahlil qiladi va inson aralashuvisiz mudofaa protokollarini boshlaydi. SIning o‘tmishdagi hujumlardan saboq olish qobiliyati vaqt o‘tishi bilan uning samaradorligini oshirib boradi va uni kiberarsenalda bebaho vositaga aylantiradi. Ushbu faol mudofaa mexanizmi nozik harbiy ma’lumotlarni himoya qilish va muhim mudofaa infratuzilmasining yaxlitligini saqlashda juda muhim. Jumladan, Pentagonning sun’iy intellektga asoslangan loyihasi, ya’ni, Qo‘shma sun’iy intellekt markazi (JAIC) kiberxavfsizlikni ta’minlash uchun sun’iy intellekt texnologiyasidan foydalanishga, potensial kibertahdidlarni ko‘rsatadigan tarmoq xatti-harakatlaridagi anomaliyalarni aniqlashga va ularga javob berish uchun sun’iy intellektdan foydalanishga qaratilgan.

Kiberxavfsizlikka bunday proaktiv yondashuv AQSh armiyasiga tahdidlarni zarar yetkazishidan oldinroq aniqlash va ularni tezda zararsizlantirish, shuningdek, milliy xavfsizlik uchun muhim axborot va aloqa tizimlarini himoya qilish imkonini beradi.

4. Logistika va ta’minot yo‘nalishida. Logistika va ta’minot zanjirlarini boshqarishda sun’iy intellekt harbiy harakatlar samaradorligi va tezkorligini keskin oshiradi. O‘tmishdagi va joriy logistika operatsiyalaridagi ma’lumotlarini tahlil qilish orqali SI kelajakdagi ta’minot ehtiyojlarini prognoz qiladi va inventarizatsiyani boshqarishni optimallashtiradi. Ushbu prognoz qilish qobiliyati, qo‘shinlarning zaruriy vosita va narsalarga muhtojligini anglashidan oldinroq ularga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Bu orqali ular har doim jangovar harakatlar va operatsiyalarga tayyor turadi. Masalan, SI algoritmlari potensial xavflardan qochib, tranzit vaqtini qisqartirish uchun eng samarali ta’minot yo‘llarini taklif qilishi mumkin. Bu nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki harbiy logistika bilan bog‘liq xavf va harajatlarni ham kamaytiradi.

Misol uchun, AQSh Harbiy-dengiz kuchlarining “Logistics AI Integration” (LAI) dasturi dengiz kemalari uchun ehtiyot qismlar inventarini optimallashtirish, komponentlar qachon almashtirilishi kerakligini prognoz qilish va global tarmoq bo‘ylab ta’minotni boshqarish uchun sun’iy intellektdan foydalanadi.

Bu esa dengizda uskunalardagi nosozliklarni kamaytirish va ta’mirlash uchun sarflanadigan vaqtni qisqartirish orqali yuqori operatsion tayyorgarlikni ta’minlaydi. Shu bilan birga missiyalar davomida flotning harakatchanligi va samaradorligini oshiradi.

5. Maxsus-taktik tayyorgarlik yo‘nalishida. SI orqali takomillashtirilgan mashg‘ulotlar va simulyatsiyalar askarlarga turli jangovar vaziyatlarga tayyorgarlik ko‘rishga yordam beradigan real ssenariylarni taqdim etadi. Ushbu sun’iy intellekt tizimlari har bir askarning individual ravishda o‘zlashtirish tezligi va uslubiyatiga moslashadi, o‘quv natijalarini yaxshilash uchun shaxsiy tayyorgarligini ta’minlaydi. U simulyatsiya qilingan muhitlar turli xildagi va murakkab jang ssenariylarini qayta yaratishi mumkin. Bu esa qo‘shinlarga turli strategiya va natijalarni boshdan kechirish va ularga munosabat bildirish imkonini beradi. Bunday o‘quv mashg‘ulotlari askarlarni haqiqiy jangovar harakatlarga tayyorlash, qaror qabul qilish ko‘nikmalarini oshirish va haqiqiy harbiy amaliyotlar davomidagi talafotlarni kamaytirishda yordam beradi.

Masalan, AQSh armiyasining “Sintetik o‘quv muhiti” dasturi (STE) tashabbusi bilan real sharoitlarni tayyorlaydigan va har bir askarlarning mashg‘ulot ehtiyojlariga moslashuvchi immersiv va to‘liq interaktiv o‘quv muhitlarini SI orqali birlashtiradi. Natijada, ushbu moslashtirilgan o‘quv yondashuvlari askarlarning taktik ko‘nikmalarini va bosim ostida qaror qabul qilish qobiliyatini yaxshilaydi. Bu jangovar ssenariylarda yuqori samaradorlikka olib keladi va operatsiyalar paytida qurbonlar sonini kamaytiradi.

7. Jangovar va taktik yordamlar ko‘rsatish yo‘nalishida.

8. Bu yo‘nalishning o‘zida sun’iy intellektning bir necha xil imkoniyatlaridan foydalanilmoqda:

1) sun’iy intellekt jang maydonida jangovar va taktik yordamlar berish orqali qarorlar qabul qilishda askarlarga yordam berishi mumkin. Chunki sun’iy intellekt tizimlari real vaqt rejimida turli manbalardan olingan ma’lumotlarni qayta ishlashi va tahlil qilishi natijasida, missiyaning muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan amaliy razvedka imkoniyatlarini taqdim etadi. Masalan, qo‘shma shtatlarda SI algoritmlari “Aegis Combat System” kabi mudofaa tizimlarini boshqarish uchun ishlatiladi. Ular avtonom tarzda dushman tahdidlarini aniqlashi, kuzatishi va ularga qarshi choralar taklif etishi mumkin. Bu esa operatorlarning imkoniyatlarini oshiradi, rivojlanayotgan tahdidlarga qarshi tezkor qarorlar qabul qilishga imkon beradi.

Misol uchun, AQSh harbiy-dengiz kuchlarining “Aegis Combat System” jangovar tizimiga integratsiyalangan sun’iy intellekt bir vaqtning o‘zida 100 dan ortiq nishonlarni kuzatib boradi va bortdagi qurollar bilan qanday tahdidlarga duch kelishi haqida real vaqtda qaror qabul qiladi.

Bu qobiliyat kemalarni havo tahdidlaridan, jumladan, samolyotlar va raketalardan himoya qilishni sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu bilan birga, dengiz kemalari va ularning ekipajlarini himoya qiladi va vaziyatdan xabardor bo‘lish va javob berish qobiliyatini saqlaydi.

2) SIdan til tarjimoni va samarali muloqot vositasi sifatida foydalanilmoqda. Turli tillarda so‘zlashuvchi qo‘shinlar o‘rtasidagi hamkorlik zarur bo‘lgan ko‘p millatli operatsiyalarda til tarjimasi va muloqot olib borish muhim ahamiyatga ega. Real vaqt rejimida sun’iy intellekt tarjimonlari AQSh askarlariga ittifoqchi kuchlar va mahalliy aholi bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi. Bu orqali harbiy harakatlarga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan til to‘siqlarini yo‘q qiladi, notanish hududlardagi aholi vakillari bilan so‘zlashish imkoniyatini yaratadi. Bu vositalar nafaqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotda, balki hujjatlarni tarjima qilishda ham juda foydali bo‘lib, tillardagi farqlar tufayli muhim ma’lumotlar yo‘qolmasligini ta’minlaydi.

Masalan, AQSh Maxsus Operatsiyalar Qo‘mondonligi (USSOCOM) xorijdagi amaliyotlar davomida real vaqt rejimida 80 dan ortiq tilni tarjima qila oladigan sun’iy intellektga asoslangan tarjima qurilmalaridan foydalanadi. Bu esa AQSh kuchlari, mahalliy ittifoqchilar va tinch aholi o‘rtasida uzluksiz aloqani ta’minlashga yordam beradi.

Ushbu texnologiya tushunmovchiliklarni kamaytiradi hamda, mahalliy kuchlar va jamoalar bilan hamkorlikni yaxshilaydi. Bu esa o‘z navbatida, tinchlikparvar missiyalar va xalqaro harbiy hamkorliklarning muvaffaqiyati uchun zarur omil hisoblanadi.

3) SI texnologiyalari harbiy tibbiyot sohasidagi muammolarini prognoz qilish orqali va bemorlarni parvarish qilishni optimallashtirish borasida tibbiyot muassasalarining imkoniyatlarini oshiradi. Uning algoritmlari qo‘shinlar orasida epidemiya yoki stress bilan bog‘liq kasalliklarning tarqalishini bashorat qilish uchun har bir askarning tibbiy tarixiga oid ma’lumotlarni tahlil qiladi. Jang maydonlarida esa real vaqt rejimida diagnostika qilish va davolash uchun shifokorlarga yordam berishi mumkin. Bu orqali jarohatlangan jangchilarning omon qolish darajasi oshadi. Sun’iy intellektning bu tariqa qo‘llanilishi, qo‘shinlarning sog‘lom holda o‘z jangovar qobiliyatini doimiy saqlab turishini ta’minlaydi, qo‘shinlarning qayta tiklanish vaqtini minimallashtiradi va bu orqali operatsion samaradorlikni oshiradi.

Misol uchun, AQSh Mudofaa Sog‘liqni saqlash agentligi (DHA) harbiy xizmatchilarning sog‘lig‘idagi o‘zgarishlarning tendensiyalarini kuzatish va tahlil qilish, kasalliklarning tarqalishini prognoz qilish yoki stress bilan bog‘liq jarohatlar keng tarqalgan hududlarni aniqlash uchun ham SI tizimlaridan foydalanadi.

Bu prognozlar esa askarlar faoliyatiga ortiqcha aralashuvlarni tibbiy qo‘riklar uchun sarflanadigan vaqtni qisqartiradi. Resurslarni to‘g‘ri taqsimlash va ixtisoslashgan tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishga imkon beradi. Bu esa qo‘shinlarning jangovar shay holda missiyalarga doimo tayyor turishini ta’minlaydi.

Sun’iy intellekt texnalogiyalari AQSh mudofaa sektorini tubdan o‘zgartiradi, uning imkoniyatlarini oshiradi, murakkab harbiy operatsiyalarni soddalashtiradi va harbiy kontekstda texnologik integratsiya uchun yangi standartlarni belgilaydi. Bu kabi texnologiyalarni joriy qilish va ularning samaradorligini oshirish ulkan salohiyatini talab etadi. Ayniqsa mudofaa sektorida sun’iy intellekt bo‘yicha tadqiqotlar
va ishlanmalarga doimiy ravishda sarmoya kiritish, boshqa appanentlarga nisbatan texnologik ustunlikni saqlab turish va paydo bo‘lgan muammolarni joyida hal qilish lozim. AQSh uchun sun’iy intellektning strategik jihatdan tatbiq etilishi, uning milliy xavfsizligini yanada mustahkamlaydi va armiyasining tobora murakkablashib borayotgan global landshaftda moslashuvchan va jangovar shay holda bo‘lishini ta’minlaydi.

7. Xavfsizlik rejimini ta’minlash yo‘nalishida. (Tahdidlarni aniqlash, vaziyatdan xabardorlik darajasini oshirish va integratsiyalashgan Face ID tizimlari.)

Tahdidni aniqlash va vaziyatdan xabardorlik darajasini oshirishda SI ilovalari potentsial tahdidlarning har tomonlama ko‘rinishini ta’minlash uchun sun’iy yo‘ldoshlar, sensorlar va razvedka hisobotlari ma’lumotlarini umulashtiradi. Misol uchun, “THAAD” kabi raketaga qarshi mudofaa tizimlari SI yordamida

kiruvchi raketalar va parvozlar (fuqarolik va harbiy) o‘rtasidagi farqni topadi. Optimal tutib olish traektoriyasini hisoblaydi va mudofaa manevrlarini bajaradi. Ushbu tezkor ishlov berish qobiliyati insonning reaksiyasiga nisbatan tez harakatlanuvchi tahdidlarga qarshi samarali hisoblanad.

Bundan tashqari, “Terminal High Altitude Area Defence” (THAAD) tizimi traektoriya tahlili va tahdidni baholash asosida ballistik raketalarni kuzatish, ularni farqlash va tutib olish uchun ham sun’iy intellektdan foydalanadi. Bu kabi yuqori aniqlikdagi tutib olish qobiliyati orqali AQSh o‘zining raketa tahdidlariga qarshi mudofaasini anchagina yaxshilaydi. Milliy xavfsizligini va ittifoqdosh davlatlarining hududlarni himoya qilishga sezilarli darajada o‘z hissasini qo‘shadi.

Yuzni tanib olish va kuzatish texnalogiyasi AQSh armiyasida xavfsizlik choralarini kuchaytirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, odamlarning shaxsini aniqlash juda muhim bo‘lgan yuqori darajadagi xavfsizlik muhitlari uchun bu juda foydalidir. Bundan tashqari, kengaytirilgan kuzatuv missiyalarida sun’iy intellekt turli muhitlarda ixtiyoriy shaxslarni aniqlash uchun katta hajmdagi video ma’lumotlarni qayta ishlay oladi. Bu orqali razvedka agentliklariga an’anaviy ravishdagi qo‘l mehnatisiz muhim ma’lumotlarni to‘plashda yordam beradi. Masalan, sun’iy intellektga asoslangan yuzni aniqlash tizimlari harbiy bazalarga va yuqori xavfsizlik zonalarida kirishni kuzatish va nazorat qilish uchun qo‘llaniladi. Bu tizimlar kuzatuv kameralari bilan integratsiyalangan bo‘lib, shaxslarni yuz xususiyatlariga qarab skanerlash va aniqlash imkonini beradi.

Natijada, kengaytirilgan xavfsizlik protokollari josuslik va ruxsatsiz kirish xavfini kamaytiradigan nozik joylarga faqat vakolatli xodimlar kirishini ta’minlaydi. Ushbu texnologiya, shuningdek, shubhali harakatlar uchun jamoat joylarini kuzatishda ham yordam beradi va bazalarning umumiy xavfsizligini ta’minlaydi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari zamonaviy konfliktlar tizimida harbiy sohaning muhim va o‘zgaruvchan elementlaridan biriga aylandi. AQSh qo‘shinlari misolida ko‘rib chiqilgan ushbu texnologiyalarning ahamiyati va imkoniyatlari global xavfsizlik va mudofaa strategiyalarida yangi davrni boshlab berganligini ko‘rsatmoqda.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalar asosida quyidagi xulosalarni aytish mumkin:

birinchidan, sun’iy intellekt AQShning harbiy sohadagi strategik ustunlikni ta’minlamoqda. Mazkur texnologiyalar Oq uy harbiy sektoridagi strategiya va operatsiyalarni tubdan o‘zgartirmoqda. Sun’iy intellekt real vaqt rejimida ma’lumotlarni qayta ishlash, texnik xizmat ko‘rsatish, logistikani optimallashtirish va harbiy qarorlarni qabul qilish jarayonlarini anchagina samarali qilmoqda;

ikkinchidan, Vashingtonning va boshqa shu kabi aktorlarning mudofaa budjeti va investitsiyalar hajmi SI sababli yildan – yilga ortib bormoqda. Jumladan, AQSh harbiy budjeti doirasida Pentagon tomonidan SI texnologiyalariga 2023 yilda 1,5 mlrd dollar mablag‘ yo‘naltirilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib bu miqdor 10 mlrd dollarga yetdi. Shu bilan birga Xitoy ham 2030 yilga qadar harbiy sohadagi sun’iy intellekt bo‘yicha dunyo yetakchisi bo‘lishni maqsad qilmoqda. Bu esa harbiy texnologiyalar bo‘yicha global raqobatni yanada kuchayishiga olib keladi;

uchinchidan, xalqaro hamjamiyatda SI texnologiyalaridan harbiy maqsadlarda foydalanish bo‘yicha turli xil qarashlar yuzaga kelmoqda. NATO davlatlarining 60% dan ortig‘i SI texnologiyalarini harbiy operatsiyalarda qo‘llash tarafdori bo‘lsa, 40% davlatlar uni faqat strategik qarorlar qabul qilish uchun ishlatish kerak, deb hisoblaydi. Bunga qarshi Xitoy singari davlatlar ushbu texnologiyalar inson omilining kamayishiga va yangi axloqiy hamda xavfsizlik muammolariga sabab bo‘lishi mumkinligini ta’kidlab, harbiy sohada SI texnologiyalarini global tarzda rivojlanishini xoxlamayapti;

to‘rtinchidan, sun’iy intellekt kelajakdagi harbiy to‘qnashuvlarning tarkibiy elementlaridan biri bo‘lib qoladi. Oqibatda bunday texnologiyalar global xavfsizlik muammolarini yanada ortishiga sabab bo‘ladi. Bu jihatdan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar harbiy SIdan mas’uliyatli foydalanish bo‘yicha xalqaro kelishuvlarga doir qarorlarni ishlab chiqishi maqsadga muvofiq.

TELEGRAMDA DINIY-EKSTREMISTIK KONTENTNI TARQALISHIGA QARSHI KURASHISHDA SAUDIYA ARABISTONI TAJRIBASI

Kabiljanov B.R., Gayratov J. U.
STIBOM tadqiqotchisi

Telegram singari shifrlangan xabar almashish platformalari oxirgi yillarda diniy ekstremistik targ‘ibot tarqalishi uchun qulay maydonga aylangan. Xususan, IShID va al-Qoida kabi terrorchi guruhlar Telegram kanal va guruhlarida targ‘ibot materiallarini yoyib, tarafdorlarni jalb qilishga urinib kelishgan[25]. Bu holat davlatlar va xalqaro tashkilotlarni ushbu platformada ekstremistik kontent tarqalishining oldini olish choralarini kuchaytirishga undadi. Quyida Saudiya Arabistoni va “Etidal” markazining Telegram’dagi diniy ekstremizmga qarshi kurash bo‘yicha tajribalari ko‘rib chiqiladi.

[25] Counter Extremism Project (2017). *Terrorists On Telegram*. [online] Counter Extremism Project. Available at: https://www.counterextremism.com/terrorists-on-telegram.
Yana qarang: Europol. (2019). *Europol and Telegram take on terrorist propaganda online*. [online] Available at: https://www.europol.europa.eu/media-press/newsroom/news/europol-and-telegram-take-terrorist-propaganda-online.

Qonunchilik va strategiya. Saudiya Arabistoni terrorizm va ekstremizm targ‘ibotiga qarshi qat’iy qonunchilik choralarini joriy etgan. 2017-yilda qabul qilingan terrorizm qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun ekstremistik faoliyat tushunchasini keng ta’riflab, hatto qirol yoki valiahdga nisbatan tanqidiy chiqishni ham terrorizm sifatida jazoga tortishi mumkin[26]. Hukumat diniy ekstremistik g‘oyalarning onlayn tarqalishini “jamoat xavfsizligiga tahdid” deb baholab, bunday kontentni ishlab chiqarish va ulashishni og‘ir jinoyat sifatida ta’qib qiladi. Rasmiylar internetni nazorat qilish va zararli materiallarni bloklash orqali ekstremistik targ‘ibotni cheklashga harakat qilmoqda[27].

Maxsus texnologiyalar va monitoring. Saudiya Arabistoni ekstremizmga qarshi kurashda ilg‘or texnologiyalardan foydalanmoqda. Xususan, 2017-yilda Ar-Riyodda tashkil etilgan **Global Ekstremistik G‘oyalarga Qarshi Kurash Markazi** – **Etidal** (arabcha “mo‘tadillik” ma’nosida) hukumat strategiyasining muhim qismi sifatida faoliyat olib bormoqda[28]. Etidal markazi sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar tahliliga tayangan holda ijtimoiy tarmoqlardagi ekstremistik kontentni kuzatib boradi, terrorchi guruhlarning aldamchi targ‘ibot uslublarini aniqlashga yordam beruvchi ilg‘or dasturiy vositalarni qo‘llaydi[29]. Bu markaz yordamida Saudiya hukumati Telegram’dagi ochiq kanallar va chatlarda tarqatilayotgan zo‘ravonlikka da’vat va ekstremistik materiallarni avtomatik filtrlash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Hukumat va xususiy sektor hamkorligi. Saudiya Arabistoni hukumatining Telegram kompaniyasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamkorligi ayniqsa diqqatga sazovordir. 2021-yilda Etidal markazi va Telegram o‘rtasida ekstremistik targ‘ibotga qarshi hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, qo‘shma nazorat guruhi tuzildi. Ushbu hamkorlik doirasida Saudiya mutaxassislari Telegram ma’muriyatiga IShID, “al-Qoida” va ularning tarafdorlariga oid kanal va postlarni aniqlashda ko‘maklashmoqda. Telegram administratsiyasi Etidal ko‘rsatmalariga binoan bunday zararli kontentni o‘z platformasidan o‘chirib tashlamoqda. Masalan, 2022-yildan beri Etidal va Telegram hamkorlikda har chorakda minglab ekstremistik kanallarni yopib, millionlab postlarni o‘chirib kelmoqda[30]. Bu hukumat-xususiy sektor sherikchiligi xalqaro miqyosda ham e’tirof etilmoqda – masalan, BMT

---

[26] Avenue, H.R.W. | 350 F., York, 34th F. | N. and t 1.212.290.4700, N. 10118-3299 U. | (2017). *Saudi Arabia: New Counterterrorism Law Enables Abuse*. [online] Human Rights Watch. Available at: https://www.hrw.org/news/2017/11/23/saudi-arabia-new-counterterrorism-law-enables-abuse.

[27] Usembassy.gov. (2025). *Technical Difficulties*. [online] Available at: https://mr.usembassy.gov/wp-content/uploads/sites/204/1.-Country-Reports-on-Terrorism-2017-FINAL.pdf.

[28] News, A. (2025). *Anti-extremism group Etidal helps Telegram remove 160m items of extremist content in 3 years*. [online] Arab News. Available at: https://www.arabnews.com/node/2585471/saudi-arabia [Accessed 5 Mar. 2025].

[29] o’sha joyda.

[30] Suhasini Srinivasaragavan (2024). *Telegram uses AI to block millions of illegal channels*. [online] Silicon Republic. Available at: https://www.siliconrepublic.com/business/telegram-content-moderation-ai-csam-terrorist [Accessed 5 Mar. 2025].

Terrorizmga qarshi markazi bilan ham Etidal o‘zaro anglashuv memorandumi imzolagan (2021-yil) .

Samaradorlik va natijalar. Saudiya Arabistonining Telegram orqali ekstremizmga qarshi choralari sezilarli natija bermoqda. Etidal va Telegram hamkorligi boshlanganidan buyon (2021-yildan 2024-yil oxirigacha) platformadan **160 milliondan ortiq ekstremistik mazmundagi material** o‘chirildi. Faqat 2024-yilning oxirgi choragida o‘zinigina 31 milliondan ziyod post va media fayllar o‘chirib tashlangan. Shu davr ichida jihodchi terror guruhlariga aloqador **14,500 dan ortiq kanallar** ham yopildi[31]. Rasmiylarning ta’kidlashicha, bu chora-tadbirlar Telegramdagi ekstremistik targ‘ibot va yollov kampaniyalarining ko‘lamini jiddiy qisqartirdi. Platforma ma’muriyati Etidal bilan hamkorlikni “zararli kontentni aniqlab, o‘chirishda juda samarali” deb baholab, 2022-yildan buyon ekstremizmga qarshi choralarni kuchaytirganini ma’lum qilgan. Natijada, ilgari bemalol faoliyat yuritgan IShID targ‘ibotchilari endilikda Telegramda muntazam ravishda bloklanib, ularning auditoriyasiga yetib borishi qiyinlashgan.

Muammolar va bahsli jihatlar. Saudiya Arabistonining bunday keskin choralari ba’zi huquq himoyachali orasida munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Huquq faollari ekstremizmga qarshi qonunlarning noaniq va haddan tashqari keng talqin qilinishi siyosiy yoki e’tiqodiy muxolifatni ham “ekstremizm” deya tamg‘alashga olib kelishi mumkinligini ta’kidlab kelishadi.

Telegram’dagi nazoratga doir yana bir muammo – platformaning shifrlangan xususiy chatlari hisoblanadi. Saudiya rasmiylari ochiq kanallarni kuzata olsalar-da, maxfiy chatlardagi faoliyat nazoratdan chetda qolishi mumkin. Shuningdek, ekstremistlar bloklangan kanallar o‘rniga yangi nomlar bilan yangilarini ochib, filtrlarni chetlab o‘tishga harakat qilayotgani kuzatiladi. Shu bois doimiy “mushuk-sichqon o‘yini” kechmoqda – hukumat texnologiyalari takomillashgan sayin, diniy ekstremistik kontent targ‘ibotchilari ham yashirin strategiyalarni o‘ylab topishmoqda.

Etidal – Global Ekstremistik Mafkuralarga Qarshi kurash markazi – 2017-yilda Saudiya Arabistoni tashabbusi bilan ochilgan xalqaro markazdir. Uning asosiy missiyasi butun dunyoda ekstremistik mafkuralarning tarqalishini monitoring qilish, tahlil etish va ularga qarshi choralar ishlab chiqishdan iborat. Etidal o‘z faoliyatida “yumshoq kuch” usullariga tayangan: terroristik targ‘ibotni fosh etuvchi tadqiqotlar, ommaviy axborot vositalari orqali qarshi targ‘ibot (kontr-narrativ) kampaniyalarini amalga oshiradi. Markaz din niqobidagi zo‘ravon g‘oyalarga qarshi **mo‘tadil qarashlarni targ‘ib qilish** hamda ekstremistik tashviqotni erta bosqichda aniqlab, jilovlash strategiyasini tanlagan.

[31] O’sha joyda.

Etidal markazi o‘zida zamonaviy kuzatuv va sun’iy intellekt tizimlarini jamlagan. Ar-Riyoddagi bosh qarorgohida dunyoning turli tillarida ijtimoiy media va messenjerlardagi kontentni real vaqt rejimida kuzatishga imkon beruvchi ekranlar va algoritmlar ishlaydi.

Markazning ta’kidlashicha, ular terrorchi tuzilmalar qo‘llayotgan yangi **taktika va “shifrlangan” iboralarni** ham aniqlashga moslashgan maxsus dasturlar yaratgan. Masalan, Etidal **Telegram’dagi** ekstremistik kanallar va guruhlardagi yozishmalarni sun’iy intellekt yordamida tahlil qilib, IShID targ‘ibotining yashirin ko‘rinishlarini ham payqay oladi. Topilgan xavfli kontent namunalarining elektron bazasi tuzilib, doimiy ravishda yangilanadi – bu bazadagi ma’lumotlar terrorizmga qarshi boshqa tuzilmalar bilan ham ulashiladi. Natijada, yangi paydo bo‘lgan ekstremistik kanal yoki botlarni ularning **“raqamli izlari”** orqali tez aniqlash imkoniyati oshadi.

Etidal’ning eng muvaffaqiyatli loyihalaridan biri Telegram platformasi bilan qo‘shma nazorat tizimini yo‘lga qo‘yganidir. 2021-yildan boshlab Etidal va Telegram vakillari birgalikda maxsus monitoring guruhini shakllantirib, Telegram ichida terrorchilik targ‘ibotiga qarshi kurashni tizimli asosda olib borishmoqda. Bu hamkorlik dastlab IShID va “al-Qoida”ga oid kanallar faoliyatini nishonga oldi. Misol uchun, 2018-yildan keyin boshlangan keng qamrovli “tozalash” harakatlari davomida Telegram va Yevropol yordamida IShIDning minglab kanallari o‘chirildi[32]. Etidal ushbu jarayonda ekspert va tahliliy ko‘mak berib, ekstremistlarning yangi akkaunt ochish urinishlarini ham nazardan qochirmaydi. 2022-yil fevralidan 2024-yil kuzigacha Etidal–Telegram qo‘shma tashabbusi natijasida platformadan **129 milliondan ortiq ekstremistik postlar** o‘chirilib, **14,500 dan ziyod kanal** yopilgan edi. Telegram hatto o‘z platformasida “ISIS Watch” nomli rasmiy kanal ochib, har kuni nechta terrorchilik bilan bog‘liq akkaunt va postlar bloklangani haqida ochiq ma’lumot bera boshladi[33]. Bu kabi shaffoflik hamkorlikning yangi bosqichga ko‘tarilganini ko‘rsatadi.

Etidal va Telegram hamkorligi xalqaro terrorchi targ‘ibotchilar tarmog‘iga sezilarli zarba berdi. 2019-yil noyabr oyida Yevropol ko‘magida o‘tkazilgan ikki kunlik maxsus “tozalash amaliyoti” chog‘ida Telegram rekord darajada – bir oy ichida **43 mingdan ortiq terrorchilikka aloqador kanal va botlarni** o‘chirib tashladi[34]. Mutaxassislar fikricha, bu “biryo‘la zarba” IShID tarafdorlarini

[32] Counter Extremism Project (2017). *Terrorists On Telegram*. [online] Counter Extremism Project. Available at: https://www.counterextremism.com/terrorists-on-telegram.

[33] Meili Criezis (2020). *Telegram’s anti-IS Campaign: Effectiveness, Perspectives, and Policy Suggestions - GNET*. [online] GNET. Available at: https://gnet-research.org/2020/07/30/telegrams-anti-is-campaign-effectiveness-perspectives-and-policy-suggestions/ [Accessed 5 Mar. 2025].

[34] Seldin, J. (2019). *IS Struggles to Regain Social Media Footing After Europe Crackdown*. [online] Voice of America. Available at: https://www.voanews.com/a/europe_struggles-regain-social-media-footing-after-europe-crackdown/6180532.html [Accessed 5 Mar. 2025].

sarosimaga solib, ularning Telegramdagi yirik tarmog‘i barbod bo‘ldi. Yevropol hisobotida qayd etilishicha, “21–22 noyabr (2019) kunlari amalga oshirilgan keng qamrovli o‘chirish natijasida Telegram’dagi IShIDga aloqador akkauntlar deyarli butkul yo‘q qilindi; rasmiy va tarafdor kanallar tarmoqlarini qayta tiklashga urinishlar **muvaffaqiyatsiz** yakunlandi”.

Darhaqiqat, mazkur operatsiyadan so‘ng bir necha oy davomida IShID tashviqotchilari “Telegramni yo‘qotdik” deya e’tirof etgan va izdoshlarga boshqa, nisbatan xavfsiz platformalarni izlashni tavsiya qila boshlashgan. Hozirga kelib, mutaxassislar Telegramdagi IShID targ‘iboti ancha zaiflashganini ta’kidlashadi: ekstremistik kanal va guruhlar **beqaror**, tez bloklanib ketadi va auditoriya to‘plashi qiyin bo‘lmoqda. Biroq ayrim targ‘ibot materiallari va kichik guruhlar hali ham paydo bo‘lib turibdi – ular bilan kurash doimiy e’tiborni talab qiladi.

Muammolar: Etidal faoliyatida ham qator tashkiliy va texnik muammolar uchraydi. Eng avvalo, ekstremistlar bir platformadan haydalishi bilan boshqasiga ko‘chmoqda – masalan, Telegramda katta yo‘qotishlarga uchragan IShID tarafdorlari Rossiyadagi **TamTam** yoki Braziliyadagi **RocketChat** singari kichikroq messenjyerlarga o‘tishga harakat qildilar. Bu esa kurash maydonini yanada tarqoqlashtirib, global nazoratni murakkablashtiradi.

Shuningdek, sun’iy intellektga asoslangan filtrlar hamma vaqt ham aniq ishlamasligi mumkin. Automatlashtirilgan dasturiy vositalar matn yoki tasvirdagi ekstremizm alomatlarini sezsa-da, ba’zan kontekstni tushunmasligi oqibatida xato bloklashlar kuzatilishi mumkin. Shu bois Etidal va boshqa markazlar faqat avtomatik tahlilga tayanib qolmasdan, **qo‘lda moderatorlik**ni ham saqlab qolish zarurligini ta’kidlaydi.

ИНФОРМАЦИОННЫЕ ВОЙНЫ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА МАССОВОЕ СОЗНАНИЕ

Бахадиров Мурат Махмудович

Введение

Современные войны ведутся не толко на поле боя, но и в информационном пространстве. Оружием становятся не толко пули и ракеты, но и фейки, манипуляции, кибератаки. Главная цел информационных войн - управление массовым сознанием, создание нужных нарративов, дискредитация противника и формирование выгодной картины мира.

1. Что такое информационная война?

Информационная война — это «целенаправленное влияние на общественное сознание» с целю изменения политической, социалной или военной ситуации.

Основные цели информационной войны: формирование нужной картины мира; управление поведением людей; дискредитация и деморализация противника; дестабилизация ситуации внутри страны.

Отличие от обычной пропаганды информационная война проводится при применении современных технологии: Интернет, соцсети, искусственный интеллект, деепфаке и кибератаки.

2. Методы ведения информационной войны

1. Дезинформация и фейки. Один из главных инструментов — фабрикация новостей, фалшивые фото и видео. Например, вброс ложных сообщений о сдаче города, уничтожении важных объектов или предателстве среди командования. Вбросы в ходе войны в Украине (2014-2023). Во время конфликта появлялис сообщения о том, что определённые города сдаются без боев. Эти слухи часто исползовалис как средство деморализации армии и гражданского населения. Фалшивые информацию о предателстве в командовании также распространялис, чтобы подорват доверие к руководству.

В первые дни Иракской войны (2003) появилис сообщения о том, что иракские войска капитулировали или что высокопоставленные генералы сдаются. Эти слухи вызывали панику и путаницу как среди иракских солдат, так и среди гражданских.

Для противостояния этим воздействиям первоначално необходимо проверят источники информации, не доверят сообщениям без официалного подтверждения и исползоват аналитические платформы для выявления фейков.

2. Манипуляция эмоциями. Информационные атаки часто рассчитаны на страх, панику, ненавист или сочувствие.

Например, постановочные кадры разрушений, призванные вызват возмущение или страх. В сирийской гражданской войны против режима Б.Асада были опубликованы фалшивые фотографии разрушенных зданий, которые на самом деле были сняты в других странах или в другое время. Эти изображения исползовалис для создания ложного впечатления о масштабах разрушений и гуманитарной катастрофы.

Чтобы противостоят этому первоначално следует не поддаватся на провокации, анализироват контекст информации и доверят толко проверенным источникам.

3. Социалные сети как оружие. Соцсети — главное поле битвы за сознание людей. Алгоритмы формируют «информационные пузыри», показывая ползователям толко ту информацию, которая подтверждает их убеждения.

К примеру, в ТикТок, ЁуТубе и Фасебоок запускаются автоматизированные кампании по продвижению определенных нарративов, а комментарии заполняются ботами и троллями.

На ЁуТубе можно встретит видео, содержащие дезинформацию, активно продвигаемые через алгоритмы. Комментарии под такими видео часто заполняются ботами, которые оставляют однотипные сообщения или хвалят видео, создавая иллюзию массовой поддержки среди зрителей.

Для противостояния им следует искат алтернативные точки зрения, анализироват источники информации, филтроват контент, не допуская попадания в «информационные ловушки».

4. Атаки на моралный дух. Целенаправленное давление на военнослужащих и их семи через персонализированные угрозы.

Примером может служит распространение угроз, ложных новостей о погибших, взлом и публикация личных данных. В 2022 г. появилис слухи о гибели известных украинских политиков и военных. Эти фалшивые сообщения быстро распространялис в социалных сетях, вызывая панику и недоволство среди граждан.

Для противостояния этим действиям следует исползоват защищенные каналы связи, не распространят личные данные в открытом доступе, блокироват провокаторов и не поддаватся на их манипуляции.

5. Исползование деепфаке и искусственного интеллекта. Современные технологии позволяют создават подделные видеозаписи, где известные люди говорят слова, которых они никогда не произносили.

Например, Деепфаке-видео, где военный лидер якобы подписывает капитуляцию или призывает к прекращению боевых действий. В 2022 г. появилис подделные видео с изображением украинского военного лидера, в которых он якобы объявлял о капитуляции. Эти видео исползовалис для дезинформации и манипуляции общественным мнением, создавая ложное впечатление о ситуации на фронте.

Для противостояния этому следует проверят источники информации, анализироват метаданные файлов, исползоват фактчекинговые платформы.

3. Влияния информационных атак на массовое сознание

Информационные атаки оказывают значителное воздействие на массовое сознание, способствуя поляризации общества и разделению эго на враждующие лагеря. Такие атаки подрывают доверие к официалным источникам информации, что заставляет людей обращатся к слухам и анонимным источникам. Например, вбросы в Телеграм-каналах с ложными новостями о разрушенных городах или массовых беспорядках способны

создат хаос и панику, дестабилизируя общественную обстановку и усугубляя существующие конфликты.

Для противостояния этим негативным последствиям важно ориентироватся на проверенные официалные источники и анализироват контекст информации. Развитие критического мышления становится ключевым инструментом в борбе с дезинформацией, позволяя людям более осознанно подходит к потреблению новостей и принимат обоснованные решения. Это включает в себя не толко проверку фактов, но и способност распознават манипуляции, что в конечном итоге способствует укреплению социалной стабилности и доверия внутри общества.

4. Способы защиты от информационных атак

Современный информационный ландшафт требует от ползователей активного развития критического мышления. Это включает в себя недоверие к информации, которую они встречают в новостных лентах, и необходимост проверки данных по несколким надежным источникам перед формированием выводов. Такой подход помогает избежат манипуляций и дезинформации, становяс основой для более осознанного потребления новостей.

Медиаграмотност и цифровая гигиена также играют ключевую рол в защите от информационных угроз. Исползование безопасных мессенджеров и ВПН, а также настройка приватности в социалных сетях помогают минимизироват риски утечки личных данных и манипуляций со стороны третих лиц. Эти меры способствуют созданию безопасного цифрового пространства, в котором ползователи могут защитит свои личные данные и управлят своим цифровым следом.

Наконец, важным аспектом является развитие психологической устойчивости. Ползователи должны умет контролироват свои эмоции при потреблении информации и игнорироват провокационные вбросы. Повышение информационной осведомленности в рамках коллективов и подразделений способствует созданию более устойчивой среды, где люди могут критически оцениват информацию и действоват на основе фактов, а не эмоций.

Заключение.Информационные войны — это реалная угроза, способная повлият на ход военных действий, политику и общественное мнение. Главное правило: не верит всему, что видиш в интернете, проверят информацию, сохранят хладнокровие.

AXBOROT-PSIXOLOGIK XURUJLARNI AMALGA OSHIRISHNING AYRIM TEXNOLOGIYALARI (FEYK MA'LUMOTLAR MISOLIDA)

Razzoqov H.A.
STIBOM magistranti

Axborotlashgan jamiyatda raqamli texnologiyalarning ko‘plab ijobiy jihatlari bilan bir qatorda ayrim destruktiv kuchlar tomonidan undan salbiy maqsadlarda foydalanish holatlari ham namoyon bo‘lmoqda. Xususan, ushbu kuchlar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib siyosiy jarayonlar, harbiy holat, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy ong kabi vositalarga ta’sir o‘tkazish va ommani manipulyatsiya qilishga urinmoqda.

Bunga erishishda ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilishning samarali vositalaridan biri sifatida feyk xabarlardan foydalanish ommalashmoqda.

Feyk xabar-odamlarni chalg‘itish va jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilish uchun yaratilgan va tarqatilgan yolg‘on ma’lumotlardir[35].

Yirik raqamli platformalarda yolg‘on axborot tarqatuvchi minglab manbalar uchraydi, ular ijtimoiy fikrini manipulyatsiya qilishda soxta yangiliklardan faol foydalanmoqda. Ekspertlar fikriga ko‘ra, kuchli emotsiyalarni keltirib chiqaruvchi, kutilmagan va shok holatiga tushiruvchi xabarlar ommani o‘ziga ko‘proq jalb qiladi.

Feyklar tarqatilishining tahlili, Internet foydalanuvchilarining 25 dan 70 foizgacha bo‘lgan qismi ijtimoiy tarmoqlarda muttasil ravishda feyklarga duch kelayotganligi ko‘rsatmoqda[36]. Xususan, Buyuk Britaniyada o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, voyaga yetgan aholining 45 foizi har kuni Internetda feyk yangiliklarga duch kelmoqda[37].

Yaratilishi jihatdan feyklar jozibadorligi va qamroviga ko‘ra haqqoniy xabarlarga qaraganda ustun ekanligi hamda tezroq tarqalishi aniqlangan bo‘lib, ular tarqalishida ijtimoiy tarmoqlar qulay platforma sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tahlillarga ko‘ra, qarama-qarshi kuchlar turli maqsadlarga qaratilgan feyk xabarlarni axborot portallarining asosan ijtimoiy tarmoqlardagi saxifalari orqali keng ommaga singdirishga harakat qilmoqda.

1. AQShning sobiq prezidenti va 2024-yilgi saylovlarda Respublikachilar partiyasidan nomzod D.Tramp Pensilvaniya shtatining Batler shahridagi saylovoldi kampaniyasida suiqasdga uchradi.

---

35 N.Muratova, “Fake news: mediada dezinformatsi: Jurnalistika va kommunikatsiya yo‘nalishlari talabalari uchun qo‘llanma”, Toshkent - “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020.

36 Esma Aimeur, “Fake news, disinformation and misinformation in mocial media: a review.”, 2023, https://doi.org/10.1007/s13278-023-01028-5.

37 William Van Gordon, “True or False? How Much Is Fake News Influencing Our Lives?”, 2019, www.derby.ac.uk/magazine/issue-12/influence-of-fake-news/.

Suiqasd Bayden ma’muriyati tomonidan Trampni yo‘q qilish uchun rejalashtirilgan va muvofiqlashtirilgan hamda Trampning o‘zi tomonidan xayrixohlik uyg‘otish maqsadida uyushtirilganligi to‘g‘risidagi feyk xabarlar keng tarqalgan[38]. Bu voqea jamoatchilikning institutlarga bo‘lgan ishonchiga putur yetkazib, siyosiy qutblanish, tartibsizlik va zo‘ravonlikni keltirib chiqargan.

2. D.Tramp o‘zining Truth Social platformasida, K.Xarris 2024 yil 7 avgustda Michigan shtatining Detroyt shahridagi saylovoldi kampaniyasida sun’iy intellekt texnologiyasidan foydalanib olamon sonini ko‘paytirib ko‘rsatganini ma’lum qilgan.

Bu bayonotni Amerikaning bir necha axborot agentliklari va raqamli ekspertiza mutaxassislari tekshirib, olomon hajmining *(15 000 ga yaqin)* haqiqiyligi tasdiqlagan.

Ushbu yolg‘on bayonot siyosiy raqiblarni obro‘sizlantirishga qaratilgan bo‘lib, saylovchilarning saylovoldi faoliyatiga bo‘lgan ishonchi va tasavvuriga, shuningdek, har qanday vaqtda bunday tadbirlarning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz o‘tganligiga nisbatan potensial ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

O‘zbekistonda feyk xabarlarning tarqalishi asosan messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlarda namoyon bo‘lmoqda. Rasmiy axborot manbalariga ishonchning pastligi, aholida axborot savodxonligining yetishmasligi, botlar va manipulyatsiya kampaniyalari vositasida ma’lum maqsadli guruhlar orqali yolg‘on axborot tarqatilishi va klikbeyt strategiyalarining ommalashgani feyk kontentning keng yoyilishiga sabab bo‘layotgan omillardandir.

O‘zbekiston Respublikasida 2023 yilda feyk xabarlar sifatida ijtimoiy tarmoqlarda har bir fuqaroga “bir martalik yordam pullari berilmoqda” mazmunidagi turli materiallar keng tarqalgan.

Axborot makonidagi feyk ma’lumotlarning tarqatilishi turli maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarning rus segmentida O‘zbekistondagi maktablardan birida rus millatiga mansub o‘quvchiga milliy kelib chiqishiga ko‘ra ruhiy va jismoniy bosim o‘tkazilayotganiga oid xabarlar tarqatilgan.

Ushbu xabarlarga ilova qilingan fotomaterialda aks etgan holat Rossiya Federatsiyasining Tuva Respublikasida 2024 yilning 25 sentabr kuni mahalliy maktab o‘quvchilari orasida sodir bo‘lgani aniqlangan.

2024 yilning 30 sentabr jtimoiy tarmoqlar, xorijiy veb-resurslar hamda Telegram messenjerining “URA.RU”, “INSIDER | NOVOSTI”, “Mnogonatsional”, “Migrantam.Net | ChP”, “Migrantы-vsyo kak yest”, “Tashkentskiy reporter. Novosti i mneniya”, “Russkiy Mir” kabi kanallarida Jizzax


[38] “Fact focus: A look at false claims around the assassination attempt on former President Trump.” AP News, 15 July 2024.

shahri 1-sonli maktabda bir guruh o‘quvchilar o‘zbek tilidan boshqa tilda muloqot qiluvchi o‘quvchilarni doimiy kaltaklab kelayotganiga oid xabarlar tarqalgan. Mazkur xabar a’zolari soni 8 mln.dan ziyod bo‘lgan 200 ga yaqin kanallarda tarqalgan. Xabarga kuzatuvchilar tomonidan asosan millatchilik kayfiyatini o‘zida aks ettirgan 4 ming izoh hamda 57 mingga yaqin turli reaksiyalar qoldirilgan. Tarqatilgan videomaterialda aks etgan janjal o‘quvchilarning o‘zaro kelishmovchiligi tufayli yuz bergani va til masalasiga oid holat hech qanday asosga ega emasligi aniqlangan.

Bu kabi xabarlarni keng tarqatish va ulardan millatchilikka oid nizolarni keltirib chiqarishga urunish holatlari namoyon bo‘lmoqda. Davlatlar bu kabi holatlardan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanib, ma’lum bir sohalarda inqirozli holatlarni yuzaga keltirishga urinishmoqda.

Zamonaviy sharoitda global miqyosda feyk ma’lumotlarga qarshi kurashda sun’iy intelekt tizimlaridan samarali foydalanilmoqda. Bu esa o‘z navbatida, feykka qarshi profilaktika ishlarini olib borayotgan platformalarga bo‘lgan ishonchni va ularning shaffofligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Xususan, “Facebook” soxta ma’lumotlar va akkauntlarni aniqlash hamda tarmoqdan o‘chirishda Deep Entity Classification sun’iy intelekt tizimidan samarali foydalanmoqda[39]. Quyida dezinformatsiya tarqatish bilan shug‘ullangani uchun, 2018-2023 yillarda “Facebook” tomonidan aniqlangan va bloklangan akkauntlar soni *(mln.da)* keltirilgan *(1-rasm)*.



Mutaxassislarning kayd etishicha, mamlakatda muhim siyosiy o‘zgarishlar, urushlar va turli inqirozlar davrida axborot makonida feyk xabarlar tarqalishi keskin ortadi.

Feyk xabar tez va oson tarqalishi quyidagi omillardan foydalanilishiga qarab turlicha rivojlanadi:

birinchidan, uni har qanday shaxs yaratishi va tarqatishi mumkin;

[39] “Deep Entity Classification: abusive account detection for online social networks - meta research.” Meta Research.

ikkinchidan, anonimlik asosida “insayderlar ma’lumoti” kabi talqin etilib tarqatilishi;

uchinchidan, feyk tarqatuvchilarning uni qanday auditoriyada ommalashib foydalanuvchiga kuchli ta’sir o‘tkaza olishini belgilovchi algoritmlardan faol foydalanishi;

to‘rtinchidan, feyklar emotsional jozibador bo‘lib, insonni xabar bilan tanishishga, faktlarni qayta tekshirmasdan boshqalarga tezroq ulashishga undash xususiyati bilan ajralib turadi.

Mazkur ma’lumotlar asosida quyidagi xulosalarni ta’kidlash mumkin:

- *feyk ma’lumotlar ta’sirining ortishi foydalanuvchilar orasida media savodxonlik darajasi yetarlicha rivojlanmagani bilan bog‘liq;*

- *noxolis muhokamalarga sabab bo‘lgan va rezonans keltirib chiqargan xabarlar yuzasidan joylardagi axborot xizmatlari asl holatni aks ettiruvchi dalillarni o‘z vaqtida jamoatchilikka yetkazmaydi;*

- *feyk xabarlarni aniqlash, fosh qilish va ulardan jamoatchilikni ogohlantirish tizimining yetarlicha rivojlanmagan hamda zamon talablari darajasida emas.*

Yuqoirdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagilar taklif etiladi:

- axborotni tekshirishda ma’lumot qanday tartibda va yo‘nalishda (manbada) kelishini tekshirish, feyk bo‘lgan ma’lumotlar sanasi va vaqtini aniqlash, shuningdek o‘tgan vaqtni tahlil qilish, aholini xabardor qilish mexanizmlarini takomillashtirish;

- aholining media-savodxonligini oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, raqamli platformalarni takomillashtirish, Internetda sifatli kontent yaratish va targ‘ib qilishga qaratilgan kompleks yondashuvlarni ishlab chiqish;

- jamiyat va “IT”-kompaniyalar orqali feyk xabarlarning salbiy ta’sirini cheklash maqsadida davlat tomonidan samarali nazorat qilish mexanizmlarini yaratish. Bunda ishtirokchilarni zarur o‘quv dasturlari bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratish;

- raqamli tengsizlik va feyk yangiliklarning o‘zaro aloqadorligini hisobga olgan holda davlat, biznez va notijorat tashkilotlarining sohaga oid faoliyatini kuchaytirish orqali jamiyatda dezinformatsiya xavfini kamaytirish.

Feyk xabarlar tarqalishiga qarshi samarali choralar ko‘rish uchun rasmiy manbalar axborot tarqatishda tezkorlikni oshirishi, faktcheking tizimlari rivojlantirilishi va aholi orasida axborot savodxonligi yuksaltirilishi zarur.

AXBOROT-PSIXOLOGIK XURUJLARNI AMALGA OSHIRISH USULLARI VA ULARGA QARSHI KURASHISH

Tuxtamatov Xasan Rixsibaevich,
O‘zbekiston Respublikasi STIBOM, PhD.

Axborot texnologiyalarining yuqori sur’atlarda rivojlanishi, jamiyat va davlat hayotida keskin ijobiy o‘zgarishlarning yuz berishiga sabab bo‘lib, insoniyat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqdi. Insoniyat axborot texnologiyalari yordamida, nafaqat, ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va uzatish bilan chegaralanmay, balki jamiyatda iqtisodiy, siyosiy, harbiy va boshqa sohalarni boshqarish, ularga ta’sir etish va istiqbolini belgilash imkoniyatiga ega bo‘lib bormoqda.

Bu jarayonlar negizida davlatlararo hamkorlik yangi bosqichga kirib, o‘zaro munosabatlarda bir-biriga nisbatan bog‘liqlik holatlarini kuchaytirmoqda. Shu bois ham, axborot davlatning milliy boyligi, xalqaro maydonda esa strategik resursga aylanib bormoqda. Ammo, zamonaviy axborot texnologiyalari jamiyat hayotida ko‘plab qulaylik va imkoniyatlar yaratishi bilan birga, ayrim muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Aksariyat holatlarda ushbu muammolar axborot kommunikatsiya vositalaridan va ularning imkoniyatlaridan g‘arazli maqsadlarda foydalanish natijasida yuzaga kelmoqda. Bu esa bizdan axborot xurujlariga qarshi kurashning zaruriy yo‘nalishlarini ishlab chiqish, ushbu sohada axborot xavfsizligini ta’minlashning yagona tizimini yaratish, atrofimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni har taraflama chuqur tahlil qilish va axborot sohasida ilmiy izlanishlar olib borishni vazifasini qo‘ymoqda. Qolaversa, axborot xurujlarining ortishi sharoitida jahon axborot tizimiga integratsiyalashish, axborotni erkin olishning kafolatini yaratish va axborot tahdidlariga qarshi kurashishning samarali tizimini ishlab chiqish O‘zbekiston Respublikasi axborot xavfsizligini ta’minlashning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Har bir davlatning axborot makoni shaxs, jamiyat va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda, ularga tegishli bo‘lgan axborotni o‘zgartirish, ruxsatsiz tarqatish, ma’naviy va ruhiy borlig‘iga ta’sir ko‘rsatish, konstitutsiyaviy tuzumga qarshi bo‘lgan g‘oyalardan, millatlararo va diniy konfessional, kuch ishlatish va boshqa ko‘rinishdagi harakatlardan qonuniy ravishda himoyalangan bo‘lishi lozim.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirda «axborot urushi», «axborot-psixologik urush» va «kibernetik urush» tushunchalari deyarli teng kuchda ishlatiladi.

“Axborot urushi” atamasi ilk bor 1967 yili tilga olingan bo‘lib, bu iboraning muallifi sobiq sovet ittifoqiga qarshi boshlangan axborot urushining asoschilaridan biri Allen Dallesdir. Axborot urushi nazariyasining asoschilaridan yana biri Uinn

Shvartou fikricha “Zamonaviy jamiyat axborotga asoslanganligi sababli, ertami, kechmi, har kim axborot xurujining qurboniga aylanadi” deb ta’kidlaydi[40]. Uinn Shvartou axborot urushini olib borishda barcha hatti-harakatlarni uchta sub’ektga qaratilganligini ta’kidlaydi: shaxsga (individual holatda), tashkiliy tuzilmaga (tashkilot/muassasaga qaratilgan) va global ko‘rinishda (dalatlar o‘rtasidagi ziddiyatga qaratilgan).

“Axborot xuruji” iborasi birinchi marta 1976 yil Tomas Ronning “Voeing” kompaniyasi uchun mo‘ljallangan “Qurollar tizimi va axborot urushi” nomli hisobotida qayd etilgan. T.Ron AQSh iqtisodiyotida axborot infratuzilmasi asosiy komponent bo‘lib, keyinchalik uni harbiy, siyosiy sohalar kabi zaif nuqta bo‘lib qolishini ta’kidlaydi[41]. Axborot xurujining muhim jihati esa – «qarshi davlatning/korxonaning rahbariga/a’zolariga psixologik bosim o‘tkazib, ularni “kerakli” qarorlarni qabul qilishga majbur qila bilishdir» deydi. Shunga ko‘ra «axborot xuruji» nima degan savolga javob berish mumkin. Axborot xuruji bu – raqib sanalgan shaxsga, jamiyatga va davlatga siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda qabul qiladigan qarorlarga ta’sir ko‘rsatish, ijtimoiy fikr va jamoatchilik ongini o‘ziga kerakli yo‘nalishda shakllantirishga urinishdir. Axborot xurujlarini amalga oshirishda asosan quyidagi usullardan foydalaniladi[42]:

– dezinformatsiya (yolg‘on axborot tarqatish) – psixologik ta’sir ko‘rsatishning bir ko‘rinishi bo‘lib, raqib tarafni chalg‘itish maqsadida yolg‘on axborot tarqatiladi. Bunda haqiqiy axborot bilan yolg‘on axborot aralash ko‘rinishda tarqatiladi;

– manipulyatsiya (omma ongini boshqarish) – omma ongini turli g‘oyalar, ko‘rsatmalar, motivlar, stereotiplar (taxlit) orqali sub’ekt manfaatlariga moslashtirish. Voqelikni noto‘g‘ri idrok qilish orqali soxta, yolg‘on tushuncha yoki tasavvur hosil qilinadi;

– propaganda (targ‘ibot) – omma ongida OAV yordamida ma’lum g‘oyalarni tarqatish va ommalashtirish;

– krizis holatlarni boshqarish – asosan iqtisodiy va siyosiy sohalarga qaratilgan bo‘lib, ma’lum guruh yoki davlat qiziqishlarini ko‘zlaydi. Avvaldan tanlab olingan shaxslarga yashirin ko‘rinishda ta’sir ko‘rsatiladi;

– ig‘vogarlik – ma’lum guruhlar va shaxslar tomonidan davlatning konstitutsion tuzumiga yoki qonuniy asoslariga qarshi harakatlarni amalga oshirish;

[40] Pochepsov G.G..Psixologicheskie voynы. M.: «Refl-buk», K.: «Vakler» – 2000. – S. 57-58.
[41] Rona T. Weapon Systems and Information War. Boeing Aerospace Co., Seattle, WA, 1976.
[42] Voronsova L.V., Frolov D.B. Istoriya i sovremennost informatsionnogo protivoborstva. – M.: Goryachaya liniya Telekom, 2006. – S. 72-78.

– tuhmat (bo‘hton) – biror ob’ektni obro‘sizlantirish, sha’nini bulg‘ash maqsadida yolg‘on ma’lumotlarni tarqatish;

– diskreditatsiya (obro‘sizlantirish) – omma orasida davlat rahbarlari, jamoat tashkilotlari, ayrim shaxslar, siyosiy yechimlar, tadbirlar ahamiyatini tushirish va ularga salbiy ta’sir ko‘rsatish;

– omma diqqatini jalb etish – biror voqea, hodisa, ish yuzasidan haqiqiy ma’lumot panada qoldiriladi, shov-shuvga sabab bo‘ladigan tadbirlar amalga oshiriladi;

– mish-mish gaplarni tarqatish – haqiqatdan mavjud bo‘lmagan ma’lumotlarni tarqatish. Asosan davlat va jamiyatdagi bo‘shliq joylarga asosiy zarba beriladi hamda siyosiy va ma’naviy yetuk bo‘lmagan shaxslar ob’ekt sifatida tanlab olinadi;

– fitna – maxsus axborot harakati bo‘lib, raqib muvaffaqiyatsizlikka (mag‘lub bo‘lish) olib boruvchi variantni tanlashga majburlanadi.

Keltirilgan usullar ma’lum amallar ketma-ketligidan iborat bo‘lib, ularni amalga oshirishda axborot hurujining ob’ekti va sub’ekti, kuch va vositalar, resurslar va vaqt omili aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda biror davlatda ham axborot xurujlarini amalga oshirish usullariga qarshi yagona bir kompleks tadbirlar ketma-ketligi ishlab chiqilmagan. Buning sababi sifatida axborot-kommunikatsion tenologiyalarning juda tez sur’atlarda rivojlanib borayotganligi, tezkorligi, turlichaligi, chegara bilmasligi, millat tanlamasligi, yashirinligi (qanday va qay ko‘rinishda yakunlanishining noma’lumligi) kabilarni keltirish mumkin. Shunday bo‘lsada, zamonaviy bosqichda axborot xurujlariga qarshi kurashishning ayrim jihatlariga to‘xtalib o‘tish mumkin:

– axborot xurujlarini amalga oshirish usullarini atroflicha o‘rganish va ularga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

– axborot xavfsizligi sohasida texnik, dasturiy yo‘nalishda kadrlar bilan parallel ravishda uning g‘oyaviy jihatlari tadqiq qiluvchi mutaxassilarni tayyorlash;

– OAVlar orqali tarqatiladigan axborotning tezkorligini (bugungi kunda axborotni kim birinchi tarqatsa, aholi o‘rtasida o‘sha axborotga ishonch katta bo‘ladi va aksincha kechikib tarqatilgan axborot yolg‘on (o‘zgartirilgan) axborot maqomini oladi), to‘liqligini, aniqligi, o‘z vaqtidaligi kabilarni ta’minlash;

– davlat, jamiyat, shaxs darajasida axborot tizimlari xavfsizlik darajasi mezonlarini aniqlash va ularni himoyalashning aniq usullarini topish;

– davlat organlari o‘rtasida ma’lumotlar almashish tizimini yo‘lga qo‘yish, axborot xurujlari amalga oshirilganda kuch va vositalarni birlashtirish;

– destruktiv axborotga qarshi kurashishda jamoat nazoratini kuchayirish.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bugungi kunda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan jamiyat sohalarining barcha jabhalarida foydalanishning kengayib borayotganligi, axborotga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi hamda axborot xurujlarini kuchayib borishi va ularning yopiq xarakterga ega ekanligini inobatga olib, u bizdan axborotga bo‘lgan taqchillikni oldini olish (milliy axborot makonini rivojlantirish), sodir bo‘lgan voqelikka to‘g‘ri va xolis baho berish (amalga oshirilayotgan axborot xujumlarini tahlil qilish va bashoratlar berish), turli yot g‘oyalarga (qo‘poruvchilik ruhidagi) qarshi kurashish va bu sohada yetuk mutaxassislarni tayyorlashni talab qilib qoladi.

KIBERMAKONDA AXBOROT-PSIXOLOGIK TA’SIR TEXNOLOGIYALARI

A.X.Nazarov

STIBOM magistranti

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamli media platformalarining kengayishi jamiyatdagi axborot-psixologik ta’sir texnologiyalarining ahamiyatini keskin oshirdi. Bugungi kunda insonlar turli media kanallar orqali doimiy ravishda katta hajmdagi axborot oqimiga duch kelmoqda. Ushbu axborot oqimi orqali insonlarning ongi va xatti-harakatlariga ta’sir o‘tkazish imkoniyati paydo bo‘ldi. Shu nuqtai nazardan, APT texnologiyasi, shakllari va turlari mavzusini o‘rganish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

Axborot-psixologik ta’sir (*APT*) **—** bu insonning hissiyotlari, qarashlari va xatti-harakatlariga axborot vositalari orqali bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatish jarayonidir. Bu tushunchada ikki asosiy element — axborot va psixologik ta’sir birlashadi. Axborot orqali insonlarga yetkaziladigan ma’lumotlar ularning fikrlash usuli, qarashlari va xulq-atvoriga ta’sir o‘tkazadi.

APTni shaxs va jamiyatning axborot, kognitiv va emotsional jihatlariga ta’sir etish jarayoni sifatida ko‘rish mumkin. Uning maqsadi ko‘pincha ishontirish, talqin qilish yoki manipulyatsiya usullari orqali ma’lum fikr va qarashlarni o‘zgartirish yoki shakllantirishdan iborat. Psixologiya va ijtimoiy fanlar nuqtai nazaridan, APT ommaviy kommunikatsiya va targ‘ibot bilan bog‘liq bo‘lib, u muayyan g‘oyalar, qadriyatlar yoki xatti-harakatlarni tarqatish uchun qo‘llaniladi. Bu ta’sir turi axborotni uzatish bilan birga zarur emotsional ta’sirni ham shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

APTning asosida axborotni qabul qilish va qayta ishlash psixologiyasi yotadi. Insonlar axborotni turli kanallar (*vizual, audio, kinestetik va b.*) orqali qabul qiladilar. Har bir kanalning o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lib, ta’sir strategiyalarini ishlab chiqishda ularni hisobga olish lozim. Masalan, grafiklar, tasvirlar yoki videolarda berilgan vizual axborot tekstli axborotga nisbatan kuchliroq emotsional reaksiyalarni chaqirishi mumkin. Bu vizual obrazlarning osonroq yodda qolishi va

tezroq talqin qilinishi bilan bog‘liq. Shuningdek, ranglar, shakllar va kompozitsiya kabi elementlarning qo‘llanilishi ham axborotni qabul qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi[43].

Axborot-psixologik ta’sirning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bir necha **omillar**ga bog‘liq, jumladan:

- Axborotning sifatiga - ishonchli va o‘z vaqtida yetkazilgan axborot iste’molchiga ko‘proq ta’sir qiladi;
- Axborot manbasiga ishonch darajasiga - qancha ko‘p odam manbaga ishonch bildirsalar, axborot ta’siri shuncha kuchli bo‘ladi;
- Psixologik holatga - axborotni qabul qilayotgan shaxsning psixologik tayyorgarligi va ruhiy holati ta’sir ko‘rsatish jarayonida katta rol o‘ynaydi.

Ushbu tushunchalar orqali insonning axborot qabul qilishidagi psixologik jarayonlarni chuqur o‘rganish mumkin bo‘ladi.

Media va raqamli muhitda faol qo‘llaniladigan APTning bir nechta asosiy texnologiyalari mavjud:

1. Axborot manipulyatsiyasi. Bu usul axborotni zaruriy qabul qilishni shakllantirish uchun axborotni ataylab buzish yoki yashirishni o‘z ichiga oladi. Axborot manipulyatsiyasi hodisaning ma’lum jihatlarini yashirish, faktlarni ortiqcha ko‘rsatish yoki soxta obraz yaratish orqali ifoda etilishi mumkin.

Jamoat ongini manipulyatsiya qilish masalalari S.G.Kara-Murza[44], G.V.Grachev va I.K.Melnik[45], V.P.Petrenko[46], Yu.A.Yermakov[47] kabi olimlarning ishlarida o‘rganilgan. Psixologik manipulyatsiyaning ayrim jihatlari Ye.L.Dotsenko[48], V.P.Sheynov[49] kabi mutaxassislar tomonidan tadqiq qilingan. G.Debor[50] jamoat ongini manipulyatsiya qilishni yaxlit amaliyot sifatida o‘rgangan.

Manipulyatsiya texnologiyalarini tahlil qilishni “manipulyatsiya” tushunchasini sharhlashdan boshlash lozim. Bu so‘z lotincha “manipulus” (*qo‘lning bir hovuchi*) va “manus” (*qo‘l*) atamalaridan kelib chiqqan. Manipulyatsiya bu — inson ongiga yashirin psixologik ta’sir ko‘rsatishdir.

---

[43] Grachev G. V., Melnik I. K. Manipulirovanie lichnostyu: organizatsiya, sposobы i texnologii informatsionno-psixologicheskogo vozdeystviya // RAN. In-t filosofii. – 1999.
URL: http://library.lgaki.info:404/2017/Grachev G_Manipulirovanie.pdf (murojaat sanasi: 01.03.2025).

[44] Kara-Murza S.G. Manipulyatsiya soznaniem. M.: Eksmo, 2005. 832 s.

[45] Grachev G.V., Melnik I.K. Manipulirovanie lichnostyu: Organizatsiya, sposobы i texnologii informatsionno-psixologicheskogo vozdeystviya. M.: Algoritm, 2002. 288 s.

[46] Petrenko V.P. Vыbornые texnologii i obщestvennoe soznanie. M., 1996. 330 s.

[47] Yermakov Yu.A. Manipulyatsiya lichnostyu: Smыsl, priemы, posledstviya. Yekaterinburg: Izd-vo Ural. un-ta, 1995. 203 s.

[48] Dotsenko Ye.L. Psixologiya manipulyatsii: Fenomenы, mexanizmы i zaщita. M.: CheRo, 2000. 342 s.

[49] Sheynov V.P. Skrытoe upravlenie chelovekom (psixologi manipulirovaniya). M.: AST, 2001. 848 s.

[50] Debor G. Obщestvo spektaklya / Per. s fr. S. Ofertis i M. Yakubovich. M.: Logos, 2000. 184 s.

2. Freyming (*axborotni qabul qilish doiralarini shakllantirish*). Freyming hodisaning muayyan jihatlariga urg‘u berish orqali axborotni zaruriy qabul qilishni yaratish uchun qo‘llaniladi. Masalan, so‘zlar yoki tasvirlar tanlanishi orqali hodisani ijobiy yoki salbiy ko‘rinishda taqdim etish va shu orqali jamoatchilik fikrini zarur yo‘nalishga qaratish mumkin.

3. Talqin va ishontirish usullari. Ko‘p takrorlanadigan emotsional boy xabarlarni qo‘llash orqali auditoriyada barqaror ishonchni shakllantirish mumkin. Bu usul odamlarning kognitiv va emotsional reaksiyalariga asoslanadi, ularni taklif etilgan nuqtai nazarni qabul qilishga undaydi.

4. Targ‘ibot (*propaganda*). Bu ma’lumotni tarqatishning tizimli jarayoni bo‘lib, u muayyan g‘oyalar va qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan. Targ‘ibot, odatda, hukumat yoki yirik xususiy tuzilmalar tomonidan tashkil etilib, ommaviy auditoriyaga yo‘naltiriladi.

Ommaviy ongga manipulyativ ta’sir texnologiyalari bo‘yicha turli xil tasniflar mavjud. Masalan, S.A.Zelinskiy 26 ta asosiy usulni ajratadi[51], lekin S.G.Kara-Murza manipulyatsiyaning quyidagi mukammal usullarini taklif qiladi[52]:

1. Faktlarni soxtalashtirish - axborotni manipulyatsiya qilishda uning kam ahamiyatga ega bo‘lgan jihatlari bo‘rttiriladi yoki ma’lumotlar soxtalashtiriladi.

2. Targ‘ibot (*propaganda*) - bu usul jamiyatdagi stereotiplarga ta’sir qilib, ularni o‘zgartirish yoki kuchaytirish orqali manipulyatsiyani amalga oshiradi.

3. Manipulyativ semantika - manipulyator turli ko‘rinishdagi gaplarni olib, ulardan turlicha ma’no chiqaradi.

4. Soddalashtirish va stereotiplashtirish - axborotning sodda tili uning qabul qilinishi va tushunilishini osonlashtiradi.

5. Tasdiqlash va qayta-qayta takrorlash - axborot ko‘p marta takrorlanishi orqali odamlarning ongiga o‘rnashib qoladi.

6. Fragmentatsiya va shoshilinchlik - axborot parchalangan holda taqdim qilinishi uning oson tushunilmasligiga olib keladi.

7. Sensatsionalizm - axborotga ortiqcha ahamiyat berish orqali jamiyat diqqati e’tibori bir nuqtaga to‘planadi.

APT jamoatchilik fikri, siyosiy elita va ommaviy ongga ta’sir ko‘rsatuvchi maxsus axborot yaratish va tarqatishni o‘z ichiga oladi.[53] Bunday ta’sir, odatda, **targ‘ibot** deb ham ataladi, u odamlarni o‘z xohish-irodasiga zid ravishda harakat qilishga undaydi.

---

[51] Zelinskiy S.A. Manipulyatsii massami i psixoanaliz. Spb.: SKIFIYa, 2008. S. 38-52.

[52] Kara-Murza S.G. Manipulyatsiya soznaniem. M.: Eksmo, 2005. 832 s.

[53] N.Baranov. Material leksii Chast-2., (1s)., «Klassicheskie texnologii informatsionno-psixologicheskoy voynы» ot 19 iyunya 2016 god. Moskva. Sayt. https://nicbar.ru/politology/study/kurs-informationnaya-vojna-v-sisteme-politicheskikhotnoshenij/109-lektsiya-2;

Ma’lumot uchun: NATO mamlakatlarida dushmanga qarata amalga oshiriladigan informatsion-psixologik ta’sir choralari “psixologik operatsiyalar” deb ataladi. 2010 yildan boshlab AQSh “strategik kommunikatsiyalar” konsepsiyasiga o‘tdi, bu esa milliy manfaatlarni amalga oshirish uchun barcha davlat tuzilmalarining birgalikdagi harakatlarini anglatadi. Psixologik operatsiyalar hozirda “harbiy ma’lumotni qo‘llab-quvvatlash operatsiyalari” (Military Information Support Operations, MISO) deb ataladi va ularning maqsadi xorijiy auditoriyaga AQSh siyosati manfaatlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ta’sir o‘tkazishdir.

APTning turli tartibsizliklarda qo‘llanilayotgan asosiy texnologiyalari:

1. Simulyakr: OAV yordamida real hayotda bo‘lmagan voqealarning virtual tasviri yaratiladi. Bunday simulyakr jamoatchilik uchun muhim ahamiyat kasb etib, yolg‘on tasavvurlarni shakllantiradi. Bunga misol sifatida “Arab bahori” vaqtida Liviya poytahti Tripolining “egallanishi” haqidagi videolavhalarni ko‘rsatish mumkin, bu voqeadan ancha oldin namoyish etilgan edi.

2. Karusel: axborot manipulyatsiyasi uni “tahmin — iqtibos — tasdiq — tarqatish” zanjiri bo‘yicha tarqatish orqali amalga oshiriladi. Bu texnologiya yolg‘on axborot yaratish uchun qo‘llanilgan, masalan, Rossiyaning Ukrainaga “bostirib kirishiga tayyorgarlik ko‘rayotgani” to‘g‘risidagi yangiliklar kabi.

3. Gadjet-texnologiyalar: axborot smartfonlar, kompyuterlar va planshetlar kabi keng tarqalgan raqamli qurilmalar orqali tarqatiladi. Gadjetlar 2012 yilda Moskvadagi Bolotnaya maydonidagi “Millionlar marshini” tashkil etishda va 2013-2014 yillardagi Ukraina voqealarida muhim rol o‘ynadi.

4. YouTube: bu internet-servisga ishonchli manba sifatida qaraladi, bu esa muayyan videomateriallarni tarqatish va auditoriyaning ishonchini qozonishga yordam beradi.

5. Bloger: blogerlar, ya’ni fikr yetakchilari, o‘z auditoriyasining pozitsiyalarini shakllantiradi, inqirozli vaziyatlarda esa aniq ko‘rsatmalar tarqatadi.

6. Psacing (*“Djen Psaki texnologiyasi”*): soddalashtirilgan axborot ommaviy ongga ta’sir qilishni osonlashtiradi. Rasmiy xabarlar shaxslashtirish orqali ishonchlilikka ega bo‘lib, auditoriyada simpatiya uyg‘otadi.

7. Ebola: Amerikaning auditoriyasi ongida Rossiya kabi tahdidlarni Ebola virusi bilan bog‘lash uchun assotsiatsion uslublardan foydalaniladi va bu salbiy obrazni shakllantiradi.

8. Black water: dushman davlat ichida nizolarni kuchaytirish uchun xususiy harbiy kompaniyalar jalb qilinadi. Bunga Maydan voqealari paytida Ukrainadagi snayperlar faoliyati yaqqol misol bo‘ladi[54].

[54] A.G Karayani. Voennaya psixologiya. Chast. 2: Uchebnik i praktikum dlya vuzov / – M.: Izdatelstvo Yurayt, 2019. - 193-195 S.

Xulosa qilib aytganda, APT texnologiyalari zamonaviy jamiyatning bir qismiga aylanib, insonlar ongiga sezilarli ta’sir o‘tkazadi. Ushbu texnologiyalar insonlarning qarashlarini o‘zgartirish va jamoatchilik fikrini shakllantirish imkonini beradi. Ammo bu ta’sirlarning jamiyatga salbiy ta’sirlarini kamaytirish uchun jamoatchilikda axborotni tanqidiy baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish va axborotni oqilona boshqarish lozim. APT bugungi dunyoda muhim vositaga aylanib, odamlarning qabul qilish va xatti-harakatlariga ta’sir o‘tkazmoqda. Sun’iy intellekt va ijtimoiy tarmoqlar kabi texnologiyalar rivojlanishi APT imkoniyatlarini kuchaytirib, uni yanada aniq va samarali qilib qo‘ydi. Ammo APT bilan bog‘liq axloqiy masalalar samarali yondashuvni va jamiyat manfaatlari uchun uning samarali qo‘llanilishini ta’minlash uchun choralar ko‘rishni talab etadi.

O‘SMIRLARDA STRESSOGEN VAZIYATGA REAKSIYA BILDIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Aksakalova N.O., Umarova.S.K

Toshkent gumanitar fanlar universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada insonlarning o‘smirlik davrida hayoti davomidagi murakkab bosqichlardan o ‘tishni va bu davrda stressli, dipresiyali vaziyatlar juda ko‘plab uchrashi yoritib berilgan. O‘smirlar yoshlik chog‘ida ota-ona, do‘stlar, yaqin va qarindosh urug‘lar yokida turli sabablarga ko‘ra dipressiyaga duch kelishlari mumkin.*

Kalit so‘zlar: *O‘smirlik, depressiya, biologik, reaksiya bildirishi, ishonch, his tuyg‘ulari, oilaviy ta’sirlar.*

O‘smirlik davri inson hayotidagi ɜng murakkab bosqichlardan biridir. Bu biologik, ruhiy va ijtimoiy o‘zgarishlar bir vaqtning o‘zida ro‘y beradi va o‘smirlar turli xil stressogen vaziyatlarga duch keladilar.

Sterssogen vaziyatlar –bu kishining ruhiy va jismoniy holatiga tasir qiladigan uni ichki va tashqi muhitdan keladigan xavf yoki tas’irlar orqali qo‘rquv xavotir yoki boshqacha noqulay hislar yuzaga keltiradigan omilllardir. O‘smirlar stressogen vaziyatlarga boshqacha tarzda javob berishi mumkin va bu reaksiyalarning psixologik jihatlari alohida o‘rganshga arziydi.

O‘smirlik bu jismoniy va ruhiy o‘zgarishlarning eng yuqori darajaga chiqqan davri bo‘lib, bu jarayonning bir qismi sifatida stress ham kuchayadi. Biologik jihatdan , o‘smirlarning miya tuzilishi hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib bu ularning stressga nisbattan sezgirligini oshiradi. Ayniqsa, o‘smirlar o‘ziga xos emosional tajribalar va hissiy beqarorlikka ega bo‘lishlari mumkin, bu esa ularni stresli vaziyatlarda ko‘proq zarar ko‘ rishga olib keladi. O‘smirlar stresga qanday javob berishlari o‘zlarining o‘ziga xos psixologik fazilatlariga shuningdek ular yashayotgan ijtimoiy vaoilaviy muhitga bog‘liq. Stres reakitsiyalarining oziga

bo‘lgan ishonch, o‘zini anglash darajasi va qarama qarshiliklarga bo‘lgan munosabatlarida aks etadi .

Stressga qarshi reaksiya bildirish usullari turlicha bo‘lishi mumkin ularning asosiy turlari quyidagilardir. Emotsional reaksiya O‘smirlar ko‘pincha stressli vaziyatlarda kuchli hissiyotlarni boshdan kechirishadi. Bu hissiyotlar o‘z ichiga xavotir g‘azab o‘ksish qayg‘u va qo‘rquvni oladi, o‘smirlarning emotsional reaksiyalari ko‘pincha haddan tashqari bo‘lishi mumkin, chunki ular o‘z his tuyg‘ularini to‘g‘ri ifodalashni o‘rganishda davom etadilar.

Stressning fiziologik belgilariga yurak urishi, nafas qisqarishi, bosh og‘rig‘i va boshqa ko‘plab jismoniy alomatlar kiradi. O‘smirlar ba’zida o‘zlarining jismoniy holatini sezmasliklari yoki bu alomatlarni nato‘g‘ri talqin qilishlari mumkin. O‘smirlar bunday vaziyatlarda o‘zlarini noqulay va asabiy bo‘lib qolishlari juda ko‘p kuzatilgan

O‘smirlarning stressga qanday javob berishlari ularning ijtimoiy aloqalariga ham bog‘liq. Do‘stlar oila o‘smirning jamiyatdagi o‘rni stressga qarshi kurashishda muhim rol o‘ynaydi. Oila muhitdagi qo‘llab quvvatlash va do‘stlar bilan muloqot stressni kamaytirishi mumkin ,aksincha, ijtimoiy izolyatsiya yoki oilaviy muommolar stressni kuchaytiradi.

O‘smirlarni o‘zlariga bo‘lgan ishonchlari, o‘zlarini ijtimoiy guruhga qabul qilinshlari yoki qabul qilinmasliklari o‘z shaxsiy identifikatsiyalarini shakllantirishda muhimdir. Aksariyat o‘smirlar o‘zining ruhiy holatini va stressga bo‘lgan javobini o‘zgaruvchan ijtimoiy konteksda o‘rganiladi.

O‘smirlar stressga qanday reaksiya qilishlarini o‘rganish va unga qanday boshqaruv strategyalarini qo‘llashlari psixologik sog‘liqlari uchun muhimdir. Buning uchun o‘smirlar stressni qanday qabul qilishni va unga qanday munosabatda bo‘lishni bilshlari kerak .Bir necha samarali stresni boshqarish usullari mavjud ;

O‘smirlarning stressni boshqarish usullaridan biri o‘z his tuyg‘ularini boshqalar bilan baham ko‘rishdir. Bu esa qo‘llab quvvatlashni olish va stressni kamaytirish uchun samarali vositalar hisoblanadi. Organizm o‘sishidagi sakrashlar, endokrin tizimdagi o‘zgarishlar, gipofiz faoliyatidagi faollik, jinsiy voyaga etish, yurak, mushak, butun organizmning mustahkamlanishi insonning psixik, aqliy va ruhiy o‘sishida muhim o‘zgarishlarga olib keladi.

Shunga qaramay, o‘smirlik davridagi «tanglik»ni tushuntirishdagi nazariy fikrlar taraqqiyoti shunday umumlashmani yuzaga keltiradiki, unga ko‘ra, o‘smirlik davrining namoyon bo‘lishi va o‘tishi hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlar, o‘smirning rivojlanishi, uning kattalar olamidagi mavqeiga bog‘liq.

O‘smirlar o‘z vaqtlarini to‘g‘ri taqsimlash va o‘zlarining turli majburiyatlariga moslashishga o‘rganishlari kerak. O‘zini endi bola emas, katta

deb his qilish, katta bo‘lishga harakat qilish o‘smir shaxsiyatidagi markaziy va spesifik yangilik hisoblanadi.

Kattalik hissi deb ataluvchi xususiyatning o‘ziga xosligi shundaki, o‘smir o‘zining bola ekanligini inkor etadi. Garchi atrofdagilar uni katta deb e’tirof qilishini istasa-da, o‘smirda hali unda haqiqiy va to‘laqonli kattalik hissi yo‘q.

Spesifik yangidan shakllanish sifatida kattalik hissi – shaxsning asosiy xususiyatidir. Chunki u o‘smirning o‘ziga, odamlar va dunyoga munosabatida yangi hayotiy nuqtai nazarni ifodalaydi, uning ijtimoiy faolligi, bir me’yor va qadriyatlardan boshqasiga – bolalarnikidan kattalarnikiga moslashishdan iborat spesifik yo‘nalishni belgilaydi.

O‘smirning kattalarga o‘xshashga urinishi tashqi tomondan ular kabi bo‘lish, kattalar hayoti va faoliyatining ayrim taraflariga qo‘shilishda kattalar xislatlari, malakalari, xulqlari, mavqelarini o‘zlashtirishga harakat qilishida namoyon bo‘ladi.

X u l o s a

O‘smirning yangi huquqlarga da’vosi, avvalo, kattalar bilan o‘zaro munosabatlarning butun muhitiga oid bo‘ladi. O‘smir avval bajonidil bajaradigan talablarga endi qarshilik ko‘rsata boshlaydi, uning mustaqilligini cheklashganda, vasiylik qilishganda, yo‘naltirishganda, nazorat qilishganda, quloq solishni talab qilishganda, jazolashganda, uning qiziqishlari, munosabatlari va fikrlari bilan hisoblashishmaganda u xafa bo‘ladi va norozilik bildiradi.

O‘smirlarda stressogen vaziyatlarga reaksiya psixologik jihatdan murakkab bo‘lib, ularning emotsional va kognitv reaksiyalari shuningdek ijtimoiy va oilaviy omillar bu jarayonda katta ahamiyatga ega o‘smirlar stressni qanday boshqarishni o‘rganishlari zarur, chunki bu ularga o‘z ruhiy va jismony salomatliklarini saqlashda yordam beradi. O‘smirlarning stressga bo‘lgan munosabatini rivojlantirish ularga samarali qo‘llab quvvatlash va stressni boshqarish usullarini o‘rgatish hayotda muvaffaqqiyatli bo‘lishlariga ko‘maklashadi.

Foydalanigan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining qonuni Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida Senat tomonidan 2016- yil 24-avgustda ma’qullangan 4-moddasida

2. IsmoilovaN.Z.https://interscience.uz/index.php/home/article/download /3156/28 87

3. Beshimova D.R. Stressli vaziyatlardan himoyalanishning psixologik xususiyatlari Psixologiya ilmiy jurnali 2020 yil,109-115 b.

4. S.Usmonova https://interscience.uz/index.php/home/article/download / 3684/3438/8738

XORIJIY NUTQNI IPT ORQALI O‘ZLASHTIRILISHINING ONTOGENETIK PRINSIPLARI

Axmedov Shavkat Asadilloyevich

Toshkent amaliy fanlar unverstite assistant o‘qituvchisi

shavkatakhmedov3838@gmail.com

Annotatsiya: Nutq faoliyatidagi har bir kognitiv jarayon (diqqat, qabul qilish, tasavvur qilish, hislar, ijodkorlik va boshqalar) va psixosensor bog‘lanmalarni ishlab chiqish bo‘yicha mashqlar albatta ishtirok etishi kerak. IPTning xos xususiyati shundaki, unda o‘quvchilar faqat ishlayotgan tilda muloqotga kirishib, ammo ular bilan ishlash jarayonining psixologiyasiga asoslangan tarzda ham o‘rganishadi. Bu esa bolaga tilni o‘zlashtirish imkonini yaratadi. Bola tilni o‘zlashtirar yekan o‘z navbatida nutq xam rivojlanib boradi. Yangi tilni o‘rganish, natijada, aniq bir yodlash usuli bo‘lmasdan, balki dinamik, emotsional va kognitiv jarayonlar orqali amalga oshirilishi kerak. IPTda ishlash insonning psixikasiga va o‘zlashtirish jarayoniga to‘liq integratsiyalanadi.

Kalit so‘zlar: Integrativ psixolingvistik trening (IPT), nutq, psixolingvistika, Trening, kognitiv diqqat, qabul qilish, tasavvur qilish.

Nutq har doim insonning faoliyatiga kiritilgan. A.N. Leontevning fikricha, faoliyat – bu ehtiyojlar tomonidan qo‘zg‘atilgan harakat shakli. Bu – maqsad va ob’ektga ega bo‘lgan, motivlar bilan boshlanadigan harakatlar yig‘indisidir. L.S. Vыgotskiy nutq faoliyatini quyidagi bosqichlarga bo‘lib tushuntirgan: orientirovka, reja tuzish, uni amalga oshirish va nazorat qilish.

Nutqni o‘qitish jarayoni, bizning fikrimizcha, shaxsni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni bo‘lib, o‘qitishda yangi psixolingvistik usullarning qo‘llanilishi kerak. Agar o‘qitishda tizimli va kompleksli yondashuvlar ishlatiladigan bo‘lsa, natija yuqori samarali bo‘ladi. Integrativ psixolingvistik treningga asoslangan o‘qitish usullari har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini inobatga olib, ularning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va insonning psixik kuchini maksimal darajada ishga soladi.

Nutq faoliyatidagi har bir kognitiv jarayon (diqqat, qabul qilish, tasavvur qilish, hislar, ijodkorlik va boshqalar) va psixosensor bog‘lanmalarni ishlab chiqish bo‘yicha mashqlar albatta ishtirok etishi kerak. IPTning xos xususiyati shundaki, unda o‘quvchilar faqat ishlayotgan tilda muloqotga kirishib, ammo ular bilan ishlash jarayonining psixologiyasiga asoslangan tarzda ham o‘rganishadi.

Psixolingvistik trening psixolingvistik trening orqali o‘quvchilarda faqatgina muloqot qobiliyatlarini rivojlantirib qo‘ymaydi, balki ularni chet tilida nutq qilishga o‘rgatadi. Integrativ psixolingvistik trening (IPT) chet tilida nutq qilishni o‘rgatishning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Agar o‘yin usullari o‘qitish jarayoniga faqat o‘yinni element sifatida kiritsa, IPT usuli boshqacha. U to‘liq integratsiyalangan tizim bo‘lib, o‘zaro bog‘liq va maqsadli mashg‘ulotlar, texnika va jarayonlarni o‘z ichiga oladi, ularning barchasi kognitiv, kommunikativ va til jarayonlarining barcha tomonlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Bu treningning xos xususiyati shundaki, til insonga o‘z fikrlarini va his-tuyg‘ularini ifoda etish uchun kerak bo‘ladi. Shunday qilib, trening usulida o‘qitish muloqot shaklida amalga oshadi va o‘yin treninglari, perseptiv treninglari va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Bu turdagi treninglar chet tilida muloqot orqali shaxsiy aloqalarni o‘rnatish, o‘zaro idrok va o‘zaro tushunish strategiyasini tushunishga yordam beradi.

Yangi tilni o‘rganish, natijada, aniq bir yodlash usuli bo‘lmasdan, balki dinamik, emotsional va kognitiv jarayonlar orqali amalga oshirilishi kerak. IPTda ishlash insonning psixikasiga va o‘zlashtirish jarayoniga to‘liq integratsiyalanadi. Yaqinlashib kelgan maqsad, shuningdek, nutqni tabiiy ravishda o‘zlashtirishdir.

Kelajakda, kelgusidagi pedagogik tizimlar va metodologiyalar IPTning integrativ vositalarini o‘zlariga qabul qilib, to‘liq va samarali yo‘l bilan tilni o‘rgatishga ishlaydi. Shu bilan birga, yangi psixolingvistik usullar nafaqat nutqni, balki insonning ijtimoiy va psixologik faoliyatlarini ham rivojlantiradi.

Yangi psixolingvistik yondashuvga asoslangan o‘qitish juda katta ahamiyatga ega, chunki u gapirish jarayonini psixofiziologik va kognitiv jihatdan to‘liq qayta shakllantiradi. Bu insonning tilni egallash qobiliyatlarini rivojlantirish va ingliz tilini yoki boshqa tilni o‘rganish jarayonini tabiiy ravishda, emotsiya va affektlarning ta’sirida amalga oshirishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, psixolingvistik trening asosida yoki har qanday boshqa yangi metodika orqali o‘rganish natijalari ko‘proq yodlash bilan emas, balki o‘zini faollashtirish va harakatga keltirish bilan bog‘liq bo‘ladi.

Shuningdek, nazariy jihatdan, agar har qanday o‘quv jarayoni faqatgina tushuncha va bilimlarni yodlashga asoslansa, unda natija doimo yetarli bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, psixolingvistik treningni amalga oshirishda o‘qitish usullarining individual ko‘zga tashlanadigan xususiyatlari muhimdir, chunki ular studentlarning ihtiyojlariga, psixologiyasiga va ularning tilni o‘zlashtirishga bo‘lgan qobiliyatlariga mos kelishi lozim.

Yangi psixolingvistik usullarning muhim jihatlaridan biri shundaki, ular nafaqat tilni o‘zlashtirish, balki insonning shaxsiy rivojlanishiga, psixik va jismoniy holatlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Bularning barchasi bilish va aniqlash jarayonlariga to‘liq bog‘liq bo‘lib, insonning shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi. Shuning uchun o‘qitishni mukammallashtirish va psixolingvistik metodlarni yanada to‘liq tatbiq etish, shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash uchun ahamiyatga ega. Yana bir muhim jihat shundaki, hamma nazariy jihatlar emas, balki amaliyotga tadbiq etish jarayonida amalga oshirilgan psixologik va psixofiziologik o‘zgarishlarning natijalari ham muhimdir. Bu natijalar talabalarning bilim darajasini oshirish va jismoniy-emotsional holatini yaxshilashga qaratilgan bo‘ladi.

Ushbu usullarning pedagogik amaliyotga tadbiq etilishi mutlaqo yangi avlod pedagogikasini va o‘qitish tizimini yaratish imkonini beradi, unda har bir o‘quvchining individual qobiliyatlariga, ixtiyojlariga va psixologiyasiga mos ravishda tahsil berishga e’tibor qaratiladi. Yangi psixolingvistik yondoshuv o‘quv jarayonini faqatgina tilni o‘zlashtirishga emas, balki o‘quvchining shaxsiy rivojlanishiga ham qaratgan holda amalga oshirishga imkon beradi. Bu metodika nafaqat til qobiliyatini rivojlantirish, balki o‘quvchiga yangi psixologik va emotsional qobiliyatlarni ham qo‘shishni ta’minlaydi. Integrativ psixolingvistik trening insonning muloqotdagi qobiliyatlarini juda yuqori darajada shakllantiradi, chunki u ma’naviy va emotsional jihatdan ham rivojlanishni ko‘zda tutadi.

Ta’lim olish nafaqat bilimlar va ko‘nikmalarni egallashga, balki insonning ruhiy holatini yaxshilashga, yangicha fikrlash va his qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga ham qaratilgan. Trening o‘quvchilarga o‘zini anglash va o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishga yordam beradi, bu esa ularga jamiyatdagi munosabatlarda muvaffaqiyatga erishish imkonini yaratadi. Shuningdek, bu metodika o‘quvchilarga na faqat tilni o‘zlashtirish, balki ularni o‘zini rivojlantirish va ijtimoiy muxitda samarali faoliyat ko‘rsatishga o‘rgatishga ham yordam beradi. Tilning ijtimoiy va psixologiyalьıq maqsadi, shuningdek, u haqidagi fahm va tushunchalarni aniqlashtirish va amalda qo‘llashni ta’minlashda amalga oshiriladi. Psixolingvistik trening o‘quvchiga tilni o‘zlashtirish jarayonida emotsional va psixofiziologik jahatlarni ham o‘rganishni ta’minlaydi. Bu o‘quvchilarga tilining faol va avtomatik ishlatilishiga imkon beradi. Ushbu usul o‘quvchilarga tilni nafaqat nazariy, balki amaliy ravishda, kundalik muloqotlarda samarali qo‘llashga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pavlov I.P. Polnoe sobranie trudov. M.-L., 1949. T. 3. S. 337.
2. Shaxnarovich A.M. Grammatikaning ontogeneziga oid muammo // Bolalarning nutqiy va psixologiyaviy rivojlanishi. M., 1998. S. 34,29.
3. Gumboldt V. fon. Tilshunoslik bo‘yicha tanlangan ishlar. M., 1984. S. 29.
4. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. S.-Pb., 1999. S. 382, 552.
5. Boduen de Kurtene I.A. Umumiy tilshunoslik bo‘yicha tanlangan ishlar. M., 1963. S. 46.
6. Vьıgotskiy L.S. O‘ylash va nutq. M., 1999. S. 18-19.
7. Leontev A.N. Psixikani rivojlantirish muammolari. M., 1972. S. 303.
8. Lozanov G. Suggestopediya asoslari. Sofiya, 1973.
9. Amaliy psixologik lug‘at / Tartibga solgan S.Yu. Golovin. Minsk, 1998. S. 203.

SPORTCHILARDA MASHG`ULOT JARAYONIDA YUKLAMALARNI MIYYORIDAN ORTISHI SABABLI YUZAGA KELADIGAN SALBIY O`ZGARISHLAR

Izzatullayev Azizbek Renatulla o`g`li,
Alimjonova Sitora Yashin qizi.
Toshkent Gumanitar fanlar Universiteti

Annotatsiya: *Sportchilarda intensiv mashgulotlar davomida yuklamalarning miyyoridan ortishi miyaning ortiqcha ishlashiga, shu bilan birga jismoniy va ruhiy holatning yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Bunga kognitiv qobiliyatlarning pasayishi, stress va depressiya holatlarining kuchayishi, uyqusizlik va tiklanish jarayonining buzilishi, shuningdek, umumiy fizik holatning pasayishi kiradi. Bunday salbiy ozgarishlar sportchilarning samarali faoliyatini susaytiradi. Shuning uchun, sportchilarning tiklanish jarayonlarini yaxshilash, kognitiv va jismoniy yuklamalarni muvozanatlash va stressni boshqarish muhimdir.*

Kalit so`zlar: *mashg‘ulot, sportchilar, zo’riqish, ortiqcha, yuklama, reaksiya.*

KIRISH: Mashg‘ulot yuklamalarining hajmini aniqlashda bu xususiyatlarni inobatga olish zarur. Ma’lumki, taxminan bir xil darajaga esa sportchilar mashg‘ulot yuklamalarining standart rejimlariga har xil reaksiya qiladilar. Standart yuklama, bir tomondan, ko’proq laboratoriya sharoitidagi o’lchashlarga mos keladi, chunki mashg‘ulot sharoitlarida buni bajarish judaqiyin, ikkinchi tomondan esa, ushbu yuklama bilan kuzatiladigan psixik zo’riqishni inobatga olish zarur. Bu - ortiqcha mashqlanish, haddan ortiq toliqish va “yonib tugash” (kuyib ketish”).

ASOSIY; Ortiqcha mashqlanish mashg‘ulot jarayonining anomal cho’zilib ketishi hisoblanib, uning natijasida haddan ortiq toliqish yuzaga keladi. Ortiqcha mashqlanish o’ta shiddatli va uzoq davom etadigan mashg‘ulotyuklamalaridan foydalannilganda yuzaga keladi. Bunday yuklamalar tekshiruvchilar ularga moslashishlari uchun qo’llaniladi, bu sport natijalarining pasyishiga olib keladi. Haddan ortiq toliqish - ortiqcha mashqlanish natijasidir. Ortiqcha mashqlanishga rag‘bat sifatida, haddan ortiqcha toliqishga esa unga bo’lgan reaksiya sifatida qarash mumkin. Haddan ortiq toliqish bir qator xulq buzilishlari bilan kuzatiladi. Depressiya haddan ortiq toliqishning asosiy psixologik ta’siri hisoblanadi. Haddan ortiq toliqqan sportchi mashg‘ulot yuklamasining standart rejimiga qiyinchilik bilan bardosh beradi va shu kunga qadar ko’rsatgan natijalarini namoyish qilishga qodir bo’lmay qoladi.“Yonib tugash” (“kuyib ketish”) - murakkab psixofiziologik reaksiyabo’lib, individual, ba’zan haddan ortiq, lekin, odatda, yuqori mashg‘ulot yokimusobaqa ehtiyojlarini qondirish maqsadiga yo’naltirilgan kam samarali sa’yharakatlar bilan bog‘liq. Bir xil hajmdagi mashg‘ulot yuklamalari sportchi organizmining har xil reaksiyalarini keltirib chiqaradi. Masalan, suzishda 7 karra jahon rekordini o’rnatgan va 1972 yildagi Olimpiya o’yinlarida 7 taoltinmedalni qo’lga kiritgan Mark Spits bir kunda hech qachon 10000 yard masofadan ko’proq suzmagan, olimpiya chempioni Vladimir Salьnikov esa birkunda 20000 m. (21880 yard) masofani suzib o’tgan. Bunday yuklama hajmi aksariyat kuchli suzuvchilar

uchun haddan ortiq bo'lishi mumkin edi, lekin u buunga yuqori natijalarga erishishga imkon bergan. Bokschi vazifani shartli jangda bajarayotganda unda bir yuklama hajmibo'lsa, xuddi shu vazifani qattiq sparring sharoitlarida bajarayotganida u umuman boshqacha yuklama hajmini bajaradi. Raqib ham bir xil, vaqt chegaralari ham bir xil, lekin yuklama yuki umuman boshqacha.

Qator sport turlarida (birinchi navbatda yakkakurashlarda) mavsumning mas'uliyatli musobaqalariga tayyorlashning ko'p bosqichli jarayoni mashg'ulotlarning shunday yo'nalishda bo'lishini nazarda tutadiki, bunday mashg'ulotlarda avval umumiy jismoniy tayyorgarlik, keyin maxsus tayyorgarlik (MT) vositalari ko'proq qo'llaniladi. Shunday bo'ladiki, bu sport turlarida psixik sifatlar vaoptimal holatlar darajasini saqlab qolish zarurati funksional imkoniyatlarni hamda jismoniy tayyorgarlik darajasini o'z vaqtida oshirish zarurati bilan ziddiyatga kirishadi. Tayyorgarlikning birinchi bosqichida, UJT vositalari katta hajmda qo'llaniladigan paytda, sportchilar,odatda, "psixik tetiklik" atamasi bilan nomlanuvchi xususiyatar bilan, ya'nimashq qilish istagi bilan ajralib turadilar.Ikkinchi bosqichda UJT vositalari hamda MT hajmi hisobiga o'quvmashg'ulotlar shiddatining oshirilishi jismoniy tayyorgarlikning yaxshilanishiga va bir vaqtning o'zida eng muhim psixik funksiyalar koordinatsiyasining yomonlashishiga va ulardan eng noziklari, maxsus idrok bilan bog'liq bo'lgan funksiyalarning "dag'al lashishiga" olib keladi.Ko'pincha musobaqa oldi tayyorgarligining oxirgi bosqichidagi jismoniy yuklama me'yorlari bosimi ostida antitsipatsiya reaksiyalari ko'rsatkichlarining yomonlashishi qayd qilinadi (bu ko'rsatkichlar bokschilarning texnik-taktik tayyorgarligi ko'rsatkichlariga nisbatan ancha axborotli). Ushbu holda jismoniyva psixik tayyorgarlik o'zgarishining geteroxronlik samarasi kuzatiladi. Bu sportchida sub'ektiv tarzda texnik-taktik harakatlar sifatidan qoniqmaslikni keltirib chiqaradi, oqibatda, unda haddan ortiq psixik zo'riqish va mashg'ulotdan so'ng sekin tiklanish holati kuzatiladi. Umumiy yuklamaning kamaytirilishi, birinchi tomondan, psixik tayyorgarlikni hamda sportchilarning emotsional qulayiklarini optimallashtirishga yordam bermaydi, ikkinchitomondan, jismoniy tayyorgarlik darajasini yomonlashtiradi.

Bunday hollarda musobaqalardan ancha oldinroq UJT vositalari hajmini kamaytirish va MT vositalari shiddatini qisqa muddatga oshirish bilan birqatorda psixikani boshqarish vositalarining qo'llanilishi ko'proq samara beradi. Hatto mashg'ulot yuklamalarinig optimal rejimi bir sportchining sportnatijalari yaxshilanishiga, ayni paytda boshqasining natijalarining yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Psixikasida u yoki bu buzilishlar mavjud bo'lgan sportchilarda nevrotik holat rivojlanishi ehtimoli yuqori. Bunda jismoniy yuklama hal qiluvchi omil hisoblanadi, boz ustiga, u bir qator vaziyatlarda hajmi va shiddatiga ko'ra

mashg‘ulotda bajarilayotganidan kamroq. Agar sportchida o’z imkoniyatlari va kuchini etarlicha e’tiborga olmay, muvaffaqiyat qozonishga bo’lgan nosog‘lom intilish kuchli rivojlangan bo’lsa, unda muvaffaqiyatga duch kelgan vaziyatda og‘riqli holat yuzaga kelishi mumkin. Boshqacha aytganda haddan ortiq toliqish zamirida sportchining da’voqilish darajasi va aniq imkoniyatlari orasidagi psixologik ziddiyat yotadi. Tabiiyki, sportchilar holatiga oilaviy-maishiy vaziyatlar ham ta’sir qilishi mumkin. Bu vaziyatlar mustaqil omil sifatida kelishi yoki ishlab chiqarish omillari bilan birga ta’sir qilishi mumkin.

Zamonaviy ta’rifga ko’ra, nevroz-bu shaxsning psixogen kasalligi bo’lib,u nevrologik, somatik va emotsional buzilishlar bilan kuzatiladi. Toliqqan sportchilarda bu belgilar yaqqol ko’rinib turadi. Haddan ortiq toliqish nevrozning tez-tez uchrab turadigan holati hisoblanadi. Sportchilarda haddan ortiq toliqish alomati rivojlanishida ikkita asosiy bosqich kuzatiladi. Ular, aslida, nevrozning birinchi bosqichi hisoblanadi. Birinchi bosqich umumiy nevrotik buzilishlar bilan namoyon bo’ladi; kayfiyat o’zgaradi, uyqu buziladi (tunda uyqusizlik, kunduzi uyquchanlik), birovlarda qizishgan holat yuzaga keladi, ular atrofdagilarga nisbatan o’ta talabchan bo’lishi, turmushdagi mayda narsalarga ham o’ta hayojonli reaksiya qilishga moyillik bilan ajralib turadilar. Boshqalarda, aksincha, lanjlik, befarqlik , mashqqilish istagining yo’qolishi kuzatiladi. Ko’pincha bosh og‘rishiga shikoyatlarpaydo bo’ladi. Sportchilar uchun xos bo’lgan xulq - bu o’z holati, alomatlarining dissimulyasiyasi, kayfiyati yomonlashganligini yashirish istagidir. Sportchi faqatgina murabbiyga yoki shifokorga ishonch bildirsagina, ular sportchiga e’tibor qilishsagina, kasallikning boshlanishini aniqlash mumkin bo’ladi. Haddan ortiq toliqqan va ortiqcha mashq qilib yuborgan sportchilarda emotsional holat buzilishining yuzaga kelish xavfi juda yuqori. Bu sport faoliyati darajasining pasayishiga va sportni tashlab ketishga olib kelishi mumkin.Shuning uchun o’qituvchi-murabbiylar har bir sportchining mashg‘ulotva musobaqa yuklamalari darajasini sinchkovlik bilan nazorat qilib borishlari lozim. Mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish va bu davrda tegishli davolashishlari boshlangan kasallikni to’liq va tezda bartaraf etishga imkon yaratadi. Agar zarur choralar ko’rilmasa, birinchi bosqich tezda ikkinchi bosqichga,birinchi alomat paydo bo’lishi bosqichigao’tib ketadi. Bu paytda u yoki buorgan funksiyasida buzilishlar mavjudligi aniqlangan.

Psixik chidamlilik va tiklanish: Psixadiagnostika vazifalaridan biri o’quv-mashg‘ulot jarayonini samarali boshqarish uchun sportchining toliqish va haddan ortiq toliqish holatidarajasini aniqlashdan iborat. Psixik yuklama” “psixik chidamlilik” (uzoq va shiddat bilan davometadigan yuklamalarga nisbatan chidamlilik) hamda “psixik tiklanish tushunchalarini farqlash zarur. Psixik chidamlilik va psixik tiklanish har qandayholatda ham psixik yuklama bilan

bog‘liq.Ma’lumki, boks katta jismoniy va psixik yuklamalar bilan ifodalanadigan keskin vaziyatli emotsional sport turlari qatoriga kiradi. Bokschilar bitta turnirdabir kunlik dam olish tanaffusi bilan ko’pincha 5-6 ta musobaqa janglarinio’tkazadilar. Musobaqalar - bu sport mahoratini oshirish metodlaridan biri. Musobaqalarnig o’ziga xos qirralari - bu shug‘ullanuvchilarning jismoniy mashqlar vaatrof - muhitga nisbatan alohida emotsional munosabatidir. Musobaqalardan so’ng sportchilar organizimida qanday o’zgarishlar sodir bo’ladi, tiklanish uchun qancha vaqt kerak, sportchining psixik va psixomotor funksiyalari qanday o’zgaradi - shu va boshqa masalalar o’qituvchi – murabbiyni qiziqtiradi, ular ayniqsa bokschilar tayyorgarlik tizimining ko’pyillik davrida musobaqalar seriyasida o’ta dolzarb hisoblanadi. Mashg‘ulot va musobaqa yuklamalaridan keyin inson organizmining turlitizimlari hamda funksiyalari geterexron tarzda tiklanishini e’tiborga olgan holda asosiy psixomotor funksiyalardan qaysilari, qay darajada va qanday ketmaketlikda tiklanish jarayonida o’zgarishlarga duch kelishini bilish kerak.

XULOSA.

Ayni paytda musobaqalarda tez-tez ishtirok etishularni holdan toydiradi, ularning salomatligiga ham, sport natijalariga ham salbiy ta’sir ko’rsatadi. Ma’lumki, bokschilar ko’p kunlik yig‘inlar sharoitlarida uzoq vaqtdavomida, ikki martalik (bir kunda) mashg‘ulotlarga nisbatan oson bardosh beraoladilar. Bunday yig‘inlarda ular bajaradigan mushak ishi hajmi va shiddati bitta mashg‘ulot ichida bir musobaqa jangidagi jismoniy yuklamaga yaqinlashadi,ba’zan esa undan ham oshadi.Sportchilar uchun xos bo’lgan xulq - bu o’z holati, alomatlarining dissimulyasiyasi, kayfiyati yomonlashganligini yashirish istagidir. Sportchi faqatgina murabbiyga yoki shifokorga ishonch bildirsagina, ular sportchiga e’tibor qilishsagina, kasallikning boshlanishini aniqlash mumkin bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Слабинский В.Ю. Основы психотерапии: практическое руководство / В.Ю.Слабинский.-СПб: Наука и техника, 2008.
2. Сластенин, В.А. Введение в педагогическую аксиологию: Учеб. пособие для студентов вузов / В.А.Сластенин, Г.И.Чижакова,-М.:Изд.сентр ,,Академия”
3. ШакиржановаК.Т., Енгил атлетика аҳолини соғломлаштириш воситаси сифатида. /услубийқўлланма. – Т.: 2011 й.
4. Юнусова Ю.М. “Теоритические основы физической культуры испорта” учебное пасобие для студентов висшоих учебных заведений.
5. Юнусова Ю.М. «Теория и методика физической культуры» учебное пасобие для студентов висшоих учебных заведений Т. «Иқтисод молия».2007 г

O‘QUVCHILARDA XAVOTIRLANISH HISSI YUZAGA KELISHINING QO‘RQUV HOLATI BILAN BOG‘LIQLIGI

Y.E.Sobirov

TAFU katta o‘qituvchisi

sobirovyangiboy@gmail.com

Annotatsiya: *Xavotirlanish va qo‘rquv o‘quvchining psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, uning o‘zlashtirish qobiliyatini pasaytirishi, motivatsiyasini yo‘qotishi va hatto jismoniy salomatligiga zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun, o‘quvchilarda xavotirlanish hissi yuzaga kelishining qo‘rquv holati bilan bog’liqligini o‘rganish, bu muammoning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘z: *xavotirlanish, qo‘rquv, ijtimoiy stereotiplar, posttravmatik stress, bullying, ijtimoiy izolyatsiya.*

Bugungi kunda ta’lim tizimi o‘quvchilarga katta yuklamalar qo‘yilmoqda. Yuqori baholar olish, imtihonlarga tayyorgarlik ko‘rish, raqobatbardosh muhit va kelajakka ishonchsizlik kabi omillar o‘quvchilarda doimiy stress va xavotirni keltirib chiqaradi. Bu xavotirlanishlar ko‘pincha qo‘rquv holatlari bilan bog’liq bo‘lib, o‘quvchining psixologik farovonligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, o‘quvchilarda xavotirlanish va qo‘rquvning sabablarini aniqlash, ularning ta’sirini kamaytirish va o‘quv jarayonini yanada qulay va samarali qilish zarur.

Xavotirlanish va qo‘rquv - inson psixikasining ajralmas qismi bo‘lgan emotsional holatlardir. Garchi ular ko‘pincha sinonim sifatida ishlatilsa-da, ular o‘rtasida muhim farqlar mavjud.

Xavotirlanish - bu noaniq, kelajakka yo‘naltirilgan, tahdidning aniq manbai bo‘lmagan emotsional holatdir. Xavotirlanish odatda tashvish, tashvishlanish, doimiy o‘ylanish va ichki notinchlik hissi bilan birga keladi.

Qo‘rquv - bu aniq, hozirgi zamonga yo‘naltirilgan, aniq manbai bo‘lgan emotsional holatdir. Qo‘rquv odatda qochish, yashirinish yoki kurashish instinktini keltirib chiqaradi [1].

Xususiyat	**Xavotirlanish**	**Qo‘rquv**
Yo‘nalish	Kelajakka	Hozirgi zamonga
Manba	Noaniq	Aniq
Intensivlik	O‘rtacha	Yuqori
Muddati	Uzoqroq	Qisqaroq
Xulq-atvoriy javob	Doimiy o‘ylanish, tashvishlanish	Qochish, yashirinish, kurashish

Xavotirlanish va qo‘rquvning yuzaga kelishida miyaning limbik tizimi, xususan, amigdala (qo‘rquvni qayta ishlovchi markaz) muhim rol o‘ynaydi. Amigdala tahdidni aniqlaydi va gipotalamusga signal yuboradi, bu esa “kurash yoki qochish” reaksiyasini faollashtiradi. Ushbu reaksiyaning natijasida organizmda bir qator fiziologik o‘zgarishlar yuzaga keladi: yurak urishi tezlashadi, qon bosimi ko‘tariladi, nafas olish tezlashadi, mushaklar taranglashadi. O‘quvchilarda xavotirlanish va qo‘rquvning sabablariga bir qancha omillar sabab bo‘lishi mumkin.

1. Imtihonlar va baholash: Imtihonlar oldidan stress, yuqori baho olish uchun bosim, baholash natijalaridan qo‘rqish.
2. O‘qituvchilarning talablari: O‘qituvchilarning yuqori talablari, tanqid, jazolashdan qo‘rqish.
3. Vaqt yetishmasligi: Vazifalarni bajarish uchun vaqt yetishmasligi, darslarga ulgurmaslik xavotiri.
4. Qiyin materiallar: Materiallarni tushunmaslik, o‘zlashtira olmaslik qo‘rquvi.
5. Noto‘g’ri o‘qitish uslublari: O‘qituvchilarning qiziqarsiz yoki tushunarsiz dars o‘tishi.
6. Raqobat: Sinfdoshlar o‘rtasida raqobat muhiti [2].

Albatta yuqorida keltirilgan sabablardan tashqari yan bir qancha ijtimoiy sabablarni ham misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

1. Tengdoshlar bilan munosabatlar: Bullying, ijtimoiy izolyatsiya, tengdoshlar tomonidan qabul qilinmaslik qo‘rquvi.
2. Ijtimoiy taqqoslash: O‘zini boshqalar bilan taqqoslash va o‘zidan norozi bo‘lish.
3. Oila bosimi: Ota-onalarning yuqori talablari, oiladagi kelishmovchiliklar.
4. Ijtimoiy stereotiplar: Gender, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi bo‘yicha kamsitilish.
5. Ijtimoiy notinchlik: Ijtimoiy adolatsizlik, urushlar, terrorchilik tahdidlari.

O‘zi bilan munosabatlarda quyidagicha xususiyatlarda ko‘riladi.

1. O‘ziga ishonchsizlik: O‘z qobiliyatlariga ishonmaslik, past o‘zini baholash.
2. Mukammallikka intilish (perfeksionizm): Har doim eng yaxshi bo‘lishga intilish, xatolardan qo‘rqish.
3. Tashvishga moyillik: Tug’ma tashvishga moyillik, nevrotiklik.
4. O‘tmishdagi salbiy tajribalar: Maktabda yoki hayotda yuz bergan salbiy voqealar.
5. Jismoniy salomatlik muammolari: Surunkali kasalliklar, uyqusizlik, noto‘g’ri ovqatlanish.

Xavotirlanish va qo‘rquvning psixologik, fiziologik ta’siri depressiya (kayfiyatning tushkunligi, qiziqishning yo‘qolishi, umidsizlik), xavotirlik

buzilishlari (doimiy tashvish, vahima hurujlari, ijtimoiy xavotirlik), obsessiv-kompulsiv buzilish (OKB): (Majburiy o‘ylar va harakatlar), posttravmatik stress buzilishi (PTSB) **(**Travmatik voqealarni qayta boshdan kechirish, tashvish, uyqusizlik), O‘zini o‘ldirish fikrlari (Hayotdan ma’no topmaslik, o‘zini o‘ldirishni o‘ylash), o‘zlashtirishning pasayishi **(**Diqqatni jamlay olmaslik, xotiraning buzilishi, o‘qish va yozishda qiyinchiliklar), motivatsiyaning yo‘qolishi **(**darslarga qiziqmaslik, vazifalarni bajarmaslik, maktabga bormaslik), Imtihonlarda past natijalar **(**Imtihon oldidan stress, xavotir tufayli bilimni eslay olmaslik), maktabni tashlab ketish (uzoq muddatli xavotirlik va qo‘rquv natijasida maktabni tashlab ketish). Bundan tashqari bosh og’rig’i, oshqozon-ichak muammolari, uyqusizlik, immunitetning pasayishi, surunkali kasalliklarning rivojlanishi [3].

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki o‘quvchilarda xavotirlanish hissi yuzaga kelishining qo‘rquv holati bilan bog’liqligi - bu ta’lim tizimida jiddiy muammo bo‘lib, o‘quvchilarning psixologik farovonligiga, o‘zlashtirish qobiliyatiga va jismoniy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xavotirlanish va qo‘rquvning sabablari turli xil bo‘lishi mumkin: o‘quv jarayoni bilan bog’liq omillar, ijtimoiy muammolar va shaxsiy xususiyatlar. Ushbu muammoni hal qilish uchun maktab, ota-onalar va o‘quvchilar birgalikda harakat qilishlari kerak. Maktabda psixologik xizmatni kuchaytirish, o‘qituvchilarning rolini oshirish, o‘quv dasturini moslashtirish, ijobiy muhit yaratish va bullyingga qarshi kurashish zarur. Ota-onalar farzandlari bilan o‘zaro ishonchga asoslangan munosabatlar o‘rnatishlari, ularni qo‘llab-quvvatlashlari va o‘z vaqtida yordam ko‘rsatishlari kerak. O‘quvchilar o‘zini-o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari, ijobiy fikrlashlari, maqsadlarni belgilashlari, dam olishlari, jismoniy faol bo‘lishlari va sog’lom turmush tarziga rioya qilishlari kerak. Ushbu strategiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarda xavotirlanish va qo‘rquvni kamaytirish, ularning psixologik farovonligini oshirish va o‘quv jarayonini yanada qulay va samarali qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. American Psychiatric Association. (2013). *Diagnostic and statistical manual of mental disorders (5th ed.)*. Beck, A. T., Emery, G., &
2. Sobirov, Y. (2023). O‘smirlarda xavotirlanish hissi paydo bo‘lishining psixologik aspektlari. *Евразийский журнал академических исследований*, *3*(4 Special Issue), 142-146.
3. Sobirov, Y. E. O. G. L. (2022). O’smirlarda xavotirlanish hissi namoyon bo’lishining diniy-psixologik omillari. *Academic research in educational sciences*, (Conference), 219-222.

SPORTCHILARDA STRESS VA HADDAN ORTIQ TOLIQISH HOLATLARINI OLDINI OLISH METODLARI.

Izzatullayev A.R., Alimjonova S.Y.

Toshkent gumanitar fanlar universiteti

Annotatsiya: *Mashg‘ulot yig‘inlari sharoitlarida, ayniqsa mas’uliyatli musobaqalardavrida sportchilarning turmushi va dam olishini tashkil qilish masalasi aloxidae’tiborga molik. Murabbiyning yo’naltiruvchi roli oqilona boshqarishda,sportchining faol dam olishini tashki qilishda, uni oldindagi musobaqalarto’g‘risida miyasigao’rnashib qolgan fikrlardan chalg‘itish ko’nikmasidanamoyon bo’lishi zarur. Bunda xayotning butun xursandchiliklaridan to’liq vozkechish pozitsiyasi ham, sportchiga to’la erkinlik berish tizimi ham birdekzararlidir*

Kalit so`zlar: *jimsmoniy, sport, psixik, tayyorgarlik, murabbiy.*

KIRISH: Psixik va jimsmoniy yuklamalar me’yorlarining sportchi organizmiga“qisqa” va “uzoqroq” vaqt mobaynida ta’sir qilishini inobatgaolmasdan o’quvmashg‘ulot jarayonini samarali boshqarib bo’lmaydi. Moslashish jarayonlarimexanizmlarini va kumulyativ samara xususiyatlarini bilmaslik sportchilarnio’ta zo’riqish, haddan ortiq tolliqish, ortiqcha mashqlanish kabi holatlargaolibkelishi mumkin.Sport mashg‘uloti mezotsiklida (kattassiklida) o’quv-mashg‘ulotjarayonidagi psixik va jismoniy sifatlar dinamikasini e’tiborgaolish haddanortiq toliqish vaortiqcha mashqlanish kabi holatlarni oldini olishga yordam beradi.Bunda faol dam olishdan tayyorgarlik vositasi sifatida foydalanish shart.Bu holatning oldini olish uchun qator tadbirlar kompleksini qo’llash zarur.

ASOSIY: Sportchilarda haddan ortiq toliqish yuzaga kelishida psixologik va biologicmexanizmlar muhim rolьo’ynaydi, uni bartaraf etish va davolash komplekshol daamalgaoshirilishi kerak. Tadbirlar psixoterapiya, farmokoterapiyametodlari, tashkiliy va psixologik tadbirlar, jamoa shifokori va psixologiningindividual kuzatuvlarini o’z ichigaolishi kerak.Shu bilan birga, aytib o’tilgan metodlarning ahamiyatlilik darajasinitushungan holda bu zanjirdagi birinchi zveno to’g‘risida esdan chiqarmasliklozim. Bu murabbining ishtiroki, uning sportchiga yaqin bo’lgan inson sifatidagiroli vaahamiyati birinchi darajalidir.Aynan murabbiy, o’z shogirdlarini yaxshi biladigan inson sifatida,sportchi xulqidagi xususiyatlarni o’z vaqtida sezishi, unga maksimal natijako’rsatishga to’sqinlik qilayotgan chetlanishlarni aniqlashi mumkin.Murabbiy, asab-psixik holatning o’zgarishini sezib, sportchini uninguchun muhim bo’lgan pallada qullab-quvatlash imkoniyatiga ega.Muvaffaqiyatsiz ishtirok etish, raqibning yaqqol ustunligida boy berilgan jangva boshqalar sportchi uchun (murabbiy uchun ham) salbiy emotsiyalarni keltiribchiqaradi. Muhimi, bu paytda sportchi yolg‘iz qolmasligi zarur. Henschen(1992) o’z tadqiqotlarida musobaqaoldi stress holati darajasini

kamaytirishibo’yicha murabbiylar uchun tadbirlar tizimini taklif qiladi. Murabbiy zarurhollarda shogirdining og‘riqli holati ko’rinishlarini engib o’tishga yokiengillashtirishga yordam berishi, asosiy davolash sifatida uning oldigaaniqvazifalar qo’yishi mumkin. Shu narsa muhimki, murabbiy o’quv-mashg‘ulotjarayonini o’tkazish bilan birga sportchi shaxsini tarbiyalashga, unda mavjudbo’lgan chetlanishlarni tuzatishga etarlicha e’tibor qaratishi kerak. Birinchinavbatda, sportchida har qanday hayotiy va sportdagi vaziyatlarga, ayniqsamag‘lubiyatlarga munosib reaksiya qilish ko’nikmasini hosil qilish, undajangovar sifatlarni tarbiyalash zarur, chunki aynan ular maksimal sport natijasigaerishishga safarbar qilishga imkon yaratadi. Ayniqsa, murabbiyningmusobaqalardan oldin va raundlar o’rtasidagi sekundantlik qilish boshidagioqilona taktikasi juda muhim. Murabbiy shuni yodda tutishi kerakki, uningemotsiyalari, ishonchsizligi, xavotirlanishlari shogirdigao’tadi. Jangga shaylash va jangning taktik rejasini tuzish aniq va lo’nda bo’lishi, shaxsiy imkoniyatlarhamda raqib kamchiliklarini e’tiborgaolgan holdaamalgaoshirilishi lozim.Kamchiliklarni ko’rsatish va ko’rsatmalar berish qisqa hamdaaxborotli(tushunarli) bo’lishi kerak. Raundlar orasidao’quvchiga ko’p maslahatlar berishvao’zi asabiylashishi kerak emas. Ayniqsa, murabbiyning musobaqadan keyingxulqi juda muhim. Oqilona yondashuv, yo’l qo’yilgan hatolarni tahlil qilish vaularni bartaraf etish istiqbollari sportchigaasabiylashishga imkon bermaydi(ayniqsa, muvaffaqiyatsiz o’tkazilgan startda). Undan tashqari, sportchini o’zmuvaffaqiyatini yuqori baholab yubormaslikkao’rgatish zarur. “Yulduzlikkasali”, murabbiy va shifokorning tavsiyalariga bepisand bo’lish, odatda, qatormuvaffaqiyatsizliklarga tezdaolib kelishi mumkin. Bu ham nevrozningrivojlanishiga yordam beradi.Sportchilarda musobaqadan keyingi stress holati darajasini kamaytirishyo’llari:

1. Musobaqa tugashi bilanoq ijobiy (saqlab turuvchi) muhitni ta’minlash.
2. O’zining emas balki sportchilarning emotsional holatiga diqqatnijamlash.
3. Musobaqalardan so’ng jamoa bilan bo’lishga intilish.
4. Har bir sportchining harakatlarini aniq baholashni ta’minlash
5. Jamoaning barchaa’zolari, jumladan musobaqalarda ishtirok etmaganbokschilar bilan suhbatlashish.
6. Uchrashuv, jang, musobaqalardan so’ng jamoaning barchaa’zolariningo’zaro faoliyatini ta’minlash (masalan, butun jamoa bilan kechqurungiovqatlanish, kinoga borish va x.k.).
7. Musobaqalardan so’ng sportchilarni ota-onalari va do’stlaridan alohidajoylashtirsh.
8. Jamoaa’zolarigao’z muvaffaqiyatidan shodlanishga yoki mag‘lubiyatsababli depressiyaga tushishga yo’l qo’ymaslik.

9. Keyingi mashg‘ulotdanoq navbatdagi raqib bilan bellashuvgapsixologik tayyorgarlik ko’rishni boshlab yuborish.

Mashg‘ulot yig‘inlari sharoitlarida, ayniqsa mas’uliyatli musobaqalardavrida sportchilarning turmushi va dam olishini tashkil qilish masalasi aloxidae’tiborga molik. Murabbiyning yo’naltiruvchi roli oqilona boshqarishda,sportchining faol dam olishini tashki qilishda, uni oldindagi musobaqalarto’g‘risida miyasigao’rnashib qolgan fikrlardan chalg‘itish ko’nikmasidanamoyon bo’lishi zarur. Bunda xayotning butun xursandchiliklaridan to’liq vozkechish pozitsiyasi ham, sportchiga to’la erkinlik berish tizimi ham birdekzararlidir, chunki hamma sportchi ham erkin kun tartibidan oqilonafoydalanishni bilmaydi.Toliqishning oldini olishda mashg‘ulot jarayonini to’g‘ri tashkil qilishmuhim axamiyatga ega. Uning majburiy sharti shundaki, unda bajariladiganyuklamalar sportchining har bir muayyan vaqt orasidagi funksionalimkoniyatlarini inobatgaolgan holda individuallashtirilishi zarur.Bunda yoshga bog‘liq bo’lgan fiziologik xususiyatlarni ham e’tiborgaolish lozim. Zamonaviy tayyorgarlik tizimi sharoitlarida, ya’ni hajmi va shiddatigako’ra katta yuklamalarni qo’llash va kun davomida 2-3 mahal mashg‘ulotlarnio’tkazish jarayonlarida tiklanish tadbirlari tizimi juda kattaahamiyatga ega.Bunday tadbirlarning samaradorligi, agar ular kompleks holdaamalgaoshirilsava pedagogik, tibbiy-biologik va psixologik vositalarini o’z ichigaolsa, judayuqori bo’ladi.Sportchilarga tushadigan psixologik zo’riqishni oldini olish va kamaytirshsifatida R.S.Uaynberg va D.Gould qo’yidagi choralarni ko’rishni tavsiyaqiladilar:

1.Qisqa muddatli musobaqa va mashg‘ulot maqsadlarini aniqlash. Bunafaqat sportchi to’g‘ri yo’lda ekanligidan dalolat beruvchi teskari aloqanita’minlaydi, balki uzoq muddatli motivatsiyani oshiradi.

2. Muloqot. Murabbiylar, sportchilar, hakamlar, jamoa rahbarlarigao’zhissiyotlarini jamoadoshlari, hamkasblari bilan o’rtoqlashishi tavsiya qilinadi.Siz salbiy hissiyotlarni o’z hamkasblaringiz bilan o’rtoqlashsangiz, ular sizdayuzaga kelgan muammoning oqilona echimini topishga yordam berishlarimumkin.

3.“Taym-aut”lardan foydalanish Psixik jismoniy xotirjamlikni ta’minlashuchun “taym-aut”lar olish, ya’ni ish va boshqa yuklamalardan dam olish judamuhim. Sportchi qancha ko’p mashq qilsa, shuncha yaxshi, degan afsona haliham sport olamida keng tarqalgan. Shu bilan birga, xar kunlik mashg‘ulot vamusobaqa faoliyati psixik hamda jismoniy toliqishgaolib keladi.

XULOSA.

Zamonaviy tayyorgarlik tizimi sharoitlarida, ya’ni hajmi va shiddatigako’ra katta yuklamalarni qo’llash va kun davomida 2-3 mahal mashg‘ulotlarnio’tkazish

jarayonlarida tiklanish tadbirlari tizimi juda kattaahamiyatga ega.Bunday tadbirlarning samaradorligi, agar ular kompleks holdaamalgaoshirilsava pedagogik, tibbiy-biologik va psixologik vositalarini o’z ichigaolsa, judayuqori bo’ladi.Qisqa muddatli musobaqa va mashg‘ulot maqsadlarini aniqlash. Bunafaqat sportchi to’g‘ri yo’lda ekanligidan dalolat beruvchi teskari aloqanita’minlaydi, balki uzoq muddatli motivatsiyani oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сорокин О.В. Хаданов А. И. Куликов В.Ю. Коротков К.Г. Фотоелектронная (грв) эмиссия как отражение микроциркуляторных флуктуаций. // Медицина и образование в Сибири. №5 2010.
2. Специальная педагогика:учеб.пособие для студ.высш.пед.учеб.заведений / Под.ред. Н.М.Назаровой.- М.:Издательский центр ,,Академия”-2004.
3. Специальная педагогика:учеб.пособие для студ.высш.пед.учеб.заведений / Под.ред. Н.М.Назаровой.- М.:Издательский центр ,,Академия”-2004.
4. Теория и организация адаптивной физической культуры: учебник в 2-х томах., т.1: Введение в специалность. История, организация и обшая характеристика адаптивной физической культуры / Под обшей ред.проф.С.П.Евсеева.-3-е изд.центр.и доп.-М.:Советский спорт,2005.
5. Усмонходжаев Т.С. Мелиев Х.А. Болаларнинг асосий ҳаракат фаолиятига оид машқлар ва уларни ўргатиш услубиёти. Т.

BO‘LAJAK OFITSER KADRLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA MILLIY QAHRAMONLARIMIZNING O‘RNI

dotsent *Idiyev E.I.*, dotsent *Sotvoldiyev I. I.*,

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada berilgan ma’lumotlar, kursantlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qahramonlarimizning o‘rnini keng yoritib beradi. Pedagogik jarayonda vatanparvarlik tarbiyasining millatimiz qahramonlari bilan bog‘liqligiga ishora sifatida foydalanish mumkinligini anglatadi. Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash har qanday jamiyatda ham yechimi zarur bo‘lgan muammo sifatida qarab kelingan. Zero faqatgina vatanparvarlik ruhida tarbiya topgan, ma’nan etuk yoshlargina haqiqiy kelajak quruvchilari sanaladi.*

Kalit so‘zlar: *Vatanparvarlik, mafkura, g‘oya, millat qahramonlari, jamiyat, yoshlar, harbiy ta’lim.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev o‘zining "Yangi O‘zbekiston strategiyasi" kitobida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tushunchasining

haqiqiy ilmiy talqinini bayon qiladi va yangi O‘zbekiston qurilishi sharoitida vatanparvarlikning chuqur ma’naviy ma’nosini ochib beradi: "Buyuk kelajakka ega davlatni shakllantirish g‘oyasi faqat yuksak axloqiy fazilatlar, chuqur vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan kuchli, yosh avlodning qo‘lida". Ushbu tarixiy vazifaga erishishda yuksak ma’naviyatning ichki manbai - milliy g‘oya yotadi.

XXI asr shiddat bilan o‘zgarayotgan nanotexnologiyalar asri sifatida e’tirof etiladi. Jahonning mafkuraviy manzarasida aholining turli qatlamlari manfaatlarini himoya qiluvchi g‘oyalarning shakllanishiga zarur sharoit yaratishga e’tibor berish tendensiyalari kuzatilmoqda. XXI asrning mafkuraviy maydonlaridagi siyosiy raqobat, yadro poligonlaridan ham shiddatliroq tus olayotganligini kuzatishimiz mumkin. Jahondagi rivojlangan davlatlar, o‘z ta’sir doiralarini kengaytirish orqali, rivojlanayotgan davlatlarga har tomonlama ta’sir o‘tkazishlari, o‘zlarining geosiyosiy manfaatlarini ko‘zlab, demokratiya niqobi ostida harakat qilayotganliklarini kuzatishimiz mumkin. Har bir jamiyatning to‘liq shakllanmagan qatlami bu yoshlar hisoblanadi. Turli oqimlar, o‘zlarining buzg‘unchi g‘oyalarini yoshlar ongiga singdirishlari uchun keng ko‘lamli imkoniyatlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilishi kuzatilmoqda.

Dunyodagi rivojlangan davlatlar, xalqaro raqobat shartlariga kirib borayotgan bir paytda, yoshlarni yuksak ma’naviy axloqli, vatanparvar qilib tarbiyalash, mafkuraviy tahdidlardan asrash, ularda Vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish kabi jihatlarni shakllantirishda millatimiz qahramonlarining hayot yo‘llari, ularning tarix zarvaraqalarida qoldirgan izlari etakchi o‘rin egallamog‘i darkor.

Vatanparvarlik - bu insonning Ona Vataniga, o‘z millati hamda tug‘ilib o‘sgan madaniy muhitiga, ota-onasi hamda ahli oilasiga bo‘lgan muhabbatidir. Vatanparvarlikning ushbu tabiiy asoslari, tabiiy tuyg‘u sifatida uning axloqiy ahamiyatini har bir insonda burch va fazilat sifatida birlashtiradi. Bugungi kunda jamiyat yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammosi ayniqsa dolzarb muammo sifatida davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Hukumatimiz tomonidan oliy ta’lim muassasalari talabalarida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga jiddiy e’tibor karatilayotgani, buning yaqqol dalilidir.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni, ayniqsa oliy ta’lim muassasalarining harbiy ta’lim fakulteti talabalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ayniqsa milliy qahramonlarimiz, ota-bobolarimizning Vatan, yurt uchun fidoyiliklari tarbiya jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida xizmat qiladi.

Har bir yosh avlodning ongu-shuuriga, buyuk ajdodlarimiz Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur, Bobur kabi buyuk sarkardalarimizning Vatan ravnaqi, yurt tinchligi uchun qahramonliklarini singdira olsakgina, haqiqiy

millatparvar, jonkuyar, sha’ni, qadr-qimmati, millatini ulug‘lay oladigan insonlarni tarbiyalay olamiz.

Topografiya – (yunoncha topos – joy, grapho – yozmoq) joyni tasvirlash degan ma’noni bildiradi. Topografiya er yuzasining geometrik tuzilishi, joyning plani va kartalarini yaratish maqsadida bajariladigan s’emka usullarini o‘rganuvchi fandir. Topografiyada fakat sayyoramizning quruqlik qismi o‘rganiladi, uning suv qoplagan qismini esa gidrografiyada o‘rganiladi.

Harbiy topografiya – joyning taktik xususiyatlarini jangovar harakatlarning olib borilishiga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganuvchi fan bo‘lib harbiy bilimlar turkumiga kiradi, shu bilan birga, umumiy topografiyaning bir qismi hisoblanadi.

Jangovar harakatlarni olib borish joyning xususiyatlari va ularning jang harakatlarini olib borishga ko‘rsatadagan ta’sirini mukammal bilishni talab qiladi. Bu omilni o‘z vaqtida juda ustamonlik bilan baholagan buyuk bobokalonimiz sohibqiron Amir Temur o‘z qo‘shinlarini notanish joylarga safarga chiqarishidan qat’iy nazar, doimo zafar quchgan. Joyning taktik xususiyatlaridan Bobur, Jaloliddin Manguberdi va Temurmalik kabi sarkardalar ham juda puxta foydalanishgan.

Millat farzandlarining tomirida oqayotgan qoni, ularni o‘tmishdagi ota-bobolari bilan bevosita bog‘lab turuvchi rishta sanaladi. Yosh avlod tarbiyasida doimiy ravishda o‘tmishimizga suyanamiz va tayanamiz. Shu o‘rinda, bobokalonimiz shoh va buyuk sarkarda Boburning jasorati yosh avlodning tarbiyasida muhim rol uynashini ko‘rishimiz mumkin. Boburiylar davlatidagi madaniy muhitning Hindiston uchun ahamiyati haqida Javoharlal Neru shunday yozgan edi: “Bobur Hindistonga kelgandan keyin, katta siljishlar yuz berdi va yangi rag‘batlantirishlar hayotga, san’atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi”.

Bundan tashqari “Hindistonning kashf etilishi” kitobida Javoharla’l Neru Bobur haqida ushbu so‘zlarni e’tirof etgan: “Bobur dilbar shaxs edi. uyg‘onish davrining ajoyib sultoni, kuchli, tadbirkor kishi bo‘lib, san’atni, adabiyotni, go‘zallikni sevardi”.

“Boburiylar sulolasi” Hindistonda 300 yildan ortik hukmronlik kilishdi. Vatandoshimiz va uning avlodlari tomonidan o‘zga yurtlarda amalga oshirgan ezgu ishlari, qoldirgan madaniy me’roslari, jahon sivilizatsiyasida alohida o‘ringa ega.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, millatiz qahramonlari tomonidan amalga oshirilgan har qanday hayrli ishlar, yurtimiz yoshlari qalbida chuqur iz qoldirib, vatanparvarlik tuyg‘usini singdira oladi. Harbiylarda vatanparvarlik tushunchasi, ularning kundalik faoliyatlari bilan bevosita bog‘liq tushuncha sanaladi. Mashg‘ulotlar jarayonida talabalarga buyuk ajdodlarimiz, ularning insoniyat tarixida tutgan o‘rni haqida doimiy ravishda etkazib borish, ta’lim jarayonini

ayniqsa amaliy mashg‘ulotlar, dala o‘quv mashg‘ulotlarini tarixiy qahramonlarning faoliyatlarini yoritish orqali bog‘liqlikda o‘tkazish, talabalarda vatanparvarlik, vatanga muhabbat, o‘zligini anglash, millati uchun g‘urur kabi tuyg‘ularni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bo‘lajak ofitserlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi uchun muhim poydevor vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-60- son Farmoni.

2. Sh. M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti, 2021. - 464 bet.

3. Javoharlal Neru - Hindistonning kashf etilishi kitobi.

САМОПОНИМАНИИ СТУДЕНТОВ В ЗНАЧЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ

в.б.доц.Турабекова.Ш.Д. студентка.Шакирова.Ш.Т

Университет прикладных наук

Аннотация: *В статье рассматривается понятия самопонимания студентов значение психологических знаний, потребности мотивационный когнитивный и эмоциональной волей, течение периода понимание в процессе психологический знаний,*

Ключевые слова : *самопонимание, диагностика и развитие самопонимание, студент, уровни самопонимание, стратегия межличностного взаимодействия, самооценка , личностные образования « Я - образ » и «Я – концепцию» , изменение самооценки , уверенность в себе .*

В период преобразования общественных, социально-психологических процессов возникает необходимость переосмысления системы профессиональной подготовки молодых специалистов растёт потребность в развитии творческого потенциала, самостоятельности, ответственности позиции студентов. Особую актуальность это приобретает в процессе подготовки будущих психологов, где приоритетным является развитие личностных особенностей будущих профессионалов, позволяющих ему преобразовывать себя в меняющемся мире. При этом одним из условий эффективного обучения и компетентного общения, оказывающих значительное влияние на способность ориентироваться в новой реальности, осознавать её, реагировать на неё соответствующим образом и быть ответственным за профессиональное и жизненное самоосуществление, является самопонимание отметили не которые авторы - А.А.Брудный, М.К.Мамардашвили, В.В.Знаков, М.М.Бахтин.

Психология в образовательной системе играет ключевую роль в обеспечении благополучия студентов, поддержке их эмоционального и социального развития, а также в создании благоприятной учебной среды. В условиях современного образования, где студенты сталкиваются с множеством стрессовых ситуаций и вызовов, роль психолога становиться всё более значимой. Студенческий период занимает особое место в развитии человеческой личности и является важным этапом развития человека. Поэтому в студенческий период происходят значительные психологические и физиологические изменения. На основе этих изменений в личности студента возникает чувство величия и заставляет его формироваться как личность, ускоряется процесс вхождения в жизнь общества. Особенно в этот период главное место занимает избавление от влияния взрослых во всех сферах поведения, стремление к самостоятельности. Именно под влиянием независимости формируется самосознание, самооценка и развитие личности. Важно изучить объективные и субъективные факторы, влияющие на возникновение этого процесса. На этот счет психологи приводят ряд мнений. В частности, зарубежные психологи обращают внимание на проблему самосознания с практической точки зрения. В научных исследованиях таких исследователей, как психолог У. Джеймс, К. Роджерс, М. Розенберг, подчеркивается, что самосознание связано с различными формами представлений человека о себе. При исследовании особенностей самосознания согласно подходу с личностной точки зрения показано, что фигура «Я» связана с изменением самооценки и мотивационного круга. Для определения сущности проблемы самосознания как психологического процесса ее начинают с исследования причин, возникших в процессе развития личности . По мнению психолога Л. Рубинштейна, самосознание при изучении человека с психологической точки зрения связано с эго человека. Человек как субъект характеризуется своим поведением, действиями, творцом своего произведения и способностью брать на себя ответственность за отдельные аспекты. С. Л. Рубинштейн объясняет растущую самостоятельность человека источником и движущей силой развития самосознания. Он утверждал, что сознание возникает не из самосознания, а что самосознание возникает в ходе развития сознания личности. Соответственно, по структуре самосознания оно делится на следующие принципы:

1. Знание означает самосознание;

2. Эмоциональная оценка, то есть отношение;

3. Добровольное управление (самоуправление) состоит из взаимного единства сторон.

Вышеперечисленные принципы формируют основные компоненты самосознания человека и указывают на важные этапы развития. Известно, что самосознание происходит под влиянием «Я». Понятие «Я» проявляется как отношение человека к своим действиям, его отношение к инструкциям, которые он ставит перед собой, и его оценка самого себя. Психолог Дубровин показывает, что понятие «Я» у студентов имеет три формы: Прошлое Я – прошлое Я показывает его эмоциональное состояние. Настоящее «я» всегда осознает свое моральное сознание и действия. Будущее Я – где образ будущего Я воображается и определяется силой самоподражания. Из результатов исследования, проведенного А.У.Обозным и В.А.Котерским на студентах 1-го курса, стало ясно, что уровень их востребованности, реальное выполнение задания зависит не от оценки внешних людей, а от уровень самооценки учащегося. Исследования Е. И. Савонко показывают, что связь между самооценкой , самосознанием и направленностью личности зависит от возраста. Некоторые психологи выдвигают также идею о том, что самосознание может быть связано с волевыми качествами человека. Проблема самосознания человека связана с волевыми качествами. Одна из негативных сторон воли ребенка определяется неуверенностью в себе. По данным исследований Ф.И.Иванченко, неуверенность студентов в учебной среде обусловлена главным образом следующими причинами:

1. По причине несоблюдения принципа последовательности;

2. Предъявляя ученикам чрезмерные требования, превышающие их возможности;

3. Некоторые педагоги и родители поэтому не доверяют силам, памяти, способностям и интеллекту своих сверстников.

как результат;

4. Запугивание и наказание учащихся за получение плохих оценок;

По мнению психолога Т. В. Драгунова, изучавшего проблему самосознания, оно реализуется через следующие особенности;

- важно понимать изменения, происходящие в студенте в результате социальных и психологических воздействий через влияние окружающих людей;

- модели поведения и нормы, специфичные для поведения учащихся, не включены в одну систему;

- уметь выбрать человека, идеально подходящего ученику, и суметь впитать его характеристики;

- у студентов хорошо развиты мечта и фантазия, и им интереснее думать об этом, чем делать это в реальной жизни;

- анализируя поведение взрослых, важно проанализировать нормы поведения.

Одним из характерных признаков формирования самосознания в студенческий период является то, что студент начинает испытывать чувство удовлетворения своей работой и начинает считать себя интеллектуалом. Стремясь к независимости, у них развивается чувство превосходства. В них это определяется «настоящим мужчиной» и «идеальной женщиной», и они теперь стремятся к реалистичной социальной среде. Но в этот период самосознание имеет не только положительные, но и отрицательные стороны. Одной из основных характеристик негативного аспекта является то, что они идеализируют определенного человека, не видят его ошибок, становятся маньяками и т. д. Исследовательскую работу по этому поводу провел психолог Э. Ле Шань, согласно которой представлены мысли студентки о матери и дочери. «Комната моей дочери напоминает мне сарай. Когда я открываю ее шкаф, то вижу на верхнем этаже целый набор минералов и чистые простыни, на втором этаже коробки из-под сигарет и мою любимую помаду, а на нижнем этаже всевозможные фруктовые стручки и несъеденную еду, пока не чувствую запаха. их. Второй участник исследования жалуется на сына. Он рассказал, что его сын не выходит из комнаты и не общается с окружающими людьми.

Из вышеизложенного видно, что некоторые студенты неверно истолковывают психологические механизмы, возникающие на основе самосознания, в результате чего в их поведении появляются негативные характеристики. Это препятствует формированию студента как личности и приводит к срыву его деятельности. Из этих положений видно, что самосознание представляет собой сложное психологическое явление и считается одним из факторов, обеспечивающих формирование личности. Поэтому необходимо обратить внимание на факторы, влияющие на формирование самосознания студентов, т.е. учебную деятельность, социальную среду и трудовую деятельность, окружающих людей и объективную оценку, данную ими. В частности, необходимо развивать в человеке уверенность в себе, веру и личностные качества. На основании этого можно сделать выводы о том, что проведенная работа по проблеме исследования позволила достигнуть цели и выявить сущность и значение самопонимания в процессе личностного и профессионального становления будущих психологов, а также сформулировать рекомендации психологам преподавателям, работающим со студентами-психологами:

1. Необходимо исследовать развитие самопонимания у будущих психологов в процессе профессиональной подготовки, основываясь на

психологическом содержании и структуре уровневого становления самопонимания.

2. При проведении исследований по проблеме развития самопонимания у будущих психологов можно использовать набор методик, апробированных в данной работе.

3. В учебно-воспитательной работе со студентами-психологами можно использовать развивающую программу, положительно зарекомендовавшую себя в данном исследовании.

Литература список :

1. Б.В.Кайгородов «Психологические основы развития самопонимания в юношеском возрасте». Астрахань: изд-во АГПУ, 2000.160 с.

2. Е.П.Кораблина «Психологическая помощь как профессиональная деятельность практического психолога. Психологические проблемы самореализации личности». Вып.5.СПб: изд-во СПбГУ, 2001.С.171-181.

3. Андреева Г.М. Социальная психология. Учебник.- М.: Аспект Пресс, 1999.-376 с.

4. Гамезо М., Домашенко И. Атлас психологии. Методическое пособие. - Информационно-методическое пособие по курсу «Психология человека».

5. Дружинина В. "Психология". Учебник. «Питер», 2003.

6. Немов Р.С. Практическая психология Познание себя: Влияние на людей – М . : ВЛАДОС, 2004 г. , – 320 с.

NUTQ MUOMALA TAKOMILLASHUVINING ICHKI MEXANIZMINING PSIXOLOGIK TAVSIFI

MAVLYANOVA SURAYO SULTANALIYEVNA

Toshkent amaliy fanlar universiteti, "psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya*. Ushbu maqolada bugungi kunga kelib dolzarb muammolardan biri psixologiyada nutq va nutq faoliyatiga oid tadqiqot usul va uslublari, manbaalari yuzasidan ma'lumotlar kichik bir misollar bilan ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek uning Nutq va nutq faoliyati yuzasidan muluqot turlari va ko'lami yuzasidan tahlillar ko'rsatib o'tilgan.*

Kalitli so'zlar: *nutq, pantomimika, noverbal, pauza, mantiqiy urg'u, temp, tembr, chastota, ritmika, artikulyatsion apparat, nutqning monologik va dialogik turlari.*

Insonning ijtimoiy – tarixiy taraqqiyoti davrida tilning vujudga kelishi tufayli aks ettirishning imkoniyatlarida qayta qurildi, borliq odam miyasida yanada aniq in'ikos ettiriladigan bo'ldi. Tilning paydo bo'lishi munosabati bilan individga jamiyatning rivojlanishi bosqichlarida to'plangan bilimlar, ko'nikma malaka va

tajribalardan foydalanish imkoniyati tug‘ildi[55]. Til yordami bilan shaxs o‘zi hech qachon duch kelmagan, notanish xodisalar, holatlar, vaziyatlar, sharoitlar, voqeliklar yuzasidan bilim olishga erishdi. Odam til yordami bilan boshqa kishilarga o‘tmish, bugungi kun va kelajakka taalluqli narsalar va voqeliklar yuzasidan axborot, xabar, ma’lumot berish natijasida ularga ijtimoiy tajriba mohiyatini ko‘nikma va malaka sifatida uzatish imkoni yaratildi.

Til oddiy qilib tushuntirilganda so‘z va belgilar tizimi hamda majmuasidan iboratdir. Inson tomonidan faoliyatni bajarilishi so‘zlar, belgilar xususiyati bilan bog‘liq bo‘lib, uning muvaffaqiyatli mahsuldorligi til tarkiblarining ahamiyatliligiga bevosita bog‘liqdir[56]. So‘zlar, belgilar va ularning ahamiyati shaxsning yuksak funksiyalarining vositasidir. Belgilar turli-tuman bo‘lishidan qat’i nazar ularning eng muhimi bu so‘zdir. Har bir so‘z ma’lumot, xabar, axborot vazifasini bajaradi va aniq mazmunni o‘zida aks ettiradi. Tilning asosiy funksiyalari: til yashashning vositasi, ijtimoiy tajribani avloddan avlodga uzatish va o‘zlashtirish quroli ekanligi; til kammunikatsiya usuli hamma odamlarning xatti - harakatini boshqaruvchi qurol sifatida; til intellektual faoliyatning quroli tariqasida.

Psixologik nuqtai nazardan tilning eng asosiy funksiyasi – bu kommunikatsiyadir (muomala).

Nutq faoliyati odamlar tomonidan ijtimoiy – tarixiy tajribani o‘zlashtirish, avlodlarga uzatish (berish) yoki kommunikatsiya o‘rnatish, o‘z shaxsiy harakatlarini rejalashtirish va amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayoni. Nutq axborot, xabar, ma’lumot va yangi bilim beruvchi aqliy topshiriqlarni yechish faoliyatidan iborat. Agarda til aloqa vositasi yoki quroli bo‘lsa, nutq esa aynan o‘sha aloqa jarayonining o‘zidir.

Psixologiyada nutq va nutq faoliyatiga oid tadqiqot natijalari mavjud bo‘lsa–da, lekin bu ijtimoiy – tarixiy taraqqiyotga oid qarashlarda mohiyat hamda shakl jihatdan o‘xshashlik yo‘q. Ular nutqning neyropsixologik asoslari, mexanizmlari, artikulyatsion va fonetik apparatlari, psixolingvistik tuzilishi (fonema, fleksiya) to‘g‘risidagi ilmiy – amaliy xususiyatli umumlashmalardan iborat.

Nutq psixologik muammo sifatida o‘rganilishi ham o‘ziga xoslik, uning qirralari, shakliy tuzilishi, mantiqan izchilligi, tasniflanishi, ilmiy talqini, tub mohiyati, bayoniyligi bilan o‘zaro tafovutlanadi.

Genetik jihatidan noverbal nutq birlamchi hisoblanadi. Chunki insonning ijtimoiy – tarixiy taraqqiyoti davrida dastavval tovushsiz, so‘zsiz nutq turlari paydo bo‘lgan. Insoniyatda nutqning hozirgi zamon avlodiga xos artikulyatsion apparati

[55] www.kfyndldi
[56] www.kfyndldi

paydo bo‘lgunga qadar, imo – ishora negiziga qurilgan[57]. Nutq va nutq faoliyati zamonaviy kishilarda qanday funksiyani bajargan bo‘lsa, o‘sha davrda ham xuddi shunday vazifani ijro etgan. U davr axborotlar (ma’lumotlar) ko‘lami tor bo‘lganligi tufayli insonlar noverbal nutqdan ko‘p yillar muvaffaqiyatli foydalanib kelganlar. Ma’lumotlar uzatish noverbal nutq orqali amalga oshirilgan, ijtimoiy va xususiy fikr uzatish hamda qabul qilish anna shu tariqa takomillashib borgan.

Inson faoliyati ko‘rsatish davrining dastlabki pallasida asosiy nutq turi sifatida imo – ishora alohida ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun etnik stereotiplar asosida muayyan kechinmalarni, ma’lum axborotlarni shaxslararo munosabat jarayonida uzatish va qabul qilishda ifodalanuvchi tovushsiz, lekin ma’noli mazmunli nutq turi imo – ishorali nutq deyiladi.

Yuz harakatlari yordamida insonni inson tomonidan idrok qilish, o‘zgalar fikriga javob qaytarish, tana a’zolari rangining o‘zgarishi hisobiga shaxslararo munosabatga kirishishda namoyon bo‘luvchi noverbal nutq turiga mimika deyiladi. Mimika yordami bilan haqgo‘ylik, quvlik, yoqtirish va yoqtirmaslik, samimiylik va ikkiyuzlamachilik, hasad, quvonch, qayg‘u, baxtiyorlik singari yuksak tuyg‘ular namoyish etiladi.

Yuz harakatlari, tana a’zolari, qaddi – qomat yordami bilan fikrlarni uzatish, syujetli, qoidali, ma’noli, dramatik kechinmali noverbal nutq turiga pantomimiki deb ataladi. O‘z mohiyati ko‘lami bilan mimikadan ustuvor xususiyatiga ega bo‘lib, axborotlar, intim holatlar, murakkab kechinmalar yuzasidan o‘zgalarga ma’lumot uzatish tarzida hukm suradi.

Pantomimika yumor hissini, qo‘rqinch tuyg‘usini, zahmat obrazini, dahshat kechinmasini aks ettirib, ko‘pincha kommunikativ funksiyani ijro qiladi, hissiy aloqa o‘rnatish orqali taassurotlar mukammalligi ta’minlanadi. Tashqi ta’sirlanish va uning teskari aloqasi kulgida, ko‘z yoshlarida (xoh quvonchli, xoh qayg‘uli bo‘lishidan qat’iy nazar) ifodalanib, assotsiatsiyalarni jonlantiradi va ko‘lamini kengaytiradi.

Ayrim his – hayajonli shartli tovushlarda mujassamlashgan axborot uzatish va qabul qilish maqsadini amalga oshiruvchi, tabiiy to‘siqlarga urilib qaytuvchi aloqa vositasiga exologik yoki aks sado nutqi deyiladi. Exologik yoki aks sado nutq turi bir tomonlama aloqa negiziga quriladi, individual tovush harakati javob funksiyasini ijro etadi. Lekin aks sado orqali tog‘larda, qalin o‘rmonlarda ikki yoki undan ortiq kishilar o‘rtasida aloqa quroli sifatida xizmat qiladi.

Noverbal turkumiga kiruvchi signifikatsiya boshqalardan o‘z tuzilishi, mazmuni, shakli bilan keskin ajralib turadi. Aniq shartli alomatlar orqali muayyan mantiqiy yuklamani o‘zida aks ettiruvchi kommunikativ xususiyatli noverbal nutq turi signifikatsiya deyiladi. U shartli belgilar, signallar, modellar shaklida

[57] www.kfyndldi

ifodalanishi mumkin. Uzoq masofalarga habar yoki ma’lumot uzatish va qabul qilish vositasi sifatida Morze alifbosi va shunga o‘xshash “sun’iy til” nomi bilan mashhur kommunikativ manbalari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Noverbal nutqning yana bir turi daktiologik (barmoq) nutq deb ataladi. Inson tana a’zolari, imo – ishoralar, mimika, xullas hissiyot yordami bilan muomala o‘rnatishga qaratilgan aloqa vositasi daktiologik nutq deyiladi.

So‘z orqali ifodalanuvchi nutq mazmuni ma’nosi qo‘l, yuz xarakatlariga, ayrim hayajonli sodoga, qahr – g‘azab, iliq tabassum, qah – qahaga ko‘chiriladi. Harakatning takrorlanishi axborot mazmunini boyitadi, kuchaytiradi, ma’lumotlar uzluksizligini ta’minlab turadi.

Insonning ijtimoiy – tarixiy taraqqiyoti davrini tahlil qilinganda, genetik jihatdan birlamchi og‘zaki nutqdir. Og‘zaki nutq noverbal turkumdan keyin paydo bo‘lgan nutq turidan biri hisoblanadi. U shartli ravishda monologik, dialogik, polilogik, tashqi, ichki, ekspressiv, impressiv, lakonik (yig‘iq, qatra), effektiv (his-hayajon, jahl) turlarga ajratiladi.

Pauza, mantiqiy urg‘u, temp, tembr, chastota, ritmika va boshqa tashkiliy qismlar hamda mexanizmlarni o‘zida mujassamlantirgan, tilning barcha qoidalari, qonunlari, shartli belgilar sifatida xizmat qilishga asoslanuvchi nutq turi og‘zaki nutq deb ataladi.

Noverbal nutq o‘zining asosiy funksiyasini bajarib bo‘lganidan so‘ng og‘zaki nutq zimmasiga yuklangan. Og‘zaki nutq shaxslararo munosabatning puxta negizini tashkil etib, maqsadga yo‘naltirilgan yoki tasodifiy vaziyatlar mohiyatinidan kelib chiqqan holda uzoq davr o‘z ustuvorligini saqlab kelmoqda. Tilning takomillashuvi bevosita og‘zaki (jonli tilda) nutqda namoyon bo‘ladi, iste’molda eskirgan so‘zlar eski (arxe) tushunchalar, atamalarga aylanib boradi.

Og‘zaki nutq o‘zining jarangdorligi, ta’sirchanligi, axborotlarni qabul qilishdagi qulayligi, uzatilishdagi ixchamligi, toliqishning oldini olish imkoniyati mavjudligi keng qirrali ekanligini bildiradi.

Og‘zaki nutqning dastlabki turlaridan biri – bu monologik nutqdir. Yakka shaxsning ichki kechinmalarini til mexanizmlariga asoslangan holda aks ettiruvchi, uning o‘ziga qaratilgan taьsirlanishni ifodalashga va axborot uzatishga mo‘ljallangan nutq turi monologik nutq deb ataladi. Unda shaxsiy his-tuyg‘ularining ichki va tashqi shakllari uyg‘unlashadi, o‘zgalar fikrini ifodali o‘qishda ham o‘z aksini topadi.

Diada shakldagi munosobatlar negiziga quriluvchi ikki shaxs o‘rtasida namoyon bo‘luvchi axborot uzatishga va qabul qilishga mo‘ljallangan nutq turi diologik nutq deb ataladi.Uning monologik turdan farqli tomoni fikr mohiyati qatnashchilarda anglangandan keyin u yoki bu shaklda qisqartirish imkoniyatiga ega.

Kishilar bilan amalga oshirishga mo‘ljallangan triada va poliada negiziga quriluvchi, axborot uzatish va qabul qilishga yo‘naltirilgan, baxs tarkiblari ishtirok etuvchi og‘zaki nutq turiga polilogik nutq deyiladi. Muomalada muammo mohiyati har qaysi qatnashchi tomonidan anglashilgandan so‘ng, uning tarkiblari qisqarishi mumkin.

Artikulyatsion apparat orqali vujudga keluvchi, verbal holatlarda aks etuvchi, o‘zgalarga yo‘naltirilgan, har xil xususiyatli vaziyatlarda namoyon bo‘luvchi nutq turiga tashqi nutq deb ataladi. Tilning barcha qoidalari va qonuniyatlari unda mujassamlashgan bo‘lib, uzatish va qabul qilish, idrok etish va tushunishdan iborat muomala quroli vositasi vazifasini o‘taydi.

Axborotlarni tartibga keltirish, g‘oyalar yaratish, fikriy dasturni ishlab chiqishga mo‘ljallangan, lekin latent davridagi maьlumotlar majmuasidan tuziluvchi nutq turi ichki nutq deyiladi. Ichki nutqning muhim xususiyatlaridan biri – uning ko‘lamini tashqi nutqdan kengroq ekanligidir. Ikkinchi bir xususiyati esa tafakkurning mexanizmi funksiyasini bajarishidir.

Axborotlar ichki mohiyatini tashqi his – hayajon tarkiblari bilan kuchaytiruvchi, shaxslararo munosabatni yaqqol ifodalanishini aks ettiruvchi ovozli, til vositalariga asoslanuvchi nutq turiga ekspressiv nutq deyiladi. O‘zining tezkorligi va vaziyatbopligi bilan boshqa nutq turlaridan ajralib turadi.

Ichki kechinmalar shaxsiy fikrlash bilan uyg‘unlashishi tufayli fikriy bog‘lanishni vujudga keltiruvchi, holatlar, hodisalar mohiyatini ichki va tashqi omillarga asoslanib aks ettiruvchi nutq turiga impressiv nutq deyiladi. Mulohazalar mohiyati shaxs kechinmalari bilan munosabatga kirishishi natijasida o‘ziga xos voqelikni namoyish qiladi.

Millat va elatlarning til boyligida aforizmlar, maqollar, donishmandliklar, matallar sifatida shakllangan, yuksak mantiqiy yuklamaga ega bo‘lgan yig‘iq nutq turi lakonik, ya’ni yig‘iq, qatra nutq deyiladi.

Turli omillar ta’sirida birdaniga vujudga keluvchi, jahlning mahsuli hisoblanmish, qisqa muddatli nutq turiga affektiv nutq deyiladi. Birdaniga suhbatdosh, raqib tomonga uzatiluvchi, o‘ta ta’sirchan, xavfli, ruhiy nishon vazifasini bajaruvchi qisqa muddatli nutq affektiv nutqdir.

Insoniyat sivilizatsiyaning ilk bosqichiga o‘sib o‘tishidan e’tiboran yozma nutq paydo bo‘la boshlagan va o‘z rivojlanishida davom etmoqda. Tilning barcha qoidalariga (orfografik, morfologik, sintaksistik, leksik, orfoepik, lingfistik, fonematik, fleksik va hakazo), qonuniyatlariga, mexanizmlariga (jonli ifodalarni mujassamlashtirgan holda) asoslangan tarzda, muayyan shartli alomatlar (grafiklar) yordamida shakl, tuzilish, ma’no, mazmun va mohiyatni uzluksiz, tadrijiy ravishda axborotlarga aylantirib beruvchi nutq turi yozma nutq deyiladi.

Yozma nutqning monologik va dialogik turlari badiiy asarlarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, og‘zaki nutqdagidan farqli o‘laroq til boyliklariga bevosita asoslanadi. Yangiliklar yaratish, ijod qilish so‘zlari orqali mohiyat kasb etadi, u yoki bu shaklda tartibga keltiriladi. Lakonik (yig‘iq, qatra) nutq ham og‘zaki nutqdagiday ma’no kasb etadi. Epik (yoyiq) nutq yirik asarlar, monografiyalar mohiyatini to‘la qonli aks ettirish bilan boshqa nutq turlaridan farqlanadi.

Nutq va nutq faoliyati yuzasidan bildirilgan mulohazalar, ilgari surilgan ayrim g‘oyalar mutlaqlikka da’vogar emas, albatta chunki ularning ko‘pgina jihatlari, qirralari, mexanizmlari, qonuniyatlari, tavsiflari, chuqurroq izlanishni talab qiladi.

Harbiy psixologiyada shaxslararo munosabat asosini tashkil qiluvchi kompanetlardan muloqat va krishimlilik asosini takkil qiladi.

Fikr almashishdan tashkari berilgan topshiriqni yoki vazifani takrorlash bevosita amalga oshishi bilan farqlanadi.

Muloqot turlari:

1. Verbal.
2. Noverbal.
3. Yozma ravishda.

Harbiy sohadagi muloqot ko‘yidagi tartibda bo‘ladi. Bir shaxs butun bir jamoa bilan, ya’ni:

Verbal tarzdagi muloqotda jamoa va rahbar o‘rtasidagi muloqot monologga asoslanadi. Bunda rahbar hisoblanadi.

Noverbal tarzdagi muloqotlar bilvosita aks ettirishga asoslanadi. Bunda shaxs va shaxsaro qonuni ishga tushadi va dialog amalga oshirilishi mumkin, faqat ekstrimal sharoitdagina. Ya’ni bo‘ysinuvchi bilan rahbarga maslahat berishi, bergan buyrug‘iga ko‘shimcha qilishi, lekin faqat juda qaltis va ziddiyatli holatlardagina. Berner qonuniyati bo‘yicha noverbal muloqotda ko‘yidagi tizim ishlaydi “shaxs-texnika-shaxs”.

Yozma nutq muloqoti yuqori qo‘mondonlikdan kelgan ko‘rsatmalar, buyruqlar, qarorlarda o‘zini aks etadi.

Yozma nutq muloqotining muhim mexanizmi ko‘yidagilarga asoslanadi:

- Harbiy burch;
- Harbiy ma’suliyat;
- Harbiy ma’sullik;
- Harbiy intizom.

Harbiy psixologiyada shaxslararo kichik rahbar (seksiya, guruh komandir) bo‘ysinuvchiga munosabati bo‘linmaning jangovar holati va umum faoliyatiga ta’sir etadi. Shuning uchun eng ko‘yi bo‘linmalardagi o‘zaro munosabat ko‘yidagilarga asoslanadi:

bir-birini ruhan tushunishi;
bir-birini ruhan qullab-quvvatlashi;
ham jihatlikda umum harbiy faoliyatni va munosabatni amalga oshirishi;
bir-biri bilan bo‘lgan munosabatda mustahkam ishonch.

Mikro guruhlarning vujudga kelishi va u nimadan kelib chiqishidan sabablarga asoslanadi. O‘rta hajimdagi guruhlardagi o‘zaro munosabat kichik guruhlarning saqlab qolgan holda qat’iy harbiy nizomga asoslanadi. Bu munosabat harbiy nizom doirasida bo‘lib ko‘shin turidagi kichik guruhlar majmuasiga nisbatan amalga oshiriladi. Katta bo‘linmalar munosabatlari, yuqoridan kelgan buyruq, ko‘rsatma va boshqaruv ho‘jjatlariga asoslanadi.

SALBIY AXBOROTLARNING BOLANING AGRESSIV XULQ ATVORIGA TA’SIRI

TULYAGANOVA Dilnoza Ravshanbekovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti, tulaganovadilnoza80@gmail.com

Annotatsiya:*Ushbu maqola bolaning agressiv xulq-atvorini shakllantirishda salbiy axborotlarning o'rni haqida tahlil beradi. Maqolada salbiy axborotlarning bolaning psixologiyasi va ijtimoiy munosabatlariga qanday ta'sir qilishi, shu bilan birga, media, oila muhitidagi zo'ravonlik va internetdagi salbiy kontentning bolaning hissiy va xulqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi haqida so'z yuritiladi. Maqola bolalar psixologiyasining nozik jihatlarini o'z ichiga olgan holda, salbiy axborotlar va ularning bolaning xulqiga ta'sirini tushunishga yordam beradi, shuningdek, bu muammoni hal qilish uchun amaliy yondashuvlarni taklif etadi.*

Kalit so'zlar: *Salbiy axborot, agressiv hulq-atvori, zo'ravonlik, psixologik ta'sir, ijtimoiy muhit, media va zo'ravonlik, ijtimoiy tarmoqlar, stress va psixologik travma ,oilaviy zo'ravonlik, agressiya.*

Bugungi kunda, bola informatsion oqimlar ta’sirida o‘sayotgan davrda ota-onalar, mahsulot ishlab chiqaruvchilar hamda keng jamoatchilik oldida muhim masala turibdi. Ya’ni “Biz bolalarga qanday kiyimlar xarid qilyapmiz?”, “Qaysi multfilmlarni tomosha qilyapti?”, “Qanday uy jihozlari, o‘qish qurollarini xarid qilib beryapmiz?”. Bu kabi savollarga o‘z vaqtida javob olinmasa, keyinchalik: “Farzandimiz nima uchun urishqoq, bemehr?,“Farzandim o‘zgarib qolyapti...”, “Ilgari bunday emas edi-ku...”, “G‘alati harakatlar qilyapti...” degan ikkilamchi fikrlar yuzaga kelishi mumkin.

Amerikalik psixologlarning ta’kidlashicha, teleko‘rsatuv va multfilmlarni ortiqcha ko‘rish bolada hadik va hayajonni yuzaga keltiradi. Bolani shaxs sifatida rivojlanishini, ayniqsa, mustaqil fikrlash qobiliyatini tormozlaydi. Bolalar eng ta’sirchan va himoyalanmagan tomoshabin bo‘lib, agar ota-onalar 9 oylik bolani o‘zlari bilan bo‘ladigan jonli muloqotni televizor bilan bo‘ladigan muloqotga almashtirishsa, 20% bolada rivojlanish ortda qolar ekan. Agar teleko‘rsatuvlarni

ko‘rish shu tarzda davom etaversa, 3 yoshga yetganda rivojlanishda o‘z tengdoshlariga nisbatan 1 yilga ortda qolib ketar ekan. Bundan tashqari, 12 yoshga borganda bolalar televizor orqali 100 mingta zo‘ravonlik va qotilliklar guvohiga aylanib qolar ekan. Shuningdek, psixologik kuzatuvlardan ko‘rinadiki, hozirgi davrda 4 yoshdagi bolalarning 25 %ida nutqida nuqsonlar kuzatilmoqda. Taqqoslash uchun ushbu faktga murojaat qilish o‘rinli: 20-asrning 70-yillarida nutqida nuqson shu yoshdagi bolalarning faqatgina 4 %ida kuzatilgan ekan.

Mashhur kanadalik psixolog A.Bandura ommaviy axborot vositalarini inson shaxsiga ta’sirini tadqiq etgan. Tajribada 3-7-yosh bolalar ishtirok etishgan, ularga katta odam tomonidan qo‘g‘irchoqqa negativ munosabatni ifoda etilgan qisqa metrajli multfilmlar ko‘rsatilgan. Multfilmni ko‘rib bo‘lgach, bolalarga 10-20 minut o‘ynash imkoniyati berilgan. Eng e’tiborli tomoni shundaki, bolalarning aksariyat qismi aktyor tomonidan ko‘rsatilgan film lavhasidagi agressiyani takrorlashga harakat qilganligi kuzatildi. Chunki u ko‘rgan multfilmidagi qahramon obraziga o‘zini qo‘yib idrok etadi. O‘zini multfilm qahramoni bilan taqqoslash va andoza olish orqali u yaxshi yoki yomon illatlarni o‘ziga singdiradi. Uning fikriga ko‘ra, g‘arb kinomahsulotlari tufayli juda ko‘p bolalar johil, urushqoq, qahri qattiq bo‘lib qolayotganligi va normal insoniy hislardan ancha yiroq bo‘lib qolishlari ko‘rinar ekan. Ekranda bolani kuzatadigan bunday negativ vaziyatlari bola uchun go‘yoki nizoli vaziyatlarda qo‘llashi zarur bo‘lgan model bo‘lib xizmat qilishi mumkin ekan.Zamonaviy ommaviy axborot vositalarining bolalar rivojlanishiga salbiy ta'siri mutaxassislar uchun aniq, chunki:

1. Zamonaviy san'at bolaning ruhiyatini o'zgartiradi va deformatsiya qiladi, tasavvurga ta'sir qiladi, yangi munosabat va xulq-atvor modellarini beradi. Soxta va xavfli qadriyatlar virtual dunyodan bolalar ongiga kirib boradi: kuch, tajovuz, qo'pol va qo'pol xatti-harakatlarga sig'inish, bu bolalarning haddan tashqari qo'zg'aluvchanligiga olib keladi.

2. G'arbiy multfilmlarda tajovuzkorlik qayd etiladi.Sadizm sahnalarini bir necha bor takrorlash, multfilm qahramoni kimnidir xafa qilganda, bolalarda tajovuzni kuchaytiradi va tegishli xatti-harakatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Bolalar ekranlarda ko'rganlarini takrorlaydilar, bu identifikatsiyaning natijasidir. O'zini maxluq bilan tanishtirganda, ekranda hech qanday jazolanmagan va hatto tanbeh berilmagan deviant xatti-harakatlar, bolalar unga taqlid qilishadi va uning tajovuzkor xatti-harakatlarini o'rganadilar. Albert Bandura 1970 yilda bitta televizion model millionlab odamlar uchun namuna bo'lishi mumkinligi haqida gapirgan edi.

4. Kompyuter o'yinlarida o'ldirish, bolalar axloqiy me'yorlarni aqliy ravishda buzish orqali qoniqish hissini his qilishadi. Virtual haqiqatda insoniy his-tuyg'ularning ko'lami yo'q: o'ldirish va bostirish orqali bola odatdagi insoniy his-

tuyg'ularni boshdan kechirmaydi: og'riq, hamdardlik, hamdardlik. Aksincha, bu erda odatiy his-tuyg'ular buzilgan, buning o'rniga bola zarba va haqorat va o'z ruxsatidan zavq oladi.

5. Multfilmlardagi tajovuz chiroyli, yorqin rasmlar bilan birga keladi. Qahramonlar chiroyli kiyingan yoki chiroyli xonada yoki shunchaki qotillik, janjal va boshqa tajovuzkor xatti-harakatlar bilan birga chiroyli sahna chizilgan, bu multfilmni jalb qilish uchun qilingan. chunki agar siz go'zallik haqidagi mavjud g'oyalar asosida sadizm rasmlarini qo'shsangiz, unda bu allaqachon shakllangan g'oyalarni xiralashtiradi. Shunday qilib, estetik idrok, insonning yangi madaniyati shakllanadi. Va bolalar allaqachon ushbu multfilmlar va filmlarni tomosha qilishni xohlashadi va ular allaqachon norma sifatida qabul qilinadi. Bolalar ularga jalb qilinadi va nima uchun go'zallik, norma haqidagi an'anaviy g'oyalarga ega bo'lgan kattalar ularni ularga ko'rsatishni istamasligini tushunmaydilar.

6. Ko'pincha multfilm qahramonlari xunuk va tashqi tomondan jirkanchdir. Bu nima uchun kerak? Gap shundaki, bola o'zini nafaqat xarakterning xatti-harakati bilan aniqlaydi. Bolalardagi taqlid mexanizmlari refleksli va shu qadar nozikki, ular eng kichik hissiy o'zgarishlarni, eng kichik yuz ifodalarini ushlashga imkon beradi. Yirtqich hayvonlar yovuz, ahmoq, aqldan ozgan. Va bunday belgilar bilan tanishish, bolalar o'zlarining his-tuyg'ularini yuzlarining ifodasi bilan bog'lashadi. Va ular shunga mos ravishda etakchilik qila boshlaydilar: yovuz yuz ifodalarini qabul qilish va qalbingizda mehribon bo'lib qolish, ma'nosiz xiralikni qabul qilish va sesame Street dasturida bo'lgani kabi "ilm granitini kemirishga" intilish mumkin emas.

7. Video bozorining atmosferasi qotillar, zo'rlovchilar, sehrgarlar va boshqa belgilar bilan to'lib toshgan, ular bilan aloqa hech qachon haqiqiy hayotda tanlanmaydi. Va bolalar bularning barchasini televizor ekranlarida ko'rishadi. Bolalarda bilinçaltı hali aql-idrok va hayotiy tajriba bilan himoyalanmagan, bu sizga haqiqiy va shartni ajratishga imkon beradi. Bolada ko'rgan hamma narsa-bu hayot uchun ushlangan haqiqat. Kattalar dunyosining zo'ravonligi bilan televizor ekrani buvilar va onalarni almashtirdi, o'qish, haqiqiy madaniyat bilan tanishish. Shunday qilib, bolalarda hissiy va ruhiy kasalliklar, depressiya, o'spirinlarning o'z joniga qasd qilishlari, motivatsiyasiz shafqatsizlik kuchaymoqda.

8. Televizorning asosiy xavfi giyohvand moddalarga o'xshash Iroda va ongni bostirish bilan bog'liq. Amerikalik psixolog A. Morining yozishicha, materialni uzoq vaqt o'ylash, ko'rishni charchash, gipnoz uyqusizligini keltirib chiqaradi, bu esa Iroda va e'tiborning zaiflashishi bilan birga keladi. Muayyan ta'sir qilish davomiyligi bilan yorug'lik chaqnashlari, miltillash va ma'lum bir ritm diqqatni jamlash qobiliyati bog'liq bo'lgan miya alfa ritmlari bilan o'zaro ta'sir qila

boshlaydi va miya ritmini buzadi va diqqat buzilishi giperaktivlik sindromi rivojlanadi.

9. Harakat, diqqatni talab qilmaydigan vizual va eshitish ma'lumotlari oqimi passiv ravishda qabul qilinadi. Vaqt o'tishi bilan u haqiqiy hayotga o'tadi va bola uni xuddi shunday qabul qila boshlaydi. Va allaqachon vazifani bajarishga e'tibor qaratish, aqliy yoki ixtiyoriy harakat qilish tobora qiyinlashmoqda. Bola faqat kuch talab qilmaydigan narsalarni qilishga odatlanib qoladi. Bola darslarda zo'rg'a yoqiladi, o'quv ma'lumotlarini idrok etishda qiynaladi. Va faol aqliy faoliyatsiz asab aloqalari, xotira, uyushmalar rivojlanmaydi.

10. Kompyuter va televizor bolaligini bolalardan tortib oladi. Faol o'yinlar, haqiqiy his-tuyg'ular va his-tuyg'ularni boshdan kechirish va tengdoshlar va ota-onalar bilan muloqot qilish, atrofdagi tirik dunyo orqali o'zini bilish o'rniga, bolalar soatlab, ba'zan esa kunlar va tunlar televizor va kompyuterda o'tirib, o'zlarini rivojlanish imkoniyatidan mahrum qilishadi.faqat bolaligida odamga beriladi. Bundan tashqari, biz sizga bolalar nevropatologlari va psixologlarining bolalarning psixosomatik sog'lig'ini saqlash bo'yicha tavsiyalarini taklif qilmoqchimiz:

* Uch yoshgacha bo'lgan bolalar televizor ko'rmasligi kerak. Va agar bola perinatal ensefalopatiyani boshdan kechirgan bo'lsa yoki isitma uchun tutqanoqlari bo'lsa yoki miya shikastlanishi, meningit, agar u qo'zg'aluvchanlik, yomon uyqu, kunduzgi uyqudan erta voz kechish, duduqlanish, tiklar bo'lsa, 5-6 yoshgacha.

5-6 yoshli bolalar 30 daqiqa, kichik maktab o'quvchilari 1 - 1,5 soat, haftasiga 2-3 marta.

* Virtual tasvirlar psixologik qaramlikni jalb qiladi va yaratadi, birinchi navbatda ular asab tizimining haddan tashqari qo'zg'alishini va miya ritmlarining nomutanosibligini rag'batlantiradi, bu tezlik, yorqinlik, "miltillash"effekti tufayli yuzaga keladi. Shuning uchun, birinchi navbatda, kattalar multfilmlarni va bolalarga ko'rsatmoqchi bo'lgan filmlarni tomosha qilishlari kerak, ular asab tizimining haddan tashqari qo'zg'alishiga olib keladimi-yo'qligiga e'tibor berishadi.

* 7 yoshgacha bolalar ongi virtual tajovuzdan himoya to'sig'iga ega emas, faqat 12 yoshdan keyin bolalar virtual va haqiqiy voqelikni ajratishni o'rganadilar. Shuning uchun, bolangizni televizor, kompyuter bilan yolg'iz qoldirmang. U o'zini virtual tajovuzdan himoya qiladi, qila olmaydi.

Bolaning kompyuter bilan ishlashida elektromagnit nurlanishning zararli fiziologik ta'siri omillarini hisobga oling:

* Charchoqning kuchayishi, asabiylashish, asab tizimining charchashi.
* Uyqu buzilishi, xotira va e'tiborning buzilishi.
* Tananing allergik reaktsiyalarining ko'payishi.
* Mushak-skelet tizimidagi o'zgarishlar.
* Klaviatura bilan ishlashda bilak va barmoqlarning o'ziga xos og'rig'i.

* Miyopiyani rivojlantirish.

Bugungi kunga kelib, faqat o'zimiz farzandlarimizni o'sha zo'ravonlikdan, hayotimizga kirib kelayotgan halokatli va tartibsiz energiyadan himoya qila olamiz va bu dunyoni yashash va sevish istagi bilan farzandlarimizni sog'lom saqlay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Salaeva M.S., Umirova X.S. Bola tarbiyasida oila va maktabning o'zaro hamkorligi // *Problems And Scientific Solutions*. - Australia, Melbourne. 2022. – B. 114-123. https://doi.org/10.5281/zenodo.6762226

2. Tulyaganova D.R. (2023). Bolaning maktabgacha ta’lim tashkilotiga faol moslashuvi psixologik rivojlanish omili sifatida / *Conferencea*, 63-68.

3. Tulyaganova D.R. (2023). The Role of Emotions in Child Psychology: A Multidimensional Perspective // B*est Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(5), 268-274.

4. Tulyaganova D. (2023). Pedagogika yo‘nalishi talabalarida shaxslararo munosabatlar namoyon bo‘lishining psixologik determinantlari // *Евразийский журнал академических исследований*, 3(4 Special Issue), 235-244.

THE IMPORTANCE OF PREVENTING NEGATIVE INFORMATION ATTACKS

TEMIROV Sirojiddin Shoymardon o‘g‘li

Uzbekistan state world languages university

Annotation: *This article focuses on the growing concern of negative information attacks in the digital and social media landscape. It emphasizes the detrimental effects these attacks can have on personal reputations, business outcomes, and societal trust. The article also offers practical measures that can be adopted to prevent, mitigate, or respond to such attacks, with an emphasis on technology, proactive strategies, and ethical governance.*

Key words: *Negative information attacks, reputation management, misinformation, defamation, cyberbullying, social media, viral information, crisis management, trust and credibility.*

Introduction

Negative information attacks refer to deliberate or unintentional dissemination of harmful, damaging, or misleading content about an individual, organization, or entity. These attacks often involve misinformation, defamation, or harmful narratives that tarnish the reputation or credibility of the target. In the age of digital communication, these attacks can spread at an alarming rate, often before the affected parties have a chance to respond or clarify the situation.

The impact of negative information attacks can be severe. In the case of individuals, they can lead to social isolation, loss of career opportunities, and emotional distress. For organizations, these attacks can result in damaged public perception, loss of trust among consumers or stakeholders, and, in extreme cases,

financial and operational consequences, such as a decline in stock prices or a public relations crisis.

In today's digital landscape, information spreads rapidly through social media, news outlets, and blogs. The line between fact and opinion has become blurred, making it essential for individuals and organizations to actively manage their reputation. A single negative event or smear campaign can lead to long-lasting damage if not addressed swiftly and effectively. In the digital age, where the public's attention span is short but their memory of scandals is long, maintaining a positive image and responding to negative attacks proactively is crucial for personal and professional success.

Negative information attacks encompass a range of harmful content, including:

- Misinformation: False or inaccurate information spread without malicious intent, often due to misunderstanding or error. For example, rumors or incorrect reports shared via social media.
- Defamation: The deliberate spreading of false information with the intent to harm someone's reputation. This could involve fabricating stories or spreading half-truths, often in the form of slander (spoken) or libel (written).
- Cyberbullying: The use of digital platforms to harass, humiliate, or intimidate individuals. This can include spreading personal information, offensive messages, or deliberate rumors with the aim of causing emotional or social harm.
- Character Assassination: A targeted attack on a person's character, often through media or online content, designed to damage their public image.
- Trolling: Deliberate online provocation, intended to cause distress or conflict, which can escalate into a broader attack on an individual or brand.

Real-world examples of negative information attacks

1. Social Media Scandals: Celebrities and influencers are particularly vulnerable to negative information attacks. A single viral post, whether based on truth or misinformation, can ruin careers overnight. For example, a controversial tweet or a misinterpreted video can escalate into a scandal that harms a public figure's image permanently.

2. Corporate Crises: Companies, too, are not immune to negative information attacks. For instance, a company involved in unethical practices or a product recall can face a massive online backlash. A prime example is the 2017 United Airlines incident, where a video of a passenger being forcibly removed from a flight went viral, damaging the company's reputation.

3. Political Smear Campaigns: During election periods, political candidates often face targeted attacks through misinformation or defamation. A

prime example is the spread of false stories and deep fakes during political elections, aimed at undermining a candidate's character and credibility.

4. Hashtags and Viral Movements: The rise of movements such as #MeToo or #BlackLivesMatter also shows how quickly negative information (or accusations) can gain traction and lead to widespread public discussion, impacting individuals and organizations who may be accused without proper due process.

Psychological and social consequences of negative information attacks

The psychological toll of negative information attacks can be profound. Individuals who fall victim to such attacks may experience:

- Anxiety and Stress: Constant exposure to public scrutiny and criticism can lead to heightened stress levels, anxiety, and even depression.
- Social Isolation: Online attacks can lead to individuals being ostracized from social circles or communities, whether online or offline.
- Loss of Trust: Both individuals and organizations may experience a breakdown in trust. For businesses, this can translate into loss of customers, while for individuals, it can mean damaged personal relationships.
- Reputation Damage: A tarnished reputation can lead to long-term consequences, where the negative narrative overshadows any positive aspects of the individual or company.

Social media platforms and their role

Social media platforms like Twitter, Facebook, Instagram, and TikTok serve as both a blessing and a curse in the fight against negative information. These platforms amplify the reach of negative content by enabling it to go viral quickly. The vast interconnectedness of users allows for rapid sharing, making it easier for negative content to spread far beyond its initial audience.

Moreover, social media platforms often provide a sense of anonymity or a shield behind usernames, emboldening people to make defamatory or harmful statements without the fear of immediate repercussions.

Negative information is inherently more engaging than positive content. Research suggests that people are more likely to share or engage with sensationalized, negative content because it evokes strong emotional responses, such as anger, fear, or shock. The viral nature of negative content creates a feedback loop—once something negative starts spreading, it gathers momentum, and more people engage, further amplifying the reach of the attack.

This viral spread of negativity can be seen in the way rumors or false accusations about public figures often reach millions of people within hours. The rapid dissemination of negative news often overshadows the correction of misinformation or a positive narrative that might follow later.

The algorithms that power social media platforms are designed to prioritize content that generates the most engagement—often, negative or sensational content. When users engage with a post, whether through likes, shares, or comments, the algorithm interprets it as valuable content, increasing its visibility. This results in a "snowball effect" where negative information continues to spread, often unchecked, while positive or corrective content struggles to gain similar traction.

Moreover, algorithms often prioritize content based on its likelihood of provoking emotional reactions, which means that content that stirs anger, frustration, or fear is often given higher visibility. This can lead to an overrepresentation of negative content in the public eye, increasing the likelihood that negative information attacks will spread quickly and cause disproportionate damage.

Consequences of unchecked negative information attacks

Unchecked negative information attacks can lead to substantial reputational damage, especially in the digital world where public perception can shift dramatically based on online narratives. For individuals, a negative attack—whether through defamation, cyberbullying, or misinformation—can result in:

- **Personal Discrediting**: Individuals, particularly public figures or celebrities, may find their reputation tarnished by false accusations or controversial content. This can affect their career, relationships, and social standing.
- **Career Setbacks**: Professionals may lose job opportunities, career advancements, or even their positions entirely due to reputational harm caused by negative information. Once negative content gains traction, it can overshadow an individual's accomplishments or qualifications, creating a long-lasting stain on their career.

For organizations, a negative information attack can have a similarly destructive impact:

- **Brand Damage**: Businesses can face immediate and lasting damage to their brand identity. Negative press or public backlash can alienate consumers, damage relationships with suppliers or investors, and harm the business's long-term reputation.
- **Public Perception**: In a world driven by consumer reviews and word of mouth, negative information quickly shapes public opinion. Businesses seen as unethical, untrustworthy, or incompetent due to misinformation can struggle to rebuild their image.

Preventive measures and solutions

To mitigate the damage caused by negative information attacks, it is essential for individuals and organizations to implement proactive reputation management strategies:

- **Building a Positive Online Presence**: Cultivating an authentic and positive online presence can help to drown out negative narratives. Regularly publishing valuable content, engaging with audiences, and showcasing integrity and transparency can build a solid reputation before any attacks occur.
- **Media Training**: Both individuals and organizational spokespeople should be trained on how to respond to negative information effectively. Prepared statements, clear communication, and a calm demeanor in crisis situations are essential for minimizing reputational damage.
- **Engagement with the Community**: Establishing a loyal and supportive community can help counteract negative attacks. Active engagement with stakeholders, consumers, and followers fosters trust and solidarity.

Using Technology for Monitoring and Controlling Digital Narratives

Technology plays a critical role in monitoring and controlling digital narratives:

- **Social Media Monitoring Tools**: Tools such as Brandwatch, Hootsuite, or Google Alerts can be used to track mentions of an individual or organization across various platforms. Early detection of negative content allows for faster intervention and response.
- **AI and Automation**: Artificial intelligence tools can scan for harmful or misleading content and, in some cases, respond automatically to mitigate the damage. AI algorithms can also detect patterns of coordinated negative attacks, allowing organizations to take appropriate legal or defensive action.
- **Content Moderation**: Automated systems or human moderators can flag harmful content, such as false reviews, defamatory statements, or abusive messages, and remove or counter them before they go viral.

Legal and ethical frameworks to protect against misinformation

Legal frameworks and ethical guidelines are essential in combatting misinformation and negative information attacks:

- **Defamation Laws**: Legal action can be taken against those spreading defamatory content, especially when it harms an individual or organization's reputation.
- **Regulations on Misinformation**: Governments and tech companies are increasingly implementing regulations to combat the spread of false information. The EU's Digital Services Act and the United States' potential regulation of social media platforms aim to hold companies accountable for harmful content spread on their platforms.

- **Ethical Content Standards**: Organizations must establish ethical guidelines for online content creation, ensuring that their messaging aligns with truth, fairness, and transparency. Public figures and businesses alike must maintain ethical integrity, especially in crisis situations.

Examples of successful prevention or damage control in the face of negative information attacks

1. **United Airlines Crisis Management (2017)**: Following the viral video of a passenger being forcibly removed from a flight, United Airlines was initially criticized for its handling of the incident. However, the company quickly responded with a public apology, implemented internal policy changes, and worked to rebuild trust with both customers and employees. Their rapid response, including a change in protocol for overbooked flights, helped to mitigate long-term reputational damage.
2. **Domino's Pizza "Pizza Turnaround" Campaign (2009)**: In response to a viral video showing unsanitary food preparation, Domino's Pizza launched a bold campaign where they invited customers to watch behind-the-scenes footage of their kitchen operations, apologizing and committing to improved practices. This transparency helped restore customer trust and revitalize their brand image.
3. **Taylor Swift's Reputation Management**: Taylor Swift effectively managed her reputation by using her platform to directly address personal attacks and public controversies. Her strategic use of social media and carefully crafted public responses allowed her to regain control of her narrative after highly publicized feuds and media scrutiny.

Conclusion

Preventing and managing negative information attacks requires constant vigilance. Individuals and organizations must stay proactive in their efforts to protect their reputation. As the digital landscape continues to evolve, so do the methods of attack, making it critical to continuously monitor the environment and update strategies for handling online content.

The role of individuals, organizations, and governments in curbing negative information attacks

- **Individuals** must remain mindful of their digital presence, practicing caution when engaging online and being prepared to respond to attacks when necessary.
- **Organizations** must prioritize reputation management, ensuring they are prepared for potential negative information attacks with well-established policies, tools, and resources.

- **Governments** should enact and enforce policies that hold individuals and corporations accountable for the spread of false and damaging information while balancing freedom of expression.

REFERENCE

1. "Crisis Communication: A Casebook Approach" by Alan Jay Zaremba
2. "The Reputation Economy: How to Optimize Your Digital Footprint" by Michael Fertik and David C. Thompson
3. "Social Media and Reputation Risk: A Guide for Businesses" by Diana M. L. Hargrove
4. "The Age of Misinformation: The Impact of Digital Media on Trust and Reputation" by Bryan F. O'Rourke
5. "Reputation Management: The Key to Successful Public Relations and Corporate Communication" by Paul A. Argenti

PSIXOLOGIK ADAPTATSIYA: XODIMLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

M.M.Abdukarimov

Toshkent amaliy fanlar universiteti "Psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada xodimlarning moslashuvini psixologik qo'llab-quvvatlash muammolari tahlil qilinadi. Tahlil qilish zarurati yosh mutaxassisni moslashtirish masalalariga yagona yondashuvning muhimligi bilan bog'liq. Shu bilan birga maqolada nafaqat yangi xodimni, balki unga tayinlangan mentorni ham psixologik ko'rikdan o'tkazish zarurati ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *yosh mutaxassis, xodimlarning psixologik moslashuvi, ish, mentor.*

Tashkilotlarni, shu jumladan xususiy tashkilotlarni yuqori sifatli kadrlar bilan ta'minlash muammosi boshqaruv va nazorat sohasida ham, mahsulot, xizmatlar va ishlarni ishlab chiqarish va sotish sohasida ham samarali ishlarni ta'minlashda asosiy masala hisoblanadi. Kasbiy tayyorgarlikka ega yosh mutaxassislarni jalb etish orqali kompaniyalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yosh ishchilarning yangi muhitga kirish va moslashish tezligi ko'p jihatdan nafaqat ushbu toifadagi odamlarning motivatsiyasi va shaxsiy xususiyatlariga, balki ma'lum bir korxonada ishni tashkil etish darajasiga ham bog'liq. Bu, ayniqsa, adaptatsiyaning vaziyatning yomonlashuvi munosabati bilan mehnat munosabatlarini kuchaygan va ko'p hollarda majburiy "raqamlashtirish" davrida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Yosh mutaxassislarni tanlashda zarur bilimlar bazasi, harakatchanlik darajasi, stressga chidamlilik va o'rganish qobiliyatiga e'tibor beriladi, bu tashkilot jamoasining samaradorligiga ta'sir qiladi. Ayni paytda ko'pgina kompaniyalarda

xodimlar adaptatsiyasidan foydalanish imkoniyatining joriy etilishi tufayli xodimlar, ayniqsa, yosh mutaxassislarning harakatchanligi oshdi. Shu bilan birga, yosh mutaxassislarning yuqori sifatli moslashuvi nafaqat ma'lum moliyaviy va vaqt xarajatlarini, balki ularning lavozimlarga samarali kirishini ta'minlaydigan psixologlarni jalb qilishni ham talab qiladi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kompaniya rahbarlari har doim ham yosh mutaxassisga individual yondashish zarurligiga ahamiyat bermaydilar va ish haqi miqdorini ularning yagona rag'batlantiruvchi omilini hisobga olgan holda, uning lavozimga kirishi samaradorligiga putur yetkazadigan omillarni hisobga olmaydilar. Yosh mutaxassislarni rag'batlantirishga bunday munosabat nafaqat ish sifatini pasaytiradi, balki butun jamoaning psixologik iqlimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xodimlarning psixologik moslashuvi muammosi bilan bog'liq ba'zi jihatlarga E. V. Mixalkina, V. L. Tsvetkov, A. G. Karayani, I. O. Kotenev, E. P. Agapova, L. S. Detochenko. , Raxovskaya Yu. I., Volkova N. E. A., Lisovskiy o'z asarlarida to'xtalib o'tgan Lobacheva A. S., Maslova A. V., Dikaya L. G., Klimova V. T. Juravlev A. L., Zankovskiy A. N. to’xtalib o’tganlar. [58]

Tadqiqotning maqsadi xodimlarning psixologik moslashuvi muammolari va istiqbollarini tahlil qilish, moslashish davrida ularni psixologik qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rib chiqishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- kompaniyada xodimlarni psixologik moslashtirish amaliyotining hozirgi holatini tahlil qilish;
- xodimlarning psixologik moslashuvi sohasidagi muammoli masalalarni aniqlash;
- mentorlar ishtirokida xodimlarning psixologik moslashuvi samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish;
- xodimlarning psixologik moslashuvini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish. [59]

"Moslashish" atamasi psixologlar tomonidan insonning jamiyat manfaatlarini, shuningdek, o'z ehtiyojlarini hisobga olgan holda jamiyatda yashashga moslashishi deb tushuniladi. Muvaffaqiyatli shaxs moslashuviga erishish usullaridan biri bu ta'lim va kasbiy tayyorgarlikdir.

[58] Карпов, А. В. Психология профессиональной адаптации: монография / А. В. Карпов, В. Е. Орел, В. Я. Тернопол. — Ярославль, 2003.

[59] Алексеевский А. А. Социально-профессиональная адаптация молодых специалистов: факторы влияния, критерии и показатели // Символ науки. — 2015.

Muayyan hayotiy tajribaning mavjudligi, intellektual rivojlanish darajasi, dunyoqarashi, muloqot qobiliyatlari, boshqalarni hissiy jihatdan tushunish qobiliyati, o'zini tuta bilish, hissiy muvozanat va o'ziga qaratilgan tanqidni to'g'ri qabul qilish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Ishga kirmoqchi bo'lgan nomzodlar, kompaniyada amaliyot o'tash uchun qabul qilinganlar, malaka oshirishga intilayotgan yosh mutaxassislar uchun kompaniyaga yaxshi moslashish juda muhim. Ular tanlagan kasblari bo'yicha muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun juda ko'p mehnat qilishlari kerak.

Yirik tijorat kompaniyalari xodimning muvaffaqiyatli faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradigan eng qulay sharoitlarni ta'minlash uchun yangi mutaxassislar uchun maqbul moslashish davrini tanlashga imkon beradigan usullarni ishlab chiqish uchun psixologlarni jalb qiladilar. Ko'pincha bu muddat xodim ishlayotgan tashkilotning faoliyat sohasiga qarab 3 oydan 5 yilgacha bo'ladi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, axborot-kommunikatsiya va yoqilg‘i-energetika sohalarida faoliyat yurituvchi kompaniyalarning yosh mutaxassislarini qo‘llab-quvvatlash va moslashtirish dasturlari keng tus oldi. Usullar - bu tashkilot rahbarlari va xodimlari (HR psixologlari) uchun yangi sharoitda yosh mutaxassisning ish samaradorligini bosqichma-bosqich oshirish bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Ko'pgina usullarni amalga oshirish HR psixologlarga topshiriladi, ular moslashish davrida ish va hamrohlik qiluvchi ishchilar va professional psixologik tanlov uchun mas'uldirlar. Bu ish bir vaqtning o'zida yangi ishchi "bog'lanish" ni hisobga olgan holda ishchi kuchining kasbiy samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Yosh ishchining yuqori sifatli moslashishi uchun uning shaxsiy resurslarini amalda qo’llash, mutaxassisning o'zi ham, jamoaning ham stressli sharoitlarini, kasbiy deformatsiyaning oldini olish kerak.

Psixologik moslashuv bo'yicha ishlar bir nechta ketma-ket faoliyat sohalarini o'z ichiga olishi mumkin:

1) nomzod - bo'lajak mutaxassis haqida ma'lumot to'plash. Unga taqdim etilgan hujjatlarni o'rganish, suhbatlar, testlar va usullarni o'tkazish, shuningdek, sobiq kompaniyasi fikrlarini (iloji bo'lsa) o'rganish orqali amalga oshiriladi. So'nggi yillarda Internetda, shu jumladan ijtimoiy tarmoqlar va forumlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlar qo'shimcha ravishda o'rganildi, bu esa lavozimga da'vogar e'lon qilmagan ma'lumotlarni aniqlash imkonini beradi;

2) nomzod haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish. Ushbu bosqichda nomzodning ijtimoiy-psixologik portreti tuziladi, unda uning shaxsiy fazilatlari lavozimga muvaffaqiyatli kirish va kelgusida samarali ishlash uchun zarur bo'lgan fazilatlarga mos kelishi yoki mos kelmasligi ko'rsatiladi;

3) ijobiy kadrlar qarori qabul qilingan taqdirda, ishga qabul qilish marosimi jaryoni mutaxassisni jamoaga tanishtirish, ishga qabul qilinganligini tasdiqlovchi hujjat, varaqalar, tashkilot ramzlari tushirilgan mahsulotlarni (masalan, ish yuritish buyumlari, formalar,) taqdim etish orqali amalga oshiriladi;

4) yangi xodimga ustoz tayinlash, keyingi faoliyat tartibini tushuntirish, maqsad va vazifalarni belgilash;

5) jamoada moslashish va kasbiy faoliyatdagi mumkin bo'lgan muammolar bo'yicha xodim va uning ustozi bilan individual suhbatlar o'tkazish, agar kerak bo'lsa, tuzatish ishlari olib boriladi;

6) yosh mutaxassisni o'z ichiga olgan jamoa bilan uning lavozimga kirishi masalalari bo'yicha suhbatlar o'tkazish, shaxslararo muammolarni aniqlash, guruh rahbari va murabbiy uchun tavsiyalar tayyorlash;

7) yosh mutaxassisning birgalikdagi ijtimoiy foydali, sport tadbirlari va musobaqalarida ishtirok etishini ta'minlash;

8) yosh mutaxassisning hamrohligi, psixologik ko'rik va tuzatish ishlari (agar kerak bo'lsa) uni moslashtirishning belgilangan muddati tugagunga qadar. Ko'pgina kompaniyalar, shu jumladan butun mamlakat darajasidagi davlat kompaniyalar, asosiy vazifalari yosh mutaxassislarni moslashtirishni o'z ichiga olgan musobaqalar va olimpiadalar o'tkazadilar. [60]

Shu bilan birga, shuni ta'kidlash joizki, yuqoridagi jarayonlarda yangi xodimlar shaxsining psixologik sifatlarini o'rganishga HR psixologlarni bir martalik, takroriy yoki doimiy jalb etish nazarda tutilmagan. HR psixolog yosh mutaxassis bilan uning moslashishi, o'qitilishi va lavozimga kirishi davrida bevosita o'zaro aloqada bo'ladi, uni intizomiy jazo choralari va ushbu shaxsni salbiy tavsiflovchi boshqa omillarsiz katta ish tajribasiga ega bo'lgan xodimlar orasidan olib borish tavsiya etiladi.

HR psixolog vaqti-vaqti bilan yosh mutaxassis bilan suhbatlar olib boradi, xodimning faoliyatini tekshiradi va muammoli kasbiy muammolarni hal qilishda yordam berishga vaqt ajratadi. Istisnoli holatlarda, yosh mutaxassisning oila a’zolari bilan yaqindan tanishish, ularning urf-odatlari, inson tarbiyasining o‘ziga xos xususiyatlari, turmush sharoitini o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. HR psixolog shuni hisobga olishi kerakki, yosh mutaxassis yangi muhitda adashib qolishi, tashkilotda amaldagi xulq-atvor normalarining barcha jihatlarini bilmasligi, qanday xulq-atvor uslubiga rioya qilish kerakligini tushunmasligi va jamoada o'zi haqida ijobiy fikrni shakllantirishning ahamiyatini to’liq anglab yetmagan bo’lishi mumkin. Yosh mutaxassis bilan psixologik muvofiqligi to'g'risida fikrni shakllantirish va ularning samarasiz o'zaro ta'siri ehtimolini kamaytirish uchun

[60] Ачимова Е. А. Проблемы адаптации молодых специалистов// Актуальные вопросы экономических наук. — 2016.

psixodiagnostik tekshiruvdan foydalangan holda dastlabki tanlashni amalga oshirish juda muhimdir.

"HR psixolog" va "xodim" o'rtasidagi shaxslararo munosabatlar yosh mutaxassisning moslashish davrida uning kasbiy tayyorgarligi darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va jamoaning fikriga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jamoada sezgir, e'tiborli, ijobiy munosabat muhitini yaratish, halol, vijdonli mehnat qilish uchun shart-sharoitlarni ta'minlashda boshqa narsalar qatorida muhim ahamiyatga ega. Yuqoridagilardan kelib chiqib, xodimlar orasidan nafaqat yuqori kasbiy saviya va jamoada barqaror ijobiy obro'ga ega, balki pedagogik mahorat, sabr-toqat, e'tiborli, sifat muhimligini tushunadigan murabbiylarni tanlash tavsiya etilishi mumkin. Shu bilan birga, ko'pgina kompaniyalarda HR psixolog har doim kompaniya rahbari yoki menejer sifatida tasniflangan boshqa xodim bo'lishi kerak, deb ishoniladi. Bu fikr noto'g'ri ko'rinadi, chunki bu holda ochiq va teng huquqli hamkorlik va muloqot uchun zarur bo'lgan psixologik qulaylik darajasiga erishib bo'lmaydi, bu shaxslarning psixologik muvofiqligi psixodiagnostik tekshiruv natijalari asosida aniqlangan hollar bundan mustasno.

Shuni ta'kidlash kerakki, HR psixologning vazifasi nafaqat yosh mutaxassisning mehnat ko'nikmalarini egallashiga yordam berish, balki yordam, ma'lumot berish, malakasizlikdan qo'rqmaslik, ishdagi xatolar va jamoadagi intrigalardan himoyalanishdir. Ishning birinchi oylarida, hatto boshqa kompaniyada katta tajribaga ega bo'lgan yosh mutaxassisda ham, boshqa sharoitlarda qiyinchilik tug'dirmaydigan oddiy ishlarni bajarishda ham o'ziga ishonchsizlik hissi paydo bo'lishi tabiiydir. HR psixolog bu vaziyatning boshlanishini xodimdan savollar soni ortib, savollarga javob kutish vaqti ko'payganida tushunishi mumkin. Yosh mutaxassis o'zini biroz qobiliyatsiz deb hisoblay boshlaydi, garchi u yetarli darajada asosiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lsa ham. Keyinchalik, u o'z xatolari haqida doimo salbiy o'ylay boshlaydi va o'z ishida yangi kamchiliklarga yo'l qo'yadi. Bunday holda, HR psixolog xodimga xatolarni bartaraf etishga yordam berishi kerak va hech qanday holatda jamoatchilik tanqididan foydalanmasligi kerak. Yo'l qo'yilgan xatolar faqat foydali tajriba va o'rganish usuli sifatida taqdim etilishi kerak. Shu bilan birga, kompaniya ishida jiddiy buzilishlarning oldini olish uchun yosh mutaxassis uchun birinchi navbatda sinov vazifalari bo'lishi kerak, unga yuklangan vazifalarning murakkabligi va ahamiyatini avvalgi vazifalar kabi oshirish tavsiya etiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ko'pgina tashkilotlarda mentorlik kabi faoliyat sohasi qo'shimcha ravishda to'lanadi va mentorlar bo'yicha kadrlar qarorlarini qabul qilishda hisobga olinadi. Yosh mutaxassislarni ishga qabul qilishda mentorlar faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llaridan biri – ayrim tashkilotlarda

yosh ishchi-xodimlar o‘rtasida o‘tkaziladigan tanlovlardir. Nafaqat mentorlar va yosh mutaxassislarning o'zlari o'rtasida tajriba almashish bo'yicha jamoaviy seminarlar muhim ahamiyatga ega, bu ularga bajarilgan ishlarni tahlil qilish, boshqalarning xatolaridan qochish va moslashish samaradorligini pasaytiradigan sabablarni aniqlash imkonini beradi. Moslashuv davridagi qiyinchiliklar muqarrar va nafaqat shaxslararo muammolar, balki katta miqdordagi yangi ish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Reja uchun namuna sifatida siz lavozimga bosqichma-bosqich xronologik kirishning asosiy nuqtalarini o'z ichiga olgan nazorat ro'yxati yoki "adaptatsiya rejasi"dan foydalanishingiz mumkin: qanday bilim va ko'nikmalarni o'rganish kerak va qanday ketma-ketlikda, tashkilot, uning maqsad va vazifalari, ish sharoitlari, zarur binolarning joylashuvi, jihozlar, jamoa, tashkilot rahbari, bevosita rahbari, mentori to'g'risidagi ma'lumotlar, moslashuv davridagi yosh mutaxassisning faoliyatini tekshirish tartibi; uning lavozimga kirishi uchun mas'ul bo'lgan shaxslarning aloqa ma'lumotlari, shuningdek, ishdagi o'z vazifalari va maqsadlari kiradi. Ishning birinchi oyi uchun nazorat ro'yxatiga misol:

"**1. 2021 yil yanvar:**

- qabul qilish: ofis, mebel, jihozlar uchun ruxsatnoma va kalit, axborot tizimlariga kirish parollari, dasturiy ta’minot, xavfsizlik talablari;
- tayyorlangan hujjatlar va materiallarning namunalarini olish, ularni yaratishga qo‘yiladigan talablarni o‘rganish, muvofiqligini tekshirish;
- jamoa bilan tanishish, masalan, kofe-break paytida, hamkasblarning ismlarini va ularning xususiyatlarini o'rganish;
- idoralar, binolar, yong‘in chiqish joylarini o‘rganish; - to'g'ridan-to'g'ri ishda maqsad va vazifalarni aniqlashtirish; birinchi topshiriqlarni olish.
- hujjatlarni o‘rganish, birinchi topshiriqlarni samarali bajarish shartlarini tushunish;
- birinchi oylik ish natijalari bo‘yicha mentor bilan suhbat, nazorat varag‘ining to‘ldirilganligini tekshirish, yosh mutaxassis va butun jamoaning samaradorligini oshirish yo‘llarini muhokama qilish”. [61]

Tekshirish ro'yxatini to'ldirgandan so'ng, to'ldirilganligi to'g'risida belgilar qo'yiladi va xodimga nazorat ro'yxatini muddatidan oldin to'ldirish imkoniyati beriladi. Yangi xodimni imzoga qarshi ushbu hujjat bilan tanishtirish, unga nusxasini berish va nazorat ro'yxatining nusxasini stendga yoki tashkilotning mahalliy kompyuter tarmog'iga joylashtirish tavsiya etiladi.

Lavozimga kirish jarayonining oshkoraligining ushbu o'lchovi nafaqat rahbariyat va mentor tomonidan uning borishini nazorat qilish, balki jamoaning

[61] Балл Г. А. Понятие адаптации и его значение для психологии личности // Вопросы психологии, 2015.

yosh mutaxassisga e'tiborini ham ta'minlaydi, bu esa, albatta, uning yuqori sifatli lavozimga kirishi uchun motivatsiyani oshirishi kerak. Bundan tashqari, yangi xodimning moslashish jarayoniga boshqa jamoa a'zolarini norasmiy jalb qilish uchun sharoitlar yaratiladi va yosh mutaxassis uchun "qo'llab-quvvatlash guruhi" ni shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Yosh mutaxassisni moslashtirish vazifasi tugallangan deb hisoblanishi mumkin, agar moslashish davri oxirida ishga bo'lgan ishtiyoq, uning ish joyidan qoniqish belgilari bo'lsa va o'zini korxona jamoasining ajralmas qismi deb hisoblasa. Xodimni HR psixolog ishtirokida muvaffaqiyatli moslashtirishning muhim sharti ularning psixologik muvofiqligidir. Avvalo, mentorlikka nomzod ustoz bo'lishni xohlashi va bu faoliyat u allaqachon bajarayotgan ish majburiyatlari ustiga qurilganligini tushunishi kerak. Mentorni tanlashda, jamoa vakillari ishtirokida, o'z ishlarida maslahat so'rab murojaat qiladigan odamlar doirasini aniqlash kerak. HR psixolog quyidagi psixotipologik va ekstrovertiv fazilatlarni namoyon qilishi kerak: muvozanat, qat'iylik, iroda, kuzatuvchanlik, o'zini o'zi boshqarish, jasorat, altruizm, xushmuomalalik, xayrixohlik, xushmuomalalik. Yosh mutaxassis va uning ustozining psixologik diagnostikasi quyidagi usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin:

- A. G. Maklakov va S. V. Chermyanin tomonidan "Moslashuvchanlik" ko'p darajali shaxsiy so'rovnomasi - tashvish, qattiqlik va ekstroversiyani o'z-o'zini baholash usuli (D. Moudsli bo'yicha);
- EPI anketasi
- A. G. Shmelev tomonidan moslashtirilgan G. Ayzenk texnikasi;
- G.Shmishekning test anketasi;
- V. Sinyavskiy va B. A. Fedorishinlar tomonidan shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatini baholash metodologiyasi;
- M. Rokeachning “Qadriyat yo‘nalishlari” usuli;
- Yutuq motivatsiyasi diagnostikasi A. Mehrabian;
- Xulq-atvor uslubini o‘rganish metodikasi “Insonni geometrik shakllardan konstruktiv chizish”;
- Konfliktdagi xatti-harakatlar uslubini o'rganish (Kennet Tomas metodologiyasi - Ralf Kilmann, N.V. Grishina tomonidan moslashtirilgan).

Subyektlarning shaxsiy xususiyatlarini aniqlashning qo'shimcha usuli sifatida, ongli va ongsiz qadriyatlar va nuqsonlarining xususiyatlarini aniqlash uchun rang munosabatlari testidan foydalanish tavsiya etilishi mumkin. Yosh mutaxassisning ehtiyojlarini qondirishini, o'ziga, jamoasiga, ishiga bo'lgan munosabatini, shuningdek, ongdan bostirilgan tajriba va stress manbalarini aniqlashni u ishlayotgan bo'limda ishdan qoniqish darajasini aniqlash usulidan foydalanish tavsiya etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Карпов, А. В. Психология профессиональной адаптации: монография / А. В. Карпов, В. Е. Орел, В. Я. Тернопол. — Ярославль, 2003.
2. Алексеевский А. А. Социально-профессиональная адаптация молодых специалистов: факторы влияния, критерии и показатели // Символ науки. — 2015.
3. Ачимова Е. А. Проблемы адаптации молодых специалистов// Актуальные вопросы экономических наук. — 2016.
4. Балл Г. А. Понятие адаптации и его значение для психологии личности // Вопросы психологии, 2015.

SHAXS MUSTAQILLIGI SHAKKLANISHIDA OTA –ONA TARBIYA USLUBINING AHAMIYATI

MAVLYANOVA SURAYO SULTANALIYEVNA

Toshkent amaliy fanlar universiteti, "Psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mustaqillik shaxsning xususiyati sifatida har qanday faoliyat turida individual yoki jamoaviy yutuqlarga erishishda yuqori ko'rsatkichni ta'minlaydigan muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *Mustaqillik, shaxs, shaxs sifatlari, individuallik, mustaqil fikrlash, ota- ona munosabatlari, bola tarbiyasi.*

Kirish. Dunyo miqyosidagi hozirgi ijtimoiy-siyosiy hayot, kishilik jamiyati taraqqiyotining ayni bosqichi shunday o'ziga xos xususiyatga egaki, endi unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikrlash, yangi texnika va texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni mustaqillikka o'rgatish tufayli ular kelgusida o'z oldilarida vujudga kelishi kutiladigan muammolarni mustaqil ravishda hal qilish orqali xalqimiz rivojlanishiga, respublikamizning ilg'or texnologiyaviy jahon davlatlari qatoridan munosib o'rin egallashiga hissa qo'shishga erishish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Sharq allomalarining boy ma'naviy merosida oila va jamiyatda yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ulardagi fikr va dunyoqarashni tarbiyalovchi omillar to'g'risidagi qarashlarini ko'plab adabiyotlar misolida nazariy tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, xalq, tafakkur tarzidagi mustaqillik elementlari asriy an'analarga ega ekan. Shuningdek ularning ilmiy merosida oila, oilaviy munosabatlar va ularda shaxs shakllanishi muammosi dolzarb muammo sifatida keltirib o'tilgan. Shu bois hozirgi kunda bola tarbiyasi jarayonini mazkur fikrlardan foydalangan holda amalga oshirish samarali natijalarni berib kelmoqda. Shunday qilib, bolaning tarbiyasida oila, ya'ni ota-onaning o'rnini hech qanday tarbiya maskanlari o'ta olmasligi ayni haqiqat bo'lib qolmoqda.

Bu muammoning yuzaga kelishi esa psixologiya hamda didaktikada ta’lim jarayonining o‘zida o‘quvchilarda bilish faolligini va mustaqilligini orttirish masalasini har qachongidan dolzarb qilib qo‘ymoqda va fanda bu borada maxsus tadqiqotlar o‘tkazilgan. Bu tadqiqotlar orasidan Dj. Dyui, B.P.Yesipov, M.N.Skatkin, I.Ya.Lerner, A.M.Matyushkin, P.I.Pidkasistiy, N.A.Polovnikova, I.V.Kuxarev, M.G.Davletshin, E.G‘.G‘oziyev, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, R.N.Tojiboyeva, E.Z.Usmonova, Z.T.Nishonova va boshqalarning ishlarini ko‘rsatish mumkin.

Qator tadqiqotchilar (A.Freyd, Selliven, Ollport va boshqalar) ota-onalar va farzandlar o‘zaro munosabati, oiladagi shaxslararo munosabatlar xarakterining bola shaxsi shakllanishiga ta’siri xususiyatlarini o‘rganar ekan, ular oilada va oiladan tashqarida tarbiyalanayotgan bolalar o‘rtasida tadqiqotlar olib borib, shaxs shakllanishida oilaviy muhit, ularning go‘daklik chog‘ida ota-onasidan ajralishi, ota-ona va farzandlar o‘zaro munosabatlarida mehrning yetishmasligini aniq tafovutlar asosida ko‘rsatib berdilar.

Masalan, amerikalik psixolog olimlar R.A.Shpis, G.F.Xarlou, K.Tekeks va boshqalar o‘z tadqiqotlarida ota-onalar va farzandlar o‘zaro munosabatlarining bolada ijobiy shaxsiy sifatlarining shakllanishiga ta’siri xususiyatlarini o‘rganganlar. Masalan, oilada ota-ona tarbiyasida o‘sayotgan bolalar hissiy kechinmalarga boy bo‘lishi, unga oila a’zolari tomonidan ko‘rsatilayotgan mehr-muhabbat, g‘amxo‘rlik evaziga bolada atrofdagi kishlarni sevish qobiliyatining shakllanishi alohida belgilab ko‘rsatilgan.

Yuqorida qayd etilgan holatlar bola shaxsining shakllanishiga ota-onaning bolaga munosabatlari ta’sirini o‘rganish shu kunning eng dolzarb muammolaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois o‘spirinlarning o‘z hayot yo‘llarini anglashda, mustaqil, erkin fikrlovchi shaxs bo‘lib yetishishlarida ota-onaning ta’sirini o‘rganish hozirgi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan mustaqillik ta’riflariga e’tibor bersak, mustaqillik tafakkurning individual xususiyati sifatida o‘rganilganligining guvohi bo‘lamiz. Bu tadqiqotlardan farqli ravishda, biz o‘spirinlarda mustaqillik fenomenining shakllanishida oilaviy munosabatlarning ta’sirini milliy muhitda ilk bora o‘rgandik. Bizning fikrimizcha farzandlarimiz mustaqil bo‘lib kamolga yetishlarida ota-ona tomonidan berilgan tarbiya uslubi ham muhim ahamiyatli omil hisoblanadi.Tadqiqotimizda ushbu ilgari surilgan g‘oya o‘rganildi.

Ota-onalarning farzandga munosabati testi natijalari jadval ko‘rinishida

Xar bir shkala bo‘yicha ota-onalarning yuqori, o‘rta va past foizdagi ko‘rsatkichlarining ko‘rinishi.

¶

Qabul°qilish-rad°etish¶	9.38%¶	68.75%¶	21.87%¶
Kooperatsiya¶	90.62%¶	9.37%¶	0%¶
Simbioz¶	56.25%¶	37.5%¶	6.25%¶
Avtoritar°gipersotsio lizatsiya¶	65.62%¶	31.25%¶	3.12%¶
Kichik°omadsiz¶	3.12%¶	34.37%¶	62.5%¶

Xulosa. Ota-onalardagi farzandga mehr-muhabbat his-tuyg‘usining yuqori darajada ekanligi farzandlarining faoliyatlari va kelgusidagi rejalari bilan qiziqishlari, hamma narsada unga yordam berishlari, hamdardlik bildirishlari ham shaxsda mustaqillikni rivojlanishiga ijobiy ta’sir etishi tadqiqotda o‘z ifodasini topdi. Bunda ota-onalar farzandlarning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini yuqori baholashlari va u bilan faxrlanishlari ko‘rinib turibdi.Ota-onalar bolaning tashabbuskorligi va mustaqilligini rag‘batlantiradilar, u bilan tenglik pozitsiyasida

bo‘lishga harakat qiladilar. Muammoli vaziyatlarda farzandlarining nuqtai nazarlariga turishga harakat qiladilar va farzandlariga ishonadilar.

Ota-onalar va amaliyotchi psixologlarga farzandlar mustaqilligini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar:

Oilada farzand erkin bo‘lmog‘i lozim, ammo biz kattalar u insondan ko‘pincha mana shu erkinlik tuyg‘usini va erkinlik huquqini tortib olmoqchi bo‘lamiz, uning hohishiga qaramaymiz bezovta qilamiz. Inson huquqi aqidasidan kelib chiqib oilada tarbiya masalasiga yondashadigan bo‘lsak, biz farzandlarimizni birinchi o‘rinda erkinlikka o‘rgatishimiz lozim. Faqat erkin mustaqil fikrlaydigan insongina har qanday hayot sharoitida ham o‘z o‘rnini topa oladi.

Ota-ona va farzand munosabati tushunchasi ma’no va mazmun jihatidan keng qamrovlidir.Ota-onalarning munosabati tushunchasi bir qancha umumiy xarakterga ega va u ota-onalar va bolaning o‘zaro aloqasi va bir-biriga bog‘liqligida ko‘rsatiladi.

Ota-onalar va o‘spirinlar o‘rtasida o‘tkazilgan tadqiqotlar va ishlab chiqilgan xulosalarga binoan ularga quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1. Mustaqillik bilan vazminlik, tashabbuskorlik, harakatlarning uyg‘unligi, jasurlik, samimiylik kabi shaxs xususiyatlari o‘rtasida to‘g‘ri proporsional bog‘lanish mavjud bo‘lib, o‘spirinlarda shu xislatlarni yoshligidan rivojlantirishga e’tibor berish;

2. Ota-onalarning farzandga nisbatan munosabatlarida ularning yosh xususiyatlariga e’tibor berish ya’ni, mehr-muhabbat his-tuyg‘usining yuqori darajada ekanligi farzandlarining faoliyatlari va kelgusidagi rejalari bilan qiziqish, hamma narsada unga yordam berish, uning nuqtai nazarini obyektiv xurmat qilish, hamdardlik bildirish mustaqillikni rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;

3. Ota-onalar, kattalar bolani qanday bo‘lsa, shundayligicha iktidorli, layoqatli deb idrok qilishga, qabul qilishga o‘rganmoqlari kerak;

4. Ta’lim muassasalarida differensial yondashuvni amalga oshirish zarur, kerak bo‘lsa, ta’lim oluvchini layoqati, qobiliyati, yo‘nalishini hisobga olgan holda bilim, ko‘nikma va malakalariga nisbatan talablar ishlab chiqish maqsadga muvofiqir, yangi ta’lim maskanlarida yangi o‘kuv texnologiyasi joriy etilishi maqsadga muvofiq, bunda bolalarga hurmat, uning fikri va yuksalishiga e’tibor bilan qarash zarur;

5. Amaliy psixologlar, o‘qituvchilar guruhning faoliyatini mazmunli tashkil etish, ya’ni munozara, dialog, o‘yin, trening metodlaridan keng va o‘rinli foydalanish bolaga ko‘prok fikrlarni izhor qilish sharoitini yaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboeva R.N. Mustaqil fikrlash. – T.: Sharq. 2000. – 111b

2. Mavlyanova Surayyo. Ijtimoiy moslashuvning psixologik kategoriya sifatida talqini. “Innovatsion texnologiyalar: ilmiy g‘oyalar va ishlanmanalarni amaliyotga Joriy etish masalalari va yechimlari” mavzusidagi xalqaro qo‘shma ilmiy-amaliy konferensiya. 2023.

3. Mavlyanova Surayyo. Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning toifalari va psixologik xususiyatlari. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. 2023 yil № 6.

4. Mavlyanova Surayyo. Talabalarning OTM muhitiga faol ijtimoiy moslashuvining psixologik omillari. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. 2023.

5. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. T.: Fan 2003.

Salaeva M. Ota-ona va farzandlar o‘zaro munosabatlarini o‘rganish uslubini qo‘llash. - T. Yangi asr avlodi. 2001.

JISMONIY TAYYORGARLIKNI OSHIRISHDA PSIXOLOGIK MUAMMOLAR

GANJAKOV S.X., MADAMINOV R.M
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqola Jismoniy tayyorgarlikni oshirishda duch keladigan psixologik muammolarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada sportchilarning jismoniy ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan treninglar va ularning psixologik holati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ko'rib chiqiladi. Psixologik faktorlar, masalan, stress, motivatsiya, o'ziga bo'lgan ishonch, va ruhiy holat sportchilarning muvaffaqiyatiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganish maqsad qilinadi. Shuningdek, jismoniy tayyorgarlikni oshirish jarayonida psixologik to'siqlarni bartaraf etish uchun qanday metodlar va usullarni qo'llash mumkinligi tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Jismoniy tayyorgarlik, psixologik muammolar, motivatsiya, stress, o'ziga bo'lgan ishonch, ruhiy holat, sportchilarning psixologiyasi.*

Kirish

Jismoniy tayyorgarlik va sport faoliyati natijalariga erishishda psixologik omillar muhim o‘rin tutadi. Sportchilar jismoniy tayyorgarlikni oshirish uchun muntazam va og‘ir mashqlarni bajarishadi, ammo ularning muvaffaqiyati nafaqat jismoniy kuchga, balki psixologik holatga ham bog‘liq. Psixologik muammolar va ularning sportchining faoliyatiga ta’siri haqida tushuncha hosil qilish, shuningdek, psixologik tayyorgarlikni o‘rganish, sportchilarni tayyorlashda samarali strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Bu maqola jismoniy tayyorgarlikning psixologik aspektlarini ko‘rib chiqadi va psixologik omillarni sportda muvaffaqiyatga erishishdagi ahamiyatini tahlil qiladi.

Jismoniy tayyorgarlikning ahamiyati

Jismoniy tayyorgarlik — bu sportchining fizikaviy ko‘rsatkichlarini, chidamliligini, kuchini va moslashuvchanligini oshirishga qaratilgan o‘quv jarayonidir. U sportchi uchun muvaffaqiyatga erishishning asosi bo‘lib, tezlik, kuch va chidamlilikni rivojlantirishga yordam beradi. Ammo jismoniy tayyorgarlikning o‘zi yetarli emas. Sportchining psixologik tayyorgarligi ham muhim ahamiyatga ega, chunki uning ruhiy holati va stressni boshqarish qobiliyati jismoniy ko‘rsatkichlar bilan birgalikda yuqori natijalarni ta'minlaydi.

Psixologik omillarning sportdagi roli

Psixologik omillar sportchilarning muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko‘rsatadi. Bu omillar orasida stress, motivatsiya, o‘ziga bo‘lgan ishonch, diqqatni jamlash va psixologik tayyorgarlikni boshqarish kabi omillar mavjud. Psixologik holat sportchining jismoniy salohiyatini to‘liq ochishiga imkon yaratadi. Agar sportchi o‘zini ishonchli his qilsa va motivatsiyaga ega bo‘lsa, u jismoniy mashqlarda yaxshiroq natijalarga erishishi mumkin. Shu bilan birga, salbiy psixologik holatlar, masalan, stress yoki xavotir, sportchining jismoniy faoliyatini cheklashi mumkin.

Jismoniy tayyorgarlik va psixologik holat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik

Jismoniy tayyorgarlik va psixologik holat o‘rtasidagi bog‘liqlik sportchilarning yuqori natijalarga erishishidagi muhim jihatlardan biridir. Mashqlar davomida sportchining jismoniy salohiyati oshgan sari, u o‘ziga bo‘lgan ishonchni ham rivojlantiradi. Bunda psixologik tayyorgarlik muhim rol o‘ynaydi. Agar sportchi mashqlarni davom ettirishda ruhiy yordam va motivatsiyani topa olsa, jismoniy tayyorgarlikda o‘sishni yanada tezlashtirish mumkin. Jismoniy holatning yaxshilanishi sportchining ruhiy holatiga ham ijobiy ta’sir qiladi, shu bilan birga, psixologik tayyorgarlik jismoniy ko‘rsatkichlarni yaxshilashga xizmat qiladi.

Jismoniy mashqlar va ruhiy holatning o‘zaro ta’siri

Jismoniy mashqlar nafaqat tanani mustahkamlash, balki ruhiy holatni ham yaxshilashga yordam beradi. Masalan, muntazam mashqlar stressni kamaytirishi, kayfiyatni yaxshilashi va umumiy ruhiy barqarorlikni ta’minlashi mumkin. Jismoniy faoliyat organizmda endorfinlar ishlab chiqarilishini rag‘batlantiradi, bu esa kayfiyatni ko‘taradi va ruhiy holatni yaxshilaydi. Shuning uchun jismoniy mashqlarni muntazam bajarish sportchilarning nafaqat jismoniy, balki psixologik holatini ham rivojlantiradi, bu esa umumiy sport natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Psixologik holatning jismoniy ko‘rsatkichlarga ta’siri

Psixologik holat sportchining jismoniy ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ijobiy ruhiy holat, masalan, o‘ziga bo‘lgan ishonch va motivatsiya, sportchining natijalarini yaxshilaydi. Bunda sportchi jismoniy tayyorgarlikka nisbatan yuqori darajada sadoqatli bo‘ladi, mushaklarni rivojlantirishga ko‘proq e’tibor qaratadi. Salbiy psixologik holatlar, masalan, xavotir yoki stress esa sportchining jismoniy faoliyatini susaytiradi, ko‘rsatkichlarining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun sportchining ruhiy holatini boshqarish jismoniy tayyorgarlikni oshirish uchun zarurdir.

Psixologik muammolar va ularning jismoniy tayyorgarlikka ta’siri

Psixologik muammolar, masalan, depressiya, xavotir, stress yoki motivatsiya yetishmasligi sportchilarning jismoniy tayyorgarlik jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Stress, xususan, mushaklarni taranglashtiradi va tanadagi energiyani kamaytiradi, bu esa mashqlarni bajarishda qiyinchiliklarga olib keladi. Psixologik muammolarni hal qilish, sportchiga stressni kamaytirish va ruhiy holatini yaxshilash orqali jismoniy tayyorgarlikni oshirishga yordam beradi.

Stress va uning jismoniy tayyorgarlikka ta’siri

Stress sportchilarning jismoniy ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Boshqa ruhiy holatlar kabi, stress ham mushaklarning qisqarishiga, tana holatini yaxshilashga qiyinchilik tug‘diradi. Sportchilarda yuqori darajadagi stress mushaklarning tezroq charchashiga, e’tiborning pasayishiga va o‘ziga bo‘lgan

ishonchning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Stressni boshqarish va unga qarshi kurashish usullarini o‘rganish sportchining muvaffaqiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Motivatsiya va o‘ziga bo‘lgan ishonchning o‘rni

Motivatsiya va o‘ziga bo‘lgan ishonch sportchining yuqori natijalarga erishishidagi asosiy psixologik omillardir. Motivatsiya sportchini maqsadga erishish uchun harakat qilishga undaydi, o‘ziga bo‘lgan ishonch esa sportchiga o‘z salohiyatini to‘liq ochishga yordam beradi. Agar sportchi o‘ziga ishonmasa yoki motivatsiyasi pasaygan bo‘lsa, jismoniy tayyorgarlik jarayonida muvaffaqiyatsizlikka uchrash ehtimoli ortadi. Shuning uchun sportchining ruhiy holatini yaxshilash, motivatsiyasini oshirish va o‘ziga bo‘lgan ishonchini kuchaytirish zarurdir.

Ijobiy va salbiy ruhiy holatlarning sportchi faoliyatiga ta’siri

Ijobiy ruhiy holat sportchining natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki sportchi o‘ziga ishonadi va o‘z maqsadlariga erishish uchun barcha kuchini sarflaydi. Salbiy ruhiy holatlar esa sportchining faolligini pasaytiradi, diqqatini jamlashga to‘sqinlik qiladi va jismoniy faoliyatni cheklaydi. Ruhiy holatni boshqarish, stressni kamaytirish va motivatsiyani oshirish sportchilarning muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

1. Psixologik to‘siklarni yengish usullari

Psixologik to‘siklar sportchilar uchun jismoniy va ruhiy muvaffaqiyatni cheklovchi omillar hisoblanadi. Bu to‘siklar stress, xavotir, o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik, motivatsiya yetishmasligi va boshqa psixologik muammolarni o‘z ichiga oladi. Ularni yengish uchun samarali usullarni qo‘llash zarur. Psixologik to‘siklarni yengishning asosiy usullari quyidagilardan iborat:

- **Psixoterapiya va maslahat**: Sportchilar uchun maxsus tayyorlangan psixoterapevtik seanslar va maslahatlar stress va ruhiy holatni boshqarishda yordam beradi. Bu usul orqali sportchi o‘zining ichki muammolarini hal qilishi va ijobiy ruhiy holatni saqlashi mumkin.

- **Kognitiv-behavyoral terapiya**: Bu usul, salbiy fikrlarni tahlil qilish va ularni ijobiy fikrlar bilan almashtirishga yordam beradi. Sportchi o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishi va stressni kamaytirishi mumkin.

- **Mindfulness va meditatsiya**: Bu usullar sportchining diqqatini jamlashga, stressni kamaytirishga va ruhiy holatini barqarorlashtirishga yordam beradi. Mashg‘ulotlardan oldin yoki keyin qisqa meditatsiya seanslari o‘tkazish ruhiy holatni yaxshilaydi.

- **Vizualizatsiya**: Sportchi muvaffaqiyatli natijalarni tasavvur qilish orqali o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishi va o‘z maqsadlariga erishishga tayyor bo‘lishi mumkin.

2. Trening jarayonlarida psixologik tayyorgarlikning o‘rni

Jismoniy tayyorgarlik bilan birga psixologik tayyorgarlik ham muhim ahamiyatga ega. Trening jarayonlarida psixologik tayyorgarlikning o‘rni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- **Ruhiy tayyorgarlikni rejalashtirish**: Treninglar faqat jismoniy salohiyatni oshirishga qaratilgan emas, balki sportchining ruhiy tayyorgarligini ham rivojlantirish kerak. Psixologik tayyorgarlik jarayonida o‘ziga bo‘lgan ishonchni, diqqatni jamlashni va motivatsiyani oshirishga alohida e’tibor qaratish zarur.

- **Stressni oldini olish**: Treninglar davomida stressni boshqarishning samarali usullarini o‘rgatish kerak. Stressni qanday kamaytirish va unga qarshi kurashish usullari sportchining umumiy samaradorligini oshiradi.

- **Ruhiy tayyorgarlik bilan jismoniy tayyorgarlikni uyg‘unlashtirish**: Jismoniy mashqlarni bajarishda psixologik to‘siklarni yengish uchun sportchilarga o‘zlarini ijobiy ruhda saqlashni o‘rgatish zarur. Bu, masalan, muvaffaqiyatga erishishning tasavvuri yoki stressni boshqarish usullarini o‘rganish orqali amalga oshirilishi mumkin.

3. Stressni boshqarish va motivatsiyani oshirish bo‘yicha strategiyalar

Sportchilarning stressni boshqarish va motivatsiyasini oshirish bo‘yicha bir nechta samarali strategiyalar mavjud:

- **Diqqatni jamlash**: Stress va xavotirni boshqarishning asosiy usullaridan biri bu diqqatni kerakli faoliyatga jamlashdir. Sportchi o‘zining maqsadlariga diqqatini qaratib, stressni kamaytirishi va o‘zining eng yaxshi natijalarini ko‘rsatishi mumkin.

- **Motivatsion gaplar va tasavvurlar**: O‘zini yaxshi his qilish, pozitiv o‘zgarishlarni ko‘rish va motivatsion gaplarni o‘z ichiga olgan tasavvurlar orqali sportchi maqsadga erishishga yanada ishonch hosil qiladi.

- **Qisqa muddatli maqsadlar qo‘yish**: Katta maqsadlar ko‘pincha stressni oshirishi mumkin. Sportchiga qisqa muddatli, o‘lchab bo‘ladigan maqsadlar qo‘yish stressni kamaytiradi va motivatsiyani oshiradi.

- **Pozitiv fikrlar va ijobiy o‘zgarishlar**: Salbiy fikrlarni ijobiy fikrlar bilan almashtirish sportchining ruhiy holatini yaxshilaydi. Bu o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi va uning treningda muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi.

Xulosa

Psixologik muammolar sportchining jismoniy ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Stress, xavotir, o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik va motivatsiya

yetishmasligi kabi psixologik to‘siklar sportchining jismoniy faoliyatini pasaytiradi. Shu sababli, psixologik muammolarni bartaraf etishning samarali usullari sportchining jismoniy tayyorgarligini oshiradi va uning muvaffaqiyatiga ta’sir ko‘rsatadi.

Psixologik tayyorgarlik sportchining jismoniy muvaffaqiyatini to‘ldiradi. O‘ziga bo‘lgan ishonch, motivatsiya, stressni boshqarish va diqqatni jamlash kabi psixologik omillar sportchining yuqori natijalarga erishishiga yordam beradi. Psixologik tayyorgarlikni rivojlantirish, sportchining ruhiy holatini barqarorlashtiradi va uning jismoniy tayyorgarligini yanada samarali qiladi. Shu tarzda, psixologik va jismoniy tayyorgarlikning uyg‘unligi sportchi muvaffaqiyatining kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **www.google.com.**
2. **www.ziyonet.uz.**

SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA NIZOLARNING YUZAGA KELISHI

TAFU Pedagogika va psixologiya kafedrasi talabasi

Maxamadjonova Komila Oybek qizi

TAFU Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan nizoli vaziyatlar, ularning o‘ziga xosligi, yuzaga keltiruvchi omillari, nizo turlari va uni bartaraf etish usullari haqida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Shaxslararo munosabat, nizo, nizoni keltirib chiqaruvchi omillar, nizo turlari, nizoni bartaraf etishning tizimiy usullari.*

Shaxslararo munosabatlar - ijtimoiy ierarxik zinapoyani tashkil etuvchi shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar majmuidir. Insoniy munosabatlar asosan jamiyat a’zolari o‘rtasida turli xil aloqa turlari orqali mavjud bo‘lgan aloqalarga asoslanadi.

Shaxslararo munosabatlarning ahamiyati, ularning sifati va mazmuni inson hayotining barcha bosqichlarida saqlanib qoladi, chunki ular hayotining birinchi kunidan to oxirgi kunigacha inson mavjudligining zaruruiy sharti hisoblanadi.

Shaxslararo munosabatlar mavjud ekan demak, bu munosabatlarda nizolarning yuzaga kelishi tabiiy va muqarrar jarayondir. Nizolarning namoyon bo‘lishi, natijasi ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin.

Konflikt, nizo, ziddiyat – bu ayrim alohida olingan shaxs ongida yoki shaxslararo muloqot jarayonida, guruh doirasida yoki guruhlararo o‘zaro muloqot va ta’sir paytlarida biror muammo, masala yoki qarashlar borasida bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan, qarama-qarshi fikr, qarash va pozitsiyalarning to‘qnashuvi oqibati

paydo bo‘lgan salbiy hissiyotlarga to‘la munosabatlar maromini bildiruvchi ijtimoiy-psixologik hodisadir.

Nizolar yoki konflikt o‘zaro munosabatlardagi odamlarning subyektiv xatolari sababli ham kelib chiqishi mumkinki, shu nuqtai nazardan ham konfliktlarning turlari farqlanadi:

Shaxsning o‘ziga aloqador bo‘lgan ichki nizolar - odatda bevosita ijtimoiy psixologiya tomonidan o‘rganilmaydi, bu kabi nizolar umumiy, pedagogik hamda patopsixologiyaning predmeti bo‘lib, u asosan bir inson qalbidagi turli his-kechinmalari istak hoxishlar va motivlarning bir biriga zid kelishi, qarama-karshi fikrlarning paydo bo‘lishi oqibatida yuzaga keladi. Bunday nizo shaxsgagina ma’lum bo‘ladi, ba’zan esa odam qilib qo‘ygan ishining aynan o‘zining ichki nizolari oqibati ekanligini anglamaganda unga pisxoanalitik yoki patopsixolog yordamga keladi,

Shaxs va guruh - o‘rtasida sodir bo‘ladigan nizolar odatda bir shaxs qarashlari, xatti-harakatining u mansub bo‘lgan yoki ishi tushgan guruhning normalari, xulq-atvor maromlariga zid kelishi, shaxs kutishlarining guruh, normalaridan og‘ishi oqibatida kelib chiqadi. Agar bu mehnat jamoasida ro‘y bersa, bu guruh a’zolarining malakasizligi yoki rahbarning odamlarni boshqarishdagi uquvsizligi natijasida kelib chiqishi mumkin.

Guruhlararo ziddiyat yoki nizo - ikki yoki undan ortiq guruhlarning bir-birlari bilan murosaga kelisholmay qolgan taqdirda ro‘y beradi va bunda ularning o‘z maqsadlariga erishishlariga bir-birlarining xalaqit berishlari asosiy omillardan hisoblanadi.

Shaxslararo nizo - bir yoki bir necha konkret shaxslarning o‘zaro yoki guruh doirasidagi ziddiyatidir. Bu keng tarqalgan nizolardan biri bo‘lib, bunday nizolar rasmiy jamoalarda ham norasmiy muloqotlar oqibatida ham yuzaga kelishi mumkin. Bunday nizolar odamlarning fe’l-atvoriga ham, konkret vaziyatlarga ham bog‘lik tarzda kelib chiqishi va vaziyatning xarakteriga bog‘lik holda turlicha kechishi mumkin. Keng tarqalgan shaxslararo nizolar biri - bu er va xotin, ota-ona va farzandlar, qaynona-kelin o‘rtasidagi nizolar hisoblanadi.

Nizoni yuzaga keltiruvchi omillar va sabablar nihoyatda ko‘p, lekin ularni 5 asosiy guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Informatsion-axborot omillari: muloqot jarayonida sheriklarga noto‘g‘ri tarzda yetib keladigan noto‘liq, noaniq faktlar, mish-mishlar, shubhalar, to‘la aniqlik kiritilmagan ataylab yoki bilmay turib deyarli xufyona tarzda yetkazilayotgan ma’lumotlar, axborot manbaiga nisbatan ishonchning yo‘qligi va boshqalar ham shaxslararo yoki guruhlararo ziddiyatlarning omili bo‘lishi mumkin.

2. Jamiyat miqyosidagi ayrim tizimlarning faoliyatiga bog‘liq omillar: mulkchilikka oid muammolar, ijtimoiy maqom talashish, hokimiyat yo‘nalishidagi

amal va hisobotlarga oid janjallar, turli ijtimoiy normalar, an’analar, standartlar, xavfsizlik masalalaridagi qarama-qarshiliklar, rag‘batlantirish va jazolash, uy-joy, mulk tortishuvlari, resurslar, tovar, xizmat va foydalar taqsimoti jarayonlarida kuzatiladigan nizolar;

3. Qadriyatlarga aloqador omillar (o‘zimiz e’tirof etgan yoki rad etgan tamoyillar): jamoaviy, guruhiy yoki shaxsiy e’tiqod, ishonmagan va ishongan qadriyatlarimiz va ularning xulqda namoyon bo‘lishi, mafkuraviy, madaniy, diniy, axloqqa oid, siyosiy, professional qadriyatlar va ehtiyojlar borasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolar;

4. Munosabatlar omili: bunday omillar bevosita o‘zaro aloqalar va muloqotdan insonning qoniqishi yoki noma’qul, deb e’tirof etishidan kelib chiqadi. Shaxslararo o‘zaro munosabatlarda ko‘proq bir shaxsning kutishlariga boshqa bir insonning yoki odamlarning muomalasi zoye kelmasligi holatlarida shaxsiy nizolar kelib chiqadiki, ularning bartaraf bo‘lishi turli vaziyatlarda turlicha tus olishi, cho‘zilib ketganda, battar “gazzak” otishi, qisqa fursatda hal etilsa, muammo hal bo‘lishi ham mumkin. Shaxsiy muloqotdagi nizolar shaxsning hayotiy tajribasi, ma’lumotliligi darajasi, professional maxoratiga bog‘lik ravishda turli ko‘rinishlarda o‘z yechimini topishi mumkin;

5. Xulq-atvor bilan bog‘liq omillar: manfaatlar, qiziqishlar, o‘ziga bo‘lgan bahoga zid keladigan yoki xavf-xatar tug‘diruvchi vaziyat paydo bo‘lishi bilan go‘yoki, himoya vositasi sifatida paydo bo‘luvchi omillar turkumi bo‘lib, bu ikkinchi tomonning xudbinligi, adolatsizligi, mas’uliyatsizligi yoki loqaydlik, beparvolik oqibatida kelib chiqadi. Nizokashlar bunday sharoitda o‘zlariga nisbatan bo‘layotgan salbiy munosabatni xatti-harakatda ko‘rib, sezib turganlari bois xafagarchilik kelib chiqadi va bu konflikt bilan tugaydi.

Rus olim G.N.Smirnov turli nizolarni bartaraf etishga imkon beruvchi ikki guruh, usullarni taklif etadi - tizimiy hamda shaxslararo.

Nizolarni hal qilishga bog‘liq bo‘lgan tizimiy usullarga u quyidagilarni kiritadi:

1. Ishga nisbatan qo‘llaniladigan talablarni tushuntirish, masalan, ishchi yoki xodim o‘z xizmat vazifasini to‘laqonli ado etolmaganligi sababli u bilan rahbar o‘rtasida nizo kelib chiqqan bo‘lsa, nizoni barataraf etishga ahd qilgan kimsa shu xizmat lavozimiga qo‘yiladigan talablar, xodimning mehnat huquqlari bilan qatorda uning burch va mas’uliyatini ham yana bir marotaba uqtirib qo‘yadi;
2. Muvofiqlashtiruvchi va birlashtirish usullari. Odatda bir xodimning ish samarasi boshqa bir xodimga yoki xodimlarga, qolaversa, boshqa tuzilmalarning aniq; va yaxshi ishlashiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun bir xodim yoki xodimlar guruhida nizoli vaziyatning paydo bo‘lishiga boshqa bir tuzilma ishidagi nomuvofiqliklar sabab bo‘lishi mumkin.

3. Barcha ishlab chiqarish subyektlari faoliyatini yagona maqsad atrofida birlashtirish ham ishlab chiqarish jarayonlarida nizolarning sodir etilmasligini kafolatlaydi. Bunday sharoitda rahbarlar va guruh liderlarining roli katta bo‘ladi;
4. Rag‘batlantirish tizimini joriy etish samarali ish usullaridan hisoblanadi. Bunday sharoitda odamlarning xulq-atvoriga ta’sir etish, paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan nizoli vaziyatlarga barham berish yoki sodir b‘lgan b‘lsa, uni bartaraf etish uchun tashakkur bildirish, mukofotlash, xizmat lavozimini ko‘tarish kabilarni qo‘llash ijobiy samara berishi mumkin.

Nizolarni bartaraf etishning shaxslararo munosabatlarga aloqador usullariga quyidagilar kiradi:

1)*bosh tortish* - nizoga nisbatan shunday reaksiyaki, bunda nizoga guvoh bo‘lganlar aslida uning mavjudligini tan olmaydilar, unga aralashishdan bosh tortadilar. Odatda bunday sharoitda rahbar yo ayni paytda vaqti yo‘kligini, imkoniyat yo‘qligini, nizoning sababi arzimas holat ekanligini vaj qilib, uni hal qilishga aralashishdan bosh tortadi.

2)*tekislash* - bu nizolashuvchi tomonlardan birini mavjud holatga “ko‘ndirish”, moslashtirish va shu yo‘l bilan o‘zining ham muayyan manfaatlarini himoya qilishdir.

3) *kompromiss* - bu ochiq muloqot va vaziyatni, nizokashlarning xulq-atvori va fikrlarini muhokama qilish yo‘li bilan ikkala tomon uchun ham ma’qul bo‘lgan yechimni qidirishdir. Bu usulning samaradorligi shundaki, nizoga aralashgan shaxs ikkala tomonning ham aybini, ular tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarni ochiq, xolis o‘rtaga tashlaydi va eng ma’quli - xar bir shaxs o‘z burch va mas’uliyatlarini taroziga solib olishlari ekanligini uqtiradi. Natijada ikkala tomonda hosil bo‘lgan tanglik ma’lum ma’noda yumshaydi va oqilona qarorlar qabul qilish imkoniyati tug‘iladi. Nizokashlar janjal bo‘lgandan ko‘ra yomon bo‘lsa ham bir qarorga kelinganligidan xursand bo‘lib, o‘z fikrlaridan ma’lum ma’noda qaytadilar, vaqt o‘tgach esa vaziyat umuman yumshab, tomonlar yarashib ketishi mumkin.

4)*raqobat* - odatda bir tomonning ikkinchisi ustidan ustun kelishi hisobiga boshqasining batamom yengilishini nazarda tutadi. Ya’ni, bunda “Men yutishim uchun sen mutloq yengilishing shart” degan tamoyil ustuvor bo‘ladi. Bunday usul albatta, psixologik nuqtai nazardan samarasiz va noto‘g‘ri bo‘lsa ham, ayrim holatlarda masalaning aynan shu tarzda yechilishi boshqalarning iqtidori yoki irodasining kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

5) *xamkorlik* - bu nizoni hal qilishning shunday usuliki, bunda ikkala tomonning shaxsiy manfaatlari nizoni keltirib chiqargan muammodan ustun qo‘yiladi. Bunday holatlarda nizokashlar bir tomon manfaatining inobatga

olinmasligi, ikkinchi tomonning boshqa manfaatini yerga urishini tushungani uchun ham murosa yo‘li to‘g‘ri ekanligi, yaxshisi mavjud muammmoni yechishga teng kirishish lozimligi fikriga kelib to‘xtaydilar.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki real hayotda nizoning kelib chiqishi, uning qanday kechishi va yechimi uni keltirib chiqargan vaziyatdan ham ko‘ra, ushbu vaziyatda ishtirok etayotgan insonlarning unga nisbatan subyektiv munosabatlariga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham har qanday nizoli, ziddiyatli holatlarda unga aloqador bo‘lgan inson sifatida ayrim o‘ziga hos psixologik qoidalarga rioya qilishga to‘g‘ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Andreeva G.M. Ijtimoiy psixologiya. M., 2001 yil.
2. Bodalev A.A. Shaxslararo muloqot psixologiyasi. Ryazan, 1994 yil.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya T. 2012 yil.

Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. T. «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2006.

HARBIY XIZMATCHILAR FAOLIYATIDA BOSHQARUV USLUBLARINING AHAMIYATI

podpolkovnik, **MIRYUSUPOV Mirsaid Miralimovich**

O‘R Mudofaa vazirligi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada harbiy xizmatchilar faoliyatida boshqaruv uslublarining ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada boshqaruv uslublarining harbiy tizimdagi o‘rni, ularning samaradorligi, va harbiy xizmatchilarga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Boshqaruv uslublari harbiy tashkilotlar uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ular vazifalarni tez va samarali bajarishda, shuningdek, harbiy birliklar o‘rtasida o‘zaro tushunishni ta’minlashda katta rol o‘ynaydi. Maqola shuningdek, harbiy boshqaruvda mos uslublarni tanlashning muhimligini va ularning xizmatdagi xodimlarga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishini o‘rganadi. Tadqiqot harbiy boshqaruv uslublarining an’anaviy va zamonaviy uslublari o‘rtasidagi farqlarni ham tahlil qiladi va ularning harbiy xizmatni rivojlantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar*: Harbiy boshqaruv, boshqaruv uslublari, harbiy tizim, samaradorlik, motivatsiya, qarorlar qabul qilish, jamoaviy ish, zamonaviy boshqaruv, an’anaviy boshqaruv, harbiy xizmatchilar.*

Harbiy tizimda boshqaruv uslublari har bir harbiy xizmatchining faoliyatini shakllantiradigan muhim omillardan biri hisoblanadi. Boshqaruv uslublarining samarali qo‘llanilishi harbiy xizmatchilarning o‘z ishlariga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirib, jamoaning umumiy samaradorligini oshirishga yordam beradi. Harbiy boshqaruv uslublarini tanlashda harbiy tizimning an’anaviy strukturasi, zamonaviy yondashuvlar, boshqaruv sharoitlari va xizmatchilarning individual xususiyatlari kabi omillarni hisobga olish kerak. Ushbu maqolada harbiy boshqaruv

uslublarining ahamiyati, ularning harbiy xizmatchilarga ta’siri, va harbiy tizimda ishlatiladigan boshqaruv uslublarining turlari batafsil tahlil qilinadi.

Harbiy tizimda boshqaruv uslubi boshqaruvchilar tomonidan xizmatchilarga ta’sir ko‘rsatish va ularni vazifalarni bajarishga undashda muhim ahamiyatga ega. Harbiy boshqaruvda uslubni tanlash xizmatchilarning natijaga erishishdagi samaradorligini belgilaydi. Harbiy xizmatchilar o‘zlarining boshliqlaridan buyruqlarni tez va to‘g‘ri bajarishni kutadilar, ammo boshqaruv uslubi qanday bo‘lishidan qat’i nazar, uning samaradorligi xizmatchilarning vazifalarni bajarishdagi muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Boshqaruv uslublari harbiy tizimdagi barcha qatlamlarda — yuqori darajadagi qo‘mondonlardan tortib, pastki darajadagi xizmatchilargacha — joriy etiladi va ular harbiy tashkilotning umumiy ish faoliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi.

Harbiy tizimda ishlatiladigan boshqaruv uslublari asosan to‘rtta turga bo‘linadi: autoritar (avtoritar), demokratik, liberal va manipulyativ boshqaruv uslublari. Har bir uslub o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning har biri harbiy tizimda turli vazifalarni bajarishda samarali bo‘lishi mumkin. Quyida har bir boshqaruv uslubi haqida batafsilroq ma’lumot beriladi.

Avtoritar boshqaruv uslubi harbiy tizimda ko‘pincha qo‘llaniladi, chunki bu uslubda boshqaruvchi, ya’ni yuqori darajadagi harbiy rahbar, mutlaq vakolatlarga ega bo‘lib, qarorlarni tez va aniq qabul qiladi. Bu uslubda boshqaruvchi xizmatchilarga buyruqlar beradi va ular bu buyruqlarni qat’iy bajarishi kerak. Harbiy tizimda avtoritar boshqaruv samarali bo‘lishi mumkin, chunki tez qarorlar qabul qilish va qat’iy intizom talab etiladi. Ammo bu uslubning salbiy tomonlari ham mavjud, chunki xizmatchilar o‘z fikrlarini bildirishga imkoniyatga ega bo‘lmaydi, bu esa ularning motivatsiyasini kamaytiradi.

Demokratik boshqaruv uslubi, avtoritar boshqaruvga qarama-qarshi, xizmatchilarning fikrlarini hisobga olishga asoslanadi. Bu uslubda boshqaruvchi xizmatchilar bilan maslahatlashib, qarorlar qabul qiladi. Xizmatchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda etishadi va ular tashkilotning boshqaruv jarayonlariga jalb qilinadi. Demokratik boshqaruv uslubi ko‘proq jamoaviy ishni va hamkorlikni ta’minlaydi, bu esa xizmatchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularning ishga bo‘lgan sadoqatini kuchaytiradi. Shu bilan birga, bu uslubning kamchiliklari ham bor, chunki qaror qabul qilish jarayoni sekinlashishi mumkin.

Liberal boshqaruv uslubi xizmatchilarga ko‘proq erkinlik va mustaqillik berishga asoslangan. Bu uslubda boshqaruvchi xizmatchilarga ko‘proq huquq va erkinliklar beradi, shuningdek, ularga o‘z faoliyatlarini boshqarishga imkoniyat yaratadi. Harbiy tizimda bu uslub kamroq qo‘llaniladi, chunki harbiy tartib va intizomga yuqori talablar qo‘yiladi. Biroq, liberal boshqaruv uslubi xizmatchilarni

mustaqil fikr yuritishga va yaratishga undaydi, bu esa samaradorlikni oshirishi mumkin. Bu uslubning salbiy jihati esa tizimda tartibsizlik va boshqaruvning sekinlashishiga olib kelishi mumkin.

Manipulyativ boshqaruv uslubi boshqaruvchining xizmatchilarning hissiyotlarini, motivatsiyasini va harakatlarini o‘zgartirish uchun psixologik usullarni qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Bu uslubda boshqaruvchi xizmatchilarning psixologiyasini tahlil qilib, ularning qarorlar qabul qilish jarayonida qanday harakat qilishlarini boshqaradi. Manipulyativ boshqaruv uslubi ko‘pincha nohaq bo‘lib, ba’zi hollarda xizmatchilarni aldash yoki ularga xafa bo‘lishlariga olib kelishi mumkin. Biroq, bu uslubda to‘g‘ri va ehtiyotkorlik bilan ishlash, boshqaruvchining xizmatchilarni maqsadga yo‘naltirishda samarali bo‘lishi mumkin.

Boshqaruv uslublarining samaradorligi ko‘plab omillarga bog‘liq, shu jumladan xizmatchilarning individual xususiyatlari, boshqaruv jarayonining murakkabligi, tizimning o‘ziga xosligi va boshqaruvchining tajribasi. Avtoritar boshqaruv uslubi samarali va tezkor qarorlar qabul qilishni ta’minlasa-da, bu uslubda xizmatchilarni rivojlantirish va ularning ishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirishda kamchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Demokratik boshqaruv uslubi, o‘z navbatida, xizmatchilarni rag‘batlantiradi va ularning o‘z fikrlarini bildirishlariga imkon beradi, lekin qaror qabul qilish jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Liberal boshqaruv uslubi xizmatchilarga katta erkinlik beradi, lekin tartibsizlikka olib kelishi mumkin. Manipulyativ boshqaruv esa, ba’zida xizmatchilarni manipulyatsiya qilish orqali qarorlar qabul qilishni tezlashtirsa-da, uzoq muddatda ishonchsizlikka olib kelishi mumkin.

Boshqaruv uslubi harbiy xizmatchilarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Harbiy boshqaruv uslubi qanday bo‘lishidan qat’i nazar, xizmatchilar o‘zlarini boshqaruv tizimida qanday tutishlarini va o‘z fikrlarini qanday ifoda etishlarini tushunishlari zarur. Avtoritar boshqaruv uslubi xizmatchilarga intizom va tartibni ta’minlasa-da, ularning o‘z fikrlarini ifoda etishiga to‘sqinlik qiladi, bu esa ularning motivatsiyasini kamaytirishi mumkin. Zamonaviy boshqaruv uslublari esa xizmatchilarga o‘zlarini erkin ifoda etishga va qarorlar qabul qilishda ishtirok etishga imkon beradi, bu esa ularning ishga bo‘lgan sadoqatini oshiradi.

Harbiy tizimda boshqaruv uslublari muhim rol o‘ynaydi, chunki ular harbiy xizmatchilarning samaradorligi, motivatsiyasi va intizomini shakllantiradi. Harbiy boshqaruvda qo‘llaniladigan boshqaruv uslublari har bir xizmatchining ish faoliyatini belgilashda bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Boshqaruv uslublari an’anaviy va zamonaviy yondashuvlar o‘rtasidagi farqni aniqlash orqali, harbiy tizimda samarali boshqaruvni ta’minlash mumkin.

Avtoritar boshqaruv uslubi tez va qat’iy qarorlar qabul qilishda samarali bo‘lsa-da, xizmatchilarning fikrlarini inobatga olishda cheklovlarga olib keladi. Aksincha, demokratik boshqaruv uslubi xizmatchilarga o‘z fikrlarini bildirish imkoniyatini berib, ularning motivatsiyasini oshiradi, ammo qaror qabul qilish jarayonini sekinlashtiradi. Liberal boshqaruv uslubi xizmatchilarga katta erkinlik beradi, lekin tartibsizlik va nazoratsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Manipulyativ boshqaruv uslubi, ba’zan samarali bo‘lishi mumkin, ammo uzoq muddatda xizmatchilarga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqarishi ehtimoli bor.

Harbiy boshqaruv uslublarini to‘g‘ri tanlash, xizmatchilarni samarali ish faoliyatiga undash, ularning o‘zaro hamkorligini ta’minlash va intizomni saqlab qolish uchun muhimdir. Harbiy tizimda boshqaruv uslublarining zamonaviy yondashuvlari ko‘proq jamoaviy ish va xizmatchilarning ishtirokini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, bu esa harbiy xizmatchilarning ishga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytiradi va natijada, tizimda yuqori samaradorlikka olib keladi.

Shu bilan birga, boshqaruv uslublari harbiy xizmatchilarni rag‘batlantirish va ularning ishlariga bo‘lgan mas’uliyatini oshirishda muhim omil bo‘lib qoladi. Harbiy tizimdagi boshqaruv uslublari, yuqori darajadagi qo‘mondonlardan tortib, pastki darajadagi xizmatchilargacha barcha bosqichlarda ishlatiladi va ularning har biri tizim samaradorligini oshirishga qaratilgan. Shunday qilib, boshqaruv uslublarining harbiy tizimdagi ahamiyatini to‘liq tushunish va ularni zamonaviy talablarga mos ravishda qo‘llash tizimning muvaffaqiyatli ishlashini ta’minlaydi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Sultonov, F. A. (2018). Harbiy boshqaruv tizimi va uning samaradorligi. Toshkent: O‘zbekiston xalq ta’limi nashriyoti.
2. Abduvahitov, J. K. (2017). Harbiy tashkilotlar boshqaruvi va rahbarlik uslublari. Tashkent: O‘zbekiston hukumati nashriyoti.
3. Akramov, D. X. (2015). Ta’lim tizimi va harbiy boshqaruv. Buxoro: Buxoro universiteti nashriyoti.
4. Shukurov, M. M. (2020). Harbiy boshqaruv: nazariy va amaliy yondashuvlar. Jurnal of Military Science, 8(1), 35-40.
5. Yusupov, U. A., & Karimov, M. (2018). Harbiy tashkilotlarda rahbarlik uslublarining ahamiyati. Toshkent: O‘zbekiston ta’limi nashriyoti.
6. Xodjaev, N. A. (2017). Boshqaruv uslublari va ularning harbiy tizimdagi ahamiyati. Harbiy xizmati va strategik qarorlar, 5(2), 72-79.
7. Jumaev, P. (2021). Harbiy rahbarlik va boshqaruv uslublari: nazariy tushunchalar. Harbiy ilm-fan, 4(2), 56-60.
8. Abdullayev, R. (2019). Boshqaruv uslublarining harbiy tizimga ta’siri. Boshqaruv va psixologiya jurnali, 11(4), 88-93.

“DIQQAT”

Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna
Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi
Anvarov Shohjahon
Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi

Annotatsiya: *Diqqat. Diqqat haqida tushuncha**.** Diqqat – psixik faoliyatning yo‘naltirilishi va shaxs uchun ma’lum ahamiyatga ega bo‘lgan ob’ekt ustida to‘planishidan (beqaror yoki situatsiyali to‘planishidan) iboratdir. Yo‘naltirilishi deganda psixik faoliyatning tanlovchanlik harakateri, ob’ektning ixtiyoriy yoki beixtiyoriy tanlash tushuniladi.*

Kalit so’zlari: *diqqat, psixika, miya, nerv, qo’zg’aluvchi, ixtiyorsiz diqqat, ixtiyoriy diqqat*

Psixik faoliyatning yo‘nalishi deganda, faqat ana shu faoliyatni tanlashgina tushunilib qolmay, balki ana shu tanlaganini saqlab qolish va qo‘llab-quvvatlash ham tushuniladi.Diqqat psixik faoliyatning yo‘naltirilishi bilan birga, uning tuplanishini ham taqozo qiladi. Psixik faoliyatning bir joyga to‘planishi- -mazkur faoliyatga hech qanday aloqasi bo‘lmagan hamma boshqa narsalardan, boshqa hamma faoliyatdan diqqatni chalg‘itish demakdir. Diqqatni bir joyga to‘plash deganda, mazkur faoliyatga butunlay berilish, unga ozmi-ko‘pmi chuqur e‘tibor berish tushuniladi. Masalan, murakkab va zarur o‘quv materialini o‘qish va tushunish diqqatni to‘plashsiz amalga oshmaydi.Diqqatning fiziologik asoslari**.**

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, orientatsiya refleksi paydo bo‘lgan paytda xuddi uyqudan uyg‘onib bedorlikka o‘tishdagidek o‘zgarish hosil bo‘ladi. I.P.Pavlov tomonidan kashf qiligan nerv jarayonlarining induktsiyasi qonuni diqqatning fiziologik asoslarining tushunib olish uchun muhim ahamiyatga ega. Nerv jarayonlarining induktsiyasi qonuniga ko‘ra bosh miya po‘stining bir joyida maydonga kelgan ko‘zg‘alish jarayonlari bosh miya po‘stining boshqa joylarida tormozalnish jarayonini yuzaga keltiradi. Va aksincha bosh miya po‘stining bir joyida maydonga kelgan ko‘zg‘alish jarayonlari bosh miya po‘stining boshqa joylarida tormozalnish jarayonini yuzaga keltiradi.

A.A.Uxtomskiy tomonidan ilgari surilgan dominantlik printsipi ham diqqatning fiziologik asoslarini tushunishda muhim rol o‘ynaydi. Bu printsipga asosan, miyada ko‘zg‘alishining har doim ustun turadigan hukmron o‘chog‘i mavjud, bu hukmron ko‘zg‘alish o‘chog‘i ayni paytda miyaga ta’sir qilib, unda yuzaga kelayotgan hamma ko‘zg‘alishlarni qandaydir ravishda o‘ziga tortib oladi va buning natijasida boshqa ko‘zg‘alishlarga nisbatan uning hukmronligi yanada oshib boradi. Bunday ko‘zg‘alish o‘chog‘ining paydo bo‘lish asosi mazkur qo‘zg‘atuvchining kuchigagina bog‘liq bo‘lmay, balki nerv sistemasining ichki holatiga ham bog‘liq bo‘ladi. Bu hol psixologik jihatdan biror qo‘zg‘atuvchilarga

diqqatning qaratilishi va ayni chogda ta’sir qilib turgan boshqa qo‘zg‘atuvchilardan chalg‘ishda ifodalanadi.

Diqqatning turlari**.** Diqqatning yuzaga chiqish mexanizmlari juda murakkab va ularning ko‘rinishi, turlari ham turlichadir. Diqqatning turli ko‘rinishlari va mexanizmlarning umumiyligi asosida ularning turli turlari farqlanadi.Shaxsning o‘z oldiga diqqatni biror ob’ektga qaratishi maqsad qilib qo‘yishi va irodaning ishtirokiga ko‘ra uch xil diqqat farqalanadi. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat**.** Biz diqqatimizni qaratishni maqsad qilib qo‘ymagan paytimizda psixik faoliyatning biror ob’ektga yo‘naltirilishi va to‘planishiga ixtiyorsiz diqqat deyiladi. Ko‘pincha faoliyatning maroqliligi va qiziqarliligi va kutilmaganda favqulotdaligi diqqatni o‘ziga tortadi, odamni o‘ziga jalb qiladi.Ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiruvchi sabablar. Ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiruvchi sabablar juda xilma-xil va bir-biriga bog‘lanib ketgan. Biz ularni shartli ravishda bir-biridan ajratamiz va tahlil kilamiz.Tashqi kuzatuvchining xarakteri bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladigan ixtiyorsiz diqqatni keltirib chiqaradigan sabablar:bunga dastavval qo‘zgatuvchining kuchi yoki intensivligi kiradi. Yetarli darajada bo‘lgan har qanday qo‘zg‘atuvchi: qattiq ovoz, yorqin nur, kuchli silkinish diqqatimizni beixtiyor o‘ziga jalb qiladi.Bunda qo‘zg‘atuvchining absolyut kuchidan ko‘ra, nisbiy kuchi muhimroq rol o‘ynaydi.ko‘zg‘alishlar o‘rtasidagi kontrast ham diqqatni o‘ziga beixtiyor tortuvchi sabablardan biridir.Qo‘zg‘alishning uzoq vaqt davom etishi va shuning bilan birga narsaning fazoda tutgan o‘rnining kattaligi muhimdir. Masalan: hajmi atrofdagi jismlardan katta jism, qisqa muddatli qo‘zg‘atuvchilar orasida uzoq muddat davomida ta’sir kiluvchi diqqatni o‘ziga tortadi.Qo‘zg‘atuvchining to‘xtab-to‘xtab ta’sir qilishi ham kishining diqqatini beixtiyor o‘ziga tortadi (yonib-o‘chib turuvchi yorug‘lik).Ta’sir qilib turgan qo‘zg‘atuvchining birdaniga to‘xtab qolishi diqqatimizni jalb qiladi.To‘rtinchi guruh kishining ilgarigi tajribasining diqqatga ta’sirini ko‘ritish mumkin. Bunga kishining bilimlari, tasavvurlari, malaka va odatlarining ta’siri kiradi.Diqqatning ixtiyorsiz jalb qilinishida kutish katta rol o‘ynaydi.Yana bir guruh sabablar – kishining qiziqishlari ham ixtiyorsiz diqqatni keltirib chiqaruvchi sababalar orasida ko‘p uchraydi. Qiziqishning mavjudligi har qanday murakkab faoliyatni, ob’ektni ham beixtiyor diqqat ob’ektiga aylantiradi. Yuqorida keltirilgan ixtiyorsiz diqqatni keltirib chiqaruvchi sabablarni pedagoglar dars davomida hisobga olishlari, shular asosida o‘quvchilarning ixtiyorsiz diqqatni boshqarishlari lozim.Ixtiyoriy diqqat. Ko‘zlangan maqsad va kabul qilingan qaror tufayli ma’lum bir ishni bajarish lozimligini bilar ekanmiz, bunday holda diqqatning yo‘nalishi va to‘planishi ixtiyoriy harakaterga ega bo‘lishi mumkin. Bunday paytda diqqatimizni bajarayotgan ishimizga qaratishni maqsad qilib qo‘yamiz. Diqqatimiz ongli suratda boshqariladi. Ixtiyoriy diqqatni biz diqqatimizni qaratish uchun o‘z oldimizga

ongli suratda maqsad qo‘yamiz, qiyinchiliklarni yengib, diqqatni to‘plash uchun kurashib, har qanday boshqa narsalarga berilmaslik uchun iroda kuchini sarflab diqqatning xarakterli xususiyati xuddi mana shu maqsad ko‘zlashda, irodaviy zo‘r berishda namoyon bo‘ladi.Ixtiyoriy diqqat irodamizning namoyon bo‘lishidir. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatdan sifat jihatdan farq qiladi. Ixtiyoriy diqqat jarayonida yuqorida keltirilgan ixtiyorsiz diqqatni keltirib chiqaruvchi sabablarning ta’siri juda kuchli. Ammo bu sabablar bevosita emas, balki bavosita ta’sir qiladilar. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatdan kelib chiqqan.Muvofiklashtirilgan ixtiyoriy diqqat. Ixtiyoriy diqqatdan tashqari, diqqatning yana bir turini qayd etib o‘tish lozim. Bu diqqatning ixtiyoriy diqqat kabi maqsadga qaratilgan turi bo‘lib, lekin doimiy irodaviy zo‘r berishni talab qilmaydi. Diqqat avval boshda ixtiyoriy bo‘ladi. Kishi biror faoliyatni bajarishga o‘zini majbur qiladi, keyinchalik ishga kirishib, qiziqib ketadi va uning diqqati ixtiyoriy diqqatga aylanadi. Diqqat avval boshda ixtiyoriy edi, keyin esa ixtiyorsizga aylandi. Shu sababli diqqatning bu turi ixtiyoriydan keyingi ixtiyorsiz diqqat ham deb yuritiladi.4. Diqqatning xususiyatlari**.** Diqqat ko‘p tomonli jarayondir. Uning asosiy xususiyatlaridan biri diqqatning barqarorligi va tebranishiga to‘xtalib o‘tamiz.Diqqatning davomiyligi va uning tebranishi nimalarga bog‘liq. Ayrim tadqiqotchilar diqqatning davomiyligini sof biologik ritm (tebranish)lar bilan bog‘lashga intilganlar..Diqqatning barqarorligi – uning biror obekt ustida uzoq vaqt davomida to‘planib turishini ko‘rsatuvchi xususiyatdir.

Diqqatning bo‘linishi (taqsimlanishi).Diqqatning bo‘linishi – psixik faoliyatning shunday tashkil qilinishiki, bunda ayni bir vaqtning o‘zida ikkita va undan ham ko‘p ish-harakat bajariladi. Diqqatning bo‘linishiga misol: bir vaqtning o‘zida arifmetik hisoblarni bajarish va biror qo‘l mehnati turini bajarish. O‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, diqqatning taqsimlanishining samaradorligi bir qancha omillarga bog‘liq ekan. Shular orasidan eng katta rol o‘ynaydiganlari: kishining diqqatining individual xususiyatlari (diqqatning rivojlanganligi) bajarilayotgan ishlardan birortasining avtomatlashganlik darajasi. Bajarilayotgan ishlardan birortasi juda yaxshi o‘zlashtirilgan bo‘lsa, u diqqatni taqsimlashda ko‘p murakkablik tug‘dirmaydi. Shu sababli ko‘pchilik sohalarda birinchi davrda ishni o‘zlashtirish, bir vaqtning o‘zida bir qancha ishlarni bajarish, ularni boshqarish va muvofiqlashtirish juda qiyin kechadi. Faoliyat o‘zlashtirilib borilgach ko‘p takrorlanadigan ish harakat avtomatlashadi, ular maxsus ongli nazoratni talab qilmaydi. Shu sababli kishi ishni bajarish davomida boshqa narsalar haqida o‘ylashi, kuylashi, ishga «e‘tibor bermasdan» ishlashi mumkin.

Diqqatning ko‘chishi. Diqqatning muhim xususiyatlaridan biri, uning ko‘chishidir, ya’ni bir faoliyat turidan boshqa bir faoliyatga tez o‘tish qobiliyatidir. Diqqatning ko‘chirilishiga ba’zan aynan bir vaqtning o‘zida idrok qilinadigan,

ikkita o‘zaro farqlanadigan qo‘zg‘atuvchini aks ettirishda murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. Misol tariqasida kompliekatsiya deb atalgan tajribani ko‘rsatish mumkin. Tajribada 100 qismga bo‘lingan tsifrblat bo‘ylab strelka tez aylanib turadi, ayni shu tez aylanish davomida tsifrblatning qaeridadir qo‘ng‘iroq chalinadi. Tekshiriluvchi qo‘ng‘iroq chalinganda strelka tsifrblatning qaysi bo‘lagida turganini aniqlashi kerak. Bu ishni aniq bajarish juda qiyin. Turli tekshiriluvchilar turlicha aniqlaydi, biri 35-bo‘lagida desa, boshqasi 25-bo‘lagida deyishi mumkin. Hayotda esa diqqatning ko‘chishi ikkita narsani (ob’ektni) to‘g‘ri idrok qilishga yordam beradi. Masalan, notiqqa qarash va uni eshitish ancha yengil bo‘ladi; bu yerda eshitish va ko‘rish qo‘zg‘atuvchilarn bir-birini kuchaytiradi.

Xulosa:

Diqqatning fiziologik mexanizmlari ma’lum nerv markazlarining ko‘zqalishi va miyadagi boshqa nerv markazlarining tormozlanishi bilan bog‘liq. Bu mexanizm sub‘ekt (organizm) uchun ahamiyatli bo‘lgan qo‘zg‘atuvchilarni ajratishni psixik faoliyatning yo‘nalganligini ta’minalaydi. Bunday yo‘naltirishga orientatsiya (tushunib olish) refleksini misol keltirish mumkin. Har qanday yangi qo‘zg‘atuvich (agar u yetarli darajada kuchli bo‘lsa) bu refleksni, I.P.Pavlov aytganidek, «nima u» degan refleksni keltirib chiqaradi. Bu sodda turdagi diqqatning fiziologik asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Myers D.G. Psychology. Ninth edition. – worth publishers, 2010. – 910 p.

2. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. t.: o‘qituvchi, 2010.

3. F.I.xaydarov n.i.xalilova umumiy psixologiya (darslik) bakalavriat yo„nalishi: 5140800-pedagogika va psixologiya talabalari uchun darslik. toshkent - 2009.

4. Лурия А.Р. Лекции по общей психологии. – спб.: 2006. – 320 с.

5. Mamajonova S. (2023). O‘smirda diqqat barqarorligi, o‘qitishning mazmundorligi, mantiqiyligini oshiruvchi omil sifatida. journal of pedagogical and psychological studies, 1(4), 72-76.

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA BOLA TARAQQIYOTINING PSIXOLOGIK MUOMMOLARI

TAFU katta o’qituvchisi D.R.Tulyaganova

Annotatsiya: *Har bir 3-6 yoshli bolani tarbiyalayotgan ota-ona uning psixologik xususiyatlarini bilishi kerak. Aynan shu davrda bilish jarayonlari tez sur’atlar bilan rivojlanadi, jamiyatning bo’lajak to’laqonli a’zosining asosiy shaxsiy xususiyatlari, uning axloqiy va emotsional-irodaviy sohasi shakllanadi. Bola sog’lom va uyg’un shaxs bo’lib o’sishi uchun uning rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratish talab etiladi.*

Kalit so‘zlar: *itoatsizlik, qaysarlik, negativism, motivlar spektri, motivatsion-ehtiyoj, ruhiy cheklovlar.*

Maktabgacha yoshda bola ham jismonan, ham ruhiy jihatdan tez rivojlanadi. U allaqachon atrof-muhitdan keladigan signallarni aniqlashni o'rgangan, endi ularni tahlil qilish va sintez qilish bosqichi kelgan davr hisoblanadi. Bilim, ko'nikma va malakalarni to'plash, ularni takomillashtirish jarayoni sodir bo'ladi. Ushbu yosh davri 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan oraliqni o'z ichiga oladi. O'zini ota-onalardan ajratishdan boshlanadi va o'zini anglashning rivojlanishi bilan yakunlanadi. U 3 bosqichga bo'linadi:

- kichik maktabgacha yosh (3-4 yosh);
- o'rta maktabgacha yosh (4-5 yosh);
- katta maktabgacha yosh (5-7 yosh).

Har bir davr o'ziga xos psixologik rivojlanish xususiyatlariga ega. 3-4 yoshdagi bola faol ravishda o'zini namoyon qila boshlaydi. U hamma narsani mustaqil ravishda va o'zicha qilishga intiladi, o'zini, o'z harakatlarini maqtaydi va kattalardan ham shuni talab qiladi. Ko'pincha itoatsizlik, qaysarlik, negativizm kabi reaksiyalar paydo bo'ladi. Bu esa ularda 3 yoshdagi inqirozning belgisi bilan namoyon bo'ladi. 3-4 yoshli maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishi ko'rgazmali-harakatli fikrlash turidan ko'rgazmali-obrazli fikrlashga o'tishni o'z ichiga oladi, nutqning faol shakllanish davri tugaydi, lug'at boyligi 1000 dan ortiq so'zni tashkil etadi. Diqqat va xotira beixtiyoriy xarakterga ega. Katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarda kattalarga nisbatan barqaror mehr paydo bo'ladi, psixologik salomatlik uchun bolaga ota-onaning sevgisi, e'tibori va tushunishi kerak. Ijodiy qobiliyatlar faollashadi, diqqat va xotiraning ixtiyoriyligi paydo bo'ladi, hissiy reaksiyalar yanada barqarorlashadi, shaxsning irodaviy va axloqiy-axloqiy komponentlari rivojlanadi.[1] Vijdon va burch hissi shakllanadi, jamiyatda xulq-atvor normalari va qoidalari, yaxshilik va yomonlik, do'stlik va muhabbat tushunchalari qat'iy o'zlashtiriladi. Ushbu yoshdagi bolalar quvnoq o'yinlarni yaxshi ko'radilar, ularni bema'niliklar va to'qimalar xursand qiladi. Katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari shundan iboratki, rivojlanishning ushbu bosqichida keng bilishga bo'lgan qiziqishlar birinchi o'ringa chiqadi. Ushbu yosh davrining o'ziga xos xususiyati - qiziquvchanlik, atrof-muhitni tushunishga bo'lgan o'tkir istakdir. Buni qo'llab-quvvatlash juda muhim, shunda kelajakda u o'qishga qiziqish va bilimga muhabbatga aylanadi.

Shuningdek maktabgacha yoshda ruhiy jarayonlarning rivojlanishi shakllanish bosqichida bo'ladi. Bola faol ravishda dunyoni o'rganadi va ko'plab savollar beradi. Bilish jarayonlari - xotira, diqqat, tafakkur, nutq, emotsional-irodaviy soha, shuningdek, ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati - o'yin, jamiyatda xulq-atvor normalarini va insoniy munosabatlar dunyosini o'zlashtirish. Bola kattalardan ajralishga intiladi, o'zi

xo’jayin bo’lgan shaxsiy vaziyatni shakllantiradi. Ammo aslida u bir qator jismoniy va ruhiy cheklovlar tufayli kattalarning hayotida to’laqonli ishtirok eta olmaydi. O’zini namoyon qilishga yordam beradigan ramziy shakl – syujetli-ro’lli o’yin bo’lib, unda bir qator shartlar bajariladi:

- bola kattalarning harakatlariga taqlid qiladi;
- real narsalar o’yinchoqlar bilan almashtiriladigan vaziyatni o’ylab topadi;
- sodir bo’layotgan voqealarning ramziy xarakteri;
- jarayon bir qator qoidalar va cheklovlarni o’z ichiga oladi.

Bularning barchasi maktabgacha yoshdagi bolaning psixologik salomatligini, uning aqliy va hissiy rivojlanishini ta’minlaydi. O’yin orqali u atrofidagilar bilan o’zaro aloqa qilishni o’rganadi, dunyoni biladi va qoidalarga bo’ysunish orqali xulq-atvorning ixtiyoriyligi rivojlanadi.

Bundan tashqari ushbu yoshning psixologik xususiyatlari ushbu rivojlanish bosqichiga xos bo’lgan bir qator yangi shakllanishlarni o’z ichiga oladi:

- ko’rgazmali-obrazli fikrlashning shakllanishi, faoliyatning kelajakdagi natijasini oldindan ko’rish;
- ruhiy jarayonlarning (xotira, diqqat) ixtiyoriy ravishda rivojlanishi, vaziyatni baholash va prognoz qilish uchun reaksiyalarni to’xtatib turish qobiliyati;
- motivlar spektrining kengayishi;
- o’zini o’zi baholash va o’zini anglashning shakllanishi va rivojlanishi;
- nutqning faol funktsiyasi;
- axloqiy rivojlanishda jamiyatda xulq-atvor normalarini ongli qabul qilish amalga oshiriladi;
- maktabga psixologik tayyorgarlik (intellektual va shaxsiy) [2].

Maktabgacha yoshning psixologiyasi shundayki, jadal o’sish va rivojlanish maktabgacha yoshdagi bolaning xulq-atvoriga va emotsional namoyon bo’lishiga ta’sir qiluvchi bir qator ziddiyatlarning paydo bo’lishini ta’minlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolaning ruhiy rivojlanishi bir qator muammolar tufayli qiyinlashishi mumkin:

- emotsional-shaxsiy muammolar (yomon kayfiyat, tajovuzkorlik, tashvish, qo’rquv va boshqalar);
- bilish jarayonlarining sekinlashgan rivojlanishi (diqqatni buzilishi, yodlash qiyinchiliklari, etarli tushunmaslik, cheklangan lug’at boyligi);
- xulq-atvor muammolari (yolg’onchilik, qo’pollik, mag’rurlik);
- turli xil xususiyatlarga ega bo’lgan nevrologik muammolar (uyqu buzilishi, tez charchash, enurez);
- muloqot muammolari (boshqa bolalardan uzoqlashish, xafa bo’lish, haddan tashqari yopiqlik) [3].

Maktabgacha psixologiya shuni ta’kidlaydiki, tuyg’ularning murakkablashishiga qaramay, maktabgacha yoshdagi bolalarning ruhiyati yetarlicha moslashuvchan va moslashuvchan, tarbiyadagi bir qator xatoliklar va salbiy omillarni yengishga qodir. Bunday qiyinchiliklarni tushunishga bolalarning ruhiy rivojlanishini tashxislash yordam beradi. Mantiqiy fikrlash, tahlil va sintez operatsiyalari, umumlashtirish, tasniflash rivojlanadi. Ushbu yoshda xulq-atvorning ixtiyoriyligi hali ham shakllanayotganligi sababli, bolalarni psixodiagnostika qilish ham ixtiyoriy, ham beixtiyoriy darajadagi bilish jarayonlariga ta’sir qiluvchi topshiriqlarni o’z ichiga olishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixodiagnostika qilish usullari maxsus topshiriqlar va testlar bilan cheklanmaydi. Tengdoshlari bilan o’ynash yoki yolg’izlikda bolalarni kuzatish eng yaxshi psixodiagnostika natijalarini beradi. Qoida tariqasida, bu jarayonda ota-onalar bilan o’zaro munosabatlarning xususiyatlari, bolaning konfliktligi va tajovuzkorlik darajasi, qoidalarga va normalarga bo’ysunish qobiliyati aks ettiriladi. Proyektiv, rasm testlari kichik bolalar uchun juda mos keladi.

Qog’oz varag’ida barcha tajribalar va muammolar, emotsional holat va o’ziga bo’lgan ishonch darajasi aks etadi. Ishonchli natijalarni olishning muhim sharti - maktabgacha yoshdagi bola va psixolog o’rtasida psixologik aloqa o’rnatishdir. Faqat shu holda rivojlanish tashxisi oqlanadi. Agar bola majburlansa yoki qo’rqitilsa, tekshiruv natijalari sezilarli darajada buzilishi mumkin. Zarur bo’lganda, psixolog, logoped, defektolog yoki boshqa mutaxassis bilan tuzatuvchi va rivojlantiruvchi mashg’ulotlarga borish tavsiya etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning o’zini o’zi baholashini shakllantirishga, avvalo, ota-onalar bo’lgan kattalar bilan bo’lgan ijtimoiy-psixologik o’zaro munosabatlarning xususiyatlari va o’zaro ta’siri bevosita ta’sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Смирнова Е. О. Общение и его развитие в дошкольном возрасте. — М.: Юрайт, 2023. — 164 с.

2. Виноградова Н.А. Дошкольная педагогика: Учебник для бакалавров / Н.А. Виноградова, Н.В. Микляева, Ю.В. Микляева. — М.: Юрайт, 2013. — 510 с.

3. Козлова С.А. Дошкольная педагогика: учебник / С.А. Козлова. — М.: Academia, 2017. — 288 с.

“PSIXOLOGIYADA ILMIY TADQIQOTLARNING METODOLOGIK ASOSLARI”

Ermekova Indira Ermek qizi
Mavlonova Surayyo Sultonaliyevna

Annotatsiya*. Bu maqolada psixologiyada ilmiy tadqiqotlarning metodologik asoslari samarali qo’llanishi uning validligi va ishonligiga,psixologik tashxisning sifati va yuqori samaradorligini aniqlash borasidagi mulohazlar yuritiladi.*

Kalit so’zlari. *Tamoyillar, Indentifikatsiya, Sotsiometriya, Falsafa, Sotsiologiya, Pedagogika, Kibernetika, Texnika fanlari, Iqtisodiyot, Tibbiyot psixologiyasi, Umumiy psixologiya, Treninglar, Psixologik maslahatlar, Determinizm tamoyillari.*

Psixologiyaning tuzilishi,psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o’rni. Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo‘nalishdagi muammolarni ma’lum ma’noda o‘rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqazo etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo‘lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqei o‘ziga xos va etakchidir. Psixikaning negizida miyaning reflektor faoliyati yotadi. Tashqi dunyodan kirib keladigan qo`zg`atuvchilarga ichki yoki tashqi bio-logik organlar javob reaksiyasini bildiradi. Bosh miya katta yarim sharlarida vujudga keladigan muvaqqat nerv bog`lanishlari psixik hodisalarning fiziologik asoslari hisoblanadi va ular tashqi ta`-sirning natijasida hosil bo`ladi.

Psixofiziologik qonuniyatlarga binoan miyaning funksiyasi muvaqqat nerv bog`lanishlarining birlashish mexanizmi hamda ana-lizatorlar faoliyati mexanizmlari ta`sirida hosil bo`ladi. Psixikani tadqiq etish insonning butun ongli faoliyatini -uning ham nazariy, ham amaliy hayot faoliyatini o`rganishdir. «Odam-ning ongliligi uning turli-tuman faoliyatida, xatti-harakatlarida namoyon bo`ladi. Inson shaxsi har xil shakl va mazmunga ega bo`lgan nazariy hamda amaliy faoliyatlarda tarkib topadi. Bunda muhit, ir-siy belgilar, ijtimoiy ta`sir asosiy omillar hisoblanadi. Inson o`zi yashab turgan davrni, moddiy turmushni aks ettiradi, ijtimoiy-siyosiy muhit ta`siri ostida bilimlarni o`zlashtira bo-radi, ijtimoiylashadi. Ijtimoiy muhitda uning his-tuyg`ulari, xarakteri, qobiliyati, iqtidori, tafakkuri, ehtiyojlari, e`tiqodi, uni faollikka da`vat qiluvchi harakat motivlari, istaklari, tilak-lari, xohishlari asta- sekin o`zgarib boradi. Insonning bilish faoliyati rivojlanishi unga o`zini qurshab turgan borliqni yanada chuqurroq, to`laroq, aniqroq aks ettirish im-koniyatini yaratadi va u borliqning asl mohiyatini, turli yo`sindagi o`zaro bog`lanishlari, murakkab munosabatlari va aloqalarni tobora aniqroq yoritadi. Shu bilan birga mazkur jarayonlarda shakllanib kelayotgan insonning borliqqa, voqelikka, jismlarga, kishilarga va o`ziga munosabati vujudga keladi. Inson ongining rivojlanishi uning tashqi olamni faol aks et-tirishda

namoyon bo`ladi. Insonning moddiy turmushi, u hayot kechira-yotgan tuzumning moddiy asosiga emas, balki uni qurshab olgan odam-larning turmush tarzlari, umuminsoniy qiyofalari, dunyoqarashi, maslagi, ijtimoiy voqelikka munosabatlari, intilishlari, ijod mahsullari va xatti-harakatlarining majmuasidir.

borliqni aks ettirishi faol jarayondir. Insonning rivojlanishi obyektiv borliqqa va o`ziga faol ta`sir ko`rsatishida sodir bo`ladi. O`yinni kuzatishi, mehnati, o`qishi, adabiy asarni mutolaa qilishi, qiziqishining barqarorlashuvi va boshqalar shaxs-ning psixik rivojlanishini ifodalaydi. Psixologiyaningan`anaviy, empirik metodlari to hozirgi kun-gacha muvaffaqiyatli qo`llanilmoqda.

Kuzatish metodi. Psixologiya fanida bu metodning obyektiv (tashqi) va subyektiv (o`zini o`zi) kuzatish turlari mavjud. Inson psixikasidagi o`zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshi- riladi: kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi; kuzatiladigan obyekt tanlanadi; sinaluvchining yoshi, jinsi, kasbi aniklanadi; tadqiqot o`tkazish vaqti rejalashtiriladi; kuzatish qancha davom etishi qat`iylashtiriladi; kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o`yin, o`qish, mehnat va sportda) amalga oshirilishi tavsiya qilinadi; kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa bilan o`tkazilishi) ta- yinlanadi;8) kuzatilganlarni qayd qilib berish vositalari (kundalik, suhbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitafon, videomagnitafon, videoapparat, fotoapparat va boshqalar) taxt qilinadi. Kuzatish orqali odamlarning diqqati, his-tuyg`ulari, nerv sis-temasiningtashqi ifodalari, temperament xususiyatlari, imo-isho-ralari, sezgirligi, harakatchanligi, ishchanligi, xulq-atvori, nutq faoliyati va hokazolari o`rganiladi. Ammo o`ta murakkab ichki psixo-logik kechinmalar, yuksak hissiyotlar, tafakkur, mantiqiy xotira va aql-zakovatni tadqiq etishga bu metodning imkoni yetishmaydi.

Masalan, go`dak bolani kuzatishda uning harakatlari, o`yinchoqlarga mu-nosabati, his- tuyg`usi, talpinishi, mayli, xohishi aniqlanadi. O`quv-chining darsdagi holatini kuzatishda esa diqqatining xususiyati, tashqi qo`zg`atuvchi bilan ta`sirlanishi, temperamenti, xatti-haraka-tining sur`ati, emotsional kechinmasining o`zgarishi to`g`risida ma`-lumotlar to`plashga imkoniyati tug`iladi. O`spirin yoshlarning sport faoliyatini kuzatish orqali ularning irodasi, ishchanligi, his-tuy-g`usiningo`zgarish xususiyatlari, g`alabaga intilishi, o`ziningharaka-tini idora qila olishi yuzasidan materiallar yig`ish mumkin. Ish-chining dastgoh yonidagi faoliyatini kuzatish natijasida uning o`z diqqatini taqsimlashi, qiyin damlarda o`zini tutishi, imo- ishora-lari, tashqi qo`zg`atuvchidan ta`sirlanish darajasi haqida keng ma`-lumotlar yig`iladi. Keksalarning muloqot jarayonini kuzatish ularning xarakteri, nutq faoliyati, his-tuyg`usi, ekstravertivligi yoki intravertivligi, qiziquvchanligi va ruhiyatining boshqa xususiyat-larini aniqlash demakdir. Tashqi kuzatishda ba`zan tafakkur bo`yicha ham ma`lumotlar olish: ish ustidagi kayfiyatini, fikrning muayyan obyektga yo`naltirilga-nini, tashqi

qo`zg`atuvchilarta`siriga berilmaslikni, chehradagi tash-vish va iztirobni, ko`zdagi g`ayritabiiylikni, shuningdek, sinchkov-lik, teranlik, termulish kabi ruhiy holatlarni kuzatib, tafakkur-ning kechishidagi o`zgarishlarni aniqpash mumkin. Bulardan tashqa-ri, qo`lning titrashi, asabiylashish, nutqning buzilishi, hissiyot-ning beqarorlashuvi ham inson ruhiyatidagi o`zgarishlar bo`yicha ma`-lumot beradi.

Tabiiy fanlar: biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika va b.k. psixik hodisalar va jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechishi qonuniyatlarini ob'ektiv o'rganish uchun material beradi. Ayniksa, bosh miyaning hamda markaziy asab sistemasining psixik faoliyatlarini boshqarishda va ularni muvofiklashtirishdagi rolini e'tirof etgan xolda psixologiya fani tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardagi tadqiqot uslublaridan omilkorona foydalanadi. Masalan, shaxs qobiliyatlarini diagnostika qilish uning tug'ma layoqatlari hamda orttirilgan sifatlarini bir vaqtda bilishni taqozo etgani sababli, o'sha tabiiy layoqatning xususiyatlarini aniqlashda psixofiziologiyaning qator usullaridan (miya assimetriyasi qonunlari, miya bioritmlarini yozib olish, neyrodinamik hodisalarni aniqlash, qon aylanish va tana haroratini o'lchash metodlari) o'z o'rnida foydalanadi va biologiya, anatomiya, fiziologiya, neyrofiziologiya kabi fanlarning shu kungacha erishgan yutuqlaridan foydalanadi. SHuning uchun tabiiy fanlar sohasida erishilgan barcha yutuqlar psixologiyaning predmetini mukammalroq yoritishga o'z hissasini qo'shgan xolda uni boyitadi.

Kibernetika fani sohasidagi erishilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatli va zarur bo'lib, u inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturdan o'z o'rnida foydalanadi. Ayniksa, ma'lumotlar asri bo'lgan XX1 asrda informatsion texnologiyalar va modellashtirish borasida psixologiya hamda kibernetika hamkorligining salohiyati yanada ortadi. Masalan, oddiy muloqot jarayonini yanada takomillashtirish, har bir so'zning shaxslararo munosabatlardagi ta'sirchanligini oshirish maqsadida hamda ana shunday ijtimoiy faoliyat jarayonida shaxs tizimini takomillashtirishda turli kibernetik modellaridan o'rinli foydalanish zamonaviy psixologiyaning jamiyatdagi o'rni va rolini oshiradi, maxsus kompyuter dasturlarining keng qo'llanilishi inson miyasi va ruhiy olami sirlarini tez va aniq o'rganishni kafolatlaydi.

Texnika fanlari bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi yaqqol sezilmoqda. Bir tomondan murakkab texnikani boshqaruvchi inson ongi muammosini echishda, ikkinchi tomondan, psixik hayotning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati bu ikki yo'nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi. Masalaning yana bir alohida tomoni ham borki, u ham bo'lsa, texnika taraqqiyotga intilayotgan bir vaqtda

murakkab texnika va mashinalar bilan «muloqot» qilayotgan shaxs faoliyatini yanada mukammallashtirish va uning imkoniyatlariga moslash masalasi ham ana shu hamkorlikda hal qilinishi lozim bo‘lgan masaladir. Ayniksa, mustaqil O‘zbekiston uchun murakkab zamonaviy texnika sir - asrorlarini biladigan, uning jamiyat va fan ravnaqiga xizmatini ta’minlash qanchalik dolzarb bo‘lsa, ana shu texnikaga har bir oddiy fukaro ongi, tafakkuri va qobiliyatlarini moslashtirish va «odam - mashina» dialogining eng samarali yo‘llarini izlab topishi juda muhim. Texnika bilan bemalol «tillashadigan» malakali mutaxassislar tayyorlash borasida ham texnika fanlari pedagogika va psixologiya fanlari metodlaridan foydalana olsagina, muvaffaqiyatga erishadi.

Iqtisodiyot bilan psixologiyaning o‘zaro aloqasi va hamkorligi ham yangilik bo‘lib, ayniqsa, bozor munosabatlariga bosqichma - bosqich o‘tish sharoitida iqtisodiy ong hamda iqtisodiy xulqning o‘ziga xos namoyon bo‘lish qonuniyatlarini o‘rganishda ikkala fan teng xizmat qiladi. O‘zbekiston Prezidenti I. Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq fuqarolarda, birinchi navbatda, yoshlarda yangicha iqtisodiy tafakkur shakllanishining jamiyat iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyatiga e’tiborni qaratgan edilar.

Demak, yangi davr shaxsini tarbiyalash va uning jamiyatga moslashuvi masalasida psixologiya iqtisodiyot fanida qo‘lga kiritgan yutuqlar, yangiliklar va iqtisodiy samaraga erishish omillarini hisobga olsa, iqtisodiyot o‘z navbatida iqtisodiy islohotlarning ob’ekti hamda sub’ekti bo‘lmish inson omilidagi barcha psixologik o‘zgarishlarni aniqlash, tahlil qilish va shu asnoda bashorat qilish vazifasini echishi kerak.

YUqorida ta’kidlangan fan tarmoqlari psixologiya bevosita uzviy aloqada rivojlanadigan fanlarning asosiy qismi xolos. Bugungi kunda har bir fan rivoji uchun inson omilini hisobga olish zarur ekan, psixologiya o‘sha barcha fanlar bilan aloqada va hamkorlikda rivojlanadi.

Shuning uchun bugungi kunda psixologiya fanidan alohida bo‘lib ajralib chiqqan tarmoqlar to‘g‘risida ham fikr yuritish mumkin.

Har bir fan aniq ma’lumotlarga asoslanadi. ob’ektiv voqelikning bunday hodisalarini to‘plab, solishtirib, guruhlarga ajratib va umumlashtirib, fan yaratilishi kabi eng muhim zaruriyatni, aynan, irodamiz va ongimizdan mustaqil ravishda mavjud olamning ob’ektiv qonunlarini ochib beradi. bu ma’lumotlarga ega bo‘lish usullari ilmiy-tadqiqot metodlari yoki bilim, nazariya, ta’limot deb ataladi. shunday qilib, metod – ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi yoki biror-bir reallikni bilish usuli. ilmiy metod o‘z tuzilishiga ko‘ra, yondoshuvlar va muolajalar yig‘indisidan iborat. ilmiy tadqiqotlarning metodlari yordamida olimlar keyinchalik ilmiy nazariyalar tuzish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun ishonchli ma’lumotlar oladilar.

Har qanday fanga o‘xshash psixologiya ham o‘zining tadqiqot metodlariga ega. psixologik tadqiqotda qo‘llaniladigan metodlarning barchasini to‘rt guruhga ajratish mumkin: 1) tashkiliy metodlar; 2) tajriba metodlari; 3) ma’lumotlarni qayta ishlab chiqish metodlari; 4) izohlash metodlari. birinchi guruhga qiyosiy, longityud va majmua metodlari kiradi. ma’lumotlar olishning tajriba metodlari kuzatish va o‘zini kuzatish (introspeksiya), tajriba metodlari (laboratoriya, tabiiy, shakllantiruvchi), psixologik tashhislash metodlari (testlar, anketalar, so‘rovnomalar, sotsiometriya, suhbat, intervyu), faoliyat mahsuli tahlili (xronometriya, kasbiy ta’riflar, mahsulot va bajarilgan ishlarni baholash va boshqalar), tarjimai hol va egizaklar metodlarini o‘z ichiga oladi. ma’lumotlarni qayta ishlash metodlariga miqdoriy (statistika) va sifat (materialni guruhlarga ajratish, tahlil) metodlari kiradi. izohlash metodlariga turli xildagi irsiy (materilning rivojlanishdagi alohida davrlar, bosqichlar, xavfli vaziyatlar va boshqalarni ajratib ko‘rsatgan holda tahlili) va tarkibiy (psixika barcha xususiyatlarining tuzilishlari o‘rtasidagi aloqani o‘rnatish) metodlar kiradi.

Endi esa psixologik tadqiqotning asosiy metodlarini birmuncha to‘liqroq holatda ko‘rib chiqamiz.

Qiyosiy metod («ko‘ndalang kesim» metodi) turli guruhlarga mansub odamlarning yoshi, ma’lumoti, faoliyati va muloqotiga ko‘ra taqqoslashdan iborat. masalan, yoshi va jinsi bir xil bo‘lgan odamlarning ikkita katta guruhi (talabalar va ishchilar) ilmiy ma’lumotlarga ega bo‘lish uchun bir xil tajriba metodlari bilan tadqiq etiladi va olingan ma’lumotlar o‘zaro solishtiriladi.

Longityud metodi («uzunchoq kesim» metodi) tanlangan sinaluvchilarni uzoq vaqt davomida qayta-qayta tekshirishdan iborat. masalan, talabalarni oliygohda ta’lim olish vaqti davomida ko‘plab marta tekshirish.

Qiyosiy va longityud metodlari o‘z afzalliklariga ega. Kesimlar metodi qisqa vaqt ichida ko‘p sonli sinaluvchilarni tadqiqot bilan qamrab olish imkonini beradi. Longityud metodi kesimlar metodi e’tiboridan chetda qolgan nozik farqlar, xususiy rivojlanish turlarini qayd etishga imkon yaratadi. Amaliyotda bu ikki metod bir-birini to‘ldiradi.

Majmuiy metod – tadqiqotda turli fan vakillarining ishtiroki turli hodisalar, masalan, shaxsning fiziologik, psixologik va ijtimoiy taraqqiyoti o‘rtasidagi aloqalar va bog‘liqliklarni o‘rnatish imkonini beruvchi o‘rganish usuli.

Kuzatish – psixika tashqi alomatlarini oldindan belgilangan, tizimli, maqsadga muvofiq va qayd etilgan holatda qabul qilishdan iborat bo‘lgan metod. Bu metod ilmiyligining asosiy sharti bo‘lib uning ob’ektivligi, ya’ni, qayta kuzatuv yoki tadqiqotning boshqa usullarini, masalan, tajribalarni qo‘llagan holda nazorat olib borish imkoniyati xizmat qiladi. Kuzatish bir necha xil: ***standartlashtirilgan*** (belgilangan dasturga qat’iyan mos ravishda

o‘tkazilgan), ***erkin*** (oldindan o‘rnatilgan chegaralarga ega bo‘lmagan), ***kiritilgan*** (tadqiqotchi o‘zi kuzatayotgan jarayonning bevosita ishtirokchisiga aylanadi), ***yashirin*** bo‘ladi.

O‘tkazilish joyiga asosan kuzatishlar ***dala*** va ***laboratoriya*** kuzatishlariga bo‘linadi. Dala kuzatishlari tabiiy sharoitlarda, laboratoriya kuzatishlari esa sun’iy, ya’ni, oldindan yaratilgan sharoitlarda o‘tkaziladi.

Olib borish muntazamligiga ko‘ra kuzatishlar ***tizimli*** (ma’lum vaqt davomida ob’ektni o‘rganish uchun ishlab chiqilgan reja bo‘yicha) va ***tizimsiz*** (noma’lum vaqt davomida rejaga asoslanmagan) bo‘ladi.

O‘rganilayotgan hodisaning o‘tkazilish davomiyligi, vazifalari va ko‘lamiga ko‘ra kuzatishlar ***qisqa vaqtli*** (farazlarni ifodalash yoki boshqa metodlar yordamida olingan ma’lumotlarni nazorat qilish va to‘ldirish uchun tadqiqotning boshlang‘ich bosqichida o‘tkaziladi) va, uzoq oylar va yillar davomida keng ko‘lamli yoki murakkab tuzilmali ijtimoiy jarayonlarning kechishini kuzatishga xizmat qiluvchi ***uzoq vaqtli*** kuzatishlarga bo‘linadi.

Kuzatish metodini qo‘llash uchun quyidagi shartlar qo‘yiladi:

- sinaluvchining hulq-atvori uning ko‘pgina ko‘rinishlari va turli vaziyatlarda har tomonlama baholanishi lozim;
- kuzatuvchi sinaluvchi bilan juda ko‘p vaqt birga bo‘lishi kerak (kamida 2-3 oy davomida). Seanslar haftasiga 3-4 marta o‘tkazilishi kerak, ularning davomiyligi kuzatish maqsadidan kelib chiqib o‘rnatiladi;
- kuzatish jarayoni boshlanmasdan avval sinaluvchi hulq-atvorining qayd etiladigan xususiyatlari aniqlab olinishi, va xulq-atvorning bunday belgilari bilan tadqiqotchi bu metodni qo‘llagan holda baholamoqchi bo‘lgan psixologik xususiyatlar o‘rtasidagi aloqa oldindan o‘rnatilishi kerak;
- tadqiqotchi avvaldan kuzatish olib borish mashqini olgan bo‘lishi zarur;
- muammoni xolisona hal etish maqsadida sinaluvchi va tadqiqotchi o‘rtasidagi rolli munosabatlarga yo‘l qo‘ymaslik kerak;
- sinaluvchi bir vaqtning o‘zida kamida 10 ta ruhshunos kuzatuvida bo‘lishi va olingan baho har bir ruhshunos belgilagan balldan o‘rtachasini tashkil etgan bo‘lishi kerak.

Barcha ruhshunoslar bir-biriga bog‘langan bo‘lmasligiga zarur. Bunday holat natijalar samarasini oshiradi (baholash metodi).

O‘zini kuzatish metodi**,** yoki introspeksiya (lot.dan – ichkariga qarayman) – insonning o‘zining shaxsiy psixik hodisalarini kuzatishi. Bu psixikani bilishning eng qadimiy va eng qulay vositasidir. Uning kashf etilishiga fransiyalik faylasuf Rene Dekartning fikricha, ong – alohida tuzilgan, moddiy va tarqoq bo‘lmagan substansiya bo‘lib, sub’ektning mulohaza yuritganida ichida qanday hodisalar ro‘y berishi haqidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita bilimlari to‘g‘risidagi

dohiyona yorqin g‘oyalari turtki bo‘ldi. O‘ziga va ongiga nazar tashlash introspeksiyaning mohiyatini tashkil etadi.

O‘zini kuzatish orqali ichki kechinmalar, sirli xayollar, xotiradan ko‘tarilgan tasvirlar, jamiyat qarashlariga zid istaklar va irodaviy jarayonlar ochib beriladi. Bunda o‘zini kuzatish bilan olimning o‘zi ham, uning mijozi – sinaluvchi ham mashg‘ul bo‘lishi mumkin.

Sinaluvchilarga alohida ko‘rish yoki eshitish ta’sirlovchilari, jismlar tasviri, so‘zlar, jumlalar namoyish etiladi; ular qabul etilib, o‘zaro solishtirilib, hosil bo‘lgan tasavvurlar haqida ma’lumot berilishi kerak. Bunda sinaluvchilar o‘z javoblarida tashqi ob’ektlarni tasvirlovchi atamalarni qo‘llamay, bu ob’ektlar sababli yuzaga kelgan o‘z his-tuyg‘ulari va ularning sifatlari haqida so‘z yuritishlari kerak.

Hozirgi zamon psixologiyasining yangi yo‘nalishi – psixosintezning asoschisi – italiyalik shifokor-faylasuf Roberto Assadjioli fikricha, ongimizning bosh rejissyori oliy «Men» bo‘lib, uning qo‘l ostidagi aktyorlar esa – bu «Men»imizning ajralgan qismlari. Inson o‘zining ichki olamini ko‘zdan kechirishi, unga quloq tutishi bilan ikkilamchi, uchlamchi, to‘rtlamchi va boshqa «Men»larning xushqad yoki unchalik bo‘lmagan jo‘rovozi mavjudligi ma’lum bo‘ladi. Bilish va yangi nazariy istiqbollarni kashf etish metodi sifatida o‘zini kuzatish asosiy o‘rin egallaydi.

Psixo-fizik metodlar

Jismoniy va ruhiy hodisa deb nomlangan psychophysics o'rtasidagi munosabatlar o'rganish bilan shug'ullanadi psixologiya filiali. Shu ma'noda, muddatli psixo-jismoniy usullari urinishlar vazn his, yorqinligi, hajmi, va boshqa shunga o'xshash o'zgaruvchilar sifatida ma'lum psixologik tajribalar ilmiy o'lchovlar uchun jismoniy qurilmalar foydalanish ashyodan barcha usullarini ulanishi mumkin. va hokazo uyqu oralig'ida yoki xotira kabi boshqa murakkab psixologik hodisalar, shuningdek, psixo-jismoniy usullarini foydalanish o'rganib mumkin.

Nemis fiziolog va fizik Fechner (1801-1887) tomonidan ishlab chiqilgan uch klassik psixofizik usullari, haligacha psixofizika otasi. Ular:

(I) usullari yoki cheklashlarni minimal o'zgarishlar usuli.

(II) doimiy rag'batlantirishning yoki to'g'ri va noto'g'ri javoblar usuli.

(III) O'rtacha yoki o’rtacha xato usuli.

Bu usullar, birinchi navbatda, mutlaq arafasida va arafasida o'rtasidagi farqni o'lchash uchun ishlatiladi. Va mutlaq, pol va pol farqlar statistik tushunchalar va ham deyarli bir xil tarzda o'lchanadi. Mutlaq, pol ishonchli hissi ishlab chiqaradi jismoniy rag'bat, minimal qiymati sifatida belgilanishi mumkin.

Mutlaq chegara Shunday qilib, biz, biz, nur yorqinligi, biz nima mumkin emas va shuning uchun ko'rish mumkin olmaydi kishilardan hidlarni hidi mumkin olmaydi o'sha eshitasiz tovushlarni ajratib turadi.

O'zlari esa farq mavzu orqali idrok qilinishi mumkin, ikki rag'batlantirishning o'rtasida qiymati eng kam farq sifatida belgilangan bo'lishi mumkin. Bir kishi uning qo'lini qo'yish uchun ma'lum bir og'irlik kechirmoqda qachon umumiy birinchi ajratib bo'lmaydigan bo'lib, masalan, eng kam vazn, pol farq, unga ilova qilinadi. Keling, endi yuqorida aytib o'tilgan uch psixofizik usullarini qisqacha fikr berish chiqaylik.

Minimal o'zgarishlar yoki cheklashlar usuli usuli.

Bu usul mutlaq ostonasini va chegara (порог) farqini aniqlash uchun foydalanish mumkin. quyidagicha tartibi tasvirlangan:

1. An shaxs his duchor bo'ladi. Misol uchun, u bir ob'ekt (80 sm, masalan), ma'lum bir masofada yotgan yoki yo'q ko'rishni ega yoki yo'qligini so'rang mumkin.

Psixologiyaning asosiy metodi bo‘lib ***tajriba*** hisoblanadi. Tajriba metodi tadqiq etilayotgan hodisalar, ijtimoiy yoki psixologik jarayonlar, qarashlar, qonuniyatlar, yangi bilimlarga erishishdagi xossalari o‘rtasida mavjud bo‘lgan sababiy-oqibat aloqalari haqida aniqroq ma’lumotga ega bo‘lish maqsadida qo‘llaniladi. Kuzatishdan farqli ravishda tajribada tasviriy ma’lumotdan tashqari, aloqalar, munosabatlar, jarayonlar haqida tushuncha beriladi.

Tajriba o‘rganilayotgan hodisaning xususiyatlari o‘rtasida mavjud aloqalar to‘g‘risidagi nazariy tasavvurlarga asoslangan farazni isbotlash uchun tekshirish metodi sifatida shakllangan va mavjuddir. Metodologik rejaga ko‘ra, tadqiqot ob’ektini tahlil qilish birinchi bosqich bo‘lib, ikkinchi bosqich – o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi aloqalarning xususiyati yoki yo‘nalishi, mavjudligi haqidagi farazlarning shakllanishi, uchinchi bosqich – o‘zgaruvchilarni mustaqil va mustaqil bo‘lmagan turlariga ajratish hisoblanadi. Tajribadagi o‘zgaruvchilarni ajratish – ob’ektni dastlabki nazariy tahlil qilish natijasi. Tadqiqotchining ta’siri yo‘naltirilganlari nazoratdagilar va mustaqil o‘zgaruvchilar deb ataladi. SHundan so‘ng tajribaning metodik qismi boshlanadi. Tadqiqotning maqsadi aniqlanib, dasturi tayyorlangandan so‘ng esa ikki guruh – tajriba va nazorat guruhlari tuziladi.

Nizom bo‘yicha tajribaga qo‘yiladigan muhim talablardan psixologlar quyidagilarni sanab o‘tadilar: tadqiqot farazlariga ko‘ra aniq yo‘nalganlik; tadqiqot ob’ektini yuqori darajada bilish va to‘liq ta’riflash; tajriba muolajalarini olib borishni qat’iy nazorat qilish, ularning aniqligini ta’minlash; qayta ishlab chiqish, takrorlash imkoniyati; ijtimoiy ob’ektga mos keluvchi metodlar, kuzatish va o‘lchash vositalarining mavjudligi.

Tajriba tadqiqotlarini olib borishda quyidagilarni bilish lozim.

Tajriba predmeti – o‘rganilayotgan ob’ekt xossalari va uning ijtimoiy faoliyati va hulq-atvorini belgilab beruvchi omillar tizimi o‘rtasidagi munosabatlar va aloqalar.

Tajribadagi ***o‘zgaruvchi*** – o‘rganilayotgan ob’ekt holatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita ta’sir etuvchi nazorat ostidagi va nazoratga olinmaydigan omillar. O‘zgaruvchilar tizimi tajribadagi vaziyatda etakchilik qiladi va bu vaziyat xuddi shu tizim orqali ta’riflanadi. Asosiy o‘zgaruvchilar mustaqil va bog‘langan bo‘lishi mumkin. Mustaqil o‘zgaruvchi – tadqiqotchi tomonidan o‘zgartiriladigan va tajriba guruhi faoliyatiga kiritiladigan omil. Bog‘langan o‘zgaruvchi – mustaqil o‘zgaruvchi ta’sirida o‘zgaradigan omil.

Tajribaviy vaziyat – tajriba o‘tkazilayotgan sharoitlar yig‘indisi. U dala va laboratoriya sharoitida o‘tkazilishi mumkin.

Tajriba ob’ekti – ijtimoiy guruh, jamoa, shaxs (tajriba ishtirokchilari). Tajribada ikki xil ob’ekt: nazorat va tajriba guruhlari ajratiladi. Ikki guruhning tuzilishi tafovutlarni aniqlashga va kutilgan o‘zgarishlar ro‘y bergani yoki bermagani haqida mulohaza yuritish imkonini beradi. Tajriba ishtirokchilarining soni, odatda, unchalik ko‘p bo‘lmaydi, aksariyat hollarda 10-15 kishidan oshmaydi.

Tajriba guruhi tajriba omili (mustaqil o‘zgaruvchi) ta’sir ettiriladigan guruht.

Nazorat guruhi tajriba omillarining ta’sirini sezmaydi.

Agar tajriba guruhida nazorat ostidagi (mustaqil) o‘zgaruvchilar o‘zgartirilsa, nazorat guruhidagi mustaqil o‘zgaruvchilar o‘zgarishlarsiz sqlanib qoladi. Nazorat guruhi qiyosiy birlik bo‘lib xizmat qiladi.

Kengroq tarqalgan tajriba metodlarini ko‘rib chiqamiz.

Laboratoriya tajribasi sun’iy shroitlarda maxsus asboblarni qo‘llagan holda ta’sir etuvchi omillarning qat’iy nazorati yordamida amalga oshiriladi. Masalan, inson tafakkuri xususiyatlarini o‘rganish. Sinaluvchiga ajratilgan vaqt ichida echishi lozim bo‘lgan aqliy vazifalar qatori taklif etiladi. Har bir vazifani bajarish ma’lum ballar miqdori bilan baholanadi, ballar yig‘indisi esa aqliy rivojlanish darajasining ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi.

Tabiiy tajriba – sinaluvchiga sezilarsiz tarzda uning faoliyati yoki muloqotiga kiritilgan psixologik tajriba, u tabiiy sharoitlarda tadqiqotchining aralashuvisiz o‘tkaziladi. Tabiiy tajribani hayotning o‘zi qo‘yadi, tajribaviy vaziyat esa tadqiqotchining faol ishtirokisiz yuzaga keladi. Masalan, odam to‘satdan kasal bo‘lib qoldi, bunda kasallik uning psixikasi va hulq-atvoriga nisbatan biror-bir ta’sirga ega bo‘lishi ma’lum. Qanday qilib? Bu savolga tajribadan javob topish mumkin, tajriba davomida bemor psixolog tomonidan kuzatiladi va u bemorning kasalikkacha va kasallikdan so‘nggi holatlarini qiyoslaydi.

Xulosa:. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, metodni samarali qo‘llash uning validligi (oldindan belgilab qo‘yilgani bo‘yicha baholash uchun mos kelishi) va ishonchliligiga (takroriy va qayta tadqiq etishda bir xil natijalar olish imkonini beruvchi) bog‘liqdir.

Ishonchlilik va validlik – bular psixologik tashhisning sifati va yuqori samaradorligini aniqlash mumkin bo‘lgan mezonlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
2. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014.
3. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.

“OTA-ONALAR VA FARZANDLAR O‘RTASIDAGI NIZOLAR”

Iskandarova Dilnovoz

Toshkent amaliy fanlar universiteti ***talabasi***

Annotatsiya: *Oila va nikohning paydo bo`lishiga sababchi omillardan biri, ayniqsa, bizning sharoitimizda, farzand tug’ilishidir. Farzandsiz er-xotin aloqalarini, umuman oilaviy munosabatlarini tasavvur qilish mushkul. Ilmiy manbalar tarixan insoniyat ota-ona va farzandlar munosabatlari o`ziga xos bosqichlar va rivojlanish qonuniyatlarini boshidan kechirganligidan guvohlik beradi. Bashar tarixi shundan dalolat beradiki, zamonlar osha ota-onaning bolaga nisbatan xususiy mulkday qarab, uning ustidan hukmronlik qilishi borgan sari farzand ehtiyojlari bilan hisoblashish, uning barcha istaklarini bajo keltirib, unga cheksiz g’amxo`rlik ko`rsatishgacha bo`lgan munosabatlarga aylangan. Ota-ona – bola munosabatlarini agar tarixiy davrlarga bo`ladigan bo`lsak, ota-onaning bolaga yondoshuv usullari bo`yicha qator bosqichlarni boshdan kechirganligini ko`rish mumkin.*

Kalit so’zlar: *Nikoh, ota-ona, nizo, nizoli vaziyatlar, farzand, munosabat, muloqot, muhit, farzand, muhit.*

Chaqaloqning jismoniy o`sishi va rivojlanishi tabiiyki, onaning g’amxo`rligiga bevosita bog’liq. SHunisi muhimki, bola uchun har qanday g’amxo`r va mehribon inson unga ona o`rnini bosishi mumkin (buvisi, otasi, enagasi). Lekin kimningdir doimiy g’amxo`rligi, ya’ni, mehribon insonning – “ob’ekt”ning doimiyligi bola rivojlanishi uchun o`ta muhim hisoblanadi. Bola bir yoshga to`lguncha bo`lgan davri noverbal muloqot davri hisoblanib, undagi barcha o`zgarishlar onasi yoki yaqinlari bilan bo`ladigan emotsional, bevosita munosabatlarning natijasi bo`ladi va bora-bora muomalaga til va tovushlar bilan bog’liq belgilar kirib kela boshlaydi. Onaning barcha say’i-harakatlari bu davrda bola psixik rivojlanishining muvaffaqiyatini belgilaydi. Agar ota va ona tomonidan ko`rsatilayotgan g’amxo`rlik doimiy va samimiylik kasb etsa, bu E.Erikson ta’biri bilan aytganda, “mutloq ishonch” (bazalьnoe doverie)ga asos bo`ladi. Ya’ni, haqiqiy, g’amxo`r ona bolasining ayni paytdagi barcha ehtiyojlarini qalban his etib, o`sha zahoti qondirishga harakat qiladi, masalan, chanqasa suv, och qolsa –

ko`krak suti, peshob qistaganda, to`sish kabi ishlarni o`z vaqtida bajarib boradi. Onaning bola ehtiyojlarini shu kabi aniq bilib, o`z vaqtida mehr ko`rsatishi ba’zan intuitiv tarzda kechsa, ba’zan ona o`zini bola bilan identifikatsiya qiladi, ya’ni, o`zini uning o`rniga qo`yish orqali, uning talab-istaklarini sezganday bo`ladi, “vujudi bilan his etadi”. Bunday his qilishlar odatda ona tomonidan aniq anglanmaydi, lekin, tabiiiyki, onaning kechinmalari va sezishlari to`g’ri chiqadi. Lekin ba’zan pediatr yoki boshqa mutaxassis bilan bolaning holati haqida fikrlashganda ayrim hollarda o`zining intuitiv qarorlari to`g’ri yoki noto`g’ri ekanligini anglab qoladi.

Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi nizolar turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin. Ushbu nizolar o'zaro tushunmovchilik, kommunikatsiya yetishmovchiligi, qattiq talablar, shaxsiy erkinlikka bo'lgan ehtiyojlar va boshqa bir qator omillar tufayli ro'y berishi mumkin. Quyida bunday nizolarni yuzaga keltiruvchi ba'zi asosiy sabablarga to'xtalib o'taman:

1. Bepul va qat'iy talablar

Ota-onalar ba'zan farzandlariga juda qat'iy va o'zgarmas talablar qo'yishadi. Bu esa bolalarning o'zini erkin his qilish, o'z shaxsiyatlarini rivojlantirish istagi bilan ziddiyatga kirishadi. Shuningdek, ota-onalar o'zlarining tajribalarini bolalariga majburan o'tkazishga urinishlari mumkin, bu esa qarama-qarshiliklarga olib keladi.

2. Yoshga mos bo'lmagan kutishlar

Ota-onalar farzandlaridan ma'lum bir yoshda katta natijalar kutishlari mumkin, masalan, yuqori darajadagi o'qish yoki ijtimoiy muvaffaqiyatlar. Bu, ayniqsa, bolalarning shaxsiy qobiliyatlari yoki qiziqishlariga qarshi bo'lsa, o'zaro tushunmovchilik va nizo keltirib chiqaradi.

3. Kommunikatsiya muammolari

Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi kommunikatsiya kamchiligi nizo keltirib chiqaradi. Ota-onalar farzandlarining his-tuyg'ularini va fikrlarini to'g'ri tushunmasliklari, bolalar esa o'zlarini ifoda etishda qiyinchilikka duch kelishlari mumkin. Shuningdek, farzandlar tez-tez ota-onalarini tushunmasliklari yoki ularning maslahatlarini e'tiborsiz qoldirishlari mumkin.

4. Erkinlik va xususiyatga hurmat

Farzandlar o'z mustaqilligini, shaxsiy hududini va erkinligini istashadi. Ota-onalar esa ularni himoya qilish va nazorat qilishni maqsad qilgan holda, ortiqcha aralashuvni amalga oshirishi mumkin. Bu holat o'zaro ziddiyatlarni kuchaytiradi.

5. Qarorlar va tanlovlar

Ota-onalar o'z farzandlariga ba'zan qanday kasb yoki yo'nalishni tanlash haqida qat'iy maslahatlar berishadi. Farzandlar esa o'z qiziqishlari va orzu-istaklari

asosida qaror qabul qilmoqchi bo'lishadi. Bu qarama-qarshiliklar kelib chiqishiga olib kelishi mumkin.

6. Hissiy va psixologik bosim

Ba'zi hollarda ota-onalar farzandlariga haddan tashqari yuqori darajadagi kutilmalarni qo'yishadi, bu bolalarida stress, xavotir, yoki o'ziga ishonchsizlikka sabab bo'lishi mumkin. Bu esa ularning ota-onalariga qarshi kurashishiga va o'zaro muammo kelib chiqishiga olib keladi.

7. Avlodlar o'rtasidagi farqlar

Avlodlar o'rtasidagi dunyoqarash, qadriyatlar va an'analar farq qilishiga olib kelishi mumkin. Ota-onalar o'z vaqtlarida boshqa turdagi tarbiya yoki normativlarga amal qilgan bo'lsa, bolalar yangi dunyoqarash va qoidalar asosida tarbiyalanishadi. Bu farqlar tushunmovchiliklarga va nizolarga sabab bo'lishi mumkin.

8. Sotsial va madaniy bosim

Ota-onalar farzandlariga o'zlarining sotsial va madaniy qadriyatlariga muvofiq bo'lishini xohlashadi, ammo farzandlar zamonaviy muhitda boshqacha qarashlarga ega bo'lishi mumkin. Bu, xususan, o'zini ifodalash, o'zligini tanish va ijtimoiy erkinlik kabi masalalarda qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi.

9. Tajriba va bilimga asoslangan farq

Ota-onalar bolalarini o'z tajribalariga asoslanib tarbiyalashga intilishadi. Ammo har bir bolaning shaxsiy qobiliyatlari va ehtiyojlari turlicha bo'lishi mumkin. Agar ota-onalar buni hisobga olmasalar, bolalar o'zlarini tushunilmas va bosim ostida his qilishlari mumkin.

Psixologlar oiladagi nizolarni normal holat deb hisoblashadi. Mojarolar natijasida er-xotinlar bir-birlaridan nafratlana boshlaydilar va ularning ajralishlari yanada keng tarqalgan. Shu sababli, oilada doimo yuzaga keladigan nizolarni qanday hal qilish masalasi juda muhim bo‘lib qolmoqda. Yosh oila hayotining birinchi yilida ko‘pincha nizolar paydo bo‘ladi. Ularni yo‘q qilish uchun ikki juft quyidagilarga tayyor bo‘lishlari kerak:

1. Axloqiy va ijtimoiy. Bu yerda sheriklarning tarbiyasi, yoshi, ijtimoiy hayot darajasi muhimdir. Shunday qilib, yosh ayollar uchun turmush qurish 22-23 yoshda, erkaklar uchun 23-24 yoshda. Ayol erkakdan katta bo‘lmasligi kerak. Erkak kishi 12 yoshdan katta bo‘la olmaydi. Odamlar nikoh nima ekanligini, nikohda ulardan nimani kutish va o‘z majburiyatlarini bajarishga tayyorligi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari kerak, lekin faqat o‘z huquqlarini talab qilishlari kerak. Turmush o‘rtoqlar oilani mustahkamlashga va sog'lom bolalarni tarbiyalashga yordam beradigan sog'lom turmush tarzini olib borishga tayyor bo‘lishlari kerak. Uy-joy va moddiy boyliklar har doim ham munosabatlarning

davomiyligiga ta'sir qilmaydi, lekin ba'zida bu nizolarni rivojlantirishning mustahkamlovchi omiliga aylanadi.

2. Motivatsion. Oila mehr-muruvvatga, o‘z zimmasiga mas'uliyatni olishga tayyorlikka, farzandlar tarbiyasiga va ularni o‘ziga to‘q inson qilishga, mustaqil bo‘lishga asoslangan bo‘lishi lozim.

3. Psixologik. Oilani mustahkamlashga, rivojlantirishga va ziddiyatli vaziyatlarni hal qilishga yordam beradigan bunday fazilatlar va xatti-harakatlarning mavjudligi.

4. Pedagogik. Oilaviy hayotning turli sohalarida ma'lum bilimlarning mavjudligi va bu bilimlarni qo‘llashga tayyorlik.

Xulosa

Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi nizolar o'zaro hurmat, samarali kommunikatsiya va tushunish orqali engillashtirilishi mumkin. Ota-onalar farzandlarini erkin fikrlash, o'z shaxsiyatini rivojlantirish va mustaqil qarorlar qabul qilishda qo'llab-quvvatlashlari muhimdir. Shuningdek, farzandlar ham ota-onalarining tajribalarini va maslahatlarini ochiq fikr bilan qabul qilishga harakat qilishlari kerak. Har bir oilada nizolar bo‘ladi. Ko‘pincha turmush o‘rtoqlar ajrashishni xohlaydigan vaqt keladi. Ammo oila mustahkam va baxtli bo‘ladi, unda er-xotinlar bir-birlarini qabul qilishga, erkinlik va huquqlarni buzmaslikka, shuningdek, muammolarni yanada konstruktiv tarzda hal qilishga qaror qilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibaydullayeva U.R. Ota-ona va farzandlar o’rtasidagi nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori diss. - T.: 2022. – 5 b.

2. Kadirova A.T. O‘smirlarda oilaviy nizolar to‘g‘ricida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psixologiya fanlari nomzodi diss. – T.: 2007. –24 b.

3. Akramova F.A. Oilada sog‘lom psixologik muhitni tarkib toptirishning ijtimoiypsixologik asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: 2014. – 185 b.

4. Rasulova F.F. O‘smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari: Avtoref. diss. ps. fan (PhD): 19.00.06 – T.: 2018. – 48 b.

5. Salayeva M.S. O‘zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o‘zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fan nom diss. – T.: 2005. – 15 b.

6. Umarova M.M. O‘smirlarda oilaviy qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari: Dis. psixol. fan. nomzodi: 19.00.05. – T.: 2004. – 166 b.

7. https://www.youtube.com/watch?v=EH6kzX81-u0

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BILISH JARAYONING RIVOJLANISH

Jovliyeva Sojida Ilyos qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti ***talabasi***

Annotatsiya*. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlari yani sezgi, taffakur, xotira, nutq, hayol, hissiyot kabi jarayonlari yuzasidan ma'lumot berilgan. Bundan tashqari bilish jarayonlarni rivojlanishda turli xil usullardan foydalanish masalalari ochib berilgan.*

Kalit so'zlari: *Sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, hayol, hissiyot.*

Bog`cha yoshidagi bolalarda sezgi, idroq, tafakkur, tasavvur, nutq ,xayol, irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Bola ranglarni hali bir –birdan yaxshi farq qila olmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam berdigan o`yinchoqlar, kiyimlar, rangli halqalar, qug'irchoqlar, va shu singari o`yinchoqlar berish maqsadga muvofiqdir. Bog`cha yoshdagi bolalar turli narsalarni idrok qilshda ularning ko`zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilariga rang va shakliga asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qila olmaydilar. Bog`cha yoshdagi bolalar kattalarning yordami bilan suratni analitik ravishda idrok qilish qobiliyatga ega bo`ladilar. Bolalar suratlani idrok qiliyotganlarda kattalar turli xil savollar bilan tahlil qilshga o`rgatishimiz lozim. Bunda asosan bolalar diqqatini

1) Suratning mazmunini (syujetini) to`g`ri idrok qilshga

2) Suratning umumiy ko`rinishda har bir tasirlangan narsalarning o`rnini to`g`ri idrok qilshga;

3) Tasvirlangan narsalar o`rasidagi munosabatlarni to'g`ri idrok qilishga qaratish kerak.

Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo`ldoshdir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati benihoya kattadir. Bo`g`cha yoshdagi bolalar diqqati ixtiyorsiz bo`ladi. Bog`cha yoshdagi bolalarda ixtiyor diqqatnining o`sib borshi uchun o`yin katta ahamiyatga ega. O`yin paytda bolalar diqqatalarni bir joyga to`plab, o`z tashabbuslari bilan ma`lum maqsadlarni ilgari suradilar. Bu yoshdagi bolalarning xotirasi yangi faoliyatlar va bolalarning va bolaning o`z oldiga qo`ygan yangi talablari asosida takomillashib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasi ko`rgazmali, obrazli, bo`lshi bilan xaraktrlidir. L.S. Vigotiskiy takidlashicha bola xotirasning rivojlanishda nutiqning o`sishi juda katta ahamiyatga ega. Bu davirda bola narsa va xodisalarni faqat bevosita ko`rish orqali emas balki shu narsa va xodisalarning nomlari orqali ham idrok qila oladigan bo`ladi. Bundan tashqari kattalardan so`rab bilish olish eshitsh orqali ham xotiralarni boyitadilar. Ilk bolalalik davridagi xotiraning barcha jarayonlari ko`rina boshlaydi. Masalan kichik yoshdagi bola dastavval mexanik ravishda yani ma'nosiga tushunmasdan esda olib qo'yaveradi. Buning o`ziga xos jihati bor, albatta, Birnchidan yuqorda aytib o`tganimiz kabi bolalarda turmish tajribasi juda

ozgina, ular ko`p narsalarni hali muloqot bilmaydi, lekin hayotda to`qnash kelganligi sababli eslarida olib qoladilar. Ikkinchidan bolalar nerv sistemasning pastligi yani juda egiluvchanligi kattalarnikdan ham ustinroq bo`ladi. Mana shu sabali bolalarga mexanik eslab qolish hech qanday qiyinchlik tug`dirmaydi. Bolalarda so`zlarning ma`nosidga tushinib eslab qolish ham juda erta rivojlana boshlaydi. Masalan, ilk bolalik davridagi bolalar o`zlari yoqtirgan hikoyalarni ma`nosiga to`la tushungan holda eslab qoladilar.

V.V. Davidovning e`trof etishicha, bo`ycha yoshdagi bolalar xussusan kichik guruh bolalari ularning faoliyatlari uchun qandaydir ahamiyatga ega bo`lgan, ularda kuchli tassurot qoldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor eslarida olib qolaveradilar. Ular biror narsani eslarida olib qolishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ymaydilar va hali maqsad qo`yishni udasidan chiqa olmaydilar. Bog`cha yoshibdagi bolalarda asosan ixtiyorsiz esda olib qolishning yetaki tasodifiy bir xil emas. Buning o`z sabablari bor. Har bir tarbiyachi-pedagog bolalar xotirasiga doir xuxusiyatlarni yaxshi bilish kerak. Bog`cha yoshidagi bolalarning tafakkuri va uning rivojlanishi o`ziga xos xususiyatiga ega. Tafakkur bolaning bog`cha yoshidagi tez rivojlana bo`shlaydi. Buning sababi, birinchdan, bo`gcha yoshidagi bolalarda turmish tajribasning nisbatan ko`payishi, ikkinchidan, bu davirda bolalar nutqining yaxshi rivojlangan bo`lishi, uchunchidan esa, bog`cha yoshdagi bolalarning erkin, mustaqil harakatlar qilish imkoniytiga ega bo`lishlardir. Bog`cha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug`lishi, ular tafakkurning faollashayotganidan darak beradi. Bola savolga javob topa olmasa yoki kattalar uning savolga ahamiyat bermasalar, undagi qizquchanlik so`ngan boshlaydi.Kunlarning birida 5 yoshli Gulhayo shunday savol berdi “Odatda, har qanday taffakur jarayoni biron narsadan taajjublanishi, hayron qolishi va natijada turli savollarning tug`ilishi tufayli paydo bo`ladi. Ko`pgina ota onalar va ayrim tarbiyachilar agarda bolalar ortiqcha berib yuborsalar, sen bunday gaplarni qayerdan o`rganding deb koyib beradilar. Natijada bola o`ksinib, o`z bilganicha tushunishga harakat qiladi. Ayrim tortinchoq bolalar esa hech ham savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg`ulotlar va sayohatlarda kattalarning o`zlari ham savol berishlari va shu bilan ularni faollashtirshimiz lozim.

Bolaning yoshi va tayyorgarlik darajasiga qarab, maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha darslarning quyidagi misollarini keltirish mumkin:

1 yoshdan 3 yoshgacha

• kublar

• boshqotirma va mozaika

• nozik vosita ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'yinlar (modellashtirish, suv, qum, labirintlar bilan o'yinlar)

• rolli o'yinlar (qizlar-onalar, sotuvchi-xaridorlar)

• to'plamlar bilan o'yinlar (idishlar, shifokor, sartarosh va boshqalar) yoshdan 4yoshgacha

• shakl va o'lchamlarni solishtirish, oddiy hisoblash uchun maxsus to'plamlar : birinchi oqish darslari

• bolaning so'z boyligini boyitishga qaratilgan darslar (bolalar kitoblarini o'qish, suhbatlar)

rasm chizish, modellashtirish, hunarmandchilikni yaratish

• tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar

•konstruktorlar 4 yoshdan 5 yoshgacha. rivojlanishi, agar u uchun darslar uning shaxsiy manfaatlarini hisobga olgan holda tanlansa, yuzaga keladi.

• ob'ektlarning bir-biri bilan aloqasini aniqlash uchun o'yinlar (masalan, mozaikada yetishmayotgan elementni toping)

• ob'ektlarning shakllarini solishtirish uchun o'yinlar (kub va to'pni solishtirish, o'xshashlik va farqlarni topish)

• ob'ektlarning o'lchamlari va uzunligini taqqoslash uchun o'yinlar

• taqqoslash uchun rasmlar bilan o'yinlar (bir xil narsalarni toping, farqlarni toping)

• fazoviy fikrlash uchun o'yinlar (rasmda kim orqada, kim oldinda, kim o'ng va chapda ekanligini aniqlang)

• nuqtalarni rasmga ulash, labirintdan chiqish yo‘lini topish uchun o‘yinlar

• ot va sifatni kelishish qobiliyatini shakllantirish uchun o'yinlar

• rang o'rganish o'yinlari

5 yoshdan 7 yoshgacha.Bu yoshda maktabgacha yoshdagi bolaning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish asosan tajriba va tajribalar orqali amalga oshiriladi. Bola xulosalar va xulosalar chiqarishni, shuningdek, ma'lum natijalarni bashorat qilishni o'rganishi kerak.Aynanshundaynarsalarnio'rgatishmaqsadidabunday darslar o’tkaziladi kerak. Bundan tashqari, bu yoshda nostandart yechimlarni topishga va ijodiy qobiliyatlarning namoyon bo'lishiga qaratilgan o'yinlar juda foydali. Bolada asosiy axloqiy qadriyatlarning shakllanishi bilan bog'liq holda, bu davrda unga ma'lum qadriyatlarni targ'ib qiluvchi filmlar yoki multfilmlarni ko'rsatish juda foydali. Xuddi shu narsa fan kitoblari uchun ham amal qiladi. Bu yoshda maktab hayotining boshlanishi deyarli burchak ostida bo'lganligi sababli, bolaning nutqini rivojlantirishga alohida e'tibor berish kerak. U bilan suhbatlar o'tkazing. O'qigan kitob yoki film haqida bolaning fikrini so'rashni unutmang. Bir so'z bilan aytganda, uni nutqni rivojlantirishga va olingan ko'nikmalarni kundalik hayotda qo'llashga undash zarur.

Xulosa qilib aytganda: maktabgacha yoshdagi bolalik - bu shaxsiyat shakllanishining qisqa, ammo muhim davridir. Bu yillarda bola atrofdagi hayot haqida dastlabki bilimlarni oladi, unda odamlarga, mehnatga ma'lum munosabat shakllana boshlaydi, to'g'ri xulq-atvor ko'nikmalari va odatlari shakllanadi, xarakter shakllanadi. Bola hayotining ushbu bosqichida o'qituvchi o'z ishida o'yin va ko'ngilochar materialdan foydalanishi juda muhimdir, chunki bu bolalarning mavzuga bo'lgan bilish qiziqishini, mantiqiy va mantiqiy fikrlashni, istakni rivojlantirishning yaxshi vositasidir. ruhiy stressni ko'rsatish va muammoga e'tibor berish. O'yin ko'ngilochar material - bu bolalarning rivojlanishiga kompleks ta'sir qilish vositasi bo'lib, uning yordami bilan aqliy va irodaviy rivojlanish amalga oshiriladi, bola o'rganish jarayonida faol pozitsiyani egallaydi. O'yin va ko'ngilochar materiallardan foydalanishning xilma-xilligi va doimiyligi tufayli bola o'quv dasturini muvaffaqiyatli va tezroq o'zlashtiradi, unda ongli qiziqish, qiziquvchanlik va nihoyat, darslarga bilish qiziqish rivojlanadi. Har bir dars maksimal o'yin materiallari to'plami bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

Foydalangan adabiyotlar:

1. G`oziyev E. “Umumiy pisixalogiyasi”-T. O`zbbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2010-548-b.
2. Vaxrusheva L.N. “5 yoshli bolalarda bilish qiziqishlarni o`rganish’’. M.TCsphere, 2012.
3. Tixomirova L. F. “Bolaning bilsh qobiliyatini rivojlantirsh’’Ota-onalar va o`qtuvchilar uchun nashhur qo`llanma.- Yaroslava: Rivojlanish akademiyasi, 1996-192p.
4. Poddyakov N.N. “Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishing xususiyati’’- M, 1996 y.
5. Nemov R.S. “Psixologiya”. –M; VLADOS, v-3-x tomax. 2009
6. Satarov E.N, Alimov X. “Bolalarning xotirasini rivojlantirsh usullari’’. –T 2003

PSIXADIGNOSTIKA METODLARNI KLASSIFIKATSIYASI

Mamasoliyeva Munira Mamatvali qizi
Pedagogika psixologiya fakulteti talabasi
Mavlonova Surayyo Sultonaliyevna

Annotatsiya*. Bu maqolada metod va metodika haqida tushincha , standartlashtirilgan va ekspert baholash metodlarning asosiy farqlari , test standartlashtrilgan metod sifatida yurtish borasidagi mulohazalar yurtildi .*

Kalit so’zlari. *Ekspert baholash metodi, ekspriment , suhbat metodi , interyuv metodi , arxiv metodi content analiz , faoliyat maxsulini organish proyektiv metod .*

1. Metod va metodika haqida tushuncha. Metod – (Yunoncha. Metodos-tabiat hodisalarini tekshirish usuli).Psixodiagnostik metod – psixologiya fanining

tadqiqot usulidir. Psixodiagnostik metod psixologiya fanining eksperimental va eksperimental bo'lmagan an`anaviy tadqiqot metodlariga nisbatan o'ziga xoslikka ega. Psixodiagnostik metodlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, o'rganilayotgan hodisaning miqdoriy (va sifatiy ) baholash imkoniyatining mavjudligi tufayli o'lchash-sinashga yo'naltirilganligidir.Buni ma`lum qoidalarni bajarish natijasida amalga oshirish mumkin bo'ladi. Psixologiyaning metodlari: kuzatish, eksperiment, suhbat, anketa, test, faoliyat natijalarini tahlil qilish, sotsiometriya. SHaxsning biror bilish jarayonlari, psixik holatlari yoki individual-psixologik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan aniq test yoki so'rovnoma metodika deyiladi.

Jahonda psixodiagnostik metodlarning mingdan ortiq turi mavjud bo‘lib, ularni sxematik qarab chiqilmasa, farqlab olish juda ham mushkul. Psixodiagnostik metodlarning umumiy sxematik klassifikatsiyasini quyidagicha ko‘rsatib o‘tish mumkin:

Kuzatish asosidagi psixodiagnostik metodlar.

Savolnomali psixodiagnostik metodlar.

Ob'ektiv psixodiagnostik metodlar, bunga inson xulq-atvor reaktsiyalari analizi va faoliyat mahsuldorligini o‘rganish ham kiradi.

Psixodiagnostikaning eksperimental metodlari.

Kuzatish asosidagi psixodiagnostik metodlar, albatta, kuzatish olib borish hamda olingan natijalardan psixodiagnostik xulosalar chiqarishning muvaffaqiyatli garovidir. Bunday kuzatishda standart sxemalar va sharoitlar kiritiladi, bunda nimani kuzatish, qanday kuzatish, kuzatish natijalarini qanday qilib belgilab borish, qanday baholash hamda sharhlash asosida xulosa chiqarish aniq belgilab olinadi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan psixodiagnostik talablar – standartlashtirilgan kuzatish deb Yuritiladi. Bunga misol sifatida, qandaydir topshiriqning echimi bo‘yicha kichik guruhning ish faoliyatini ko‘rib chiqamiz (R.Beyls metodi bo‘yicha).

- ✓ Sharoitni engillashtirish
- ✓ Muammo echimini taklif qilish
- ✓ Savollarga javob berish
- ✓ Ma'lumotlar berish
- ✓ Tushuntirib berish
- ✓ Yordam berishni taklif qilish
- ✓ Yordam so‘rash
- ✓ Tushuntirib berishni so‘rash
- ✓ Ma'lumotlar berishni so‘rash
- ✓ Savollarga javob berishni so‘rash
- ✓ Muammo echimini so‘rash

- ✓ Muammoni yanada chigallashtirish.

Bu sxema xulq-atvorni kuzatishning 12 xil tipini qamrab olgan, unda 6ta ijobiy va 6ta salbiy ko‘rinishlar ifodalangan.

Kuzatish natijalarini miqdoriy tahlil qilishda statistik metodlarni quyidagicha tartibda qo‘llash lozim:

Eksperiment. Eksperiment metodining asosiy farqi va afzalligi shundan iboratki, bunda tadqiqotchi o’z xohishi bilan qandaydir psixik protsess yoki xususiyatni Yuzaga keltirib psixik hodisaning tashqi sharoitga bog’liqligini tekshirib ko’rishi mumkin. Eksperiment metodining ana shu afzalligi uning psixologiyada keng qo’llanilishi bilan tushuntiriladi. Empirik, ya`ni tajriba yo’li bilan qo’lga[1] kiritilgan faktlarning asosiy ko’pchiligi psixologiyada eksperimental yo’l bilan olingandir. Biroq, har qanday tadqiqot qilinadigan vazifalarga eksperimentni

qo’llab bo’lmaydi. Masalan, agarda psixik protsesslar va funktsiyalar ko’proq eksperiment yo’li bilan o’rganilsa, shaxsning birmuncha sodda xususiyatlari (temperament, ko’pgina qo’biliyatlar) ham shu metodda o’rganiladi. Lekin xarakterning va qobiliyatlarning murakkab turlarini xali eksperiment metodi bilan o’rganib bo’lmaydi.

Suhbat metodi. Bu metod tadqiqotning turli bosqichlarida qo’llaniladi: masalan, dastlabki tanishish bosqichida ham boshqa metodlar, ayniqsa, kuzatish metodi orqali qo’lga kiritilgan xulosalarni aniqlashda qo’llaniladi. Suxbat metodidan moxirlik bilan foydalanish juda qimmatli natijalarga erishishga yordam berishi mumkin.

Intervyu metodi. Psixologiya fanidagi bu metod sotsiologiyada keng qollaniladigan anketa metodidan farq qiladi. Xuddi suxbat metodi kabi intervyu metodi ham so’roq-javob metodiga tegishlidir. Ko’pincha intervyu uchun savollarni sotsiologik anketalar tipiga o’xshatib, ya`ni ko’p masalalar Yuzasidan ko’plab javoblar olishni ko’zlab tuziladi. Intervyu metodiga bunday tarzda yondashish tadqiqotning faqat birinchi bosqichiga, muammo bilan dastlabki tanishish bosqichiga to’gri keladi. Biroq bilimlarni va o’ rganilayotgan psixik xususiyatlarni strukturasini hisobga olib tuzilgan savollar o’rganilayotgan xususiyatlar strukturalari hamda darajalarini bundan keyin aniqlash uchun juda qimmatli natijalar berishi mumkin.

Ekspert* baholash *metodi. Bu metod shaxs psixologiyasida keng

qo’ llaniladi. Ekspertlar sifatida tekshirilayotgan kishilarni yaxshi biladigan shaxslar -bolalar bog’chasi va maktab-internatlarning tarbiyachilarini, sinf raxbarlari, ishlab chiqarish-texnika bilim Yurtlarining masterlari, ishlab chiqarishdagi masterlar, ilmiy jamoa raxbarlari, xarbiy komandirlar, administratorlar, sport trenerlari qatnashishlari mumkin. Ekspert baxolarni ko’proq

xususiyatlarning sifat jixatidan namoyon bo'lishlarini tasvirlash emas (buni ekspertlar bilan qilinadigan keyingi suxbatlarda o'tkazilsa ancha foydaliroq bo'ladi), balki o'rganilayotgan xususiyatlarning ifodalanishini miqdoriy baholash tarzida, ya`ni u yoki bu xususiyat yoki xulq-atvor elementlari darajalarini baxolash tarzida o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ekspertlar umumlashtirish bilan bog'liq bo'lmagan xulq-atvor elementlarining ancha-muncha mayda qismlari ifodalanganligini qayd qilishi lozim. Umumlashtirish - ekspertning emas, balki tadqiqotchining ishidir.

O'z-o'zini kuzatish metodi. XVIII-XIX asrlar empirik psixologiyasi tomonidan kamsitilgan bu metod so'nggi yillarda yana ma`lum ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Chunonchi, suxbat va so'roq-javob metodlarini o'z-o'zini kuzatish metodi orqali olingan ma`lumotlarsiz qo'llab bo'lmaydi. Buni suxbat va shaxsiy savol-javob o'tkazish uchun savollar tuzishda hisobga olish zarur. Lekin o'z-o'zini kuzatish garchi psixologik tadqiqotlarning asosiy metodi bo'lmasa-da, mustaqil ahamiyatga ega b o'lishi mumkin. O'z-o'zini kuzatish metodi psixik holatlarni, ya`ni tetik kayfiyatni, achchiklanishni, ishchanlikni, kasb bilan bog'liq bo'lgan sermahsul ishlarni o'rganishda ayniqsa foydali b'lishi mumkin.

Arxiv metodi. Amerika ilmiy adabiyotlarida «Arxiv metodi» degan atama qabul qilingan, bunday tadqiqotlarni o'tkazuvchi psixolog sinaluvchining xulqini kuzatmaydi va o'lchamaydi, balki, kundalik qaydnomalarni va yozuvlarni, arxiv materiallarini, mehnat, o'quv yoki ijodiy faoliyatini tahlil qiladi.

Sobiq sovet psixologlari bu metodni ifodalashda boshqa atamadan foydalanishdi. Ko'p hollarda u **«faoliyat mahsullarini o'rganish»** yoki **«praksimetrik metod»** deb ifodalanadi.

Eksperimentator tadqiqotlar matnini, faoliyatning, predmetli mahsulotini turli xil maqsadlarda o'tkazishi mumkin. Shaxs psixologiyasining keng yoyilishi ijodiy psixologiya va psixologiya tarixi, bir shaxsning yoki ko'p odamlar hayot yo'lining o'ziga xosligi – biografik metod nomini oldi.

«Arxiv metodi» xilma-xilligiga kontent-analiz texnikasi ham taalluqlidir. **Kontent – analiz** o'zidan yanada takomillashtirilgan hujjatlar analizining qat`iy metodlarini namoyon qiladi. Tadqiqotchi mazmun birligini ajratib, olingan ma`lumotlarni umumlashtiradi.

Bu metod nafaqat psixologiyada, balki boshqa ilmiy adabiyotlarda ham keng tarqalgandir. Bu metoddan ko'p hollarda, asosan, siyosiy psixologiya, reklama psixologiyasi, aloqalarda keng foydalaniladi. Kontent-analizni ishlab chiqish G. Lassuela, Ch. Osgud, B.Berelsonlar nomi bilan bog`liq bo'lib, ular «Kontent analiz, kommunikativ tadqiqotlar» fundamental monografiyaning mualliflaridir.

Kontent-analizdagi matn tahlilining standart birligi bo'lib: 1) so'zlar; 2) tugallangan fikr; 3) mavzu; 4) personaj; 5) muallif va 6) yaxlit holdagi yo'llanma

hisoblanadi. Ular bir mazmunda yanada umumiy tuzilish sifatida ko'rib chiqiladi. Kontent-tahlil ma`lumotlarini qayta ishlashning bir qancha usullari mavjud.

So‘rov metodi va uning asosida ishlab chiqiladigan metodikalar

Maxsus standart bo‘yicha tanlab olingan savollarga yozma og‘zaki javoblarni tahlil qilishdir. Ushbu metodning bir necha turi mavjud: anketa, savolnoma, intervYu. Sinaluvchi savollarga javob berishidan tashqari, o‘zi haqida ma'lumot berishi anketa metodi deb aytiladi.

Sinaluvchiga beriladigan savollar majmuasi savolnoma metodi deyiladi. Bu savollar ochiq va yopiq usulda bo‘ladi.

Standartlashtirilgan javoblarga, sinaluvchi o‘ziga mos javobni berishi yopiq savollar deyiladi. Masalan: «ha», «yo‘q», «bilmayman», «roziman, rozi emasman», «aytish qiyin».

Sinaluvchi mustaqil ravishda hohlagan javobni berishi ochiq savollar deyiladi, bu javoblar yopiq savollardan farqli ravishda, faqat sifatiy tahlil qilinadi.

Bundan tashqari, savolnomali psixodiagnostik metodlar shaxs sifatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks ettiruvchi savollar hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilmagan savollar usulida bo‘lishi mumkin. To‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan savollarga sinaluvchi o‘zida u yoki bu psixologik sifatlarning ko‘rinishlari bor yo‘qligi haqida javob beradi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilmagan savollar, sinaluvchidagi o‘rganilayotgan xususiyatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilmagan bo‘lib, ammo uning shaxs sifatining bu xususiyati psixologik taraqqiyotini o‘rganishga qaratilgan bo‘ladi. Masalan, shaxs sifatlaridan «xavotirlanish»ni diagnostika qilish uchun savollarga murojaat qilamiz (bezovtalik, o‘ychanlik):

Ochiq savol: «Kuchli xavotirlanish holatiga tushib qoladigan hodisalar haqida gapirib bersangiz».

Yopiq savol: «Siz ko‘p hollarda xavotirlanish holatida bo‘lasizmi? Quyidagi javoblardan birini tanlang va belgilang «ha», «yo‘q», «ba'zan», «bilmayman».

To‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan savol: «Sizda xavotirlanish degan shaxs sifati mavjudmi?».

To‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilmagan savol: «Sizda imtihon paytida bezovtalik holati vujudga keladimi?».

Yozma savolnomalardan tashqari, og‘zaki savolnomalar ham mavjud, bu intervYu deb Yuritiladi. Unda psixolog sinaluvchiga o‘zi savol berib, o‘zi javoblarni yozib boradi, bu savollar oldindan aniqlanib, tayyorlab qo‘yiladi ular xuddi yozma savollar tipidagi kabi bo‘lishi mumkin.

Psixodiagnostik metodlardan yana biri faoliyat mahsullarini analiz qilish orqali kontent-analiz hisoblanadi. Kontent-analizning vazifasi shundan iboratki, u

kishining psixologik tavsifini aniqlash va baholashda, uning nima ish qilayotganligi, asosan yozma ijodi mahsuli tahlili orqali o‘rganishga qaratilgandir.

Xulosa: Bolaga tanlangan eksperimental psixologik metodikalarni qiyinligi o‘sib borish darajasida berish kerak.

Shunday qilib, ushbu mavzuda metod va metodika, standartlashtirilgan metodlar, testlar, ularning turlari, so’rovnomalar, ularning turlari bilan tanishdik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G’aniyev S. K. ,Karimov M. M., Tashev K. A. Axborot xavfsizligi Toshkent 07
2. S.S. Qosimov Axborot texnologiyalari xaqida o’quv qo’llanma Toshkent 07
3. G’aniyev S.K.Karimov M.M. Hisoblash tizimlari va tarmoqlarida axborot xavfsizligi

OILA MUHITINING SHAXS SHAKLLANISHIGA TA`SIRI

Rahimova Gulhayo

«Psixologiya» kafedrasi o‘qituvchisi

gulhayorahimova@utas.uz.gmail.com

Tel; (94) 944 4224

Anatotsiya: *Oila, jamiyatning eng muhim va asosiy bo`lagi sifatida, insonlarning bir-biriga bo`lgan ma`suliyati va qarorlarining amalga oshirilishiga yo`naltirilgan tizimdir. U har bir kishining ijtimoiy hayoti uchun eng birinchi va eng asosiy platformani tashkil etadi. Oilaning ahamiyati nafaqat uning a`zolari o`rtasidagi o`zaro munosabatlar, balki uning jamiyatidagi o`rni va ro`li orqali ham aniqlanadi.*

Kalit so`zlar: *Ijtimoiylashuv, sotsializatsiya, shaxs, rivojlanish, psixologiya, pedagogika, jamiyat, oila, ota-ona, bola, jamoa, tarbiya.*

Kirish Har birimizning jamiyatdagi o’rnimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo’lgani, jamiyatga qo’shilib yashashimizning psixologik mexanizmlari jarayoni psixologiyada ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya deb ataladi.Ijtimoiylashuv- bu shaxs o’z hayoti davomida o’zi tegishli bo’lgan jamiyatning ijtimoiy me’yorlari va madaniy qadriyatlarini o’zlashtirish jarayoni.Ijtimoiylashuvning maqsadi bola egallashi kerak bo’lgan shaxsiy xususiyatlar va u o’rganishi kerak bo’lgan ijtimoiy xatti-harakatlardir.Ijtimoiylashuv ob’yekti-bu shaxs hisoblanadi.

Oilaning ijtimoiy ahamiyati: Oila, ilk ijtimoiy tuzilma bo`lib uning a`zolari bir-birini tarbiyalash, ta`lim berish, hayotiy qadiryatlarni shakllantirish orqali jamiyatni tashkil qiladi.Oilada inson o`zini tanishi, axloqiy, ruhiy va jismoniy jihatdan shakllanishi uchun zarur bo`lgan dastlabki ta`limni oladi. Oila

bo`lajak avlodni tarbiyalashda, jamiyatning axloqiy me`yorlari, an`analari va qadryatlarini o`rgatishda muhim ro`l o`ynaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi: Oiladagi ota ibrati, ona mehri, bobo va buvilar o‘gitlari orqali milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan imon-e'tiqod, halollik, mehr-oqibat avloddan-avlodga o‘tadi, farzandlarimiz ongi va qalbida muhrlanib boradi.Iqtisodiy jihatdan farovon, ijtimoiy-axloqiy va g‘oyaviy muhiti sog‘lom oila negizida yuzaga kelgan jamiyat va davlatning poydevori mustahkam bo‘ladi. Chunki bunday oilalarda ma'naviy barkamol inson voyaga etadi.1993 yil 20 sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining “Xalqaro oila yili to‘g‘risida”gi rezolyusiyasi qabul qilingan. Ushbu xalqaro hujjatga muvofiq, 1994 yildan boshlab 15 may – Xalqaro oila kuni sifatida dunyoning deyarli barcha davlatlarida keng nishonlanib kelinadi. Ushbu sanani nishonlashdan asosiy maqsad oilalar bilan bog‘liq muammoli masalalarga davlat va jamoatchilik e'tiborini qaratish, oilalar ahvoliga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayonlar haqidagi bilimlarni chuqurlashtirishdan iborat. Zero, oiladagi ma'naviy muhit, sog‘lom kayfiyat, barqarorlik jamiyat hayotining asosini ta'minlovchi kuchdir.Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev rahnamoligida oila manfaatini himoya qilish, oilaning jamiyatdagi mavqei va maqomini yanada yuksaltirish, yosh oilalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbarining 2018 yil 27 iyundagi tegishli qaroriga muvofiq, 2019 yildan e'tiboran yurtimizda har yili 15 may — Xalqaro oila kuni sifatida keng nishonlanyapti.

Bu bejiz emas, albatta. Zero, oila, farzand kabi tushunchalar jamiyat asosi va har birimizning hayotimiz mazmuni hisoblanadi. Xalqimiz azal-azaldan oilani muqaddas bilib, unda sog‘lom muhit qaror topishi, mustahkam bo‘lishiga alohida e'tibor qaratilayotgani boisi ham shunda. Ayniqsa, oxirgi 7-8 yilda mamlakatimizda jamiyatning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan oila institutini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, jamiyatda oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash va ularning farovonlik darajasini oshirish bo‘yicha muayyan ishlar qilindi.Mehr-muhabbat qo‘rg‘oni bo‘lgan oila institutini mustahkamlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, oila va xotin-qizlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oila va xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko‘rsatish bo‘yicha salmoqli ishlar bajarildi.

Prezidentimiz tashabbusi asosida mahallalarda xonadonma-xonadon yurib, oilalarning ahvolini o‘rganish, ularni o‘ylantirayotgan masalalarga tezkor yechim topish bo‘yicha olib borilayotgan tizimli ishlar samarasini bugun odamlar o‘z hayotida sezmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy faolligini oshirish, gender tenglikni qaror toptirish,

ayollarning huquq va manfaatlarini ta'minlash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilyapti. Shu maqsadda, avvalo, milliy qonunchiligimiz takomillashtirilib, opa-singillarimiz uchun yanada keng imkoniyatlar yaratilayotir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ham oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, u jamiyat va davlat muhofazasida ekanligini, davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishi mustahkamlab qo‘yilgani mamlakatimizda oila institutini mustahkamlashga qay darajada katta e'tibor qaratilayotganini anglatadi. Umuman olganda, oila jamiyatning eng muhim bo‘g‘inidir. Shunday ekan, hayotimizga mazmun bag‘ishlaydigan, bizni hamisha o‘z bag‘riga chorlaydigan oilalar doim mustahkam bo‘lsin. Ma'rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat aytganidek, avlodni tarbiyalash insoniyatning xizmatidir. Qachonki, biz yaxshi axloq egasi, bilimli, kasb-hunarli farzandlarni tarbiyalasak, shundagina bu xizmat majburiyati soqit bo‘ladi.

Rivojlanish: Rivojlanishining manbai qarama-qarashliklarni o’rtasidagi kurashdan iboratdir. Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta’limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta’sir etadi, ularni birbiridan ajratib bo’lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta’sir etadi.Insonning ijtimoiylashuvi jarayoni uning hayoti davomida davom etadi, ammo bu ayniqsa bolalik davrida intinsiv ravishda amalga oshiriladi. Aynan o’sha paytda shaxsning ma’naviy rivojlanishining poydevori yaratiladi, bu ta’lim sifatining ahamiyatini oshiradi, jamiyat mas’uliyatini oshiradi, bu ta’lim jarayoni uchun ma’lum koordinatalar tizimini belgilaydi, bu umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlarga asoslangan dunyoqarashni shakllantirishni o’z ichiga oladi; ijodiy fikrlashni rivojlantirish; yangi narsalarga intilish va nostandart vaziyatlarda hayotiy muammolarni maqbul yechimini topish qobiliyati, yuqori ijtimoiy faollikni, fidoiylikni, jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirish; doimiy o’z-o’zini tarbiyalash va kasbiy fazilatlarni shakllantirish zarurati; mustaqil ravishda qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi. Shunday qilib, inson butun umri davomida o’zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo’lsa, u jamiyat a’zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o’ziga munosib o’rin egallaydi.

Shaxsning ma’naviy sifatlariga ega bo’lishi, unda ma’naviy bilimlarnin egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo’lishida oila asosiy rolni bajaradi. Oilada qaror topgan sog’lom ma’naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo’lib voyaga yetishishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir. Chunki

rivojlanish tarbiya ta’siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to’g’ri ko’rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Ota-onalar o’zlarining ijtimoiy burchlarini bajarar ekanlar, farzandlarida mehnatga uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg’usini shakllantirish, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga, turli ko’rinishdagi munosabatlarni uyushtirish vaqtida tartib-intizomga amal qilish, ijtimoiy me’yorlarga og’ishmay rioya etish, sog’lom turmush tarzini yaratish, o’z shaxsiy hayotlari mazmunini belgilashda maqsad, so’z va faoliyat birligini ta’minlash borasida har tomonlama ijobiy ibrat na’munasini ko’rsatadi.Shaxs shakllanishiga ta’sir etishning ijtimoiy-ruhiy asosiga ega oila jamiyatning ajralmas bo’lagi sifatida ijtimoiy vazifalarni bajarish bilan birga o’ziga xos xususiyatlarni ham akslantiradiki, bunday hislat psixologik qarama-qarshilik hamda xarakterlar to’qnashuvidan iborat ijtimoiy munasabatlardan toliqqan inson organizmining ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash uchun zarur bo’lgan mo’tadil iqlimni hosil qila oladi. Bu tuyg’u xalqimiz ruhiyatidagi o’ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Muhokama va natijalar: Shunday qilib, inson butun umri davomida o’zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo’lsa, u jamiyat a’zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o’ziga munosib o’rin egallaydi. Shaxsning ma’naviy sifatlariga ega bo’lishi, unda ma’naviy bilimlarnin egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo’lishida oila asosiy rolni bajaradi. Oilada qaror topgan sog’lom ma’naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo’lib voyaga

yetishishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir. Chunki rivojlanish tarbiya ta’siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to’g’ri ko’rish va bexato baholash uchun uni

turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Ota-onalar o’zlarining ijtimoiy burchlarini bajarar ekanlar, farzandlarida mehnatga uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg’usini shakllantirish, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga, turli ko’rinishdagi munosabatlarni uyushtirish vaqtida tartib-intizomga amal qilish, ijtimoiy me’yorlarga og’ishmay rioya etish, sog’lom turmush tarzini yaratish, o’z shaxsiy hayotlari mazmunini belgilashda maqsad, so’z va faoliyat birligini ta’minlash borasida har tomonlama ijobiy ibrat na’munasini ko’rsatadi.

Xulosa: Shunday qilib, oila nafaqat har bir individning hayoti uchun, balki jamiyatning umumiy rivojlanishi uchun ham juda muhimdir. Oila a`zolarining o`zaro hurmat, sevgi, ma`suliyat va yordam orqali o`zaro bog`lanishi jamiyatda tinchlik, farovonlik va barqarorlikni ta`minlashga yordam beradi. Oilada shaxs qo’llab-quvvatlash va yordam oladi, u yerda dunyoni va odamlarni sevishni

o’rganadi va bu haqida butun hayoti davomida eng mehribon va eng yorqin xotiralarni eslaydi, hayotning eng qiyin daqaiqalarida yuragini isitadi va yorqin irodasini kuchaytiradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.06.2018 y., 06/18/5466/1527-son

2. Abdurauf Fitrat. Najot yo‘li / Sh.Vohidov tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2001. – B.111.

3. Зритнева Е.И., Н.П.Клушина. Семьеведение: учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по направлению подгот. и специальности «Соц. Работа». – М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 2006.

4. Музаффара АБДИЕВА (Олий Мажлис Қонунчилик палатаси депутати) Т-2022

5. Основы социологии. Курс лекций. Для студентов и преподавателей средних специальных учебных заведений. / Под ред. Л.И. Первухина. Московская типография № 9, 1997.

7. Шнейдер Л.Б. Психология семейных отношений. Курс лекций. – М.: Апрель – Пресс, Изд – во ЭКСМО – Пресс, 2000. – 512 с.

NOTIQLIK ORQLI INSONLARNI BOSHQARISH

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti Pedagogika va Psixologiya fakulteti

3-bosqich talabasi: **Salimova Maftuna Islom qizi**

Annotatsiya*: Bu maqolada notiqlik orqali insonlarni boshqarish, nutq rivojida kitobning o’rni, notiqlik san’atidagi top uchta xato, notiqni nutqiga baho berish, hikoya va fakt, notiqlik madaniyati, borasidagi mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so’zlari: *Notiqlik, hikoya, fakt, parazit so’zlar,time keper, I kontakt, audiotoriya, nutq rivojida kitobning o’rni.*

Notiqlik bu - o’z fikr va g'oyalarni aniq, tushunarli va jozibali tarzda ifodalash san'ati. Bu, nafaqat auditoriya bilan aloqada bo'lish, balki odamlarni motivatsiya qilish, ularga ta'sir ko'rsatish va ularni biror maqsadga yo'naltirish qobiliyatidir. Notiqlikda quyidagi asosiy jihatlar muhim: Aniq va tushunarli ifoda: O'z fikrlaringizni aniq va sodda tarzda ifodalash. Emotsional ta'sir: Auditoriyaning hissiyotlariga ta'sir ko'rsatish orqali yanada kuchliroq aloqalar o'rnatish. Ishonch va ishtiyoq: O'zingizga va aytayotgan g'oyangizga ishonch hosil qilib, boshqalarga ham shu ishonchni berish.

Notiqlik o’zi aslida juda katta qurol. Eski davrlarda ya’ni sovet tizimi davrlarida notiqlikda ya’ni retorika deymiz, ya’ni chiroyli gapira olish san’ati taqib etilgan, taqiqlangan.Chunki ular juda yaxshi anglagan retorika bilan ommani boshqarish mumkin, retorika bilan ommaga ta’sir ko’rsatish mumkin. Tabiat

bunday imkoniyatga ega bo’lgan insonlar ham deylik tug’ma estidodli odamlar ham o’sha siyosat,maanfatlariga hiuzmat qilgan. Bugungi kunda esa jamiyatlar rivojlanayapti, xatto chegaralar yo’q bo’lib ketyapdi ,va notiqlikka bugungi kunda har qachongidan ehtiyoj bor. Chunki inson o’zini qayergadir tashrif bo’yurib taqdim etmoqchimi, albatta tilga va nutqga murojaat qiladi. Siz o’ziningizni taqdim etmoqchisiz albatta nutqingiz ravon bo’lishi lozim. Siz o’zingizga ishonmaysiz nimaga? Chunki sizda sof talaffuz yo’q, ravon nutq yo’q. Aslida nutq nimalarga asoslanadi? Birinchi navbatda ishonchga asoslanadi. Aslida hayotda bizni ishonch boshqaradi. Ya’ni biz ishonsakgina o’zimizga , bilimizga avvalo Alloh, lekin bilim va tajribasi bo’lmagan inson ko’pchilokni ishontirolmaydi. Ishontira olsa ham uzoqmuddat ergashtira olmaydi. Demak kishida ishonch bo’lsa, bilim, tajriba bo’lsa, sof talaffuz va ravon nutq bo’lsa u odam be’malol notiq bo’la oladi. Ya’ni agarda siz notiq bo’lmoqchi ekansiz agar gapira olsangiz bilingki siz notiq bo’lasiz faqat buning uchun sizga ishonch kerak bo’ladi.

Notiqlikning o’zining sirlari bor, tamoyillari, xatolari bor. Masalan auditoriya oldiga chiqdingizmi eng ko’p uchraydigan xatolardan biri bu – “I kontakt” ni ushlasdan omma bilan gaplashadiganlar bor. Bu xato ya’ni ko’z orqali omma bilan gaplashmaydi. Asosiy energetik oqimda tushum turadigan nuqta bu - ko’z. Omma bilan ko’z orqali muloqot qilasiz. To’g’ri gapirasiz lekin bu narsa sinab ko’rilgan . Agar notiq auditoriyaga qaramasdan yerga qarab, shiftga qarab, yonga qarab gapiradigan bo’lsa taxminan to’rt daqiqada audiotoriya zerikishni boshlaydi. Chunki u ko’z kontaktini joyiga qo’ygani yo’q. muloqot yo’q orasida, ko’z bilan muloqot qilmayapdi. Yana bir xató bor bu – qo’llarni yashirib olish holati. Ummuman qo’l harakarlaridan foydalanmaslik xatosi ko’p uchraydi. Yana bittasi bu – audiotoriya bilan hamkorlikda ishlamaslik. Masalan: keladi,o’zini tanishtiradi , mavzuni e’lon qiladi, gapiradi, xayrlashadi, ketadi. Ya’ni hamkorlikda ishlab audiotoriyani jonlantirib, boshqarish uchun imkoniyat sizga. Sizda o’sha keysni o’rtaga chiqarib qanaqa bo’lgan bu vaziyat? Siz bu haqida nima deb uylaysiz? Sizning fikringiz qanday? Bu haqida deb audiotoriyani jonlanishi u e’lon qilgan mavzuning ahamiyatini yanada oshiradi. Ammo ko’pchiki bu jihatga e’tibor bermaydi. Sanasak xatolar ko’p ammo asosiy keng tarqalgan xatolar.

Notiqni beshta inson baholaydi:

1.Parazit so’zlarni qidiruvchi inson. Ya’ni nutqi davomida kuzatilayotgan -i, -ha, -haligi, -boyagi, -him, -pauzalar, tanaffuslarni hisoblab o’tiradi oxide nutqingiz tuganidan keyin hisobot topshiradi. Falonchi falonchiyev siz shuncha -i qib quydiz deb.

2. Time keper – ya’ni vaqtga qaraydigan inson vaqtida tugatishingizni talab qiladi.

3. I kontakt – ya’ni audiotoriyaga qarayapsizmi? yoqmi? U o’zi qanday bo’ladi 15% o’ngga, 15% chapga, 70% o’rtaga qarash kerak. Jertukulyatsiya – jeslar qanday bo’ladi, qo’l harakatlariga qaraydi.

4. Kantentga qaraydi. Matnga, ma’noga ya’ni gapirayotgan gapimizni ma’nosi bo’lyapdimi? bir-biriga ulayapdimi? Bir bog’dan, bir tog’dan kelmayapdimi? bitta mavzuni ochib qo’yib keyin boshqa mavzuga o’tlab ketib bu ochiq qolib ketmaydimi? Yoki yopib qo’ydimi ? mohiyatiga qaraydigan inson.

5. Umumiy juriy. Butun boshly notiqga va uni nutqiga, baho beradigan umumiy juriy.

Insonga hikoya ko’proq ta’sir etadimi, yoki faktmi? Bitta savol tug’iladi ming yil oldin tug’ildingiz tasavvur qiling. Ishdan qaytib keldingiz ,oilaviy o’tiribsiz. Nima ish qilasiz kechasi? Dasturxon atrofida o’tiribsiz nima qilasiz? Televizor yoq, svet yo’q, internet yo’q, hech narsa yo’q . Kimni buvisi yoki buvasi necha necha betlab dostonlarni yoddan bilgan. Qarang bu nechi yil necha yildan insoniyatni qon qoniga singib kelayotgan narsada. Ya’ni voqealar,hikoyalar va boshqalar. Fakt - aqlga ta'sir qiladi, badiiy buyoq hissiyotga ta'sir qiladi. Bizni aqlimizdan ham ko'ra hissiyotlarimiz qaror qabul qilishimizga ta'sir qiladi. Bu degani faqat hikoya aytishimiz kerak degani emas. Ikkalasini birdek olib borishni urganing. Faqat bitta manitoniyada faktda gapiradigan bo'lsangiz auditoriyani bor yo'g'i 5-10 foiz qismini yoki bitta odamni 5-10 foiz diqqatini jalb qilolasiz xolos. Boshqa narsa bilan chalg‘ib o'tiradi. Agar o'sha faktlar vizual effektga ya'ni prizetetsiya bilan bo‘ladigan bo‘lsa o‘shanda 25-30 foizga chiqish mumkin. Lekin badiiy buyoq bilan voqeliklar bilan boshlaydigan bo'lsangiz siz 65-70 foiz diqqatini tortasiz. Sizni qiladigan nutqingizda lirik chekinishlar bo'lishi kerak. Har 20 daqiqada hech bo'lmasa auditoriyani bir uyg‘otib olishingiz kerak bo'ladi. Bular bo'lishi mumkin latifalar, chiroyli hikoya, mavzuga oid ,mavzudan tashqarida bo'lishi mumkin, farq yo'q lekin qiling. Eng zo'r notiq bo'lgan taqdiringizda ham auditoriyani 20 daqiqa bitta narsani ustida ushlab turolmaysiz qiyin. Tarixda katta katta prezidentlar ham bu ishni qilolmagan. Nutqni rivojida asosiy o'rinlardan biri bu kitob. Kitobsiz men notiq bo'ldim deganlarni yuzdan biridir. Hamma mavzudagi kitoblar ham sizni notiqga aylantirolmaydi. Lekin notiq bo‘lmoqchimisiz kitoblardan qo'l uzmaslik kerak. Qaysi yo‘nalishdagi kitob deydigan bo'lsak so‘zsiz kitoblar. Marketing biznes shaxsiy rivojlanish kitoblar o'qilishi mumkin ular sizni bilim salohiyatingizni oshiradi. Nutqingizni emas. Chunki aynan badiiy uslubda ko‘p sinonimlar tasviri kuchli bo'ladi. Shu sababdan ham aynan badiiy kitoblar insonni tafakkurini, imkon niyatlarini, tasvir imkoniyatlarini rivojlantiradi. Chunki u yerda shunday bir tasviriy ifodalardan foydalanilgan holda vaziyat,holat, muhit tasvirlanadi. Bevosita uni o'qiyotgan inson o'sha holatlarni tasavvur qiladi. Tasavvur qildingizmi demak tasavvur olami shakllanadi. Tasavvur olami

shakllandimi sizda tasvir imkoniyati rivojlaniladi. Va o'sha tasvirlangan narsalarni yoki ularga kelib chiqqan holatlarni yoki ularga foydalanilgan hollarda siz nutqingizni boyita olish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Demak siz nutqingizni rivojlantirish imkoniyatlariga egasiz. Shu sababdan ham agar kim kitobdan qo‘lini uzsa bilsinki u maqsadiga yetolmaydi agar notiq bo'laman deysa yo'lga chiqqan bo'lsa yonida kitob bo'lmasa manziliga yetolmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A Karimov aytganlaridek, “Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvalo ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millatinig ruhidir. O‘z tilini yo‘qotgan har handay millat o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrar”. Globallashuv asrining talabi ham aynan yosh yetishib kelayotgan har qanday kasb egasining jamoat oldida o‘zini tutish, liderlik mahorati, nutq ravonligi, omma oldida fikrini erkin va aniq bayon eta olish, shu jumladan, uni tinglayotganlarga o‘z mavzusini yetkazib berish kabi ko‘nikmalarni taqozo etadi. Ritorika ham ana shu ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda va bu yo‘lda uchraydigan muammolarni bartaraf etishda ko‘makchi bo‘ladi. Bugungi kunga kelib, ko‘pgina ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalar, xatto pedagoglar nutqida ham xato va kamchiliklar kuzatiladi. Ushbu muammolarni bartaraf etishda ritorika fanining maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- Ommani nutq salohiyatini oshirish;
- Ma’naviy va madaniy saviyasini yuksaltirish;
- Jamoat oldida o‘zini tutish;
- Etika va estetika qoidalariga amal qilish;
- Notiqni o‘ziga bo‘lgan ishonch va bilimini oshirish.

Shu bilan bir qatorda, ritorika tarixi haqida to‘liq ma’lumot berish va olimlar, adiblar hamda so‘z ustalarining nutqiy faoliyatidan tajriba orttirish singari maqsadlarni ilgari suradi. Bundan tashqari, ritorika – amaliy jihatdan chiroyli muomala qilish madaniyati va sahnada lider bo‘lish san’ati, chiroyli nutq qonun-qoidalari, sirlari, til me’yorlari hamda nutqda uchrashi mumkin bo‘lgan nuqson va talaffuzga doir muammolarni hal etish yuzasidan bahs yuritadi. So‘z va nutq orqali inson ruhiyatiga ta’sir etish va uni davolash mumkin. Insonning muomalasi – xulq-atvorining ko‘zgusi demakdir. Bundan ko‘rinib turibdiki, har qanday insonni qanday xulq egasi ekanligini bilish uchun, avallo, uning atrofidagilarga qilayotgan muomalasiga e’tibor berish lozim. Shuni hisobga olib aytish mumkinki, har bir insonning o‘ziga yarasha xarakteri bor va shunga qarab jamoat oldida o‘zini namoyon qiladi.

Xulosalar va takliflar. Bugungi kunga kelib, notiqlik san’ati sohasini o‘rganishga bo‘lgan talab kuchayib bormoqda. Sababi har qanday kasb egasi nutq davomida o‘ziga bo‘lgan ishonchi yuroqi bo‘lish, qisqa va aniq nutq so‘zlash hamda liderlik mahorati orqali boshqalarga ta’sir o‘tkazish mumkin. Ritorika

sohasidagi izlanishlar shuni xulosa qiladiki, professional orator bo‘lish istagida bo‘lgan har qanday shaxs o‘z ustida ko‘proq ishlashi, tajriba qilib ko‘rishdan qo‘rqmasligi, eng muhimi auditoriyaga manfaatli bo‘ladigan ma’ruza tayyorlashni o‘z oldiga maqsad qilishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.https://youtu.be/c6vQjAs6gWc?si=j9nxXgJ_b03rAle7

2.https://youtu.be/7psc8Yu1j80?si=IVqSzWgoGOeUTRGO

3.https://youtu.be/wvEiu3pXils?si=UcJxdKNMZofHZ17c

4.https://youtu.be/MgKR2Z91sE4?si=5AHJH3seGdnTxZvS

5.https://youtu.be/8lGj-reBRDs?si=Buuxa2wPOjKbxei7

6.Qosimov B., Ismoilbek G. -T.: “G‘afur G‘ulom” nomidagi Nashriyot matbaa birlashmasi, 1992. – B.34.

7.Muhammadjonova L.A. – Ritorika, T.: 2019. – B.3 – 4 – 5 – 6

“O‘QUVCHILARNING XOTIRASI VA MIMIK FAOLIYAT DIAGNOSTIKASI”

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti Pedagogika va Psixologiya fakulteti

3-bosqich talabasi: To’g’aymurodava Shahzoda

Annotatsiya. *Bu maqolada O’quvchilarning xotirasi va mimik faoliyatini shakllantirish,rivojlantirish. Kishi o‘zining shu faoliyati uchun muhim bo‘lgan voqea,hodisalarni yaxshi eslab qoladi. Aksincha , kishi uchun kam ahamiyatga ega bo‘lgan narsalar yomon esda qoldiriladi va tezda unutilib yuboriladi. Shu o‘rinda xotira borasidagi ta’riflarga qaytsak, ko‘pgina adabiyotlarda xotira tushunchasi quyidagich ta’riflanadi.*

Kalit so’zlari: *Bilish jarayonlari, xotira, xotira faoliyati, obrazli xotira, his-tuyg’u, sezgi, mexanik xotira, ixtiyoriy xotira, ixtiyorsiz xotira,qisqa muddatli xotira, uzoq muddatli xotira , operativ xotira.*

Xotira biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yoddasaqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Biz har kuni yangi narsalarni bilamiz, kun sayin bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida shaxsning g‘oyaviy yo‘nalishi katta o‘rin egallaydi. Bu yo‘nalish uning faoliyatini hayot sharoitita’sirida shakllantiradi. Individning o‘z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi. Shaxsning yo‘nalishi uning qiziqishida ifodalanadi. Kishining qiziqishi xotiraga aniq va kuchli ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni yaxshi esda olib qolishini ta’minlaydi. Biz ko‘pincha u yoki bu narsa va hodisalarni yomon esda qoldiramiz. Bu xotirani yomonligini emas , balki ularga qiziqish yo‘qligini ko‘rsatadi.Masalan, o‘quvchilar hamma fanlarni bir xil o‘zlashtira olmaydilar. Bu ularning har-xilligi bilan tushuntiriladi. Esda olib qolishiga kishining emotional munosabati ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Kishi uchun yaqqol hayajonli reaksiya vujudga keltiruvchi narsalarongda chuqur iz qoldirib, puxta va uzoq yodda saqlanadi. Biz bir narsadan ta’sirlansak, o‘sha uzoq

vaqt esda saqlanadi. Samarali xotiraning tabiati va uning samaradorligini shaxsning xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Shaxs o‘z oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalariasosida o‘zining xotirlash jarayoni ongli ravishda tartibga soladi va boshqaradi.

Materialni esda saqlab qolish va uni qayta esga tushirishga bog'liq ravishda harakat, mexanik, obraz (assotsiativ), mantiqiy, hissiy xotiralarga ajratiladi. Ma'lumotni saqlashning uzoqligiga bog'liq ravishda qisqa muddatli (operativ) va uzoq muddatli xotiralar ajratiladi. Ma'lumotni esda olib qolish,inson tomonidan birni maqsad qo'yilmasdan ixtiyorsiz, o'rganilayotgan materialni esda saqlab qolish uchun maqsad q o 'yilganda ixtiyoriy esda olib qolinadi. Umumiy xotira olingan materialni esda saqlash va qayta esga tushirishdan iborat jarayon bo'lib, bu tarkibiy qismlarni doimo rivojlantirishni talab etadi. birikmasini aytib bo'lgandan so'ng 20 sekund tanaffus qiladi. Shu vaqt ichida bola aytilganlarni yozishi, chizib olishi kerak.Agar bu vaqt ichida bola topshiriqni bajarishga ulgurmasa, tadqiqotchi uni to'xtatib qo'yib, navbatdagi so'zni o'qiydi. Tajriba tugagandan so'ng, boladan qog'ozga chizilgan rasm yoki yozilgan so'zlardan foydalanib, so 'z va so'z birikmalarini aytib berishi so'raladi. Hozirgi zamon psixologiyasi har xil usullar bilan kishi amaliy faoliyatga ta'sir qilish imkoniga ega. Shundy usullardan biri, turli toifadagi odamlarga psixologik yordam ko'rsatishdan iboratdir. Ammo psixologik yordamko'rsatish uchun, avvalo, ulardagi psixik o'zgarishlar sabablarini va unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash zarurati tug'iladi. Bunda biz psixodiagnostika sohasiga murojat etamiz.

"Psixodiagnostika" atamasi psixolgik tashxis qo'yish degan ma'noni anglatib, shaxsning ruhiy holati, to'liq biror-bir alohida xususiyati haqida xulosa chiqarishdir.shundek kichik maktab yosh davrida xotirani o'rganuvchi psixodiagnostik metodiklarni ahamiyati shundan ibortaki; - xotirani ilmiy jihatdan prinsipial baholash, - xotira turlarining miqdoriy ko'rinishlarni baholash, - amaliy psixologik tashxis qo'yish, - psixokorreksion ishlar olib borish maqsadida xotirani dinamik ko'rsatkichlarini aniqlash, - individ yoki shaxsning xotira jarayoni rivojlantirishga yordam beruvchi tavsiyalar ishlab chiqish - bolaning ota-onasi va o'qituvchilariga zarur bo'lgan xotira jaryonining rivojlanishidagi kamchiliklar va unga olib keluvchi sabablar haqida ma'lumotlar to'plab, bolaga mos ravishda ta'lim-tarbiya berish metodlarini tanlash kabi bir qancha muhum vazifalarni psixodiagnostika o'z ichiga oladi. Ko‘pchilik umuman barcha narsani unutmaslikni istaydi. Biroq bu insonga juda og‘irlik qiladi. Yaxshi xotira esda qolishi zarur voqea-hodisalarni esda saqlashgina emas, balki kerak bo‘lmagan narsalarni unuta bilish hamdir. Shuning uchun ham yaxshi eslab qolishning asosiy sharti –o‘ylash. Nimalarni eslab qolganini o‘ylash, yodda qolayotgan narsani avvaldan ma’lum narsa bilan bog‘lash, eslab qolayotgan narsalarni fikran ko‘ra bilish lozim. Eng

muhimi, eslab qolayotgan narsa qachon va nima uchun zarur bo‘lishi mumkinligi haqida o‘ylash kerak.

Xotira uzoq davr bilishning umumiy muammolari bilan uzviy bog‘liq ravishda asosan falsafada o‘rganildi. Xotira haqidagi dastlabki ilmiy qarashlar Sharq mutafakkirlari va yunon faylasuflari ta’limotlarida uchraydi. Xususan, Forobiy xotirani bilishdagi aqliy jarayonning tarkibiy qismi sifatida qarab, uning faqat insonga emas, hayvonga ham xos xususiyat ekanini alohida ta’kidlagan.Zamonaviy psixologiyada xotira atrof muhitdagi voqelikni bevosita va bilvosita, ixtiyorsiz va ixtiyoriy ravishda, passiv va aktiv holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo‘l bilan aks ettirgan holda esda olib qolish, esga tushirish, unutishhamdatanish, eslashdan iborat ruhiy jarayon sifatida talqin qilinadi. Ixtiyoriy xotirada muayyan materialni esda olib qolish oldindan maqsad qilib qo‘yiladi. Ixtiyorsiz xotirada bunday maqsad bo‘lmaydi va u biror-bir faoliyatda (masalan, mehnat jarayonida yoki kimbilandir suhbat paytida)o‘z-o‘zidan esda saqlab qolinadi. Barqarorligi jihatdan ixtiyoriy xotiraixtiyorsiz xotiradan samaraliroq. Shu bilan birga, alohida va umumiylik namoyon qiluvchi ijtimoiy hodisa, barcha ta’sirlarni ijodiy qaytaishlashgayo‘naltirilgan xotira mavjud.

Xotirani quyidagi muhim mezonlarga muvofiq turlarga ajratish mumkin: 1. Ruhiy faoliyat faolligiga ko‘ra:

a) harakat yoki motor harakat xotirasi; b)obrazli xotira; v) his-tuyg‘u yoki hissiyotsi;g) so‘zmantiq xulosasi. Bulardan so‘z-mantiq xotirasi yetakchi o‘rin tutadi. Xotiraning barcha turi bir-biri bilan bog‘liq holda kechadi. 2. Ruhiy faoliyat maqsadiga binoan:

a) ixtiyorsiz; b) ixtiyoriy; v) mexanikxotira 3. Ruhiy faoliyat davomiyligiga ko‘ra: a) qisqa muddatli; b) uzoqmuddatli; v)operativ xotira.

Kundalik hayotda xotira asosan ikki turga – uzoq muddatli va qisqa muddatli xotiralarga bo‘linadi. Qisqa muddatli xotiralar hatto bir soniya ichida gavdalanib, shu ondayoq esdan ko‘tarilishi mumkin. U insonning hayot tajribasidagi mushtaraklik, uyg‘unlik va barqarorlikdan dalolat beradi. Xotira ruhiyatning o‘tmish holati bilan hozirgi va kelgusidagi holatlarga tayyorlash jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ko‘rsatadi. Boshqa psixik hodisalar kabi xotira ham shaxs xususiyatlari, uning ehtiyoji, qiziqishlari, odati, fe’l-atvoribilan bevosita bog‘liq. Insonning o‘zligi uning xotiralari majmuidamujassam bo‘ladi. Inson xotirasi bilan insondir. Xotirasiz kishi esa odamiylikdan chiqadi. Insonning xotirasi bo‘lmasa, u o‘z kelajagini qandaytasavvur qiladi? Agar xotira bo‘lmasa, ota-bobolarimiz to‘plagan kerakli bilim va tajribalarni bilmasdan, har kuni, har qadamda yangi-yangi muammova g‘ov-to‘siqlarga duchor bo‘lar edik... Odamzod o‘zining kechagi kunini xotirlay olsagina, o‘tmishdan zarur saboq va xulosalar

chiqarib, ongli hayotkechirishi mumkin.Dunyo shiddat bilan o’zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo’layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, aholi barchaqatlamlarining axloqiy tarbiyasiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Diqqat idrokning faolligini oshiradi va idrokning mukammal, rasova ravshan bo’lishiga xizmat qiladi. Diqqat ixtiyoriy, ixtiyorsiz vaixtiyoriydan so’nggi kabi turlarga bo’linadi. Diqqatning ixtiyorsiz turi kundalik turmushimizda ko’proq foydalansak, ta’lim jarayonlarida ixtiyoriy diqqatqanchalik yaxshi rivojlangani ahamiyatlidir. Ixtiyoriy diqqatda irodaviy zo’r berish jarayoni kechadi: masalan bir maqsad qo’yib, o’sha maqsad sari borishda rejalar asosida qanchalik murakkab va qiyin bo’lmasin, harakat qilib, intilib erishiladi.

Xulosa : Xulosa qilib aytganda xotira bu inson hayotida muhim rol o’ynaydigan bilish jarayonlaridan biri hisoblanadi. Xotira sohasidagi quyidagi asosiy jarayonlar esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bir biridan farq qilinadi.Bu jarayonlar faoliyatda tarkib topadi va belgilanadi. Ma’lum materialni esda olib qolish hayot faoliyati davomida individual ya’ni shaxsiy tajribani to‘plash bilan bog‘liqdir. To‘plangan tajribadan keyingi faoliyatda foydalanish qayta esga tushirishni talab qiladi. Ma’lum materialning faoliyatda qatnashmay qolishi yoddan chiqarishga olib keladi.Kundalik tajribamiz ko‘rsatadiki, esda qolgan narsalarning hammasi ham esimizga tushavermaydi, ularning bir qismi unutiladi. Unutish hamxotiraga oid hodisadir. Ta’sirotlarning ana shunday esda qoldirish va keyin esga tushirishning fiziologik asosi muvaqqat nerv bog‘lanishlaridir, bu muvaqqat bog‘lanishning hosil bo‘lishi,mustahkamlash va keyin jonlantirish jarayonidir. Esda qoladigan narsa va xotiraning mazmunini tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.T.Nishanova, D.Qarshieva, N.Atabaeva, Z.Qurbonova "Psixodiagnostika va ekserimental psixologiya" Toshkent-2018.

2. Z.T.Nishanova, N.G'.Kamilova, D.U. Abdullayeva, M.X.Xolnazarova" Rivojlnish psixologiyasi pedagogik psixologiya" Toshkent-2017.

3. www.ziyonet.uz

4. Umumiy va tibbiyot psixologiya” M.Fayziyev, E.H. Eshboyev.O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’limvazirligi O‘rtamaxsuskasb-hunar ta’limi markazi tomonidan tibbiyot kollejlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan II nashr. Toshkent Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti 2003. 39-bet

YOSHLAR TA’LIM-TARBIYASIDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Manzura Djumabayeva
Toshkent amaliy fanlar universiteti
Psixologiya kafedrasi dotsent v.b.

“Odamni tarbiya qilish uni jismonan, fikran va xulqan kamolga etkazib, saodatga erishishga qobil etishdan iboratdir.”
“Tarbiya uch qismdan iborat: badan tarbiyasi, aqliy tarbiya, axloq tarbiyasi.” (Abdurauf Fitrat)

Bugungi kunda axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi har qachongidan ham dolzarbroq mazmun-mohiyat kasb etib bormoqda. O‘zbekiston axborot infratuzilmasining ortib borishi sharoitida yoshlar va bolalarning internetdan foydalanish darajasi ham tobora o‘sib bormoqda.

Hozirgi kunda axborot texnologiyalarining dunyo miqyosida keskin rivojlanishi, Internet tizimining barcha davlatlar, madaniy hududlar, barcha yoshdagi insonlar uchun qulay axborot almashinuvi vositasiga aylanib borayotganligi hech kimga sir bo‘lmay qoldi. Global Network asosida ishlaydigan World Wide Web-ning yaratilishi esa Internet tarixida yangi bosqichni boshlab berdi va uning rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Yoshlar internetga ma'lumot olishning asosiy manbai deb qaraydi. Ular internetga, asosan, yangiliklarni izlash, do‘stlar bilan muloqot qilish uchun kiradi, sog‘lom aql egalari esa internet qulayliklaridan o‘z bilimlarini oshirish yo‘lida oqilona foydalanadi. Hech kimga sir emaski, yangi turdagi psixologik qurol - axborot-psixologik quroldir. Bu butunlay yangi turdagi qurol bo‘lib, u ommaviy axborot vositalari, kompyuter o‘yinlari, internet tizimi yordamida inson ongi orqali uning dunyoqarashiga ta'sir ko‘rsatishga mo‘ljallangandir. Tajribalardan ma'lumki, xavfni bartaraf etishning eng oson yo‘li, shu xavfni oldindan aniqlab, unga qarshi ehtiyot choralarini qo‘llashdir. Shu nuqtai-nazardan, axborot xavfsizligini ta'minlash borasida ham eng kuchli tahdid manbalarini aniqlash va ularga qarshi himoya choralarini ko‘rish asosiy vazifa hisoblanadi.

Globallashayotgan dunyoda axborot xalqaro va davlatlararo munosabatlarda katta ahamiyat kasb etadi, ya'ni u jahon hamjamiyati hayotida ham ijobiy, ham salbiy kuch sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Bizga ma'lumki, bugungi kunda axborot oqimlari haddan tashqari jadal va keng ko‘lamlidir. Yoshlarda shaxsning idrok eta bilish madaniyati internet global tarmog‘i va televideniyedan berilayotgan axborotlarni tahlil qilish va tanqidiy baholash ko‘nikmalarining mavjudligiga ko‘ra xarakterlanadi. Aynan intellektual va madaniy rivojlanishga

koʻmaklashuvchi axborotlarni tanlay bilish, axborotda ilgari surilayotgan mafkura nuqtai-nazaridan salbiy, zararli jihatlarni bartaraf etish, idrok etish madaniyatining yetarlicha shakllanganini bildiradi.

Yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish ularning axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashda muhim rol oʻynaydi. Axborot iste'moli madaniyati shakllangan boʻlsa, milliy qadriyatlarimizga zid boʻlgan xabar, ma'lumotlarni baholash paytida, albatta har bir shaxsning oʻz qarashlari, qadriyatlar tizimi muhim rol oʻynaydi. Demak, ta'lim va tarbiya jarayonida har bir pedagog yoshlarning mustaqil fikrlashlari uchun sharoit yaratishi lozim.

Jahon tajribasidan ma'lumki, davlat axborot infrastrukturasining rivojlanishi jamiyat va davlatning xamma jabxalarini, jumladan, odamlarning dunyoqarashini va ularning mexnat, ijtimoiy va siyosiy xayotda ishtirok etishi shartlarini oʻzgartirib, jamiyat rivojlanishini tezlashtiradi. Yoshlarda axborot xurujidan himoyalanish uchun mustaqil fikr boʻlishi lozim. Birinchidan, yoshlarning oʻzini oʻzi himoya qilishiga e'tibor berish lozim. Avvalo, har bir inson uchun mustaqil fikr zarur. Mustaqil fikrga ega boʻlgan insongina yaxshi yoki yomon ma'lumotning mohiyatiga etib, ularga qarshi kuch topa oladi.

Statistik ma'lumotlarga koʻra, bugungi kunda mamlakatimizda “Telegram” messenjerida 18 mln, “Odnoklassniki”da 16,7 mln, “Facebook”(Meta)da 5,6 mln, “Instagram”da 4,5 mln, “V-kontakte”da 2,6 mln, “LinkedIn”da 432 ming, “Twitter” tarmogʻida esa 51,6 ming foydalanuvchilar mavjud. Tahlillar tasdiqlayaptiki, ijtimoiy tarmoqlarning aksariyat foydalanuvchilari yoshlar va ular mazkur makondan xavfsiz foydalanishi favqulodda ahamiyatli vazifa hisoblanadi. Yana bir tashvishli jihat shundan iboratki, ma'naviy tahdid soluvchi va yoshlar ongini egallashga qaratilgan axborot xurujlari kun sayin avj olmoqda. Axborot xurujlarining yolgʻon axborot tarqatish, ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni yemirish, mentalitetga mutlaqo yot boʻlgan qadriyatlarni targʻib etish, kiberjinoyat kabi buzgʻunchilik ishlari keng tarqalmoqda.

Axborot xurujlariga qarshi kurashda kurashning tizimli boʻlishi hamda uning zarur huquqiy bazasi shakllantirilganligi oʻta muhim hisoblanadi. Axborot xurujining oldini olish yoʻllari:

yoshlarda tashqi tahdidlar, buzgʻunchi ta'sirlarga qarshi toʻgʻri, hushyor munosabatni shakllantirish;

yoshlarning bilimini oshirish, ularda voqea-hodisalar mohiyatini tahlil qilish malakasini shakllantirish. Toki yoshlarning oʻzi oqni qoradan ajratib olish imkoniyatiga ega boʻlsinlar;

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, biz axborot xurujlariga qarshi yangicha fikrlashimiz, ishlashimiz zamon talabi ekanligini har bir inson o‘z hayot faoliyati davomida ongli ravishda his qilib borishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umarov B., Axmedova M. Axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik. Ijtimoiy-gumanitar oliy ta'lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2013 y.

2. Yuldasheva M. Jamiyat axboriy jarayonlarining barkamol avlod shakllanishiga ta'siri // J. Zamonaviy ta'lim. 10 son

3. Kuchukbaev F.M, Abduazimova D.F, Djuraev R.X, Divanova M.S, Inoyatova M.E. O‘quvchi shaxsiga salbiy ta'sir ko‘rsatuvchi internet saytlari va teleko‘rsatuvlarning ularda salbiy his-tuyg‘ularni vujudga keltirishning oldini olish bo‘yicha Profilaktik korrektsion dastur. Toshkent. 2016 y.

HARORAT XUSUSIYATINING LEKSIKO SEMANTIK TAHLILI

SAYDJANOVA KOMILA DAVRANOVNA
Alfraganus universiteti, formasevtika va kimyo kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola chet tilida tahlil qilinayotgan leksemalarning katta qismi – yuqori chastotali ma’nolari tarmoqlangan ko‘p ma’noli so‘zlarni, sifatlar bunday turdagi ish uchun boshqalardan farqli qiziqarli materialni namoyon qiladi, chunki “aynan mana shu sinf har bir tilning semantik tuzilishining o‘ziga xosligini, uning leksik-semantik tizimining farq qiluvchi o‘ziga xos xususiyatlarini tashkil qilishini, shuningdek ularning leksik-semantik tizimdagi semantik ahamiyati bilan, aks ettirilayotgan voqelikka aloqasining xarakteri bilan matniy namunasi va uning boshqa ierarxik aloqasidan tashqari ma’nosining tizimi xarakteristikasining kontekstga bog‘liqlik darajasiga, uning semantik (yoki leksik) hamda sintaktik valentliligiga yo‘riqni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: leksika, semantika, leksema, tiède, chaud, torride, brûlant, bouillant, ardent, incandestant, frais, frusquet, froid, frigide, refroidi, glacé, glacial, glaçant, tahlil, leksika-semantik tahlil, sinonimik munosabat, antonimiyaning lingvistik, minimal sintagmada.

ANNOTATION

This article is a large part of the lexemes analyzed in French – high-frequency meanings represent branched multi-meaning words, adjectives show an interesting material for such a type of work, different from others, since “it is this class that determines the specificity of the semantic structure of each language, the organization of distinctive features of its lexical-semantic system, as well as their semantic significance in the lexical-semantic system, with a textual example, includes guidance on its semantic (or lexical) as well as syntactic valency.

Key words: vocabulary, semantics, lexeme, tiède, chaud, torride, brûlant, bouillant, ardent, incandestant, frais, frusquet, froid, frigide, refroidi, glacé, glacial, glaçant, analysis, lexicon-semantic analysis, synonymic attitude, linguistic, minimum syntagma of antonymia.

Chet tillarida leksikaning tizimli tuzilishini o‘rganish hozirgi leksikologiyaning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shu munosabat bilan tilshunoslarning leksik ma’nolarning umumiyligi yoki o‘xshashligi bilan bog‘liq turli-tuman so‘zlarning guruhlariga murojaati dolzarb ko‘rinadi. Ushbu tadqiqot tilga olingan yo‘nalish oqimida bajarilgan.

Mavjud muammo tanlovi quyidagi mulohazalar bilan o‘tkazilgan: birinchidan, tahlil qilinayotgan leksemalarning katta qismi – yuqori chastotali[62] ma’nolari tarmoqlangan ko‘p ma’noli so‘zlardir. Bu holat keyingilarning o‘zaro bog‘lanishining murakkab xarakterini, demak, ular o‘rtasidagi rang-barang semantik aloqalarini oldindan belgilab beradi. Ikkinchidan, sifatlar bunday turdagi ish uchun boshqalardan farqli qiziqarli materialni namoyon qiladi, chunki “aynan mana shu sinf har bir tilning semantik tuzilishining o‘ziga xosligini, uning leksik-semantik tizimining farq qiluvchi o‘ziga xos xususiyatlarini tashkil qiladi”.[63] Uchinchidan, tadqiq qilinayotgan LSGlarning asosida yotgan issiqlik va sovuqlik tushunchalari tilda mustahkamlanib qolgan eng muhimlarning qatoriga kiradi. To‘rtinchidan, leksikaning ko‘rsatilgan mikrouchastkasi fransuz tilida hali mustaqil tadqiqotga duchor qilinmagan.[64] Keltirilgan dalillar taklif qilinayotgan ishning dolzarbligini tasdiqlash uchun yetarli tuyiladi. XX asr fransuz mualliflarining asarlaridan hamda lug‘atlarning sitatalaridan chiqarib olingan o‘zgaruvchan so‘z birikmalari materiali bo‘yicha qarab chiqiladi. Matnlarning umumiy hajmi 50 000 ga yaqin sahifani tashkil etadi va 7000 dan ortiq misollarni o‘z ichiga oladi.

Chet tillarning ko‘p ma’noli so‘zning semantik strukturasini leksik-semantik variantlarning (A.I. Smirniskiyning terminologiyasi bo‘yicha) mazmuni bo‘yicha uning ayrim ma’nolariga[65] teng bo‘lgan tizim sifatida adekvat tasvirlash, eng avvalo bu mustaqil ma’nolarni ochib berishni hamda ularning o‘zaro munosabati xarakterini aniqlashni ko‘zda tutadi. Shu bilan birga so‘zning ma’nosi deganda “unga qo‘shib yozilgan hamda unga ijtimoiy jihatdan biriktirib qo‘yilgan, qandaydir predmetning, predmetlar, hodisalar, vaziyatlar sinfining in’ikosi (kopiyasi, nusxasi, obrazi) hisoblangan tafakkurga oid mazmun”[66] tushuniladi.

Fransuz tilida polisemantik leksemaning so‘z ichi chegaralanishini o‘tkazar ekanmiz, uning so‘z turkumi sifatidagi spesifikasini hisobga olish zarur, chunki “so‘zning hajmi ham, ma’nolarni birlashtirish usullari ham turli grammatik kategoriyalarda boshqa-boshqadir. Misol uchun, fe’lning strukturasi otga qaraganda kengroq, uning ma’nolari

---

[62]Chaud, froid, frais, tiède, brûlant, ardent, glacé энг частотали сўзларнинг биринчи 3500 талигига, glacial эса биринчи 6000 талигига киради. Номлари келтирилган сифатларнинг частоталиги қуйидаги частотали луғатларнинг маълумотлари асосида аниқланди: G.Gougenheim. Dictionnaire fundamental de la langue française. P., 1958; A.Juilland. Frequency dictionary of French Words.1970; G.E.Van der Beke. French Woed Book. New York, 1930.

[63]А.А. Уфимцева. Типы словесных знаков. М.,1974, с.153.

[64]Иссиқ ва совуқ маъноли бир қатор сифатлар бошқа тилларнинг материалида, асосан, чоғиштирма планда кўриб чиқилган. Шу муносабат билан қаранг: С.В. Горник. Сравнительное исследование сочетаемости однокоренных прилагательных английского hot и немецкого heiβ. “Актуальные проблемы лексикологии, фразеологии и стилистики. Тезисы научной конференции аспирантов”. МГУ, 1971; Г.Оранская и Л.Атанасова. Некоторые случаи сочетаемости прилагательных с существительными в русском и болгарском языках. “Первая национальная конференция преподавателей русского языка и литературы. (Варна)”. София, 1973; Г.Н. Лукина. О словах-антонимах “горячий” и “холодный” в древнерусском языке. НДВШ ФН 1959, №1.

[65]Общее языкознание. Внутренняя структура языка. Под ред. Б.А. Серебренникова. М.,1972, с.412.

[66]В.М. Солнцев. Язык как системно-структурное образование. (К проблеме онтологии языка). АДД, М.,1970, с.26.

doirasi ham siljiydiganroq. Asliy sifatlarning ma’nolari yana ham ko‘proq elastikdir...”[67] Ma’nolarning bunday qorishiqligi leksik-semantik variantlarni (LSV) chegaralash protsedurasini ancha qiiyinlashtiradi hamda tadqiqotchidan ularni namoyish qilishning til vositalarining bir qator komplekslarini safarbar qilishni talab qiladi.

Chet tili birligining ko‘p ma’noliligi kontekst bilan bartaraf qilinishi hamda xilma-xil LSVlar aynan har xil kontekstlarda amalga oshganliklari sababli, LSVlarni ushbu birlikning ma’nosini tashkil qiluvchilarni aniqlash uchun ishonchli material, asos sifatida baholash mumkin. Polisemantik so‘zni o‘rganishga bunday yondashuv har xil mualliflarda[68] ko‘p ma’noli so‘zlarning ma’nolar tizimi tasavvuridagi muhim farqlar sababli, ba’zi lug‘aviy ma’lumotlarni qiyoslashga qaraganda ancha amaliy (operativ) tuyiladi. Shunday qilib, polisemantik so‘z ma’noviy strukturasining tahlilini sintagmatikadan, uning birga qo‘shib ishlatish uchun mumkinlikni sinchiklab o‘rganishdan boshlash lozim. “Sifatlarning leksik-semantik o‘zgarishi chegaralari, - deya qayd qiladi bu xususida A.A. Ufimseva, - haddan tashqari keng va minimal sintagmada u bilan birga qo‘shiladigan so‘zlarning faqat leksik mazmuni bilan o‘tkaziladi”.[69] Aytilganlardan tashqari, ko‘p ma’noli so‘zning ma’nolari tizimini aniqlashtirishda uning paradigmatik aloqalarini aniqlash muhim rol o‘ynaydi, bu aloqalar uning ma’noviy parchalanishining yetarli darajadagi ob’ektiv ko‘rsatkichi hisoblanadilar.

Ko‘p ma’noli so‘zning semantik strukturasini aniqlash haqidagi masala uning mustaqil ma’nolarini kontekst qo‘llanilishlardan chegaralash muammosi bilan chambarchas bog‘lanib ketadi. Kontekstlarda ushbu so‘z qandaydir individual vaziyatda, unda alohida, odatda o‘zi uchun xarakterli bo‘lmagan ma’noni qo‘lga kiritib, ishlatiladi.[70] Bunday qo‘llanilishlar ko‘p ma’noli leksemaning semantik strukturasiga qo‘shilmaydilar. Biroq, vaqt o‘tishi bilan ular ham mustaqil ma’no statusini qo‘lga kiritishlari mumkin. Bunda boshlang‘ich mezon sifatida ularning har xil mualliflarda bir necha bor qo‘llanilish fakti qabul qilinadi.

Boshqa tomondan, polisemantik til belgisining so‘z ichi chegaralanishi unga biriktirilgan ma’nolar ierarxiyasini aniqlash bilan chambarchas bog‘langan. Ma’nolarning mavjud tasniflari, ma’lumki, har xil asoslar bo‘yicha tuziladi.[71] Shunga qaramay, ularning hammasi ma’nolarning ma’lum tiplarini tahlilning davriy planiga bog‘liqligini hisobga oladilar. Modomiki mazkur tadqiqot sinxron hisoblanar ekan va faqat so‘zlarning o‘zgaruvchan birikmalarining materialini ishlatar ekan, birlamchi va ikkilamchi, frazeologik jihatdan erkin bo‘lgan ma’nolarni ko‘rib chiqish zaruriyati bekor bo‘ladi. Biz

[67]В.В. Виноградов. Русский язык. М.,1972, с.19.

[68]Масалан, қаранг: Ж.Дюбуа ва П.Робернинг француз тилининг изоҳли луғатлари ва “Катта Ларусс, у ерда chaud сифатининг маънолар тизими мос равишда 5, 8 ва 12 та маъноларга, froid эса - 3, 6 ва 15 та маъноларга эга.

[69]А.А. Уфимцева. Типы словесных знаков. М.,1974, с.149.

[70]Р.А. Будагов. К критике релятивистических теорий слова. В кн.: “Вопросы теории языка в современной зарубежной лингвистике”. М., 1961, с.17.

[71]Қаранг, масалан: О.С. Ахманова. Очерки по общей и русской лексикологии. М.,1957; Р.А. Будагов. Язык, история и современность. МГУ, 1971; В.В. Виноградов. Основные типы лексических значений слова. В.Я., 1953, № 5; В.Г. Гак. Системность в лексике и типология лексических значений слов. В кн.: “Актуальные проблемы лексикологии. Тезисы докладов 3-й лингвистической конференции”. Новосибирск, 1971, ч.1; В.П. Конецкая. Принципы классификации лексических значений олова. “Ученые записки Московского пединститута”, 1956, т.93; А.А. Кунин. К вопросу о классификации основных лексических значений слова. В кн.: “Вопросы описания лексико-семантической ситемы языка. Тезисы докладов”. М.,1971, ч.1; Ф.А. Литвин. К обоснованию принципов типологии лексических значений слова. В сб.: “Проблемы общей и романо-германской семасиологии”. Под ред. М.В. Никитина. Владимир, 1973.

bu ma’nolarni quyidagi mezonlardan kelib chiqib tizimlashtiramiz: ularning leksik-semantik tizimdagi semantik ahamiyati darajasi, aks ettirilayotgan voqelik bilan aloqasi xarakteri, qo‘llanilish sohasi.[72]

Jumladan, sanab o‘tilgan prinsiplardan birinchisi asosiy va ikkinchi darajali ma’nolarni chegaralash imkonini beradi. Agar asosiy ma’no eng katta paradigmatik mustahkamlanganlik hamda kontekstdan nisbiy mustaqillik bilan xarakterlansa, ikkinchi darajali ma’nolar “aksincha, eng katta sintagmatik mustahkamlanganlikni namoyon qiladilar va sezilarli darajada paradigmatik munosabatlar bilan bog‘liq emaslar”.[73] O‘z navbatida ikkinchi darajali ma’nolar ko‘pincha bir biriga nisbatan teng bo‘lmagan o‘rinni egallaydilar. Ularning har birining polisemantik so‘z ma’nolaridagi o‘rni bunday holda uning funksional salmog‘i bilan oldindan ma’lum bo‘ladi.

Mavjud qator lingvistlarning guvohligi bo‘yicha[74], asosiy va ikkinchi darajali ma’nolarni bir-biriga zid qo‘yish har doim ham yetarli darajada aniq kuzatib turilmaydi. Ma’nolarning ko‘rsatilgan oppozitsiyasi doirasida ierarxiyani aniqlashning vositali usullari bo‘lib ularning so‘z yasash faolligi, chastotaligi, qo‘llanilish sohasining kengligi xizmat qilishlari mumkin. Ikkinchi prinsipning hisobi leksik-semantik variantlarning o‘zaro munosabatini to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolari doirasida tasvirlash imkonini beradi. Shu bilan birga ko‘chma ma’nolar ushbu ishda obrazlilik tomondan tushuniladi. Uchinchi prinsip asosida hamma yerda qo‘llaniladigan va maxsus (stilistik tus berilgan, terminologik) ma’nolarni taqqoslab ko‘rish shakllanadi.

Tahlilda aniqlangan LSVlarning joylashish usuliga kelsak, bu tadqiqotda faqat “semantik istiqbol” deb ataluvchini saqlab qolish manfaatini ko‘zlab ma’nolarni berishning tarixiy va sinxron prinsiplari o‘rtasida murosaga bormay, ularning kelishining aktual tartibini ko‘rsatish ancha o‘rinli tuyiladi[75]. Bunday yondashuv til haqidagi ideal tasavvurni aks ettiradi, vaqtdan tashqari va til hayotining u yoki boshqa davridagi ma’nolar orasida real mavjud aloqalarni to‘liq darajada ochib bermaydi. Aksincha, ko‘p ma’noli so‘zning ma’nolarini sinxron berishda har bir LSVning o‘rni uning funksional “yuklamasi” (qo‘llanilish darajasi, derivatlarning mavjudligi) hozirgi tilda oldindan belgilab qo‘yiladi.[76] Hamonki chastotali lug‘atlarda ko‘p ma’noli so‘zning faqat asosiy ma’nosi qayd qilinar ekan, LSVning qo‘llanilishi darajasini biz tadqiqotning faktik materiali asosida aniqlashtiramiz va ushbu ma’noning matniy namunalari sonini polisemantik so‘zning barcha ma’nolariga misollarning umumiy soniga nisbati bilan

[72]Қаранг: В.В. Виноградов. Основные типы лексических значений слова, с.12; А.А. Уфимцева. Опыт изучения лексики как системы. М.,1962, с.93.

[73]Э.М. Медникова. Значение слова и методы его описания. М., 1974, с.137.

[74]Қаранг, масалан: М.Б. Никитин. О формальном статусе словозначений в системе номинативных средств языка. В кн.: “Ученые записки Владимирского государственного пединститута, серия иностранных языков”. Владимир, 1973, том 44, вып.7, с.19-20; Е.А. Найда. Анализ значения и составление словарей. “Новое в лингвистике”, М.,1962, вып. II, с. 49.

[75]Кўп маъноли сўзнинг маъноларини тизимлаштиришда қайси принципга афзаллик бериш кераклиги ҳақидаги масала ҳамон мунозаралар доирасида турибди. Хусусан, ЛСВни тақдим қилишнинг синхрон усули О.С. Ахманова, Р.А. Будагов, Ж.Дюбуа, А.Рей, С.Ульманн каби лингвистлар томонидан маъқулланади, бироқ Х.Касарес, Ж.Маторе ва бошқа айрим тадқиқотчилар томонидан талашилади. Қаранг: О.С. Ахманова. Указ.раб., с.91; Р.А. Будагов. Указ.раб., с.112; J.Dubois e.a. Dictionnaire de linguistique. P.,1973, p.153; A.Rey. Sémantique et lexicographie (orientations actuelles des dictionnaires français), in Actes du X Congrès international des linguistes. II,1967, p.471. С.Ульманн. Семантические универсалии. «Новое в лингвистике». М., 1970, вып.V, с.268; Х.Касарес. Введение в современную, лексикографию. М., 1958, с.83; G.Matoré. Histoire des dictionnaires français. P., 1968, p.241.

[76]Р.А. Будагов. Язык, история и современность. МГУ, 1971, с.113.

(protsentlarda) aniqlanadi. Demak, aytilganlardan kelib chiqib, chaud sifatining leksik-semantik variantlari quyidagi tarzda guruhlanadi: I LSV - 38%, II LSV - 18,2%, III LSV - 14%, IV LSV - 10,4%, V LSV - 7,2%, VI LSV - 5%, VII LSV - 2,7%, VIII LSV - 2%, IX LSV - 1,4%, X LSV - 0,8%, XI LSV - 0,3% (batafsil jadvalga qarang).

Xozirda polisemantik so‘z tadqiqotining metodikasi bo‘yicha yuqorida qilingan mulohazalarni hisobga olib, fikrimizcha LSGning har bir bo‘laklari ma’nolarining tizimini quyidagi sxema bo‘yicha tahlilini o‘tkazish maqsadga muvofiqdir:

1) (LSV) sifatning ma’nosi; 2) ushbu LSVning matniy namunasi; 3) semantik (yoki leksik) valentlilikni aks ettiruvchi semantik razryadlar (yoki so‘zlarning ro‘yxatlari); 4) sintaktik valentlilikni aks ettiruvchi sintaktik konstruksiyalar; 5) kontekstga oid tobelikning darajasi; 6) ushbu so‘zning voshqa LSVlar bilan ierarxik aloqasining o‘ziga xos xususiyatlari.

So‘zlarning sinflari darajasida sintaktik valentliligi formulalarini yozish uchun notatsiyaning (shartli belgilarning) quyidagi tizimi qabul qilinadi: N - ot, V - fe’l, A - sifat, Adv - ravish, prep - predlog.

Xulosa o‘rnida quyidagilarni bildirib o‘taman:

1. Belgining gradatsiyasini bildiruvchi leksemalarning tadqiqoti qandaydir sanoq boshini yoki normani aniqlash bilan bog‘liq. Harorat idroki sifatlarini tahlil qilishda bu tushunchani qo‘llash ko‘rib chiqilayotgan leksik birliklarning semantik korrelyatsiyasini ancha tejamliroq tasvirlash hamda belgining intensivligi darajasini aniqroq namoyon qilish imkonini beradi. Ko‘rsatilgan leksemalarning to‘g‘ri ma’nolari ichida norma harorat xususiyatining semantik shkalasidagi o‘rtacha taqsimotga to‘g‘ri keluvchi “loqaydlik zonasi” sifatida belgilanadi va tilda “normal harorat” so‘z birikmasi bilan ifodalanadi. Normani qandaydir raqamli ma’lumotlar bilan aniqlashtirish so‘zlarning semantik razryadlarining va kundalik vaziyatlarning rang-barangligi sababli noratsional tuyiladi, ular bilan tadqiqotchi tahlil davomida to‘qnashadi. Harorat idroki sifatlarining ko‘chma ma’nolarini o‘rganishda ba’zibir shkalalarning asimmetrikligini hisobga olish kerak. Asimmetriklik shundan iboratki, neytral o‘rta bo‘lak (“u ham emas, bu ham emas”) normani bildirmaydi. Unga shkalaning eng oxirgi, oddiy, ma’qul belgi yoki sifatni bildiruvchi bo‘laklaridan biri mos keladi, uning natijasida shkalaning markazidan uning oxiriga sanoq nuqtasining ko‘chishi sodir bo‘ladi. Normaning pozitsion o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish nomlari keltirilgan birliklarning sinonimik va antonimik munosabatlarini tahlil qilishda zarurdir.

2. Tadqiqotning vazifalari quyidagi metodlarning tanlovini oldindan belgilab berdi: kontekstologik tahlil metodi, komponent tahlil metodi, valentli va distributiv tahlillar metodi, oppozitsiyalar metodi.

3) Ko‘rib chiqilayotgan sifatlar ma’nolarining tizimi tasviri o‘z ichiga quyidagilarni oladi: 1) bu mustaqil ma’nolarni (LSVlarni) ochib berish; 2) ularning o‘zaro munosabatlari xarakterini aniqlash.

Leksik-semantik variantlarni aniqlash (topish) ko‘p ma’noli leksemaning sintagmatikadan, birga qo‘shib ishlatish uchun mumkinlikni sinchiklab o‘rganishdan boshlanadi, chunki aynan kontekst LSVlarni aniqlash uchun material baza bo‘lib hizmat

qiladi. Buning ustiga polisemantik so‘zni lug‘atlarda taqdim qilishdagi har xillik uning ma’nolarini tashkil qiluvchi tizimni bir xilda aniqlashga imkon bermaydi. Misol uchun, chaud sifati ma’nolari haqidagi ma’lumotlarning zidligiga ishonch hosil qilish uchun J.Dyubua, P.Rober va “Katta Laruss” lug‘atlariga murojaat qilishning o‘zi yetarlidir (mos ravishda 5 ta LSV, 8 ta LSV va 12 ta LSV).

LSVlarni aniqlash protsedurasi biroq sintagmatika bosqichi bilan chegaralanib qolmaydi: tahlil qilinayotgan birlikning paradigmatik aloqalari bir xilda e’tiborga olinadi.

Ko‘p ma’noli so‘zning ayrim ma’nolari o‘rtasidagi munosabatlar xarakteri quyidagi mezonlarni hisobga olish bilan aniqlanadi: ularning leksik-semantik tizimdagi semantik ahamiyati bilan, aks ettirilayotgan voqelikka aloqasining xarakteri bilan, qo‘llanilishi sohasi bilan. Shunday qilib, ma’nolarning quyidagi tiplari farqlanadi: asosiy – ikkinchi darajali, to‘g‘ri – ko‘chma, hamma yerda qo‘llaniladigan - maxsus.

Ko‘p ma’noli sifatning leksik-semantik variantlari ular kelishining aktual tartibiga mos ravishda, ya’ni hozirgi tildagi funksional “yuklamasiga” (qo‘llanilish darajasiga, derivatlarning mavjudligiga) qarab joylashadilar. Funksional “yuklama” tadqiqotning faktik materiali asosida aniqlanadi hamda polisemantik so‘zning barcha ma’nolariga ushbu ma’noning matniy namunalari sonining nisbati bilan (foizlarda) belgilanadi. Ba’zi bir ikkinchi darajali ma’nolar uchun LSVlarning bunday “joylanishi” taxminiy bo‘lib chiqadi: chaud sifatining V LSV va VI LSV, VII LSV va VIII LSVlari, ardent sifatining V LSV va VI LSVlari, froid sifatining III LSV va IV LSVlari o‘z joyi bo‘yicha deyarli teng huquqqa egadir. Bunga hozirgi tilda ushbu LSVlar o‘rtasidagi ierarxik aloqaning nisbiyligi izoh bo‘lib xizmat qiladi.

Har bir LSVning matniy namunasi va uning boshqa LSVlar bilan ierarxik aloqasidan tashqari, LSG bo‘lagi ma’nosining tizimi xarakteristikasi LSVning kontekstga bog‘liqlik darajasiga, uning semantik (yoki leksik) hamda sintaktik valentliligiga yo‘riqni o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. О.С. Ахманова. Указ.раб., с.91; Р.А. Будагов. Указ.раб., с.112; J.Dubois ye.a. Dictionnaire de linguistique. P.,1973, p.153; A.Rey. Sémantique et lexicographie (orientations actuelles des dictionnaires français), in Actes du X Congrès international des linguistes. II,1967, p.471. С.Ульманн. Семантические универсалии. «Новое в лингвистике». М., 1970, вып.V, с.268; Х.Касарес. Введение в современную, лексикографию. М., 1958, с.83; G.Matoré. Histoire des dictionnaires français. P., 1968, p.241.

2. Р.А. Будагов. Язык, история и современность. МГУ, 1971, с.113.

3. В.В. Виноградов. Русский язык. М.,1972, с.19.

4. Ж.Дюбуа ва П.Робернинг француз тилининг изоҳли луғатлари ва “Катта Ларусс, у ерда chaud сифатининг маънолар тизими мос равишда 5, 8 ва 12 та маъноларга, froid эса - 3, 6 ва 15 та маъноларга эга.

5. А.А. Уфимцева. Типы словесных знаков. М.,1974, с.149.

6. Р.А. Будагов. К критике релятивистических теорий слова. В кн.: “Вопросы теории языка в современной зарубежной лингвистике”. М., 1961, с.17.

7. О.С.Ахманова. Очерки по общей и русской лексикологии. М.,1957; Р.А. Будагов. Язык, история и современность. МГУ, 1971; В.В. Виноградов. Основные типы лексических значений слова. В.Я., 1953, № 5; В.Г. Гак. Системность в лексике и типология лексических значений слов. В кн.: “Актуальные Тезисы докладов 3-й

лингвистической конференции”. Новосибирск, 1971, ч.1; В.П. Конецкая. Принципы классификации лексических значений олова. “Ученые записки Московского пединститута”, 1956, т.93; А.А. Кунин. К вопросу о классификации основных лексических значений слова. В кн.: “Вопросы описания лексико-семантической ситемы языка. Тезисы докладов”. М.,1971, ч.1; Ф.А. Литвин. К обоснованию принципов типологии лексических значений слова. В сб.: “Проблемы общей и романо-германской семасиологии”. Под ред. М.В. Никитина. Владимир, 1973.

8. В.В. Виноградов. Основные типы лексических значений слова, с.12; А.А. Уфимцева. Опыт изучения лексики как системы. М.,1962, с.93.

9. Э.М. Медникова. Значение слова и методы его описания. М., 1974, с.137.

10. М.Б. Никитин. О формальном статусе словозначений в системе номинативных средств языка. В кн.: “Ученые записки Владимирского государственного пединститута, серия иностранных языков”. Владимир, 1973, том 44, вып.7, с.19-20; Е.А. Найда. Анализ значения и составление словарей. “Новое в лингвистике”, М.,1962, вып. II, с. 49.

11. G.Gougenheim. Dictionnaire fundamental de la langue française. P., 1958; A.Juilland. Frequency dictionary of French Words.1970; G.E.Van der Beke. French Woed Book. New York, 1930.

XORIJIY TILDA LEKSIKO-SINONIMIK MEZONLAR

SAYDJANOVA KOMILA DAVRANOVNA
Alfraganus universiteti, formasevtika va kimyo kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Xorijiy tillarda tahlil qilinayotgan leksemalarning katta qismi – yuqori chastotali ma’nolari tarmoqlangan ko‘p ma’noli so‘zlarni, sifatlar bunday turdagi ish uchun boshqalardan farqli qiziqarli materialni namoyon qiladi, chunki “aynan mana shu sinf har bir tilning semantik tuzilishining o‘ziga xosligini, uning leksik-semantik tizimining farq qiluvchi o‘ziga xos xususiyatlarini tashkil qilishini, shuningdek ularning leksik-semantik tizimdagi semantik ahamiyati bilan, aks ettirilayotgan voqelikka aloqasining xarakteri bilan matniy namunasi va uning boshqa ierarxik aloqasidan tashqari ma’nosining tizimi xarakteristikasining kontekstga bog‘liqlik darajasiga, uning semantik (yoki leksik) hamda sintaktik valentliligiga yo‘riqni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: leksika, semantika, leksema, tiède, chaud, torride, brûlant, bouillant, ardent, incandestant, frais, frusquet, froid, frigide, refroidi, glacé, glacial, glaçant, tahlil, leksika-semantik tahlil, sinonimik munosabat, antonimiyaning lingvistik, minimal sintagmada.

ANNOTATION

This article is a large part of the lexemes analyzed in French – high-frequency meanings represent branched multi-meaning words, adjectives show an interesting material for such a type of work, different from others, since “it is this class that determines the specificity of the semantic structure of each language, the organization of distinctive features of its lexical-semantic system, as well as their semantic significance in the lexical-semantic system, with a textual example, includes guidance on its semantic (or lexical) as well as syntactic valency.

Key words: vocabulary, semantics, lexeme, tiède, chaud, torride, brûlant, bouillant, ardent, incandestant, frais, frusquet, froid, frigide, refroidi, glacé, glacial, glaçant, analysis, lexicon-semantic analysis, synonymic attitude, linguistic, minimum syntagma of antonymia.

Zamonaviy sinonimiya muammosining dolzarbligi eng avvalo bu kategoriyaning yetarli darajada o‘rganilmaganligi, umumiy sinonimik konsepsiyaning yo‘qligi bilan qo‘llab-quvvatlanadi. Lingvistlar bir yoqadan bosh chiqarib bir-biriga qo‘shilishadigan narsa – bu sinonimlarning til tizimidagi muhim

rolini tan olishdir.[77] Vaholanki, muammoning eng ahamiyatli jihatlaridan sinonimni, sinonimiklikni, tasnifning prinsiplarini, sinonimik qatorning tuzilishini, ma'noning nozik farqi" tushunchasini aniqlash kabi masalalar va boshqalar o'zining yechimini kutib turibdi.

Mavjud muammoning to'la tanqidiy tahlilini berishni o'z oldimizga vazifa qilib qo'ymay, sinonimlarni ajratib ko'rsatishning asosiy prinsiplarini qisqacha ta'riflab berishga va shu tarzda harorat idroki sifatlarining LSGlardagi sinonimik aloqalarini tadqiq qilishning dastlabki pozitsiyalarini aniqlashga harakat qilamiz.

Jumladan, sinonimiyaning tabiatiga bo'lgan mavjud qarashlarning xilma-xilligi quyidagi mezonlarga olib kelish mumkin.

1. So'z leksik ma'nosining umumiyligi mezoni.
2. Nominatsiyaning umumiyligi mezoni.
3. Bir-birini almashtira olish mezoni.
4. Tushunchaviy umumiylik mezoni.

Xorijiy tilning so'z leksik ma'nosining umumiyligi asosida sinonimiyani aniqlashga intilish mantiqiy va lingvistik kategoriyalarni chegaralash tendensiyasi bilan bog'liq. Asosiy mezonni tanlashdagi birdamlikka qaramay, uning tarafdorlari o'rtasida leksemalarni sinonimik qatorlarga konkret birlashtirishda har xil yondashuv kuzatiladi.

Sinonimik munosabatlarni sharhlashning ikkita usuli aniq yaqqol ko'rinadi:

1. Ma'nolarning yaqinligi yoki aynan o'xshashligi asosida.
2. Ma'nolarning bir xilligi asosida.

Sinonimik munosabatlarning birinchisi qadimgi yunon va rim falsafiy ta'limotlariga borib taqaladigan sinonimlarni an'anaviy tushunishni aks ettiradi.[78] Bu mezonning shartliligi shunchalik shubhasizki, hatto uni o'zlarining darsliklarida sinonimlarning ta'riflarida foydalanadigan mualliflar ham "noto'g'riligi" va "noaniqligi" haqida pisanda qilishga majburdirlar.[79]

Lekin hozirgi fransuz lingvistlari: Benak, Bayi, Bar, De Noter, Grevis va boshqalar sinonimlarning o'z sharhida ma'nolarning yaqinligi yoki aynan o'xshashligidan kelib chiqadilar. Ma'nolarning umumiyligiga asoslanib,

[77]Бироқ бу масалани ҳал қилишда айрим олимлар бутунлай қарама-қарши позицияни эгаллайдилар. Масалан, француз тилшуноси Ж.Дюбуа қуйидагини таъкидлайди: "La synonymie … n'est pourtant pas indispensable à la langue. On pourrait très bien exprimer ce qu'on a à dire sans synonymes". Яна қаранг: J.Dubois e.a. Dictionnaire de linguistique. P., Larousse, 1973, p.477. J.Lyons. Linguistique Générale. P., Larousse, 1970, p.345.

[78]Масалан, қаранг: Б.Н. Головин. Введение в языкознание. М.,1973, с.99; А.В. Калинин. Лексика русского языка. М.,1971, с.47; В.Н. Цыганова. Синонимический ряд (на материале глаголов современного русского языка). В сб.: "Очерки по синонимике современного русского литературного языка". Под ред. А.П. Евгеньевой. М.-Л.,1966, с.169.

[79]А.А. Реформатский. Введение в языкознание. Москва,1967, с.62.

S.Ullman[80] o‘z ta’rifini shakllantiradi. Buning ustiga “ma’no” (sens) unda so‘zning ham tushunchaviy, ham affektiv ma’nosini qamrab oladi.[81]

Sinonimlarning semantik umumiyligini A.Mitteran, uni qo‘llanilishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan to‘ldirib, yanada kengroq tushunadi.[82] Masalaning bunday qo‘yilishida, N.N. Lopatnikovaning to‘g‘ri qayd qilishicha, to‘g‘risini aytganda tilda sinonimlarning mavjudligi fakti yo‘qqa chiqariladi.[83]

Sinonimiklikning sof lingvistik kategoriyasini – ma’noni eng maqbul mezon deb hisoblab, nomlari keltirilgan lingvistlar qo‘llanilayotgan atamalarning va eng avval, aynan ma’noning ishlab chiqilmaganligini hisobga olmaydilar. Shu sababli, V.A. Zveginsev, sinonimlarning ta’rifini leksik ma’no tushunchasining bazasida, bu leksik ma’no aniqlanmagan paytda qurish foydasizdir deganida, shak-shubhasiz haqdir.[84]

Taqqoslanayotgan leksemalarning tushunchaviy asoslarining aynan bir xilligida ularning sinonimliklari haqida shubha yuzaga kelmaydi. Tushunchaviy yaqinlik holida esa tushunchalarning qanday darajasi doirasida sinonimiya munosabatlari mumkin degan savol kelib chiqadi. Bunday turdagi aniqlashtirishni, N.N. Lopatnikovaning[85] fikriga ko‘ra, leksemalarni ham paradigmatikada, ham sintagmatikada tadqiq qilib, yetarli darajada ob’ektiv tarzda amalga oshirish mumkin.

Demak, leksemalar o‘rtasidagi tushunchaviy farqlarni sintagmatika darajasida neytralizatsiyalash imkoniyati ular bildirayotgan tushunchalarning paradigmatikadagi yaqinligining o‘sha darajasi haqida guvohlik beradi, u bu leksemalarni sinonimlar sifatida baholashga imkon beradi. Shu munosabat bilan sinonimlarning ta’rifi quyidagi tarzda to‘g‘rilanishi mumkin: “...les synonymes seraient des vocables différents pouvant éventuellement exprimer des notions identiques dans la parole et tout au moins des notions proches dans la langue – système.”[86]

Muvjud keltirilgan ta’rifning asosida sintagmatikaga neytrallashuv mezoni bilan biriktirilgan tushunchaviy mezon yotadi. Neytralizatsiya jarayoniga murojaat sinonimlarni aniqlash protsedurasini qisman shakllantiradi hamda tadqiqotchiga sinonimik aloqalarni aniqlashning ancha ob’ektiv instrumentini beradi.

---

[80]“On aura donc des synonymes quand deux ou plusieurs mots différents ont le même sens.” S.Ullmann. Précis de sémantique française. P.,1959, p.180.

[81]Ibid., p.148.

[82]H. Mitterand. Les mots français. P.,1965, p.74-75.

[83]N.N. Lopatnikova, N.A. Movchovitch. Lexicologie du français moderne. M.,1971, p.182.

[84]В.А. Звегинцев. Кўрсатилган асар, 130-131-бетлар. Шу муносабат билан С.Х. Иоффенинг мулоҳазасини қиёсланг: “Лексик синонимия муаммоси фақат маъноларнинг таърифи назарияси яратилгандан кейингина ҳал қилиниши мумкин”. Грамматическое значение и лексические синонимы. В сб.: "Лексическая синонимия", М., 1967, с.7.

[85]N.N. Lopatnikova, N.A. Movchovitch. Lexicologie du français moderne. M. ,1971.

[86]Ibid., p.183.

Sinonimiyani o‘rganishga bunday yondashuvning operativligini hisobga olib, N.N. Lopatnikova tomonidan taklif qilingan taklifni biz ishchi ta’rif sifatida qabul qilamiz, ushbu LSGdagi sinonimik munosabatlarni tahlil qilishda unga tayanamiz.

Ilmiy tahlil sinonimiya mohiyatini an’anaviy tushunishni qisqacha tasavvur qilib, bu hodisani yangicha tushunish izlanishlarini aks ettiruvchi tadqiqotlarga murojaat qilamiz. Sinonimiyaning struktur interpretatsiyasini izlab topishlar orasida eng avvalo V.A. Zveginsev va Yu.D. Apresyanning ishlari o‘ziga e’tiborni qaratadi.

Sinonimiyaning sinxronik xarakterini til hodisasi sifatida faraz qilib hamda so‘zning ma’nosini sinxroniyada “uning amaldagi normaning qoidalariga bo‘ysundirilgan boshqa so‘zlar bilan potensial birga qo‘llana olish (valentlik) deya ta’riflab, V.A. Zveginsev “sinomiyani analogik sinxron vositalar, ya’ni til taraqqiyotining ushbu bosqichida har xil so‘zlarda birga qo‘shib ishlatish uchun mumkinlikning aynan bir xilligi orqali aniqlash kerak”[87], degan xulosaga keladi.

Sinonimlarni ajratib ko‘rsatishning predmet-tushunchaviy mezonini jalb qilish muallif tomonidan uning ekstralingvistik tabiati sababli asossiz deb e’lon qilinadi. Sinonimiya tushunchasining o‘zi esa predmet-tushunchaviy asosda u tomondan “tilda rudimentar (o‘z ahamiyatini yo‘qotgan) holda mavjud bo‘lgan yasama vaziyatlardan biri... sifatida talqin qilinadi. Sinxron tekislikda joylashgan va shu sababli predmet-tushunchaviy belgi bilan aslo munosabatdosh bo‘lmagan, ayrim so‘zlar uchun aynan bir xil so‘z birikmalari, ularda so‘zlar minimal distributiv modelning bo‘laklari sifatida chiqadilar...”[88]

Muammoga bunday yondashuv sinonimlar safidan turli uslubiy so‘zlarni butunlay chiqarib tashlaydi, buni, qolaversa, muallifning o‘zi ham ko‘rsatib o‘tadi. Shunday qilib, sinonimologiyaning to‘liq muammoviy qayta orientirlanishi uchun fikr bildirib, tadqiqotchi sinonimiklikning yagona mezonini topmaydi, bu esa uning dastlabki prinsiplarining ishonchliligi va qat’iyligiga shubha uyg‘otadi.

Ushbu tanlangan mezonning asossizligi uchun V.A. Zveginsevni asosli tanqid qilib, A.P. Yevgeneva birga qo‘shib ishlatish uchun mumkinlikning aynan bir xilligi faqat sinonimlarnigina emas, balki bitta leksik-semantik yoki tematik guruhga tegishli bo‘lgan rod-tur munosabatidagi so‘zlarni ham xarakterlaydi, deya uqtirib o‘tadi.[89] Boshqa tomondan, birga qo‘shib ishlatish uchun mumkinlikning to‘liq bir xilligi sinonimlarda nisbatan kam kuzatiladi. Odatda uni mos kelishining turli darajasi hamda o‘zgarishlarining bo‘lishi mumkin hollari haqida so‘z yuritishadi[90].

---

[87]В.А. Звегинцев. Теоретическая и прикладная лингвистика. М., 1968, с.180-181.
[88]В.А. Звегинцев. Теоретическая и прикладная лингвистика. М., 1968, с.188.
[89]А.П. Евгеньева. Основные вопросы лексической синонимии.с.17.
[90]Қаранг, масалан: Ю.Д. Апресян. Синонимы и синонимия, с.83; И.А. Мельчук. Опыт теории лингвистических моделей «Смысл – Текст». М., 1974, с.48.

Demak,birga qo‘shib ishlatish uchun mumkinlikning so‘zlarning semantikasi bilan hammaga ma’lum o‘zaro bog‘liqlik fakti absolyutga ko‘tarilmasligi kerak va shuning uchunki, birga qo‘shib ishlatish uchun mumkinlik – bu faqat “ma’noning ko‘rsatkichi, ma’noning o‘zi emas”.[91]

So‘ngra, har xil so‘zlarda birga qo‘shib ishlatish uchun mumkinlikning yoki distributsiyaning aynanligi sinonimik munosabatlarni aniqlashda yetarli asos bo‘lib xizmat qila olmaydi. Bu faqat leksemalarning sinonimikligini tekshirishning qo‘shimcha “texnik” usullaridan biridir. Cinonimik munosabatlarni aniqlashning boshqa formallashtirilgan – taqqoslanayotgan so‘zlar ma’nolarining distributiv tahlili asosidagi mezon kam bo‘lmagan mashhurlikka ega.

Bu planda Yu.D. Apresyan tomonidan qiziqarli tadqiqotlar o‘tkazilgan. Distributiv tahlil metodikasini qo‘llab, u bir qator struktur semantik maydonlarni ajratib ko‘rsatadi va tekshiradi. Distributsiyaning formulasini berilgan ro‘yxatdan so‘zning har bir ma’nosi uchun aniqlash muallifga quyidagi qonuniyatni aniqlashga imkon beradi: “...ma’noning barcha asosiy elementlari – uning stilistik va emotsional xarakteristikasini ham qo‘shib hisoblaganda, uning distributsiyasida, ya’ni uning struktur modellarida va birga qo‘shib ishlatish uchun mumkinligida yetarli darajadagi aksini topadilar”[92].

Bunday so‘z ma’nosining ayrim elementlari o‘rtasidagi, uning distributsiyasi va chastotaligi o‘rtasidagi bog‘liqlik sinonimik qatorga ilovada quyidagi ko‘rinishga ega: “ikkita har xil so‘zlarning-sinonimlarning ma’nolarida distributsiya formulalarining mos kelishida ma’noning eng ko‘p stilistik, emotsional va semantik spesializatsiyasining material belgisi eng kam chastotalik hisoblanadi”[93].

Biroq, ikkita har xil so‘zlarning ma’nolarida distributsiya formulalarining mos kelishi ularning sinonimikligining belgisi sifatida boshqa ayrim sovet va fransuz lingvistlarining ishlarida ham qarab chiqiladi[94]. Bu metoddan foydalanishda tadqiqotchining nazaridan sinonim so‘zlar o‘rtasidagi barcha eng nozik farqlari tushib qoladilar, chunki distributsiyaning o‘rnatilgan bir tipdagi formulalari faqat semantikadagi farqlar haqida xabar beradilar, ammo ularni ochib tashlamaydilar.

Bundan tashqari, ba’zi bir distributiv konstruksiyalarning polisemiya fakti, shuningdek ko‘rsatilgan usulning barcha so‘zlarning ma’nolariga birga qo‘shib

---

[91]Д. Шмелев. Очерки..., с.133.

[92]Ю.Д. Апресян. Дистрибутивный анализ значений и структурные семантические поля. - В кн.: “Лексикографический сборник”, вып. V, М., 1962, с.57.

[93]Ўша жойда, 58-бет.

[94]Қаранг, масалан: М.В. Раевский. Дистрибутивный анализ в исследовании лексических синонимов. - В кн.: “Тезисы докладов Межвузовской конференции по применению структурных и статистических методов исследования словарного состава языка”. М., 1961. J.Dubois. Distribution, ensemble et marque dans le lexique. in: Cahiers de lexicologie, vol. IV, 1964, I, p.8.

ishlatish uchun mumkinlikning tegishli formulasi qo‘shib yozilgan maxsus lug‘atning mavjud emasligi sababli, keng amaliy qo‘llashning imkonsizligi shubhasizdir[95]. Ma’lumki, Yu.D. Apresyan, A.K. Jolkovskiy va I.A. Melchuk tomonidan ishlab chiqilayotgan eksperimental izohli-kombinator lug‘at hozircha tugallanishdan uzoq. Shunday qilib, bu metodning sinonimiklikni aniqlovchi mezon sifatida qo‘llashning samaradorligi, hech bo‘lmaganda, lingvistik tadqiqotlarning ushbu bosqichida shubhali tuyiladi.

Ushbu semantik tilni xuddi o‘sha iboraga o‘tkazishlik mezoni shuning singari Yu.D. Apresyanning nomi bilan bog‘liq. Uning mohiyati til belgilarining ma’nolarini ularni semantik metatil atamalarida ta’riflash yo‘li bilan adekvat taqdim qilishning imkoniyatiga olib boradi. Bunday sharoitlarda o‘xshash deb “semantik tilning xuddi o‘sha iborasiga” o‘tkaziladigan va soni hamda mazmuni bo‘yicha bir xil sintaktik valentlilikka ega bo‘lgan so‘zlarning ma’nolari tan olinadi[96].

Mavjud sinonimiyaning eng muhim jihatini ko‘rsatilgan metodika yordamida aniq va ob’ektiv aniqlashga urinish shubha tug‘dirmaydigan qiziqish kasb etadi. Biroq tasvirlashning asosiy instrumentining – semantik metatilning – ishlab chiqilmaganligi uni sinonimiklikning o‘zgarmas mezoni sifatida qo‘llash imkoniyatini istisno qiladi.[97]

Yuqorida qayd etib o‘tilganlarga xulosa yasab, alohida qayd qilish kerakki, ishonchimiz komilki, yuqorida tasvirlangan mezonlardan eng maqbuli so‘zlarning-sinonimlarning sintagmatikada ma’lum kontekstlarda ularning semantik farqlarini neytrallashtirishning imkoniyati bilan mustahkamlangan pragmatika bosqichidagi predmetli-tushunchaviy mazmunining umumiyligi hisoblanadi.

[95]С.Г. Бережан. Теория семантических полей и синонимия, с.167.
[96]Ю.Д. Апресян. Синонимы и синонимия, с.79.
[97]Н.Ю. Шведова. Несколько замечаний по поводу ст. Ю.Д. Апресяна “Синонимы и синонимия”. ВЯ,1970, № 3, с.38; яна қаранг: Н.З. Козелова. “Значение слова и его сочетаемость”. Л.,1975, с.22-24.

O‘QITUVCHI PEDAGOGIK FAOLIYATIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

PRIMOVA MUNISA MAJLIMOVNA

Alfraganus universiteti, formasevtika va kimyo kafedrasi - katta o‘qituvchisi

Annotatsiya*. Ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va bunda o‘qituvchilarning ko‘nikma va malakalarini oshirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «OZbekiston Respublikasining jamoat ta’lim axborot tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida»gi 2005 yil 28 sentabrdagi PQ-191 sonli Qarori, OZbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g ‘risida»gi 2002yil 6 iyundagi 200- sonli, “O‘qituvchi kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2006 yil 16 fevraldagi 25-sonli Qarorlarining qabul qilinishi mazkur masalaga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi.*

Kalitso‘zlar*: Zamonaviy axborot texnologiyalari; axborot resurslari; ilmiy-texnik taraqqiyot; modulli o‘qitish; axborotlashtirish; gipermant va multimedia; ma'lumotlar bazasi; kompyuter texnologiyalari; immitatsiya; kommunikatsiya; bilimlar bazasi; ta'limda veb-saytlar; tashxis va monitoring; masofaviy o‘qitish; modulli tizim; o‘qituvchining axborot madaniyati; internet resurslari; partal; diagnostika; internet tarmog‘i; elektron pochta; videoroliklar; animatsiya; axborotta'lim resurslari; innovatsiya; kompyuter vositalari.*

Annotation. *On the introduction of modern information technologies to the educational process and the improvement of skills and skills of teachers in this, the decree of the president of the Republic of Uzbekistan "on the establishment of the public educational information network of the Republic of Uzbekistan"dated September 28, 2005 PQ-191, the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "on measures for further development of, The adoption of resolutions No. 25 of February 16, 2006”on the re-training of teaching personnel and further improvement of their professional development system " indicates that this issue is considered as a priority of state policy.*

Keywords: *modern Information Technology; Information Resources; scientific and technical progress; modular teaching; informatization; hypermantic and multimedia; database; computer technology; immitation; communication; knowledge base; websites in education; diagnosis and monitoring; distance learning; Modular System; Information Culture of the teacher; internet resources; partal; diagnostics; internet net-work; e - mail; video games; animation;*

information resources; innovation; computer tools.

O‘quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash ta'lim metodlarining samaradorligini oshirishga, o‘qituvchilar mehnat faoliyatining o‘zgarishiga, ularning pedagogik mahoratlarini takomillashtirishga, pedagogik tizimlarning tarkibiy o‘zgarishiga samarali ta'sir etadi. Bu esa pedagogik jarayonlarni axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishda o‘ziga xos vazifalarni qo‘yadi [1].

Pedagogik ta'lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish:

- masofaviy o‘quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoa o‘qituvchilar, kompyuter dasturchilari, tegishli mutaxassislarning birgalikda faoliyat olib borishini;

- o‘qituvchilar o‘rtasida vazifalarning bir maromda to‘g‘ri taqsimlanishini;

-ta'lim va tarbiya jarayonini yanada mukammal tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirish monitoringini tashkil etish imkoniyatini yaratadi [2].

Jamiyatning har bir a'zosi, o‘zining kundalik faoliyatida, uzluksiz ravishda turli axborot resurslaridan foydalanadi. Doimiy ravishda ortib borayotgan axborotlar hajmi jamiyatdagi intellektual salohiyatning oshishiga xizmat qiladi. Modomiki shunday ekan, o‘qituvchi ham o‘z kasbiy va pedagogik mahoratini zamonaviy axborot texnologiyalari oqimi asosida oshirib borishi mumkin. Har bir o‘qituvchi mehnat faoliyati jarayonidaaxborot texnologiyalaridan unumli foydalanishi uchun avvalo o‘z axborot muhitini shakllantirishga zamin yaratishi kerak. Zamonaviy axborot texnologiyalari o‘z muhitida axborot ob'ektlarini, ularning o‘zaro aloqasini, axborotlarni yaratish, tarqatish, qayta ishlash, to‘plash texnologiyalari va vositalarini, shuningdek axborot jarayonlarining tashkiliy va huquqiy tarkibini mujassamlashtiradi [3].

Hozirgi kunda o‘qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning imkoniyatlari va talablarini inobatga olishi zarur. O‘qituvchi tomonidan targ‘ib etilayotgan ta'lim va tarbiya tizimi shaxsga yo‘naltirilgan xarakterda bo‘lishi, ya'ni shaxsning har xil xususiyatlari va sifatiga e'tibor qilgan holda tabaqalashtirilgan bo‘lishi kerak.

Har qanday ta'lim va tarbiya tizimi ma'lum bir ijtimoiy, ilmiytexnik, iqtisodiy, madaniy va nihoyat, siyosiy muhitda shakllanadi va rivojlanadi. Bu muhitlarning eng ustuvori ijtimoiy-iqtisodiy omillardir. Ilmiy-texnik taraqqiyot, madaniy va siyosiy muhit ijtimoiyiqtisodiy o‘zgarishlarni rivojlantirishi yoki sekinlashtirishi mumkin. Ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishining asosiy vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi, chunki

umumta'lim maktablari, oliy ta'lim muassasalari insonni iqtisodiyot, madaniyat, siyosiy jihatdan hayotda qizg‘in faoliyat ko‘rsatish uchun tayyorlaydi. Shuning uchun ham ta'lim muassasalari o‘qituvchisi ta'lim-tarbiya jarayonining tayanch bo‘g‘ini sifatida muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Ta'lim-tarbiya jarayonida kompyuter texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish Kompyuter texnologiyalari (kompyuter savodxonligi)dan foydalanishda, o‘qituvchi uning mazmuniga ko‘ra bir qancha vazifalarni bajarishi mumkin. Faol foydalanish imkoniyatiga ega kompyuter texnologiyalari quyidagi asosiy didaktik funksiyalarni bajaradi:

- multimedia texnologiyasini qo‘llash evaziga o‘quvchilarda fanlarga qiziqishni rivojlantiradi;


- bunda ta'limning interfaolligi tufayli o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlari faollashadi va o‘quv materialini o‘zlashtirish samaradorligi oshadi; - real holatlarda namoyish qilinishi qiyin yoxud murakkab bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va ko‘rish imkoniyatini berishi bilan muhim ahamiyatga ega ;

- o‘quv materiallarini o‘zlashtirilishi faqat darajasiga ko‘ra emas, balki o‘quvchilar erishgan mantiqan qabul qilishlarining darajasiga ko‘ra ham samarali hisoblanadi;

- masofadan turib ta'lim olishni faqat o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar yoki internet ta'limi uchun tashkil etilmaydi, balki sababsiz dars qoldirgan o‘quvchilar uchun ham tashkil etish imkoniyatini beradi;

- o‘quvchilarga mustaqil izlanish yo‘li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob berish orqali ma'lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratadi;

- o‘quvchilarning yangi mavzuni o‘zlashtirishi, misollar yechishi, insho, bayon yozish ishlarida, o‘quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma'lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratadi [5].



Ta'limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari. Axborotkommunikatsiya texnologiyalari haqida tushuncha, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari, ularni ta'lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlari, shaxsning ta'lim-tarbiyasi va rivojlanishida zamonaviy axborot texnologiyalari va pedagogik dasturiy vositalar, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini yaratish, ularni o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llashning didaktik asoslari, o‘quv maqsadli elektron vositalarni yaratish va foydalanishdagi pedagogik-ergonomik talablar va ularning sifatini baholash, o‘quv-tarbiya jarayonining axborot-metodik ta'minotini va ta'lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv tizimini avtomatlashtirish va uning istiqbollari, elektron-o‘quv materiallari bazasining tuzilmasi va tarkibi, ta'limiy internet resurslar va ulardan o‘quv jarayonida foydalanish, elektron o‘quv-metodik materiallar majmuasi, uning tuzilmasi va tarkibi, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan ta'limiy maqsadlarda samarali va qulay foydalanishning pedagogik-ergonomik shart sharoitlari, informatika va axborot texnologiyalari xonasiga qo‘yiladigan talablar va unda ta'lim jarayonini tashkil etishning metodik jihatlari, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan ta'lim jarayonida foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlari va kelajagi [6].

O‘qituvchining “axborot madaniyati” tushunchasini o‘zlashtirishi O‘qituvchining “axborot madaniyati” pedagogik mahoratni mukammal egallab borishning muhim bir yo‘nalishi sifatida tan olinmoqda. O‘qituvchining “axborot madaniyati” quyidagi mezonlar asosida shakllanib boradi:

o‘z kasbiy faoliyatiga tegishli axborotlarni olish, uni qayta ishlash va foydalanish metodlari va usullarini o‘zlashtirishi;

atrof olamdagi axborot jarayonlari haqida bilimlar va tasavvurlarni aks

ettiruvchi o‘qituvchining pedagogik mahoratini takomillashtiruvchi sifatlar yig‘indisi, axborot vositalariga ega bo‘lish, axborot madaniyati bilan bog‘liq axloqiy

kompyuter savodxonligi va axborotni izlash malakasi, axborotdan foydalanish hamda baholash, kompyuter kommunikatsiyasi texnologiyalariga ega bo‘lish, pedagogik faoliyatning barcha sohalarida axborot texnologiyalari imkoniyatlarini egallash va foydalanishdan iborat axborot omilkorligi.

jadval-2

ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI TA'LIM MUASSASALARI PEDAGOGIK FAOLIYATIDA QO‘LLASH
-ta'lim muassasasi hujjatlarini kiritish va shakllantirish;
-dars jadvallarini tuzish;
-ta'lim muassasasi o‘qituvchilari hamda o‘quvchilar bo‘yicha ma'lumotlar bankini yaratish va undan foydalanish;
-o‘qituvchilar faoliyatining monitoringini yaratish;
-o‘quv muassasasi faoliyatini tezkor boshqarishning interfaol telekonferensiya, virtual maslahatlar, muhim axborotlarni o‘qituvchilarning jamoaviy yoki shaxsiy kompyuterlari displeyi ekraniga tashlash orqali tez tashkil etish;
-ta'limni boshqarish yoxud boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan elektron pochta orqali bog‘lanish sharoitini yaratish;
-boshqa o‘quv muassasalari, jumladan chet el muassasalari bilan ijodiy bog‘lanishni tashkil etish;
-Internet tizimi yordamida axborot izlash va uni tanlash.
TA'LIM MUASSASALARI O‘QUV FAOLIYATIDA ESA:
-axborot kommunikatsion va axborot texnologiyalarini majburiy o‘rganishni tashkil etish;
-barcha fanlar bo‘yicha o‘rgatuvchi dasturlardan foydalanish;
-kompyuterda yozilgan testlar yordamida o‘quvchilarning o‘zlashtirishini nazorat qilish;
-kutubxonalar kataloglaridan foydalanish va ommabop kutubxona-lardagi kitoblarga internet orqali buyurtma berish;
-o‘qituvchilarning metodik ishlanmalari, ma'ruza matnlari va boshqa o‘quv qo‘llanmalarini nashrga tayyorlash;
-internet tizimidagi ma'lumotlardan foydalanib, o‘tilgan mavzu asosida o‘quvchilar tomonidan ma'ruzalar va referatlarni mustaqil tayyorlashga erishish;
- o‘quv va badiiy adabiyotlarning elektron matnlaridan foydalanish;
-ko‘nikma va malakalarni oshirishda maxsus ensiklopedik lug‘atlardan foydalanish imkoniyatini yaratish lozim.

Pedagogik mahorat tarkibiy tuzilishida axborot madaniyatining imkoniyatlarini oshirish zaruriyati quyidagi omillar bilan aniqlanadi:

axborot hajmining keskin ortishi;

zamonaviy fan integratsiyasi va differensiatsiyasi tufayli yuzaga kelgan axborot tarqalishining muqarrarligi;

ilmiy va ijtimoiy paradigmalar almashinuvi tufayli bilimlarning juda tez eskirishi.

O‘qituvchilarning axborot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning ajralmas qismi ekanligi shubhasizdir.

Kompyuterda ishlashning oddiy ko‘nikmalari o‘qituvchining kasbiy axborot faoliyatini takomillashtirishdagi birinchi qadamdir.

O‘qituvchining axborot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish ta'lim muassasasi ma'muriyati, xususan, direktorning axborotlashtirish ishlari bo‘yicha muovini, munitsipial metodik xizmatlar, malaka oshirish institutlari zimmasiga yuklatiladi.

Ta'lim muassasalari darajasidagi faoliyatlar ta'lim muassasasini axborotlashtirish dasturi asosida qurilgan bo‘lishi kerak. Axborot texnologiyalarini faol tatbiq qilish orqali ta'lim sifatini oshirish bunday dasturning maqsadi hisoblanadi. Quyidagi masalalarni hal qilish orqali bu maqsadga erishish mumkin:

metodik ishlar samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim muassasalarining yagona axborot muhitini yaratish, o‘qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish va ilmiy- metodik hujjatlarda axborot oqimini aniq boshqarish;

uzluksiz kasbiy ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish va o‘quv jarayonini faollashtirish;

o‘qituvchilarda va o‘quvchilarda axborot madaniyatini shakllantirish uchun sharoit yaratish [7].

Xulosa. O‘quv faoliyatini diagnostika va monitoring qilish ishlarida kompyuterdan foydalanish shuningdek, o‘qituvchining axborot kommunikatsion texnologiyalarni bilish saviyasini tavsiflaydi. Kompyuterdan foydalanishda o‘quvchilarning hamda o‘qituvchining sog‘lig‘ini saqlash me'yorlariga rioya qilish o‘qituvchi axborot madaniyatining ajralmas qismidir, qilib shuni ta'kidlash kerakki, yangi axborot texnologiyalarining tatbiq qilinishi o‘qitishning an'anaviy texnologiyalarini inkor qilmaydi. Kompyuter vositalari va axborot texnologiyalari didaktik jarayonga ulkan ta'sir ko‘rsatadi, uning faolligini muntazam oshirib boradi, biroq shu bilan birga o‘quv jarayonida axborot-kompyuter vositalaridan foydalanishda pedagogik maqsadga muvofiqlik prinsipiga amal qilish talab etiladi.

Foydalinlgan adabiyotlar ro‘yhati

[1] Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. To‘ldirilgan 2-nashri. - T.“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2000-248 b.

[2] . Bizyaeva A.A. Refleksivnbie protsessbi v soznanii i deyatelnosti uchitelya: Diss. kand. psixol. nauk.- S.- Pb.-1993.-190 s.

[3] . Vulfov B.Z., Xarkin V.N. Pedagogika refleksii: Vzglyad na professionalnuyu podgotovku uchitelya.- M.Magistr,1995- 112 s.

[4] . Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjaeva va boshqalar) - T.“IQTISOD-MOLIYA”, 2007. - 380 b.

[5] . Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari.- T.2001.

MAFKURAVIY TARG‘IBOT VA UNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

PRIMOVA MUNISA MAJLIMOVNA

Alfraganus universiteti, formasevtika va kimyo kafedrasi - katta o‘qituvchisi

Mutaxassislar targ‘ibotni ijtimoiy faoliyatning alohida turi sifatida e’tirof etadilar [1]. Targ‘ibot deganda muayyan jamoatchilik fikri va hayotiy pozitsiyani shakllantirish maqsadida ma’lum bir g‘oya, fikr, qadriyat, norma, ma’lumot, fakt yoki argumentning tarqatilishi jarayoni tushuniladi [2]. Tushunchaning etimologiyasi arab tilidagi “rag‘bat” so‘ziga (ya’ni biror bir g‘oyaga, sa’y-harakatga undash) borib taqaladi. Uning mazmunini mufassalroq ochib berish uchun lotin tilidagi muqobili - “propaganda” so‘ziga ham murojaat qilaylik: ushbu so‘z “tarqatilishi zarur bo‘lgan [fikr]” ma’nosini anglatadi [3]. Binobarin, targ‘ibot jamoatchilikka yetkazilishi zarur bo‘lgan g‘oya, qarash, fakt yoki argument, ularni tarqatishga xizmat qiladigan mexanizmni o‘zida mujassam qiladi.

Muayyan g‘oya, qarash, fikr, fakt, argumentni tarqatish, uni jamoatchilik ongiga singdirish va shu yo‘l bilan jamoatchilik fikrini shakllantirish zaruriyati insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ham mavjud bo‘lgan. Aksariyat hollarda jamiyatni boshqarish, barqarorlikni saqlash, ijtimoiy taraqqiyot sur’atlarini jadallashtirish, ma’lum ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy masalalar yechimi shuni taqazo etgan. “Chunki jamoatchilik fikrisiz jamiyat taraqqiyotini amalga oshirib bo‘lmasligi oddiy haqiqatdir” [4]Targ‘ibot sistemasining shakllanishiga sabab bo‘lgan asl muddao ham shundan iborat.

Kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyot paradigmalari o‘zgara borgani, taraqqiyotning yangi va yangi modellari vujudga kelgani, diniy qarashlar, g‘oya va mafkuralar rivojlangani, manfaatlar to‘qnashuvi keskin tus olgani sayin targ‘ibot sistemasi ham murakkablashib bordi. Xususan, asrlar davomida turli ijtimoiy guruhlar, siyosiy kuchlar, ushbu kuchlarning ijtimoiy-siyosiy manfaatlariga xizmat qilgan ilmiy jamoatchilik targ‘ibot sistemasini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor berib keldilar. Ushbu sa’y-harakatlarning samarasi o‘laroq targ‘ibotning yangi va yangi tiplari yuzaga kela bordi.

Har qanday targ‘ibotning asl maqsadi muayyan sub’ektning manfaatlariga mos bo‘lgan jamoatchilik fikri va hayotiy pozitsiyani shakllantirish bilan bog‘liq. Qo‘yilgan maqsadning xarakteriga qarab targ‘ibotning ikki tipini tasniflash mumkin. Agar maqsad jamiyatdagi barqarorlik va hamjihatlikni ta’minlash, ijtimoiy garmoniyani mustahkamlash, kishilarda gumanistik e’tiqodni qaror toptirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlarni shakllantirish, ularni umume’tirof etilgan qadriyatlar atrofida birlashtirish bilan bog‘langan bo‘lsa, targ‘ibot konstruktiv xarakterga ega bo‘ladi [5].Agar maqsad hamjihatlik va barqarorlikni yemirish, ijtimoiy kelishmovchilikni keltirib chiqarish, ijtimoiy konfliktlar eskalatsiyasi, jamiyatdagi ziddiyatlarni keskinlashtirish, antigumanistik e’tiqodni shakllantirish, kishilarni ijtimoiy illatlar botqog‘iga botirish, ularni bir-

biriga qarshi qo‘yish va shu kabi g‘ayriinsoniy muddaolar bilan bog‘liq bo‘lsa, targ‘ibot destruktiv xarakterga ega bo‘ladi [5].

Mafkuraviy targ‘ibot konstruktiv targ‘ibotning o‘ziga xos ko‘rinishidir. U targ‘ibotning boshqa tiplaridan o‘zining maqsad-muddaolari bilan ajralib turadi. Shunday qilib, mafkuraviy targ‘ibot deganda jamiyatdagi barqarorlik va hamjihatlikni shakllantirish, ijtimoiy garmoniyani mustahkamlash, kishilarda gumanistik e’tiqodni qaror toptirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlarni shakllantirish, ularni umume’tirof etilgan qadriyatlar atrofida birlashtirish maqsadida muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, falsafiy, ilmiy, badiiy, estetik va boshqa fikr va g‘oyalarni, fakt va argumentlarni tarqatish jarayoni nazarda tutiladi. Shu nuqtai nazardan fikrlaganda mafkuraviy targ‘ibotning siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, falsafiy, ilmiy, badiiy, estetik targ‘ibot kabi yo‘nalishlari bo‘lishi mumkin.

Mafkuraviy targ‘ibot umumjamiyat manfaatlariga xizmat qiladi va manipulyativ maqsadlarni qo‘ymaydi. U har qanday jamiyatda asosan uch funksiyani bajaradi:

1. Tarbiyalash funksiyasi. Mafkuraviy targ‘ibot ilmiy dunyoqarashni, milliy manfaatlarga mos bo‘lgan qarashlar sistemasini vujudga keltiradi. Shaxsda ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarni rivojlantirish, gumanistik e’tiqodni qaror toptirish, faol va pozitiv hayotiy pozitsiyani shakllantirishda ham mafkuraviy targ‘ibotning ahamiyati katta. Uning ta’sirida inson jamiyat manfaatlariga xizmat qilishga qodir shaxs sifatida voyaga yeta boradi.

2. Axborot yetkazish funksiyasi. Mafkuraviy targ‘ibot jamiyatda sodir bo‘layotgan jarayonlar, voqea va hodisalar to‘g‘risida xolis ma’lumotlarni yetkazadi. U ijtimoiy jarayonlarga doir fakt va argumentlarni yashirmaydi, buzib ko‘rsatmaydi, ularning mohiyatini to‘g‘ri va ob’ektiv talqin qiladi. Natijada inson ijtimoiy jarayonlar, mavjud muammolar, ularning sabablari va oqibatlari xususida mufassal va sistemali axborotga ega bo‘ladi, uning asosida o‘z hayotiy pozitsiyasini, voqea va hodisalarga shaxsiy munosabatini yuzaga keltiradi.

3. Himoyalash funksiyasi. Mafkuraviy-ma’naviy munosabatlar keskinlashgan bir sharoitda mafkuraviy targ‘ibot jamiyat va shaxsni turli g‘ayriinsoniy va vayronkor g‘oyalardan himoyalash, jamiyatning mafkuraviy xavfsizligini ta’minlash, shaxs mafkuraviy qiyofasini himoyalash, unda mafkuraviy immunitetni hosil qilish vazifasi bilan ham mashg‘ul bo‘ladi [6].

Mafkuraviy targ‘ibotdan farqli o‘laroq destruktiv targ‘ibot kishilarni biror g‘oya atrofida birlashishga xalal berish, ularni Vatan va millat manfaatlaridan ayri tushirish, targ‘ibotchi va targ‘ibotdan manfaatdor guruhlar irodasiga bo‘ysundirishga qaratilgan bo‘ladi. U odamlarning tuyg‘ulari va ehtiroslarini manipulyatsiya qilishga intiladi. Shu sababdan ham aksariyat hollarda voqea va hodisalarni xolis baholamaydigan, fakt va argumentlarni mustaqil va tanqidiy tahlil qila olmaydigan, bayon qilingan fikrga ishonuvchan kishilar uning domiga ilinadilar.

Destruktiv targ‘ibot quyidagi funksiyalarni bajarishga safarbar qilinadi:

1. Tanqid funksiyasi. Destruktiv targ‘ibot o‘zi uchun nomaqbul bo‘lgan ijtimoiy tuzum, turmush tarzi, mafkura, qadriyatlar sistemasini atroflicha tanqid

qilishga, uning zaif nuqtalarini topishga, mavjud muammolarni mazkur ijtimoiy tuzumning zaruriy oqibati sifatida namoyish qilishga intiladi. Bunda fikrlarni buzib bayon qilish, o‘z maqsadlariga mos bo‘lgan faktlarnigina tanlab olish, ularning ayrimlarini bo‘rttirib ko‘rsatish, maqsadga muvofiq bo‘lmagan faktlarni yashirish, xususiy faktlarni umumiy fakt sifatida talqin qilish va shunga o‘xshash ko‘plab uslublardan foydalaniladi.

2. Illyuzor reallikni yaratish funksiyasi. Destruktiv targ‘ibot mavjud vaziyatdan mutlaqo farq qiluvchi, go‘yoki ijtimoiy adolat norma va prinsiplari qaror topgan ijtimoiy voqelikni chizib berishga, uning illyuziyasini yaratishga intiladi. Bu voqelikni yuzaga keltirish uchun targ‘ibotchi taqdim qilayotgan turmush tarzi, qadriyatlar sistemasi, hayotiy pozitsiyani tanlash zarurligini uqdiradi.

Mafkuraviy targ‘ibot o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga mutanosib bo‘lgan qator vazifalarni bajaradi. Tabiiyki, bu vazifalar qo‘yilgan maqsadning murakkabligi darajasiga, targ‘ibotdan manfaatdor sub’ektning erishmoqchi bo‘lgan natijalariga mos ravishda turlicha bo‘ladi. Shunga qaramasdan, targ‘ibot vazifalarining umumiy yo‘nalishlarini aniqlash imkoni mavjud. Bu yo‘nalishlar, fikrimizcha quyidagilardan iborat:

a) muayyan fikr va g‘oyani jamoatchilik ongiga singdirish; mafkuraviy targ‘ibot ishlarini tashkil etishda jamaoatchilik ongiga yetkazilishi zarur bo‘lgan g‘oyani aniqlash, uni aniq va lo‘nda ifodalab berish lozim, aks holda uni jamoatchilikka taqdim etish murakkab kechadi. Bugungi kunda targ‘ibot ishlarini amalga oshirayotgan har qanday ijtimoiy guruh yoxud siyosiy kuch ushbu qoidani aksiomatik holat sifatida qabul qiladi. Markaziy g‘oya aniqlanganidan so‘ng uni jamoatchilik ongiga singdirish imkonini beradigan uslublar va usullar, omillar va vositalarni tanlash oson kechadi;

b) kishilarni umumjamiyat va millat ehtiyoj va manfaatlariga mos bo‘lgan maqsad yo‘lida faollashtirish; mafkuraviy targ‘ibot ma’lum g‘oyani tarqatish orqali jamoatchilik fikri va hayotiy pozitsiyasini shakllantirishga intilishini aytib o‘tdik. Bundan muddao kishilarni ma’lum maqsad sari safarbar etish, uning yo‘lida faollashtirishdan iborat. Shu sababdan mafkuraviy targ‘ibotning har qanday tashkilotchisi shunchaki ma’lum bir g‘oyani tarqatish va asoslab berish bilan cheklanmasdan, kishilarni uni ro‘yobga chiqarish yo‘lida faolroq harakat qilishga ham undamog‘i zarur;

v) muqobil, g‘ayriinsoniy maqsadlarga yetaklovchi g‘oyaning asossiz ekanligini isbotlab berish; mafkuraviy targ‘ibot nafaqat ma’lum bir fikr yoki g‘oyani jamoatchilik ongiga singdirishni, balki o‘ziga muqobil bo‘lgan, jamoatchilikni g‘ayriinsoniy maqsad va manfaatlar sari yetaklab ketishga qodir bo‘lgan u yoki bu g‘oya bilan kurashishni ham taqazo qiladi. Mantiqning argumentatsiya nazariyasiga muvofiq, bunday g‘oyaga qarshi kurashishning birinchi yo‘li uning asossizligini isbotlab berishdir. Shu sababdan ham ma’naviy targ‘ibot davomida muqobil g‘oyaning haqqoniylikdan yiroqligini isbotlab berishga, uning real hayotdan ajralib qolganligini namoyish qilishga, kishilarning ehtiyoj va manfaatlariga zid ekanligini ochib berishga katta e’tibor qaratiladi;

g) muqobil, g‘ayriinsoniy maqsadlarga yetaklovchi g‘oyani asoslash uchun keltirilgan faktlarni rad etish; mantiq ilmidan ma’lumki, targ‘ib etilayotgan har qanday g‘oya o‘z asosiga ega bo‘ladi, bunda asos vazifasini ushbu g‘oyaning haqqoniyligini, ijtimoiy jihatdan ahamiyatliligini isbotlovchi fikr, fakt, argument va ma’lumotlar o‘taydi. Muqobil g‘oyalarga qarshi kurashishning ikkinchi yo‘li ana shu fakt va argumentlarning noto‘g‘ri ekanligini yoki targ‘ib qilinayotgan g‘oyaga dahldor emasligini ochib berishdan iborat. Shu sababli muqobil g‘oyani asoslash uchun ilgari surilgan fakt va argumentlarni rad etish masalasi har qanday mafkuraviy targ‘ibotning muhim vazifalari turkumiga kiradi;

d) kishilarni umumjamiyat va millat ehtiyoj va manfaatlariga mos tushmaydigan muddaoga intilishdan qaytarish. Muqobil g‘oya targ‘ib etilayotgan ekan – muqobil maqsad va muddaolar, ehtiyoj va manfaatlar ham mavjud. Bu maqsad-muddaolar, manfaatlar umumjamiyat va millat manfaatlari bilan uyg‘un bo‘lsa boshqa gap. Biroq mazkur maqsad g‘ayriinsoniy pozitsiyaga tayansa, uni yoqlovchi g‘oyani e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Mafkuraviy targ‘ibot tashkilotchisining muhim vazifalaridan biri ana shunday maqsad-muddaolarni o‘z vaqtida aniqlash, uning asossiz ekanligini isbotlab berish va kishilarning ushbu maqsadlarga intilishlarini susaytiruvchi yo‘llarni izlab topishdan iborat.

Mafkuraviy targ‘ibotning boshqa vazifalari ham mavjud bo‘lishi mumkin, albatta. Erishilishi zarur bo‘lgan maqsad, yuzaga kelgan ijtimoiy vaziyat, mavjud moddiy-iqtisodiy va ma’naviy-madaniy imkoniyatlar vazifalar turkumiga ham o‘zgartirish va to‘ldirishlar kiritishni talab etadi. Masalan, bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan mafkuraviy targ‘ibot sistemasi oldiga yuqoridagi kabi vazifalar qatorida “xalqaro va mamlakat ichida yuz berayotgan ijtimoiy hayotning barcha sohalaridagi ilg‘or tendensiya va voqealarni muntazam ravishda tahlil etish, jamiyat taraqqiyotidagi dolzarb muammolar yechimini topish, taraqqiyot kafolatlarini belgilovchi takliflarni tarqatish” [7] vazifasi ham qo‘yilgan. Biroq, bundan qat’iy nazar, har qanday mafkuraviy targ‘ibot sistemasining asosiy vazifalari yuqorida tilga olingan yo‘nalishlarga mutanosib bo‘ladi.

Mafkuraviy targ‘ibot sistemasi murakkab tarkibga ega bo‘lgan qudratli kuchdir. Biroq shuni ham ta’kidlab o‘tish zarurki, mafkuraviy targ‘ibotning barcha mamlakatlar uchun umumiy bo‘lgan yagona tarkibi bo‘lishi mumkin emas. Chunki ushbu sistema targ‘ibotni amalga oshirayotgan sub’ektning asl manfaatlari, targ‘ibot maqsad-muddaolari, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlar, targ‘ibot sub’ekti ixtiyorida bo‘lgan resurslarga mutanosib ravishda turli mamlakatda turlicha bo‘lishi, ayricha xarakter va sur’atda kechishi mumkin. Shu boisdan jahondagi mafkuraviy targ‘ibot sistemalarini ma’lum standart yordamida ifodalab berishga intilish nazariy-metodologik jihatdan unchalik to‘g‘ri emas. Lekin har qanday sharoitda mafkuraviy targ‘ibot sistemasiga xos bo‘lgan umumiy elementlar turkumi mavjud bo‘ladi, unga asoslanib mafkuraviy targ‘ibotning taxminiy tarkibini bayon qilish mumkin. Bizning fikrimizcha, bunday tarkib mafkuraviy targ‘ibot sub’ekti, mazmuni va shakllari, uslublari va usullari, omillari va vositalarini o‘z ichiga oladi.

Mafkuraviy targ‘ibot sistemasi tarkibini aniqlash masalasi shunchaki nazariy-gnoseologik ahamiyatga molik masala emas. U yoki bu g‘oyani

jamoatchilikka yetkazishni yoxud kishilar ongini biror bir g‘ayriinsoniy mafkuradan himoyalash maqsadida ekanmiz, mafkuraviy targ‘ibot sistemasi samarasini oshirish vazifasini kun tartibiga qo‘yishga majbur bo‘lamiz. Ushbu vazifaning bajarilishi uning tarkibini aniqlashdan boshlanadi. Bunday metodologik yondashuv mafkuraviy targ‘ibot sistemasi elementlari xususiyatini ifodalash, ularga taalluqli muammolarni ilg‘ab olishda qo‘l keladi.

Mafkuraviy targ‘ibot tarkibida uning sub’ekti alohida e’tiborga loyiq. Chunki har qanday mafkuraviy targ‘ibot uni amalga oshirayotgan va samarasidan manfaatdor bo‘lgan davlat, guruh, partiya, etnik birlik va shu kabilarning maqsad-muddaolariga monand ravishda yo‘lga qo‘yiladi. Biroq jamiyatda mavjud bo‘lgan har qanday ijtimoiy guruh yoxud partiya ham mafkuraviy targ‘ibot sub’ektiga aylanavermaydi. Mafkuraviy targ‘ibot ishlarini yo‘lga qo‘yish uchun:

1. Sub’ekt o‘z manfaatlarini chuqur anglab yetgan bo‘lmog‘i lozim. Biz ta’kidlab o‘tganimizdek, har qanday mafkuraviy targ‘ibot u yoki bu manfaatga mos ravishda amalga oshiriladi. Ijtimoiy guruh, partiya, davlat, etnik birlik o‘z manfaatlarini anglab yetmagan, uni ma’lum mafkura shaklida ifodalamagan bo‘lsa, nimani targ‘ib qilish lozimligi ham noma’lumligicha qolaveradi.

2. Sub’ekt o‘z manfaatlariga mos bo‘lgan maqsadni ifodalab olmog‘i kerak. Biror maqsadga xizmat qilmaydigan mafkuraviy targ‘ibot bo‘lishi mumkin emas. Maqsadsiz mafkuraviy targ‘ibot tushunarsiz va besamar sa’y-harakatlar yig‘indisiga aylanib qoladi. Maqsad ifodalangani zahoti jamoatchilik fikrini nima uchun o‘zgartirish zarurligi aniq bo‘ladi-qoladi.

3. Sub’ekt o‘z maqsadiga erishish imkonini beradigan jamoatchilik fikri va hayotiy pozitsiya mazmuni va shakli haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmog‘i darkor. Jamiyatdagi qanday mazmun va shakldagi jamoatchilik fikri va fuqarolarning hayotiy pozitsiyasi belgilangan maqsadga erishish imkonini yaratadi? Har qanday sub’ekt mafkuraviy targ‘ibotni amalga oshirishdan avval ushbu savolga javob bermog‘i lozim.

4. Sub’ekt mafkuraviy targ‘ibotni amalga oshirish imkonini beradigan resurs va mexanizmga ega bo‘lmog‘i kerak. Mafkuraviy targ‘ibot sub’ekt uchun ijtimoiy ahamiyatli bo‘lgan masalani hal qilishga zamin yaratadigan, uzoq muddat va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bunday jarayonni ma’lum moddiy va moliyaviy resurslarsiz, mafkuraviy faoliyatni amalga oshirish imkonini beradigan o‘zaro aloqador elementlar majmuisiz amalga oshirib bo‘lmaydi.

Mafkuraviy targ‘ibotni amalga oshirish imkonini beradigan resurs va mexanizm haqida gap ketganda targ‘ibotchi shaxsini alohida e’tirof etib o‘tish kerak. Chunki mafkuraviy targ‘ibot sub’ekti o‘ziga maqbul fikr yoxud g‘oyani jamoatchilikka targ‘ibotchi orqali yetkazadi. Shu boisdan targ‘ibotchi shaxsi mafkuraviy targ‘ibot sistemasining muhim tarkibiy elementlaridan biri sanaladi. Biroq jamoatchilik fikrini o‘zi mansub bo‘lgan sub’ekt maqsad-muddaolariga mos ravishda o‘zgartirishga qodir targ‘ibotchini shakllantirish uchun qator kognitiv, praksiologik va aksiologik masalalarga e’tibor bermoq kerak.

Kognitiv masalalar turkumiga eng avvalo targ‘ibotchining jamiyat, uning mafkuraviy sohasi, shaxs mafkuraviy qiyofasi, ma’naviyatning taraqqiy etish qonuniyatlari, shaxs mafkuraviy qiyofasiga ta’sir etish texnologiyalari va shu

kabilarga doir bilimlari darajasini oshirish vazifasi kiradi. Bunday bilimlar bilan qurollangan targ‘ibotchi jamoatchilik fikrini o‘zgartirishga qodir qudratli kuchga aylanadi. Aksincha, targ‘ibotchi mazkur bilimlardan voqif emas ekan, uning targ‘ibot ob’ektiga ta’siri past bo‘ladi.

Praksiologik masalalar deganda targ‘ibotchining tashqi qiyofasi va faoliyati bilan bog‘liq ayrim jihatlarni nazarda tutmoqdamiz. Masalan, ma’naviy targ‘ibot bilan shug‘ullanuvchi shaxsning qiyofasi, ko‘rinishi, qaddi-qomati, ovozi va shu kabilar ham targ‘ibot samarasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Auditoriya bilan bevosita ishlashda esa targ‘ibotchining notiqlik san’ati ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan ham jamoatchilikni o‘z g‘oyasi, maqsad-muddaosi sari safarbar qilishni niyat qilgan tarixiy shaxslar o‘z tashqi ko‘rinishlari, notiqlik qobiliyatlariga alohida e’tibor berganlar.

Aksiologik masalalarning ahamiyati ham bundan kam emas. Ma’naviyat targ‘ibotchisi obro‘-e’tiborga, nufuzga ega bo‘lmog‘i, uning imiji toza bo‘lmog‘i zarur. Eng muhimi, targ‘ibotchi o‘zi targ‘ib qilayotgan g‘oyaga o‘zi ishonmog‘i va amal qilmog‘i darkor. Shu boisdan jahondagi ko‘plab ijtimoiy guruhlar o‘z g‘oya va mafkuralari targ‘ibotini ana shunday mezonlarga javob beradigan shaxslarga ishonib topshiradilar.

Mafkuraviy targ‘ibot tarkibining yana bir muhim elementi targ‘ibot mazmuni bilan bog‘liq. Mafkuraviy targ‘ibot mazmuni tezis, uni asoslash uchun keltirilgan faktlar majmui, biror harakatga undovchi chaqiriqni o‘zida mujassam qiladi.

Targ‘ibot mazmunini ifodalovchi asosiy element bo‘lgan tezis targ‘ibot sub’ektining manfaat va maqsad-muddaolariga mutanosib ravishda shakllantirilgan fikr, g‘oya yoki ma’lumotdan tarkib topadi. Odatda har qanday tezis targ‘ibot sub’ekti maqsadlariga xizmat qiladi, lekin targ‘ibot ob’ektining ehtiyoj va manfaatlariga xizmat qiluvchi fikr tarzida bayon qilinadi. Misol tariqasida Fors ko‘rfazidagi birinchi urush davomida AQSh armiyasi tomonidan Iroq harbiylari orasida tarqatilgan varaqani olaylik. “Biz,- deyiladi varaqada,- ikki kun mobaynida 10-piyoda askarlar diviziyasi ustiga bombalar tashlash niyatimiz borligi haqida sizlarni ogohlantirdik. Biz o‘z so‘zimizda turdik va kecha bombalar tashlashni boshladik. Shunday qilib, siz uchun ikki yo‘l bor: yoki o‘lim bilan yuzlashasiz, yoki birlashgan harbiy kuchlar taklifini qabul qilib, hayotingizni saqlab qolasiz” [8]. Tezis Iroq harbiylarining hamiyatiga tegmaydigan shaklda ifodalangan, ya’ni asirga tushish emas, birlashgan harbiy kuchlar taklifini qabul qilib, hayotni saqlab qolish taklif etilgan. Yuzaki qaraganda, u targ‘ibot ob’ektining (iroqliklarning) ehtiyoj va manfaatlariga xizmat qiluvchi fikrdek ko‘rinadi. Aslida esa tezis AQSh manfaatlariga mos ravishda bayon etilgan: iroqliklar qarshilik ko‘rsatishni to‘xtatsalar, amerikaliklarning urush uchun ketadigan moliyaviy xarajatlari tejab qolinadi, ortiqcha qurbonlarning oldi olinadi.

Har qanday mafkuraviy targ‘ibotda ilgari surilgan tezisni asoslab beruvchi fakt va argumentlar muhim rol o‘ynaydi. Mafkuraviy targ‘ibotda mazkur fakt va argumentlar eng avvalo haqqoniy, ilmiy asoslangan bo‘lishi shart. Aks holda qo‘yilgan gumanistik maqsadlarga erishib bo‘lmaydi. Destruktiv targ‘ibot davomida qo‘llaniladigan fakt yoxud argument esa biror bir maxsus qadr-

qimmatga ega bo‘lmagan ma’lumotdir. U targ‘ibotchi uchun “qurilish materiali” vazifasini o‘taydi, xolos. Malakali targ‘ibotchi oddiy faktni o‘z manfaatlariga muvofiq tarzda talqin qilish bilan maqsadiga erishadi. Pol Laynbarjer o‘zining “Psixologik urush: ommaviy ongga ta’sir ko‘rsatish nazariyasi va amaliyoti” nomli monografiyasida bir faktni turlicha talqin qilishning yorqin misolini keltiradi. “Misol uchun,- deb yozadi u,- quyidagi ta’kidni olaylik: “O‘tgan hafta Shimoliy Karolinaning Grinsboro shahrida yashovchi amerikalik qoratanli ishchi o‘zining bir kunlik mashaqqatli mehnati uchun sakson sent oldi.” [9]Olim bu ta’kidni to‘rt turli usulda talqin qilish mumkinligini e’tirof etadi:

1.Faktni oddiy xabar sifatida talqin qilish mumkin. Buning uchun xabar ortidan ishchi bu pulga o‘z tarantuliga yemish olgani aytilsa kifoya.

2. Faktni antikapitalistik mazmunda talqin qilish mumkin. Buning uchun amerikalik tadbirkorlar o‘z ishchilariga arzimas haq to‘lashayotganini qo‘shimcha qilish kerak bo‘ladi.

3. Faktni kapitalizmni targ‘ib etish maqsadida talqin qilish mumkin. Buning uchun Rigada sakson sentga ancha-muncha xalq xo‘jaligi mahsulotlari xarid qilish mumkinligini, bu mahsulotlarga Latviyalik ishchining ikki xaftalik maoshi ham yetmasligini ta’kidlash lozim.

4. Faktdan oq tanlilarga qarshi targ‘ibot davomida ham foydalansa bo‘ladi. Buning uchun ishchi qora tanli bo‘lgani tufayli shunday arzimas haq olganini aytish yetarli.

Ko‘rinib turibdiki, fakt va argument, ayniqsa uning talqini ma’naviy targ‘ibot samarasini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mafkuraviy targ‘ibot u yoki bu hatti-harakatga, ijtimoiy pozitsiyani qabul qilishga undovchi chaqiriq bilan intiho topishi ham mumkin. Bunday chaqiriqlar odatda yoki oddiyligi bilan e’tiborni tortuvchi mulohaza shaklida, yoki xotirada saqlanib qoladigan yorqin shior tarzida ilgari suriladi. Shior ob’ektdan qanday hatti-harakat kutilayotganini aniq belgilab beradi. Boz ustiga, bu hatti-harakat go‘yoki targ‘ib etilayotgan kishilarning asl manfaatlariga mos tushishi ta’kidlanadi.

Mafkuraviy targ‘ibot shakli ham turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Mutaxassislar mafkuraviy targ‘ibot shakllarini uning ma’lum maqsadga yo‘nalganligi, axborot manbalarining turi, amalga oshirilishi tarziga qarab tasniflaydilar [10].Bunday yondashuv mafkuraviy targ‘ibot shakllarini turli rakurslarda tahlil qilish imkonini beradi.

Maqsadga yo‘nalganligiga qarab, mafkuraviy targ‘ibotni quyidagi shakllarga bo‘lish mumkin:

1. Bunyodkorlik targ‘iboti. Mafkuraviy targ‘ibotning bu shakli jamiyatdagi barqarorlikni asrash, ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlash, fuqarolarni jamiyatning olijanob maqsadlari sari safarbar qilishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

2. Vatanparvarlik targ‘iboti. Mafkuraviy targ‘ibotning bu shakli “ona diyorga mehr-muhabbat, ozod va obod Vatan barpo etishdek ulug‘ va olijanob maqsadga e’tiqodni” [11] shakllantirishga yo‘naltiriladi.

3. Qahramonlik va jasorat targ‘iboti. Mafkuraviy targ‘ibotning bu shakli yangi jamiyat barpo etish davomida yuzaga keladigan vaqtinchalik qiyinchiliklarga

sabr-toqat qilishga chaqiradi, ayrim kishilarning jasoratini namoyish qilish asosida ommaviy qahramonlikni targ‘ib etadi.

4. Ma’rifat targ‘iboti. Mafkuraviy targ‘ibotning bu shakli aholiga jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy-madaniy hayoti, siyosiy yetakchilar, hukumat va partiyalar faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarni yetkazishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Mafkuraviy targ‘ibot ishlarini tashkil etayotganda nafaqat uning turli shakllarini, balki destruktiv targ‘ibot shakllarini ham nazarda tutmoq zarur, aks holda mafkuraviy targ‘ibot samarasiga putur yetadi. Destruktiv targ‘ibot quyidagi shakllarga ega bo‘ladi:

1. Vayronkorlikka yo‘naltirilgan targ‘ibot. Destruktiv targ‘ibotning bu shakli dushman deb topilgan mamlakat aholisiga qarshi qaratilgan bo‘lib, uning qadriyatlari sistemasining notavonligini, qahramonlarining yolg‘ondakamligini asoslab berishga intiladi.

2. Ayirmachilik targ‘iboti. Destruktiv targ‘ibotning bu shakli millatlararo, dinlararo, ijtimoiy guruhlararo nizolarni keltirib chiqarishga qaratilgan bo‘ladi.

3. Qo‘rquv uyg‘otishga qaratilgan targ‘ibot. Destruktiv targ‘ibotning bu shakli dushman deb topilgan mamlakat rahbariyati va aholisini o‘zining iqtisodiy, siyosiy qudrati bilan qo‘rqitishni maqsad qilib qo‘yadi.

4. Umidsizlikka tushirish maqsadidagi targ‘ibot. Destruktiv targ‘ibotning bu shakli raqib mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga e’tiborni qaratadi, mamlakat hukumatini ushbu muammolarni hal qilishga qodir emas kuch sifatida namoyish qiladi, shu yo‘sinda aholini umidsizlikka tushiradi.

Axborot manbalarining turiga qarab mafkuraviy targ‘ibotni oq va kulrang targ‘ibotga bo‘lish mumkin. Oq mafkuraviy targ‘ibot asl maqsadlarini yashirmaydi. U odatda rasmiy manbalarga asoslangan bo‘ladi va ochiq, isbotlangan ma’lumotlarga tayanadi. Kulrang mafkuraviy targ‘ibot hamisha ham axborot manbalarini ko‘rsatavermaydi, tekshirilgan va tekshirilmagan ma’lumotlardan birdek foydalanaveradi. Destruktiv targ‘ibot esa aksariyat hollarda qora targ‘ibot shakliga ham murojaat etib turadi. Qora targ‘ibot ommaviy ongni aldashni maqsad qilib qo‘yadi. Bunday targ‘ibot o‘z axborot manbalarini hech qachon oshkor qilmaydi. Buning ustiga, u ayrim hollarda aholini o‘z xulosalariga og‘dirish uchun faktlarni buzib ko‘rsatishga ham intiladi.

Amalga oshirilishi tarziga qarab mafkuraviy targ‘ibot vizual, media va virtual shakllarga bo‘linadi. Mafkuraviy targ‘ibotni amalga oshirish shakli uning mazmuni, yetkazilishi zarur bo‘lgan g‘oya, ta’sir ob’ektining xarakteriga mutanosib ravishda tanlanadi. Aytaylik, u yoki bu g‘oyani ommaviy ta’sir ko‘rsatish yo‘li bilan tarqatish kifoya qilgan holatda vizual targ‘ibotdan foydalanish mumkin. G‘oyaning turli jihatlarini tahlil qilib berish, tushuntirish zaruriyati ustuvor bo‘lgan holatda media targ‘ibot shakli ahamiyatliroq bo‘ladi. Nihoyat, aholi tarqoq holda istiqomat qiladigan hududlarda virtual targ‘ibot orqali ta’sir o‘tkaziladi. Albatta, mafkuraviy targ‘ibotni amalga oshirishning boshqa shakllari ham mavjud, biroq ular biz tilga olgan shakllarning turli ko‘rinishlaridan iborat, xolos.

Mafkuraviy targ‘ibot turli uslublarda amalga oshiriladi. Uslub shaxs, ijtimoiy guruh, xalq ongiga ta’sir ko‘rsatishning o‘ziga xos quroli, instrumentidir. Mafkuraviy targ‘ibotning samarasi ko‘p jihatdan aynan ana shu uslubning to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq. Bugungi kundagi zamonaviy targ‘ibot sistemalari son-sanoqsiz uslublarni ishlab chiqqanlar. Ular orasida ayniqsa tushuntirish, ishontirish, namoyish qilish, tanqid qilish kabi uslublar alohida o‘rin tutadi. Ularning barchasi konstruktiv yoki destruktiv targ‘ibotning ko‘plab shakllarida keng qo‘llanib kelinmoqda. Biroq mafkuraviy targ‘ibot metodologiyasidan voqif malakali targ‘ibotchigina ular orasidan eng samaralilarini tanlay oladi. Uslublarni maqsadga muvofiq tanlash uchun quyidagilarga e’tiborni qaratish zarur:

1. Uslub mafkuraviy targ‘ibotning asl maqsadlariga muvofiq holda tanlanmog‘i darkor. Chunki bir maqsadni ro‘yobga chiqarishda samara bergan uslub boshqa maqsad yo‘lida ish bermasligi ham mumkin. Shu boisdan mafkuraviy targ‘ibot ishlarini yo‘lga qo‘yishdan avval maqsad bilan uslub orasidagi aloqadorlik darajasi aniqlanmog‘i kerak.

2. Uslub mafkuraviy targ‘ibotning vazifalariga mutanosib bo‘lmog‘i kerak. Chunki bir vazifani bajarishda qo‘llangan uslubdan boshqa vazifani ro‘yobga chiqarish uchun foydalanib bo‘lmaydi. Masalan, muayyan g‘oyani jamoatchilik ongiga singdirish niyatida qo‘llangan uslub kishilarni biror maqsad yo‘lida faollashtirishda samara bermaydi.

3. Uslub mafkuraviy targ‘ibotning mazmuni bilan uyg‘un bo‘lmog‘i shart. Targ‘ib etilayotgan g‘oya, yetkazilayotgan faktga mos bo‘lmagan uslubni tanlash bema’nilikdan boshqa narsa emas. Ma’naviyat targ‘ibotchisi eng avvalo o‘zi yetkazmoqchi bo‘lgan g‘oyani puxta o‘zlashtirmog‘i, ixtiyorida bo‘lgan faktlarni chuqur tahlil qilmog‘i, shundan keyingina bu faktlarni kishilarga yetkazishning eng samarali uslublarini aniqlamog‘i lozim.

4. Uslub mafkuraviy targ‘ibot shaklidan kelib chiqib tanlanishi lozim. Aytaylik, bunyodkorlik targ‘ibotida qo‘l keladigan uslublardan ma’rifat targ‘iboti jarayonida foydalanib bo‘lmaydi. Chunki bir holatda qadriyatlarni targ‘ib qilishga e’tibor qaratilayapti, ikkinchi holatda esa ma’lum ma’lumotni aholiga yetkazishga intilinmoqda. Binobarin, “mafkuraviy targ‘ibot shakli-mafkuraviy targ‘ibot uslubi” kontekstidagi aloqadorlik ham alohida ahamiyatga ega.

5. Uslub mafkuraviy targ‘ibotchining kognitiv, praksiologik va aksiologik xususiyatlariga mos bo‘lishi kerak. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, tanlanadigan uslub mafkuraviy targ‘ibotchining dunyoqarashi, intellektual imkoniyatlari, e’tiqodi, shaxsiy fazilatlari, qadriyatlari sistemasiga mos tushmog‘i zarur. Aholi ehtiroslariga ta’sir ko‘rsatishga qodir targ‘ibotchi analitik yondashuvni taqazo qiladigan uslubdan, analitik qobiliyatga ega targ‘ibotchi esa auditoriya ehtiroslariga ta’sir o‘tkazish imkonini beradigan uslubdan foydalana olmasligi mumkin.

6. Uslub mafkuraviy targ‘ibotsub’ektiningmoliyaviy va moddiy-texnika resurslariga monand tanlanmog‘i lozim. Har qanday mafkuraviy targ‘ibot uslubi realizatsiyasi ma’lum moliyaviy va moddiy imkoniyatlar mavjud bo‘lishini, turli resurslar bilan ta’minlanishni taqazo qiladi. Uslub qanchalik samarali bo‘lmasin, qanchalik nufuzli markazlar tomonidan ishlab chiqilmasin, mafkuraviy targ‘ibot

sub’ektida undan foydalanish imkonini beradigan resurslar bo‘lmasa, maqsadga erishib bo‘lmaydi.

7. Uslub mafkuraviy targ‘ibot ob’ektining o‘ziga xos xususiyatlariga javob bermog‘i kerak. Masalan, bir milliy mentalitetga mo‘ljallangan uslublar boshqa milliy birlikka nisbatan besamar bo‘lishi mumkin. Masalaning boshqa rakurslari ham bor. Jumladan, targ‘ibot ob’ekti sifatida fermer xo‘jaligi xodimlari tanlangan bo‘lsa, ularga nisbatan yoshlarga mo‘ljallangan mafkuraviy targ‘ibot uslublarini qo‘llab bo‘lmaydi. Aholi zich yashaydigan hududlarda mafkuraviy targ‘ibotning bir turdagi uslublari, kishilar tarqoq yashaydigan manzillarda esa uning boshqa turdagi uslublari ish beradi.

Mafkuraviy targ‘ibot usullari ham e’tiborga loyiq jihat. Ular mafkuraviy targ‘ibot ishlarining yo‘nalishini belgilab beradi. Zamonaviy targ‘ibot texnologiyalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bugungi kunda targ‘ibotning sanoqsiz usullari kashf etilganiga, ular turli targ‘ibot sub’ektlari tomonidan samarali qo‘llab kelinayotganiga amin bo‘lamiz. Ularni biror bir tarzda tasniflashning o‘zi jiddiy muammo tug‘diradi. Biroq, bizning fikrimizcha, mazkur usullarni targ‘ibot ob’ektiga ta’siri ko‘lamiga qarab tasniflash imkoni bor. Masalaning mohiyatiga shunday yondashadigan bo‘lsak, mafkuraviy targ‘ibot usullari ommaviy ta’sir usullari, jamoaviy ta’sir usullari va individual ta’sir usullariga bo‘linishiga ishonch hosil qilamiz.

Ommaviy ta’sir usullari mafkuraviy targ‘ibot ishlari bilan butun jamiyatni qamrab olish imkonini beradi. Bunda umumjamiyat ehtiyojlari va manfaatlariga diqqat qaratiladi, ijtimoiy guruhlar yoxud shaxsning individual xususiyatlari esa e’tibordan chetda qoldiriladi. Ommaviy ta’sir usullarining ijobiy jihati shundaki, ular yordamida muayyan g‘oya, fikr, argumentni qisqa muddatda katta auditoriyaga yetkazish, mafkuraviy targ‘ibot bilan mumkin qadar kattaroq auditoriyaga ta’sir ko‘rsatishga zamin yaratiladi. Shu boisdan ham keyingi yillarda mutaxassislar tomonidan yangi ommaviy ta’sir usullarini ishlab chiqish, ularning samarasini oshirish masalalariga jiddiy e’tibor berilmoqda.

Ayni paytda ommaviy ta’sir usullarining zaif jihatlari ham mavjud. Birinchidan, ushbu usullar targ‘ib etilayotgan g‘oyani targ‘ibot ob’ektidan sub’ektiga translyatsiya qilish imkonini beradi, xolos. Uni kishilarning, turli guruhlarning xususiyatlariga moslashtirib tushuntirib berish imkoni qolmaydi. Ikkinchidan, ommaviy mafkuraviy targ‘ibotda teskari aloqa nihoyatda sekin amalga oshadi, shu sababdan ham uning o‘z maqsadiga erishgani yoki erishmaganini aniqlash qiyin kechadi. Shunga qaramasdan, ommaviy kommunikatsiya vositalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda ommaviy ta’sir usullari mafkuraviy targ‘ibotning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi.

Jamoaviy ta’sir usullarining ahamiyati ham kam emas.Ular aholining turli qatlamlariga alohida-alohida ta’sir o‘tkazish uchun zamin yaratadi. Jamoaviy ta’sir usullari mafkuraviy targ‘ibotni turli ijtimoiy guruhlarning manfaatlari, xususiyatlariga mutanosib ravishda tasniflagan holda yo‘lga qo‘yish imkonini beradi. Jamoaviy ta’sir davomida targ‘ib etilayotgan g‘oyaning jamoa manfaatlari va maqsad-muddaolariga mosligini isbotlab berish, jamoa a’zolari uchun maqbul

bo‘lgan fakt va argumentlardan foydalanish, mafkuraviy targ‘ibotni auditoriya uchun tushunarli tilda amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Ushbu ta’sir usullarining ham zaif jihatlari mavjud. Birinchidan, jamoaviy ta’sir shaxsning individual xususiyatlarini e’tibordan chetda qoldiradi. Ikkinchidan esa, jamoaviy targ‘ibot usullari nisbatan ko‘proq moliyaviy va moddiy-texnika resurslari talab qiladi. Lekin, zaif jihatlaridan qat’iy nazar, jamoaviy ta’sir usullari mafkuraviy targ‘ibot davomida eng ko‘p qo‘llaniladigan usullar sifatida qolmoqda.

Mafkuraviy targ‘ibot usullarining yana bir guruhi individual ta’sir usullarini tashkil qiladi. Bu usullar mafkuraviy targ‘ibotning aniq adresliligini ta’minlash, aniq bir shaxsga murojaat qilish, muayyan g‘oyani aynan shu shaxsning hayotiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi g‘oya sifatida asoslab berish imkonini beradi. Individual ta’sir usullari eng ta’sirchan usullar turkumiga kiradi. Shu boisdan ham u turli davrlarda turli siyosiy kuchlar tomonidan suhbatlar o‘tkazish, har bir fuqaro uyiga tashrif buyurish, kishilarga qo‘ng‘iroq qilish, personal xatlar jo‘natish orqali muvaffaqiyatli qo‘llanib kelingan. Bugungi kunda ham individual ta’sir usullari jamiyat va davlat bilan shaxs manfaatlari o‘rtasida ko‘prik, o‘ziga xos aloqa kanali vazifasini o‘tashga qodir. Binobarin, mafkuraviy targ‘ibot ishlarini yo‘lga qo‘yayotganda mazkur usullar turkumini ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi.

Mafkuraviy targ‘ibot jarayoni o‘z omillariga– unga va uning asosiy natijalariga ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan shart-sharoitlar, sabablar, parametrlar va ko‘rsatkichlarga ega. Mazkur omillarni ob’ektiv va sub’ektiv omillarga bo‘lish mumkin. Ob’ektiv omillar turkumiga quyidagilar kiradi:

iqtisodiy omillar (iqtisodiy ishlab chiqarish xarakteri va darajasi, iqtisodiy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari, jamiyatda moddiy boyliklarning taqsimlanishi va shu kabilar);

ijtimoiy omillar (ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar,fuqarolarning turmush darajasi va tarzi, mehnat qilish, ta’lim olish va sog‘liqni saqlash uchun yaratilgan imkoniyatlar, ishsizlik darajasi, fuqarolik jamiyati institutlarining qaror topganligi, ijtimoiy muammolarni aniqlash va bartaraf etish mexanizmlarining shakllanganligi va shu kabilar);

siyosiy omillar (davlat va hokimiyat xarakteri, siyosiy boshqaruv xarakteri, siyosiy institutlarning shakllanganligi darajasi, inson erkinliklari va haq-huquqlarining ta’minlanganligi va shu kabilar);

ma’naviy-madaniy omillar (jamiyatda falsafa, ilm-fan, din, san’at, ahloq va shu kabilarning rivojlanganligi darajasi).

Bu omillar, bir tomondan, mafkuraviy targ‘ibot samarasini belgilab beradi. Masalan, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan jamiyatda mafkuraviy targ‘ibot sistemasi imkoniyatlari ham salmoqli bo‘ladi. Va, aksincha, turmush darajasi past bo‘lgan, kishilar oddiy maishiy muammolarini ham mashaqqat bilan hal qiladigan, ijtimoiy adolat normalarining buzilishi odatiy holga aylangan jamiyatda mafkuraviy targ‘ibot besamar bo‘ladi. Ikkinchi tomondan esa, ushbu omillarning o‘zi targ‘ibot manbai vazifasini o‘taydi. Chunonchi, yuqori sur’atdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, yuqori turmush darajasining o‘zi bunyodkorlikka, ezgulikka va vatanparvarlikka undab turishi mumkin.

Mafkuraviy targ‘ibotning sub’ektiv omillari turkumiga esa quyidagilar kiradi:

mafkuraviy targ‘ibot sistemasining shakllanganligi darajasi–jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan naqadar rivojlangan bo‘lmasin, unda maqsadga muvofiq faoliyat ko‘rsatishga qodir mafkuraviy targ‘ibot sistemasi shakllantirilmagan, uning elementlari orasidagi uzviylik ta’minlanmagan bo‘lsa, jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatish va fuqarolarning maqbul hayotiy pozitsiyasini qaror toptirish vazifasi imkonsiz yumushligicha qolaveradi;

targ‘ibot ob’ektining mafkuraviy-ruhiy xususiyatlari – mafkuraviy targ‘ibot milliy mentalitet, milliy an’analar, ijtimoiy psixologiya, jamiyat a’zolarining ehtiyoj va manfaatlari, orzu-umidlariga mutanosib ravishda tashkil qilinmog‘i lozim. Ushbu xususiyatlardan ayri holda amalga oshirilgan mafkuraviy targ‘ibotning samara berishi mushkul.

Mafkuraviy targ‘ibot tarkibining so‘nggi elementi uning vositalari bilan bog‘liq. Targ‘ibot vositalari deganda ma’lum bir fikr yoki g‘oyani tarqatish, jamaoatchilik ongiga ta’sir o‘tkazish imkonini beradigan turli vositalar nazarda tutiladi. Mutaxassislar orasida yagona yondashuv bo‘lmagani bois mafkuraviy targ‘ibot vositalari turlicha tasniflanadi [12, 13]. Biz ularni quyidagi guruhlarga birlashtirdik:

vizual targ‘ibot vositalariga (targ‘ibot sub’ekti bilan ob’ekti o‘rtasidagi muloqot davomida qo‘llaniladigan vositalar) suhbat, ma’ruza, konsultatsiya, konferensiya va shu kabilar kiradi. Ushbu vositalar mafkuraviy targ‘ibotning samarasini zudlik bilan aniqlash, teskari aloqani tez o‘rnatish imkonini beradi. Shu sababdan ham mafkuraviy targ‘ibot ishlarida vizual vositalarga muntazam murojaat etib kelinadi;

ommaviy targ‘ibot vositalariga (keng qamrovli mafkuraviy targ‘ibot ishlarini amalga oshirishda qo‘llaniladigan vositalar) maqolalar, ko‘rsatuvlar, eshittirishlar, plakatlar, risolalar va shu kabilar kiradi. Mazkur vositalar doim targ‘ibot sub’ektining ixtiyorida bo‘lganligi bois ulardan qayta-qayta foydalansa bo‘ladi;

virtual targ‘ibot vositalariga (virtual rejimda amalga oshiriladigan mafkuraviy targ‘ibot ishlarida qo‘llaniladigan vositalar) Internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlar, elektron materiallar va shu kabilar kiradi. Axborot-kommunikatsiya vositalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda mazkur vositalarning ahamiyati nihoyatda oshmoqda. Jamoatchilik fikrining shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri ayniqsa katta bo‘lmoqda. Binobarin, mafkuraviy targ‘ibot ishlarini tashkil qilishda mazkur vositalardan kengroq foydalanish imkoniyatlarini izlamoq darkor;

san’at bilan bog‘liq vositalarga (targ‘ibot ob’ektining tuyg‘ulari va ehtiroslariga ta’sir ko‘rsatish maqsadida qo‘llaniladigan vositalar) badiiy adabiyot asarlari, sahna asarlari, filmlar, suratlar, eksponatlar va shu kabilar kiradi. Mazkur vositalar ayniqsa vatanparvarlik, qahramonlik, jasorat namunalarini namoyish qilish orqali mafkuraviy targ‘ibotni amalga oshirishda qo‘l keladi.

Mafkuraviy targ‘ibot sistemasi takomillashib borgani sayin uning yangi va yangi vositalari ham vujudga kelib boraveradi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, targ‘ibot ijtimoiy faoliyatning o‘ziga xos turi bo‘lib, uning asosiy maqsadi jamoatchilik fikri va hayotiy pozitsiyani shakllantirishdir. Mafkuraviy targ‘ibot esa uning konstruktiv jihatini qamrab oladi. U jamiyatdagi barqarorlik va hamjihatlikni shakllantirish, ijtimoiy garmoniyani mustahkamlash, kishilarda gumanistik e’tiqodni qaror toptirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlarni shakllantirish, ularni umume’tirof etilgan qadriyatlar atrofida birlashtirishga yo‘naltiriladi va qator ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalarni bajaradi. Mafkuraviy targ‘ibot murakkab tarkibga ega. Mazkur tarkib uning sub’ekti, mazmuni va shakli, uslublari va usullari, omillari va vositalarini o‘zida mujassam etadi.

Foydalangan adabiyotlarro‘yxati:

1.Mavrulov A., To‘raev Sh.,Daminov I. va b. Ma’naviyat targ‘ibotchisi.- T.: Sano-standart, 2016.- B.13.

2.Назаретян А.П. Агрессивная толпа, массовая паника, слухи. Лекции по социальной и полити-ческой психологии.- СПб.: Питер,2004.- С. 163.

3. Философия: Энциклопедический словарь./ под. ред. А.А. Ивина.- М.:Гардарики, 2004.- С.

4. Yazdanov U. O‘zbekistonda jamaoatchilik fikrini rivojlantirish masalalari.- T.: Nishon-noshir, 2015.- B.3.

5. Цуладзе А. Болшая манипулятивная игра.- М.:Алгоритм, 2000.- С. 100-101.

6.Quronov M., Jabborov X. Ёshlarda mafkuraviy immunitet shakllantirishning pedagogik-psixolo-gik treninglari.- T.: Muharrir nashriёti,2017.

7.Falsafa. Qomusiy lug‘at./ Q. Nazarov tahriri ostida.- T.:O‘zb.fayl.milliy jam. nashr., 2004.- B. 339.

8.Крыско В.Г. Секреты психологической войны (цели, задачи, методы, формы, опыт).- Минск: Харвест, 1999.- С.289 (таржима муаллифники).

9.Лайнбарджер П. Психологическая война. Теория и практика обработки массового сознания.- М.: Центрпо-лиграф, 2013.- С. 281.

10.Киселев М.В.Психологические аспекты пропаганды.// ҳттпс://псйфастор.орг.

11.Bo‘ronov M. O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy siёsatning tadrijiy rivojlanishi.- T.: Ma’naviяt, 2016.- B.100.

12. Mavrulov A., To‘raev Sh., Daminov I. va b. Ma’naviяt targ‘ibotchisi.- T.: Sano-standart, 2016;

13. Патрихина Т.Н., Шламова Д.А. Пропаганда: сущност научной дефиниции, подходы к классификации.// Молодой ученый, 2015, №4.- С. 305-308.

TEXNIK MUXARRIRLAR:

SAYDJANOV Farxod Madraximovich
Axborot-kommunikatsiyalari texnologiyalari va aloqa harbiy instituti, “Taktika, umumqo‘shin tayyorgarligi va gumanitar fanlar ” kafedrasi gumanitar fanlar sikli boshlig’i

TEMIROV Sirojiddin Shoymardon o‘g‘li
Axborot-kommunikatsiyalari texnologiyalari va aloqa harbiy instituti, “Taktika, umumqo‘shin tayyorgarligi va gumanitar fanlar ” kafedrasi o‘qituvchisi.

To‘plamga kiritilgan ma’lumot, kamchilik va xatolar uchun mualliflar ma’suldir!

Bosishga ruxsat etildi 14.03.2025. Bichimi 60x84 1/16
“Times New Roman” garniturasi. Ofset bosma usulda bosildi.
Nashr b.t. 14. Nusxasi: __

AKT va AHI Axborotlashtirish va multimedia markazida chop etildi.
Quyoshli a.y.p. Tel: 71 502 71 08, 33 701 40 07

Qaydlar uchun: (taklif va mulohazalar)